2026-yil, 30-yanvar 02(70)-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

ISSN 2021-9752

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802



Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining

585 yilligi



DOLZARB MAVZU

Namuna NAZAROVA,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Perfect-university Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti v.b.
nazarova@perfectuniversity.uz

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA NAVOIY SIYMOSINING AKS ETISHI

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada Hazrat Navoiyning Sirojiddin Sayyid ijodida tutgan o'rni haqidagi fikrlar aks ettirilgan. Shoir she'rlarida Navoiy obrazining namoyon bo'lishi, Hazrat asarlaridan, asar qahramonlaridan ta'sirlanish, ilhomlanish natijasida vujudga kelgan she'riy namunalar ilmiy manbalarga tayangan holda atroflicha tahlil qilingan. Tahlilga tortilgan she'rlarda uchraydigan badiiy san'atlarning asar mazmunining ochib berilishidagi o'rniga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, istiora, tashbeh, talmeh, tazod she'riy san'atlarining shoir mahorati bilan namoyon bo'lishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Navoiy, adabiyot, she'riyat, mumtoz adabiyot vakillari, badiiy san'atlar, istiora, tazod, talmeh, tashbeh, qiyoslash, poetik obraz, badiiy vazifa.*

Annotation: this scientific article reflects thoughts on the role of Hazrat Nawai in the work of Sirojiddin Sayyid. In the poems of the poet, the manifestation of the image of Navoi, the influence from the works of Hazrat, the heroes of the work, the poetic samples that arose as a result of inspiration were analyzed in detail, relying on scientific sources. Particular attention was also paid to the role of the Fine Arts found in the poems drawn into the analysis in revealing the content of the work. In particular, the manifestation of the poetic arts of istiora, tashbeh, talmeh, tazad with the skill of a poet has been analyzed.

Key words: *Navoi, literature, poetry, representatives of classical literature, fine arts, istiora, tazad, talmeh, tashbeh, analogy, poetic image, artistic task.*

Аннотация: в данной научной статье отражена роль хазрата Навои в творчестве Сирожиддина Сайида. Поэтические образцы, возникшие в результате проявления образа Навои в стихах поэта, впечатления, вдохновение от произведений хазрата, героев произведения, подробно проанализированы с опорой на научные источники. Особое внимание уделялось также месту художественных приемов, встречающихся в стихотворениях, подвергнутых анализу, в раскрытии содержания произведения. В частности, были проанализированы проявления поэтического искусства истиоры, аллюзий, талмеха, тазода с мастерством поэта.

Ключевые слова: *Навои, литература, поэзия, представители классической литературы, изобразительное искусство, история, тазод, талмех, аллюзия, сравнение, поэтический образ, художественная задача.*

Navoiy siymosi har vaqt ko'ngillarni hayratlantirib kelgan. Pirovardida ko'ngillarda hayrat uyg'otuvchi asarlar yaratilishiga ham turtki bo'la olgan. Shoir Sirojiddin Sayyid bir qator asarlarida Navoiy asarlariga, asar qahramonlariga, qolaversa, Navoiy shaxsiga ko'p bora murojaat qiladi. Ko'plab g'azallariga muxammaslar ham bog'lagan. "Borini anglatdi oxir...", "Tushdi endi o'zga ishq-u muddaolar boshima...", "Zulfing ochilib...", "Yaxshilar ichra vatan...", "Xol-u xating xayolidin", "Bizning shaydo ko'ngul", "Mohi muaddab, sarvi shakarlab", "Ko'zung ne balo", "Bir kichik yoshlig' nigor", "Chaman sarvi, mening sarvim", "Chunki ellik manzil o'tti...", "Har kunung o'lsun Navro'z ", "Dog'ini Majnun qonatmish...", "Junun vodiysig'a moyil..." kabi muxammaslar Navoiy asarlari ta'sirida yozilgan. Bundan tashqari, "Hayrat ul-abror" dostonidan ilhomlanib, Hazratning g'oyalari, mulohazalaridan, so'z qo'llash, obraz yaratish mahoratidan hayratlanib, zavqlanib "Xamsa" hayratlari" nomli ma'rifat dostonini yaratdi. Bundan tashqari, "Hazrat Navoiy", "Navoiy tug'ilgan kun", "Navoiyni o'qish", "Navoiyning bog'lari yoxud adabiyot darslarida", "Navoiyning g'azallari", "Navoiyning nabiralari" singari bir turkum she'rlarida ham Navoiy siymosi, hazratning ijodiyotidan hayratlanish, faxrlanish tuyg'ulari hamda ularni o'qishga va uqishga undov, xitoblar mujassamlashgan.

Nazarimizda, Navoiy siymosi ijod ahli uchun mayoq vazifasini o'tamoqda. Hatto, mumtoz adabiyot deyilganda ham birinchi navbatda, Navoiy asarlari va u yaratgan obrazlar xayolimizda jonlanadi. "Adabiyotshunoslikka kirish" kitobida E. Xudoyberdiyevning quyidagi fikrlari e'tiborga molik. "... uning vakillari antik adabiyotning eng nodir asarlarini o'zlari uchun klassik namunalar hisoblab, o'shalarga o'xshagan asar yozishga intilganlar....O'shandan beri Aristarx tomonidan turkumlarga taqsimlangan asarlar klassik(mumtoz), ya'ni boshqalar uchun o'rnak bo'la oladigan namunalar deb hisoblana boshlagan"[1,283]. Keltirilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, mumtoz adabiyot vakillari doimo barcha ijodkorlar uchun o'rnak hisoblanadi. O'zbek mumtoz adabiyot vakillari orasida esa Navoiy hazratlarining ijodiy olami, boy merosi alohida ajralib turadi.

"Hazrat Navoiy" deb nomlangan she'riy namuna avtopsixologik asarlar turkumiga mansub bo'lib, lirik qahramon va shoir ruhiyati bir nuqtada tutashgan.

Adabiyotshunos D. Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” risolasida quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan: “Avtopsixologik lirika deganda, lirik qahramon bilan shoir shaxsiyati mos tushgan, ikkalasi bir-biriga yaqin bo‘lgan she’rlar tushuniladi. Ya’ni, avtopsixologik she’rlarda shoir o‘z qalbiga murojaat qiladi, o‘z-o‘zini ifodalaydi” [2,197]. Shoir Sirojiddin Sayyid ham garchi lirik qahramon tilidan fikrlarni bayon qilsa-da, aslida bu fikrlar ijodkorning qalbidan otilib chiqqan qaynoq mehr, Hazrat siymosiga orzumandlik, hayrat tuyg‘ularini ham aks ettirib turadi.

Bu g‘azalda Navoiy siymosi bir necha obrazlar orqali namoyon bo‘ladi.

Agar oshiq erursan – lolazoringdir,
Agar Laylosan-u Majnun kerak bo‘lgay. [3, 470]

Bu baytda Navoiy o‘z asari qahramoni Majnun qiyofasida aks etmoqda. G‘azalning dastlabki misralaridanoq, kishilarning Navoiy dahosini o‘rganishga ehtiyojlari borligini e’tirof etib, nechog‘lik kerakligi darajasini isbotlash maqsadida talmeh san’ati qo‘llanilgan, ya’ni Majnunning tirikligi Layloning hayot ekanligiga bog‘liqligi nazarda tutilgan.

Agar ummon bilan suhbat quray dersan,
Agar o‘zni desang Jayhun – kerak bo‘lgay.

Ushbu misralarda istiora badiiy san’ati orqali Navoiy siymosi “ummon”, boshqa shoirlar esa “Jayhun” so‘zida o‘z aksini topgan. Hazratning ijodi har doim ummonga qiyoslangan. Mana shu fikr asosida Sirojiddin Sayyid Navoiyni ummon, boshqa ijodkorlarni esa “Jayhun” deya Amudaryoga, aniqrog‘i oddiy bir daryoga o‘xshashini ta’kidlaydi. Bu o‘rinda tazod san’ati ham o‘z o‘rniga ega. Ummon – Jayhun, ya’ni okean va daryo bir-biriga qarshilantirilmoqda. Bu fikrlar o‘z navbatida badiiy yuk tashiy olgan. Ummon – kenglikni, bepoyonlikni, hisobsizlikni ko‘rsatsa, Jayhun – Amudaryoning qadimgi nomlaridan biri bo‘lib, ummonga nisbatan tor, kichkinalik belgilariga ega. Bu ikki qarama-qarshi so‘zni bir nuqtada qo‘llagan shoir Navoiy hazratlarining yozganlari son-sanoqsiz, chuqur ma’noli, badiiylik ko‘lamining beqiyosligi bilan keyingi davr ijodkorlarining yozganlaridan ancha yuqori darajada turishini ifodalamoqchi bo‘ladi. Mana shuning uchun ham barcha el ardog‘idagi ustoz shoirlar ham Navoiy hazratlari ijodi oldida lol qolishini ta’kidlashadi.

Navoiy osmondur, osmoniydur,
U gardun ichra gardun – kerak bo‘lgay.

Bu o‘rinda esa Navoiy Hazratlari osmon hamda dunyo obrazlarida namoyon bo‘lmoqda. Osmon, dunyo – bu har ikkala so‘z zamirida ulkanlik, bepoyonlik, behisob kenglik, ulug‘vorlik, hayratlanish kabi fikrlar mujassamlashadi. Bu esa adabiyotda shu vaqtgacha yaratilgan barcha asarlar orasida ularning ijod namunalari alohida qiymatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Sening bu olaming fisq-u fasod birlan,
U bir olamdurur gulgun – kerak bo‘lgay.

Shoir Navoiy dahosining oddiy odamlarda uchraydigan qusurlardan holi ekanligini alohida ta’kidlash maqsadida “Sening bu olaming fisq-u fasod birlan” deb yoza turib, ijodkorlik fitrati bilan bu darajada barakali ijod qilish, ya’ni “ko‘p va xo‘p” yozish ruhan poklik bilan bog‘likligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Ikkinchi misrada gulgun so‘zi vositasida, hazrat ijodining rangbarang ekanligi aks ettirilmoqda.

Quyidagi misralarda esa Navoiy siymosi Vatan timsoli bilan bir nuqtada tutashadi va betakror poetik obrazni vujudga keltiradi:

Navoiyning Vatan yanglig‘ qiyosi yo‘q,
Vatan yanglig‘ senga har kun kerak bo‘lgay.

Bu o‘xshatishlar ham Navoiy dahosining buyukligini, ham Vatan tushunchasining ulug‘vorligini ortiqcha so‘z ishlatmasdan turib ham ifodalay olish imkonini yaratgan. [4,83]

Shoirning “Kelgusidir” radifli g‘azali oshiqona g‘azal hisoblanadi. Yorni turli chiroyli o‘xshatishlar bilan tavsiflayotgan shoir lirik qahramon tilidan quyidagilarni aytadi:

Menga Farhod ila Majnun – birodar,
Navoiydek ulug‘– pir kelgusidir. [3, 487]

Bu o‘rinda Navoiy hazratlarining barcha qalam ahli uchun ustozlik maqomida ekanligi qayd etilgan, Qolaversa, yor obrazini so‘z yordamida chizishda Hazrat Navoiyning mahoratlari alohida ta’kidlanmoqda. Sababi nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi asarlar betakror yaratilgan obrazlari orqali ham o‘z qiymatiga ega asarlar sifatida baholanmoqda. Bu o‘rinda lirik qahramonning, ya’ni oshiqning yor vasfini kuylashda Navoiydan o‘rganishiga ishora mavjud.

“Mening shoirligim orzu…” deb boshlanuvchi g‘azalda Sirojiddin Sayyid Navoiy siymosini shunday bir yuqori darajaga ko‘taradiki, undan kuch, ruhiy quvvat olish istagi namoyon bo‘ladi:

Na bo‘lg‘ay menga ham imlab, meni ham bir nabiram deb,
Qiyomat tongida bobo Navoiy bir qarab qo‘ysa.[3, 452]

Bu o‘rinda shoir aytilgan har bir so‘z, yozilgan har bir misra uchun javobgarlik mas’uliyati haqidagi fikrlarini bayon qiladi. Chunki islom dini aqidalariga ko‘ra Qiyomat kuni – bu hisob-kitob kuni ekanligi hammaga ma’lum. Shoir esa lirik qahramon tilidan yozganlari uchun javob berish mas’uliyatini his qilgan holda, kamchiliklar, xatolarini bartaraf etish istagida Navoiydan yordam olish ilinjini aks ettirgan. Qolaversa, hamma ijodkorlarda uchraydigan kamchiliklar-u, xatolardan holi ijodkor siymosida Navoiy obrazini gavdalantiradi.

“Saroy shoiri. Izoh” she’rda Sirojiddin Sayyidning quyidagi misralari e’tiborga molik:

Hazrat Navoiylar me’mor
Bog‘-saroyning shoiriman.[3, 139]

Bu o‘rinda istiora she’riy san’ati yordamida she’riyatni bog‘-saroyga qiyoslaydi, Hazrat Navoiyni esa o‘sha bog‘-saroy me’mori sifatida gavdalantiradi. Har qanday binoning vujudga kelishi, avvalo, uning loyihasi yaratilishidan boshlanadi. Sirojiddin Sayyid asl she’riyatning boshlanishi,

asoschisi sifatida Navoiy Hazratlarini biladilar hamda o‘zi ham to‘g‘ri yo‘ldan ketayotganligiga ishora qilib o‘tadi va inkor etib bo‘lmaydigan qat’iy hukm bilan o‘ziga qaratilgan g‘iybatlarga nuqta qo‘yadi.

Shoirning “Navoiy tug‘ilgan kun” she’rida quyidagi misralar mavjud:

Har ko‘ngil ishq ichra pok tiynat bo‘lar kundir bu kun,
Bitta so‘z olam aro ziynat bo‘lar kundir bu kun.
Tiyra dunyoga ziyo sochgay munavvar bir ism,
Bir ismdan bir ulus millat bo‘lar kundir bu kun. [5, 425]

Sirojiddin Sayyid she’r tarkibida Hazrat Navoiyning nomlariga ishora qilish orqali so‘zning, adabiyotning, she’riyatning qudrati nechog‘lik buyuk ekanligini ta’kidlaydi. Band davomida qorong‘ulikda ziyoga qanchalik ehtiyoj bo‘lsa, Hazratning nomlari, ularning asarlari ma’naviy dunyomizga ziyo ulashishi poetik fikrlar yordamida aks ettirilgan. To‘rtinchi misra keltirilgan “Bir ismdan bir ulus millat bo‘lar kundir bu kun” jumlasida o‘zbek xalqning millat darajasida shakllanishida Navoiy siymosining o‘rni beqiyosligi aks ettirilgan. Chunki dunyoda xalqlar ko‘p, lekin ularning har biri ham millat darajasida o‘zini, o‘zligini namoyon eta olmagan. Sababi xalq millat darajasiga ko‘tarilishida uning ma’naviy qiyofasi muhim ahamiyatga ega sanaladi. Ma’naviy qiyofa esa qadriyatlar, an’analar, ma’naviy yuksaklik darajalari bilan bevosita bog‘liq. Hazratning yozganlari, nomi o‘zlari yashagan davrdan to bugungi kunga qadar o‘zbek xalqining O‘zbek millati sifatida sayqal topishida, ulug‘vorlik kasb etishida, nomining dunyoga tanilishida, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishida juda katta salmoqni egallab kelmoqda. Shoir Sirojiddin Sayyid millat vakili, adabiyot namoyandasi sifatida bu fikrlarni qat’iy hukm bilan badiiy tafakkur tarzida o‘rinli izohlay olgan.

“Navoiyning g‘azallari” deb boshlanuvchi she’rda istiora, mubolag‘a, tanosub, husni ta’lil kabi she’riy san’atlar asarning badiiy mukammalligini ta’minlay olgan:

Navoiyning g‘azallari –
So‘zdan ungan vatanlar,
Dil qonidan, ko‘zyoshidan sug‘orilgan chamanlar.
Bunda bulbul o‘lsa agar – gul qoniga yuvgaydir,
Bunda oshiq o‘lsa agar guldin bo‘lur kafanlar. [3, 99]

Sirojiddin Sayyid ijodida Vatanparvarlik ruhidagi asarlarning salmog‘i ko‘proq. Ushbu asar mazmuniga ham vatanparvarlik hislarining jo‘sh urishiga xizmat qiladigan fikrlarni yuklay olgan. Istiora she’riy san’ati orqali Navoiy g‘azallari – So‘zdan ungan vatanlar, deya ta’kidlanadi. Bu esa hazrat ijodini o‘rganish Vatan tushunchasining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga yordam berishini anglatadi.

“Dil qonidan, ko‘zyoshidan sug‘orilgan chamanlar” – ushbu misrada esa oksimoron badiiy tasvir vositasidan mahorat bilan foydalanib betakror sintaktik birlikni hosil qila olgan. “Oksimoron yoki oksyumoron (yun.oxymoron – zikiyona nodonlik) – uslubiy figura, mantiqan tamoman zid tushunchalardan hosil bo‘lgan sintaktik birlik. ... Oksimoronda mazmun jihatidan zid tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ajralmas birlik hosil qiladi, ko‘proq aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida keladi.” [6, 207]. Chaman so‘zi ijobiy kayfiyat bag‘ishlaydigan so‘zlar jamlanmasini birlashtira oladi. Bu o‘rinda esa dil qoni, ko‘zyoshi kabi so‘zlar qo‘llaniladiki, shoir bu bilan Hazrat Navoiy shunchaki yozmasligiga, yaratilgan har bir ijod namunasi Hazratning elga yetkazmoqchi bo‘lgan chuqur mazmunli fikrlari ekanligini ko‘rsatadi.

Hazrat yaratgan g‘azallar tarkibida oshiqona g‘azallarning ko‘lami kengroq. Quyidagi misralar bunga ishora qiladi:

Bunda bulbul o‘lsa agar – gul qoniga yuvgaydir,
Bunda oshiq o‘lsa agar guldin bo‘lur kafanlar.

Ushbu misralarda husni ta’lil va mubolag‘a she’riy san’atlari uyg‘un ravishda qo‘llanilgan. Hazrat Navoiy ijodida oshiqlik rutbasi oliy rutba sifatida talqin qilinadi. Ishq dardida o‘rtanayotgan Bulbul va Oshiq obrazlarining har qanday sharoitda e’zozlanishi badiiy talqin qilingan. Poklanish uchun kerak bo‘ladigan suvning ham hatto guldan tayyorlanishi hamda Oshiq uchun kafanlik “materiali” guldan bo‘lishiga ishora tarzida ifodalanishida shoirning shoirona isboti e’tiborga olingan, ya’ni husni ta’lil she’riy san’atining betakror namunasi berilgan. Mubolag‘a she’riy san’ati gul suyuqligi (qoni) yuvishga yetadigan darajada ko‘pligi va gul yaproqlari o‘rab olishga yetadigan darajada keng va katta bo‘lishligida namoyon bo‘ladi. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, Hazrat Navoiy yaratgan ijodiy fikrlar Sirojiddin Sayyid badiiy tafakkurining yuksalishiga omil bo‘la olgan.

Hazrat Navoiyning buyuk siymosi, boy ma’naviy merosi uzoq yillar davomida ko‘plab ijodkorlar ilhom manbayi sifatida qadrlanadi va adabiyot maydonida badiiy jihatdan mukammal, zalvorli asarlar yaratilishiga zamin bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. 304-bet.
2. Quronov. D. Adabiyotshunoslikka kirish. www.ziyouz.com kutubxonasi. 242-bet.
3. Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019.576-б.
4. Nazarova N. Sirojiddin Sayyid she’riyati poetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2025.156-bet.
5. Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. Шеърлар.Достонлар. Қирқ ҳадис. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018.568-б.
6. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. www.ziyouz.com kutubxonasi.400-b.

Svetlana JUMATOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Nukus tumani MMTB ga qarashli 31-sonli maktabning
ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

OILADA FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONANING O‘RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada oilada farzand tarbiyasida ota-onaning tutgan o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ota-onaning shaxsiy namuna ko‘rsatishi, psixologik muhit yaratishi, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni singdirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyat sharoitida ota-onalar oldida turgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya, ota-ona mas’uliyati, farzand kamoloti, ijtimoiylashuv.

Annotation: this article provides a scientific and theoretical analysis of the role of parents in child upbringing within the family. It highlights the importance of parents serving as personal role models, creating a positive psychological environment, and instilling moral and social values. In addition, the challenges faced by parents in the context of modern society and possible ways to overcome them are discussed.

Key words: family, upbringing, parental responsibility, child development, socialization.

Аннотация: в статье научно-теоретически анализируется роль родителей в воспитании детей в семье. Освещается роль родителей в личном примере, создании психологической среды, привитии моральных и социальных ценностей. Также обсуждаются проблемы, с которыми сталкиваются родители в современном обществе, и пути их решения.

Ключивые слова: семья, воспитание, ответственность родителей зрелость ребянка, социальное.

Kirish. “Vatan ostonadan boshlanadi” degan maqolni ko‘p eshitamiz, shu o‘rinda bu fikrga qo‘shimcha qilib aytmoqchi edimki, “Tarbiya olish oiladan boshlanadi”. “Bola 3 yoshga to‘lib maktabgacha ta’lim dargohiga qadam qo‘yishdan oldin oilada ota-ona bag‘rida ulg‘ayadi, atrof-muhitni, borliqni anglay boshlaydi. Sharq allomalari farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifat-u madaniyatga yetaklash muammolariga e’tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go‘zal axloqning inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar.

Farzandning jismoniy, ma’naviy va intellektual rivojlanishida ota-onaning ta’siri beqiyosdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning kelajakdagi hayotga moslashuvi, ijtimoiy faolligi va axloqiy qarashlari, asosan, oilada berilgan tarbiyaga bog‘liq.

Asosiy qism

Ota-onaning tarbiyadagi mas’uliyati.

Ota-ona farzand uchun birinchi ustoz va hayot maktabidir. Bola ota-onaning xatti-harakati, muomalasi va munosabatlarini kuzatish orqali ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtiradi. Shu sababli ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiya jarayonida eng samarali omillardan biri hisoblanadi.

Oiladagi psixologik muhit

Sog‘lom psixologik muhit hukmron bo‘lgan oilada voyaga yetgan bolalar o‘ziga ishonchli, mustaqil fikrlovchi va mas’uliyatli bo‘lib shakllanadi. Mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va muloqot madaniyati farzand ruhiy barqarorligining asosi sanaladi.

Zamonaviy muammolar

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ota-onalar yangi tarbiyaviy muammolarga duch kelmoqda. Vaqt yetishmasligi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri ota-onadan yanada ongli va mas’uliyatli yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri barkamol avlodni voyaga yetkazish hisoblanadi. Barkamol shaxs shakllanishida esa oila muhim ijtimoiy institut sifatida alohida o‘rin tutadi. Oila – bu shaxs tarbiyasining dastlabki va eng muhim maktabi bo‘lib, unda inson hayotining ilk ijtimoiy tajribasi shakllanadi.

Farzand dunyoga kelgan ilk kundan boshlab ota-onaning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi va tarbiyaviy ta’siri ostida ulg‘ayadi. Shu bois, farzandning jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs bo‘lib shakllanishi ko‘p jihatdan ota-onaning tarbiyaviy salohiyatiga bog‘liqdir. Prezidentimiz va buyuk mutafakkirlar asarlarida ham oilaning jamiyat hayotidagi o‘rni va farzand tarbiyasidagi mas’uliyati doimo ta’kidlab kelinadi.

Oilaning tarbiyadagi ijtimoiy va pedagogik ahamiyati

Oila – tarbiyaning asosiy ijtimoiy muhiti

Oila jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini bo‘lishiga qaramay, unda jamiyatning barcha ijtimoiy munosabatlari mujassamlashgan. Bola oilada axloqiy me’yorlar, ijtimoiy xulq-atvor qoidalari, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o‘zlashtiradi.

Pedagogik tadqiqotlarga ko‘ra, bolaning shaxs sifatida shakllanishida oilaning ta’siri maktab va boshqa ijtimoiy institutlarga nisbatan ustun turadi. Chunki bola eng ko‘p vaqtini oilada o‘tkazadi va ota-onani ideal shaxs sifatida qabul qiladi.

Tarbiya tushunchasi va uning mazmuni

Tarbiya – bu shaxsni maqsadga muvofiq ravishda

shakllantirish jarayoni bo‘lib, u jismoniy, axloqiy, aqliy va estetik rivojlanishni o‘z ichiga oladi. Oiladagi tarbiya uzluksiz, tabiiy va samarali bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Ota-onalar farzandiga nafaqat bilim, balki hayotiy tajriba, mehnatsevarlik, halollik va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdiradi.

Ota-onaning farzand tarbiyasidagi asosiy vazifalari

Ota-onaning shaxsiy namunasi

Farzand tarbiyasida ota-onaning shaxsiy namunasi eng kuchli tarbiyaviy omil hisoblanadi. Bola ota-onaning gapidan ko‘ra, amaliy xatti-harakatlarini tezroq o‘zlashtiradi.

Agar ota-ona rostgo‘y, mehnatsevar, mas’uliyatli bo‘lsa, farzandda ham ushbu fazilatlar shakllanadi. Aksincha, oiladagi salbiy xulq-atvor bolaning ruhiy va axloqiy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Axloqiy tarbiya va qadriyatlar

Axloqiy tarbiya oilada boshlanadi. Kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, halollik, sabr-toqat kabi fazilatlar, avvalo, ota-ona tomonidan singdiriladi. Milliy an’ana va urf-odatlarga asoslangan tarbiya farzandda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantiradi.

Oiladagi psixologik muhit va uning farzand rivojiga ta’siri

Mehr-muhabbat va muloqot

Oilada sog‘lom psixologik muhit mavjud bo‘lsa, farzand o‘zini erkin va xavfsiz his qiladi. Mehr-muhabbatga boy muhit bolaning hissiy barqarorligini ta’minlaydi. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi ochiq muloqot ishonchni mustahkamlaydi.

Oilaviy nizolarning salbiy oqibatlari

Doimiy kelishmovchiliklar, janjallar bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday muhitda voyaga yetgan bolalarda tajovuzkorlik, ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuv muammolari yuzaga kelishi mumkin.

Zamonaviy jamoatda farzand tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar farzand tarbiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Nazoratsiz axborot oqimi bolalarning ma’naviy dunyosiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Shu sababli ota-onalar farzandining axborotdan foydalanishini nazorat qilishi zarur.

Ota-onaning bandligi muammosi

Ko‘plab oilalarda ota-onaning ish bilan bandligi farzandga yetarli e’tibor berilmasligiga olib kelmoqda. Bu holat bolaning tarbiyaviy ehtiyojlarini qondirishda muammolar tug‘diradi. Oilada ota-ona va farzand orasida o‘zaro hurmat va yaqinlik bo‘lishi bola tarbiyasida yaxshi natijalarga erishish mumkinligini aytadi.

Fitrat jamiyat rivoji va yurt farovonligida, oila haqida fikr yuritiib, o‘zining “Oila” asarida shunday deydi. “Har bir millat izzat va hurmati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liqdir”.

Afsuski, hozirgi kunda oila davrasida bilim olish, kitob o‘qish borasida suhbat yuritish, farzand olayotgan bilim darajasini muhokama qilish kundan kunga kamayib boryapti. Bularning o‘rnini zamonaviy texnologiyalar bilan masalan, uyali telefon ishlatish, soatlab vaqtini ularga sarflash egalladi.

Albatta, ular hayotimizda bir qatorda qulaylik imkoniyatini yaratmoqda, lekin yosh avlodlarning diqqat-e’tiborini jamlashda, zimmasidagi vazifalarini bajarish o‘rniga, o‘z vaqtlarini behuda sarflashlariga sabab bo‘luvchi va chalg‘ituvchi omil bo‘lib bormoqda. Bola xotirasidagi asosiy voqealar uyda sodir bo‘lganlaridir. Balki shuning uchun ham uyda ota-ona bilan dars qilgan yok ota-onasi bilan hamjihatlikda o‘qigan kitobning ahamiyati ular uchun kuchli va ta’sirliroq.

Farzand tarbiyasini samarali tashkil etish yo‘llari

Ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish.

Ota-onalar tarbiya masalasida doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, pedagogik va psixologik bilimlarini oshirib borishi lozim.

Oila, maktab va jamiyat hamkorligi.

Farzand tarbiyasida oila, maktab va mahalla hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu uchlikning uyg‘un faoliyati farzand kamolotini ta’minlaydi.

Oilaning, ota-onaning ko‘zgusi bu farzanddir. Bugungi kunda biz tarbiyachilar orqali har qanday ota-ona bo‘lish etikasini, oilada ota-ona va farzand burchlari nimadan iborat ekanini anglata olishimiz kerak. O‘qituvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, maqsad qo‘ya olish va reja bilan ish ko‘rish ko‘nikmalarini rivojlantirish tarbiyachi bilan bir qatorda ota-onalarga bog‘liq.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, oilada farzand tarbiyasida ota-onaning o‘rni beqiyosdir. Farzandning kelajakdagi hayoti, jamiyatdagi o‘rni va ma’naviy qiyofasi asosan oilada berilgan tarbiyaga bog‘liq. Shuning uchun ota-onalar o‘z mas’uliyatini chuqur anglab, farzand tarbiyasiga ongli va tizimli yondashishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Oila pedagogikasi. – Toshkent, 2019.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
3. Davletshin M. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2016.
4. G‘oziev E. Psixologiya. – Toshkent, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.
6. Fitrat. “Oila”.
7. Pedagogik ta’lim j. – T., 2001.

N.I.TIRKASHEV,
Pedagogika fakulteti, Pedagogika kafedrasi
o‘qituvchisi Tabiiy fanlar fakulteti
II bosqich talabalari UMURZOQOVA M. Sh., ZOYIROVA N.I.

O‘QITUVCHI – SHAXS KAMOLOTINING ILHOMCHISI

Annotatsiya: mazkur maqolada ta’lim jarayonida o‘qituvchining roli, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo‘naltiruvchi va ma’naviy-axloqiy yetakchi sifatida va shaxs kamolotini shakllantiruvchi asosiy shaxs sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlari: *ta’lim jarayoni, pedagogik mahorat, ta’lim sifati, muloqot madaniyati, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, shaxs kamoloti, innovatsion yondashuv*

Annotation: this article explains the role of the teacher in the educational process, highlighting that the teacher is not only a knowledge provider but also a mentor, guide, and moral-ethical leader who is the primary figure in shaping the development of an individual’s personality.

Key words: *educational process, pedagogical skills, quality of education, culture of communication, modern educational technologies, personal development, innovative approach.*

Аннотация:в данной статье объясняется роль учителя в образовательном процессе, подчеркивая, что учитель является не только источником знаний, но и наставником, проводником и духовно-нравственным лидером, играющим ключевую роль в формировании личности.

Ключевые слова: *образовательный процесс, педагогическое мастерство, качество образования, культура общения, современные образовательные технологии, личностное развитие, инновационный подход.*


Kirish. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi shaxsining o‘rni beqiyosdir. Chunki o‘qituvchilik faoliyati inson shaxsini har tomonlama shakllantirish, uning ma’naviy, aqliy va axloqiy qiyofasini boyitishga qaratilgan.O‘qituvchi — bu faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi, millat kelajagini tarbiyalovchi shaxsdir. Uning zimmasidagi asosiy vazifa — barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un shaklda shakllantirishdan iboratdir[1].

Asosiy qism. Pedagog avvalo, pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarmi yaxshi egallagan bo‘lishi lozim. Shu ma’noda pedagogning umumlashgan malakalari uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo‘ladi. Mahorat – bu alohida qudrat. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Pedagogik mahoratga yetishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni shuningdek, pedagog shaxsi, uning fuqarolik va kasbiy mavqeyi va tajribasini ifodalaydi. “Pedagogik mahorat” bir kategoriya sifatida o‘zining ilmiy asoslariga ega. Olimlaming ilmiy yondashuvlari bu jarayonga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi: Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko‘rinishi sifatida tushuniladi.Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtayi nazaridan kishining individualligini xarakterlaydi. Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o‘ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi: *1.1-jadval.*

O‘qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon eng mas’uliyatli va murakkab vazifalardan biridir. O‘qituvchi – maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan, pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs . O‘qituvchilik kasbini tanlagan inson har bir o‘sib kelayotgan avlod, jamiyat va davlat taqdiri uchun javobgar hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisi sanaladi. O‘quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi asosan o‘qituvchining bilim darajasi, iymon-e’tiqodi va kasbiy mahoratiga bog‘liqdir. Shu bois o‘qituvchi nafaqat uyushqoqlikka, balki yuksak pedagogik qobiliyat va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur.

1 (R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O. Matnazarova, M.K. Shirinov, S. Hafizov. “Umumiy pedagogika”, – Toshkent, 2018. 446-bet)

1.1-jadval.



Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o‘qituvchi va rahbar shaxsiga yuqori talablar qo‘yadi. U kishi ta’kidlaganidek: “Zamonning yurishi, o‘zgarishi bilan avvalo rahbarlar, yetakchilar o‘zgarishi kerak. XXI asr — intellektual taraqqiyot asri. Shunday ekan, rahbar nafaqat kasb egasi, balki o‘z faoliyati va insoniyligi bilan xalq ishonchiga munosib, yuksak tafakkur sohibi, doimo yangilikka intiluvchi shaxs bo‘lishi lozim.”[2] O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati va kasbiy mahoratiga nisbatan ham jiddiy talablar qo‘yilgan. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov bu borada shunday deydi: “Tarbiyachi-ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand etish, haqiqiy vatanparvar va fuqaro sifatida yetishtirish uchun tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak fazilatlarga ega bo‘lishi zarur.”

Zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

1. Jamiyatda kechayotgan o‘zgarishlarni chuqur anglash va o‘quvchilarga to‘g‘ri tushuntira olish.

2. Ilm-fan, texnika va texnologiyalardagi yangiliklardan xabardor bo‘lish.

3. O‘z mutaxassisligi bo‘yicha puxta bilimga ega bo‘lish, tinimsiz izlanish.

4. Pedagogika va psixologiya asoslarini mukammal bilish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

5. Ta’lim jarayonida samarali metod va vositalardan unumli foydalanish.

6. Ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish[3].

Bugungi kunda ta’lim jarayoni o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarda bilim, iqtidor va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya esa shaxsning ma’naviy fazilatlarini rivojlantirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsda bu fazilatlarni ma’naviy qadriyatlar asosida shakllantirib borish, ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilari uchun muhimdir. Dars jarayonida tarbiyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanish ijodiy yondashuvni talab etadi. Shu ma’noda, o‘qituvchilarning sinfdagi faoliyati adolat, demokratiya va tenglik tamoyillariga asoslangan ta’lim jarayonlarini yo‘lga qo‘yishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday muhitda o‘quvchilar — kelajak fuqarolari — har tomonlama rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Biroq o‘qituvchining faoliyati ko‘pincha uning kasb haqidagi shaxsiy e’tiqodlari va qarashlariga chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’lim tizimini isloh qilish masalalariga oid taqdimot bilan tanishdi: Unda bolalar bog‘chasidan oliy ta’limgacha yagona milliy g‘oya konsepsiyasi ishlab chiqilgani, “Kelajak” markazlari tashkil etilishi va maktab maslahatchisi lavozimi joriy etilishi ma’lum qilindi.Yana bir yangilik o‘qituvchilikka mehr qo‘ygan yoshlarni

2 (J. Hasanboyev va boshq., “Pedagogika”, Noshir, – Toshkent, 2016. 17-bet)

3 https://www.mdpi.com/2076-0760/11/11/517?utm_source.com

rag‘batlantirishga qaratilgan. Hozirgi kungacha bu sohada alohida davlat stipendiyasi yo‘q edi.Shu bois, joriy o‘quv yilidan boshlab, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining talabalari uchun Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiyasi ta’sis etilmoqda. Stipendiya bakalavriatning 3-4-kurslari uchun bo‘ladi, yoshlarni o‘qish va ilmiy izlanishlarga undaydi.Prezident mazkur tashabbuslarni ma’qullab, ularni sifatli amalga oshirish bo‘yicha topshiriqlar berdi[4]. O‘qituvchi butun ta’lim tizimining yuragi hisoblanadi: agar u ruhiy yoki tashqi ta’sir ostida bo‘lsa, butun jarayonga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatning o‘qituvchiga bo‘lgan munosabati bevosita uning ish faoliyatiga, xususan, o‘quvchilar natijasiga ta’sir qilishi mumkin. Har bir professional kabi, o‘qituvchi ham doimiy o‘qib-o‘rganishga sodiq bo‘lishi, kasbning turli bosqichlarida turli faoliyat turlaridan foydalangan holda malakasini oshirishi kerak.Kasbiylik — bu o‘qituvchining kasbga munosabati va xulq-atvori, shuningdek, u bilim beruvchi va oluvchi o‘rtasidagi ishonchni saqlashidir. Agar jamiyatning qarashi o‘zgarib, ishonch yo‘qolsa, butun o‘qitish va o‘rganish jarayoni zarar ko‘rishi mumkin.Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatida jamoa orqali tarbiyalash tamoyili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoa — shaxsni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy muhitdir. Bunda tarbiyalanuvchilar o‘rtasida o‘ziga xos munosabat shakli paydo bo‘ladi, bu esa shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlaydi. Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi sifatida uning me’yorlari va qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi.

4 https://fledu.uz/language/uz/prezident-shavkat-mirziyoyev-talim-tizimini-isloh-qilish-masalalariga-oid-taqdimot-bilan-tanishdi/

Xulosa. Demak, o‘qituvchi shaxsining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni beqiyosdir. U kelajak avlodni tarbiyalovchi, ularning dunyoqarashi, tafakkuri, ma’naviyati va axloqini shakllantiruvchi eng muhim ijtimoiy kuchdir. O‘qituvchi faoliyati orqali jamiyat o‘zining ertangi kunini belgilaydi, chunki har bir sohaningmutaxassisi,harbiryetukinsono‘qituvchining qo‘lida tarbiya oladi. Zamonaviy o‘qituvchi – bu faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, hayotiy muammolarga yechim topa olishga o‘rgatuvchi, uning shaxsiy kamolotini ta’minlovchi murabbiydir. Pedagog o‘zining yuksak ma’naviyati, kasbiy mahorati va namunali xulqi bilan o‘quvchilar uchun ibrat manbai bo‘lishi kerak.Bugungi kunda ta’lim tizimining rivojlanishi, raqamli texnologiyalar va innovatsion usullarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish o‘qituvchidan zamon bilan hamnafas bo‘lishni talab qiladi. Shu bois o‘qituvchi doimo o‘z ustida ishlovchi, yangi bilimlarni egallovchi, ilg‘or tajribalarni o‘rganib amaliyotda qo‘llovchi shaxs bo‘lishi zarur.Shuningdek, o‘qituvchining asosiy burchi — yosh avlodda Vatanga muhabbat, insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi yuksak fazilatlarni shakllantirishdir. O‘z ustida ishlovchi o‘qituvchi tarbiyasida voyaga yetgan avlod jamiyatning eng katta boyligidir. Ustoz faqat ta’limda emas balki hayotda ham o‘quvchilarini a’lochi bo‘lishga undovchi shaxs.Shunday ekan, o‘qituvchi jamiyat taraqqiyotining bosh omili, millat kelajagining bunyodkori va ma’naviy barkamol insonni shakllantiruvchi eng muhim shaxsdir. Unga hurmat bilan qarash, uning mehnatini qadrlash – har bir insonning burchi va fuqarolik mas’uliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O. Matnazarova, M.K. Shirinov, S. Hafizov. –Toshkent: “Umumiy pedagogika”, 2018. 446-bet

2. J. Hasanboyev va boshq., “Pedagogika”. – Toshkent: Noshir, 2016. 17-bet

3. https://www.mdpi.com/2076-0760/11/11/517?utm_source.com

4. https://fledu.uz/language/uz/prezident-shavkat-mirziyoyev-talim-tizimini-isloh-qilish-masalalariga-oid-taqdimot-bilan-tanishdi/



TILSHUNOSLIK

Yorkinoy XAMRAYEVA,
QarshiDU professori v.b.
yorkinoy.khamraeva@gmail.com

O‘ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASINING IDEOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek va rus tillarining leksik tizimlari ideografik jihatdan tavsiflanadi. Genetik jihatdan turli til oilalariga hamda tipologik xususiyatlariga ko‘ra har xil tiplarga mansub tillar leksikasini qiyosan tahlil etish tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu yo‘l bilan o‘zbek va rus tillari leksik sathlaridagi mazmuniy maydonlar, lug‘aviy birliklarining semantik ko‘lami, ifoda imkoniyatlari hamda ularning voqelanishidagi o‘ziga xosliklar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, rus tili, leksema, so‘z, ideografik lug‘at, semantik maydon, lug‘aviy ma’no, ma’noviy bog‘lanish, leksikografiya, sinonimlar, antonimlar, umumiylik, xususiylik.*

Аннотация: в статье в идеографическом аспекте характеризуются лексические системы узбекского и русского языков. Сопоставительный анализ лексики языков, принадлежащих к генетически различным языковым семьям и различным типам по их типологическим характеристикам, требует системного подхода. Таким способом определяются семантические поля, смысловой объем лексических единиц, возможности выражения и особенности их реализации на лексических уровнях узбекского и русского языков.

Ключевые слова: узбекский язык, русский язык, лексема, слово, идеографический словарь, семантическое поле, лексическое значение, семантическая связь, лексикография, синонимы, антонимы, общее, частное.

Annotation: lexical systems of the Uzbek and Russian languages in an ideographic aspect is characterized in the article. Comparative analysis of the vocabulary of languages belonging to genetically different language families and different types according to their typological characteristics requires a systematic approach. In this way, semantic fields, the semantic volume of lexical units, the possibilities of expression and the features of their implementation at the lexical levels of the Uzbek and Russian languages are determined in the following article.

Key words: *uzbek language, Russian language, lexeme, word, ideographic dictionary, semantic field, lexical meaning, semantic connection, lexicography, synonyms, antonyms, general, particular.*

Kirish. Leksika tadqiqiga tizimli yondashuv asosida tilshunoslikda semantik maydon nazariyasini o‘rganish, leksikani shu yo‘nalishda tasniflash va shu bilan bog‘liq amaliy ishlar bajarish masalalari asosiy planga chiqdi. Aynan shunday qarashlar negizida dunyoning turli tillarida ideografik lug‘atlar yaratila boshlandi hamda kompyuter texnologiyalari rivoj topgan, korpus tilshunoslik keng quloch yozayotgan bugungi kunga kelib o‘zida olamning lisoniy manzarasini to‘la-to‘kis aks ettiradigan ideografik tezauruslar yaratish masalasi hamon dolzarb masalalardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Chunki ideografik lug‘at asosini mazmuniy maydonlar tashkil etadi. Alifbo tartibidagi lug‘atda odatga ko‘ra, alohida, asosan, ko‘pma’noli bo‘lgan leksik birlikka izoh berilsa, mazmuniy maydon tamoyili bo‘yicha tuzilgan ideografik lug‘atda har qanday leksik (va undan kattaroq) birlik muayyan mazmunga aloqador maydonda faqat bitta ma’nosi bilan beriladi. Ushbu jihatlar maydon nazariyasiga bag‘ishlangan ishlarda atroflicha o‘rganilgan [6].

Masalan, o‘zbek tilidagi “choyxona” tushunchasini rus tilidagi “кафе” tushunchasiga mazmunan tenglashtirib bo‘lmaydi, chunki o‘zbek xalqi ongida bu so‘z tik turib, bir finjon choy yoki kofe ichib, chanqoqni qondirib ketiladigan joy emas, balki davra bo‘lib, ovqatlanib, suhbatlashib, hordiq chiqarib o‘tiriladigan maskan ma’nosini anglatadi. Demak, mazmuniy maydonlar sathida tillar orasidagi tafovutlar yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Biroq ushbu maydonlar sathidan pog‘onama-pog‘ona sinflar, ruknlar, mavhum tushunchalar, kategoriyalar tomon yuqorilab borarkanmiz, tillararo o‘xshashliklarga duch kelamiz. Zero, “mavhum birliklar denotat guruhlarining tarkibiy modellari o‘laroq, o‘z navbatida, umumlashgan tasvirlar sifatida, tegishli belgilariga ko‘ra tasniflanadi va bunda mavhum birliklar guruhiga tegishli strukturaviy belgilar yanada yuqori darajadagi abstraksiyalarni o‘zida mujassam etadi” [9].

Lingvistik adabiyotlarda leksik assotsiatsiyalar ham butun bir tizimni tashkil etishi haqidagi fikrlarni uchratish mumkin. Chunki til sohiblarining aksariyat qismida lug‘aviy assotsiatsiyalar tipologik jihatdan o‘zaro o‘xshash bo‘lishi aniqlangan [1; 9]. Biroq bu assotsiatsiyalar ikki til qiyosida muvofiq kelmaydi, chunki olam turli til sohiblari tomonidan turlicha idrok etiladi.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda globallashuv, raqamlashtirish va ta’lim jarayonlarining interaktivlashuvi natijasida o‘quv manbalari, shu jumladan, o‘quv lug‘atlarini yangi muhit va talablarga moslashtitirishni taqozo qilayotir. Bunda lug‘atlarga faqat leksik sathni ro‘yxatga oluvchi manba sifatida emas, balki til tizimining konseptual, kognitiv va kommunikativ jihatlarini ochib beruvchi omil deb qarash maqsadga muvofiqdir.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati (1981) ehtiyoj tufayli yaratilgan bo‘lsa-da, so‘z tanlash va izohlashdagi kamchiliklar, o‘zbek tili leksikasidagi keyingi o‘zgarishlarni aks ettirmagani hamda mustaqillik davriga mos kelmaydigan siyosiy-mafkuraviy qarashlarni ifodalagani sababli bugungi kun talablariga javob bera olmay qoldi”, - deb yozgan edi A.Madvaliyev [7; 75].

Lug‘at endilikda so‘z va ma’no qaydidan tashqari madaniy, psixolingvistik va ijtimoiy kontekstni ham aks ettiruvchi ekosistema o‘laroq namoyon bo‘ladi. Pirovardida, zamonaviy amaliy leksikografiya ta’lim, tarjima, sotsiolingvistika va sun’iy intellekt tizimlari bilan uzviy aloqador kompleks yo‘nalishga aylandi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon lug‘atchiligida kognitiv va funksional yondashuv yaqqol ko‘zga tashlana boshladi [5]. “O‘ziga xos axborot-qidiruv vositasi bo‘lgan tezauruslarning asosiy xususiyatlaridan biri uning ko‘p tomonlama kirish imkoniyati bo‘lib, shu jihatiga ko‘ra ular alifbo tartibli an’anaviy izohli lug‘atlardan farq qiladi. Sistemaviy tartib tezaurus ichidagi so‘z-tushunchalarni o‘zaro semantik munosabatlari va ierarxik tuzilmalari bo‘yicha qidirishga imkon beradi” [11; 109].

Ideografik yondashuv so‘zlar ifodalaydigan g‘oya yoki hodisaning mohiyatini, funksional-diskursiv xususiyatini, uslubiy-hissiy ko‘rsatkichlarini ham qamrab oladi. Masalan: “*jasur – botir – qo‘rqmas – dovyurak*” qatori formal sinonimlar sifatida qaralsa, ideografik yondashuv ularni turli konseptual darajada farqlaydi:

jasur – ijobiy baholovchi, odob-axloq tushunchasi;
botir – xalqona, tarixiy, epik ritorikaga xos birlik;
dovyurak – hissiy tasviriy element;
qo‘rqmas – neytral, rasmiy uslubga mos birlik.

Umuman olganda, sinonimik lug‘atda leksik birliklarning valentlik xususiyatini va qo‘llanish doirasini ko‘rsatish orqali birikuv imkoniyatlari, kontekstual ma’no xususiyatlari ochiladi. N.Mahmudov tahriri ostidagi “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” [8] tuzilishida quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar ko‘zga tashlanadi. Lug‘at maqolada dominanta leksema sifatida neytral, keng qo‘llanadigan sinonim beriladi. Uning ma’nodoshlari semantik, uslubiy yoki emotsional farqiga ko‘ra joylashtiriladi, ayrim holatlarda sinonimlarning farqlovchi belgisi yoki uslubiy xoslanishi ko‘rsatiladi. Bundan kelib chiqadiki, O‘zbek tilining sinonimlar lug‘atida ideografik yondashuv to‘liq shakllanmagan, ammo uning ayrim elementlari mavjud.

Ideografik element	Sinonimik lug‘atda ifodalanishi
Konseptual umumlashtirish	Sinonimlar bir g‘oya (masalan, “go‘zallik”, “jasorat”, “xatolik”) doirasida to‘planadi.
Semantik farqlanish	Qator ichida ma’nodagi nozik farqlar izohlanadi.
Uslubiy xususiyat	Ba’zi so‘zlar uchun “so‘zlashuv”, “kitobiy”, “xalqona” kabi ajratuvchi uslubiy belgilar keltiriladi.
Ekspressiv-pragmatik ko‘rsatkich	Ayrim so‘zlar “ijobiy”, “salbiy”, “kinoyaviy” deb izohlanadi
Qo‘llanish konteksti	Ayrim hollarda misollar orqali kontekstual farqlar ko‘rsatilgan

So‘nggi yillarda o‘zbek leksikografiyasida ideografiya elementlari raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashmoqda. Milliy korpus asosida lug‘atlar yaratish, semantik tarmoqlarni avtomatik hosil qilish, ma’noviy yaqinlik darajasini aniqlash kabi jarayonlar ideografik tasnifni texnologik bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. Masalan, “O‘zbek tilining milliy korpusi” loyihasida so‘zlar semantik klasterlar asosida indekslanishi nazarda tutiladi.

Zamonaviy rus leksikografiyasi tilning leksik tizimini nazariy va amaliy ko‘rsatkichlari bilan umumlashtiruvchi, tartiblovchi soha sifatida namoyon bo‘ladi. Rus leksikografiyasida global o‘zgarishlar ta’siri yaqqol gavdalanmoqda. Zotan tilga yangi so‘zlarning kirib kelishi, internet kommunikatsiyasining rivojlanishi sharoida leksikografik manba funksional jihatdan murakkablashishi taqozo etiladi. Bu esa o‘z navbatida, lug‘at tuzishga yangi metodologik yondashuvlarni talab qilmoqda.

Ta’kidlash joizki, bosma lug‘atlardan elektron va onlayn platformalarga o‘tish leksikografik resurslarning funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Lug‘at shunchaki leksik katalog emas, polifunksional manbaga aylandi. Zamonaviy lug‘atlar so‘zning ma’nosidan tashqari, qo‘llanish chastotasi, uslubiy xususiyatlari, birikuv imkoniyatlari, kontekstual-pragmatik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi lozim. Shuningdek, onlayn platformalar lug‘at manbalarida gipermatnli havolalar, multimedia materiallari, avtomatik morfologik tahlil va interaktiv qidiruv funksiyalarini joriy etish imkonini beradi. Bugungi kunda korpus lingvistikasi ilmiy leksikografiyaning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Rus tilining Milliy korpusi hamda uning mintaqaviy va maxsus tarmoqlari yangi turdagi lug‘atlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday lug‘atlarda leksika tuzuvchilarning subyektiv qarashlariga emas, balki empirik jihatdan ishonchli bo‘lgan til materiallariga asoslanishi ko‘zda tutiladi [2, 3, 12].

Rus tilining universal lug‘atlarida leksik birliklarni katalog sifatida tartiblashga alohida urg‘u berilib, ideografik yondashuv tizimli namoyon bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan, XX asrda yaratilgan mashhur lug‘atlarda ideografik tasnif elementlarini kiritishga urinishlar kuzatiladi. Ideografik yondashuv lug‘at maqolalarining tuzilishida qisman namoyon bo‘lib, bunda tuzuvchilar so‘z ma’nosi izohiga qo‘shimcha ravishda leksemalarning o‘zaro ma’no munosabatlari va birikuv xususiyatlarini ilova


qilishadi. Jumladan, S.Ojegovning izohli lug‘atida ko‘p ma’noli so‘zlar izohida semantik guruhlash elementlari mavjud. Lug‘atda so‘zning har bir ma’nosi misollar bilan boyitilib, ayni illustrativ dalillar so‘zning kontekstual-pragmatik, uslubiy xususiyatlarini namoyon etishga xizmat qiladi.

“**ХОД, -а, м.** 1. Движение вперёд; процесс передвижения: *ход поезда, придать ускорение ходу.* 2. Направление, течение чего-либо: *ход событий, ход мыслей.* 3. Состояние, развитие, продвижение чего-либо: *работа идёт полным ходом, дать делу ход.* 4. Функционирование механизма, машины: *двигатель в рабочем ходу.* 5. Шаг, передвижение в игре: *шахматный ход.* 6. Принятый приём, средство действия: *умелый ход.* 6. Проход, коридор (устаревшее)” [10; 862].

Yuqoridagi lug‘at maqolasida so‘zning ma’no turlari ajratilgan, bunda asosiy lug‘aviy ma’no sifatida “jismoniy harakat”, ya’ni “oldinga harakat” (1-ma’no: движение вперёд) mazmuniy dominanta bo‘lgan. Keyingi ma’nolar mavhum va metaforik semalar – masalan, “tashkilot faoliyati”, “fikrlar oqimi”, “ish yuritish” kabilar. Shundan so‘ng, texnik va funksional ma’nolar, ya’ni “dvigatelning ishlashi”, “mexanizm holati” sanab o‘tiladi. O‘yin va harakat strategiyasi mazmunini ifodalovchi ma’nolar ham alohida ajratiladi. Misollar leksemaning nutqda voqelanish xususiyatini, kontekstual ko‘rsatkichlarini yaqqol dalillaydi: *“ход мыслей”, “политический ход”*. Shuningdek, ba’zi iboralar idiomatik xarakterga ega *“дать ход делу”, “дело пошло в ход”.* Har bir ma’no alohida misollar bilan dalillangani so‘zning pragmatik xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi.

Izohli lug‘atlarda so‘z ma’nolarini sharhlashda sinonimlar, antonimlarni ilova qilish hollari uchraydi. Bu narsa ideografik yondashuvning muhim elementi bo‘lib, leksik birlikninng ma’nosini ochib berish bilan birga uning ma’no munosabatlariga, leksik-semantik maydon ichidagi mazmuniy o‘rniga ishora qiladi. Lug‘at maqolalarida ilova qilinadigan ma’nodosh muqobillar qator vazifalarni bajarishga xizmat qiladi, xususan: a) asosiy leksemaning ma’no xususiyatlari (ottenkalari)ni ochiqlaydi; b) belgining intensivlik darajasiga ishora qiladi. Masalan, S.Ojegov lug‘atida “смелый” so‘zi quyidagicha talqin qilinadi: *не знающий страха, решительный (см. храбрый, отважный).* Talqinda leksema mohiyati “qo‘rquv bilmas” iborasi bilan izohlansa, uning sinonimlari *храбрый, отважный* shu ma’noni batafsil yoritishga xizmat qiladi. Shu bilan birga ushbu sinonimlar qo‘llanish konteksti va uslubiy ko‘rsatkichlariga ko‘ra asosiy lug‘at birligidan farqlanishini inobatga olish lozim. Ushbu leksemaning ma’nodoshlarini quyidagi ko‘rinishda daraja qatorida tartiblash mumkin: *смелый – решительный – храбрый – отважный – героический – безрассудный.*

Albatta, izohli lug‘at talqinida leksemaning barcha ma’nodoshlari berilmaydi. Biroq ushbu daraja qatordagi barcha leksemalarning lug‘atdagi izohiga tayanib ideografik tamoyil asosida quyidagicha tartiblash mumkin:



Ideografik tamoyil bo‘yicha yondashilsa, sinonim so‘zning o‘zaro farqlari va umumiy jihatlari aniqlanadi.

Слово	Интенсивность	Эмоциональная окраска	Сфера употребления
смелый	средняя	нейтральная	повседневная речь
решительный	средняя	нейтральная	в формальной среде
храбрый	выше средней	положительная, одобрительная	в художественном тексте
отважный	высокая	положительная, одобрительная	эпические или официальные тексты
героический	максимальная	пафосная, возвышенная	в художественном тексте
безрассудный	максимальная	отрицательная	указывает на опасную чрезмерность во всех контекстах

Antonimik yondashuv – rus leksikografik talqinlarida keng qo‘llanadigan yana bir uslub bo‘lib, izohlar tarkibida antonimlarni qo‘llash leksema ma’nosini yanada yaqqol ifodalaydi. Bu usul, xususan, Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilgan “Rus tilining katta akademik lug‘ati”da [4] faol qo‘llaniladi. Lug‘atdagi antonimlar uch asosiy vazifani bajaradi: a) inkor bilan aniqlashtirish; b) qiyosan aniqlashtirish; c) axborotni kompaktlashtirish

Birinchidan, qarama-qarshi tushuncha orqali izohlash so‘z ma’nosini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, antonimlar leksema ma’no ko‘lamini chegaralab beradi hamda izohning aniq, lo‘nda va qisqa bo‘lishini ta’minlaydi.

Rus tilining izohli lug‘atlarida sinonimik va antonimik referal izohlarning berilishi leksik ma’noning ichki strukturasini ochishga, so‘zning semantik maydondagi o‘rnini belgilashga, boshqa leksik birliklar bilan o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. So‘zlarning ma’no munosabatlarini namoyish qilish ideografik tamoyilning eng asosiy vazifalaridan bo‘lib, bunda so‘zni izohlash bilan birga so‘zlovchilar tafakkurida shakllangan tushunchalar tizimini aks ettirish mumkin.

Universal lug‘atlarda ideografik elementlarni qo‘llash kognitiv yondashuv talablarini aks ettirib, leksemani alohida birlik sifatida emas, butun konseptual tizimning bir qismi sifatida talqin etish imkonini beradi. Rus lug‘atchiligida qisman emas, sof ideografik yondashuvni V.Telia, N.Shvedova, O.Baranov, L.Babenko, N.Shiryayevlarning ideografik lug‘atlarida ko‘rish mumkin.

Anglashilganidek, zamonaviy rus leksikografiyasi tobora an’anaviy izohli format doirasidan chiqib bormoqda. Dastlab lug‘atlarga so‘zlarning alifbo tartibida berilgan ma’nolarini qayd etuvchi ma’lumotnoma sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda lug‘at manbasi bilimlarni tizimlashtiruvchi va tilda mustahkamlangan tushunchalar tizimini aks ettiruvchi kognitiv model sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan, ideografik leksikografiya alohida o‘rin egallaydi – u so‘z shakliga emas, balki uning mazmuniga, konseptual bog‘liqligiga va dunyoning konseptual manzarasida tutgan o‘rnini yoritishga yo‘naltirilgan.

Shu bilan birga, ideografik leksikografiya zamonaviy tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari bilan ham uzviy bog‘langan: kognitiv semantika, konseptual tahlil, freym nazariyasi, hamda korpus lingvistikasining yutuqlari bilan uyg‘unlashib, yangi turdagi leksikografik manbalar, xususan, avtomatlashtirilgan tezauruslar, semantik tarmoqlar, raqamli ma’no bazalarini yaratish uchun nazariy asos vazifasini bajarmoqda. Shunday qilib, ideografik leksikografiya rus lug‘atchiligining yangi bosqichini ifodalaydi – u leksikani formal shakldan mazmuniy va kognitiv tahlil darajasiga olib chiqadi, so‘zning semantik tabiati, konseptual modeli va olamning lisoniy tasviridagi o‘rnini aniqlaydi.

Xulosa. O‘zbek lug‘atchiligida ideografik elementlar so‘zlarning ma’no munosabatlari, ishlatilish doirasini va grammatik xususiyatlarini namoyon qilish orqali voqelanadi. Aniqlangan ideografik elementlar ma’noni izohlashni osonlashtirish, ma’noni batafsil tavsiflash, so‘zning qo‘llanish doirasini yoritish kabi vazifalarni bajarish orqali foydalanuvchisining tushunish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. Rus leksikografiyasida esa ideografik elementlar lug‘at tuzish amaliyotining muhim tamoyillaridan biriga aylanib bormoqda. Ideografik yondashuvning asosiy maqsadi so‘z ma’nosini izohlash bilan cheklanmay, uni leksik-semantik tizimdagi o‘rni va boshqa birliklar bilan ma’no munosabatlarini ham yoritishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акованцева Н.В. Ассоциативное поле как особый вид лексической группировки (на материале экспериментального исследования ассоциативного поля “отдых/отдыхать”). – Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Воронеж, 2022. 24 с.

2. Бабенко Л. Идеографический подход в современной русской лексикографии // *Вопросы лексикографии*. 2019. – № 16. С. 5–19.

3. Баранов О. Идеографическая классификация как способ организации словарного пространства // *Русская речь*. 1998. № 3. С. 42–50.

4. **Большой академический словарь русского языка**: в 30 т. / гл. ред. К. С. Горбачевич. – СПб.: Наука, 2004–2017. – Т. 30.

5. Ильин Д.Н. Развитие лексической семантики: процессы позитивации / негативации значения слова в русском языке – Ростов-на-Дону: Южный федеральный университет, 2018. 150 с.

6. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976. 356 с.

7. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографиясининг улкан ютуғи. Ўзбек тилшунослиги XXI асрда. – Қарши, 2008. Б. 75–78.

8. Mahmudov N. va b. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati: / N.Mahmudov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.512-bet.

9. Мельников Г.И. Типы означаемых языкового знака и детерминанта языка. Проблемы семантики. – М., 1974. С. 28.

10. Ожегов С. Толковый словарь русского языка / 15-е изд., испр. и доп. – М.: Русский язык, 1984. 924 с.

11. **Хамраева Ё.** Тезаурус метаязыка как способ передачи системных связей в лексике. / QarDU xabarlari. Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. 2025. №1. С. 109–114.

12. Шведова Н. Принципы идеографического описания лексики в русском языке // *Известия АН СССР. Серия литературы и языка*. 1982. – Т. 41, № 5.С. 410–422.

Maksuda XUSANOVA,
Renessans ta'lim universiteti
Filologiya kafedrasi b.v dotsenti(PhD)

O'ZBEK FALERONIMLARINING MORFOLOGIK TUZILISHI VA NOMLASH TAMOYILLARI

Annotatsiya:ushbu maqolada o'zbek tilida shakllangan faleronimlarning (orden, medal , mukofot va ko'krak nishonlari nomlari) morfologik tuzilishi, ularning tarkibiy-sintaktik modeli hamda nomlash tamoyillarining lingvistik asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda faleronimlar tarkibidagi affiksal birliklar, atash asoslari, ularni nomlanish tamoyillari, tarixiy an'analar hamda ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarning o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *faleronim. lingvistik, affiks, morfologik, nomlanish, tamoyillari, onomastik birliklar, do'stlik, mardlik, mustaqillik*

Аннотация:кроме того, будут проанализированы морфологическая структура фалеронимов, сформированных в узбекском языке, их структурно-синтаксическая модель и лингвистическая основа принципов именования. В исследовании рассматриваются аффиксные единицы в структуре фалеронимов, основы именования, семантические компоненты и роль государственной идеологии, исторических традиций, социально-духовных ценностей в их определении.

Ключевые слова: *фалероним, лингвистические, аффиксные, морфологические, номенклатурные, принципы, ономастические единицы, дружба, мужество, независимость.*

Annotation:in addition, the morphological structure of faleronyms formed in the Uzbek language, their structural-syntactic model and the linguistic basis of naming principles will be analyzed. The study examines the role of affix units in the structure of phaleronyms, the basics of naming, the principles of their naming, historical traditions, and socio-spiritual values.

Key words: *faleronym. linguistik, affix, morphological, nomenclature, principles, onomastic units, friendship, maternity, independence*

Kirish.O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlat mukofotlari, faxriy unvon va ko'krak nishonlari tizimi kengayib, ularning nomlanishida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ijtimoiy ehtiyojlar ustuvor bo'lib bormoqda. Bu esa faleronimlarning lingvistik jihatdan o'rganilishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Inson o'zining aqli, bilimi, tadbirkorligi, mehnatsevarligi, faolligi, uddaburonligi kabi fazilatlari bilan jamiyatda obro'-e'tibor orttiradi. Bunday shaxslar ko'rsatgan mehnatiga loyiq taqdirlanadi.

Faleronimlar — ijtimoiy hayotning muhim qatlamida qo'llaniladigan, shaxsning xizmatlari va yutuqlarini e'tirof etuvchi onomastik birliklardir.Faleronim – har qanday orden, medal, ko'krak nishonlarining atoqli oti. O'zbek faleronimlari tarkib jihatidan ko'p komponentli, sintaktik jihatdan murakkab birliklardan tashkil topadi. Faleronimlar nomlarning alohida turlari hisoblangani uchun oddiy so'zlardan, ya'ni apellyativ so'zlardan farqlanadi. Onomastik birliklardagi nomlarda nomlilik ma'nosi apellyativ so'zlarda uchraydigan odatdagi denotativ ma'nodan ma'lum semantik farqlarga ega. Masalan, "do'stlik" so'zi apellyativ so'z sifatida o'rtoq, oshno, mahbub ma'noni anglatadi. "Do'stlik" ordenidagi "do'stlik" so'zi turdosh otdan atoqli otga aylangan. **"Do'stlik"** faleronimdagi "do'stlik" so'zi forscha bo'lib," o'rtoq, Alloh, yor, oshno, mahbuba" ma'nolarini bildirib, do'stlik – do'st maqomida bo'lishlik, yaqinlik, oshnolik, ahillik; mehribonlik tushunchalarini anglatadi.

Unvon yoki mukofot nomlari a'lochisi, fidoyisi, faxriysi, shon-sharaf, jasorat, mardlik, do'stlik kabi so'zlar faleronimlarning markaziy qismi hisoblanadi. Bu leksemalar asosan abstrakt tushunchalarni bildiruvchi otlardan tashkil topgan. **"Shon-sharaf"** faleronimidagi "shon" so'zi arabcha bo'lib "ish, aloqa, munosabat, qadr-qimmat, obro', e'tibor, manfaat" kabi ma'nolarni ifodalab, **"**erishilgan hurmat, obro', sharaf, dovruq, dong, shuhrat**"** tushunchasini bildirsa, "sharaf "so'zi arabcha "izzat, hurmat, faxr(O'TIL,V,594), yuqori martaba, yuksak o'rin" ma'nolarini anglatib, **"**baxt, faxr, iftixor, biror ijobiy xislat, xizmat yoki talanti tufayli xalq orasida taratgan dong, shuhrat, shoni**"** tushunchalarni bildiradi.

Xalq ta'limi xodimi, o'qituvchi, pedagog, murabbiylar **"Xalq ta'limi fidoyisi"** ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. **"Xalq ta'limi fidoyisi"** faleronimdagi "fidoyi " arabcha, o'z jonini qurbon qiluvchi ma'nosini bildirib, "biror kimsa, narsa yoki g'oyaga astoydil berilgan va ular uchun jonidan kechishga ham tayyor, sodiq" degan tushunchani bildiradi. **"**Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishoni faleronim sifatida bolalar va yoshlarga ta'lim hamda tarbiya berishda, xalq

ta’limini rivojlantirishida fidokorona mehnat qiluvchi shaxslarga beriladi.

Faleronimlar tarkibida sifatlovchi komponentlar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha kengaytirilgan aniqlovchi bo‘lib keladi va unvon mazmunini aniqlaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi, Sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi, alohida xizmatlari uchun, yuksak xizmatlari uchun va hokazo.

Faleronim nomlarini yasalishida quyidagi qo‘shimchalar faol qo‘llanadi:

a) -chi / -chi(si) qo‘shimchasi orqali yasalgan faleronimlar:

Eng ko‘p uchraydigan affiks bo‘lib, kasb egalari va soha mutaxassislarini bildiradi. Sodda yasama faleronimlar so‘z o‘zagiga qo‘shimcha qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan yasama so‘zlardan tashkil topadi, ya’ni “o‘zak+qo‘shimcha” ko‘rinishida bo‘ladi. Mana shundan keyingina yasama so‘z maxsuslashib, dignitonim va faleronimga, aniqrog‘i, unvon, orden, medal , mukofot nomiga aylanadi. Turkiy tillarda affikatsiya orqali so‘z yasalish sermahsul usul hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek tilida -chi qo‘shimchasi juda faol qo‘shimcha sanaladi.-chi so‘z yasovchi qo‘shimchasining boshqa turkiy tillarda fonetik varianti ko‘p. Masalan, ozarbayjon tilida ushbu qo‘shimchani to‘rtta varianti borligini E.V.Sevortyan ta’kidlab o‘tgan[5]. Ayrim tadqiqotlarda ushbu -chi so‘z yasovchi qo‘shimchasi diaxron va sinxron planda faol ekanligi haqida A.G‘.G‘ulomov[6], A.M.Shcherbak[7], G‘.Abdurahmonov va Sh.Shukurovlarning [8] monografik ishlarida bayon etilgan. Masalan, “Sog‘liqni saqlash a’lochisi”, “Jismoniy tarbiya va sport a’lochisi” ko‘krak nishoni.

-lik affiksi bilan so ‘z yasagan faleronimlar. “Mustaqillik ” orden, “Mardlik” orden, “Do‘stlik” orden, “Salomatlik” ordeni.

b) -si/-i egalik qo‘shimchasi orqali yasalgan faleronimlar. “O‘zbekiston Qahramoni”, “Yoshlar yetakchisi”, “O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi”.

Ma’lumki, nomlanish qachon vujudga kelganini hech kim bilmaydi, biroq unda inson asrlar davomidagi tajribasi, dunyoqarashi, malaka, bilim, tabiatni-nomlanuvchiga nisbatan munosabati yotadi. A.B.Superanskaya ta’kidlaganidek, “Narsa va hodisalarning nomi inson tasavvurisiz yuzaga kelishi mumkin emas”[9]. U narsa va hodisalarni nomlashda obyektning umumiy belgi-xususiyatlariga asoslanadi. Narsa- hodisalarni nomlarda umumiylashtirish, ya’ni aniqlab, yakkalab ko‘rsatish va atash turdosh ot uchun muhim. Atoqli otlar narsa va predmetning nomlari bo‘lib, hayotiy zaruriyat va ehtiyoj tufayli tug‘ilgan. Nomlash (nominatsiya) onomastik tadqiqotlarda quyidagi terminlar bilan ifodalanadi: atash, nomlash, ism berish, nominatsiya kabi. Nomlanish jarayoni va qonuniyatlar: turdosh ot (apellyativ)ning o‘z vazifasini o‘zgartirib atoqli ot tizimiga o‘tishidir[10]. Dignitonim va faleronimga nom berishda ularning o‘ziga xos belgi-xususiyatini motiv qilib olingan. Motiv deganda obyektni nomlash uchun nomlovchilar tomonidan tanlangan asos, belgi tushuniladi. Dignitonim va faleronimlarni nomlanish jarayonida nomlanuvchi faoliyati muhim kasb etadi. Nomlovchi nomlanayotgan obyektning belgilaridan birini, yoki u to‘g‘risidagi tasavvur, orzu, istaklaridan birini tanlaydi. Shuningdek, unvon, orden, medal va ko‘krak nishoni belgi-xususiyatlari biror tamoyilga asoslagan holda tanlash orqali yuzaga keladi. **“Mustaqillik ”ordeni.** Bu faleronim tarkibidagi mustaqillik-ixtiyori o‘zida bo‘lgan, qaram bo‘lmagan holatda, davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo‘lmay faoliyat ko‘rsatishini anglatadi. Bu leksema erkin, hur, ozod kabi ma’nolarda ham ishlatiladi.. **“Salomatlik” ordeni.** Bu faleronimdagi “salomatlik” so‘zi arabcha, “xavfsizlik, omonlik, xotirjamlik, sog‘lomlik”[11] ma’nolarini anglatib, tan-joni sog‘, salomat bo‘lishlik, tanisog‘lik tushunchalarini bildiradi. Dignitonim va faleronimlarning nomlanish tamoyili pozitivlik (lotincha pozitivus- ijobiy) tamoyiliga asoslanadi:

1.**Ta’lim –** tarbiya va ilm fanni rivojlantirishdagi mehnatini taqdirlashda qo‘llangan so‘zlarni nomlash tamoyili.

“Xalq ta’limi fidoyisi” ko‘krak nishoni. Ushbu ko‘krak nishonini nomlanish tamoyili yoshlarni vatanparvarlik va istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida fidokorona mehnat qilgan hamda soha rivojiga munosib hissa qo‘shgan fuqarolarni taqdirlashga asoslanadi.

“Faxriy murabbiy” motivi esa yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni yot g‘oyalardan asrash, adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish, o‘zining chuqur bilimi va boy hayotiy tajribasi bilan yordamga muhtoj hamda og‘ir ahvolga tushib qolgan yoshlar va oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ish bilan ta’minlash hamda tadbirkorlikka o‘rgatayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini mukofotlashga asoslanadi.

2.Jamiyat a’zolarining sog‘lik-salomatligini ta’minlashdagi mehnatlarini munosib taqdirlash tamoyiliga asoslangan faleronimlar:

I va II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni. Ushbu ordenni nomlanish motivi kishilar onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi, sog‘lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va axloqiy muhitni ta’minlashdagi alohida xizmatlarini mukofotlashga asoslangan..

“Sog‘lom turmush” medali. Bu medalni nomlanish tamoyili aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qo‘shgan hissasi uchun sog‘liqni saqlash muassasalari shifokorlari, OAV vakillari va

blogerlar, fuqarolar, namunali oilalar va sportchilarni mukofotlanishiga asoslanadi.

3. **Huquq –** tartibotni mustahkamlash va mamlakatni mudofaa qilishdagi xizmatlarni taqdirlashga asoslangan faleronimlarni nomlash tamoyili:

“Huquqiy targ‘ibot ishlari a’lochisi” ko‘krak nishoni. Ko‘krak nishonini nomlanish motivi jamiyatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlarini aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko‘rsatgan xizmatlarini mukofotlashga asoslangan.

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni. Bu ordenni nomlanish motivi mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishiga, mudofaa qudratini kuchaytirish va milliy xavfsizligini ta’minlashga, mamlakatdagi tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalq farovonligini oshirishga katta hissa qo‘shgan, o‘zining iste’dodi, bilim va tajribasini Vatanimiz ravnaqiga baxsh etib, fidoyilik namunasini ko‘rsatib kelayotgan fuqarolar va harbiy xizmatchilarni mukofotlashga asoslanadi.

4.Buyuk ajdodlarining davlatchilik va ilm-fanni rivojlantirish, vatanparvarlikni namoyon qilishdagi yuksak xizmatlarini targ‘ib qilishga asoslangan dignitonim va faleronimlarni nomlash tamoyili:

“Oliy Darajali Imom Buxoriy” ordenini nomlanish asosi ilm-fan va madaniyat, jumladan, islom ma’rifati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti hamda ilmiy merosini o‘rganish va xalqaro maydonda keng targ‘ib qilishda katta yutuqlarga erishganligi uchun mamlakatimizning atoqli davlat va jamoat arboblari, diniy-ijtimoiy sohadagi rahbarlar va yetuk ulamolar, atoqli olimlar, adiblar, pedagoglar va ilmiy tadqiqotchilarni rag‘batlantirishga asoslanadi.

“Jaloliddin Manguberdi” ordeni. Ushbu ordenni nomlanish tamoyili mamlakatimiz mustaqilligini, vatanimiz sarhadlarini himoya qilishda qahramonlik va jasorat ko‘rsatgan harbiy xizmatchilarni munosib xizmatlarini taqdirlashga asoslangan.

“Amir Temur” ordeni nomlanish asosi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari, me’morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san’atni, shu jumladan harbiy mahoratni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissalarini mukofotlanishga asoslangan

Xulosa. Faleronim nomlarining lisoniy tadqiqi ulardagi tarixiy-xronologik, leksik, grammatik o‘zgarishlarda, nomshunoslik to‘plamidagi leksemalarning orfoepik, orfografik va leksik jihatlarini o‘zida aks ettiradi Faleronimlarga nom berishda ularning o‘ziga xos belgi-xususiyati motiv-obyektni nomlash uchun nomlovchilar tomonidan tanlangan asos, belgi qilib olingan. Faleronimlarni nomlanish jarayonida nomlanuvchi faoliyati muhim kasb etadi. Nomlovchi nomlanayotgan obyektning belgilaridan birini yoki u to‘g‘risidagi tasavvur, orzu, istaklaridan birini tanlaydi. Unvon, orden, medal va ko‘krak nishoni belgi-xususiyatlari biror tamoyilga asoslagan holda tanlash orqali yuzaga keladi.Faleronimlarning ba’zilari konversiya usulida — turdosh otdan atoqli ot, boshqalari esa transonimizatsiya usulida-atoqli otdan boshqa tipdagi atoqli ot hosil qilingan. Davlat mukofotlari tizimida morfologik birliklarning tanlanishi rasmiylik, aniqlik va milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти.– Тошкент, 2003. 560-б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. 2-том. 577-б.
3. Lex.uz .8-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 26-maydagi O‘RQ-621-sonli Qonuni.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati 2-tom. 464-bet
5.Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. – М.: Наука, 1966. – 83с.
6.Ғуломов А. Сўз ясалиши // Ўзбек тили грамматикаси. – Т.,1. – 21б.
7.Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М. –Л.: Изд.АНСССР, 1962. – 124с..
8.Абдураҳмонов Ғ, Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. 64-65-б.
9.Суперанская А.Б. Общая теория имеи собственного. – М.: Наука, 1973. – С. 236.
10. Нуриддинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. авторев. – Тошкент, 2005.11- б.

Baxtiyor XOLMUXAMEDOV,
SamDU dotsenti

O‘ZBEK TILINING BOYISHIDA LEKSEMALASHUV HODISASINING O‘RNI

Annotatsiya: dunyo tilshunosligida tillarning muntazam boyib borishiga xizmat qilayotgan so‘z yasalishi har bir tilning taraqqiyot darajasini, uning rivojlanib borish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi, boylik ko‘lamini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi. Umuman, til taraqqiyotidagi jihatlarni monografik o‘rganish, o‘z navbatida, bundan dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kalit so‘zlar: *leksema, leksemalashuv, lug‘at, lug‘at sathining boyishi, til hodisasi, nutq hodisasi.*

Аннотация: в мировой лингвистике словообразование, служащее постоянному обогащению языков, считается одним из важных факторов, определяющих уровень развития каждого языка, пути его развития и масштабы его богатства. В целом, монографическое изучение аспектов развития языка, в свою очередь, создает необходимость информирования об этом мирового научного сообщества.

Ключевые слова: *лексема, лексемализация, словарь, обогащение словарного запаса, языковое явление, речевое явление.*

Annotation: in world linguistics, word formation, serving the constant enrichment of languages, is considered one of the important factors determining the level of development of each language, its paths of development, and the scale of its richness. In general, the monographic study of aspects of language development, in turn, creates the need to inform the world scientific community about this.

Key words: *lexeme, lexicalization, vocabulary, vocabulary enrichment, linguistic phenomenon, speech phenomenon.*

Leksemalashuv deganda birikma shaklidagi til birliklarining shakliy-ma’noviy yaxlit bitta lug‘aviy birlikka aylanish jarayoni tushuniladi va aksar lisoniy hodisalardan farqli ravishda leksemalashuv hodisasi nutqiy hodisadir. Chunki sintaktik birliklarning lug‘aviy birlikka aylanish jarayoni – umumqo‘llanishdagi birlikka o‘tishi nutq bilan bog‘liq. Sintaktik birliklar muayyan narsa-hodisa, belgi-xususiyat va harakat-holatning nomi sifatida aynan nutqda barqarorlashadi. Agar umumqo‘llanish jarayonidan o‘tmasa, hech qanday erkin birikma leksik birlikka aylanmaydi. Leksemalashuv jarayoniga aynan erkin birikmalarning tortilishi ham mazkur hodisaning nutqiy ekanligini asoslaydi. Leksemalashuvdan ma’lum muddat vaqt o‘tishi bilan tilda aks jarayon ham yuz beradi, ya’ni nutq hodisasi til hodisasiga aylanib, leksemalashish tufayli paydo bo‘lgan so‘z va iboralar milliy til doirasida turg‘unlashadi va me’yorlashadi: *tentakqush, tepakal, tog‘olcha, tokqaychi* kabi [2].

Demak, leksemalashuv tufayli til materialining nutqda yangi imkoniyatlari ochilaveradi. Dastlab lisoniy va nolisoniy tamoyillarga muvofiq keladigan sintaktik tuzilmalar, uning negizida esa yangi leksemalar paydo bo‘ladi. Sintaktik birliklarning leksik birliklarga aylanishi bilan bog‘liq holatda yuzaga kelgan yangi til birliklari esa tilning boyishi, uzluksiz rivojlanishi, ifoda imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi. Har bir tilga xos ayni universal jarayon leksemalashuv hodisasini faqat diaxronik jihatdan o‘rganish lozim, degan qarashning yetarli asosga ega emasligini ko‘rsatadi. Zotan, leksemalashuv mahsuli bo‘lgan birliklar muayyan til lug‘at tarkibini boyitishi uning sinxron holatida kuzatiladi, sinxron planda belgilanadi.

Leksemalashuv hodisasining yangi ma’nolar shakllanishiga sabab bo‘lishi uning sof lingvistik xususiyati, lisoniy vazifasi bo‘lsa, uning nutqiy jarayonda fikrni ixcham holda ifodalash uchun xizmat qilishi ijtimoiy vazifasi hisoblanadi. Buni Kim In Te quyidagicha asoslashga harakat qiladi: *Belbog‘* so‘zi yasalmaganda ushbu predmetni nomlash uchun *belga bog‘lanadigan bog‘ich/bog‘lama; vatangado* o‘rnida *vatanidan ayrilgan kimsa; guldasta* o‘rnida *gullarning to‘plami/bog‘lami, ko‘zoynak* o‘rnida *ko‘zga taqiladigan oynak* tarzidagi birikmalarni qo‘llashga to‘g‘ri kelishi mumkin edi [1; 102]. Ko‘rinadiki, bu ifoda mazmuni nuqtayi nazaridan ham, ifoda shakli nuqtayi nazaridan ham anchagina g‘alizdir.

Leksemalashuv jarayonining paydo bo‘lishi tarixiy zaruriyat bo‘lib, uning yuz berishi tilning amaldagi qonuniyatlariga to‘la mos keladi. Bu mos kelish deganda biz fikrni yangicha tarzda ifoda etish usullarini hamda nutq jarayonidagi ixchamlik va qisqalikka intilishni nazarda tutamiz.

Leksemalashuv nutqiy jarayon bilan bog‘liq ekan, bu jarayonda yangi til birliklarining (bunda yangi ma’no anglatuvchi so‘zlar – neologizmlar nazarda tutiladi) vujudga kelishida uning yaratuvchisi bo‘lgan insonni ham e’tibordan tashqarida qoldirib bo‘lmaydi. Bu jarayonda uning individualligi va yaratuvchanligi sezilib turadi va birikma bir qator bosqichlarni bosib o‘tadi. Dastlab u me’yorlashuv jarayonini boshidan kechirishi lozim. Muomalaga kiritilgan birlik bilan til iste’molchilari tanishadi. Uning ma’nosini anglashga intiladi, talaffuz tomoniga ham diqqat qilinadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiylashish jarayonidan o‘tiladi. Shundan so‘ng u ommalashadi, me’yorlashadi, til sohiblari

tomonidan e’tirof etiladi va lug‘at tarkibidan joy oladi. Keng ma’noda navbatdagi bosqich hisoblangan ana shu jarayonni ham leksemalashuv bilan bog‘liq deyish mumkin.

Bu jarayonning faol ishtirokchilari milliy til himoyachilari va targ‘ibotchilari, millatning ilg‘or vakillari – ijodkor ziyolilar, maorif-madaniyat, ommaviy axborot vositalari xodimlari bo‘lib hisoblanadi. Ular yaratgan yangi til birliklari, jumladan, leksemalashuv tufayli yuzaga kelgan leksemalar badiiy asarlarda, teatr sahnalarida, vaqtli matbuot sahifalarida, radio va televideniye eshittirishlarida qo‘llanadi va turli adabiy til uslublarida mustahkamlanadi. Undan foydalanish ko‘nikmasi shakllanadi, til iste’molchilarida shu birlikka nisbatan kommunikativ-pragmatik imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, leksemalashuv hodisasi har bir tilning, jumladan o‘zbek tili lug‘at tarkibining uzluksiz boyib borishida asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu hodisa natijasida yuzaga kelgan yangi birliklar o‘zbek tili lug‘at boyligining tarkibiy qismi sanaladi.

Xullas, til taraqqiyoti ham dialektika qonunlariga bo‘ysungan holda yaralishning soddalikdan murakkablikka, umumiylikdan aniqlikka, mahsulsizlikdan mahsuldorlikka qarab intilar ekan, bu jarayonda til elementlaridagi semantik-grammatik chegaralanishlar tobora oydinlasha boradi. Shu ma’noda leksemalashuv hodisasi semantik chegaralanishlarga xizmat qiladi va ularning mavjudligi stilistik maqsadlarni ham o‘zida mujassam etadi.

Leksemalashuv hodisasi o‘zbek tilining boyib borishidagi asosiy omillardan biri bo‘lib, u so‘zlar ma’nosidagi semantik-uslubiy siljishlarga sabab bo‘ladi. Bunday birliklarning turli sintaktik qurshovlarda ishtirok etishi har xil vaziyatlarda turli ma’nolarni ifodalashga olib keladi. Narsa-hodisalar, tushunchalar o‘rtasidagi yaqinlik ularning ifodasi bo‘lgan so‘zlarning qo‘llanish doirasini, ma’no ko‘lamini kengaytiradi. Ularni keyingi ma’nolarda qo‘llashning tilda me’yorlashib borishi ana shu ikkinchi ma’noning ham til iste’molchilari tomonidan to‘la o‘zlashtirib olinishiga olib keladi.

Leksemalashuv tilshunoslikning uch sathi birliklari aloqadorligida sodir bo‘ladi. Ammo hodisaning ma’lum bir sath doirasida o‘rganilishi shartligini inobatga olib, leksemalashuvni so‘z yasalishi sathida tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Chunki so‘z yasalishi mohiyat e’tibori bilan grammatikaning ham, leksikologiyaning ham elementlarini o‘zida mujassam etadi va ularning manfaatiga xizmat qiladi. So‘z yasalishi jarayonida shakl va mazmun dialektikasi nuqtayi nazaridan ularning har ikkalasi ham qatnashadi.

Tildagi aksar hodisalar lisoniy hodisa sanaladi. Ammo ulardan farqli ravishda leksemalashuv hodisasi nutqiydir, chunki sintaktik birliklarning lug‘aviy birlikka aylanish jarayoni – umumqo‘llanishdagi birlikka o‘tishi nutq bilan bog‘liq. Sintaktik birliklar muayyan narsa-hodisa, belgi-xususiyat va harakat-holatning nomi sifatida aynan nutqda barqarorlashadi. Agar umumqo‘llanish jarayonidan o‘tmasa, hech qanday erkin birikma leksik birlikka aylanmaydi. Leksemalashuv jarayoniga aynan erkin birikmalarning tortilishi ham mazkur hodisaning nutqiy ekanligini asoslaydi.

Leksemalashuv tufayli til materialining nutqda yangi imkoniyatlari ochilaveradi. Dastlab lisoniy va nolisoniy tamoyillarga muvofiq keladigan sintaktik tuzilmalar, uning negizida esa yangi leksemalar paydo bo‘ladi. Sintaktik birliklarning leksik birliklarga aylanishi bilan bog‘liq holatda yuzaga kelgan yangi til birliklari esa tilning boyishi, uzluksiz rivojlanishi, ifoda imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi.

Leksemalashuv til birliklarining ham ma’noviy tomoniga, ham shakliy tomoniga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’no tomoniga ta’sir natijasida birikma tarkibidagi leksemalarning ma’noviy mustaqilligini yo‘qotishi hamda yaxlit bir ma’noni anglatishga o‘tishi, xoslanishi yuz bersa, shakliy tomoniga ta’sir natijasida birikma tarkibidagi leksemalardagi grammatik shakllar tushib qolishi, qisqarishi ro‘y beradi. Aynan shakliy o‘zgarishlar leksemalashgan birliklarning imloviy xususiyatiga ham ta’sir etadi, ularning qo‘shilib yozilishini ta’minlaydi. Shundan kelib chiqib, leksemalashuv ikki xil tarzda – semantik va grammatik leksemalashuv yuz beradi deyish mumkindir.

Tilda leksemalashuv jarayonining paydo bo‘lishi tarixiy zaruriyat bo‘lib, uning yuz berishi tilning amaldagi qonuniyatlariga to‘la mos keladi. Bu mos kelish deganda fikrni yangicha tarzda ifoda etish usullarini hamda nutq jarayonidagi ixchamlik va qisqalikka intilish nazarda tutiladi.

Leksemalashuv jarayoniga tortilgan birikma bir qator bosqichlarni bosib o‘tadi. Dastlab u me’yorlashadi, ijtimoiylashish jarayonidan o‘tiladi, ya’ni muomalaga kiritilgan birlik bilan til iste’molchilari tanishib, ma’nosini anglashga intiladi, talaffuziga ham e’tibor qaratadi. Shundan so‘ng yuzaga kelgan birlik ommalashadi, me’yorlashadi, til sohiblari tomonidan e’tirof etiladi va lug‘at tarkibidan joy oladi.

Ta’kidlash joizki, leksemalashuv hodisasi har bir tilning, jumladan o‘zbek tili lug‘at tarkibining uzluksiz boyib borishida asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu hodisa natijasida yuzaga kelgan yangi birliklar o‘zbek tili lug‘at boyligining tarkibiy qismi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kim I.T. Leksikalizatsiya nutq hodisasi sifatida. O‘zbek tili va adabiyoti. 2005. № 2, 101-104-betlar.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. I-jild. – Toshkent: O‘zME, 2006. 680-b.

Oydin XO‘JAMURODOVA,
Osiyo texnologiyalar universiteti Tillar kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘ZBEK TILIDA O‘SIMLIKSHUNOSLIK TERMINLARINING AFFIKSATSIYA USULI BILAN YASALISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilida o‘simlikshunoslik terminlarining affiksatsiya usuli orqali yasalish xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda terminologiyani rivojlantirishda milliy tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi asoslanadi. O‘simlikshunoslik terminologiyasida ot, sifat va fe’l yasovchi affikslarning tutgan o‘rni, ularning semantik va funksional xususiyatlari yoritiladi. Xususan, –lik, –zor, –chi, –li, –siz, –simon, –dor, –la, –lan, –lashtir kabi affikslar yordamida hosil qilingan terminlar misollar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari affiksatsiyaning o‘simlikshunoslik terminologiyasida tizimlilik, semantik aniqlik va milliylikni ta’minlovchi yetakchi vosita ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *affiksatsiya, termin yasalishi, o‘simlikshunoslik terminlari, o‘zbek tili, ot yasovchi affikslar, sifat yasovchi affikslar, fe’l yasovchi affikslar, terminologiya.*

Аннотация: в статье проводится лингвистический анализ образования терминов растениеводства в узбекском языке с помощью аффиксации. Обосновывается необходимость опоры на внутренние ресурсы национального языка при развитии терминологической системы. Рассматривается роль словообразовательных аффиксов в формировании существительных, прилагательных и глаголов, используемых в терминологии растениеводства. На основе конкретных примеров анализируются аффиксы –lik, –zor, –chi, –li, –siz, –simon, –dor, –la, –lan, –lashtir. Результаты исследования показывают, что аффиксация является одним из наиболее продуктивных и устойчивых способов формирования терминов, обеспечивающим их системность, семантическую точность и соответствие нормам узбекского языка.

Ключевые слова: *аффиксация, образование терминов, ботанические термины, узбекский язык, аффиксы для образования существительных, аффиксы для образования прилагательных, аффиксы для образования глаголов, терминология.*

Annotation: this article presents a linguistic analysis of the formation of plant science terminology in the Uzbek language through affixation. The study emphasizes the importance of utilizing the internal resources of the national language in the development of scientific terminology. Special attention is paid to noun-forming, adjective-forming, and verb-forming affixes and their semantic and functional characteristics in plant science terminology. Affixes such as –lik, –zor, –chi, –li, –siz, –simon, –dor, –la, –lan, and –lashtir are analyzed based on illustrative examples. The findings demonstrate that affixation is one of the most productive and stable mechanisms for creating scientific terms, ensuring systematicity, semantic clarity, and conformity with the norms of the Uzbek language.

Key words: *affixation, term formation, botanical terms, Uzbek language, noun-forming affixes, adjective-forming affixes, verb-forming affixes, terminology.*

O‘zbek tilshunosligida termin yasalishi masalalari uzoq yillar davomida ilmiy tadqiqotlar markazida bo‘lib kelgan. Tadqiqotchilar terminologiyani rivojlantirishda milliy tilning ichki imkoniyatlariga tayanish zarurligini ta’kidlaydilar. So‘z yasalishi jarayoni tilning tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, jamiyat ehtiyojlariga mos holda rivojlanadi. Ayniqsa, fan va texnika sohalarining rivoji yangi terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayonda affiksatsiya o‘zbek tilining ichki imkoniyatlarini ishga soluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, affiksatsiya nafaqat umumtil birliklarini, balki ilmiy terminlarni hosil qilishda ham yetakchi rol o‘ynaydi. U mavjud leksik birliklar asosida yangi so‘zlar hosil qilish jarayonini ifodalaydi. O‘zbek tilida so‘z yasalishi asosan affiksatsiya, so‘z qo‘shish, qisqartma va semantik usullar orqali amalga oshadi.

Terminologiya muayyan fan yoki soha tushunchalarini aniq va barqaror ifodalovchi maxsus leksik tizimdir. Har bir termin o‘z ma’nosining aniqligi, birma’noliligi va tizimliligi bilan ajralib turishi lozim. Terminlarni yaratishda esa tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, affiksatsiya terminologik birliklar hosil qilishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Affiksatsiya so‘z negiziga yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish jarayonidir. O‘zbek tilining agglutinativ tabiati affiksatsiyaning keng imkoniyatlarini belgilab beradi. Yasovchi affikslar so‘zning lug‘aviy ma’nosini o‘zgartiradi yoki yangi semantik qirra qo‘shadi. Masalan, ot, sifat va fe’l yasovchi affikslar orqali turli so‘z turkumlariga mansub birliklar yaratiladi. Affiksatsiya terminologiyada tizimlilikni ta’minlaydi. Bir xil affiks yordamida yasalgan terminlar semantik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi va tushunchalar o‘rtasidagi munosabatni ochib beradi. Bu holat ilmiy matnlarni tushunishni osonlashtiradi hamda terminologik izchillikni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, affiksatsiya orqali yasalgan terminlar milliy til me’yorlariga mos bo‘lgani sababli o‘zlashtirilishi va qo‘llanishi qulay hisoblanadi. O‘simlikshunoslik terminologiyasida ot yasovchi affikslar muhim o‘rin egallab, ular yordamida o‘simlik

nomlari, ularning qismlari, holatlari hamda umumlashtirilgan tushunchalar ifodalanadi. Ushbu affikslar orqali yasalgan terminlar predmetlik va tushunchaviylik xususiyatiga ega bo‘lib, o‘simlikshunoslik terminlari tizimining asosiy qismini tashkil etadi. Ot yasovchi affikslarning faol qo‘llanishi mazkur sohaning terminologik boyligini ta’minlash bilan birga, terminlarning semantik aniqligi va tizimliligini mustahkamlaydi.

O‘zbek tilida o‘simlikshunoslik terminlarini yasashda eng mahsuldor affikslardan biri **–lik** affiksi hisoblanadi. Bu affiks orqali o‘simliklarning holati, sifati yoki umumiy tushunchani bildiruvchi abstrakt ma’noli terminlar hosil qilinadi. Masalan, *ko‘kalamzorlik* o‘simliklar bilan qoplangan hududni, *namlik* o‘simlik hayoti uchun muhim bo‘lgan muhit holatini, *hosildorlik* esa o‘simlikning hosil berish darajasini ifodalaydi. Ushbu terminlar ilmiy matnlarda keng qo‘llanilib, umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, **–zor** affiksi o‘simliklarning o‘sish joyi yoki muayyan o‘simliklar majmuasini bildiruvchi terminlarni hosil qilishda ishlatiladi. *Bog‘zor*, *tokzor*, *daraxtzor* kabi terminlar hududiylik va jamlanma ma’nosini ifodalab, o‘simlikshunoslikda muhim tushunchalarni anglatadi. Bu affiks yordamida yasalgan terminlar ko‘pincha landshaft va agrobiologik jarayonlar bilan bog‘liq holda qo‘llanadi.

–chi affiksi o‘simlikshunoslik terminologiyasida kasb yoki faoliyat egalarini bildiruvchi terminlar yaratishda qo‘llaniladi. *Bog‘bonchi*, *gulchi*, *dehqonchi* kabi terminlar insonning o‘simlik yetishtirish va parvarishlash bilan bog‘liq faoliyatini ifodalaydi. Bundan tashqari, **–gich / –kich** affikslari orqali *kesgich*, *ekgich* kabi asbob va vosita nomlari hosil bo‘lib, ular o‘simlikshunoslikdagi texnologik jarayonlar bilan bog‘liq terminlar sifatida qo‘llanadi.

Sifat yasovchi affikslardan eng faol qo‘llaniladigani **–li** affiksidir. Bu affiks predmetda muayyan belgi yoki xususiyat mavjudligini bildiradi. Masalan, *bargli o‘simlik*, *ildizli o‘simlik*, *mevali daraxt* kabi terminlar o‘simliklarning asosiy biologik belgilarini aniq ifodalaydi va ilmiy matnlarda keng qo‘llanadi.

Bunga qarama-qarshi ma’noni bildiruvchi **–siz** affiksi esa o‘simliklarda muayyan belgi yoki unsur yo‘qligini ifodalashga xizmat qiladi. *Mevasiz o‘simlik*, *bargsiz novda*, *ildizsiz ko‘chat* kabi terminlar o‘simliklarning biologik holatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tasnif jarayonida aniqlikni ta’minlaydi.

Shuningdek, **–simon** affiksi o‘xshashlik va qiyoslash ma’nosini ifodalab, o‘simliklarning shakliy xususiyatlarini tavsiflashda qo‘llaniladi. *Ignasimon barg*, *to‘rsimon tomir*, *sharsimon gul* kabi terminlar ilmiy tavsif uchun qulay bo‘lib, morfologik belgilarni aniq ifodalash imkonini beradi. **–dor** affiksi esa muayyan belgi yoki sifatning kuchli namoyon bo‘lishini bildiradi: *shoxdor o‘simlik*, *tikandor poya*, *hosildor nav*. Ushbu affikslar sifat yasovchi affikslar orasida terminologik jihatdan muhim o‘rin egallaydi.

Eng faol fe’l yasovchi affikslardan biri **–la** affiksidir. Bu affiks yordamida o‘simliklarga nisbatan bajariladigan harakatni bildiruvchi fe’llar hosil qilinadi. *Ekla*, *parvarishla*, *changla* kabi fe’llar o‘simlikshunoslik amaliyotida keng qo‘llanilib, agrotexnik jarayonlarni ifodalaydi.

–lan affiksi esa o‘simliklarning tabiiy rivojlanishi yoki holatga kirishini bildiradi. *Ildizlanmoq*, *shoxlanmoq*, *namlanmoq* kabi fe’llar o‘simlikning o‘sish bosqichlari va biologik jarayonlarini aniq ifodalaydi. Ushbu affiks orqali yasalgan terminlar jarayonning tabiiy kechishini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, **–lashtir** affiksi sababli yoki maqsadli harakatni bildiruvchi fe’llarni hosil qiladi. *Navlashtirmoq*, *ko‘paytirmoq*, *moslashtirmoq* kabi terminlar seleksiya, tajriba va ilmiy-amaliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, o‘simlikshunoslik terminologiyasida muhim ahamiyatga ega. Fe’l yasovchi affikslar yordamida hosil qilingan terminlar ilmiy matnlarda jarayonlarning ketma-ketligi hamda sabab-oqibat munosabatlarini aniq va izchil ifodalashga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida o‘simlikshunoslik terminlarining affiksatsiya usuli bilan yasalishini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu usul terminologik tizimni shakllantirishda eng samarali va barqaror mexanizmlardan biridir. Affiksatsiya o‘zbek tilining agglutinativ xususiyatlariga mos bo‘lib, yangi ilmiy tushunchalarni milliy til imkoniyatlari asosida nomlash imkonini beradi. Bu esa terminlarning o‘zlashtirilishi, qo‘llanishi va tushunilishini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Fe’l yasovchi affikslar orqali hosil qilingan terminlar o‘simlikshunoslikning amaliy jihatlarini, ya’ni o‘sish, rivojlanish va parvarish jarayonlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa affiksatsiyaning nafaqat statik, balki dinamik tushunchalarni ham ifodalash imkoniga ega ekanini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, affiksatsiya o‘zbek tilida o‘simlikshunoslik terminologiyasini rivojlantirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib, u terminlarning milliylik, tizimlilik va semantik aniqlik xususiyatlarini ta’minlaydi. Ushbu usul asosida yaratilgan terminlar ilmiy muomalada barqaror qo‘llaniladi va fan tilining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelgusida o‘simlikshunoslik terminlarini lingvokognitiv va leksikografik jihatdan chuqurroq o‘rganish affiksatsiyaning terminologiyadagi imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Фан, 1989.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Университет, 2001.
3. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1975.
4. Бегматов Э. Ўзбек терминологиясининг назарий асослари. – Тошкент: Фан, 1984.
5. Қодиров А. Ўзбек тили терминологияси масалалари. – Тошкент: Наврўз, 2012.
6. Жўраев Б. Илмий термин ва унинг хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2015.
7. Ахмедов Н. Биология терминологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
8. Мирзаев И. Ўзбек тилида сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Фан, 1994.

MADINA MUSURMANKULOVA,
Denau tadbirkorlik va pedagogika instituti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
rus tili va adabiyoti kafedrasi professori
filologiya fakulteti dekani



QURILISH TERMINLARINING LEKSIK VA TUSHUNCHAVIY MA’NOLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilidagi qurilish terminologiyasining shakllanishi leksik-semantik va tushunchaviy (konseptual) jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida qurilish leksikasining genezisi tahlil qilinib, undagi tub qatlam va o‘zlashma qatlamning o‘rni o‘zaro qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: *qurilish terminologiyasi, leksik ma’no, konseptual tahlil, kognitiv tilshunoslik.*

Аннотация: в данной статье исследуется формирование строительной терминологии узбекского языка в лексико-семантическом и концептуальном аспектах. В ходе исследования анализируется генезис строительной лексики, проводится сопоставительный анализ роли исконного пласта и заимствованного слоя в структуре терминосистемы.

Ключевые слова: *строительная терминология, лексическое значение, концептуальный анализ, когнитивная лингвистика.*

Annotation: this article examines the formation of Uzbek construction terminology from lexico-semantic and conceptual perspectives. The study analyzes the genesis of construction vocabulary and provides a comparative analysis of the role of native and borrowed layers within the structure of the terminological system.

Key words: *construction terminology, lexical meaning, conceptual analysis, cognitive linguistics.*

Kirish. Terminologiya fanining butun taraqqiyoti davomida kasb-hunar leksikasidagi ma’nolarning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini qamrab olgan terminlarning semantik mazmuni bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. **“Ma’no,” “tushuncha,” “definitsiya,” “ta’rif”** kabi kategoriyalarni chuqur o‘rganish terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq anglash, jumladan, terminlarning lug‘aviy va tushunchaviy ma’nosini tahlil qilish imkonini beradi.

Asosiy qism. S.V. Grinev-Grinevich o‘z tadqiqotlarida terminning leksik va tushunchaviy ma’nolari o‘rtasidagi munosabatlarning uch asosiy turini tavsiflaydi:

Birinchi tur leksik va tushunchaviy ma’nolarining aynan mos kelishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi tur terminlarda tushunchaviy ma’no mavjud bo‘lsada, leksik ma’nosining yo‘qligi bilan ajralib turadi. Bunday holat ikki vaziyatda — so‘zning asl ma’nosi yo‘qolganda yoki so‘z boshqa tildan o‘zlashtirilganda — yuzaga keladi.

Uchinchi tur tushunchaviy va leksik ma’nolarning nomuvofiqligi bilan tavsiflanadi. Tushunchaviy va leksik ma’nolarning nomuvofiqligiga misol sifatida so‘zlashuv nutqidagi so‘zning termin sifatida qo‘llanishi keltirilishi mumkin. Tushunchaviy va leksik ma’nolarning nomuvofiqligiga misol sifatida so‘zlashuv tilidagi so‘zning termin sifatida ishlatilishini keltirish mumkin. Masalan, движок so‘zi texnik kontekstda ham ichki yonuv dvigatelini, ham dasturiy kod elementini anglatishi mumkin. Bu esa ikki ma’nolikni keltirib chiqaradi va qo‘shimcha aniqlik kiritishni talab qiladi. Chuqur tahlillar, ta’riflarni aniq belgilash, bir ma’nolilik va ixchamlikka intilish samarali va tushunarli terminologiyani shakllantirishning asosiy omillari hisoblanadi.

Mazkur tasnifga tayangan holda olim terminlarni terminshunoslikda umumqabul qilingan uch turkumga ajratadi: to‘g‘ri oriyentatsiyali (yo‘naltirilgan) terminlar, motivatsiyasiz (semantik neytral) terminlar va noto‘g‘ri oriyentatsiyali (yo‘naltirilgan) terminlar.

Ingliz tilidagi *arcade [1, C.2], balustrade [1, C.2], column [3, C.7]* kabi terminlar, ularning rus va o‘zbek tillaridagi muqobillari аркада (ustunlarga tayangan ravoqlar tizimi*) [4, C.450],* балюстрада (naqshinkor panjara) [5] va колонна (ustun) [6, C.450] kabi terminlar leksik va tushunchaviy ma’nolari to‘liq mos keladigan holatlarni ko‘rsatadi. Ushbu terminlarni to‘g‘ri yo‘naltirilgan deb hisoblash mumkin, chunki ular o‘z ma’nosini aniq ifodalaydi va til foydalanuvchilari ularni tegishli tushunchalar bilan oson bog‘lay oladilar.

Ayrim terminlar mavjudki, ular tegishli madaniy muhitda aniq leksik ma’noga ega emas. Bunday terminlarga ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi *“absid”, «абсида/апсида»* (yarim gumbazli binoning yarim doira shaklidagi bo‘rtig‘i), “*apsida, binoning turtib chiqqan yoki burchak qismi*”, shuningdek, “плинта”, *“plinth”* (sokol qismi, ustun tagi, poydevor ma’nolariga ega) kabi so‘zlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu terminlar motivatsiyalanmagan deb qabul qilinib, foydalanuvchi leksik ma’noning yo‘qolishi yoki dastlab yo‘qligi sababli so‘z va uning ma’nosi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Terminlar semantikasi va ularning me’yorlashuvi haqidagi ta’rifimiz terminologiya va tilning ichki dinamikasiga oid muhim jihatlarini qamrab oladi. Omonimiya, polisemiya va sinonimiya holatlari terminlar ma’nosining noaniqligi tufayli professional sohada yuzaga keladigan qiyinchiliklarni

ko‘rsatsa, monosemiya so‘z yoki iboraning yagona ma’noga ega bo‘lgan til hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. Qurilish terminologiyasidagi bir ma’noli terminlar (monoleksemalar) affiksal so‘z yasash usuli orqali shakllanadi. Bu, ayniqsa, qurilish sohasidagi kasb-hunar, mutaxassislik va faoliyat turlarini anglatuvchi terminlarga xosdir.

Rus tilida bunday terminlar *аккумулятор, активизатор, амортизатор* so‘zlari bilan, shuningdek, *строител, градостроител, управляющий, проектировщик, заказчик, подрядчик, монтажник, крановщик* kabi kasb nomlari bilan ifodalanadi.

O‘zbek tilida shunga o‘xshash terminlarga *jadallashtirgich, to‘plagich, zarb yumshatgich* kabilar hamda *buldozerchi, pudradchi, geodeziyachi, vodoporovodchi, betonchi, montajchi* va boshqa kasb-hunar nomlari kiradi.

Ingliz qurilish terminologiyasida quyidagi terminlar uchraydi: *absorber, builder, ekistician, bleacher, concreter, nailer, moulder, driller, engineer, glazier, glass cutter, builder, dyer* (cf. to dye), *digger* (cf. to dig), *drawer* (cf. to draw), *designer* (cf. to design), *burnisher* (cf. to burnish), *carver* (cf. to carve), *joiner* (cf. to join), *motorist, machinist, automobilist, technologist, geologist, specialist, instructor, inspector, director, projector, distributor* va boshqalar.

Muayyan terminosistema doirasidagi termin monosemantiklikka intilishi kerak degan fikrga [C.22] ko‘ra terminologiya sohasida polisemiyaning mavjud emasligi nazariy jihatdan talab etiladi. Biroq real til amaliyoti bu qarashdan sezilarli farq qilishini ko‘rsatadi.

Terminologiyadagi ko‘p ma’nolilikning yorqin namunasi “kolonna/ustun” so‘zi bo‘lib, u qo‘llanilish sohasi va kontekstga qarab turli ma’no qirralariga ega bo‘ladi. Bu misol ayni bir termin o‘zining asosiy ma’no yadrosini saqlab qolgan holda bir nechta maxsus ma’nolarga ega bo‘lishi mumkinligini yaqqol ko‘rsatadi.

Rus tili: *к*олонна (лат. columna – круглый столб) – 1) аритектурно обработанныйб обычно круглый в поперечном сечении столб, который служет опорой для покрытия и состоит из базы, ствола и капители; 2) вертикалный стержневой элемент каркаса, воспринимающий нагрузку с перекрытий, покрытия, стенб подемно-транспортного обородувания и т.п. передающий её на фундамент [6, C.71].

O‘zbek tili: *kolonna* – 1) kolonna, ustun; 2) kolonna (ustun shaklidagi yodgorlik): zafar kalonnasi; 3) kolonna, (saf): namoyishchilar kalonnasi; 4) tex. Kolonna (ustun shaklidagi apparatlar, qurilmalar nomi): burg‘ilash shtangalari kolonnasi; 5) kolonna (bir necha avtomobil yoki traktorlardan tuzilgan mustaqil transport bo‘linmasi); 6) kolonka bilan bir ma’noda: raqamlar ustuni [4, C.450].

O‘zbek arxitektura terminologiyasida 40 ta ko‘p ma’noli termin qayd etilgan bo‘lib, bu umumiy miqdorning 4,04 %ni tashkil etadi. Shundan 9 tasi ikki ma’noli, 2 tasi uch ma’noli va bittasi noyob holat – to‘rt ma’noli termindir. Bu vaqt o‘tishi bilan terminologiyaning semantik rivojlanishining tabiiy jarayonini aks ettiradi.

Shunga o‘xshash holat rus arxitektura terminologiyasida ham kuzatiladi, bu yerda 45 ta ko‘p ma’noli terminlar aniqlangan (umumiy hajmning 3,42 %). Bu guruhda 18 ta termin ikki ma’noga, uchta termin esa uch ma’noga ega.

Ingliz arxitektura terminologiyasini tahlil qilish jarayonida 17 ta ko‘p ma’noli terminlar aniqlandi. Shundan o‘n ikkitasi ikki ma’noga, to‘rttasi uchta ma’noga ega bo‘lsa, bitta termin to‘rt xil ma’noga egaligi bilan xarakterlanadi. Umumiy hisobda bu 40 ta terminologik birlikni tashkil etib, o‘rganilayotgan terminologiya umumiy hajmining 4,04 foizini tashkil etadi.

Xulosa. Shunday qilib, bino-inshoot nomlari va qurilish terminlarini ularning ko‘p ma’noliligini hisobga olgan holda o‘rganish nafaqat qurilish bilimlarni chuqurlashtirishga, balki umumiy madaniy lingvistik tushunchani rivojlantirishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хокинс, Дж. Тольковый словарь английского языка Oxford = Oxford Concise School Dictionary: 40000 слов и выражений / Дж. Хокинс, Э. Делаханти, Ф. Макдональд. - М.: Астрель, АСТ, 2008. -I-IV, 556 с., С.22.

2. Корчемкин С.Н., Кашкин С.К., Курбатов С.В. Англо-русский строительный словарь. Ок. 55000 терми нов. М.: Рус. яз. 1995. — 672 с., С.41.

3. Binokorlikdan ruscha-uzbekcha atamalar lugati/ texnika fanlari doktori, professor X. Rasulov taxriri ostida, Komuslar Bosh taxririyati. T. 1994. 224 s., S.7.

4. Русско-узбекский словарь/ Кошчанов М.К., Акобир С.Ф., Альхамов Н.А., Кадыров Н. К., Ким С. С., Магруфов З.М., Маматов Н.М., Нурмухаммедов М. К., Султанов Н. А., Султанов Ю. С., Тураев П., Хаджиев А.Х., Шаабдурахманов Ш.Ш.- Институт языка м литературы им. Пушкина:Т., -Том 1-1983.- 807 с., С.450.

5. Гринев, Александр Сергеевич Сопоставительный анализ английской и русской архитектурной терминологии : На материале тематического поля «Теория и история архитектуры» : диссертация ... кандидата филологических наук : 10.02.20 Москва 2004.

6. Ананьин, М.Ю. Основы архитектуры и строительных конструкций : Термины и определения : [учеб. пособие] / М. Ю. Ананьин ; [науч. ред. И. Н. Мальцева] ; М-во образования и науки Рос. Федера ции, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 132 с., С.71.

7. Русско-узбекский словарь/ Кошчанов М.К., Акобир С.Ф., Альхамов Н.А., Кадыров Н. К., Ким С. С., Магруфов З.М., Маматов Н.М., Нурмухаммедов М. К., Султанов Н. А., Султанов Ю. С., Тураев П., Хаджиев А.Х., Шаабдурахманов Ш.Ш.- Институт языка м литературы им. Пушкина:Т., -Том 1-1983.- 807 с., С.450.

Umidjon QO‘ZIYEV,
Namangan davlat universiteti dotsenti
e-mail: kuziyevumid77@gmail.com

SO‘Z O‘ZLASHTIRISHNING MORFOLOGIK ASPEKTI

Annotatsiya: maqolada so‘z o‘zlashuvi butun kompleks jarayon sifatida tahlil qilingan. Tahlillar jarayonida shuning guvohi bo‘ldikki, o‘zlashma so‘zlar bir qolip sifatida namoyon bo‘lib leksikologiya bo‘limining tadqiqot obyekti bo‘lsa ham, shu qolipni ma’noviy hamda mazmuniy jihatdan to‘ldirish turli ijtimoiy, siyosiy, madaniy omillar bilan bog‘liqdir. Aslida til ijtimoiy hodisa bo‘lib, undagi biror o‘zgarish jamiyatning ishtirokisiz yuz bermasada, davlat va jamiyatning tilga keskin o‘zgartirish kiritish borasidagi urinishlarini nolisoniy omil sifatida, vaqt o‘tishi bilan sezilarsiz holatda fonetik, leksik va grammatik jihatdan o‘zlashmalarning o‘z til qolipiga moslashib borishini lisoniy hodisa sifatida farqlab oldik.

Kalit so‘zlar: *morfologik o‘zlashma, terminoelementlar, konvergensiya, morfologik o‘zlashtirish, morfologik me’yorlashuv.*

Аннотация: в статье анализируется усвоение слов как сложный процесс. В ходе анализа было установлено, что, хотя заимствованные слова выступают в качестве образца и являются объектом исследования лексикологического отдела, духовное и содержательное наполнение этого образца связано с различными социальными, политическими и культурными факторами. В действительности, язык — это социальное явление, и никакие изменения в нем не происходят без участия общества; мы выделили попытки государства и общества внести радикальные изменения в язык как нелингвистический фактор, а постепенную адаптацию фонетических, лексических и грамматических особенностей усвоенных слов к собственному языковому образцу с течением времени как лингвистическое явление.

Ключевые слова: *морфологическое усвоение, терминологические элементы, конвергенция, морфологическое усвоение, морфологическая стандартизация.*

Annotation: the article analyzes word acquisition as a complex process. In the process of analysis, it was found that although borrowed words appear as a pattern and are the object of research of the lexicology department, the spiritual and content filling of this pattern is associated with various social, political, and cultural factors. In fact, language is a social phenomenon, and no change in it occurs without the participation of society, we have distinguished the attempts of the state and society to make drastic changes to the language as a non-linguistic factor, and the gradual adaptation of phonetic, lexical, and grammatical adaptation of the word acquisitions to their own language pattern over time as a linguistic phenomenon.

Key words: *morphological acquisition, terminological elements, convergence, morphological acquisition, morphological standardization.*

Kirish. So‘z o‘zlashtirishni nazoratga olish ayrim olimlar tomonidan sifat jihatiga ko‘ra “universal o‘zlashtirish”, ayrimlari tomonidan turli ijtimoiy munosabatlar natijasida yuzaga keladigan tizimli ta’sir natijasi sifatida baholangan. So‘z o‘zlashtirishning turli darajalari mavjud bo‘lib, ular fonetik, leksik va grammatik bosqichlarga ajratiladi. Bulardan eng ta’sirchan qatlam lug‘at qatlami bo‘lib, grammatik va fonetik qatlamlar so‘z o‘zlashuvining nisbatan barqaror va yuqori bosqichi hisoblanadi. So‘z o‘zlashuvining fonetik va grammatik jihatlari bevosita so‘zlar, ularning mavzuviy guruhlari hamda turg‘un bog‘lanishlari bilan bog‘liq bo‘lgani sababli ham kompleks tarzda so‘z o‘zlashtirishning lisoniy muammolari qatoriga kiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Morfologik o‘zlashmalar masalasi Shveysariyaning Syurix universitetida F.Gardani, A.Bakus, L.Behrens, Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida B.Bikel, J.Nikols, AQSHning Oksford universitetida J.Blevinslar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Rus tilshunosligida A.V.Superanskaya, O.Axmanova, R.S.Kimyagarova, D.S.Shmidt, S.V.Gornostayev kabi olimlar o‘zlashma so‘zlarning turkumlashish holatlari (substantivatsiya, glagolizatsiya (verbalizatsiya), adyektivatsiya), jins kategoriyasining moslashishi kabilarga e’tibor qaratganlar.

O‘zbek tilshunosligida rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarning morfologik moslashuvi [4],[5], Urganch davlat universitetida german tillaridan kirgan so‘zlarning me’yorlashuvi [7], Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida fors tilidagi turkiy morfologik o‘zlashmalar [6] o‘rganilgan.

Natijalar va muhokama.B.Grande o‘zlashtirishda asosan leksik qatlam faolligini, grammatik qoida va hodisalar keyinroq o‘zlashishini qayd etadi. O‘zlashma so‘zning morfologik jihatdan moslashuviga yunon tilidagi-*os,* lotincha-*um* qo‘shimchalarining, hind-yevropa tillaridagi artikllar (the, a, ap, la, le, die, das) ning tushirilishini misol sifatida keltirish mumkin. Artikllar aniqlik-noaniqlik, jins kabi tushunchalarni bildirib, o‘zbek tilida grammatik kategoriya sifatida uchramaydi.

So‘zlarning morfologik jihatdan o‘zlashuvi borasidagi tadqiqotlar sirasida Haspelmat va Tedmorning “O‘zlashmalar tipologiyasi” loyihasi (The Loanword Typology Project) alohida ko‘zga tashlanib turadi [2]. Bu loyihaning ikki muhim nuqtasi mavjud. Biri – turli tillardan olingan o‘zlashmalar ma’nosi solishtirilgan ma’lumotlar ombori shakllantirilganligi, ikkinchisi – bu leksikasida o‘zlashmalarning hissasiga ko‘ra tillar tasniflanganidir. Tadmorning ta’kidlashicha, sintetik tabiatli tillar so‘z o‘zlashuvi eng qiyin bo‘lgan tillar hisoblanib, unda birinchidan fe’llarning o‘zlashuvi qiyin bo‘lsa, ikkinchidan boshqa turkumlar ham morfosintaktik qulay holatga keltirilishi kerak.Shu sababli sintetik tillarda otlarning o‘zlashuvi nisbatan faolroq kechadi [1].

So‘zlarni o‘z yoki o‘zlashma qatlamga ajratishdagi usullardan biri til tahlil qoidalariga mos kelishidir, ya’ni o‘zlashma so‘zlarning tarkibi, tuzilishi kabilar o‘z so‘zlarniki kabi oson kechmaydi. Qisman kalkalab olingan taqdirda ham ortiq qolgan morfema termin-element kabi tushunarsiz qismga aylanadi.

Fan va texnikada kelib chiqishi lotincha yoki yunoncha so‘z, o‘zak morfema, affiks va prefikslarning “terminoelementlar” maqomida ishlatilishi ko‘zga tashlanadi. Xilma-xil atamalar, chunonchi, V. Fludning ko‘rsatishicha, XX asrning 70-yillarida ingliz tilida 1150 ta, D. Xellarning hisobicha, 1129 ta, N.V.Yushmanovning ta’kidlashicha, rus tilida 1100 ta mana shu atama yasovchi begona til elementlari qo‘llangan ekan.

Mutaxassislarning hisobicha, rus, ingliz, fransuz tillaridagi neologizmlarning 50% dan 80% gachasini ayni mana shu unsurlar asosida yasalgan, sun’iylik, g‘ayriodatiylik sifati bilan fahmlanadigan terminlar tashkil etadi [9].

So‘zning morfologik o‘zlashtirilishida quyidagi jihatlar ahamiyatga ega hisoblanadi:

1. Qurilishi mosligi, qismlari o‘rtasidagi munosabatning o‘xshashligi, so‘z tartibining saqlanishi kabi.
2. Tuzilishi o‘xshashligi, ya’ni birikmaning birikmaga, so‘zning so‘zga, affiks turlarining o‘xshashligi tufayli ko‘chishi.
3. Bo‘sh o‘rinni to‘ldirishi, ya’ni o‘zlashma morfema o‘ziga xos vazifani bajarib, akseptor tilda bunday vazifa uchun alohida morfemaning yo‘qligi.
4. Morfologik jihatdan o‘zgarish.
5. Konvergensiya, ya’ni donor tildan o‘zlashgan so‘z tarkibidagi morfemaning o‘z farqlovchi belgisini yo‘qotib, o‘zak tarkibiga kirib ketishi yoki ortiqcha qism sifatida saqlanib qolishi: arab tilidan o‘zlashgan *-an* – tushum kelishigi qo‘shimchasi vazifasi susayib, harakat vaziyatini ifodalovchi ma’nosi bo‘rttirilgan va o‘zbek tilida ravish yasovchiga o‘tgan: arab tilidan kirgan –an tushum kelishigi qo‘shimchasi o‘zbek tilida holat ravishini hosil qiladi, o‘zbek tilidagi o‘rin-payt kelishigi ham bu vazifani o‘z zimmasiga oladi va so‘zlarda variantdoshlik hosil bo‘ladi:

ba’zida – ba’zan, aslida – aslan kabi.

Ba’zi holatlarda *-an* qo‘shimchasi *-a/-o* tarzida qisqartirib qo‘llanadi: *ittifoqo, avvalo* kabi.

Morfologik o‘zgarishning lisoniy omillari esa quyidagilarda ko‘rinadi:

1. So‘z tartibining o‘xshashligi.
2. Affikslar turining o‘xshashligi: pudratchi.
3. Kategoriya sifatida saqlanib qolishi.
4. Allomorflik.

Rus olimi R.A.Budirov lug‘aviy o‘zlashmalar o‘z tilidagi shakli bilan akseptor tildagi shakli o‘zaro sakkiz turdagi munosabatda bo‘lishini ko‘rsatgan edi:

1. Aniq ma’noga ega bo‘lgan so‘z yangi tilda mavhum ma’noni ham ifodalashi mumkin. 2. Jinsga taalluqli ayrim so‘zlar boshqa tilga o‘zlashganda turga taalluqli so‘zga aylanadi. 3. So‘zlar o‘zlashganda bir ma’noli so‘zdan ko‘p ma’noli so‘zga o‘zgaradi. 4. Ba’zi so‘zlar muqobilsiz holda boshqa tillarga kirib keladi. 5. Noarxaik so‘zlar arxaik so‘zga aylanishi mumkin. 6. O‘zlashma so‘zlarning lug‘aviy mustaqilligi

yo‘qoladi. 7. Bir tildagi atamalar o‘zlashgan holda so‘zga aylanadi. 8. Ba’zi so‘zlar so‘z birikmasiga aylanadi [8].

So‘zlarning morfologik o‘zlashtirilish va me’yorlashtirilishida jins kategoriyasi ham tez-tez ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilida ham arab tilining ta’sirida jins kategoriyasini ifodalashda *-a* morfemasi kuzatila boshlandi. Bunda erkak jinsini ifodalovchi so‘zning ham me’yoriy qo‘llanishda bo‘lishi moslashuv to‘liq kechganini bildiradi: *muallim – muallima, murabbiy* – murabbiya kabi.

Fors tilidagi turkiy o‘zlashmalarni o‘rgangan B.Djafarov va Z.Arifdjanovlar ayrim turkiy o‘zlashmalar arab tilida siniq ko‘plikda qo‘llanishini ko‘rsatib o‘tadi:

xon – xavonin (xonlar)

turk – atrok (turklar)

turkman – tarokima (turkmanlar) kabi. [6]

Fors tiliga turkiy tildan o‘zlashgan sifatlar sanoqli va aksari yakka holda qo‘llanmaydi [6]: *oqpar, oqshom, qoranay (klarnet)* kabi.

So‘zlarning o‘zlashuv jarayonida so‘zning o‘zagi bilan birga uning bir qismi – morfemasi ham o‘zlashadi, biroq o‘zakdan farqli ravishda o‘zlashgan affiks semantik asosga ega bo‘lmagani uchun ortiqchalik qiladi. Natijada so‘zning ikki xil varianti vujudga keladi: *agar – agarda, go‘yo – go‘yoki, afsus – afsuski, xayriyatki – xayriyat* kabi.

O‘zlashma so‘zlarda o‘z tilidagi ko‘plik shakllari singimaslik holatlari kuzatiladi: *Ajda(r)ho* fors tilida ajdarlar ma’nosini bildirib, o‘zbek tilida*–ho* ko‘plik qo‘shimchasi o‘z vazifasini yo‘qotgan, natijada so‘zning ikki xil varianti yuzaga kelgan: *ajdar, ajdarho* kabi.

O‘zbek tilida fors-tojik tiliga xos *-on* shakli fe’llarga qo‘shilib, vazn va ohangdorlikni ta’minlash uchun xizmat qiladigan o‘rinlar mavjud: *debon, aylabon, ko‘rubon, obodonchilik, nogahon* singari.

Xulosa. Morfologik moslashuv agglyutinativ tabiatli o‘zbek tilining ustunligi ostida kechgan bo‘lib, arab, fors, Yevropa tillaridan kirgan o‘zlashmalar tarkibidagi morfologik ko‘rsatkichlar semantik jihatdan o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, ayrimlari o‘zbek tilida mos boshqa shakllar bilan almashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djafarov B. Turkic loanwords in the Persian language and their lexical-semantic groups // Theoretical&Applied Science. – 2020, №7 – C.389-392.

2. Haspelmath M., Tadmor U. Loanwords in the world’s languages: a comparative handbook. Walter de Gruyter, 2009.

3. Tadmor U. Loanwords in the world’s languages: Findings and results. Loanwords in the World’s Languages: A Comparative Handbook, 2009. 55–75. – P.63.

4. Бегматов Э. Ўзбек адабий тилининг мустақиллик даври ривожига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. №4

5. Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985

6. Джафаров Б., Арифджанов З. Форс тилидаги туркий ўзлашмаларнинг морфологик мослашуви // Шарқ машъали, ОТ. 2022. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/fors-tilidagi-turkiy-zlashmalarning-morfologik-moslashuvi (мурожаат санаси: 17.04.2024).

7. Жуманиёзов А., Ходжаева Г. Ўзлашмаларда норма ва кодификация. Монография. – Урганч, 2023.180-б.

8. Мавлонова М. Д. Инглиз тилидан ўзлашган ахборот коммуникация технологиялари терминларини ўзбек тили лексик тизимига мослашиш жараёнлари // Наманган давлат университети “Илмий ахборотнома“си. 2022, №1.417-421- б.

9. Маҳмудова С. Термин яратишнинг яна бир усули // Ўзбек тилшунослиги: тараққиёт тамойиллари, илмий муаммолар, истиқболдаги вазифалар. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2013.60-63- б.

Zilola O‘ROQOVA,
Osiyo Texnologiyalar universiteti
Tillar kafedrasi dotsenti filologiya fanlari nomzodi

LEKSIK BIRLIKLARNING NUTQIY VOQELANISHIDA MORFOLOGIK, SINTAKTIK VA USLUBIY OMILLAR

Annotatsiya: o‘zbek tilining sistema sifatida o‘rganilishini shartli ravishda bir necha bosqichga bo‘lish mumkin. Bu esa tilning ichki sistemalari, ichki sathlarida amal qiluvchi sistem munosabatlari, shuningdek, tilni yaxlit sistema sifatida o‘rganish va uning voqelangan ko‘rinishi bo‘lgan nutqni lisoniy va nolisoniy tashkil etuvchi bosqichlardan iboratdir.

Kalit so‘zlar: *substansial, lisoniy, sistema, leksikografiya, nutqiy, umumlisoniy, sintaktik, maskan, semema, sath.*

Аннотация: изучение узбекского языка как системы условно можно разделить на несколько этапов. Она включает в себя изучение внутренних систем языка, системных отношений, действующих на его внутренних уровнях, а также изучение языка как целостной системы и этапов, составляющих речь, то есть ее фактическое проявление, в лингвистическом и нелингвистическом плане.

Ключевые слова: *существенный, лингвистический, система, лексикография, речь, общий лингвистический, синтаксический, место, семема, уровень.*

Annotation: the study of the Uzbek language as a system can be conditionally divided into several stages. It consists of the internal systems of the language, the system relations operating at its internal levels, as well as the study of the language as a whole system and the stages that make up speech, which is its actual appearance, in linguistic and non-linguistic terms.

Key words: *substantial, linguistic, system, lexicography, speech, general linguistic, syntactic, place, sememe, level.*

Bugungi kunda sistem-struktur leksikologiyaning yutuqlari bevosita milliy leksikografiyaga asos sifatida olinayotganligi alohida e’tiborga molik.

Ma’lumki, leksik birliklarning nutqiy voqelanishida morfologik, sintaktik va uslubiy omillar hamkorlik qilishi tegishli tadqiqotlarda aytib o‘tilgan. Ushbu nutqiy qo‘llanilishda hamkor sathlarning hissasini uchburchak burchaklarining mazkur figuradagi hissasiga qiyoslash mumkin. Bunda burchaklardan birining kengayishi qolgan burchaklarning torayishiga olib keladi. Shuningdek, leksik birlik nutqda voqelanar ekan, agar u polisemantik bo‘lsa, uning sememalarini, agar bir sememali bo‘lsa, oraliq ma’nolarini farqlash va nutqda olib chiqishda goh sintaktik omil kuchayib, bunda boshqa – morfologik va uslubiy omillar susayadi. Biroq ularning barchasi bir butunlik sifatida leksik birlikning nutqiy voqealanishini yuzaga chiqaradi.

Quyida ba’zi maskan otlari leksemalarining nutqiy voqelanishini sathlar hamkorligi misolida ko‘rib o‘tamiz.

O‘TILda uy leksemasining 5 ta sememasi, ya’ni leksikografik ma’nosi farqlangan:

“UY 1. Yashash uchun yoki turli tashkilot, muassasa va sh.k. joylashishi uchun mo‘ljallangan bino. 2. Yashash uchun mo‘ljallangan bino ichidagi har bir xona. Z. Biror ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan muassasa. 4. Oila, xonadon. 5. Biror oila yoki xonadon o‘rnashgan bino va shu binoga taalluqli yer, hovli”

Leksema ma’nolaridan 4 tasida uning “maskan” semasi yuzaga chiqqan bo‘lib, uning 4 – ma’nosi (“oila, xonadon”) bundan mustasnodir. Demak, uy leksemasining maskan otlari tizimiga kiruvchi birlik sifatidagi tahlilida uning mazkur 4 ma’nosi asosida ish ko‘ramiz. Leksema ma’nolarini farqlashda uning, avvalo, ot turkumiga mansub lug‘aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar: son, kichraytirish-erkalash shakllariga munosabatini kuzatamiz. Kichraytirish lug‘aviy shakliga munosabatda ma’nolar orasidagi farqlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, leksema 1 – “yashash uchun yoki turli tashkilot, muassasa va sh.k. joylashishi uchun mo‘ljallangan bino, bino ichidagi har bir xona” ma’nolarida kichraytirish shaklini erkin qabul qiladi. Masalan: uy – uycha kabi. Biroq 5 – “maskan” semali leksikografik ma’nosida (biror oila yoki xonadon o‘rnashgan bino va shu binoga taalluqli yer; hovli) uy leksemasi kichraytirish lug‘aviy shakli bilan birika olmaydi. Masalan, Qizlik uyga qirq ot boylanar gapidagi uy so‘zining kichik uy tushunchasini ifodalash imkoni cheklangan.

Ko‘rinadiki, “maskan” semali to‘rt leksikografik ma’no kichraytirish shakliga munosabatda farqlanib, ikki guruhga ajraladi. Kuchli morfologik omil kuchsiz sintaktik va uslubiy omillarni ma’lum darajada cheklab qo‘yadi. Modomiki, 1 - , 2 - ma’nolar nutqiy voqealanishida morfologik omil ta’siriga befarq ekan, bunda sintaktik va uslubiy omillar kuchayishi ma’lum bo‘ladi. 1-leksikografik ma’no yashamoq, ishlamoq, o‘qimoq, davolanmoq fe’llari bilan erkin birikadi. 2-leksikografik ma’nosida faqat yashamoq (uning variantlari va ma’nodoshlari ham nazarda tutilmoqda) leksemasi bilan nutqiy birikuvchanlik hosil qiladi. Demak, bunda birikuvchilariga munosabat nuqtayi nazaridan ikkala ma’no orasida noto‘liq ziddiyat kuzatiladi. Bu xususiy ziddiyatda ziddiyat belgisi “yashamoq” leksemasiga birikish

bo‘lib, 1-ma’no boshqa leksemalar bilan ham birikuvchanlik hosil qila olganligi sababli ziddiyatning majhul, 2-ma’no esa faqat yashash maskani bo‘lganligi sababli kuchli a’zosi sifatida yuzaga chiqadi. Leksema 3-va 5-ma’nolari asosida ot lug‘aviy shakllari bilan birika olganligi sababli, bu omil ular orasida farqlovchi ahamiyat kasb etmaydi. Demak, bu ma’nolarda ham yo sintaktik yoki uslubiy omil yetakchilik qiladi.

Leksema 3-ma’nosida har doim ajralmas birikma yoki birikmali qo‘shma so‘zlar tarkibida keladi: Bolalar uyi, dam olishuyi, madaniyat uyi kabi. Demak, bunda leksema variantining qo‘shma so‘z tarkibida kelishi kuzatilib, leksema ma’nosi qo‘shma leksema sememasi semasiga aylangan. Boshqacha aytganda, bolalar uyi kabi birikuvlar bugungi kunda sintaktik hodisaning leksikalizatsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan qo‘shma leksema sifatida qaralishi zarur. Zero, bu qo‘shma leksemalarning bir tushunchani ifodalashga ixtisoslashganligi, bir urg‘uli holatga intilishning kontakt (zich) aloqadorligi shunday hukm chiqarishga olib keladi.

Aytilganlardan ma’lum bo‘ladiki, uy leksemasining sememasi bo‘lib, 5 jildli O‘TIL da berilgan leksikografik ma’nolardan 3–sida sememaning semalashuvi kuzatiladi va bunda uy leksemasini emas, balki bolalar uyi, madaniyat uyi kabi qo‘shma maskan otlari leksemalarini ajratishga to‘la asos bor.

Tahlilimizda esa 1- va 2-leksikografik ma’nolargina uy leksemasining “maskan” semasini o‘zida aks ettirgan. Bu leksikografik ma’nolarning farqlanishi va nutqiy voqealanishida sintaktik omil ustuvor ahamiyat kasb etgan bo‘lib, morfologik va uslubiy omillar sezilarli darajada susaygan – farqlovchilik qiymatini yo‘qotgan.

Maktab leksemasi. O‘TIL da maktab leksemasining 4 ta leksikografik ma’nosi ajratilgan: 1. Yosh avlodga savod o‘rgatib, uni ma’lumotli qiluvchi ta’lim-tarbiya muassasasi. Boshlang‘ich maktab. Internat maktab. O‘rta maktab. Maktabga kirmoq. Bolani maktabga bermoq. Oliy maktab. 2. Kasb-hunar, ixtisos o‘rganiladigan o‘quv yurti. Musiqa maktabi. Shofyorlar maktabi. Hunar maktabi. 3.Ilm-fan, san’at, adabiyot, ijtimoiy-siyosiy faoliyat sohasida biror oqim, yo‘nalish. Maktab yaratgan olim, maktab yaratmoq.

O‘rganish, tajriba orttirish, o‘rnak olish manbai. Hayot zo‘r maktab ekan, haqiqiy fikrlar vujudga kelayotir. Oybek, “Nur qidirib”. Leksema “muassasa”, “o‘quv yurti” semalariga egaligi asosida maskan otlari leksemalari tizimiga doxil bo‘ladi. Demak, dastlabki ikki leksikografik ma’nosi asosida biz maktab leksemasini maskan oti leksemasi deyishga haqlimiz. Leksema 1-leksikografik ma’nosida “umumiy ta’lim beruvchi” ilm maskani”, 2-leksikografik ma’nosida esa “kasb-hunar beruvchi ilm maskani” sememalarini yuzaga chiqaradi. Yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha oliy ma’lumot beruvchi ta’lim muassasasi oliy maktab atamasi bilan ham nomlanadi. Biroq maktab so‘zi oliy so‘zi bilan birikkandagina bunday imkoniyatga ega bo‘ladi. Qo‘shma leksema tarkibida o‘z sememasini uning semasi sifatida yuzaga chiqaradi. Demak, oliy maktab qo‘shma leksemasi maktab leksemasining nutqiy voqelanishi emas, balki nutqiy voqelanib, keyinchalik qo‘shma leksema tarkibida lisoniylashgan holatidir.

Maktab leksemasining 2–leksikografik ma’nosida ham shunday holat kuzatiladi. Musiqa maktabi, hunar maktabi, sport maktabi tarkiban oliy maktab kabi murakkablashgan leksemalar bo‘lib, ular o‘zbek lisoniy jamiyati ongida bir butun holda so‘z birikmasining leksemalashgan ko‘rinishi sifatida idrok etiladi. Demak, maktab so‘zi yakka holda qo‘llanganda “o‘rta umumiy ta’lim beruvchi ilm maskani” sememasiga ega bo‘ladi va o‘z o‘rnida uni maskan leksemasi sifatida boshqa shunga monand ma’nolaridan farqlashga, ularda nolug‘aviy omillarni qidirishga ehtiyoj sezilmaydi.

Hovli leksemasi. 5 jildli O‘TILda hovli leksemasining 2 ta leksikografik ma’nosi farqlangan. 1.Uy oldidagi, atrofi devor bilan o‘ralgan maydon. Hovliga suv sepmoq. Hovlini supurmoq. Hovlida mevali daraxtlar bor. 2. Bir oila yoki xonadon yashaydigan uy (shu uyga qarashli sahn va yer maydoni bilan birga; hovli – joy, uy – joy) Hovli sotib olmoq. Hovlidan ko‘chib ketmoq. Hovli olma, qo‘shni ol.

Leksema sememalari “yer maydoni” birlashtiruvchi semasiga

ega bo‘lib, ular o‘zaro “uy oldidagi” (1 – ma’no) va “biror oila yoki xonadon yashaydigan” farqlovchi semalariga ega. Demak, birlashtiruvchi sema “yashaydigan” (yashash joyi) emas ekan, bu ma’nolardan birinchisi asosida “joy” arxisemasi leksik birliklar sirasidan joy olsa, ikkinchi leksikografik ma’nosi asosida maskan otlari tizimiga kiradi. Leksema sememalari farqlanuvida morfologik omillarning ta’siri kuchsizdir. Zero, har ikkala leksikografik ma’nosida ham leksema ot turkumiga mansub kichraytirish lug‘aviy shaklini bemalol qabul qiladi.

Demak, bunda sintaktik omil farqlovchilik xususiyatini namoyon qiladi. Chunki leksema birinchi leksikografik ma’nosi asosida yashamoq fe’li (va uning variantlari, ma’nodoshlari) bilan birikuv hosil qila olmaydi. Zero, yashamoq fe’lida yashash joyini anglatuvchi leksemalardagi “maskan” semasi takrorlanuvchan sema sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳмудов Н. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
2. Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. – Т.: Ўқитувчи, 1989.112-б.

Laylo BAYMURADOVA,
Qarshi davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti dotsenti

SIYOSIY VA OMMAVIY AXBOROT DISKURSLARIDA PERSVAZIV STRATEGIYALAR: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL

Annotatsiya: ushbu maqolada siyosiy va ommaviy axborot diskurslarida persvaziv strategiyalarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqsad – siyosiy nutq va media matnlarida auditoriyani ishontirish, ta'sir ko'rsatish va e'tiqodni shakllantirish vositalarini aniqlashdir. Tadqiqot davomida Aristotelning ritorik modeli (ethos, pathos, logos) hamda zamonaviy kognitiv-pragmatik yondashuvlar asosida O'zbekiston, Rossiya va AQSh siyosiy matnlari o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, persvaziv strategiyalar milliy, madaniy va siyosiy kontekstlarga mos ravishda farqlanadi.

Kalit so'zlar: *persvaziya, diskurs, siyosiy nutq, media tilshunosligi, ritorika, pragmatika.*

Annotation: this article analyzes the linguo-pragmatic features of persuasive strategies in political and mass media discourse. The study focuses on how persuasion functions as a communicative mechanism to influence public opinion and construct ideological meanings. Based on Aristotle's rhetorical model (ethos, pathos, logos) and modern cognitive-pragmatic approaches, political speeches and media texts are examined comparatively. The research reveals that persuasive strategies vary across national and cultural contexts and play a crucial role in shaping socio-political consciousness.

Key words: *persuasion, political discourse, media speech, rhetoric, pragmatics, communication strategy.*

Аннотация: в статье рассматриваются лингвопрагматические особенности персуазивных стратегий в политическом и массовом медийном дискурсе. Цель исследования – выявить способы языкового воздействия и убеждения, используемые для формирования общественного мнения. На основе риторической модели Аристотеля (ethos, pathos, logos) и когнитивно-прагматического подхода анализируются политические и медийные тексты. Установлено, что персуазивные стратегии зависят от национальных и культурных особенностей и играют ключевую роль в формировании идеологического сознания.

Ключевые слова: *персуазия, политический дискурс, медийная речь, риторика, прагматика, коммуникативная стратегия.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida siyosiy va ommaviy axborot diskurslari jamiyat ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim kommunikativ maydonlardan biriga aylandi. Siyosiy nutq va media tili orqali nafaqat axborot yetkaziladi, balki auditoriyaning e'tiqodi, hissiy holati va dunyoqarashi ham shakllantiriladi. Shu bois persvaziv strategiyalarni tahlil qilish tilshunoslik, kommunikatsiya va ijtimoiy psixologiya kesishgan muhim soha sifatida qaralmoqda.

Persvaziya (lot. *persuasio* – "ishontirish") tushunchasi nutq subyekti tomonidan auditoriyaga ta'sir ko'rsatishning maqsadli shaklini bildiradi. Siyosiy kommunikatsiyada bu jarayon ritorik vositalar, emotsional argumentlar, metaforalar, intertekstual havolalar orqali amalga oshadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy siyosiy va media diskurslari axborot ko'pligi, manipulyativ uslublar va dezinformatsiya fonida persvaziv strategiyalarni anglashni talab etmoqda.

Metodologiya. Tadqiqotning nazariy asosini Aristotelning klassik ritorik modeli, T. van Deykning diskurs tahlili nazariyasi, N. Feyrklou va R. Vodakning kritikal diskurs tahlili ishlari tashkil etadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: diskurs tahlili – siyosiy va media matnlarning semantik-pragmatik tuzilishini aniqlash;

Komparativ tahlil – o'zbek, rus va ingliz tilidagi siyosiy nutqlarda persvaziv strategiyalarni solishtirish;

Kognitiv-pragmatik yondashuv – til birliklarining ongdagi interpretatsiyasi va ularning ta'sir kuchini aniqlash;

Korpus tahlili – 2022–2024 yillardagi siyosiy chiqishlar, yangilik portallari va tahliliy maqolalar asosida misollar to'plash.

Natijalar. Tadqiqot davomida turli siyosiy va media diskurslarda persvaziv strategiyalarni shakllantiruvchi til vositalari, ularning kommunikativ maqsad va pragmatik yuklamasi tizimli tahlil qilindi. Quyida asosiy kuzatishlar keltiriladi:

Siyosiy nutqlarda persvazivlik, avvalo, legitimlik va ishonchlilikni yaratishga qaratilgan. Bu jarayonda siyosatchi o'zini xalq ishonchiga sazovor shaxs sifatida ko'rsatishga intiladi. Masalan, o'zbek siyosiy nutqida "xalqimiz ishonchi", "kelajak uchun mas'uliyat", "birgalikda barpo etamiz" kabi birikmalar milliy birlik va ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi. Siyosiy diskursda quyidagi asosiy strategiyalar kuzatildi: Etos strategiyasi – siyosiy yetakchining obro'sini oshirish, o'zini xalq dardiga befarq bo'lmagan inson sifatida ko'rsatish (masalan: "Men har bir fuqaromizning hayoti farovon bo'lishini istayman").

Logos strategiyasi – mantiqiy asosli, faktlarga tayanadigan dalillarni keltirish ("so'nggi uch yilda iqtisodiy

o‘sish 7 foizdan oshdi”, “100 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi”).

Pathos strategiyasi – hissiy ta’sirga yo‘naltirilgan ritorik vositalar (“farzandlarimiz baxtli kelajagi uchun”, “vatan taqdiri har birimizning qo‘limizda”).

Siyosiy persvaziya jarayonida til faqat axborot yetkazuvchi vosita emas, balki ijtimoiy boshqaruv quroliga aylanadi. Auditoriya e’tiborini jalb qilish, muayyan qarashni legitimlashtirish va murosasizlikni kamaytirish maqsadida ijobiy (optimistik) konnotatsiyaga ega so‘zlar ustuvor ishlatiladi.

Media matnlarida persvazivlik siyosiy nutqqa nisbatan ko‘proq yashirin (implicit) shaklda ifodalanadi. Jurnalistik janrlarda, xususan, tahliliy maqolalarda yoki sarlavhalarda emotsional yuklama yuqori bo‘ladi.

Tahlil natijasida o‘zbek, rus va ingliz media diskurslarida quyidagi usullar ajratildi:

Baholovchi leksika (“muhim qaror”, “keskin o‘zgarish”, “tarixiy voqea”) – voqeaga ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantiradi;

Metafora (“iqtisodiyot dvigateli”, “islohotlar poyezdi”, “xavfli burilish”) – murakkab ijtimoiy jarayonlarni oddiyroq tilda ifodalaydi va emotsional ta’sirni kuchaytiradi;

Kontrast strategiyasi – “biz” va “ular” oppozitsiyasi orqali g‘oyaviy chegaralarni belgilaydi.

Taqdimot (framing) – axborotni muayyan rakursda yoritish orqali o‘quvchi tafakkurini yo‘naltiradi. Masalan, “Gazeta.uz” yoki “Kun.uz”da keltirilgan sarlavhalar (“Islohotlar yangi bosqichda”, “Rivojlanish sari dadil qadam”) o‘quvchida optimistik tasavvur uyg‘otadi, shu bilan birga hukumat siyosatini ijobiy konnotatsiyada taqdim etadi. “BBC News” esa tahliliy uslubda neytrallikka intilsa-da, sarlavhalardagi semantik urg‘ular (masalan, *“controversial reform”*, *“political pressure”*) orqali muayyan baho beradi.

Persvaziv strategiyalar har bir madaniyatda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi:

O‘zbek diskursida kollektiv qadriyatlar, diniy-axloqiy komponentlar va milliy birdamlik konseptlari yetakchilik qiladi. Rus diskursida tarixiy legitimlik, davlat mustahkamligi va ijtimoiy barqarorlik mavzulari ustuvor. Ingliz (g‘arb) diskursida esa shaxsiy erkinlik, demokratiya, tanqidiy fikr va bahs madaniyatiga urg‘u beriladi. Bu farqlar persvaziv strategiyalarni nafaqat lingvistik, balki sotsiopragmatik hodisa sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Persvaziv strategiyalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, til va ideologiya o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Siyosiy va media diskurslar auditoriyaga nafaqat faktlarni, balki ularning ma’noso-mazmunini ham yetkazadi. Bu esa tilni ideologik vositaga aylantiradi.

Persvazivlikning lingvopragmatik tabiati quyidagi tamoyillar bilan belgilanadi:

1. Intentionality – nutq subyekti maqsadining aniq yo‘naltirilganligi;
2. Interaktivlik – auditoriyaning javob reaksiyasiga asoslanish;
3. Kooperativlik – ishonchli muloqot muhitini yaratish orqali ta’sirni kuchaytirish.

Tahlil natijalariga ko‘ra, siyosiy va media diskurslarida rassional (logos) va emotsional (pathos) argumentlar ko‘pincha uyg‘un holda ishlatiladi. Bu esa persvaziv nutqning samaradorligini ta’minlaydi. Masalan, siyosiy chiqishlarda “biz birgalikda bu maqsadga erishamiz” kabi birikmalar orqali ijtimoiy birdamlik (pathos) va harakatga undov (logos) birlashtiriladi. Shu tariqa, siyosiy nutq ijtimoiy jarayonlarni legitimlashtiruvchi kommunikativ mexanizmga aylanadi.

Media tili esa ko‘pincha diskursiv manipulyatsiya vositasiga aylanishi mumkin. Van Deykning (2006) fikricha, manipulyativ diskurs auditoriya e’tiqodini yashirin tarzda o‘zgartirishni maqsad qiladi. Shuning uchun persvazivlik bilan manipulyatsiya o‘rtasidagi chegarani aniqlash lingvistik jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Yana bir muhim jihat — gender va vizual omillarning ta’siridir. Masalan, televideniyedagi siyosiy chiqishlarda intonatsiya, mimika, libos, rang tanlovi ham persvaziv effektni kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlaydi. Shu bois zamonaviy tadqiqotlarda multimodal persvaziya tushunchasi tobora muhimlashmoqda.

Xulosa. Persvaziv strategiyalar siyosiy va ommaviy axborot diskurslarining kommunikativ samaradorligini ta’minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Ular orqali siyosiy subyektlar auditoriyaning hissiy, axloqiy va mantiqiy qirralariga bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki: siyosiy persvaziya ritorik va madaniy omillarga tayanadi; media diskurslarda persvazivlik manipulyativ va estetik elementlar bilan uyg‘unlashadi; persvaziv strategiyalarni lingvopragmatik tahlil qilish siyosiy kommunikatsiya, media savodxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida mazkur mavzuni empirik korpuslar asosida kengaytirish, auditoriya reaktsiyasi va multimodal (matn + vizual) persvazivlik jihatlarini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotle. (2007). *On Rhetoric: A Theory of Civic Discourse* (2nd ed.). Oxford University Press.
2. Chilton, P. (2004). *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*.
3. Fairclough, N. (1995). *Media Discourse*. Edward Arnold.
4. Van Dijk, T.A.(2006).*Discourse and Manipulation*. *Discourse & Society*, 17(3), p.
5. Lakoff, G. (2004). *Don’t Think of an Elephant! Know Your Values and Frame the Debate*. Chelsea Green Publishing.

Orziboni YUSUPOVA,
Samarqand davlat universiteti dotsenti

GAPNING BOSH BO‘LAKLARI LINGVOPOETIKASIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada gapning bosh bo‘laklari: ega va kesimning badiiy matndagi o‘rni, emotsional-ekspressiv, estetik ifoda imkoniyatlari o‘rganilgan. Ijodkor maqsadini amalga oshirishda, individuallikni ta’minlashdagi ahamiyati nasriy va she’riy matnlardan olingan misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, aktuallashish, uyushiq kesim, sintaktik parallelizm, ega takrori, emotsional-ekspressivlik.*

Аннотация: в данной статье изучается роль главных членов предложения — подлежащего и сказуемого — в художественном тексте, их эмоционально-экспрессивные и эстетические выразительные возможности. На основе примеров из прозаических и поэтических произведений анализируется значение этих членов в реализации авторского замысла и обеспечении индивидуальности.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, актуализация, однородное сказуемое, синтаксический параллелизм, повтор подлежащего, эмоционально-экспрессивность.*

Annotation: this article studies the role of the main parts of speech: the possessive and the participle in the literary text, the possibilities of emotional-expressive, aesthetic expression. Its importance in realizing the creative goal and ensuring individuality is analyzed through examples taken from prose and poetic texts.

Key words: *linguopoetics, actualization, organized predicate, syntactic parallelism, possessive repetition, emotional-expressiveness.*

“Gap tushunchasi kesim tushunchasi bilan bog‘liqligi” [G‘ulomov, Asqarova, 1987: 84], har qanday gapning mazmuniy va grammatik markazi kesim ekanligi olimlar tomonidan e’tirof qilingan [Qurbonova, 2001; Azimov, 2001; Yorov, 2001; Mahmudov, 2009:44-51]. Haqiqatan ham, voqea-hodisa, o‘y-kechinma, xatti-harakat natijasi gapning kesimi orqali anglashiladi. Kesimning o‘zi gap bo‘la oladi, ammo kesimsiz gap bo‘lmaydi. Shu sababdan kesimning badiiy matnda faol ishtiroki oddiy holat, lingvopoetik aktuallashish emas. Biroq kesimlarning o‘zidan gap tuzish, ularni ketma-ket qo‘llash, ayrim she’riy asarlarda misraning kesim bilan boshlanishi, takrorlanishi kabi “lingvopoetik harakatlar” gap-fikrning yadrosida turgan kesimning adabiy matnda o‘ziga xos badiiy-estetik vazifa bajarishini tasdiqlaydi.

Kesimlarning uyushib kelishini olaylik. Poetik matnlarda uning sintaktik parallelizm hosil qilishi she’rning o‘qilishida bir maromni ta’min etsa, mazmun jihatdan esa fikriy ketma-ketlik – iyerarxiyani, izchillikni, binobarin matnning alohida bir e’tibor bilan anglanishini yuzaga keltiradi: *Endi bizga ishq yo‘llari xatarlidir, Ma’yuslidir, og‘riqlidir, kadarlidir, Ibtidomiz intihodan xabarlidir, Quvonchi oz, g‘ami o‘lim qadarlidir* (U.Azim. “Saylanma”, 284).

Nasriy matnlarda ham kesimlar uyushishi va sintaktik parallelizm hodisasi kuzatiladi. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida Akbarali mingboshining sevimli xotini bo‘lgan davridagi Poshshaxon hayoti, ustiga kundosh tushgandan so‘ng Xadichaning ahvoli uyushgan kesimlar orqali oson, batafsil, yaqqol, kitobxonni befarq qoldirmaydigan darajada ochib berilgan: *U vaqtda o‘zi kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi... Xadichaxon esa ezildi, kuydi, o‘rtandi, xo‘rlanib-xo‘rlanib achchiq-achchiq yig‘ladi* (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”, 59). Cho‘lpon bu usuldan asarning davomida ham foydalangan. Masalan, mingboshining uchinchi xotini Sultonxon boshda Zebining sevimli xotinga aylanishiga xalal berishga harakat qiladi, uddasidan chiqolmagach, ajralmoqchi bo‘ladi. Bu ham natija bermagach, boshqacha yo‘l topadi. Yozuvchi uning qanday yo‘l tutganligini kundoshi Poshshaxonning o‘ylari orqali beradi: *Nima bo‘ldi bu juvonga? Ertadan-kechgacha kundoshlari bilan o‘ynashadi, gapiradi, ashula qiladi, kuladi, kuldiradi, tegishadi, hazil qiladi, qitiqlaydi, qochadi, quvlaydi, quvlashadi* (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”, 216). Cho‘lponning

Sultonxon xatti-harakatlarini berishda tutgan yo‘lida muayyan ifodaviy maqsad bor. Birinchidan, Sultonxonning o‘zini bunday tutishi Poshshaxonning g‘ashiga tegadi. Gapda kundoshi harakatlarining birma-bir sanalishi, ta’kidlanishi va uning ifodasi bo‘lgan kesimlarning ketma-ket, uyushgan holda kelishi ana shu g‘ashlikning Poshshaxon ruhiyatida tobora orta borayotganiga ishoradir. Ikkinchidan, yozuvchi mana shu holatdan Poshshaxon qalbida ildiz otgan yovuzlikning yuzaga chiqishiga – mudhish reja tuzishiga va amalga oshirishiga turtki bo‘lgan detal sifatida foydalandi. Avval Poshshaxon va Xadicha, keyin Sultonxon holatini uyushgan kesimlar ko‘rinishida bunchalik batafsil berilishi Cho‘lpon poetik mahoratining namunasi sifatida badiiy-estetik mohiyat kasb etadi.

Tahlillar kesimlarning bu tarzda qo‘llanishi tasviriylikka putur yetmagan holda muhim stilistik vazifa – nutqiy tejamkorlikni amalga oshirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi. Fikrimizni Sh.Xolmirzayevning “Hayot abadiy” hikoyasidan olingan quyidagi parcha tasdiqlaydi: *Inson hayoti shu ekan-da. Tug‘ildi, o‘sdi, o‘qidi, ishladi, odamlar bilan urishdi, yarashdi. Ro‘zg‘orni o‘yladi, tashvish tortdi. Sevdi... nihoyat o‘ldi (*Ш.Холмирзаев. Сайланма. 1-жилд. 58-б). Ba’zan kesimlarning uyushgan va ketma-ket qo‘llanishi badiiy matnlarda bundan-da mas’uliyatliroq vazifalarni zimmasiga olishi mumkinligini kuzatamiz. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani qahramonlaridan biri Razzoq so‘fi dunyoga kelganda doya kampir shunday deydi: – *Aylanay mehmon, kimdan xafa bo‘lib tushdingiz? Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog‘ingizni ochsangiz-chi! Yorug‘ dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying!* (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”, 26). Bu gaplar uning olam yuzini ko‘rgan chaqaloqqa xursandchilikdan shunchaki aytgan gaplarimikan yoki ilk qarashlarda nimalarnidir payqaganining natijasimikan? Alloh bo‘lajak Razzoq so‘fining fe’lini doya kampirning diliga va tiliga soldimikan? Harqalay, bu kamgap va qo‘rs odam hayotida hech narsadan sevinmadi. Faqat bir marta qo‘lida hech ko‘rilmagan pullar paydo bo‘lganda sevinganini hisobga olmaganda. U hayotdan qonib, zavqlanib kulmadi, bir martagina kulimsiradi. Bu uning eshon muridlari tomonidan qattiq kaltaklanganda sodir bo‘ldi: *Tashqariga chiqib yurdi; muridlarga kulib qaradi. Faqat gapga javob bermadi. Xayoli boshqa joyda, boshini chaypar, kulimsiragan ko‘zlari bilan muridlarga tikilardi.* (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”, 271). Matndagi ushbu gaplarni o‘qigandan keyingina zukko o‘quvchi u bilan doyaning gaplari orasida bog‘lanish borligini payqaydi. Doyaning alohida-alohida ta’kidlab aytgan gaplarida qandaydir tagma’no yashiringanini his qiladi. Razzoq so‘fi fe’lidagi qusurlar oldindan bashorat qilingan ekan-da, degan xayolga boradi. Doya kampir nutqida tizilgan kesimlarning lingvopoetik xizmati ana shu bilan baholanadi.

Aslida faqat kesimdan iborat to‘liqsiz gaplarning faol qo‘llanilishi so‘zlashuv uslubiga xos xususiyat [Shomaqsudov va boshqalar, 1983: 146], ammo bu holat shundayligicha badiiy matnlarga ham ko‘chishi mumkin: *Suvga chiqqan kelinchaklar uni o‘rab oldi. –Vulqon chiqdimi? – Suv bosdimi? – Cho‘kib ketdimi?* Toshkentdan zilzila ro‘y bergan paytda Chirchiqqa kelgan ayoldan qo‘shnilarning so‘ragan bu gapi Sh.Xolmirzayevning “Bir guzar odamlari” hikoyasidan olingan. Ayollar nutqidagi bu qisqalik tejamkorlikni ko‘zlab amalga oshirilgan emas. Bu gaplarda ayollar nutqiga xos bo‘lgan axborotga qiziquvchanlik, fikrni tez ifodalash istagi kabi gender holatlar kuzatiladi. Buning ustiga, ular bo‘lgan voqeaning tafsilotidan xabarsiz, uni faqat mish-mish tarzida eshitishgan. Shuningdek, biroz sarosimalik ham bor. Bu psixologik holatlar jamlanib, ketma-ketlikda keltirilgan uchta fe’lda ifodalangan.

Kesimlar ayrim holatlarda gapga teng bo‘ladi: *Xavotir ichinda deding: “Men ketdim...”. To‘xtading. Xo‘rsinding. Jo‘nading shitob* (U.Azim. “Saylanma”, 86). Ular talaffuzidagi pauza – to‘xtamning qisqaligi she’rning o‘qilishiga, binobarin, ifodalilikning uyushgan kesimlardan farqlanishiga sabab bo‘ladi.

Kesimdan keyingi ikkinchi bosh bo‘lak – ega [Abuzalova, 1994: 10; Mahmudov, Nurmonov: 1995: 76-77] haqidagi axborot kesimdan anglashilib turgan paytlarda u gap tarkibida bevosita ishtirok etmasligi mumkin. Uning ishtirokiga qarab gapning stilistik ottenkalari o‘zgaradi–mavjudlik ma’nosi kuchaytiriladi yoki harakatni bajaruvchi shaxs ta’kidlanadi. Ulardan badiiyatni ta’minlaydigan darajadagi ekspressivlikni kutish shart emas. Ammo shunday holatlar bo‘ladiki, eganing qo‘llanishi ifodaga ulug‘vorlik bag‘ishlaydi va chinakam ma’noda o‘quvchiga estetik ozuqa beradi. U.Azim yozadi: *Sevmoqlik – mahkumlik, Mahkumlik – ro‘zim. Siz bilan bu kecha tortishga afg‘on Men o‘zim*

yarayman, Faqat bir o‘zim! (U.Azim. “Saylanma”, 312). Sevmoqlik – mahkumlik, Mahkumlik – ro‘zim tarzidagi qo‘llanishlarda so‘zlar nafaqat semantik, balki grammatik jihatdan ham muvozanatga keladi. Ega va kesim matnda tenglashadi.

T.Murodning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” asari qahramonlaridan biri – sobiq tuzum davrida viloyat rahbari bo‘lgan Rajabov nutqida ega o‘zining semantik-grammatik vazifasidan tashqariga chiqadi va matnda ta’kid ifodalovchi vosita sifatida ishtirok etadi: *Mana men. Men qurdim, men yaratdim, men savob ishlar qildim! Shunday ekan, men piri badavlat shaxsman. Men bus-butun shaxsman. Men yetuk shaxsman!* (T.Murod. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 92). Eganing lingvopoetik ifoda ko‘lami kengayib, matnda kinoyani yuzaga keltiruvchi vositaga aylanishi ham mumkin bo‘ladi: – Yo‘q siz shudgor qilmaysiz. Siz to‘qsiz-ku, – to‘ng‘illadi Mirhaydar (Sh.Xolmirzayev. “Saylanma”, 1-jild.119). Shuningdek, mensimaslik ottenkasini berishi ham kuzatiladi: *Senlar, o‘zi, qayerdansan? Senlar, o‘zi, qayerda o‘sding? Senlar, o‘zi, kimning bolasisan? Osmondan tush-a, nonko‘rlar, osmondan shaloplab tush-a, nonko‘rlar!* (T.Murod. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 92). Albatta, ushbu matnlarda eganing ekspressivligi boshqa lingvopoetik vositalar qurshovi, ayni holatda, eganing takrori bilan yuzaga kelayotganini ham aytish to‘g‘ri bo‘ladi.

Xullas, ega va kesim gapning bosh bo‘laklarigina emas, balki ijodkor maqsadini amalga oshiradigan, badiiy matnlar poetikasining yuksak darajada bo‘lishiga ko‘maklashadigan asosiy sintaktik birliklardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фан.номз. ...автореф. дисс. –Тошкент, 1994.

2.Азимов И. Алишер Навоий насрий асарларида кесим марказли бир бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари: Филол.фан.номз...автореф.дисс. –Тошкент, 2001.

3. Ёров Б. Уюшиқ кесим: унинг зотий (субцтанциал) табиати ва гапдаги мавқеи: Филол.фан.номз... автореф.дисс. –Тошкент, 2001.

4.Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.

5. Маҳмудов Н. Кесимнинг гапдаги мақоми// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2009. – Б.44-51.

6. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

7.Тоғай Murod. Бу дунёда ўлиб бўлмайди.– Тошкент: Шарқ, 2001.

8.Усмон Азим. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 1995.

9.Холмирзаев Ш. Сайланма. 1-жилд. www.ziyouz.com kutubxonasi.

10.Чўлпон. Яна олдим созимни. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.

11.Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

12. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол.фан.докт. ...автореф.дисс. –Тошкент, 2001.

13. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.



Nilufar ABDULLAYEVA,
Termiz davlat universiteti dotsenti
E-mail: abdullayevanilufar480@gmail.com;

Gulruh UMBAROVA,
Termiz davlat universiteti magistranti
E-mail: umbarovagulruh23@gmail.com

MILLIY-MADANIY KONNOTATSIYALAR: O‘SIMLIK OBRAZLARI TIMSOLIDA

(Ingliz va o‘zbek frazeologiyasi misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi fitonim komponentli frazeologik birliklarda milliy-madaniy konnotatsiyalarning ifodalanishi qiyosiy-lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘simlik obrazlarining frazeologik birliklar tarkibida qanday ramziy va baholovchi ma’no kasb etishi masalasi yoritiladi. Tahlil natijalari gullar, daraxtlar va mevalarni bildiruvchi fitonimlar har ikki tilda ham xalq mentaliteti, qadriyatlar tizimi va madaniy qarashlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, madaniy konnotatsiya, frazeologik birlik, fitonim, o‘simlik obrazi, milliy mentalitet.*

Аннотация: в статье проводится сравнительно-лингвокультурологический анализ фразеологических единиц английского и узбекского языков с фитонимическими компонентами. Особое внимание уделяется выявлению национально-культурных коннотаций, формирующихся на основе образов растений. Анализируются символические и оценочные значения фитонимов, отражающие особенности национального менталитета, систему ценностей и культурные представления носителей сопоставляемых языков. Показано, что фитонимические образы выступают важным средством репрезентации национальной картины мира.

Ключевые слова: *лингвокультурология, культурная коннотация, фразеологическая единица, фитоним, образ растения, национальный менталитет.*

Annotation: this article explores national and cultural connotations in English and Uzbek phraseological units containing phytonym components. The analysis is based on a comparative linguocultural approach and focuses on how plant imagery functions as a symbolic and evaluative element in phraseology. The study demonstrates that plant-related images reflect national mentality, value systems, and culturally specific modes of interpretation in both languages.

Key words: *linguoculturology, cultural connotation, phraseological unit, phytonym, plant imagery, national mentality.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til faqatgina aloqa vositasi sifatida emas, balki muayyan xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida talqin qilinmoqda. Til birliklari, xususan, frazeologik birliklar orqali milliy tafakkur va madaniy stereotiplarning shakllanish jarayoni kuzatiladi.

Frazeologiya tilning eng barqaror qatlamlaridan biri bo‘lib, unda xalqning hayotiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va atrof-muhitga munosabati ifodalanadi. Shu jihatdan qaralganda, fitonim komponentli frazeologik birliklar til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritishda muhim lingvistik material bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi

Globallashuv sharoitida tillararo muloqot jarayonida faqat leksik moslik emas, balki madaniy mazmunni to‘g‘ri anglash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, fitonim komponentli frazeologik birliklar orqali ifodalangan milliy-madaniy konnotatsiyalar tarjima va qiyosiy tadqiqotlarda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Shu sababli ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘simlik obrazlariga asoslangan frazeologik birliklarni lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilish hozirgi tilshunoslik uchun dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism.

Fitonim va frazeologik birlik tushunchalari. Tilshunoslikda fitonimlar o‘simlik nomlarini bildiruvchi leksik birliklar sifatida izohlanadi. Biroq ular faqat nominativ vazifa bilan cheklanmay, ko‘pincha ramziy va baholovchi ma’nolarni ham o‘zida mujassamlashtiradi hamda madaniy axborot tashuvchisi vazifasini bajaradi [1]. Maslova ta’kidlaganidek, fitonimlar xalqning tabiat haqidagi tasavvurlari va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi [1].

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
nematovahabiba106@gmail.com

ANBAR OTIN – ISTE’DODLI SHOIRA

Annotatsiya: mazkur maqolada XIX asr o‘zbek adabiyotining iste’dodli vakili Anbar Otinning hayoti va ijodiy merosi tahlil qilinadi. Shoira she’riyatida ayol obrazining badiiy talqini, ma’rifatparvarlik g‘oyalari hamda ma’naviy-axloqiy qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Anbar Otin ijodining o‘zbek adabiy jarayonidagi o‘rni va ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *Anbar Otin, ayol shoira, zullisonayn, ma’rifatparvarlik, lirika.*

Аннотация: в данной статье анализируется жизнь и творческое наследие талантливой представительницы узбекской литературы XIX века Анбар Отин. Рассматриваются художественное воплощение женского образа в поэзии поэтессы, идеи просветительства и духовно-нравственные взгляды. Определяется место и значение творчества Анбар Отин в литературном процессе.

Ключевые слова: *Анбар Отин, женщина-поэт, узбекская литература XIX века, просветительство, женский образ, лирика.*

Annotation: this article analyzes the life and creative heritage of Anbar Otin, a talented representative of nineteenth-century Uzbek literature. The study examines the artistic interpretation of the female image in her poetry, her enlightenment ideas, and spiritual and moral views. The significance of Anbar Otin’s work in the Uzbek literary process is also determined.

Key words: *Anbar Otin, female poet, 19th-century Uzbek literature, enlightenment ideas, female image, lyric poetry.*

XIX asr o‘zbek adabiyoti tarixida ayol ijodkorlar masalasi alohida ilmiy e’tibor kasb etadi. Bu davrda adabiy jarayonda faol ishtirok etgan shoiralar orasida Anbar Otin o‘zining badiiy-estetik qarashlari, ma’rifatparvarlik g‘oyalari hamda ayol qalbini teran ifodalagan she’riy merosi bilan ajralib turadigan shoiradir. Shoira ijodini o‘rganish nafaqat adabiyot tarixi, balki ma’naviy tafakkur rivoji nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Bizning galdagi vazifamiz Anbar Otin ijodini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, o‘rganish va uning iste’dodini belgilovchi asosiy badiiy xususiyatlarni aniqlash hamda XIX asr o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rnini yoritishdan iborat.

Anbar Otin XIX asrda yashab ijod etgan shoiralardan bo‘lib, uning hayoti ayol uchun murakkab ijtimoiy sharoitlar hukmron bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda ayolning ijtimoiy faolligi cheklangan, adabiyot bilan shug‘ullanishi esa istisno holat sifatida qaralgan. Shunday sharoitda Anbar Otinning ijodkor sifatida shakllanishi va o‘z ovoziga ega bo‘lishi uning shaxsiy jasorati va ma’naviy yetukligidan dalolat beradi. Shoira ijodi mumtoz sharq adabiyoti an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u mazkur an’analarga tayangan holda mustaqil poetik yo‘nalish yaratishga erishgan. Shuni ta’kidlash joizki, mazkur adabiy an’analar negizida Anbar Otin o‘ziga xos, mustaqil poetik yo‘nalishni shakllantirishga muvaffaq bo‘lgan. Ta’kidlash joizki, shoiraning shakllanish jarayonida uning ijtimoiy-madaniy muhiti muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, Anbar Otinning otasi mashhur shoira Uvaysiyning jiyani bo‘lgani, shuningdek, turmush o‘rtog‘i Zohidxo‘janing adabiyotga chuqur ixlosmand shaxs sifatida Muqimiy, Furqat va Zavqiy singari ijodkorlar davrasida bo‘lishi shoiraning badiiy tafakkuri va ijodiy kamolotiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu adabiy muhit Anbar Otinning dunyoqarashi, poetik tafakkuri

va estetik qarashlarining shakllanishida muhim zamin vazifasini bajargan.

Anbar Otin she'riyati mazmun va shakl jihatidan mumtoz adabiyot talablariga mos keladi. Shoira o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Ijodda ko'proq Uvaysiyga ergashgan, Navoiyni esa birinchi ustoz hisoblagan. She'rlarida ularga murojaat qilgan va ular bilan bahslashganligi bizga ayon. Biroq uning iste'dodi an'anani takrorlash bilan cheklanmay, ayol ruhiyatini nozik va samimiy tasvirlashda namoyon bo'ladi. Shoiraning lirik asarlarida insoniy kechinmalar, ruhiy iztiroblar, sabr, qanoat va iymon kabi tushunchalar markaziy o'rin tutadi.

Shoira she'rlarining aksariyati ijtimoiy mavzuda: zamona adolatsizligidan, mehnatkash xalqning og'ir ahvolidan so'z ochadi, ma'rifatni ulug'laydi. [7;178]

Anbar Otin haqiqatni aytishdan cho'chimagan. U xalqni jaholatda tutuvchilarni va riyokorlarni qattiq tanqid qilgan. Ushbu misralar orqali buning guvohi bo'lishimiz mumkin:

Tariqcha ilmi yo'q „qozi" kalonman-muftiman" deydur, Abu Sino,

Ulug'bekdin ko'z yumg'onlarg'a o't tushsun. [1;42]

Shoira ushbu baytda soxta ilm egalari va johil mansabdorlarning ma'naviy qiyofasini fosh etadi. "Tariqcha ilmi yo'q" birikmasi orqali muallif ilmning zarracha darajasiga ham ega bo'lmagan shaxslarni kinoyali tarzda tasvirlaydi. Shunga qaramay, bunday kishilarning o'zini "qozi kalon", "mufti" kabi yuksak diniy-huquqiy unvonlar bilan atashi jamiyatdagi ma'rifiy inqiroz va riyo holatini ochib beradi. Baytda talmeh san'ati yetakchi o'rin tutadi. Abu Ali ibn Sino va Mirzo Ulug'bek nomlarining tilga olinishi Sharq ilm-fani va tafakkurining yuksak timsoli sifatida xizmat qiladi. Shoira bu ulug' allomalarning nomini johil kimsalarning og'ziga solish orqali tazod san'atini yaratadi. Bir tomonda haqiqiy ilm va tafakkur egalari, ikkinchi tomonda esa ilmni faqat nom va mansab darajasida iddao qiluvchilar sifatida talqin etiladi.

"Ulug'bekdin ko'z yumg'onlarg'a o't tushsun" misrasi esa la'nat va qarg'ish ohangida yangraydi. Baytdagi "ko'z yumish" iborasi ilm, haqiqat va ma'rifatga bepisandlik, befarqlik ramzi sifatida qo'llanadi. "O't tushsun" ifodasi esa ibora bo'lib, keskin norozilik va ma'naviy jazolash ma'nosini kuchaytiradi.

Ko'rinadiki, bayt orqali shoira ilmni mansab va rasmiyat darajasiga tushirgan, ammo uning asl mohiyatidan bebahra bo'lgan shaxslarni keskin tanqid ostiga olib, jamiyatni haqiqiy ilm-fan va ma'rifatga yuz tutishga da'vat etadi. Bayt mazmunida ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor bo'lib, u Anbar Otin ijodiga xos ijtimoiy-falsafiy qarashlarni yorqin namoyon etadi.

Mumtoz she'riyatda, shuningdek, Anbar Otin g'azallarida eng ko'p qo'llanilgan she'riy san'atlardan biri talmeh. Mumtoz adabiyotimizda ijodkorlar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Vomiq va Uzro", "Tohir va Zuhro" kabi qissalar, dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. O'quvchi u yoki bu nomga ishorani ko'rar ekan, uning ko'z oldida o'sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, ijodkor demoqchi bo'lgan fikrni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. Zero, bu jarayonda o'quvchi o'zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg'ulari, ma'naviy qiyofasini o'sha mashhur qissa, afsona qahramoni bilan qiyoslaydi. Bu mumtoz adabiyotimizda o'ziga xos an'ana bo'lib, bu an'anani shoiralarimiz ham munosib ravishda davom ettirishgan.

Anbar Otinda Nodiradan farqli ravishda o'z sevgisini kuylash kamroq. Ayniqsa, Dilshodi Barno va Anbar Otinlar ijodi, asosan, ijtimoiy mavzuda bo'lganligi uchun Anbar Otinning bu obrazlarga murojaatida ham ijtimoiy ruh ko'rinib turadi. Dilshodi Barno ijodida esa bu obrazlar juda kam hollarda uchraydi. Ular bu obrazlardan ko'ra ko'proq ijtimoiy mavzuga aloqador bo'lgan, ya'ni shu mavzuda ijod qilganlarni tilga olib ularga ergashganlar.

Anbar Otin g'azallarida qahramonlarning sevgisini emas, balki ijtimoiy jihatini, bu obrazlar orqali ayollarning jamiyatdagi o'rnini qalamga olgan. Shoiralar ijodida bulardan tashqari yana ko'plab badiiy qahramonlar va tarixiy shaxslar ismlari keltirilgan. Masalan, Mashrab, Mansur Xalloj ismlari va ularning taqdiriga ishora an'anaga aylangan bo'lib, shoiralar ijodida ham bu an'ana davom etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ismlarni shoiralar Ollohga bo'lgan muhabbatni ifodalashda qo'llaganlar va bu bilan ifodaning yana ham ta'sirli chiqishiga erishganlar. [8;967]

Anbar Otinning yana mashhur asarlaridan biri „Qarolar falsafasi“ asaridir. Unda ayollarning og‘ir qismati haqida hikoya qilinadi. Asarda insonning ichki dunyosini poklash g‘oyasi ilgari surilgan. Bu holat Anbar Otin ijodining nafaqat adabiy, balki ma’naviy ahamiyatini ham oshiradi. “Qarolar falsafasi” asari shoiraning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri, adolat va ma’rifat haqidagi qarashlarini mujassam etuvchi muhim manba sanalib, asar huquq va e’tibordan chetda qolgan, “qaro” deb ataluvchi qatlamning ijtimoiy-ma’naviy holatini badiiy umumlashtirishga xizmat qiladi. Anbar Otin “qaro” obrazini nafaqat ijtimoiy mazlumlik timsoli, balki ma’naviy poklik, ichki haqiqat va axloqiy ustunlik belgisi sifatida talqin etadi.

Shoira qarashlarida “qaro” tushunchasi tashqi zulmat emas, balki jamiyat tomonidan berilgan sun’iy tamg‘a ekanini ochib beradi. Aksincha, haqiqiy zulmat – ilm va ma’rifatdan yiroq, mansab va rasmiyatni mutlaq qadriyatga aylantirgan “oq” libosli johillikda mujassam, degan g‘oya ilgari suriladi. Mazkur falsafada ilm va axloq ustuvorligi asosiy mezon sifatida qaraladi. Shoira uchun insonning qadr-qimmati nasab, lavozim yoki tashqi ko‘rinish bilan emas, balki ilmga munosabati, tafakkur darajasi va adolatga sadoqati bilan belgilanadi. Shu bois “qaro” obrazlari ko‘pincha haqiqatni aytuvchi, adolatsizlikka qarshi turuvchi, ma’naviy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tasvirlanadi. Bu holat Anbar Otin ijodida axloqiy antiteza – “mansabli johil” va “mazlum, ammo dono” qarama-qarshiligini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan “Qarolar falsafasi” Anbar Otinning ijtimoiy tanqidga asoslangan poetik dunyoqarashini ifodalaydi hamda uning adabiy merosini ma’rifatparvarlik ruhida talqin etish imkonini beradi. Bundan tashqari, “Qarolar falsafasi” Anbar Otin ijodini tasavvufiy qarashlar bilan ham yaqinlashtiradi. Tasavvufda botin – zohirdan ustun qo‘yilganidek, shoirada ham insonning ichki olami, ma’naviy komilligi tashqi maqom va ijtimoiy mavqedan ustun turadi. Shu jihatdan mazkur g‘oya shoiraning adolat, haqiqat va komillik haqidagi qarashlarini badiiy-falsafiy darajada umumlashtiradi.

Umuman olganda, Anbar Otinning “Qarolar falsafasi” g‘oyasi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni tanqidiy idrok etish, xalqning ma’rifiy ongini uyg‘otish va jamiyatni ilm-fan asosida isloh etishga qaratilgan ilg‘or qarashlarning badiiy ifodasidir.

Anbar Otin ozod va baxtli hayot kelishiga umid bildiradi, bunga qattiq ishonadi ham. U kelajakka umidvor boqadi, ayollarni o‘z haq-huquqi uchun kurashishga chaqiradi. [7;179]

Xulosa qilib aytganda, Anbar Otin iste’dodli shoira sifatida XIX asr o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodi ayol qalbining nozik jihatlarini, ma’rifatparvarlik va axloqiy g‘oyalarni badiiy yuksaklikda ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Anbar Otin merosi zamonaviy adabiyotshunoslikda ayol ijodkorlar masalasini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anbar Otin. She’rlar (bayoz va qo‘lyozmalar asosida). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1998. 5-18-betlar

2. O‘zbek adabiyoti tarixi (5 jildlik). 3-jild: XIX asr adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1978.312–318-betlar. *(Anbar Otin hayoti va ijodiga alohida ilmiy tavsif berilgan)*

2. Hamidov H. O‘zbek ayol shoiralari ijodi. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1999.74–89-betlar. *(Anbar Otin ijodi ayol adabiyoti kontekstida tahlil qilingan)*

3. Mirzayev S. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2001. *(Anbar Otin mumtoz adabiyot vakili sifatida yoritilgan)* 226–231-betlar.

4. Rahmonov V. XIX asr o‘zbek she’riyati. – Toshkent: Fan, 2007. 141–147-betlar

5. Yo‘ldoshev Q. O‘zbek adabiy jarayoni va ayol ijodkorlar. – Toshkent: Fan, 2011.98–104-betlar.

6. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

7. www.oriens.uz.

Oqiljon MAVLONOV,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani faxriy ustoz,
“Mehnat shuhrati”ordeni sohibi

GULBARG – GULOB QOZONIDAGI GULQATLAR RAMZI YOXUD MAY ILA YUVIB BOG‘LANGIZ NA’SHIM BELIN TOKDIN...

Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga bag‘ishlaymiz (Adabiyot muallimlari e’tiboriga taqdim)

Assalomu alaykum, aziz yosh hamkasblar. Mana “Qaro ko‘zum” g‘azali baytlari bo‘ylab tahlil suhbatlarini boshlaganimizga ham ancha vaqt bo‘ldi. Bugun g‘azalning 7-baytiga yetib keldik. Bayt misralari ifodasi quyidagicha:

Yuzida terni ko‘rib o‘lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u gulbarg(i)**din kafan qilg‘il.**

Suhbatlar davomida iqtiboslar aro lug‘at kitobingiz bilan ishlash, o‘zingizga ma’nosi to‘liq ochiqlanmay qolgan baytlarning nasriy bayonini xomaki qoralamangizda ifodalay olish malakangizni ham durustgina shakllantirib oldingiz degan o‘ydaman, shubhasiz. Ishlashda davom eting! (Gulbarg so‘zini baytdagi so‘z birikmasi tarzidagi (qaratqich qaralmish) muxlisni chalg‘ituvchi holatdagi mazmuni (gulning bargi, ya’ni novdadagi yashil barglari) ni emas, bir ma’noni ifodalovchi: qo‘shma so‘z GULBARG shaklidagi, shoir nazarda tutgan tarzidagi mazmunni berish va ochish maqsadida misradagi egalik qo‘shimchasi **i** ni SHARTLI qavs ichida qo‘lladik...)

Taqdim etilgan baytning birinchi misrasi Yuz so‘zi bilan boshlangan. Biz siz bilan tahlillarimiz davomida **yuz** timsoli borasida ikki bor suhbatlashdik, shu bois o‘sha ma’lumotlar kifoya, faqat uni qayta ko‘rib bir yodga solib olishdan erinmang. Keyingi so‘z – **ter** ekan. Bizningcha, terni juda chuqur, tagdor sharhlashga o‘rin yo‘q, u sizga shunday ham ayon. Faqat mumtoz adabiyotda uning **xay, araq, gulob** kabi sinonim obrazlari mavjudligini eslatamiz. **Gulob** – atirgul barglari (qizil, sariq, pushti, maygun, oq hatto qora)dan olinadigan ichimlik, obi guldir. Demak, ter – turkiy, xay – forscha, araq – arabcha so‘z ekan. Navbatdagi so‘z: **gulbarg** – turli xil rangdagi g‘uncha ochilgach to‘liq shakllanadigan yaproq (novdadagi yashil barg emas)lar jami, to‘plami, qat-qat taxlami. **Rafiq** – do‘st, sirdosh, bir-birlarining ishqiy munosabatlaridan xabardor o‘rtoq, ishqdosh, sulukdosh. **“Ko‘rib o‘lsam”** – Navoiy she’riyatida “**o‘lmoq”** juda ko‘p va qayta-qayta qo‘llanuvchi **ramziy so‘z**. U **hayratga tushmoq, qotib qolmoq, sir bosmoq, ishq karaxti, tan bermoq, husn nokouti, ilkis ajablanish, yor suroni, kutilmagan ishva va noz hayrati** kabi boshqa ko‘plab ma’nolarda qo‘llanadi:

*“**Netib o‘lmaykim” yana ul sho‘x usruk otlanib,***
Ter suvi markab yelidin soldi to‘fon har taraf.
(1-306-g‘.)

Oshiq “o‘ldurmak”ka chiqmish mast vah ishqim so‘zin,
***(**kuyishin)*
Ey raqib, etsang ne ul beboki nodonimg‘a arz...
(1-279-g.’)

Kuzatishimizcha, ter – ayniqsa, gulob so‘zi (asliy va ko‘chma ma’noda) shoir she’riyatida eng ko‘p qo‘llanadigan (reytingi baland) obrazlaridan biridir. Endi an’anamizga ko‘ra Navoiy lirikasidan shu so‘zlar qatnashgan iqtiboslar saralaymiz. Erishilgan natija:

*Topmish ul yuz qatra-qatra **xay**din o‘zga ob-u tob,*
Qayda vah- vah, muncha kavkab zohir aylar oftob.
(11-41-g‘.)

Yuzingda lab suv (ter) aro o‘t erur, bu orzu g‘arib,
*Labingda **xay** o‘t aro suv erur, bu asru g‘arib. (11-46-g‘.)*

Xay qatralari yuzdin la’linga bo‘lib moyil,
Jonim uchun ul **may**g‘a mamjuz **gulob** aylab.
(11-173-g‘.)

Yuzingda **xay** emas, obi hayot qatrasidin,
Quyosh jamolig‘a **sun` ilgi** taqdi zevarlar.
Subh yetkurdi sabo GULBARG xandon mujdasin ,
Yo ko‘ngul topti Masih anfosidin jon mujdasin .(I-462-g‘.)
Terlagan la’li **gulob** ichramudur – **GULBARG**i
Yo‘qsa usruk ko‘zi o‘q soldi **araq** ichra nabot (I-83-g‘.)
Gulshani husnungg‘a ziynat berdi **ter**din qatralar,
Kim ko‘rubdur bo‘yla **GULBARG** uzra **shabnam gavhari**.
(I-640-g‘.)

Demak, terlagan lab-la’l g‘arqa gulob ichra suzayotgan **GULBARG** timsoli ekanligi ochilmoqda, ko‘ryapsizki bu shoir tashbehi ...

Ruxsoring uza **xay**din yuz qatraki ko‘rguzdung,
GULBARGida shabnamdin gavharmu ekin ayo?!(I-36-g‘.)
Chu tuzung husn bog‘in - uzor-u qadni qilding:
Birini – GULBARG ra`no , birisin – sarvi chalok .(II -322-g‘.)

Jonim uzra dog‘lardin vah , qachon topgay xabar ?
Ulki GULBARG uza xoli mushk fomiy bor aning.(II -362-g‘.)
Qad ermaskim, sarvi xiromon erur bu ,
Lab ermaski, GULBARGi xandon erur bu.(II -511-g‘.)
Terlagan yuz qatrasidinkim yuzum qonin yuvding,
Vah ne dekim, ishq aro **toptim ne yanglig‘ obro‘**.
(II-512-g‘.)
Yuzda **xay** tug‘yonidin gar **kulsa og‘zi yo‘q ajab,,**
G‘unchaga bo‘lmas ochilmoq, ichmayin gulzor suv.
Yuzi o‘tig‘aki **ter shabnami** qo‘yar yuz xol,
Xazondin o‘lmasun ofat bu **lolazorimg‘a.** (I-572-g‘.)
Oqmadi **xay** uzoridin la’ling‘akim hakimi sun’
Ezdi hayot sharbatin, emdi uzar gulob anga.
La’li labingga **ter** bo‘lub **obi hayot qatrasi**,
Yoki Xizr suyi **labing qatra** bo‘lub, xubob ango.
Har oyog‘idin o‘tuk tortib, **aritsam yuz bilan,**
Ter gulobin ul hino yoqqan **kafi gulzori**din. (II- 461-g‘ .)

Sitatalarni saralashda fors tilidan kirgan: “xay” va arab tilidan o‘zlashgan “araq” so‘zlari qatnashgan baytlarni olishga urindik. “Gulob” so‘zi shoir ijodida bisyor qo‘llanilganligi vajdan unga iqtiboslar keltirib yotmadik. Hazratning:

Ne **araq**durkim, ichinda g‘arqdur nozuk taning
GULBARGdekkim, **gulob** ichra cho‘mar sar to qadam,

– baytida esa gulob ichra boshdin-ayoq cho‘milayatgan GULBARG yorning “nozuk tan”iga tashbehlanayotganining guvohi bo‘lamiz...

Yuzingki ayni haroratdin o‘ldi **g‘arqi araq,**
De oni chashmai xurshid yo guli serob. (II-44-g‘.)
Xijlat (uyatdin) da ne **ter**larki kavokibdin oqizdi,
Oy ko‘rdi chu xurshid jamoling **araq** ichra. (II-539-g‘.)

Biz boya yuqorida iqtiboslar bilan ochiqlaganimizdek, yor yuzidagi hayo, uyat va xijolatdan balqigan terlardan hayajonlanib, hayratga tushib oshiqnng “**o‘lib qolish**” tasvirlari shoir she’riyatida bisyor:

Qatra **xaylar** ichra ul orazni ko‘rdim, **ey rafiq,**
O‘lmagim ermas ajabkim, suvga tushmish axtarim.
(II-402-g‘.)

Oshiqning o‘zlari rafiqqa ta’kidlab bayon qilganidek:

Gar Navoiydek boshingga tushsa bir **qotil g‘ami**
Anda dog‘i ko‘rgasen: ne **balo bo‘lsa – qismat, ey rafiq.**

Navoiy lirikasida **vasiyat, o‘lim, mozor, qatl, qotil, qabr, kafan, dafn, tobutpo‘sh, lahad, mozortosh, go‘riston, shahid** kabi tanosubni yuzaga keltiruvchi so‘zlar ketma-ketligi faolligi orqali yigitning YOR ishqi va noz-u ishvasi, jamolidagi xay gulobi ifori, zulfi sirtmog‘i, ko‘z nazari chaqmog‘i, muhabbat ila yoqmog‘idan oshiqning “o‘lib qolish” epizodlari ko‘p:

Ul pari majnundin **o‘ldum** bu sababdinkim, erur
Zulfining zanjiridin bo‘ynumg‘a **kullob** orzu.
Nechun **o‘lmay** men bemorki isonafasim,
Ko‘rdi holimni-yu ko‘rmasga o‘zin soldi yana.
Ko‘ying ummedi, yuzing hasrati birla agar **o‘lsam,**
Yovunmay ravzag‘a volloh, tilamay hurni billah.
Yor g‘ofilligidin **zulfida jon berdi** Navoiy,
Sayd **o‘lar** domda sayyod agar bo‘lmasa ogoh.
Gar **o‘lsam**, dayr piri tang belim zunnor ila mahkam,
Manga **tobutpo‘sh** aylab fono dayri pallosidin.
Qadi naxlidin **o‘lsam**,do‘stlar, budur **vasiyatkim:**
Boshim uzrsa ekib sarvi qiling mili **mozor** andin.
Shahid o‘lsam libosi lolagun sarvi ravonimdin,
Yasang **qabrim** uzra mile, bo‘yang **gulrang qon**imdin.
Qatl hukmi aylasa **o‘lturtubon** ushshoqni,
Ishq aro chunkim men akmalmen toqaddum.
To tirikmen ishq harifdir ichida, ey rafiq,
O‘lsam oni- o‘q **mozorim toshi**g‘a marqum qil.
Qatlim elting, aylasunlar eltibon ko‘yingda **dafn,**
Kim borur jannatga zulming tig‘idin bo‘lg‘on **shohid**.
Qabrim uzra qo‘ysangiz toshki za’f ayyomida,
Ul pari ko‘yida yotmishmen boshimg‘a yastanib.
Ishq ahli **go‘ristonida qabrim** chu zohir bo‘lg‘usi,
Farhod aning **toshin yo‘nub**, Majnun mujovir bo‘lg‘usi.
Surdi ko‘nglumni buzib **xoki tanim** uzra samand,
Yelga berdi **tufrog‘in**, bu uyni vayron aylagach.

Voqean, shoir g‘azalyotidagi: “Ma’shuqani ko‘rib oshiq joni tanni tark etishi o‘rtasida qanday mantiqiylik bor? Bu tushunarli emas... Mana shu muammo g‘azal tadqiqotchilarini ko‘p qiynagan, o‘ylantirgan, adashtirgan va hanuzgacha o‘z ilmiy, ishonarli yechimini namoyon etmagan” deguvchi shorihlar ham bor... Bu vaziyatda adabiyotda badiiylik: mubolag‘a, vahimalashtirish, LOF bor ekan, bunday badiiy bo‘rttirilgan O‘LIM lavhalari epizodlariga hech qanday **mantiqiy yoki ilmiy javob** izlashning hojati yo‘q... Bu kabi oshiqning **halok**i bir badiiy to‘qima, badiiy bo‘rttirish va **lof** xalos. Bunday tasvirlarni ilmiy (tarixiy) asar deb emas, oddiy badiiy mubolag‘a usuli deb baholash sharhiy yechimdir.

Shoir xoki tanining yelga sovrilishi, yuqoridagi: **o‘lim, qatl, qotil, qabr, mozor, mayyit, lahad, motam, go‘riston, qabrtosh, tobutpo‘sh, dafn, shahid, qabrtosh yo‘nuvchisi** kabi “**o‘lsam**” so‘zi sabab eslanayotgan bu lavha-chizgilar oshiq ishq dardining haddi a’losiga yetkanini, visol umidlari ishq ko‘yida oson kechmasligiga urg‘u berib **mubolag‘alab, LOFlashtirib** keltirilayotgan navoiyona tasvirlardir. Bu tasvirlar barchasi zulf zanjiridan bo‘ynida kullobi, zulf tig‘idan shahid bo‘lgan oshiqning “O‘LIM” sahnalari. O‘zi ishq tariqati oson kechmasligini Navoiy g‘azalida bunday shtrixlaydi:

Ey ko‘ngul, kelkim **balo** (ishq sinovi**) bazmida** jomi jam tutay,

O‘z qattiq holimg‘a **o‘lmastun** burun **motam tutay**...
Yoki 517-g‘azalda esa shunday yozadilar:
Eyki, berding dahr sho‘xig‘a ko‘ngul **qatling uchun**,
Ishvai paydosimu, yo‘q ofati pinhonimu?
Qatl qildilar Navoiy (oshiq)**ni** va lekin bilmadim:
Ko‘nglin oldirmoqmu erdi, yo ko‘ngo‘l olg‘animu?!

Mana bu misralardan ayonlashmoqdaki, oshiqning ishq iztiroblari sabab ***o‘limga duchor bo‘lishi*** shartli – **ramziy ekan.** Barchasi “kofir” yorning noz- azoblari, ishva-yu sehr, g‘am-g‘ussalari, firoqning dard-u alamlari, hijronning azob-u uqubat va **ofat**(sinov)lari ekan...

Bu azoblarning barchasi yor o‘z ko‘nglini oldirmoq (ovlatish, sevdirish) uchunmi, yo oshiq ko‘nglini o‘ldirmoq (bezillatib qo‘yish)mi yoki noz-u karashma bilan o‘zicha “ko‘ngil olg‘animu” bu – qolgani boshiga tushganga ayon...

Mana, qadrli yosh hamkasb! Sizga olam-olam iqtiboslar gulshani, endi u yerdan gul saralab shoir ma’naviy olamidan no‘shilab (gulbarg) istasangiz sumurib-sumurib ichilgan navoiyona ma’ni maylari ichidan shoir aytganidek: “GULBARG”dek “nozuk tan”ingiz gulob ichra shinah etarki sar to poy (qadam) suzish qilib”(cho‘milish aylab) endi ma’nolar ummonidan gavharlar izlashga astoydil kirishing!

Navoiy “araq” so‘zining **hayo, uyat** va **xijolat tortish** kabi ma’nolaridan foydalanib:

Xijlat (hayodan) **da** ne **ter**larki kavokibdin oqizdi,
Oy ko‘rdi chu xurshidi jamoling araq ichra, – baytini yaratganlar...

Shoir: “uyat teri”, “hayo xayi”, “xijlat arag‘i” deb o‘xshatishlar yasamay ter, xay, araq so‘zini istiora shaklida qo‘llaganlar. **(**Ana shu ming bir xijolat ichra, hayo-yu uyat hayajonidan qattiq ta’sirlanish aro yuzini ter bosgan yorni, bu manzuraning in’oni va iqrori, e’tibori va e’tirofi alomatlarini mahbuba yuzida ko‘rib undan behad quvongan oshiq: *“Xay qatralari yuzingga bo‘lib moyil” “... xay emas, obi hayot qatrasidin”. “Labingda xay o‘t aro suv erur” “...xay tug‘yonidan gar kulsa og‘zi yo‘q”. “Gulshan-u husningga ziynat berdi terdin qatralar”. “Terlagan yuz qatrasidinkim yuzum qonin yuvding”, bu ishingdan o‘zing ajablanib: “Yuzungki ayni haroratdin o‘ldi g‘arqi araq”, so‘ng esa ming:”xijlatda ne terlarki kavokibdin oqiz”ding, deya ishvagar va fitnakor Yorga* ***oshiq*** *o‘zining* ***Vasiyatnomas****ini so‘zladi: “O‘z qattiq holimg‘a o‘lmastun burun motam tutay”, – deb: “...o‘lsam libosi lolagun sarviravonimdan” “...do‘stlar, buldurur* ***vasiyatim****”: “... fano dayri pallosidan tobutpo‘sh aylab” “...qatl hukmi aylasa o‘lturtubon”. “Qatlim eltibon yor ko‘yida dafn”qilib “Qabrim uzra qo‘ysangiz toshki za’f ayyomida” “...oni-oq mozorim toshiga marqum qil “ing. “Ishq ahli go‘ristonida qabrim chu zohir bo‘lg‘usi” shunda “Yasang qabrim uzra mili bo‘yang gulrang qonimdin”. “Farhod aning toshin yo‘nub, Majnun mujovir bo‘lsun”. “Boshim uzra ekib sarvi qiling mili mozor andin”... Tokim: “O‘lmayin ishq ichra kim lof ursa bovar qilmag‘il* **!**

Mana, aziz zamondosh navoiyxon do‘stim! **Iqtiboslar yig‘ishning mana shunday baytlardagi** so‘z birikmalaridan qahramon nutqini tuzish, shoir misralari orqali uning kechinmalarini xayolan tiklash eng maza jarayon... Shoirning o‘zlari “gapirdi-qo‘ydi”lar-da... Sharhga ham hojat qolmadi, bizningcha!)

Shoir g‘azallarida oshiqning bunday qisqa muddatga “o‘lishi” xuddi boks ringida boksyorning **qattiq nokout** olishiga o‘xshaydi... Ko‘z haqidagi maqolamizda so‘zlaganimizdek sho‘x va shaddod yorning ikki ko‘zi oshiqqa ikki xil – biri: ishvagar va fitnakor, fatton va nozgar, jodugar va g‘amzadorlik qilsa: ikkinchisi: kofirvash va qotilvash, yaxbin va badnigoh, mardumkush va jallodbin qarashlaridan otilgan **ishq paykonlari nokouti**ni boshdan o‘tkizib **“o‘lib” qolishi mumkin**... Endi bizning syujetimizda bitta nuktasanj ko‘rinish yetishmayapti... Bu g‘amzador oshiqning gulob bilan yuvilib, **“gulbarg”**dan kafanlanish sahnasi. Ana endi Yor yuzida **e’tirof** va **e’tibor** sabab balqigan **iqror** va **in’on terlari**ni ko‘rib “o‘lgan” oshiqni bir **“gulob ila yuvib, gul barg(i)din kafan”**lab qo‘yaylik. Uni izohlash uchun yana nuktadon bobomizning o‘zlariga murojaat qilamiz. 549-g‘azalda shunday tasvirlar keladi:

Gulobxonadagi gul kibi so‘lub jismi,
Qilib gulob kibi terning o‘rtasida shinoh...

Ma’lumki shoir turli davlat lavozimlarida ham ishlagan, shunday kezlarda o‘z davri korxonalarini aylanib borib ko‘rganligi aniq... Shunday kuzatishlar Gulobxona korxonasida kechmoqda...

Keng sayhin hovli, u yer to‘la atirgullarning aroba-aroba karvoni. Mamlakat bo‘ylab yuborilayotgan atirgul gulbarglari. Uyum-uyum qulqatlar xirmoni... Endi baytni o‘zingiz tasavvur qiling... Bu yerda **gulbarglar**dan gulob ishlab chiqariladi... Shoir kuzatishda davom etadi, xayolidan: **“Bu yerdagi gul kibi so‘lub jismi”** degan o‘ylar o‘tadi. So‘ng ichkariga kiradilar, qopqog‘i berkitilsa, ulkan to‘p shari shaklidagi qozon... Suv ichida bisyor **gulbarglar** suzib yuribdi. Qozon qopqog‘i berkitilib maxsus ambiq shisha naylari orqali **gulqatlar**dan chiqayotgan bug‘lar tepaga ko‘tarilib, bir oz yuqorilab sovigach, mis naylar vositasida xumlarga oqizilmoqda... **GULBARGlar** holatini ziyraklik bilan kuzatayotgan taxayyul piri: **“Qilib gulob kibi terning o‘rtasida shinoh”,** – deya yangi tug‘ilayotgan g‘azal misrasini yakunlaydilar...

Bu baytdagi sizga notanish so‘z: **shinoh** – suzish, cho‘milish ma’nolarini beradi. Demak, yor yuzidagi terlarni ko‘rgan oshiq ham shunday xayoliy kechinmadan o‘tadi...

Xullas, Yorning e’tibor va hayajon, e’tirof va sharm, hayo va xijolatdan yurak urishi tezlashib gulobxona otashkadasidagi *harorat y*anglig‘ yor *harorati* ko‘tarilib, **manzur yuzida terlar araqistoni tug‘iladi go‘yo guli serob...** Oshiq jussasi esa Gulobxonadagi maxsus qozonda gulob ichra qaynab suzayotgan gulbarglar kabi jismi ishqdan so‘lib go‘yo xayolan **“Qilib gulob kibi terning o‘rtasida shinoh”** – suzish etadi. Guli oblar ichra cho‘milayotgan qulqatlar esa obdon qaynagach, bor shirasini yo‘qotib mutloq bo‘shashib qolgan **baxmal matodek** tus oladi. Mana shu gultaxlamlar aro oshiq ham go‘yo **o‘z jismi-mayyitini** ishqning g‘arqa arag‘i ichra bo‘lishini xohlayapti... Va tanini mana shu **maygun baxmaldek gulqatlar ko‘rpasiga** o‘rashlarini do‘stidan o‘tinmoqda...

Baytning nasriy bayoni**: “Yor yuzida hayo hayajoni, sharm va xijolatdan balqigan terlarini ko‘rib o‘lsam, ey rafiq, tanimni lolagun gulobga yuvib, baxmal matodek gulbarglar(gulqat) ko‘rpasidan kafan qiling”.** Voqean, biz taraflarda hali ham nufuzli yoshi ulug‘ mo‘ysafid o‘tsa, tobut ustiga baxmal tashlash odati mavjud**.**

Qadam agar lahadim uzra qo‘ysang ermas tong,
Ki bo‘lsa **ravzayi jannat** bu **kulbai torim**. (11-401-g‘.)

Bil kull tamom... Lavhan yana shuni eslatib o‘tamanki, shoirning birinchi devoniga kirgan 427-g‘azal “o‘lim” radifli asar bo‘lib, unda shoir kishi hayotidagi **real o‘lim**ga munosabat bildirib o‘tadi. U shunday boshlanadi:

Hajr ila ko‘rma ravo jonimg‘a bepayon **o‘lum,**
Tig‘ sururkim, xushturur **oz og‘rig‘-u oson o‘lum**.

Shu devondagi 510-g‘azal esa yot Teriga bag‘ishlangan. G‘azalda yor yuzida ter yuzaga kelishi holatining sababini quyidagicha izohlaydilar:

Uyolib ter oqizdi anjum emas, Shomi hajringda torami menu...

Yuqorida tez-tez ta’kidlaganimizdek bizni qiziqtirgan, qiynagan, o‘ylantirgan va adashtirgan barcha savollarga javob shoirning o‘zida mavjud. Faqat erinmay g‘azallarni kuzatish zarur bo‘ladi. Mana bu baytdagi shoir javobidan aniq va ravshan ayon bo‘lyaptiki, yor yuzida ter – araq balqishining navoiyona sababi: xay – **xijolat va sharmdan ekan: “uyolib ter oqizdi** – anjum emas... **“**Xullas, ter – yordagi ibo, uyat, sharm va hayo belgisining ko‘rsatkichi ekan. O‘zi aqidaga ko‘ra ham qizning yaxshiligi belgisining birinchisi – iymon bo‘lsa, keyingisi uyat va hayo sanaladi... Demak, mumtoz adabiyotda **ter** – go‘zallik, ibo, fitna, maftunkorlik, ruxsor husni, sharm ohangrabosi tarzidagi **ramziy obraz ekan.** Adabiyotda yor yuzi-gul, ter-gul-u ob, ya’ni shabnam. Majoziy ma’noda mahbuba yuzidagi ter (husni ob) ikki vaziyatda yuzaga keladi. Avvalo, terni gul va obga qiyoslasak. Guli ob, ya’ni shabnam (shudring) odatda gulga o‘z oshig‘i bulbuldan ayro tushgan pallada qo‘nadi. Tongda bu **tomchi(**qatra**)lar**, gulning bulbuldan ayro “hayoti” qanday “azob” bilan, “sog‘inch” bilan kechganini ayonlashtiruvchi belgi sifatida namoyon bo‘ladi...

Keyingi holat: manzura orziqib kutilgan visol onlari juda tez va qisqa ekanligi, bu o‘z fursat ichida mashuqaga ***oshiq ko‘ngil niyozini oshkora tez tinglash aslo mumkin emasligini*** anglagach, bir necha soniyalardan so‘ng yana ayriliq onlari boshlanishini chuqur his qilgach ko‘ngilda ishq o‘ti g‘alaba qilib tug‘yon urg‘ach, tez ayriliq xijolatidan ter balqiydi. Bu ham ayriliq va hijron terlari, ya’nikim: gul-u ob (yuz suvlari). Bu jihatdan har ikki jarayon o‘rtasida mantiqiy o‘xshashlik bo‘lib, u tashbehni yuzaga keltiradi. Ba’zan aksincha ham bo‘lishi mumkin, ya’ni qiz o‘z oshig‘ini ko‘rganida, ro‘baro‘ kelganida, ko‘nglidagi ibo-hayo tufayli (so‘zsiz, mungsiz kechgan daqiq “suhbat”) yor yuzida uyalish, iymanish, tortinish, xijolat suroni sabab ham **sharm teri** bosishi muqarrar. Ana shu qiz yuzini ter bosish holati bilan gul yuzini tomchi (shabnam, qatra) qoplashi o‘rtasidagi shakliy o‘xshashlik holati mantig‘i tashbeh asosidir.

Xullas, agar uni gulob (ichimlik) deb tushunsak, unda ham bu voqelik o‘rtasida o‘xshashlik bor... Gulob – gul bargini (gulobxonani eslang...) maxsus qozon va asbob(ambiq)da qizdirish va yuqori haroratda qaynatish tufayli olinuvchi suyuqlik. Bu otash sabab **gulbarg qatlari**dan par: guli oblar sizib chiqadi. Yor yuzidagi ter ham oshiq va ma’shuqaning kutilgan yoki tasodifan ro‘baro – to‘qnash kelib qolishi va qalbdagi ishq o‘tining qaynashi, sevgi harorati, muhabbat otashining junbushga kelishidan balqisa bormi, qiz jamoli yanada ochiladi. Husn ustiga husn bo‘ladi... Alhosil, bu mantiqiy, tadrijiy o‘xshashlikni ko‘rgan shoir(oshiq) so‘zsizki:

Yuzida terni ko‘rub o‘lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u gulbarg(i)din kafan qilg‘il, – deydi-da... Va bu hol mana shunday dilbar tashbehni yuzaga keltirishi shubhasiz**”.** (“Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2021-yil, 2-son.) Hazrat 621-g‘azalida yozadilar:

Ter qatrasin yuzida ko‘rub ishqim bo‘ldi tez,
Afzun(ortiq) **bu suv(**araq**)din** o‘ldi o‘tumning harorati. (I-621-g‘azal.)

Shoir ta’kidlashicha: “Yor yuzida terni ko‘rgach ishq(muhabbat)im otashi yanada kuchaydi(faollashdi)ki, bil(angla)sam barchasiga sababchi bo‘lgan fitnagar: shu suv-gulob ekan...” Albatta, sevimli yor yuzida shunday gulob(araq) qatralari maftunkorligini ko‘rgan oshiq badiiy mubolag‘a – LOF bilan aytganda romantik hayajondan **“o‘lish”**ga ham shay-da...

II devonning 467-g‘azalida shunday bayt bor:
Mast agar mayxonada **o‘ldum** meni, ey do‘stlar,
May ila yuvib bog‘langiz na’shim belin tokdin...

Navoiy g‘azaliyotida **“o‘lsa”**lar Gulob(may) bila yuvib, so‘nggi libosi(kafan)ni gulbarg (gulqatlar, gulyafroqlar) yoki tokbargdan qilishlarini so‘rab bitilgan baytlar shoir ijodiy laboratoriyasida mavjud.

337-g‘azalda esa kiyimi-libosi(deylik kafanni) tokbarg(gulbarg kabi)dan qilishlarini so‘ramoqdalar:

Chu men bir jom uchun dehqon asiriman ajab ermas,
Libosim – **tokbarg(i), rishta** bel bog‘larga **tok o‘lmoq**...

Sharhiy yakun shuki, sharq adabiyotida Umar Xayyomda**: “...ko‘z yumsam sharobga yuvib, tok zangidan tobut qiling”, “...o‘lsam may bilan yuvishni ko‘zlang”** kabi murojaatlar uchraydi. Navoiy fors tilida ham ijod qilganlari bois bu shoirlar motivlaridan xabardor bo‘lganliklari shubhasiz, albatta... Xullas, oshiqning yor yuzidagi xijolat terlarini ko‘rib **“o‘lib qolsa”(m) “gulob ila yuvib gulbarg(i)dan kafan qil”** ishlarini so‘rab murojaat qilishi sharq adabiyotida mavjud an’anaviy tasvirlar desak ham bo‘laverar ekan...

Birinchi devondagi 620-g‘azal maqta’sida yana o‘zgacharoq bir motivga duch kelamiz:

Gar Navoiy mast agar maxmur o‘tar bu dayrdin,
Boda polodin kafan, mug‘ dayridin madfan qilg‘il.

Shoir bu baytda: “Boda suzgichidan kafan-u, majusiy (mayfurush) butxona(mayxona)sidan qabr (mozor) qiling” demoqchilar. “***Gulob ila yuv-u” iltimosining negizida yana shoir dunyoqarashi bilan bog‘liq may motivlari(tasavvufiy ramzlar)ga taqaluvchi Navoiy munosabatlari ham berkitilgan*** chog‘i. Masalan, 622-g‘azal maqta’sida:

Ey Navoiy**, istasang bo‘lmoq zamiring lavhi pok,**
May(gulob) suvin kelturkim, oni g‘ayr naqshidin yuvli.

Xullas, bizningcha, shu baytdan so‘ng “gulob ila yuv-u” “vasiyati”ning asrori lozimicha ochiqlanganday bo‘ldi... Voqean, yana shuni ochiqlaymizki, 3- va 4-devonda ham “gulob ila yuv”moq motivini yanada ochiqlaydigan baytlar bor... Jumladan, 3-devonda ham shunday “gulob ila yuv”moq motiviga monand baytlar mavjud. Masalan:

Chu mast o‘ldim esa, **may bila yu(v)ingiz badanim,**
Tang‘ing usholg‘an na`shim beliga rishtai tok. (III -330-g‘.)
Bo‘lsa paymonang, Navoiy , dayr aro **may birla yu(v)**
Boshing xum kerpichin xishti mozoring aylayin.
(III- -480-g‘.)
Soqiyo, mehnatu gam buzdi Navoiy ko‘nglin,
May suyi birla bu vayronamni obod ayla. (III- 559-g‘.)

Voqean, sharhimiz yakunida yana bir bahsli holga shorihlar e’tiborini qaratmoqchimiz. Shoir g‘azallarida GULBARG – gultaxlam qizil lab, bilinar –bilinmas yor o‘g‘zi, gulbargi xandon – kulib turuvchi og‘iz, gulbarg xandon mujdasi – jon bag‘ishlovchi lablar yo so‘zlar, Iso nafas qiz, “nozuk tan”(badan), kelishgan qomat, ra’no guldek jamol, gulbargi serob singari ko‘plab ma’nolarda qo‘llanuvchi timsol. Uning yozilish imlosi: gul(ning)barg**i** singari aniqlovchi aniqlanmish shaklidagi birikma holatida qo‘llanuvchui hamda GULBARG – g‘uncha ichidagi qat-qat taxlami, gulyaproqlar to‘plami ma’nosida keluvchi, shoir nazarda tutayotgan bir ma’noni ifodalayotganligi bois ushbu o‘rinda qo‘shib yoziluvchi qo‘shma so‘z shakli mavjud bo‘lib, g‘azallarda bu har ikki holat imlosiga to‘liq amal qilinmasligini ko‘ramiz. U g‘azallarda gul bargi (qaratqich qaralmish) shaklidagi gul tanasi(shox) dagi **yashil yaproq** ma’nosi sifatida ko‘proq o‘z ifodasini topganligining guvohi bo‘lamiz. Gulbarg – tarzidagi qo‘shma so‘z holatida esa u **aniq** g‘uncha ichidagi **gultaxlam** – gulto‘plam, qat-qat gulyaproqlar taxlami ma’nosida keladi. Endi “Qaro ko‘zum” g‘azali 7-baytining 14-misrasida **Gul bargidin** (gul**ning** bargidin) birikmasidagi holat belgisiz qaratqich kelishigida turganligi munosabati bilan ajratib yozilsa, shoxdagi yashil barg(yaproq) larini ifodalaydi. Lekin bu yerda misrada anglatayotgan ma’nosi mantig‘idan kelib chiqilsa, g‘unchadagi gulqatlar ma’nosida (yashil barg emas) qo‘llanilmoqda. Shu o‘rinda yana bizning bu iddaomizni quvvatlovchi bir dalil shuki, misrada **gulob** so‘zi mavjudligidir. Gulob esa gulning tanasidagi yashil yaproqlardan emas, **g‘uncha tarkibidagi barg taxlamlaridan olinadi**. Shu asoslarga ko‘ra ham ushbu o‘rinda GUL BARGIDIN birikmasi: ***gulbarg shaklidagi qoshma so‘z deb qabul qilinib qo‘shilib yozilmog‘i to‘g‘ri bo‘ladi***-yu **...** Ammo bu yerda bir paradoksli holat borki shu holat sabab ushbu joyda bu so‘zni qo‘shib yozolmaymiz. Buni qo‘shib yozsak, birikma tarkibidagi **i** (egalik qo‘shimchasi) qisqarishiga uchrab, natijada misra bir bo‘g‘inga kamayib aruz hijosi buziladi. Shuning uchun bu o‘rinda **yechim** ushbu birikmani shoir nazarda tutgan mazmunni saqlash, uchun uni nazardagi sharhiy ma’noni berish va g‘azal mazmunini to‘liq saqlab qolish uchun bu yerda birikma tarkibidagi **i egalikni shartli qavs ichida berib ketish istisnosigina mavjud xolos** . Uni so‘z birikmasi shaklida bersak, bu birikma gunchadagi gulqatlar taxlamini emas novdadagi yashil barglar ma’nosini beradi. Bu esa she’rda ifodalanayotgan, shoir nazarda tutgan ma’noga zid, muvofiq emas. Yashil barglardan Gulob olinmaydi, mazmun buziladi. Devonda bunday yozilishi mazmuniga zid (paradoksal) o‘rinlar bor. Shu bois bu holatni shorihlar o‘zaro shartli kelishib olishlari zarur, deb o‘ylaymiz, bizningcha...

Анвар РАДЖАБОВ,
и.о. доцента кафедры иностранных языков Самаркандского филиала Ташкентского международного университета Кимё



“...НЕТ У НЕГО ЧЕГО-ТО САМОГО ВАЖНОГО”: ПОЭТИКА ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНОГО СЮЖЕТА В РАССКАЗЕ А.П.ЧЕХОВА “АРХИЕРЕЙ”

Аннотация: статья анализирует поэтику экзистенциального сюжета в рассказе А.П. Чехова «Архиерей» как многослойную структуру. Через взаимосвязь художественного времени, символики света и звука, топографии сакрального/бытового пространств, фокализации и мотивов памяти раскрывается внутренний вектор движения героя: от архиерейского статуса к интимному «Павлуше», от ритуальной рамки к освобождению в предсмертном видении поля. Показывается, как Чехов переосмысляет пасхальную традицию, противопоставляя внешнюю праздничность экзистенциальной утомленности и хрупкости сознания.

Ключевые слова: *Антон Чехов; «Архиерей»; поэтика; экзистенциализм; мотивная структура; лексическая символика; художественное время; память.*

Annotatsiya: maqolada A.P. Chexovning «Arxiyerey» hikoyasidagi ekzistensial syujet poetikasi ko‘p qatlamli tuzilma sifatida tahlil qilinadi. Badiiy vaqt, yorug‘lik va tovush ramziyligi, muqaddas va maishiy makonlar topografiyasi, fokalizatsiya hamda xotira motivlari o‘zaro bog‘liqligi orqali qahramon ichki harakatining vektori ochib beriladi: arxiyereylik maqomidan intim «Pavlusha» obraziga, marosimiy ramkadan esa o‘lim oldi dala manzarasida ifodalangan ozodlikka tomon. Chexovning Pasxa an’anasini qayta talqin qilishi, tashqi bayramona ko‘tarinkilikni ongning ekzistensial charchoqligi va mo‘rtligiga qarama-qarshi qo‘yishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Anton Chexov; «Arxiyerey»; poetika; ekzistensializm; motivlar tuzilmasi; leksik ramziylik; badiiy vaqt; xotira.*

Annotation: this article analyzes the poetics of the existential plot in Anton Chekhov’s short story “The Bishop” as a multi-layered structure. Through the interconnection of artistic time, the symbolism of light and sound, the topography of sacred/everyday spaces, focalization, and motifs of memory, the internal vector of the hero’s movement is revealed: from the status of bishop to the intimate “Pavlusha,” from the ritual framework to liberation in the pre-death vision of the field. It shows how Chekhov reinterprets the Easter tradition, contrasting external festivity with existential weariness and the fragility of consciousness.

Key words: *Anton Chekhov; “The Bishop”; poetics; existentialism; Easter story; motivic structure; lexical symbolism; artistic time; memory.*

Введение

В последние годы в описании структуры «Архиерея» усиливается тенденция рассматривать текст как сложную многослойную форму, сопоставимую с романом. О.М. Скибина говорит о «романе в рассказе», указывая на объем жизненного материала и многообразие уровней сознания героя [5, с. 145]. Подобное наблюдение интуитивно подтверждает восприятие текста как многоплановой художественной системы, однако требует конкретизации на уровне поэтики, поскольку сам механизм соединения эпизодов, мотивов и точек зрения остаётся неописанным.

Корпус работ об «Архиерее» состоит из нескольких сегментов: жанрового (Коковина), лексико-поэтического (Лелис), нарратологического (Тюпа), религиозно-интертекстуального (Жилякова), структурно-жанрового (Скибина). Каждый сегмент выявляет отдельные аспекты произведения, но целостная картина внутренней организации рассказа еще не выстроена. Между тем именно сочетание литургического времени, мотивных повторов, световой символики и внутреннего движения сознания героя делает рассказ особой поэтической структурой, выходящей за рамки традиционного пасхального жанра.

Цель данной статьи заключается в выявлении поэтико-структурной целостности «Архиерея». В центре анализа окажутся художественное время, символика света и звука, топография сакрального и бытового пространств, конфигурация фокализации и мотивная организация текста. Эти уровни будут рассмотрены как взаимосвязанные элементы композиции, создающие единый вектор внутреннего движения: от официального статуса архиерея к интимной фигуре «Павлуши», от институционального пространства монастыря к открытому полю, от внешней пасхальной радости к переживанию освобождения через память. Подобный подход позволит по-новому осмыслить жанровую природу рассказа и показать, каким образом Чехов переустраивает пасхальную традицию, сохраняя ее ключевые элементы, но наполняя их иной антропологической и эстетической перспективой.

Основная часть

Художественное время в рассказе «Архиерей» организовано не столько последовательностью

часов и дней, сколько субъективной интенсивностью переживания. Н.З. Коковина отмечает, что «антиномии духовного и бытового, памяти и забвения» структурируют текст на всех уровнях [2]. Однако эти антиномии не существуют в статическом виде; они проявляются в чередовании эпизодов, где внутренний ритм героя то совпадает с литургическим временем, то резко от него отступает. Так, во время вечерней утреней преосвященный замечает, что «не хотелось умирать; и всё еще казалось, что нет у него чего-то самого важного» [6, с. 449]. Литургическое действие движется своим ходом, но внутренний голос героя отказывается следовать этому движению. В этой расщелине между внешним и внутренним временем и занимает свое место тема неустроенности духовного опыта.

Топография рассказа строится как последовательность переходов между институтами власти и пространствами личной памяти. Описание монастырей обладает строгой симметрией: оба возникают в лунном свете, оба окружены звоном колоколов, оба вписаны в холодный весенний воздух. Но при всей внешней торжественности эти пространства не несут для героя утешения; они задают рамку, внутри которой разворачивается его утомленная рефлексия. Е.И. Лелис, анализируя лексическую символику «Архиерея», показывает, что повторяющиеся формулы света, холода и звона образуют «полифоническое пространство» рассказа [4, с. 88]. Свет луны, возникающий в ключевые моменты повествования, наделен двойной функцией: он одновременно подчеркивает сакральную атмосферу событий и обнажает одиночество героя. Лунный свет в финале всенощной «казался теперь живущим своей особой жизнью, непонятной, но близкой человеку» [6, с. 440]. Это едва уловимое оживление внешнего мира служит контрапунктом внутреннему опустошению.

Звук колоколов, описанный как «веселый, красивый звон дорогих, тяжелых колоколов» [6, с. 440], создает ритуальную рамку, которая не совпадает с состоянием преосвященного. Лелис справедливо замечает, что акустическая ткань рассказа несет «двойную семантическую нагрузку», одновременно усиливая праздничность и подчеркивая дистанцию героя от нее [3, с. 73]. Эта двойственность становится базовым элементом поэтического механизма текста, где внешняя радость Пасхи вступает в противоречие с тем, что герой воспринимает как утрату внутреннего тепла. Контраст между «радостным звоном» и «тихим плачем» верующих, возникшим в церкви, формирует один из важнейших смысловых узлов рассказа. Сцена коллективного плача, где слезы текут «почему-то» и «мало-помалу церковь наполнилась тихим плачем» [6, с. 440], показывает, как внутренняя вибрация героя заражает пространство вокруг него. Структурная роль этого эпизода проявляется в том, что эмоциональный импульс, исходящий из внутреннего состояния архиерея, резонирует в общине, но лишь на мгновение. Служба продолжается, плач прекращается, и мир будто закрывается вновь.

Переживание памяти становится ведущим механизмом внутреннего сюжета. Воспоминания возникают в моменты, когда герой остается наедине с собой: «и молитвы мешались с воспоминаниями, которые разгорались всё ярче» [6, с. 442]. Эти воспоминания имеют заметную ритмику: они появляются внезапно, нарастают, затем растворяются, возвращая героя к телесному дискомфорту или бытовым обязанностям. На это обращает внимание Коковина, отмечая, что память в рассказе «воссоздает биографию героя, позволяя восстановить причинно-следственный ряд» [2]. Однако поэтическая функция воспоминаний выходит за пределы биографического. Их структура формирует второй план хронотопа, противопоставленный литургическому: вместо сакральных интерьеров возникают картины детства, лесопольской школы, цыган под окном, летних крестных ходов. Воспоминания действуют как контрапункт официальному статусу архиерея; они снимают с него институциональные маски и возвращают к опыту «Павлуши», ребёнка с «наивной улыбкой» и «счастьем бесконечным» [6, с. 441].

По наблюдению В.И. Тюпы мир предстает перед читателем в соответствии с тем, как его воспринимает сам герой [7]. Такая организация делает возможным постепенное расслоение восприятия. В сценах богослужения взгляд героя фиксирует одни и те же элементы: тусклый свет, движущуюся толпу, женский хор, юродивого, выкрикивающего с хоров. Эти элементы повторяются в разных эпизодах, что создает эффект зацикленности и внутреннего истощения. Чередование действительности и воспоминаний подчеркивает, что нарративная логика рассказа строится не по линии событий, а по линии колебаний сознания. В.И. Тюпа замечает, что смерть героя в этой структуре не является «развязкой», но «естественным исходом определенного способа переживания времени» [7]. Это наблюдение оказывается особенно важным для структурного анализа: рассказ развивается по внутреннему, а не внешнему вектору.

Символика света, развернутая на протяжении всего текста, выполняет композиционную роль. Луна сопровождает архиерея в ключевые моменты: при возвращении с всенощной, при входе в Панкратиевский монастырь, при финальном образе свободы. Лунный свет создает ощущение невыразимой, почти бесплотной близости мира, но одновременно подчеркивает неприступность этого мира. Свет и холод, описанные Чеховым как «мягкий холодный воздух» [6, с. 440], становятся символами очищающего, но отчужденного пространства. Этот свет не греет, но освещает внутреннюю дорогу героя, ведущую к финальному освобождению. Конструкция символического ряда выстраивается по принципу нарастающей ясности: от тусклого свечного света в начале к широкому солнечному небу в предсмертной

грёзе. Здесь проявляется та глубинная динамика, которую Лелис анализирует в контексте активации «эстетического потенциала слова» [4, с. 89].

Мотив освобождения тесно связан с образом поля, возникающим в предсмертном видении: «он уже простой, обыкновенный человек, идет по полю быстро, весело» [6, с. 454]. Это поле противостоит монастырскому пространству так же, как внутренний голос героя – его официальному сану. Поле, открытое и залитое солнцем, представляет собой не только грёзу, но и итоговую форму внутренней правды героя. Оно как бы восстанавливает утраченное единство с миром и избавляет от ритуальной иерархии, в которой он существовал. Здесь можно увидеть то, что О.М. Скибина обозначает как «романность» рассказа, то есть стремление текста к многоплановому изображению внутреннего пути персонажа [5, с. 147]

Заключение

Н.З. Коковина отмечала, что рассказ хранит «антиномии духовного и повседневного» и одновременно демонстрируеттенденциюк«расшатыванию»пасхального жанра [2]. Анализ внутренней структуры показывает, что эта тенденция не эпизодична, а пронизывает всю композицию. Чехов не разрушает жанр декларативно; он вписывает в него иной тип переживания, основанный на несводимости человеческого сознания к праздничной норме. В результате возникает не отрицание традиции, а ее переосмысление через внимательное изображение слабости, усталости, возвращения к памяти.

Нарратологическая оптика, описанная В.И. Тюпой, позволяет увидеть, как внутренняя фокализация подчиняет себе весь материал рассказа: внешний мир проходит через медленный, напряженный фильтр архиерейского восприятия [7]. Это восприятие меняет смысл привычных для пасхального текста образов света, холода, церковного звона. Лексические ряды, выделенные Е.И. Лелис, соединяются в структуру, где символика светлого и праздничного оборачивается знаками убывающей жизненной энергии [4, с. 89]. Луна, колокольный звон, холодный весенний воздух образуют единую метафорическую зону, внутри которой происходит постепенное снятие сакральной дистанции и переход к интимному уровню переживания. Сакральное не исчезает, но становится пространством, не совпадающим с душевным состоянием героя.

Анализ позволяет заключить, что мотивы памяти и утраты структурируют внутренний сюжет не менее последовательно, чем литургическая рамка – внешний. Воспоминания Павлуши, возникающие в моменты разрыва ритуальной ткани, создают контур утраченной полноты жизни. Здесь открывается тот «романный» горизонт, о котором пишет О.М. Скибина [5, с. 146]: за пределами линейного повествования формируется разветвленная структура, включающая биографический, духовный и метафизический планы. Эта многослойность не разрушает жанр рассказа, но расширяет его до масштаба внутреннего пути, что делает финальное освобождающее видение не компенсаторной метафорой, а последним усилием сознания, стремящегося вернуть утраченную цельность.

Raqamlardan anglash mumkinki, musiqiy-ko‘ngilochar dastur sanalmish “Ertalabdan salom” ko‘rsatuvi muxlislar qalbidan o‘rin egallagani bois ham yillar osha takomillashib, telekanalning hit dasturlaridan biri sifatida faoliyatini davom ettirmoqda. Ko‘rsatuvning g‘oya muallifi va rejissori Dilshod Mirzamurodov, boshlovchilari esa yillar kesimida turlichadir. Polilogli nutq yetakchilik qilganligi bois har bir ko‘rsatuvda eng kamida ikkita yoki uch-to‘rtta boshlovchi ishtirok etgan. Telekanal saytida joylashtirilgan dastur videoyozuvlarini kuzatdik. Garchi ko‘rsatuv 2020-yil ekran yuzini ko‘rgan bo‘lsa-da, ammo videoyozuvlar saytdan o‘rin olmagan. 2021-2022-yillarda ekran yuzini ko‘rgan dasturlardan faqat 114 tasi saytda joylashtirilganligiga guvoh bo‘ldik. Eslatib o‘tish joizki, saytda ko‘rsatuv qisqartirilgan variantda, o‘rtacha 1 soat-u 30 daqiqasi o‘rin olgan. Mazkur yillarda quyidagi boshlovchilar efirni olib borganligini kuzatdik: Shukrullo Isroilov, Dilshod Mirzamuratov, Karina Gaziyants, O‘tkir Muhammadxo‘jayev, Umida To‘laganova, Dilshodbek Musabekov, Muzaffarbek Mirzabekov, Laylo Rustamova, Dilnoza Hamraliyeva, Tolibjon Isroilov, Iroda Nosirova, Xusnora Shadiyeva, Dilfuza Yusupova, Viktoriya Ostrouxova.

2023–2025-yillarda namoyish etilgan dasturlarning ko‘pchiligi saytga joylashtirilmagan, ayrimlarigina o‘rin olgan yoxud qisqa reels shaklida berilgan. Mazkur yillarga kelib boshlovchilar takibida o‘zgarishlar bo‘lganligi kuzatiladi, ya’ni ayrimlari efirga chiqmay qo‘ygan bo‘lsa, ayrimlari yangi boshlovchi sifatida o‘rin egallagan.

Nutq madaniyati tushunchasi tilshunoslik va kommunikatsiya nazariyasida keng qamrovli hodisa bo‘lib, u adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda fikrni aniq, ravon, mantiqli va ta’sirchan ifodalashni nazarda tutadi. Televideniye nutqi esa ommaviylik, tezkorlik va jonlilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu sababli teleboshlovchi nutqi yozma nutqdan farqli ravishda improvizatsiya, emotsionallik va dialogik unsurlarni o‘z ichiga oladi.

“Ertalabdan salom” ko‘rsatuvida boshlovchilarning nutqi ko‘proq jonli muloqot shaklida tashkil etilib, tomoshabin bilan bevosita suhbat kayfiyatini yuzaga keltiradi. Bu holat dastur ommabopligini oshirsa-da, ayrim vaziyatlarda adabiy til me’yorlaridan chekinish, og‘zaki nutqqa xos ortiqcha birliklarning qo‘llanishiga olib kelishi mumkin.

Dastur davomida foydalanilgan nutqni dastlab 2 guruhga ajratish mumkin: 1) boshlovchilar nutqi; 2) taklif etilganlar nutqi. Boshlovchilar nutqi – bu asosan, yuqorida nomi keltirilgan shaxslar tipidagi, ya’ni havaskor boshlovchilar, professional suxandonlar yoki san’at vakillarining nutqi tarzida namoyon bo‘ladi. Taklif etilganlar nutqi – juda keng qamrovli bo‘lib, ular turli soha vakillari – san’atkorlar, sportchilar, oshpazlar, raqqosalar, sozandalar va boshqalar nutqidir. “Ertalabdan salom” teleko‘rsatuvidagi nutq madaniyati, saviyasi, tilimizga bo‘lgan e’tiborni aynan yuqorida sanab o‘tilgan shaxslar belgilab beradi. Dasturning 2021-yildan to hozirga qadar ekran yuzini ko‘rgan 100 dan ortiq sonlarini kuzatdik. Tahlilimiz xolis va haqqoniy bo‘lishini istab, dasturning ijtimoiy tarmoqlarda mavjud kichik manbalarigacha, hatto yozilgan izohlarni ham ko‘rib chiqishga harakat qildik. Bunda bizga dasturning YouTube, telegram, Instagram sahifalari, shuningdek, televizordagi jonli kuzatuvlar asosiy manba vazifasini bajardi.

Boshlovchilar kesimida nutq madaniyatiga, adabiy til me’yorlariga, efir madaniyatiga, etik-estetik qoidalarga rioya qilingan-qilinmaganligi farq qiladi. Bu, avvalo,

nutq egasining qanchalik til ko‘nikmalarini hamda axloq me’yorlarini egallaganligini bildiradi. Bir maqola doirasida barcha boshlovchilarning nutqini mufassal tahlil qilish imkoni mavjud emas. Shuning uchun e’tiborimizni tortgan ayrim boshlovchilar nutqi xususida to‘xtalamiz.

Shukrullo Isroilov – ko‘rsatuvning asosan, dushanba-payshanba sonlarida efirga chiqadi. Kasbiga ko‘ra qiziqchi, so‘z ustasi, aktyor sanalgan mazkur boshlovchi nutqida quyidagi me’yoriy og‘ishlarni kuzatdik: *“Nerviniy bo‘ladi-da qora kofe ichadiganla, asab bo‘ladi”, “qoralik kiravradi-da ichiga”, “keb chiqadi”, “eshitilu”, “etin”, “etilmasa bo‘miydi umuman”, “keremas”, “kimmi”, “davay”, “kulilu”, “kulvommiz”, “karochiy”*… Mazkur ro‘yxatni juda uzoq davom ettirish mumkin. Sh. Isroilov ishtirok etgan har bir ko‘rsatuv soni orfoepik, leksik, morfologik kabi me’yoriy og‘ishlardan xoli emas. Bundan tashqari, efir madaniyatiga, boshlovchilik imijiga mos kelmaydigan ayrim qiliqlari, o‘zini tutishi, o‘rinsiz va bachkana gaplari, huda-behudaga kulaverishi kabi etikaga zid harakatlari ham uchraydi. Sh.Isroilov bilan efirga chiqadigan yana 2 boshlovchi mavjud: Dilfuza Tursunova, Karina Gaziyants.

Dilfuza Tursunova – kasbiga ko‘ra aktrisa, teleboshlovchi sifatida faqat “Ertalabdan salom” dasturida faoliyat olib boradi. Boshlovchi shirinsuxan, ammo nutqida sheva unsurlari uchrab turadi: “Qora kofe ichadigon insonlar biroz jiddiyroq bo‘larkan. Jiddiy hayotda jiddiyroq qaraydigon…”, “ja enni nerviniylab tashamang Shukur aka. Ja man endi qora kofe ichgansan san nervinniysan degandiy qimeng mani”, “da, shunaqa diysizmi?”, “yuvoradi suv”, “rasa kulvommiz”…

Karina Gaziyants – rossiyalik videobloger, qo‘shiqchi, aktrisa, millati yahudiy, asosan, rus tilida gaplashadi. Dastur davomida ham o‘zbek, ham rus tillarida gapirganligi kuzatiladi. Bizningcha, efir tili o‘zbekcha bo‘lganligi bois rus tilida gapirmagan ma’qul edi.

Mutaxassis bo‘lmagan, istalgan soha vakillarining aynan shu boshlovchilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlarini aniqlash maqsadida izohlarga murojaat qildik. Ta’kidlash joizki, Zo‘r TV ning YouTube kanalida 6 mln 700 mingdan ortiq obunachi mavjud, har bir joylangan video 10000-200000 marta oralig‘ida tomosha qilingan, yoqqan-yoqmaganligini anglatuvchi belgilar bajarilgan. Izohlarning ayrimlarida Shukrullo Isroilov chiqishlari yoqishi aks etgan bo‘lsa (juda kam miqdorda), juda ko‘p izohlarda salbiy, negativ fikrlar bayon etilgan. Fikrimiz dalili sifatida ayrimlarini keltirib o‘tamiz: *“Ertalabdan salom”ni olib boruvchilar oldin suxandonlik madaniyatini o‘qib o‘rganishi kerak. Boshqalarni eshitishni bilmaydi, iloji bo‘lsa, faqat o‘zlari gapirishadi. Taniqli, yoshi ulug‘ san’atkorlar oldida bexijolat yastanib o‘tirib olishi, qizlarning bexijolat raqsga tushishlari mehmonga hurmatsizlik emasmi? Dilshod, Shukrulloni masxarabozliklari o‘ta yoqimsiz. Milliy qadriyatlarimizni ertalabdan yo‘qqa chiqarayotgandek. Qani Shuhrat Qayumov, Nasiba-yu Diloromlar. Shukrulloda yoshiga xoslik yetishmaydi”, “Karina o‘zbekchani bilmasa, Shukrullo bilan boshqa joyda gurunglashsin”* (@Gulsara-g4x profili yozishmasidan). *“Sizlar o‘zbekmisizlar? Nima uchun har gapinglarga rus so‘zlarini qo‘shib gapiryapsizlar? Axir bunaqa gapirish Ona tilimizga xiyonat emasmi?”* (@ahrorsaidov3691) *“Ertalabdan salom ko‘rsatuvining dushanba va payshanba kunlarini yaxshi ko‘rardik. Lekin Dilfuzani hadeb kulaverishi jonimizga tegyapti. Sal o‘zini tutib olsa, yaxshi bo‘lar edi. Endi shu Dilfuzani deb ko‘rgimiz qolmay kelyapti. Iltimos uni boshqa kunga olishsa bo‘lmasmikin? Shukrulloni har bir gapiga hiringlayveradi. Karinani hammamiz yaxshi ko‘ramiz. Judayam odobli qiz. Sizlardan iltimos qilib farg‘onaliklar”* (@ИмяФамилия-ш4я3ф) *“Manimcha, shu Shukrullo boshlovchilikda ozgina madaniyat, or-nomus degan narsalarga e’tibor bersa bo‘lardi. “Odam hammomda xijolat bo‘ladi” degan gap TV orqali gapiriladigan gap emas. 25.09.2025 efirida aytildi. Bema’ni gaplari juda ko‘p”* (@ZilolaBadalova-n9q). *“Iltimos sizlardan shu “Ertalabdan salom” ko‘rsatuviga Shukrullo chiqmasin, oilamiz bilan ko‘rolmaymiz, o‘ta bachkana qiliqlar qiladi, uyatsiz gaplar bilan asabimizga tegadi. Dilfuzaniyam saviyasi ancha past”* (@ДилмуродЕрашев). *“Shu Karinanglarga aytingla o‘zbekcha gapirsin o‘zini ko‘rsatmay. Ashulani o‘zbekcha aytadi-ku, kinoda ham o‘zbekcha gapiradi, hecham yoqmayapti gapirishi, ko‘rgimiz ham kelmay qolyapti shu ko‘rsatuvni”* (@Mexmonova).

Izohlarni ko‘rsatuv ijodkorlari ham o‘qishi boshlovchilarning dastur davomidagi suhbatlarida ochiq-oydin aytib o‘tildi. Afsuski, tomoshabinlarning e’tirozli fikrlari (M: ko‘p kulish) shunchaki hazilga olinib o‘tkazib yuborildi. Mazkur fikrlarni, yuqoridagi izohlarni keltirishdan maqsad dasturdagi nutq madaniyati, boshlovchilarning o‘zini tutishi hamisha tomoshabinlar nigohida ekanligini, har bir telemahsulot o‘zbek adabiy tilining kelajagini belgilovchi muhim unsurlardan biri ekanligini unutmaslikdan iborat.

“Ertalabdan salom!” dasturining jurnalistika sohasida bir necha yillik tajribaga ega, o‘z kasbining mutaxassisi Tolibjon Isroilov tomonidan olib boriladigan sonlarida esa o‘zbek tilini to‘g‘ri qo‘llash, nutq ravonligi bilan bog‘liq kamchiliklarni deyarli kuzatmaymiz. Bu suxandonning

jumlalari ona tilimizning naqadar boyligini isbotlab turadi. Masalan, *“Aziz onajonlar, ertalabki nonushtaga tadorig ko‘rayotgan ayollarimiz, bu qo‘shiq siz uchun mehrimiz izhori bo‘lsin!”* (2022-yil 25-may soni) [3]. Kuzatuvlarimizdan shuni angladikki, chiroyli nutq haqida tomoshabinlar fikri ham ijobiy, biror o‘rinda mazkur suxandon haqidagi negativ fikrlarni uchratmadik. Professor E.Begmatov aytganidek: “Nutq madaniyati, chinakam ma’noda adabiy til bilan bog‘liq hodisadir. Uning paydo bo‘lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning mezonlari bilan bog‘liqdir” [4]. Demak, teleboshlovchi nutq madaniyatining asosiy unsuri bo‘lmish adabiy til me’yorlariga rioya etgan taqdirdagina chiroyli, go‘zal nutqni tomoshabinga ulashgan sanaladi.

Mamlakatimizda 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 989-sonli “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqidagi”, 2020-yil 29-yanvardagi 40-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari [1,2] hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlari qabul qilinganiga qaramay, hanuz ommaviy axborot vositalarida, xususan, televideniyeda bu borada yechimini kutayotgan talay muammolar mavjud. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi har bir fuqaro, eng avvalo, o‘z ona tilini sevsa, unga hurmat-e’tibor ko‘rsatsagina maqsadga erishiladi. Shunday qilinmas ekan, chora-tadbirlar faqat qog‘ozda qolib ketadi, natijada tilimiz o‘z bo‘y-bastini, tarovatini yo‘qotib kelajak avlodga yetkaziladi. Shuningdek, begona tildagi so‘zlarni noo‘rin ishlatish nutqning ifodaliligiga, uslubiy tozaligiga va estetik qadriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ona tilidan foydalanishdagi beparvolik, chet so‘zlarini qo‘shib ishlatish zamonaviylik belgisi emas, balki **tilga loqaydlik** va **milliy identitetga begonalashuv** belgisidir [5].

Teledasturlarda nutq madaniyati talablariga rioya etilmasligiga, bizningcha, ikki sabab mavjud: biri suxandonlar, teleboshlovchilarning hamda taklif etiladigan mehmonlar, mutaxassislar, umuman, suhbatdoshlarning adabiy til me’yorlaridan yetarlicha xabardor emasligi yoki tajriba va ko‘nikmaning oz ekanligi; ikkinchisi ataylab shevadan voz kechmasligi. Achinarlisi, mana necha yildirki, xususiy telekanallar rahbariyati bu holatga ko‘z yumib kelmoqda hamda hech qanday chora-tadbirlar yo‘lga qo‘yilmayotgani kuzatilmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy teleefirda nutq madaniyati ko‘rsatuvning mazmuniy va kommunikativ samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. “Ertalabdan salom” teleko‘rsatuvida teleboshlovchi nutqi axborot berish, muloqotga chorlash va ta’sir ko‘rsatish funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Biroq ayrim holatlarda nutqiy me’yorlarga yanada qat’iy rioya etish, so‘z tanlashda aniqlik va uslubiy uyg‘unlikni kuchaytirish zarurati mavjud. Aytish joizki, teleboshlovchining efirga olib chiqqan har bir so‘zi, xatti-harakati, eng avvalo, o‘zining, o‘zi orqali esa butun bir millatning qiyofasini, ma’naviyatini, mentalitetini namoyish etadi. Teleefirda nutq madaniyatini takomillashtirish nafaqat jurnalistlarning kasbiy mahoratini oshiradi, balki tomoshabinlarning til madaniyati va kommunikativ saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // https://lex.uz/docs/-5058351.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi 167-I sonli “Davlat tili haqida”gi Qonuni (yangi tahrir) // https://lex.uz/docs/-121051#-121093

3. Malikova G. Xususiy o‘zbek telekanallarida adabiy til me’yorlari: muammo va yechim // “Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – T., 2022-yil 30-noyabr. 476-481-b.

4. Qung‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1992.

5. Звегинцев В.А. Язык и лингвистическая теория. – М.: Изд-во МГУ, 1973. 248 с.

Dilnoza SHONAZAROVA,
ChDPU, 1-kurs magistr talabasi
E-pochta manzil: shonazarovadilnoza422@gmail.com
Umida NASIROVA,
O'zDJTU o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

HEMIS PLATFORMASI ASOSIDA INGLIZ TILI FANLARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada HEMIS raqamli platformasi asosida ingliz tili fanlarida mustaqil ta'limni tashkil etish imkoniyatlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida birinchi kurs talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash jarayonlari HEMIS funksiyalari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Platformaning topshiriqlarni strukturaviy joylashtirish, akademik monitoring hamda elektron teskari aloqa mexanizmlari talabaning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishiga xizmat qiluvchi omillar sifatida yoritiladi. Maqolada raqamli muhitda mustaqil ta'limni tashkil etishning metodik asoslari ingliz tili fanlari kontekstida umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: *HEMIS platformasi, mustaqil ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, ingliz tili fanlari, self-directed learning, akademik monitoring, elektron teskari aloqa.*

Annotation: this article examines the pedagogical opportunities for organizing independent learning in English language courses through the HEMIS digital platform. The study focuses on the integration of planning, self-monitoring, and assessment processes within the learning activities of first-year students. Particular attention is given to the functional components of HEMIS, including structured task distribution, academic monitoring, and electronic feedback mechanisms, which support the development of self-directed learning skills. The findings systematize methodological approaches to independent learning in a digital educational environment within the framework of English language instruction.

Keywords: *HEMIS platform, independent learning, digital learning environment, English language instruction, self-directed learning, academic monitoring, electronic feedback.*

Аннотация: в статье рассматриваются педагогические возможности организации самостоятельного обучения по английскому языку на основе цифровой платформы HEMIS. В центре анализа находятся процессы планирования, самоконтроля и оценки учебной деятельности студентов первого курса в условиях цифровой образовательной среды. Функциональные элементы платформы, такие как структурированное размещение заданий, академический мониторинг и электронная обратная связь, анализируются как средства формирования навыков самоуправляемого обучения. В работе обобщаются методические подходы к организации самостоятельного обучения по английскому языку с использованием цифровых технологий.

Ключевые слова: *платформа HEMIS, самостоятельное обучение, цифровая образовательная среда, обучение английскому языку, самоуправляемое обучение, академический мониторинг, электронная обратная связь.*

Kirish. Oliy ta'lim tizimida raqamli platformalarning joriy etilishi o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy modelini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini tizimli tashkil etish masalasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar doirasida dolzarb tus olmoqda. Ingliz tili fanlarida mustaqil ta'lim til ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda talabaning o'z-o'zini boshqarish, ta'lim jarayonini rejalashtirish va baholash kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, HEMIS platformasining funksional imkoniyatlari mustaqil ta'limni raqamli muhitda tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini tahlil qilish uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Mazkur maqola ingliz tili fanlarida mustaqil ta'limni tashkil etishda HEMIS platformasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mahalliy tadqiqotlarda HEMIS tizimi oliy ta'lim jarayonining ayrim komponentlarini avtomatlashtirish orqali boshqaruv samaradorligining oshirilgani qayd etildi. Xodimlar va talabalar uchun

o‘quv materiallari, topshiriqlar, baholash va monitoring mexanizmlari bir tizimda integratsiyalanganligi ta’lim jarayonini shaffoflashtiradi. Biroq bu tadqiqotlar ko‘pincha boshqaruv jarayoniga yo‘naltirilgan bo‘lib, mustaqil ta’limning metodologik asoslarini chuqur tahlil qilmaydi.

Mustaqil o‘rganish kompetensiyasini shakllantirish masalasi bo‘yicha O‘zbekiston sharoitida olib borilgan izlanishlar, jumladan, J.Hasanboyev, X.A.To‘raqulov, I.Alqarov, N.O‘.Usmonov, R.G.Is’yanov, F.Yuzlikayevlarning ishlarini e’tirof etishimiz lozim [1]. M.X.Nazarova [2], F.Nuraliyev, U.Maksumova, N.Otaxanov, I.Kamalov, R.Xalilovlar esa raqamli vositalar talabaning rejalashtirish, nazorat va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qo‘shimcha imkon berishini ta’kidlaydi. Masalan, raqamli vositalar talabaga individual o‘rganish trayektoriyasini yaratish va global resurslardan foydalanish imkonini beradi [3].

MDH hududi kontekstida HEMIS tizimida talabalarning mustaqil ishlari individualizatsiya asosida tashkil etilishi bo‘yicha izlanishlar mavjud. E.N.Salolovaga ko‘ra talabaning onlayn tizimda mustaqil izlanishi o‘quv faoliyatini baholashda, nazorat qilishda va individual topshiriqlarni boshqarish mexanizmlarini tahlil qilishda yordam beradi, bu esa mustaqil ta’limning samaradorligi va sifatini oshirish metodlarini aniqlashga xizmat qiladi [4]. Mustaqil izlanish, mustaqil ishlarda turli vositalardan foydalanishning ahamiyati borasida ham qator izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ulardan: V.L.Rvachev [5], R.S.Kozlov [6], N.Sh.Kozlova, A.Yu.Uvarov [7]larning izlanishlarini foydali deb topdik.

Jahon pedagogik tadqiqotlarida esa raqamli pedagogika va mustaqil o‘rganishning nazariy asoslari keng yoritilgan. Misol tariqasida M.N.Singh [8], C.A.Chapelle, E.Voss, S.A.Krosli, T.Salsburi, D.S.Mknamara, L.Dyurlix, K.V.Sholz [9] va boshqalarning ishlarini keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga, raqamli pedagogika bo‘yicha xalqaro tahlillar LMS va boshqa onlayn platformalar talabaning faol o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, ularni faol ishtirokchi sifatida jalb etadi va shaxsiylashtirilgan o‘rganish yo‘nalishlarini yaratadi. Bu esa mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarni belgilashda yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, HEMIS tizimi bilan bog‘liq mahalliy va MDH tadqiqotlari boshqaruv va monitoring funksiyalariga urg‘u beradi, holbuki, jahon pedagogik adabiyotlari mustaqil o‘rganish kompetensiyalari va raqamli pedagogika yondashuvlarini samarali platforma dizayni va foydalanuvchi tajribasi bilan bog‘lash zaruratini ko‘rsatmoqda. Ushbu maqola mazkur bo‘shliqlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot HEMIS platformasi kontekstida ingliz tili fanlarida mustaqil ta’limni pedagogik tahlil qilishga qaratilgan. Nazariy asos sifatida raqamli pedagogika va self-directed learning konsepsiyalari tanlandi.

Metodologik vositalar sifatida nazariy tahlil, empirik kuzatuv va qiyosiy-tahliliy yondashuv birlashtirildi. Nazariy tahlil yordamida mustaqil ta’lim va raqamli platformalarning pedagogik mexanizmlari tahlil qilindi. Empirik qismda HEMIS platformasidagi topshiriqlar, monitoring va elektron teskari aloqa vositalari talabalarning o‘quv faoliyati kontekstida o‘rganildi.

Qiyosiy-tahliliy yondashuv orqali an’anaviy va raqamli muhitda mustaqil ta’lim shakllari solishtirildi. Ushbu metodologiya HEMIS platformasining pedagogik imkoniyatlarini tizimli va ilmiy asosda aniqlashga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Mustaqil ta’lim – olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha ma’lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli sifatida e’tirof etiladi. Mustaqil ta’lim – talabaning mustaqil yoki o‘z-o‘zini boshqarish ta’limi hisoblanib, o‘quvchilarning maktab, litsey, kollej va oliy ta’limda olib boriladigan dars mashg‘ulotlaridan so‘ng ta’limni davom ettirishda, ilm olishda, til o‘rganishda o‘qituvchi ko‘magisiz ta’lim olish mahoratini anglatadi.

OTMlarda mutaxassisligi chet tili bo‘lgan bakalavr va magistratura bosqichi bitiruvchilari, ya’ni talabalar uchun kommunikativ kompetensiyalarining tayyorgarlik darajasi va kasbiy kompetensiyalarni egallashlariga qo‘yilgan ta’lim mazmunida ham quyidagicha belgilangan:

– dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy, ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

– axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

– tegishli ta’lim (bakalavriat va magistratura) yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi va h.k.

Bo'lajak pedagog HEMIS kredit-modul tizimi asosida chet tilini o'qitishda quyidagi uch bosqichga muvofiq amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1.Birinchi bosqichda, chet tilini o'qitish jarayonida talabalarga pedagogikaga oid lingvistik va madaniy materialning muhim xususiyatlariga muvofiq bilimlarni o'rgatish.

2.Ikkinchi bosqichda, talabalar jahonning yetakchi mamlakatlari pedagogik tizimiga xos nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishi.

3.Uchinchi bosqichda, jamiyatimizdagi mavjud qonunlarning jahon standartlariga mosligi, milliy mentalitet va etnopsixologik omillar hamda inson ruhiy holatini hisobga olinish jarayonlari nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda differensial o'rganish e'tiborga olinmog'i lozim.

Bundan ko'rinib turibdiki, HEMIS dasturi yordamida talabalar uchun yaratilgan mustaqil ta'lim topshiriqlari quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– talabaning o'quv faoliyatini strukturaviy rejalashtirish va vazifalarni ketma-ketlik asosida bajarish mexanizmini shakllantirish;

– topshiriqlarni bajarish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish va o'quv natijalarini mustaqil baholash ko'nikmalarini rivojlantirish;

– elektron monitoring vositalari orqali akademik intizom va mas'uliyatni barqarorlashtirish;

– individual topshiriqlar asosida o'rganish sur'ati va ta'lim trayektoriyasini moslashtirish imkonini yaratish;

– elektron teskari aloqa mexanizmlari orqali reflektiv tahlil va xatolar ustida ishlash jarayonini tizimlashtirish.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot HEMIS platformasini ingliz tili fanlarida mustaqil ta'limni raqamli muhitda tizimli tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi. Platformaning funksional modeli talabaning o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va reflektiv tahlil qilish jarayonlarini yagona didaktik tizim doirasida amalga oshirishni ta'minlaydi. Mustaqil topshiriqlarning raqamli formatda strukturaviy joylashtirilishi o'quv jarayonining izchilligini kuchaytiradi hamda talabaning o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yuzaga keltiradi.

HEMIS platformasida joriy etilgan elektron monitoring va teskari aloqa mexanizmlari mustaqil ta'lim jarayonini obyektiv pedagogik mezonlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Ingliz tili fanlari doirasida mustaqil ta'lim til ko'nikmalarini egallash jarayoni bilan cheklanmay, talabaning akademik faoliyatini ongli, rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan o'quv faoliyati sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik model sifatida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Hasanboyev J., To'raqulov X. A., Alqarov I., Usmonov N. O'., Is'yanov R. G., Yuzlikayev F. Pedagogika nazariyasi (Didaktika). – T., 2011.210-b.

2.Nazarova M.X. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Innovative Technologies in Teaching Foreign Languages and Learner Assessment in Online Education. – T., 2021.

3.Nuraliyev F., Maksumova U., Otaxanov N., Kamalov I., Xalilov R. Academia muhitida o'quv kurslarini loyihalashtirish [Designing training courses in the Academia environment], – Tashkent. 2016. 361– 364-b.

4.Соловова Е. Н. Методика обучения иностранным языкам: продвинутый курс: пособие для студентов педвузов и учителей. – М.: Астрель, 2008.

5.Rvachev, V.L. Theory of R-functions and Some Applications. Naukova Dumka, Kiev, 1982. 27–31-б.

6.Kozlov R. S., Kozlova N. Sh. Rossiya ta'lim tizimi raqamli transformatsiya davrida // O'qituvchi millat yaratadi (A.-X. A. Qodirov): IV Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2019. 344–348-b.

7.Uvarov A. Yu. Raqamli texnologiyalar dunyosida ta'lim: raqamli transformatsiya yo'lida. – M.: Nashriyot uyi. Davlat universiteti Oliy iqtisodiyot maktabi uyi, 2018. 168-b.

8.Singh M.N. The Advent of Digital Technology in Education: The Era of the Digital Classroom. Future of Higher Education, 2021; 8(1) 20–30.

9.Crossley S. A., Salsbury T., McNamara D. S. Validating lexical measures using human scores of lexical proficiency. In S. Jarvis, M. Daller (Eds.), Vocabulary Knowledge: Human Ratings and Automated Measures. John Benjamins, 2013. pp. 105–134.

Gullola JUMANAZAROVA,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali v.b.dotsenti, (PhD)
G-mail: gullolajumanazarova503@gmail.com
Benazir VOXIDOVA,
Toshkent Kimyo xalqaro Namangan filiali 1-bosqich magistranti
vbenaw@gmail.com

BOLA NUTQIDAGI ARTIKULYATSION BUZILISHLARINI KORREKSIYA QILISHDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya:ushbu maqolada bola nutqidagi artikulyatsion buzilishlarni korreksiya qilish jarayonida multimediya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan.O‘quv, didaktik va interaktiv multimediya vositalarining korreksion mashg‘ulotlarga integratsiyasi bolalarda fonematik eshituvni rivojlantirish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, artikulyatsion apparat harakatlarini mustahkamlash va nutqiy faollikni oshirishga xizmat qilishi ta’kidlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, logopedik darslarda elektron resurslar, video materiallar, interaktiv o‘yinlar hamda mobil ilovalardan foydalanish an’anaviy metodlarga nisbatan yuqori motivatsiya, o‘zlashtirish darajasi va mustahkamlash samaradorligini ta’minlaydi. Multimediya texnologiyalarining jozibadorligi, vizual-audio yordamchi stimullar va individual yondashuv imkoniyati ularni zamonaviy logopediya jarayonida muhim ahamiyatga ega vosita sifatida namoyon qiladi.

Kalit so‘zlar: *artikulyatsion buzilishlar, multimediya texnologiyalari, logopediya, interaktiv mashg‘ulotlar, korreksion metodlar, fonematik eshituv, nutq rivoji, elektron resurslar, mobil ilovalar, didaktik multimedia.*

Аннотация:в данной статье проанализирована эффективность использования мультимедийных технологий в процессе коррекции артикуляционных нарушений речи у детей. Отмечается, что интеграция учебных, дидактических и интерактивных мультимедийных средств в коррекционные занятия способствует развитию фонематического слуха, формированию правильного произношения звуков, укреплению движений артикуляционного аппарата и повышению речевой активности детей. Результаты исследования показывают, что применение электронных ресурсов, видеоматериалов, интерактивных игр и мобильных приложений на логопедических занятиях обеспечивает более высокий уровень мотивации, усвоения и эффективности закрепления материала по сравнению с традиционными методами. Привлекательность мультимедийных технологий, визуально-аудиальные вспомогательные стимулы и возможность индивидуального подхода делают их важным инструментом в современном логопедическом процессе.

Ключевые слова: *артикуляционные нарушения; мультимедийные технологии; логопедия; интерактивные занятия; коррекционные методы; фонематический слух; речевое развитие; электронные ресурсы; мобильные приложения; дидактическая мультимедиа.*

Annotation:this article analyzes the effectiveness of using multimedia technologies in the process of correcting articulation disorders in children’s speech. The integration of educational, didactic, and interactive multimedia tools into corrective sessions is emphasized as contributing to the development of phonemic hearing, correct sound pronunciation, strengthening of articulatory motor skills, and increased speech activity in children. The research results indicate that the use of electronic resources, video materials, interactive games, and mobile applications in speech therapy sessions provides higher levels of motivation, learning outcomes, and consolidation effectiveness compared to traditional methods. The attractiveness of multimedia technologies, visual and audio supportive stimuli, and opportunities for an individualized approach highlight their importance as a significant tool in modern speech therapy practice.

Key words: *articulation disorders; multimedia technologies; speech therapy; interactive sessions; corrective methods; phonemic hearing; speech development; electronic resources; mobile applications; didactic multimedia.*

Bola nutqining to‘liq va ravon rivojlanishi uning kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy moslashuvi va ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. So‘nggi yillarda logopedik amaliyotda artikulyatsion buzilishlar — tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, artikulyator a’zolarining yetarli harakatlanmasligi, fonematik eshituvning sustligi kabi muammolar keng uchramoqda. Mazkur buzilishlarni bartaraf etishda an’anaviy artikulyatsion mashqlar yetarli bo‘lmagan holatlarda, korreksion jarayonni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Multimediya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi logopediya sohasi uchun yangicha imkoniyatlar ochdi. Audio, video, animatsiya, interaktiv o‘yinlar va mobil ilovalar orqali nutq apparati faoliyatini vizual namoyish qilish, talaffuz jarayonini modellashtirish, bolalarda mustaqil mashq qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin

bo‘lib qoldi. Bunday texnologiyalar nafaqat dars jarayonini qiziqarli qiladi, balki bola motivatsiyasini oshiradi, nutqni tuzatishga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi va individual rivojlanish sur’atini hisobga olish imkonini beradi.

Shuningdek, multimediya vositalari bola nutqini turli sensor kanallar orqali (eshituv, ko‘ruv va kinestetik) rag‘batlantirishga tayangan holda, artikulyatsion jarayonni chuqurlashtirilgan tarzda korreksiya qilishga xizmat qiladi. Artikulyatsion buzilishlar nutq apparati a’zolarining (lab, til, tanglay, jag‘) funksional yetishmovchiligi yoki noto‘g‘ri harakat koordinatsiyasi natijasida tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaslik holatlarini anglatadi. Bunday buzilishlar duduqlanish (dizartriya), fonetik-fonematik kamchiliklar, tovushlarni tushirib qoldirish, almashtirish, cho‘ziq yoki buzilgan talaffuz kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Artikulyatsion buzilishlar bolaning maktabdagi o‘qish va yozuv ko‘nikmalariga, shuningdek ijtimoiy muloqot jarayoniga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, ijtimoiylashuvdagi qiyinchiliklar, psixologik noqulayliklar yuzaga kelishi mumkin.

Multimediya texnologiyalarida ishlab chiqilgan mobil ilovalar, interaktiv o‘yinlar, virtual mashqlar artikulyatsion buzilishlarni korreksiya qilishda samarali natija beradi. Masalan, “til gimnastikasi” bo‘yicha animatsion video mashqlar, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatuvchi mobil dasturlar, logopedik o‘yinlar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va mustaqil mashq qilishni rag‘batlantiradi. Bunday o‘yinlar orqali bolaning artikulyatsion apparati harakatlari muvofiqlashtirilib, fonematik eshituvni rivojlantirish, tovush farqlash, nutq tempi va ritmini boshqarish imkoniyati oshadi.An’anaviy logopedik mashg‘ulotlarda ba’zi bolalarda charchoq, befarqlik, qiziqishning pasayishi kuzatiladi. Multimediya texnologiyalari esa dars jarayoniga gamifikatsiya elementlarini olib kirgan holda, nutq korreksiyasini qiziqarli, oson va rag‘batlantiruvchi ko‘rinishga keltiradi. Animatsiya, musiqali sahnalar, interaktiv topshiriqlar bolaning maslahat va ko‘rsatmalarni tezroq qabul qilishiga yordam beradi. Bu jarayonda bolaning ijobiy hissiy holati saqlanadi, bu esa korreksiya samaradorligini oshiradi.

Logopedningfaoliyatidamultimediyatexnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari, Multimediya texnologiyalari logopedga quyidagi imkoniyatlarni beradi: murakkab artikulyatsion harakatlarni ko‘rgazmali tushuntirish, ovoz chiqarish jarayonini audio tahlil qilish, har bir bola uchun individual rivojlanish dasturini yaratish, natijalarni raqamli vositalar orqali monitoring qilish, dars materiallarini yangilab, boyitib borish. Bu o‘z navbatida ta’lim sifatini oshiradi, logopedning ishini yengillashtiradi va samaradorlikni orttiradi.Biroq, multimediya vositalaridan foydalanishda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud bo‘lib, ularga texnik jihozlar yetishmasligi, internet resurslariga bog‘liqlik, o‘quvchilar e’tiborining ekranga haddan tashqari bog‘lanib qolishi, logopedlarning multimedia resurslarini yetarli darajada bilmasligi kiradi. Shu bois multimedia texnologiyalaridan oqilona, normativ va metodik tavsiyalar asosida foydalanish zarurdir.

O‘tkazilgan tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, multimediya texnologiyalari yordamida olib borilgan artikulyatsion korreksion mashg‘ulotlar an’anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Multimediya vositalari bilan mashg‘ulot olib borgan bolalarda fonematik eshituv darajasi yaxshilandi, tovushlarning to‘g‘ri talaffuzi tezroq shakllandi, artikulyatsion apparat harakatlari muvofiqlashdi va nutqiy faollik oshdi.

Bola nutqidagi artikulyatsion buzilishlarni korreksiya qilish jarayonida multimediya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi yuqori ekanligi mazkur tadqiqot davomida o‘z tasdig‘ini topdi. Zamonaviy texnologik vositalar — animatsiyalar, audio-video resurslar, interaktiv o‘yinlar, mobil ilovalar va logopedik dasturlar — artikulyatsion mashqlarni o‘quvchi uchun qiziqarli, tushunarli va motivatsion shaklga keltirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar bolaning sensor qabul qilish tizimini faollashtiradi, fonematik eshituvni kuchaytiradi, lab va til harakatlarining vizual ko‘rgazmaligi orqali to‘g‘ri talaffuzni shakllantiradi hamda nutq apparati mushaklarini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, multimediya texnologiyalari artikulyatsion buzilishlarni korreksiya qilishda nafaqat qo‘shimcha, balki zamonaviy logopediya amaliyotida muhim innovatsion vosita sifatida qaralishi lozim. Ularning imkoniyatlaridan oqilona va metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanish bola nutqining rivojlanish jarayoniga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ta’lim jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимжанова, С. Н. Логопедия асослари. – Тошкент: O‘zbekiston Milliy nashriyoti, 2020.
2.Тарнопольский, Р. Современные мультимедийные технологии в образовании. – Москва: Академия, 2021.
3. Mayer, R. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2020.
4. Милованова, О. Интерактивные технологии в коррекционной педагогике. – Санкт-Петербург: Питер, 2022.
5. Буравцова, Е. В. Логопедические программы и компьютерные технологии. – Москва: Владос, 2017.
6. Clark, R., & Mayer, R. E-Learning and the Science of Instruction. – Wiley, 2016.
7.. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Logopediya va maxsus pedagogika bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2021.
8. G.Jumanazarova.Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish borasidagi izlanishlar.“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Farg‘ona, 2022. 414-419-b.

Elyorjon VALIYEV,
Qo‘qon davlat universiteti tadqiqotchisi

INTERNET FORUMINING MILLIY-MADANIY VA SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya: internet forumi muayyan mavzular asosida yuritiladigan, ishtirokchilar o‘rtasida savol-javob, muhokama va tajriba almashishga mo‘ljallangan onlayn platforma bo‘lib, ushbu platforma orqali yuzaga kelgan nutqlar to‘plami jamoaviylik, polilogik nutq asosida giprematn xajmidagi alohida nutqiy janrni yuzaga keltiradi.

Kalit so‘zlar: *pochta, telegraf, faks, virtual muloqot, internet, chat, elektron pochta, forum, postlar, izoh, blog.*

Аннотация: интернет-форум — это онлайн-платформа для вопросов и ответов, обсуждений и обмена опытом между участниками по конкретным темам. Совокупность высказываний, созданных на этой платформе, формирует отдельный жанр речи в формате гипертекста, основанный на коллективной, полилогической речи.

Ключевые слова: *почта, телеграф, факс, виртуальная коммуникация, интернет, чат, электронная почта, форум, сообщения, комментарии, блог.*

Annotation: an Internet forum is an online platform for question-and-answer, discussion, and experience exchange between participants on specific topics. The collection of speeches created through this platform creates a separate speech genre in the size of hypertext based on collective, polylogical speech.

Keywords: *mail, telegraph, fax, virtual communication, internet, chat, email, forum, posts, comment, blog.*

Kirish Zamonaviy ilmiy texnikaning rivoji tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Raqamli texnologiyalarning yaratilishi bilan til tizimida yangi zamonaviy nutqiy janrlar yuzaga keldi. Virtual kommunikatsiya doimiy ravishda rivojlanayotgan lingvistik jarayon bo‘lib, u faqatgina texnologiya emas, balki til tizimida yangi janrlarni yaratayotgan murakkab tizimdir.

Internet forumi turli millat va madaniyatlarga mansub odamlarning onlayn forumlardagi muloqoti, muomalasi, fikr bildirish uslubi va munosabatida o‘z aksini topadigan madaniy va milliy omillar majmuasidir. Foydalanuvchilarning muomala uslubi**,** talablari**,** mavzu tanlovi**,** senzuraga munosabati va axloqiy me’yorlari madaniyat va millatga qarab farq qiladi. Buni tushunish — turli madaniyat vakillari o‘rtasida onlayn muloqotni yaxshilash**,** internetda madaniyatlararo muloqot madaniyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Internet forumlar har bir millat va madaniyatda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. [1.172] Insonlarning muloqot uslubi, munosabati, yozish tarzi va muhokama mavzulari ularning madaniy qadriyatlari va ijtimoiy urf-odatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Asosiy qism. Internet forumlar har bir millat va madaniyatning axloqiy, ijtimoiy va siyosiy qadriyatlarini aks ettiradi. Ingliz madaniyatida erkin fikr, dalil asosida bahslashish, shaxsiy huquqlar ustuvor. Rus madaniyatida chuqur hissiyot, keskin munosabat va milliy g‘urur kuchliroq namoyon bo‘ladi. O‘zbek madaniyatida esa odob-axloq, hurmat, diniy va milliy qadriyatlarga rioya qilish birinchi o‘rinda turadi. Bu farqlar, ayniqsa, turli madaniyat vakillari ishtirok etayotgan forumlarda internetdagi munosabatlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. [2.69]

So‘nggi yillarda dunyo tilshunosligida videokontent janri yuzasidan ayrim lingvistik tadqiqotlar maydonga keldi. Shuni aytish kerakki, ushbu tadqiqotlarda videokontent so‘zining lingvistik jihatdan aniq tavsifi keltirilgan emas. Ushbu janr boshqa virtual nutqiy janrlar kabi til tizimida o‘ziga xos lingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlarni namoyon qiluvchi nutqiy janrdir. Videokontent janri audio, video, tekst, grafika, subtitr va emojilarni o‘z ichiga oluvchi giperhajmli mediamatn bo‘lib, diqqatni jalb etish uchun lo‘nda, ta’sirli va tezkor uslubda yaratiladi. Mazkur janrda ko‘proq so‘zlashuv uslubi yetakchilik qiladi. Videokontent janrida axborot almashinuv

vositalari lingvistik jihatdan yangi so'zlar, anglitsizmlar, sleng, internet terminlari, qisqa gaplar, inversiya, ritorik savollar, ekspressiv talaffuz, intonatsion o'yinlarga boy bo'lib, chaqiriq, hazillashish, ko'ngil ochish kabi bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

Shuni aytish kerakki, internet forumda yoziladigan har bir xabar (post) muayyan matniy tuzilishga ega bo'ladi. Bu tuzilish forumdagi muloqotning aniq, tushunarli va izchil bo'lishiga yordam beradi. Internet forumidagi matn sarlavha**,** asosiy xabar **(**fikr/savol/masala), javob xabarlar **(**ishtirokchilar munosabati, taklif va mulohazalari), qo'shimcha elementlar (formatlash, iqtibos, smaylik va boshqalar) kabi mikro, makro va giperhajmli matnlardan iborat bo'ladi. Masalan, IFTE2025 gibrid shaklda o'tkazilgan forumi. Ushbu forumning maqsadi xalqaro ilmiy loyihalarni muhokama qilish, ishtirokchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish va amalga oshirish rejalarini belgilash, shuningdek, pedagoglarni tayyorlash, pedagogik tajriba natijalarini taqdim etish, fikr va tajriba almashish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishdan iborat bo'lgan. Forum Zoom/Webex/YouTube Live kabi platformalarda yoki gibrid tarzda o'tkazilib, qatnashchilar chat, savol-javob, onlayn savol yo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan, shuningdek, Rossiya, O'zbekiston, Xitoy, Qozog'iston va boshqa mamlakatlardan turli pedagoglar va olimlar masofaviy ravishda qatnashgan. Ma'ruzalar turli tillarda bo'lib, AI yordamida sinxron tarjima qilib berilgan, bu esa virtual formatga xos innovatsiyani vujudga keltirgan, forumda slaydlar, elektron tezislar, chat orqali savollar, hamda audiovizual muhokamalar tashkil qilingan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, virtual imkoniyatlar qatnashchilar jismonan turli davlatlarda bo'lishgani holda, bir vaqtda ishtirok etishganida ko'rinadi. Bu esa virtual muloqotga xos asosiy xususiyat sanaladi. [3.149] Forumning virtual janr sifatidagi afzalliklari masofaviy interfaollik kuzatiladi, ishtirokchilar fikr bildirishi, savol berish va bahslashish imkoniga ega bo'lishgan, xalqaro keng qamrovli muloqot, ya'ni keng jamoatchilikka ochiq tashkil qilingan, yuksak darajadagi transmilliy aloqa shakllantirilgan, **a**rxiv va qayta ko'rish imkoni yaratilgan, ya'ni forum videolari yozib olingan va keyinchalik ko'rish uchun havola qilingan (bu ham virtual muhokamaga xos), tezkor axborot almashinuvi — matnli va ovozli kanallar orqali tezkor fikr almashishga erishilgan. Internet forumida cheklovlar va muammolar ham mavjud bo'lib, texnik uzilishlar, muloqotlardagi emotsional kamchiliklar, ishtirokning passivligi, ya'ni ba'zi ishtirokchilarning faqat tinglovchi bo'lib qatnashishi kabilarni kiritish mumkin. IFTE2025 forumi virtual muloqot janrining gibrid namunasi sifatida namoyon bo'ladi. U an'anaviy ilmiy forumning tuzilishi va mazmunini saqlagan holda, raqamli texnologiyalar asosida masofaviy ishtirok, interfaol muhokama, multimedia formatlar, tillararo kommunikatsiya va keng auditoriya bilan muloqot qilish imkonini bergan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, jamiyatda nutqiy janrlarning paydo bo'lishi va iste'moldan chiqishi jamiyatning ushbu nutqiy janrga bo'lgan lingvistik ehtiyoji va madaniy qarashlariga bog'liq. Shu nuqtai nazardan til tizimida yangi paydo bo'layotgan nutqiy janrlarning tilda faollashuvi har bir xalq, millat va jamiyatning ushbu lingvistik nutqiy janrga bo'lgan munosabatini bildiradi.

Shuni xulosa o'rnida aytish mumkinki, virtual kommunikatsiya XXI asr muloqot madaniyatining markaziy qismidir. U insonlar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiradi, yangi imkoniyatlar yaratadi. Virtual olam lingvistikasi esa o'ziga xos yangi tizimli lingvistik maydon bo'lib, bunda uslublarning gibridlashuvi kuzatiladi, ayniqsa, adresantlar va adresatlarning rasmiy va norasmiy nutqlarda aralash gaplashish imkoniyati virtual nutqiy janrlarning sotsiolingvistik xususiyatlarini o'rganishni talab qiladi, internet forumi ko'p sonli rasmiy nutqiy janrlarni o'z ichiga oladi. Kelajakda internet forumida ko'p qo'llaniladigan nutqiy janrlarni tahlil qilish va tasniflash tilshunoslar oldiga ulkan vazifalar yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Халилова Р. Виртуал нутқий мулоқотнинг ўзига хос тамойиллари. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил №12) ISSN 2181-1709 (P) 172 Education and innovative research 2022-y. №12

2.Жичкина, А.Е. Социально-психологические аспекты общения в Интернете http:// floqiston.ru/projects/articles/strateqy.shtm/. 69 c

3.Компанцева Л. Интернет лингвистика: когнитивно-прагматический и лингвокультуралогический подходы: Монография. Луганск, "Знание", 2008. 149 с

Farhod TOSHTEMIROV,
Turon universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

NOVERBAL KOMMUNIKATSIYANING RAQAMLI MUHITDAGI TRANSFORMATSIYASI: LINGVISTIK YONDASHUV

Annotatsiya: mazkur maqolada internet muloqotda noverbal vositalarning lingvistik, semiotik va pragmalingvistik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda noverbal kommunikatsiya insonlararo muloqotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, uning an’anaviy yuzma-yuz muloqotdan raqamli diskursga o‘tish jarayonidagi transformatsiyasi yoritiladi. Emoji, emotikon, tinish belgilarining kombinatsiyalari hamda grafemik vositalarning semantik va pragmatik funksiyalari alohida ko‘rib chiqiladi. Maqolada noverbal vositalarning nutq aktlarining illokutsion kuchini aniqlash, emotsional-ekspressivlikni ifodalash, ijtimoiy masofani boshqarish va kommunikativ niyatni aniqlashtirishdagi roli asoslab beriladi. Shuningdek, internet diskursida noverbal belgilar orqali ma’no hosil qilish jarayoni semantika va pragmatika o‘rtasidagi chegaraning xiralashuvi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari noverbal vositalarni raqamli muloqotda yordamchi unsur emas, balki mustaqil va markaziy kommunikativ mexanizm sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *noverbal kommunikatsiya, internet muloqot, raqamli diskurs, pragmalingvistika, semiotika, emoji, nutq aktlari*

Аннотация: в статье проводится системный анализ лингвистических, семиотических и прагмалингвистических особенностей невербальных средств в интернет-коммуникации. Невербальная коммуникация рассматривается как неотъемлемая часть межличностного общения, претерпевающая существенную трансформацию в условиях цифрового дискурса. Особое внимание уделяется семантическим и прагматическим функциям эмодзи, эмотиконов, комбинаций знаков препинания и графемических средств. В работе обосновывается роль невербальных средств в модификации иллокутивной силы речевых актов, выражении эмоционально-экспрессивных значений, регулировании социальной дистанции и уточнении коммуникативного намерения говорящего. Также анализируется процесс порождения смысла в интернет-дискурсе с точки зрения размывания границы между семантикой и прагматикой. Результаты исследования подтверждают, что невербальные средства в цифровой коммуникации функционируют не как вспомогательные элементы, а как самостоятельный и центральный механизм смыслообразования.

Ключевыеслова: *невербальнаякоммуникация, интернет-коммуникация, цифровойдискурс, прагмалингвистика, семиотика, эмодзи, речевые акты*

Annotation: this article presents a systematic analysis of the linguistic, semiotic, and pragmalinguistic characteristics of nonverbal means in internet communication. Nonverbal communication is examined as an integral component of interpersonal interaction that undergoes significant transformation within digital discourse. Particular attention is paid to the semantic and pragmatic functions of emojis, emoticons, punctuation combinations, and graphemic devices. The study highlights the role of nonverbal means in modifying the illocutionary force of speech acts, expressing emotional and expressive meanings, regulating social distance, and clarifying communicative intention. The process of meaning construction in internet discourse is also analyzed from the perspective of the blurred boundary between semantics and pragmatics. The findings demonstrate that nonverbal means in digital communication function not as auxiliary elements but as independent and central mechanisms of meaning-making.

Key words: *nonverbal communication, internet communication, digital discourse, pragmalinguistics, semiotics, emojis, speech acts*

Insonlararo muloqot jarayonida axborot uzatish faqat verbal vositalar — ya’ni so‘zlar va grammatik tuzilmalar orqali amalga oshmaydi. Kommunikativ jarayonning muhim qismi noverbal vositalar orqali ro‘yobga chiqadi. Tilshunoslik va kommunikatsiya nazariyasida noverbal muloqot tushunchasi imo-ishora, mimika, tana harakati, intonatsiya, pauza, masofa hamda vizual belgilar kabi til tizimiga bevosita kirmaydigan, biroq ma’no uzatishda muhim rol o‘ynaydigan belgilar majmuini o‘z ichiga oladi. Ushbu belgilar nutqning semantik va pragmatik qatlamlarini to‘ldiradi hamda muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatni aniqlashtiradi.

Noverbal kommunikatsiyaning ahamiyati masalasiga XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida e’tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, amerikalik tadqiqotchi Albert Mehrabian tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bu sohaning ilmiy asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Albert Mehrabianning fikricha, insonlar o‘rtasidagi emotsional axborotning atigi kichik qismi so‘zlar orqali uzatiladi, asosiy qismi esa intonatsiya va tana harakati orqali yetkaziladi[1:43-52]. Garchi ushbu nisbatlar keyinchalik tanqidiy qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, noverbal vositalarning muloqotdagi yetakchi o‘rni ilmiy jamoatchilik tomonidan inkor etilmagan.

Zamonaviy kommunikatsiya nazariyalarida noverbal belgilar nutqning ikkilamchi yoki yordamchi unsuri sifatida emas, balki teng huquqli kommunikativ tizim sifatida baholanadi. Bu holat noverbal muloqotni lingvistik tahlil doirasiga olib kirish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada noverbal vositalar psixologiya va sotsiologiya bilan bir qatorda tilshunoslik, pragmatika va semiotika fanlarida ham chuqur o‘rganila boshlandi.

Psixologik tadqiqotlar doirasida Pol Ekman tomonidan olib borilgan izlanishlar alohida ahamiyatga ega. Ekman yuz ifodalari va emotsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, inson yuzidagi asosiy emotsiyalar — quvonch, g‘azab, qo‘rquv, qayg‘u va hayrat — madaniyatlararo umumiylikka ega ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi[2:55-78]. Ushbu tadqiqotlar noverbal belgilar nafaqat individual, balki universal kommunikativ ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Lingvistik nuqtayi nazardan noverbal vositalar, avvalo, nutqning pragmatik qatlamini shakllantiradi. Chunki gapiruvchining haqiqiy munosabati, niyati va emotsional holati ko‘pincha aynan noverbal belgilar orqali aniqlanadi. Shu sababli pragmalingvistika doirasida noverbal vositalar nutq aktlarining to‘g‘ri talqin qilinishida hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. So‘zlarning grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi muloqotning muvaffaqiyatini kafolatlamaydi; aksincha, noverbal belgilar orqali berilgan signal gapning qanday maqsadda aytilganini aniqlab beradi.

Madaniy kontekst bilan bog‘liq yondashuvni Edvard Tvitchell Hall ishlab chiqqan. U noverbal kommunikatsiyani “yashirin til” sifatida talqin qilib, masofa (proxemics), vaqt (chronemics) va kontekst tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Hallning ta’kidlashicha, muloqotda aytilmagan, ammo anglashilgan ma’no qatlamini tushunish uchun aynan noverbal belgilarni tahlil qilish zarur [3:83-105].

Mazkur nazariy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, noverbal vositalar muloqotda ikkilamchi emas, balki mustaqil semantik va pragmatik tizim sifatida faoliyat yuritadi. An’anaviy yuzma-yuz muloqotda bu belgilar tabiiy va spontan tarzda namoyon bo‘lsa, yozma va raqamli muloqotda ular sun’iy belgilar orqali modellashtiriladi. Bu holat noverbal kommunikatsiyaning zamonaviy shakllarini, xususan, internet diskursidagi ko‘rinishlarini alohida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Noverbal kommunikatsiyani lingvistik jihatdan tahlil qilish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Dastlab noverbal vositalar fiziologik yoki psixologik hodisa sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik ular mustaqil belgilar tizimi sifatida semiotik va lingvistik tahlil doirasiga olib kirildi. Aynan shu yondashuv noverbal belgilarni tasodifiy yoki ikkilamchi hodisa emas, balki tuzilmali va ma’noli birliklar sifatida qarash imkonini berdi.

Bu borada Ray Birdvistell tomonidan ishlab chiqilgan kinesika nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Birdwhistell tana harakatlarini tilga o‘xshash strukturaviy tizim sifatida baholab, har bir imo-ishora va mimik harakat kommunikativ ma’noga ega bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tana harakatlari tasodifiy emas, balki muayyan madaniy kodlar asosida tartiblanadi va shu bois lingvistik metodlar yordamida tahlil qilinishi mumkin [4:97-118].

Birdvistell yondashuvi noverbal muloqotni lingvistik tadqiqot obyektiga aylantirishda muhim burilish yasadi. Natijada noverbal belgilar nutqning tashqi qo‘shimchasi emas, balki kommunikativ jarayonning ichki tarkibiy qismi sifatida qarala boshlandi. Bu esa noverbal vositalarni semiotika doirasida belgi sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda noverbal vositalar odatda, bir necha asosiy guruhlarga ajratiladi. Eng keng tarqalgan tasnifga ko‘ra, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. kinesik vositalar (imo-ishora, mimika, tana harakati);
2. paralingvistik vositalar (intonatsiya, pauza, ovoz balandligi);
3. proxemik vositalar (masofa va joylashuv);
4. vizual va grafemik belgilar.

Mazkur tasnif ommaviy va ilmiy manbalarda Allan Piz va Barbara Piz tomonidan keng qo‘llaniladi. Mualliflar noverbal belgilarni inson muloqotining “jim ishlovchi mexanizmi” sifatida baholab, ular orqali ko‘pincha ongli nazoratdan tashqarida bo‘lgan ma’no uzatilishini ta’kidlaydi [5:12-25].

Lingvistik nuqtayi nazardan muhim jihat shundaki, ushbu tasnif internet muloqotga ko‘chirilganda ayrim o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan, yuzma-yuz muloqotda bevosita kuzatiladigan kinesik va paralingvistik vositalar raqamli muhitda to‘g‘ridan to‘g‘ri mavjud emas. Biroq ular grafik va vizual belgilar — emoji, emotikon, tinish belgilarining kombinatsiyalari va grafemik urg‘ular orqali modellashtiriladi. Bu holat noverbal vositalarning raqamli muhitda yangi shakl va yangi funksiya kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonni tushuntirishda multimodal kommunikatsiya nazariyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Gunter Kress va Teo van Leuven zamonaviy kommunikatsiyani ko‘p kanalli jarayon sifatida talqin qilib, vizual va grafemik belgilarni til bilan teng darajadagi semantik resurs deb baholaydi. Ularning fikricha, ma’no birgina verbal kanal orqali emas, balki turli semiotik resurslar o‘zaro uyg‘unligi orqali yaratiladi [6:41-61].

Internet diskursi aynan shu ko‘p kanallilik bilan tavsiflanadi. Raqamli muloqotda matn, rasm, belgi va grafik elementlar bir butun kommunikativ birlik sifatida ishlaydi. Shu bois emoji, emotikon va tinish belgilarining kombinatsiyalari oddiy bezak emas, balki multimodal muloqotning to‘laqonli tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Noverbal belgilar va ma’no o‘rtasidagi munosabat pragmalingvistika doirasida yanada aniqroq izohlanadi. Internet muloqotda bu vazifa ko‘pincha emoji va tinish belgilariga yuklanadi. Masalan, oddiy xabar oxiriga qo‘yilgan kulgu belgisi yoki undov belgilarining takrorlanishi gapning buyruq, kinoya yoki hazil sifatida talqin qilinishiga

bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat noverbal vositalarning pragmatik interpretatsiyadagi hal qiluvchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

An’anaviy yuzma-yuz muloqotdan farqli ravishda internet diskursida noverbal belgilar tabiiy fiziologik shaklda emas, balki raqamli vositalar orqali sun’iy ravishda kodlangan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon tilshunoslikda “noverbal signallarning yozma muhitga ko‘chishi” sifatida talqin qilinadi. Natijada yozma nutq og‘zaki muloqotga xos bo‘lgan emotsional va pragmatik xususiyatlarni o‘zlashtira boshlaydi. Bu holat raqamli muloqotning umumiy tabiatini o‘zgartirib, yozma nutqni yanada interaktiv va ekspressiv qiladi.

Mazkur jarayonni tahlil qilgan tadqiqotchilardan biri Naomi Baron hisoblanadi. Baron internet kommunikatsiyasini “gapirilayotgan yozuv” (written speech) sifatida baholab, foydalanuvchilar yozma shakldan foydalanishiga qaramay, og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan spontanlik va emotsionallikni saqlab qolishga intilishini ta’kidlaydi [7:61-79]. Ushbu holat noverbal vositalarning internet diskursida faol qo‘llanishiga kuchli turtki beradi.

Yuz ifodasi, intonatsiya va pauza kabi an’anaviy noverbal signallar yo‘qligi sharoitida foydalanuvchilar ularning o‘rnini bosuvchi grafemik va vizual belgilarni yaratadi. Natijada emoji, emotikon va tinish belgilarining kombinatsiyalari muloqotda muhim semantik va pragmatik vositaga aylanadi. Bunday belgilar yozma xabarga emotsional rang berib, gapiruvchining munosabati va niyatini aniqroq ifodalash imkonini yaratadi.

Kompyuter vositasidagi muloqotni tizimli ravishda o‘rgangan Syuzan Herring internet diskursida noverbal elementlar kommunikativ niyatni aniqlashda asosiy rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Herring emoji va grafik belgilarni pragmatik markerlar sifatida baholab, ular orqali muloqotning ohangi va interpretatsiya yo‘nalishi belgilanishini ta’kidlaydi [8:612-634].

Internet muloqotda noverbal vositalarning transformatsiyasi faqat belgilar shaklining o‘zgarishi bilan cheklanmaydi, balki ularning funksional yukining kengayishi bilan ham tavsiflanadi. Masalan, tinish belgilari an’anaviy yozma nutqda asosan, grammatik vazifa bajargan bo‘lsa, raqamli diskursda ular emotsional holat, munosabat va hatto ijtimoiy pozitsiyani ifodalovchi noverbal birliklarga aylanadi. Ko‘p nuqta, undov yoki savol belgilarining takroriy qo‘llanilishi xabarning pragmatik ohangini tubdan o‘zgartiradi.

Akademik va raqamli yozuvni qiyosiy tahlil qilgan Terasa Lillis va Meri Jeyb Karri yozma nutqda kontekst va munosabatni ifodalash uchun qo‘shimcha belgilar zarur bo‘lib qolayotganini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, internet yozuvi pragmatik jihatdan kuchli kodlangan tizim bo‘lib, unda noverbal belgilar muhim kommunikativ funksiya bajaradi [9:142-158].

Raqamli muloqotda noverbal belgilar inson tafakkurining moslashuvchanligini ham yaqqol aks ettiradi. Foydalanuvchi real muloqotda mavjud bo‘lgan emotsional signallarni ongida modellashtiradi va ularni belgilar orqali ifodalaydi. Shu tariqa, noverbal vositalar insonning kognitiv faoliyati bilan bevosita bog‘lanadi va ma’no hosil qilish jarayonida faol ishtirok etadi.

Pragmatik tahlil doirasida Georg Yul muloqotda aytilmagan, ammo anglashilgan ma’no — ya’ni implicative (implied meaning) tushunchasiga alohida e’tibor qaratadi. Yule’ning ta’kidlashicha, muloqotda ko‘pincha yashirin ma’no ochiq aytilgan mazmundan muhimroq bo‘ladi [10:40-55]. Internet diskursida bu yashirin ma’no ko‘pincha emoji yoki tinish belgilari orqali yuzaga chiqadi.

Masalan, oddiy tasdiq bildiruvchi gap oxiriga qo‘yilgan ko‘p nuqta yoki kulgu belgisi xabarning befarqlik, kinoya yoki yumshoqlik ohangida talqin qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu holat noverbal vositalarning semantikdan ko‘ra pragmatik jihati ustun ekanini ko‘rsatadi va ularning interpretatsiyadagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, noverbal muloqotning internet diskursiga o‘tishi yozma nutqning umumiy tabiatini o‘zgartiradi. Raqamli muhitda yozma nutq og‘zaki muloqotga xos bo‘lgan emotsional va ekspressiv xususiyatlarni o‘zlashtiradi, noverbal vositalar esa ushbu jarayonning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat internet diskursini tahlil qilishda noverbal belgilarni alohida va chuqur o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Internet muloqotda noverbal vositalarning faol ishlashi, avvalo, ularning pragmalingvistik funksiyalari bilan bog‘liq. Agar semantik tahlil “qanday ma’no hosil bo‘ladi?” degan savolga javob bersa, pragmalingvistika “bu ma’no qanday niyat bilan va qanday vaziyatda yuzaga keladi?” masalasini markazga qo‘yadi. Raqamli diskursda aynan noverbal belgilar gapiruvchining niyatini aniqlashtiruvchi asosiy signal sifatida namoyon bo‘ladi.

Nutq aktlari nazariyasiga ko‘ra, muloqotda aytilgan gapning grammatik shaklidan ko‘ra, uning illokutsion kuchi muhimroq hisoblanadi. Jon Ostin nutq aktlarini lokutsion, illokutsion va perlokutsion darajalarga ajratib, muloqotning samaradorligi aynan illokutsion niyatning to‘g‘ri anglanishiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [11:94-108]. Internet muloqotda bu illokutsion kuch ko‘pincha emoji, tinish belgilarining kombinatsiyalari yoki grafemik urg‘ular orqali aniqlanadi.

Jon Syorl ham illokutsion kuchning kontekst va qo‘shimcha signallar orqali belgilanishini qayd etadi. Uning fikricha, nutq aktining qanday talqin qilinishi gapiruvchining niyati va adresatning interpretatsiyasi o‘rtasidagi moslikka bog‘liq[12:16-24]. Raqamli diskursda ushbu moslikni ta’minlashda noverbal vositalar asosiy pragmatik ko‘rsatkich vazifasini bajaradi.

Noverbal vositalarning pragmalingvistik funksiyalari ayniqsa, xushmuomalalik va ijtimoiy masofani boshqarishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Brovn va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik nazariyasiga ko‘ra, muloqot ishtirokchilari bir-birining “ijtimoiy qiyofasi”ni (face) saqlashga intiladi[13:61-68]. Internet muloqotda emoji va grafemik yumshatishlar tanqid yoki buyruq

ohangidagi gapning keskinligini pasaytirib, muloqotni mo‘tadil yo‘nalishda saqlab qolishga xizmat qiladi.

Masalan, tanqidiy mazmundagi xabarga qo‘shilgan kulgu yoki neytral emoji tahdid darajasini kamaytiradi va xabarni iltimos yoki hazil sifatida talqin qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Aksincha, ketma-ket undov belgilarining qo‘llanilishi yoki so‘zlarning katta harflarda yozilishi xabarni qat’iy, ba’zan esa agressiv ohangda qabul qilinishiga olib keladi. Bu holat noverbal vositalarning kuchaytiruvchi (intensifikatsiya) funksiyasi mavjudligini ko‘rsatadi.

Muloqotning kognitiv jihati ham noverbal vositalar bilan bevosita bog‘liq. Debora Tannen muloqotda aytilgan so‘zdan ko‘ra, u qanday uslubda va qanday ohangda ifodalanganini muhimroq deb hisoblaydi. Uning fikricha, noverbal belgilar muloqotning “interaktiv ramkasi”ni belgilaydi [14:23-41]. Internet muloqotda ushbu ramka ko‘pincha emoji va tinish belgilarining kombinatsiyalari orqali yaratiladi.

Kognitiv nuqtayi nazardan, noverbal vositalar inson tafakkurining tezkor va intuitiv ishlash mexanizmlariga tayanadi. Daniyel Golman emotsional intellekt nazariyasida emotsional signallar ong tomonidan tez va avtomatik tarzda qayta ishlanishini ta’kidlaydi [15:43-67]. Internet muloqotda emoji va boshqa noverbal belgilar aynan shu mexanizm asosida ishlaydi: foydalanuvchi belgini ko‘rishi bilan uning emotsional va pragmatik ma’nosini deyarli darhol anglaydi.

Bu jarayon muloqotning samaradorligini oshirishi bilan birga, noto‘g‘ri talqin qilish xavfini ham yuzaga keltiradi. Chunki adresatning kognitiv tajribasi, madaniy bilimi va shaxsiy tajribasi farq qilsa, bir xil noverbal belgi turlicha talqin qilinishi mumkin. Shu sababli internet muloqotda noverbal vositalar yuqori kommunikativ imkoniyat bilan bir qatorda, pragmatik xavf omili sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, noverbal kommunikatsiya insonlararo muloqotning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u faqat fiziologik yoki psixologik hodisa sifatida emas, balki mustaqil semiotik, semantik va pragmatik tizim sifatida qaralishi lozim. Internet diskursida bu tizim yanada faol va markaziy ahamiyat kasb etadi.

Raqamli muhitda yozma nutq og‘zaki muloqotga xos bo‘lgan emotsional va ekspressiv xususiyatlarni o‘zlashtiradi. Emoji, emotikon va tinish belgilarining kombinatsiyalari ushbu jarayonning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘lib, muloqotning ma’no qatlamini kengaytiradi, niyatni aniqlashtiradi va interpersonal munosabatni boshqaradi.

Shunday qilib, internet muloqotda noverbal vositalarni faqat yordamchi unsur sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli emas. Ularni kompleks — semantik, pragmalingvistik va kognitiv yondashuv asosida o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Albert Mehrabian, *Silent Messages* – monografiya, Belmont, – AQSh: Wadsworth Publishing, 1971, 43–52-betlar
2. Pol Ekman, *Emotions Revealed* – monografiya, – New York, AQSh: Henry Holt and Company, 2003, 55–78-betlar
3. Edward Tvitchell Hall, *The Hidden Dimension* – monografiya, – New York, AQSh: Doubleday, 1966, 83–105-betlar
4. Ray Birdwhistell, *Kinesics and Context* – monografiya, – Philadelphia, AQSh: University of Pennsylvania Press, 1970, 97–118-betlar
5. Allan Pease, Barbara Pease, *The Definitive Book of Body Language* – monografiya, – London, Buyuk Britaniya: Orion Books, 2004, 12–25-betlar
6. Gunter Kress, Teo van Leeuwen, *Reading Images: The Grammar of Visual Design* – monografiya, – London, Buyuk Britaniya: Routledge, 2006, 41–63-betlar
7. Naomi Baron, *Always On: Language in an Online and Mobile World* – monografiya, – Oxford, Buyuk Britaniya: Oxford University Press, 2008, 61–79-betlar
8. Susan Catherine Herring, “Computer-Mediated Discourse Analysis”, *The Handbook of Discourse Analysis* – ilmiy to‘plam, – Oxford, Buyuk Britaniya: Blackwell Publishing, 2001, 612–634-betlar
9. Therease Lillis, Mary Jane Curry, *Academic Writing in a Global Context* – monografiya, – London, Buyuk Britaniya: Routledge, 2010, 142–158-betlar
10. George Yule, *Pragmatics* – monografiya, – Oxford, Buyuk Britaniya: Oxford University Press, 1996, 40–55-betlar
11. John Langshway Austin, *How to Do Things with Words* – monografiya, – Oxford, Buyuk Britaniya: Oxford University Press, 1962, 94–108-betlar
12. John Searle, *Speech Acts* – monografiya, – Cambridge, Buyuk Britaniya: Cambridge University Press, 1969, 16–24-betlar
13. Penelope Brown Stephen Levinson, *Politeness: Some Universals in Language Usage* – monografiya, – Cambridge, Buyuk Britaniya: Cambridge University Press, 1987, 61–68-betlar
14. Deborah Tannen, *Talking Voices* – monografiya, – Cambridge, Buyuk Britaniya: Cambridge University Press, 2007, 23–41-betlar
15. Daniel Goleman, *Emotional Intelligence* – monografiya, – New York, AQSh: Bantam Books, 1995, 43–67-betlar

Дилрабо ЗАКИРОВА,
старший преподаватель (PhD) кафедры русского языка и литературы Кокандского государственного университета

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ РЕСУРСОВ И МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация: в статье рассматриваются теоретические и практические аспекты применения цифровых ресурсов и мультимедийных технологий в обучении русскому языку. Анализируются дидактические возможности электронных образовательных платформ, интерактивных приложений, мультимедийных презентаций, видеоматериалов и онлайн-сервисов. Обосновывается их роль в формировании языковой и коммуникативной компетенции обучающихся, развитии мотивации к изучению русского языка и индивидуализации учебного процесса.

Ключевые слова: *цифровые ресурсы, мультимедийные технологии, информационно-коммуникационные технологии, русский язык, методика преподавания, коммуникативная компетенция, электронное обучение.*

Annotation: the article examines the theoretical and practical aspects of using digital resources and multimedia technologies in teaching the Russian language. It analyzes the didactic potential of electronic educational platforms, interactive applications, multimedia presentations, video materials, and online services. The role of these tools in the formation of students’ linguistic and communicative competence, in enhancing motivation to study Russian, and in individualizing the learning process is substantiated.

Key words: *digital resources, multimedia technologies, information and communication technologies, Russian language, teaching methodology, communicative competence, e-learning.*

Annotatsiya: maqolada rus tilini o‘qitishda raqamli resurslar va multimedia texnologiyalarini qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Elektron ta’lim platformalari, interaktiv ilovalar, multimedia taqdimotlari, videomateriallar va onlayn servislarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ularning o‘quvchilarda til va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi, rus tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani rivojlantirishdagi hamda o‘quv jarayonini individuallashtirishdagi roli asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli resurslar, multimedia texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, rus tili, o‘qitish metodikasi, kommunikativ kompetensiya, elektron ta’lim.*

Введение

Современное образование развивается в условиях цифровизации и активного внедрения информационно-коммуникационных технологий в учебный процесс. Переход к компетентностной модели обучения ориентирует преподавателя не только на передачу знаний, но и на формирование у обучающихся коммуникативных умений, критического мышления, способности к самостоятельной познавательной деятельности. В этих условиях особое значение приобретает использование цифровых ресурсов и мультимедийных технологий в обучении русскому языку. Русский язык как учебная дисциплина выполняет ключевые функции в формировании языковой личности, развитии речевой культуры и обеспечении эффективной коммуникации. Однако традиционные формы и методы обучения не всегда в полной мере отвечают требованиям современной образовательной среды, ориентированной на интерактивность, индивидуализацию и использование цифровых инструментов. Это обусловливает необходимость методического переосмысления процесса обучения русскому языку с учетом возможностей цифровых и мультимедийных технологий.

Теоретические основы использования цифровых и мультимедийных технологий

Под цифровыми ресурсами в образовательном процессе понимаются электронные учебные материалы, онлайн-платформы, интерактивные приложения, образовательные сайты, электронные словари и корпуса текстов, которые обеспечивают доступ к учебной информации и поддерживают различные виды учебной деятельности. Мультимедийные технологии включают использование аудио-, видео-, анимационных и графических средств, способствующих наглядности, интерактивности и эмоциональной вовлеченности обучающихся.

В современной дидактике отмечается, что цифровые и мультимедийные средства обучения обладают рядом преимуществ:

– обеспечивают визуализацию языковых явлений и речевых ситуаций;

– активизируют познавательную деятельность обучающихся;

– способствуют индивидуализации и дифференциации обучения;

– расширяют возможности для самостоятельной и проектной работы;

– создают условия для формирования информационной и коммуникативной компетенции.

В методике преподавания русского языка данные технологии рассматриваются как средство реализации коммуникативного, деятельностного и личностно-ориентированного подходов. Их использование позволяет приблизить учебный процесс к реальным условиям речевого общения, моделировать коммуникативные ситуации, интегрировать различные виды речевой деятельности: чтение, аудирование, говорение и письмо.

Дидактические возможности цифровых ресурсов в обучении русскому языку

Цифровые образовательные платформы и онлайн-сервисы (электронные учебники, интерактивные тренажеры, образовательные порталы) предоставляют широкий спектр инструментов для организации учебной деятельности. Электронные словари, корпуса текстов, базы данных позволяют расширить лексический запас обучающихся, формировать навыки работы с языковым материалом, развивать умения анализа и интерпретации текста. Мультимедийные презентации и видеоматериалы способствуют наглядному представлению учебного материала, повышают интерес к изучению языка, облегчают восприятие сложных грамматических и лексических тем. Использование аудиоресурсов позволяет совершенствовать навыки аудирования, развивать произносительную сторону речи и интонационную выразительность.

Особое значение имеют интерактивные формы работы: онлайн-тестирование, веб-квесты, виртуальные экскурсии, работа с обучающими платформами. Они обеспечивают обратную связь, позволяют оперативно контролировать уровень усвоения материала, формируют у обучающихся навыки самооценки и самоконтроля.

Практика применения мультимедийных технологий на занятиях по русскому языку

На этапе объяснения нового материала мультимедийные презентации и видеоролики используются для иллюстрации языковых явлений, демонстрации примеров употребления лексических и грамматических единиц в контексте. При закреплении знаний применяются интерактивные упражнения, онлайн-тренажеры, электронные рабочие тетради.

В процессе развития речевых навыков цифровые ресурсы позволяют организовать проектную и исследовательскую деятельность: создание мультимедийных презентаций, видеопроектов, подкастов, участие в онлайн-дискуссиях и форумах. Такие формы работы способствуют формированию коммуникативной компетенции, развитию творческих способностей и самостоятельности обучающихся.

Педагогические условия эффективного внедрения цифровых технологий

Эффективность использования цифровых ресурсов и мультимедийных технологий в обучении русскому языку зависит от соблюдения ряда педагогических условий:

методическая целесообразность – применение цифровых средств должно быть подчинено целям обучения и соответствовать содержанию учебного материала;

системность – использование технологий должно носить не эпизодический, а планомерный характер;

интеграция с традиционными методами – цифровые ресурсы дополняют, а не заменяют классические формы обучения;

педагогическая поддержка – преподаватель направляет деятельность обучающихся, формирует навыки критического восприятия информации и культуры работы с цифровыми ресурсами.

Заключение

Таким образом, использование цифровых ресурсов и мультимедийных технологий в обучении русскому языку является важным фактором повышения качества языкового образования. Данные средства расширяют дидактические возможности преподавателя, способствуют формированию языковой и коммуникативной компетенции обучающихся, повышают мотивацию к изучению предмета и обеспечивают индивидуализацию учебного процесса. Системное и методически обоснованное внедрение цифровых и мультимедийных технологий позволяет реализовать современные образовательные подходы и адаптировать процесс обучения русскому языку к требованиям цифровой образовательной среды.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Беспалько В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Педагогика, 2008.
2. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2010.
3. ZD Khaidarovna The Speech Genre, As a Whole, In the Process of Communication Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (2), 404–407, 2023
4. Щукин А. Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М.: Флинта, 2012.
5. Роберт И. В. Информационные и коммуникационные технологии в образовании. – М.: Юрайт, 2019.

Shoira ESHBOYEVA,
Independent researcher NUU,
sheshboeva@gmail.com

PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF AI-SUPPORTED MEDIA TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Annotation: this study investigates the pedagogical effectiveness of AI-supported media technologies in English Language Teaching (ELT). The research focuses on adaptive learning platforms, speech recognition systems, chatbots, and multimedia AI environments and their influence on communicative competence, metacognitive strategies, and learner motivation. The findings confirm that AI-integrated instruction significantly enhances autonomous learning and overall language proficiency.

Keywords: *artificial intelligence, media technologies, English language teaching, adaptive learning, digital pedagogy, blended learning*

Аннотация: в статье анализируется педагогическая эффективность использования медиатехнологий на основе искусственного интеллекта в обучении английскому языку. Исследуется влияние адаптивных платформ, систем распознавания речи, виртуальных чат-ботов и мультимедийных ИИ-сред на развитие коммуникативной компетенции, метакогнитивных стратегий и учебной мотивации студентов. Результаты подтверждают, что обучение на основе ИИ способствует формированию автономности и повышению качества языковой подготовки обучающихся.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, медиатехнологии, английский язык, адаптивное обучение, цифровая педагогика, смешанное обучение.*

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektga asoslangan media texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot adaptiv o'quv platformalari, nutqni aniqlash tizimlari, virtual chat-botlar va multimedia asosidagi AI muhitlarning talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, metakognitiv strategiyalari hamda o'quv motivatsiyasiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari AI asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar mustaqil o'rganish ko'nikmalarini va til kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, media texnologiyalar, ingliz tili, adaptiv ta'lim, raqamli pedagogika*

INTRODUCTION

The digitalization of education has significantly transformed teaching methodologies, particularly in English Language Teaching (ELT). The integration of artificial intelligence (AI) into media technologies has led to the development of adaptive learning environments, intelligent tutoring systems, and personalized multimedia platforms. These innovations have shifted traditional teacher-centered instruction toward learner-centered, data-driven models that provide real-time feedback, individualized content, and authentic communicative practice.

In higher education, especially in non-philological universities, students often have limited classroom exposure to English. Therefore, there is a growing need for innovative solutions that can compensate for time constraints while ensuring effective language development. AI-supported media technologies offer opportunities to enhance learning efficiency by providing adaptive pathways, automatic assessment, and virtual communicative environments.

Despite the rapid spread of AI tools, their pedagogical effectiveness in the Uzbek higher education context has not been sufficiently investigated. This study aims to examine the impact of AI-based media technologies on communicative competence, metacognitive strategy development, and learning motivation among university students.

METHODS AND RESULTS

The study involved 84 first-year students from non-philological faculties at National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. The participants were divided into an experimental group (42 students) and a control group (42 students). Both groups had similar English proficiency levels based on a standardized pre-test.

The experimental group used the following AI-supported media technologies:

- Adaptive learning management systems (AI-based LMS)
- Speech recognition pronunciation trainers
- AI chatbots for conversational practice
- Multimedia learning platforms with personalized recommendations

The control group studied using traditional textbooks, teacher-led instruction, and non-adaptive digital materi-

als. The experiment lasted for one academic semester (16 weeks). The experimental group participated in blended learning activities combining classroom instruction with AI-supported online practice. The control group received conventional classroom instruction.

Pre-tests and post-tests measured students' speaking, grammar, vocabulary, and metacognitive strategy use. Additionally, questionnaires were used to assess learning motivation and autonomy.

Quantitative data were analyzed using comparative statistical analysis, while qualitative feedback was examined through content analysis.

The results demonstrated significant improvement in the experimental group compared to the control group.

Skill Area	Control Group Improvement	Experimental Group Improvement
Speaking	+12%	+32%
Vocabulary	+15%	+35%
Grammar	+14%	+29%
Learner autonomy	+10%	+37%
Motivation	+11%	+34%

Students using AI-supported platforms showed higher engagement, improved pronunciation accuracy, and better self-regulation skills. The personalized feedback provided by AI tools helped learners identify weaknesses and monitor progress independently.

DISCUSSION

The findings indicate that AI-supported media technologies significantly enhance English language learning outcomes. Adaptive learning platforms allowed students to study at their own pace and receive targeted tasks, which increased efficiency and reduced cognitive overload. Speech recognition systems provided instant pronunciation feedback, contributing to phonological accuracy and fluency development.

AI chatbots created anxiety-free environments for speaking practice, which is particularly important for non-philological learners who often experience communication anxiety. These findings correspond with international studies by Holmes et al. (2019) and Zawacki-Richter et al. (2019), who emphasize the role of AI in personalized learning and learner autonomy.

Moreover, multimedia AI platforms enriched contextual learning by integrating authentic videos, interactive quizzes, and gamified elements. This multimodal approach stimulated multiple sensory channels, leading to better retention and comprehension.


However, challenges such as unequal access to digital resources and potential overreliance on technology remain important considerations. Teachers must ensure pedagogical balance and ethical use of AI technologies.

CONCLUSION

AI-supported media technologies have proven to be effective tools for improving communicative competence, motivation, and learner autonomy in ELT. Their integration into higher education curricula offers significant pedagogical benefits, particularly in non-philological contexts. Future research should explore long-term impacts and develop institutional frameworks for ethical and sustainable AI implementation.

REFERENCES

1. Abdullayeva, N. (2021). *Raqamli pedagogika asoslari*. Toshkent.
2. Chen, X., et al. (2020). Adaptive learning systems and EFL development. *Computers & Education*, 144.
3. Godwin-Jones, R. (2018). Mobile AI applications in language learning. *Language Learning & Technology*, 22(3), 1–17.
4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education*. Pearson.
5. Karimov, A. (2022). Media texnologiyalar va ta'lim sifati. *Pedagogik ta'lim*, 4, 55–60.
6. Mirzayev, J. (2021). Raqamli muhitda kommunikativ kompetensiya. *Ta'lim muammolari*, 2, 44–48.
7. Zawacki-Richter, O., et al. (2019). AI in higher education. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 16(39).



TADQIQOTLAR

Zeynep OSMANOVA,
Abay nomidagi Qozog‘iston milliy pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori.
zosmanova2025@gmail.com
Gulrux JO‘RABOYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
gjuraboyeva2021@gmail.com
Sirojiddin MAMADALIYEV,
Farg‘ona davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
smamadaliyev2006@gmail.com

“TARIX-I ARBA ULUS” ASARIDA QO‘LLANGAN ETNONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ETIMOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: maqolada “Tarix-i arba ulus” asarida qo‘llangan etnonimlarning leksik-semantik xususiyatlari va ularning etimologiyasi tadqiq etilgan. Nomlarda insoniyatning tili, dini, madaniyati, urf-odatlari, yashash tarzi, xo‘jalik mashg‘ulotlari, diniy va dunyoviy qarashlari o‘z aksini topadi. Ana shunday birliklardan biri etnonimlar hisoblanib, ularning tadqiqida nomning yaratilish davri, zamonini aniqlash muhim sanaladi. Bunday til birliklarining asosiy manbasi qadimiy yozma yodgorliklar, tarixiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridir. Tadqiqotda u haqidagi mulohazalarimizni bayon etamiz.

Kalit so‘zlar: *etnonim, etnotoponim, etnik birlik, urug‘, qabila, elat, millat, tarixiy asar, etnonimik indikator, etimologiya.*

Аннотация: в статье исследованы лексико-семантические особенности этнонимов и их этимология, использованные в работе “Тарих-и арба улус”. В названиях отражены язык, религия, культура, обычаи, образ жизни, занятия хозяйством, религиозные и светские взгляды человечества. Одной из таких единиц являются этнонимы, в исследовании которых важно определить период, время создания имени. Основным источником таких языковых единиц являются древние письменные памятники, исторические произведения, образцы устного народного творчества. В исследовании мы изложим наши соображения по этому поводу.

Ключевые слова: *этноним, этнотопоним, этническая единица, род, племя, народ, нация, исторический труд, этнонимический показатель, этимология.*

Annotation: the article explores the lexical-semantic properties of the ethnonyms used in the work “Historia-i arba ulus” and their etymology. The names reflect the language, religion, culture, customs, way of life, occupation, religious and secular views of mankind. One such unit is considered ethnonyms, in the study of which it is important to determine the period of creation, the time of the name. The main source of such language units are ancient written monuments, historical artifacts, samples of folk oral creativity. In the study, we explain our reasoning about him.

Key words: *ethnonym, ethnotoponym, ethnic unit, clan, tribe, people, nation, historical work, ethnonymic indicator, etymology.*

Kirish. Tilshunoslik fanining onomastika bo‘limi tarkibiga kiruvchi etnonimika sohasi nafaqat nomshunoslikning, balki tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik fanlarining ham o‘rganish obyekti hisoblanadi. Etnonimlar, ya’ni har qanday etnos (urug‘, qabila, elat, xalq, millat va boshqalar)ning nomi juda qadimda va uzoq davrlar avval paydo bo‘lib, ular xalqning o‘tmishi haqida ma’lumot beruvchi axborotnomadir. Nomlarda insoniyatning tili, dini, madaniyati, urf-odatlari, yashash tarzi, xo‘jalik mashg‘ulotlari, diniy va dunyoviy qarashlari o‘z aksini topadi. Ana shunday birliklardan biri biz uchun tadqiq obyekti bo‘lgan etnonimlardir. Shuning uchun ham ularning tadqiqida nomning yaratilish davri, zamonini aniqlash muhim hisoblanadi. Bunday tarix hikoyachisi bo‘lgan til birliklarining asosiy manbasi qadimiy yozma yodgorliklar, tarixiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridir. Har qanday etnik birlikning paydo bo‘lishi, lisoniy tarkibi, ma’nolari va nomlanishga asos bo‘lgan ijtimoiy-lisoniy omillar o‘sha davr voqeligi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Har bir millat, xalq nomining o‘ziga xos ma’nosi, nomlanish sabablari bo‘ladi. O‘zbek tili turkiy tillar orasida eski yozuvli til bo‘lib, tarixiy yozma yodgorliklarga nihoyatda boydir. Ushbu yozma yodgorliklarda atoqli otlarning boy lisoniy materiallari mavjud. Ammo “… o‘zbek tilidagi tarixiy nomlarning materiallari shu kunga qadar deyarli tadqiq qilingan emas. Bu fikr o‘zbek tilidagi tarixiy joy nomlariga, shaxs atoqli otlari va nomlarining boshqa xil tiplariga to‘lig‘icha tegishlidir. Natijada, o‘zbek tili tarixida mavjud bo‘lgan va ko‘plab tarixiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo‘lishi, yasalishi va shakllanishi, ma’no va vazifaviy xususiyatlari boshqa xil lisoniy hamda tarixiy, madaniy, ma’rifiy tomonlari fan uchun qorong‘uligicha qolmoqda” [1: 21]. Yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, tadqiqqa tortilayotgan Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asari madaniy yodgorlik sifatida o‘rganishga muhtojdir.

Asosiy qism

Jamoalar juda katta va juda kichik hududni ham qamrab olishi mumkin. Urug‘lar, qabilalar eng qadimiy jamoalar bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan **qabila, elat, xalq, millat** kabi jamoalar etnik birlashmalar, ya’ni etnoslarni tashkil etadi. Xalqlarning kelib chiqish tarixini (etnogenezini) va shakllanish jarayonini o‘rganishda ijtimoiy fanda “etnos”, “entik birlik” iboralari qo‘llaniladi. Etnik birlik aniq sharoitda, tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy uyushmadir. S.Qorayev o‘zining “Toponimika” asarida etnik birliklarning shakllanish bosqichlarini uchga bo‘ladi: qabila, elat, millat. Bu kabi bo‘linish jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan biri ikkinchisiga aylanib boradi. Millat esa kishilarning barqaror tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush hamda til, hudud birligi, madaniyat, ong va psixo-logiyaning o‘ziga xosligi zamirida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir [2: 75].

To‘p, to‘par, shox, ticha, jamoa, toifa, avlod, qavm, urug‘, qabila, elat, xalq, millat nomlari **etnonimlar** deyiladi. Etnonim yunoncha *etnos* – “xalq” va *onim* – “nom” so‘zlaridan tarkib topgan bo`lib, etnonimlar majmuyi **etnonimiya, etnonimika** deyiladi [3: 37]. O‘zbek xalqi turkiy xalqlar ichida ko‘p urug‘, qabilaga bo‘lingani bilan ajralib turadi. T.Enazarov etnonimlar haqida fikr yuritib, “Etnonimlar izohi haqida ta’rifni sal mukammallashtirish tarafdorimiz – etnonimlar bu **qabila, urug‘, aymoq, el, elat va xalq(lar)** nomi hisoblanadi desak, tadqiqotchilarning nazaridan qolib borayotgan *el, elat, aymoq* terminlarini ham e’tiborga olgan bo‘lamiz. Bu terminlarning har biri o‘ziga xos ma’nolarga ega”, – deb yozadi. Ketma-ket almashib kelgan bu atamalar turli davrlarda vujudga kelgan. Ular o‘z davrlariga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar [4: 75]. Bizning tadqiq obyektimizda ham ana shunday etnik birliklarning har birini uchratish mumkin. Etnonimlar xalq tarixi va tilining ajralmas bir qismidir. Har bir millat milliy tilining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan muhim tarixiy manbalari mavjud bo‘ladi. Xususan, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asari o‘zbek xalqi tarixi, urug‘lari va elatlarining o‘ziga xos etimologiyasini ochib beruvchi qimmatli material hisoblanadi. O‘rganilayotgan obyektda 70 dan ortiq etnik birlik qo‘llangan bo‘lib, ularni lug‘aviy tarkibiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) yakka holda uchraydigan etnonimlar: *od, tammi, qarluq, qipchoq, samud, uyg‘ur, jaloyir, darlakin kabi;*

2) etnonimik indikatorlar: ***urug‘, el, xalq, qavm, qabila*** kabilar bilan birga qo‘llanuvchi etnonimlar: *toyi urug‘i, ash’ari urug‘i, ziryoniylar qavmi, nayman qavmi, bodoy qabilasi, qirg‘iz xalqi.*

Hozirgi kunda qadim davrlarda ishlatilgan qabila va urug‘ nomlari to‘lig‘icha muomalada saqlanib qolmagan, ular unutilib yuborilgan. Ayrim urug‘ nomlari joy nomlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, ayrimlari tildan tilga ko‘chib yuradi. “To‘rt ulus tarixi” asarida aslida (tarixan ham) xalq, el, urug‘ yoki nasab ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar ishlatilgan. Muallif ularning tarixan qanday ma’noda paydo bo‘lgani haqida ma’lumot bermaydi. Shuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, asarda qo‘llangan aksariyat etnonimlarning lug`aviy qatlamini mo‘g‘ulcha so‘zlar tashkil qiladi. Lekin ayrim etnonimlarning aslida kishi nomlari bilan bog‘liqligi, biror bir tarixiy shaxs nomidan kelib chiqqanligi yoki biror voqea-hodisa asosida yuzaga kelganligi haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Bu esa ayrim munozarali bo‘lgan etnonimlarning ma’nosini aniqlashga katta yordam beradi. Masalan, eng munozarali bo‘lgan “o‘zbek” so‘zining kelib chiqishi to‘g‘risida turli fikrlar bor. Ko‘pchilik olimlar ko‘chmanchi o‘zbeklar Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312-1340) ismi bilan atalgan deyishadi. Xususan, S.Qorayev o‘z tadqiqotlarida: “…o‘zbek etnonimi O‘zbekxon ismidan kelib chiqqan, degan fikr to‘g‘ri emas. Bu so‘z “o‘zi bek” degan ma’noni bildiradi, deyish ham ilmiy dalil emas. O‘zbek o‘z (uz) qabilasi nomi bilan bog‘liq degan fikr ham isbottalab. Umuman, hozircha “o‘zbek” so‘zining etimologiyasi ham aniq emas”, – degan fikrlarni bildiradi [4: 75]. Ammo muallif tomonidan bu etnonimik birlikning kelib chiqishi haqida voqeaviy dalil keltiriladi: *“Hazrati Sayyid Ota hamda Sulton Muhammad O‘zbakxon bilan hamrohlikda kelgan kishilardan: “Bu kelgan kim?” deb so‘rardilar. Ularning sardorlari va podshohlari O‘zbakxon bo‘lgani uchun ularni o‘zbek deb atardilar. Shu sababli o‘sha zamondan boshlab kelgan kishilar “o‘zbek” deb atala boshlandi. Qolib ketgan kishilar esa “qalmoq” deb ataladigan bo‘ldilar”.*

Bunday birliklar qatorida ko‘plab etnonimlarni sanab o‘tish mumkin. Quyidagi parchada etnonimik birlikning kishi ismidan kelib chiqqanligi keltiriladi: *“… Burqundan ikki o‘g‘il tug‘ilgan. Birining nomiki Qabaqay deb ataganlarki, qaboqin qavmi uning naslidandir. Boshqasiga Qattag‘on deb nom berganlarki, qatag‘on qavmi undan. …Dulkan Bayon pushtidan bo‘lgan nasllarni dulkan deb atashgan. Ular ajdodi Uymanaxonga borib taqalgani sababidan Dulkan avlodini o‘ymout deyishgan”* [5: 421]. Ko‘rinib turibdiki, ayrim etnik birliklarga kishi ismlari asos bo‘lishi ham mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi misollardan ma’lumki, etnonimlar kishi nomlari bilan bog‘liq bo‘lishi, tarixiy shaxslarning nomidan kelib chiqqanligi yoki elatning doimiy bajaradigan mashg‘uloti, xalqlarning yashash joylari asosida shakllangan bo‘lishi mumkin. Bu esa qadimiy o‘tmishimiz, tarixiy shaxslar, xalqlarning yumushi, dini haqida ma’lumot beradi. Etnonimlarning etimologiyasi masalasi tilshunos, tarixchi hamda etnograflarning hamkorlikdagi tadqiq obyekti bo‘lib, bunday birliklarning o‘rganilishi xalq va millatning kelib chiqishi, etnogenezini aniqlashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э., Хусанов Н., Ёкубов Ш. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992, 5-6 сонлар.
2. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006.
3. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989.
4. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёнлари. – Тошкент: Шарқ, 2001.
5. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – Toshkent: Yosh kuch, 2019. Barcha misollar ushbu manbadan olindi.

Feruz RAJABOV,
Qarshi davlat texnika universiteti
Nuriston akademik litseyi dotsenti
rajabovferuz5@gmail.com.
Samandar QUYANOV,
QarDU mustaqil tadqiqotchisi
samandarquyanov@gmail.com

KASBI TUMANI ZIYORATGOH NOMLARINING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada toponimlarning bir qismi bo‘lgan nekronimlar haqida so‘z yuritiladi. Kasbi tumanidagi rasmiy ziyoratgohlarni o‘rganish, ularning ba’zilarining etimologik xususiyatlarini keltirish orqali fikr va mulohaza yuritiladi. Bu ma’lumotlar ilmiy adabiyotlar va ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *toponimlar, nekronimlar, geografiya, tarix, Hazrati Sulton Mir Haydar, Imom Muhammad Sadr Islom, Murodbaxshota, Ibrohimota, Nazarbobo madaniy meros, tilshunoslik.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются некронимы, являющиеся частью топонимов. Обсуждается исследование официальных святынь в Касбийском районе, представлены этимологические характеристики некоторых из них. Информация проанализирована на основе научной литературы и научных источников.

Ключевые слова: *топонимы, некронимы, география, история, Хазрати Султан Мир Хайдар, Имам Мухаммад Садр Ислам, Мурадбахшота, Ибрагимота, культурное наследие Назарбобо, лингвистика.*

Annotation: this article discusses necronyms, which are part of toponyms. It discusses and discusses the study of official shrines in the Kasbi district, presenting the etymological characteristics of some of them. This information was analyzed based on scientific literature and scientific sources.

Key words: *toponyms, necronyms, geography, history, Hazrati Sultan Mir Haidar, Imam Muhammad Sadr Islam, Muradbakhshota, Ibrahimota, Nazarbobo cultural heritage, linguistics.*

“Dunyo tilshunosligida toponimlarning oykonim, gidronim, oronim, nekronim, agroonim kabi tarkibiy qismlarini lingvistik paradigmalar asosida o‘rganish xalqning ijtimoiy hayotini, milliy, etnik, madaniy tarixini, shu xalq tilining tarixiy taraqqiyotini yoritishda ahamiyatlidir. Toponimlar muayyan tilda xalq tomonidan yaratiladi va o‘sha davrning ijtimoiy hayoti haqida axborot beradi. Toponimlar xalqning o‘tmishi, urf-odatlari, boshidan kechirgan turli xil ijtimoiy-siyosiy, etnomadaniy jarayonlarni o‘zida saqlovchi lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Ana shu ma’noda toponimlar tilning tarixiy, lisoniy boyligi, xalq ma’naviyatining ajralmas merosidir” [1]. Demak, yuzaga keladigan har bir nom xalqning tarixiy-taraqqiyoti mahsuli hisoblanadi. Shunday ekan, “ifodalaydigan ma’nosidan qat’i nazar, barcha geografik nomlarning asosiy xususiyati manzil vazifasini bajarishdan iboratdir. Agarda shunday bo‘lmaganda edi, insonlar bir manzildan ikkinchi manzilga yetib borish uchun juda katta qiyinchiliklarga duch kelar edi. Negaki har bir inson xoh o‘qishga, xoh ishga, xoh sayohat qilish uchun yo‘l olmasin, eng avvalo, boradigan joy manzilining nomini bilishi lozim bo‘ladi. Shunday qilib, toponimlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy vazifasi manzil vazifasini bajarishdir. Yurtimizda joy nomlari shu qadar ko‘pki, biz bir eshitishda barcha toponimlarning ham ma’nosini anglay olmaymiz. Joy nomlari qancha ko‘hna bo‘lsa, ularning etimologiyasini bilish ham shuncha qiyin bo‘ladi”[2]. E.Begmatov atoqli otlar etimologiyasi haqida so‘z yuritib, etimologiya lisoniy materialni, ya’ni atoqli otni etimologik tahlil qilishdan olingan ilmiy natijasi va tilshunoslikning lug‘aviy birliklarning (bu o‘rinda atoqli otlarning) ilk ma’no va shaklini aniqlash hamda tiklash bilan shug‘ullanuvchi sohasi [3] ekanligini qayd etadi. B.Bafoyev etimologiya ham leksikologiyaning bir qismi sifatida tilshunoslikda o‘rganilishi, unga turli davrlarda turlicha qaralgani haqida so‘z yuritib: har xil tematik guruppadagi so‘zlarning etmoni bir

xil qoliplar, o‘lchovlar asosida aniqlanadi. Shuning uchun ham etimologiya turli sohadagi so‘zlarning etimonini ochib berishga xizmat qiladi. Etimologiya umumiy tilshunoslikda ma’lum tarixga ega. Chet el olimlari ham so‘zning tarixi, etimoni bilan maxsus shug‘ullanib, etimologiyada so‘zni o‘rganish prinsipi va metodlarini asoslab berganlar [4] degan fikrni aytadi. T.Enazarov har bir toponimning etimologik tahlilida boshqa fanlar bilan birga tilshunoslik, geografiya, tarix va boshqa fanlarga oid dalillardan zaruriyatga qarab o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiq. Mana shunday holatda ish yuritilgandagina joy nomlarining etimologik tahlilini amalga oshirish mumkin bo‘lishini ta’kidlaydi [5]. Demak, yuqorida tilshunoslarning fikrlarini umumlashtiradigan bo‘lsak, har bir so‘zning kelib chiqish tarixi uning etimologik tahlilida namoyon bo‘ladi, etimologik tahlilda so‘zning haqiqiy ma’nosi, ya’ni etimoni yuzaga chiqaradi. Jumladan, mamlakatimizda bugungi kunda ziyorat turizmiga bo‘lgan talab kundan kunga ortib borayotgani ziyoratgoh va ularning nomlari bilan bog‘liq onomastik qarashlarni talab qilmoqda. Bu orqali har bir xalqning o‘tmishni o‘rganishida, urf-odat va an’analarni saqlashda, ishonch-e’tiqodni mustahkamlashda hamda tarbiyaviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etiladi. “Ziyoratgoh nomlarini o‘rganish, ularni targ‘ib qilish, xalqimizning avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan muqaddas qadamjolar tarixi, etimologiyasi, lingvistik xususiyatlarini bilishga intilishi bu nomlarning tadqiqini talab qiladi” [6.160]. “Yurtimizda ulug‘ avliyolar, pokdomon ruhoniylar, allomalar ziyoratgohlari ko‘p. Ular aksariyatining tarixi olis asrlardan boshlanadi. O‘zbekistonning barcha hududlarida bo‘lganidek Qashqadaryo vohasi tuprog‘ida ham avlod-ajdodlar e`toqod qo‘ygan aziz avliyolarning ziyoratgohlari, qadamjolari bisyor. Qashqadaryo viloyatida Kasbi tumani ham o‘zining diniy va tarixiy merosi bilan tanilgan bo‘lib, bu hududda bir nechta muhim ziyoratgohlar joylashgan va bu yerdagi ziyoratgohlar asrlar davomida o‘zgarmas qadriyatlarni saqlab kelib, hozirgi kunda ham ko‘plab ziyoratchilarni o‘ziga jalb qilmoqda [10.12]. Kasbi tumanidagi kadastr hujjatlarida qayd etilgan statistik bazaga ko‘ra tumanda 5 ta ziyoratgoh nomlari keltirilgan: *Hazrati Sulton Mir Haydar, Imom Muhammad Sadr Islom, Murodbaxshota, Ibrohimota, Nazarbobo* [11]. Maqolamizda shu ziyoratgoh nomlarining tarixi va nomlanish etimologiyasini keltirib o‘tamiz.

Hazrati Sulton Mir Haydar – Kasbi tumanidagi ziyoratgoh *(Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining 09.06.2014 y. IV-28/137-sonli qarori)* [11]. Sulton Mir Haydar ota (673/1275) Xurosonda, Sho‘rdaryo bo‘yidagi Qoyim (Qayin) shahrida tug‘ilgan. Misr shahrida tahsil olib, “faqih olim” darajasiga yetgan. Injil, Tavrot, Zabur, Qur’onni mukammal egallagan. Arabiy, forsiy, yahudiy, turkiy tillarda so‘zlashish, o‘qish va yozishni bilgan. O‘n to‘rt yoshida Makka va Madinaga imom hamda Haram toliblariga ustoz bo‘lgan. Sulton Mir Haydar ota yigirma ikki yoshida Istanbul madrasasi toliblari iltimosiga binoan fiqh ilmiga doir kitob bitgan. Xoja Shamsiddin Kasbiga 31 yoshida, ya’ni 1301-yil atrofida kelgan va bu yerda o‘z maktabini yaratgan. Sulton Mir Haydar ota 92 yoshga kirib, 766/ 1366 yilda vafot etgan va Kasbida dafn etilgan [6]. Shu kishining yashagan joyi bugungi kunda ziyoratgoh joydir.

Imom Muhammad Sadr Islom – Kasbi tumanidagi ziyoratgoh *(Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining 09.06.2014 y. IV-28/137-sonli qarori)* [11]. Imom Muhammad Sadr Islom avliyo darajasida ulug‘langan valiy hisoblanadi, Sodir Islom ota (ziyoratgohi) Zangiotaning uchinchi shogirdlaridan biri sifatida tanilgan. Ustozlari Sayyid Valiy dunyodan o‘tgach, Mir Haydar otani pir deb tutgan, avliyo nasablari Amirul mo‘minin Aliga taqaladi. Mahalliy aholining fikricha, Xoja Sulton Mir Haydar ota Qashqadaryo vohasi Kasbiga kelgandan so‘ng bu joyga osoyishtalik, totuvlik, qut-baraka olib kelgan [8]. Tumandagi ziyoratgoh shu kishining nomi bilan atalgan.

Murodbaxshota – Kasbi tumanidagi ziyoratgoh *(Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining 09.06.2014 y. IV-28/137-sonli qarori)*[11]. Murodbaxshota ziyoratgohining tarixi haqida bizgacha hech qanday yozma ma`lumotlar yetib kelmagan. Lekin mahalliy xalq orasida og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan rivoyatlar bor. Bu rivoyatlarga ko‘ra Murodbaxshotaning asl ismlari Is’hoq alayhissalom. Otasi Ibrohim Xalilullo bo‘lgan. U kishining onalari Sora onamizga 100 yoshlarida Alloh tomonidan shunday bir ovoz keladi. “Senga men bir farzand ato etaman” deyilgan. Sora onamiz “Men 100 yoshga to‘ldim, farzandni endi nima qilaman?” derkan. Allohni karomati bilan Sora onamiz 100 yoshlarida

Is'hoq alayhissalomni dunyoga keltiradi. Ba'zi boshqa bir rivoyatlarga ko'ra Bu ulug' zotni asl kelib chiqishi arabistonlik bo'lgan deyishadi. Is'hoq alayhissalom sayohatga chiqadi va Maymanoq tog'iga ham keladilar. Shu tog' tepasida bir kecha tunab qoladilar va shu yerga qabrtoshga aylanib g'oyib bo'ladilar. Mahalliy xalq shuning uchun bu yerga Murodbaxshota deb nom berishgan ekan. Murodbaxshota maqbarasi uning vafotidan so'ng uning xotirasini abadiylashtirish va hurmat qilish maqsadida qurilgan. Bu maqbara Kasbi tumaning eng muhim diniy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bu yerga tashrif buyuruvchilar, asosan, Murodbaxshota hayoti va uning ta'limotlari haqida ko'proq ma'lumot olishni, tasavvuf ilmini o'rganishni va ruhiy poklanishni niyat qiladilar [10.813]. Ziyoratgoh shu nom bilan atalgan.

Ibrohimota – Kasbi tumani ziyoratgoh *(Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining 09.06.2014 y. IV-28/137-sonli qarori)* [11]. Afsonalarga ko'ra *Ibrohim ota* tasavvufning Turkistondagi taniqli vakili bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviyning (XII asr) otasidir. Ziyoratgoh shu nom bilan atalgan [6.161].

Nazarbobo – Kasbi tumani ziyoratgoh *(Xalq deputatlari Kasbi tumani Kengashining 09.06.2014 y. IV-28/137-sonli qarori)* [11]. Nazar ismli kishi yeridagi yoki shu kishi yashagan joydagi ziyoratgoh – Nazarbobo. F.Hayitovaning fikricha, Nazarbobo ziyoratgohiga tashrif buyuruvchilarning ko'pchiligini befarzand ayollar tashkil etadi. Kelin ko'p yillar davomida farzand ko'rmasa, bu yerga tashrif buyurib, ziyoratgoh hovlisidagi daraxtga niyat bilan o'zining boshidagi ro'molini yechib, bog'lab ketadi. Agar kelin ma'lum vaqt oralig'ida homilador bo'lsa, bu yerga yana ikkinchi marotaba tashrif buyurib, o'sha yerning o'zida "is chiqaradi" [9.75]. Tumandagi ziyoratgoh shu kishing nomi bilan atalgan.

Umuman olganda, tumanda kadastr reyestrida qayd etilmagan ziyoratgoh nomlari ham uchraydi: *Ko'hna Fazli* [9.72], *Qori Xo'ja bobo, Buzruk ota ziyoratgohi, Sohibi Mulla Jalol ziyoratgohi* [10,812], *Fozil ziyoratgohi* [8.78] kabi.

Xulosa qilib aytganda, bugun kunda Kasbi tumanidagi ziyoratgohlar xalqning tarixini, o'tmishini, urf-odat, an'ana va marosimlarini saqlab qolishda muhim manba hisoblanadi. Ularni ilmiy dalillar asosida o'rganish va uni keyingi avlodlarga qoldirish, ularning ongiga sog'lom e'tiqodni shakllantirishga, muqaddas qadamjolarni ziyorat qilishga borgan insonlarga qo'shimcha ma'lumotlar bilan birga ziyorat qilish ehtiyojini oshirishga, tarix, geografiya, etnografiya sohalarini boyitishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoyimova K.O'. O'zbek va ingliz tillari toponimlarida ziyoratgoh nomlarining chog'ishtirma tadqiqi. Academic research in modern science: International scientific-online conference: 2024. – B. 100.
2. Ahmedov S. Qusam ota qabristonining hamda ziyoratgohining etimologiyasi. Til va adabiyot.uz ilmiy-metodik elektron jurnal: 2024. 22-son. 165-bet.
3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. 94-bet.
4. Bafoyev B. Ko'hna so'zlar tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1991. 3-bet.
5. Enazarov T.J., va boshqalar. O'zbekiston joy nomlarning etimologik lug'ati toponimlar tilsimi (o'quv lug'ati). – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2019. 9-bet.
6. Abdurahmonova Z. Qashqadaryo viloyati ziyoratgoh nomlarining etimologik xususiyatlari. Til va adabiyot.uz ilmiy-metodik elektron jurnal: 2025. 15-son. 160-bet.
7. Choriyev A. Hazrati Sulton Mir Haydar ota manoqibi. – Toshkent, 2017. 7-bet.
8. Jo'rayeva S.N. O'zbekiston janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rni. Monografiya. – Toshkent: O'zbek savdo nashriyoti, 2021. 78-bet.
9. Hayitova Z. Ziyoratgoh va qadamjolarda o'tkaziladigan marosimlar: an'anaviylik va transformatsion jarayonlar. Uzbekistan: Language and Culture: 2019/3. 75-bet.
10. Hasanova D.S. Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani ziyoratgohlari. Ilm-fan xabarnomasi: 2025. 812-bet.
11. http://geonames.kadastr.uz.

B.R. KADIROVA,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Tillar” kafedrasi dotsenti



SHAXS FE’L-ATVORINI IFODALOVCHI LEKSEMALARNING BADIIY ASARDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxs fe’l-atvorini ifodalovchi leksemalarning badiiy matnlardagi o‘rni, ahamiyati borasida so‘z yuritilib, ularning asarning badiiy qiymatining oshishidagi xizmati izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *fe’l-atvor, badiiy, xususiyat, millat, iqtidor, tarbiya, ijtimoiy, obraz, odat.*

Аннотация: в данной статье раскрываются место и значение лексем, обозначающие характер людей, как эти слова служат повышению эмоционально-окрашенности художественного произведения.

Ключевые слова: *характер, художественность, особенность, нация, талант, воспитание, социальный, образ, привычка.*

Annotation: this article reveals the place and meaning of lexemes denoting the character of people, how these words serve to enhance the emotional coloring of a work of art.

Key words: *character, artistry, peculiarity, nation, talent, education, social, image, habit.*

Ijodkor badiiy asar yaratar ekan, u avvalo real hayotdagi voqealardan ta’sirlanadi. O‘zi yaratayotgan obrazining imkon qadar yorqinroq, boshqalardan ajralib turadigan qirralarini ochib berishga intiladi. Asarda qahramon to‘la, o‘ziga xos fazilati, iqtidori ifodalanadi. Shaxs obrazining bunday mukammal turi xarakter deyiladi. Xarakter – badiiy asarda mazmunning shaklidir. Chunki o‘quvchi mazmunni dastavval va butunicha xarakterlar orqali biladi va hazm etadi. Shu sababli o‘quvchi yodida butun boshli xarakterlar qoladi”[1].

Fe’l-atvor ifodalovchi leksemalar o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ma’nolarni anglatadi:

1.Fe’l-atvor, **xarakter** – shaxsning atrof-muhitga va o‘z-o‘ziga munosabatida namoyon bo‘ladigan individual xususiyati. Har bir kishining fe’l-atvorida uning bosib o‘tgan hayot yo‘li aks etadi. Kishining fe’l-atvorini bilib, ma’lum vaziyatda o‘zini qanday tutishini oldindan ko‘rish va uning xatti-harakatini to‘g‘ri yo‘naltirish mumkin. Fe’l-atvor xususiyatlarining 4 ta tizimi bor:

1) Ayrim insonga, guruhga, jamoaga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik qilish, talabchanlik va b.);

2) mehnat faoliyatiga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar (mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mehnatga mas’uliyat yoki mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lish va b.);

3) narsa va ashyolarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik yoki ifloslik, narsalarni ayash yoki ularga ehtiyotsizlik bilan yondashish va b.);

4) insonning o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzatnafslilik, shuhratparastlik, dimog‘dorlik, kamtarlik va b.).

Fe’l-atvorning xususiyatlari tug‘ma va o‘zgarmaydigan xususiyatlar emas, u insonning turmush sharoitlariga bog‘liq holda tarkib topib, o‘zgarib boradi, takomillashadi. Fe’l-atvorning shakllanishida bir necha turli ruhiy ta’sirlar mavjud bo‘lib, ularning ichida **odat** muhim ahamiyat kasb etadi. Fe’l-atvor umumbashariy sifatlar bilan cheklanib qolmasdan, milliy va etnopsixologik xususiyatlarga ham ega. Masalan, o‘zbek millatining o‘ziga xos milliy fe’l-atvor xislatlari mavjud. Fe’l-atvor sifatlari turmush jarayonida tarbiya, mehnat va ijtimoiy sharoit ta’siri bilan ma’lum darajada o‘zgaradi. Uni yaxshi tomonga o‘zgartirishda **axloqning** ijtimoiy me’yorlarini o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash ham katta ahamiyatga ega.

Fransuz olimi Fransua Oje o‘z shoirlarining milliy xarakter, milliy did haqidagi tajribalari borasida ko‘p fikrlar bildirgan.

Masalan, “...hayotda millatlarning ruhi farqlanadi,... Fransiyada go‘zallikdan hayratlanish...bilan keskin farq qiladi”. Olimning fikrlari bu masalaga ahamiyat bermasdan turib, asar yaratish mumkin emasligini taqozo etadi.

Milliy xarakterning tarixiy asoslari haqida gapirilganda, Gegelning nazariyasi ahamiyatli. Olim xarakter masalasiga

1 Иззат Султон.Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. Б. 133.

to‘xtalar ekan, avvalo, xarakterning o‘zini diqqat bilan o‘rganadi va xarakterga ega insonga shunday ta’rif beradi. “Haqiqiy xarakterga ega inson shunday insonki, u o‘z oldiga jiddiy maqsadlar qo‘yadi va ularni mustahkam himoya qiladi, modomiki, shunday ekan,bunday intilishlardan voz kechish uning individualligining barham topishiga olib keladi. Faylasuf san’atning milliy jihatiga alohida ta’rif beradi. “San’atning rang-barang turlari milliy xarakter kasb etadi va shu asosda xalq iste’dodining tabiiy negizi bilan muayyan darajada bog‘lanadi. Masalan, italyanlar tug‘ilishdan deyarli musiqiy va xonandalik mahoratiga ega bo‘ladilar; aksincha, shimol xalqlari musiqa va operani madaniylashtirish sohasida yutuqlarga erishgan bo‘lsalarda, apelsin daraxti ko‘rinishiga ko‘nika olmaganlaridek, uni chuqur his eta olmaydilar. Yunonlar epos, birinchi galda haykaltaroshlikda ulkan iste’dod sohibi bo‘lishgan; rimliklar o‘ziga xos haqiqiy san’atga ega bo‘lmagani uchun uni o‘z yurtiga – Yunonistonga olib kelishgan.”[2] *Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.*

Fe’l-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhit va tarbiya ham kuchli ta’sirga ega. **Ijtimoiy muhitni** inkor etib yoki undan butunlay chiqib ketib yashab bo‘lmaydi. Inson faqat milliy muhitda yashab turgandagina shu millat va elatga xos bo‘lgan qadriyatlarni, an’analarni xohlasa-xohlamasa, o‘ziga singdiradi va qolaversa, fe’l-atvor ham shu ko‘nikma – singdirilgan bilimlar orqasida shakllanadi.

Darhaqiqat, ushbu jarayonlarni, ya’ni o‘z hayoti davomida har xil sharoitlarga tushib, fe’l-atvori toblangan badiiy asar qahramonlarini o‘z asarlarida zo‘r mahorat bilan tasvirlab, ta’riflar, kitobxon ko‘z oldida mohirona gavdalantirib kelayotgan buyuk mualliflar asarlaridan ayrimlariga murojaat qiladigan bo‘lsak, A.Qodiriyning **“O‘tkan kunlar”** romani bosh qahramonlari Otabek va Kumush; “Mehrobdan chayon”dagi Anvar va Ra’no; Oybekning **“Qutlug‘ qon”** romanidagi Yo‘lchi va Gulnor; Sh.Rashidovning **“Qudratli to‘lqin”** romanidagi Po‘lat va Bahor, bu ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin, barchalari Milliy qahramon bo‘lib ommalashishida mualliflar ularning xarakterlarini to‘la va go‘zal namoyon qilganlarida desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Axir, bu asarlarni o‘qib, avlodlar tarbiya topmoqda, o‘rganib-izlanmoqda.Ya’niki, bu asarlar umriboqiy, qahramonlar o‘lmaydi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Bunda shaxs fe’l-atvorini ifodalovchi leksemalar o‘rinli va nafis did bilan qo‘llanilgan.

Noziktab, latofatli, iffatli, mas’uliyatli, dono, farishta va b. **Masalan:** *“Bu odam bolasi emas, farishta”* – (A. Qodiriy “O‘tkan kunlar, 268). Shaxsning “farishta”ligi aqlli, xushmuomalali, mulohazali, mehribon, muloyim, begunoh va oqila ekanligi birgina ***farishta*** leksemasi orqali namoyon bo‘ladi.

“Mirzo Anvar kabi donishmand yetishtirgan kishi oqila va jamila qiz ham tarbiya qilmag‘an mumkin degan andishaga boribdilar (Mehrobdan chayon,451-b.)

Bu misolda “Mehrobdan chayon” asaridagi Ra’noni ta’riflaganda muallif o‘ta nozik fe’l-atvor bildiruvchi leksemalar qo‘llagan. *Darhaqiqat,oqila* va *jamila* deya, aynan kerakli va o‘rinli fe’l-atvor bildiruvchi leksemalar ishlatgani bu qahramonlarni yanada e’tirof qilinishlariga xizmat qilgan.

“Jasur qiz” deb o‘yladi Anvar. Chindan ham bu jasurona isyon xotin-qizlar tomonidan Xudoyorxonning hayvoniy istagiga qarshi birinchi ko‘tarilish edi. (Mehrobdan chayon, 471). Qodiriy Ra’noni ***jasur qiz*** deya, uni o‘sha davrning “Kun qahramon”iga aylantirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarixdan ma’lumki, o‘zbek qizlari iffatli, or-nomusi kuchli bo‘lgan, yigit kishilar bilan nafaqat gaplashish, hatto tik qarash ma’n etilgan paytlar bo‘lgan Ra’no yashagan davr. Shunga qaramay, Qodiriy bu holatni o‘sha davrga isyon tariqasida keltirganligini yashirib bo‘lmaydi, asarga shuhrat keltirgani ham tabiiydir.

Jasur leksemasi hozirgi o‘zbek tilida erkaklarga nisbatan ishlatiladi. *“Og‘ir tabiatlik, aqlli, tishining oqini ko‘rsatmas, bir gapni o‘ylamay gapirmas”* (O‘tkan kunlar, 8-b). Ushbu ta’rif ham Otabek fe’l-atvorini to‘laqonli ochib bergani barchamizga ma’lumdir.

Xulosa qilib aytganda, shaxs fe’l-atvorini ifodalovchi leksemalar badiiy asarlarda o‘rinli va mohirlik bilan qo‘llanilar ekan, bu asar albatta, kitobxon qalbidan joy oladi.

2 Гегель.Эстетика. – Фарғона.2011. Б. 58.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Қодирий “Ўткан кунлар”, “*Меҳробдан чаён”. – Т.,* 1992.
2. Ш.Рашидов “Қудратли тўлқин”. – *Т.,* 1964.
3. М.Т.Ойбек “Қутлуғ қон”. – *Т.,* 1940.
4.Б.Кадирова. “Белги билдирувчи лексемаларнинг лингвокультурологик хусусиятлари”. – Т. Дисс. 1919.
5.Иззат Султон.Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. Б. 133.
6.Гегель.Эстетика. – Фарғона. 2011. Б. 58.

Eldorbek NAIMOV,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
O‘zbek va rus filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAQOL FOLKLORSHUNOSLIKNING O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada xalq maqollarini xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi va dunyoqarashini aks ettiruvchi folklorning eng muhim janrlaridan biri sifatida o‘rganish tarixi yoritiladi. Maqollarni to‘plash va tadqiq etish jarayoni qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha turkiy, rus, yevropa va buryat folklorshunosligi materiallari asosida tahlil qilinadi. Mahmud Koshg‘ariy, V. I. Dal, G. L. Permyakov, D. S. Lixachyov, Yu. Ye. Proxorov, V. N. Teliya, shuningdek, buryat va o‘zbek tadqiqotchilarining ilmiy merosiga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada maqollarni o‘rganishga oid folkloristik, lingvistik, semantik va lingvokulturologik yondashuvlar, ularning janr tabiati hamda struktur xususiyatlari ochib beriladi. Maqollarning milliy qadriyatlar, madaniy xotira va xalqning ma’naviy merosini ifoda etuvchi muhim vosita sifatidagi ahamiyati, shuningdek, etnomadaniy identiklikni shakllantirish va saqlashdagi o‘rni ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *maqollar, folklor janri, paremiya, xalq donishmandligi, og‘zaki xalq ijodi, lingvistik tahlil, semantika, struktura, lingvokulturologiya, etnomadaniyat, milliy qadriyatlar, folklorshunoslik.*

Annotation: this article examines the history of the study of folk proverbs as one of the most important genres of folklore, reflecting the life experience, wisdom, and worldview of the people. The process of collecting and researching proverbs from ancient times to the present day is analyzed on the basis of Turkic, Russian, European, and Buryat folklore studies. Special attention is given to the works of Mahmud al-Kashgari, V. I. Dal, G. L. Permyakov, D. S. Likhachev, Yu. E. Prokhorov, V. N. Telia, as well as Buryat and Uzbek scholars. The article reveals folkloristic, linguistic, semantic, and linguocultural approaches to the study of proverbs, their genre nature, and structural features. The significance of proverbs as carriers of national values, cultural memory, and the spiritual heritage of the people is emphasized, as well as their role in the formation and preservation of ethnocultural identity.

Key words: *proverbs, folklore genre, paremia, folk wisdom, oral folk art, linguistic analysis, semantics, structure, linguoculturology, ethnoculture, national values, folkloristics.*

Аннотация: в данной статье рассматривается история изучения народных пословиц как важнейшего жанра фольклора, отражающего жизненный опыт, мудрость и мировоззрение народа. Анализируется процесс собирания и исследования пословиц с древнейших времён до современности на материале тюркской, русской, европейской и бурятской фольклористики. Особое внимание уделяется трудам Махмуда Кашгари, В. И. Даля, Г. Л. Пермякова, Д. С. Лихачёва, Ю. Е. Прохорова, В. Н. Телии, а также бурятских и узбекских исследователей. В статье раскрываются фольклористические, лингвистические, семантические и лингвокультурологические подходы к изучению пословиц, их жанровая природа и структурные особенности. Подчёркивается значение пословиц как носителей национальных ценностей, культурной памяти и духовного наследия народа, а также их роль в формировании и сохранении этнокультурной идентичности.

Ключевые слова: *пословицы, фольклорный жанр, паремия, народная мудрость, устное народное творчество, лингвистический анализ, семантика, структура, лингвокультурология, этнокультура, национальные ценности, фольклористика.*

Xalqning donishmandligi uning hayotiy tajribalari, keyingi avlodga o‘git va nasihatlarini ixcham ifodalagan folklor janri maqollar qadim davrlardanoq odamlarni o‘ziga jalb etib kelgan. Qadim zamonlardan hukmdorlar xalq maqollarini to‘plash va ommalashtirishga e’tibor qaratgan. Folklorshunos Y.Raxmatovning yozishicha, hatto Aleksandr Makedonskiy ham maqollarni to‘plash va kitobat qilishga buyruq bergan. Ammo bu maqollar manba sifatida bizning zamonamizgacha yetib kelmagan[1]. Hozircha bizga qadar yetib kelgan eng qadimiy manba XI asrning mashhur tilshunosi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari bo‘lib, unda keltirilgan turkiy tilli xalqlar orasidan to‘plangan maqollar bu janrdagi folklor asarlarining to‘planishidagi muhim va qadimiy tajriba namunasi sifatida ahamiyatga ega.

1 Рахматов Й. Мақол ва унинг ўзбек мумтоз адабиётидаги эволюцияси. Филол.фан докт.дисс. – Тошкент, 2022. 24-б.

Jahon filologiya ilmida ham maqollar folklor san'ati janri sifatida qaralsa-da, nutqning o'ziga xos birligi sifatida ko'proq tadqiq etilgan. Nemis folklorshunosi Yoxannes Bolte (11- fevral 1858 – 25- iyul 1937) (Johannes Bolte) Karl Polivko bilan birgalikda (Aka-uka Grimmlar ertaklariga izohlar) asarida xalq ertaklari va maqollari, ularning janr tabiati, farqli tomonlari hamda bu ikki janr o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan[2]. Nemis yozuvchisi va pedagogi Fridrix Shiler (Friedrich Seiler, 1807–1875) "Deutsche Sprichwörterkunde" (Nemis maqollari haqida) asarida nemis maqollarining tarixi, mazmuni va shaklini o'rgangan[3].

Rus folklorshunosligida maqollar alohida janr sifatida qadimdan qiziqish uyg'otgan. Maqollar xalq donishmandligining, tajribasining, qadriyatlarining va dunyoqarashining ifodasi bo'lib, ularni o'rganish xalqning tarixini, madaniyatini va ruhiyatini tushunishga yordam beradi. Taniqli rus yozuvchisi, etnografi, leksikografi va folklorshunosi Vladimir Ivanovich Dal 1800- yillarda rus tilining izohli lug'atini tuzgan va rus xalq maqollarini to'plagan. V.Dal tomonidan nashr ettirilgan "Poslovisы russkogo naroda" kitobida rus maqollarining eng mashhur va mukammal to'plamlaridan biri sifatida ulkan ahamiyat kasb etadi. Mazkur majmuada 30 mingdan ortiq maqol va iboralar tematik guruhlarga bo'lingan holda keltirilgan[4]. V. Dal maqollarni xalqning hayotiy tajribasi va donishmandligining ifodasi sifatida qaraydi. U maqollarni to'plash, tartibga solish va izohlash orqali rus xalqining madaniy merosini saqlab qolishga katta hissa qo'shgan. Uning to'plami nafaqat ilmiy, balki badiiy ahamiyatga ham ega. Negaki xalqning maqollardagi qisqagina talqinda ulug' fikrning badiiy ifodasi mavjud deb qaraladi.

Rus folklorshunosi va paremiologi Georgiy Lvovich Permyakov maqollarning semantik va struktural tahliliga katta e'tibor qaratgan. Olimning "Maqoldan ertakkacha (klishelarning umumiy nazariyasi bo'yicha eslatmalar)" ("Ot pogovorki do skazki (Zametki po obщey teorii klishe)" nomli asarida G.L. Permyakov maqollarni logik muammolar sifatida tahlil qiladi va ularning yechimini topish jarayonini ko'rib chiqadi. U maqollarning tuzilishini, undagi savol va javobning munosabatini, metaforalar va allegoriyalarning rolini o'rganadi. G.L. Permyakov maqollarni xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim element sifatida baholaydi[5]. G.L.Permyakov nazariyasiga ko'ra paremiyalar ham folklorning boshqa matnlari singari an'anaviy uchta struktural elementga ega. Bular:

– lingvistik (va kompozitsion qurilish);
– mantiqiy (va semiotik) struktura;
– realiyalar.[6]

Demak, paremiyalarni til birliklari hamda folklor matnlari sifatida tekshirish mumkin. Paremiyalarning katta qismini maqol va matallar tashkil etganligi uchun ham ularni har ikki tarafdan – ham folkloristik, ham lingvistik jihatdan tadqiq etish maqsadga muvofiq keladi. Ayni shu sababli XX asr filologlari maqollar va boshqa paremik janrlarni til birligi, lingvistik kommunikativ vosita sifatida qarash va tahlil qilishga e'tibor qaratdi.

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasiga xizmat safarida bo'lgan N.P. Ostroumovning "Yerli xalqning maqol va topishmoqlari" nomli kitobini chop ettiradi. Mazkur kitobda 600 dan ortiq xalq maqollari keltiriladi[7]. Mazkur manba ham o'zbek xalq maqollari tarixini o'rganishda muhim manbalardandir.

Rus adabiyotshunosi, madaniyatshunosi va jamoat arbobi Dmitriy Sergeyevich Lixachyovning XX asr o'rtalarida yaratgan asarlarida maqollarni rus madaniyatining muhim elementi sifatida qaraydi. U maqollarning axloqiy, ma'naviy va estetik qadriyatlarni ifodalashini ta'kidlaydi. Lixachyov maqollarni xalqning o'ziga xos dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim manba sifatida baholaydi[8]. Rus filologi Yu.E.Proxorov maqollarning kognitiv va lingvokulturologik aspektlarini o'rgandi. U maqollarni til va madaniyatning o'zaro munosabatini aks ettiruvchi vosita sifatida tahlil qiladi. U maqollarning milliy-madaniy xususiyatlarini, ularda aks etgan qadriyatlarni va stereotiplarni o'rganadi. Proxorov maqollarni lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish orqali rus madaniyatining o'ziga xosliklarini ochib berishga erishadi[9].

Rus tilshunosi, frazeologiya sohasining eksperti Veronika Teliya esa maqollarning frazeologik xususiyatlarini o'rgangan.

V. Teliya maqollarni frazeologik birliklar sifatida tahlil qiladi va ularning ma'nolarini, ifodaviyligini va uslubiy xususiyatlarini o'rganadi. U maqollarning frazeologik tarkibini, ko'chma ma'nolarini va ifodaviyligini tahlil qilish orqali ularning tildagi o'rnini aniqlashga intiladi[10].

2 Bolte, Johannes, Polívka, Jirí, Anmerkungen zu den Kinder- und Hausmärchen der Brüder Grimm - 01. Der Froschkönig oder der eiserne Heinrich. 1856/ http://www.lexikus.de/bibliothek
3 Seiler F. Deutsche Sprichwörterkunde. – München: Beck, 1922.
4 Даль В. Пословицы русского народа. – Москва: Университетский типография, 1862. 616 с.
5 Пермяков, Г.Л. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише). – М.: Наука, 1970. 243 с.
6 Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки. – М., 1970. С. 8
7 Остроумов Н.П. Пословицы и загадки сартов. Этнографические материалы, вып. III. –Ташкент, 1895. 188 с.
8 Лихачёв Д.С. Русская культура. – СПб.: Искусство-СПБ, 2000.
9 Фелицына В. П., Прохоров Ю. Е. Русские пословицы, поговорки и крылатые выражения:лингвострановедческий словарь. – М.: Русский язык, 1979. 240 с.
10 Телия В. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты" – Москва: Школа "Языки русской культуры", 1996. 288 с.

Buryat maqollarini o‘rgangan olimlarning tadqiqotlari ham buryat folkloristikasining muhim qismini tashkil etadi. Jumladan, XX asr o‘rtalarida buryat folklorini to‘plab, lingvistik tadqiq etish ishlari bilan shug‘ullangan taniqli buryat tilshunos S.B.Budayev maqollarni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Olimning “Buryat va rus xalq adekvat maqollari to‘plami bu boradagi muhim tadqiqot bo‘lib, yangi nazariy xulosalardan iborat edi. Unda maqollarning tematik guruhlari, strukturasi va semantikasi o‘rganilgan. S.B.Budayev buryat maqollarini xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashining ifodasi sifatida tahlil qilgan[11]. Uning tadqiqotlari buryat madaniyati va tilini, xususan, folklorini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Buryat folklorshunosi, yozuvchisi, filologiya fanlari nomzodi Baldayev Sergey Petrovich (1889– 1979) buryat maqollari va maqollar haqida ma’lumotlarni o‘z asarlarida keltirgan. Asosan, ularning etnografik konteksti va madaniy ahamiyatiga e’tibor qaratgan. S. Baldayevning ishlari buryat maqollarining ijtimoiy-madaniy vazifalarini o‘rganishga qaratilgan. Maqollarda buryatlarning hayot tarzi, marosimlar va urf-odatlari bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilingan[12].

11 Будаев, Ц. Б. Словарь русско-бурятских адекватных пословиц и поговорок [Текст] / Ц. Б. Будаев. – Улан-Удэ: Бурят.кн. изд-во, 1959. 178 с.
12 Балдаев, Сергей Петрович. – Избранное [Текст]. – Улан-Удэ : Бурят. кн. изд-во, 1961. 256 с.

Bu olimlarning tadqiqotlari buryat maqollarni o‘rganishda muhim rol o‘ynagan. Ularning ishlari buryat xalqining madaniyati, tili va tarixini tushunishga yordam beradi. Buryat folklorshunosligida maqollarning tadqiqi davom etmoqda va yangi tadqiqotlar bu sohaga yangi ma’lumotlar olib kelmoqda.

O‘zbek folklorshunosligida maqollarni o‘rganish ishlari XX asrning boshlaridan boshlandi. Shu o‘rinda umumturkiy folklordagi Mahmud Koshg‘ariyning maqollarni to‘plaganligini yangi davr tadqiqotlariga qo‘shmaymiz.

Xullas, O‘zbekiston Respublikasida birinchilardan bo‘lib xalq maqollarini to‘plab nashr ettirgan folklorshunos bu Elbek bo‘lib, u maqol, topishmoq va ashulalarni to‘plagan. Shu davrlarda xorazmlik ma’rifatparvar, xalq ma’naviyatini mustaqil o‘rganishga bel bog‘lagan Bekjon Raxmon 1924-yilda Xivada xalq orasidan maqollarni to‘plab “Otalar so‘zi” nomi ostida nashr ettiradi[13]. Har ikki allomaning sa’y- harakatlari o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotida maqollarning alohida ahamiyat kasb etishi, maqollar xalqning donoligi, hayotiy tajribalari va zukkoligi kabi belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan so‘z san’ati namunasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishini belgilab berdi.

13 Рахмон Б. Оталар сўзи. – Хива, 1924.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Рахматов Й. Мақол ва унинг ўзбек мумтоз адабиётидаги эволюцияси. Филол.фан докт.дисс. – Тошкент, 2022. Б.24.

2.Bolte, Johannes, Polívka, Jirí, Anmerkungen zu den Kinder- und Hausmärchen der Brüder Grimm - 01. Der Froschkönig oder der eiserne Heinrich. 1856/ http://www.lexikus.de/bibliothek

3.Seiler F. Deutsche Sprichwörterkunde. – München: Beck, 1922.

4.Даль В. Пословицы русского народа. – Москва: Университетский типография, 1862. 616 с.

5.Пермяков, Г.Л. *От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише)*. – М.: Наука, 1970. 243 с.

6.Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки. – М., 1970. С. 8

7.Остроумов Н.П. Пословицы и загадки сартов. Этнографические материалы, вып. III. –Ташкент, 1895. 188 с.

8.Лихачёв Д.С. *Русская культура*. – СПб.: Искусство, – СПБ, 2000.

9.Фелицына В. П., Прохоров Ю. Е. Русские пословицы, поговорки и крылатые выражения: лингвострановедческий словарь. – М.: Русский язык, 1979. 240 с.

10.Телия В. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты” – Москва: Школа “Языки русской культуры”, 1996. 288 с.

11.Будаев, Ц. Б. Словарь русско-бурятских адекватных пословиц и поговорок / Ц. Б. Будаев. – Улан-Удэ: Бурят.кн. изд-во, 1959, 178 с.

12.Балдаев, Сергей Петрович. - Избранное [Текст]. – Улан-Удэ: Бурят. кн. изд-во, 1961. 256 с.

13.Рахмон Б. Оталар сўзи. – Хива, 1924.

Sevinch G‘AFFOROVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchisi
sevinchgafforova0301@gmail.com



“GO‘RO‘G‘LI” TURKUM DOSTONLARIDA “HASANXON” BIOGRAFIK TURKUMLIGI TAHLILI

Annotatsiya: maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarida Hasanxon obrazining o‘rni, u bilan bog‘liq voqealar tahlili va “Hasanxon” biografik turkumligi haqida so‘z boradi. Folklorshunos olimlarning nasliy va biografik turkumlik haqidagi fikrlari asosida Hasanxon obrazining dostonlardagi ishtiroki, Go‘ro‘g‘li obrazi bilan munosabati tahlil qilinadi. To‘plangan ma’lumotlar asosida Hasanxon obrazining “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlaridagi ahamiyati o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *nasliy, biografik turkumlik, asrandi farzand, shoxobcha, ot, variant, qahramonlik.*

Аннотация: в статье анализируется место образа Хасанхана в цикле дастанов «Гороглы», рассматриваются события, связанные с данным персонажем, а также освещается проблема биографической цикличности дастанов, объединённых образом Хасанхана. Опираясь на научные концепции фольклористов о родовой и биографической цикличности, автор исследует участие образа Хасанхана в эпических произведениях и его идейно-художественные взаимоотношения с образом Гороглы. На основе систематизированных материалов выявляется и обосновывается значение образа Хасанхана в структуре цикла дастанов «Гороглы».

Ключевые слова: *родовая цикличность, биографическая цикличность, приёмный сын, ответвление, конь, вариант, героизм.*

Annotation: the article examines the role of the image of Hasan Khan in the cycle of the *Gorogly* epics, analyzes the events associated with this character, and addresses the issue of the biographical cyclicity of the epics related to Hasan Khan. Drawing on folklorists’ scholarly views on genealogical and biographical cyclicity, the study analyzes the participation of the image of Hasan Khan in the epics and its ideological and artistic relationship with the image of Gorogly. Based on the collected and systematized materials, the significance of the image of Hasan Khan in the structure of the *Gorogly* epic cycle is substantiated.

Key words: *genealogical cyclicity, biographical cyclicity, adopted son, branch, horse, variant, heroism.*

Kirish. “Go‘ro‘g‘li” eposi o‘zining monumentalligi, murakkab kompozitsiyasiga ega bo‘lishi, voqealarning ko‘p qirraliligi bilan alohida ahamiyatga ega dostonlar turkumi hisoblanadi. Turkumdan o‘rin olgan har bir obraz va epizodlar harakati, dostonlardagi o‘rnini tahlil qilish orqali bu turkum va Go‘ro‘g‘li obrazining dostonchilikdagi to‘laqonli ahamiyatini o‘rganish mumkin. M.G.Taxmasibning “Ko‘ro‘g‘li, G‘irot va Chenlibel “Ko‘ro‘g‘li” eposining asosiy tayanch elementlaridir”[6: 43] degan fikriga tayangan holda Go‘ro‘g‘li obrazi va u bilan bog‘liq o‘rinlarni tadqiq qilar ekanmiz, bevosita uning asrandi farzandi Hasanxon obrazi ishtirok etgan o‘rinlarga duch kelamiz. Va aynan ushbu obraz ishtirokidagi dostonlar, obrazlar tahlili turkum dostonlarining mazmun mohiyatini anglashga yaqindan yordam beradi. Go‘ro‘g‘li turkum dotonlarida Hasanxon obrazi yuzasidan keng ko‘lamli tadqiqot olib borilmagani esa ishning ilmiy yangiligidan dalolat beradi.

Asosiy qism. O‘zbek xalq dostonchiligida turkumlikning eng keng tarqalgan turi nasliy turkumlikdir. Bunda biz Hasanxon va Avazxon, ularning farzandlari, ikkinchi, uchinchi avlod haqida alohida-alohida dostonlarning yaratilishi va bu dostonlarning, umuman, “Go‘ro‘g‘li” haqidagi dostonlarga xos xususiyatlarini saqlab qolgani holda ularni mantiqan katta turkumga birlashtirganini ko‘rishimiz mumkin. “Go‘ro‘g‘li” va uning asrandi farzandlari Avazxon va Hasanxon, nevaralari Nurali bilan Ravshan, evarasi Jahongirlar…haqidagi dostonlar ana shu nasliy turkumlikning namunalaridir” [1: 92].

Farzandsizlikdan ruhiy azoblangan Go‘ro‘g‘li Vayangan degan yurtdan temirchining o‘g‘li Hasanxonni Chambil yurtiga olib kelib o‘ziga o‘g‘il qilib oladi, uni tarbiyalaydi, bahodir yigit qilib yetishtiradi. Bu hodisani Go‘ro‘g‘li biografiyasiga taalluqli deb qarash kerak. Bu jihatdan Hasanxon haqidagi doston Go‘ro‘g‘lining kichik biografik turkumligiga yangi asar bo‘lib qo‘shilishi bilan nasliy turkumlikni ham yuzaga keltiradi. Nasliy turkumlashtirish, ya’ni nasl prinsipi bo‘yicha doston yaratish o‘z navbatida biografik turkumni davom ettirish imkonini beradi[1: 92].

Biografik turkumlik bilan nasliy turkumlik o‘rtasida uzviy bog‘lanish bor. Chunonchi, “Hasanxon” dostoni nasliy turkumlikning namunasi bo‘lish bilan birga ayni vaqtda “Go‘ro‘g‘li” biografik turkumi dostonlari qatoriga ham kiradi, chunki undagi ayrim muhim ma’lumotlar bevosita Go‘ro‘g‘lining biografiyasini to‘ldiradi[4: 80-83].

V. M. Jirmunskiy Go‘ro‘g‘li va uning shajarasini tashkil etuvchi o‘g‘illari, nevaralari, evarasi haqida dostonlar yaratilganligini ta’kidlab, ushbu hodisani baxshilar aql-zakovatining tuhfasi deb baholaydi[1: 93].

Eposning sharqiy versiyada mavjud bo‘lgan nasliy turkumlik juda keng doirani tashkil etadi va ushbu masala maxsus tadqiqotlarga asos bo‘lganligi ma’lum.

M. Mirzayeva nasliy turkumlikni Go‘ro‘g‘li-Avazxon-Nurali-Jahongir va Go‘ro‘g‘li-Hasanxon-Ravshan kabi ikki shoxobchaga bo‘ladi[3: 12].

Q. Mamashukurov esa ushbu turkumlikni Hasan, Avaz, Nuralilar shajarasi bilan bog‘liq holda uchta shoxobchaga ajratadi va Nurali biografiyasining alohida holda berilganligiga e’tiborni jalb etadi[2:9].

Qahramonning tug‘ilishi, bolaligi va dastlabki jasorati, bahodirlik safarlari, uylanishi kabi biografiyasining muhim bosqichlariga oid dostonlarga biografik turkumlik deyiladi. Bu jihatdan, epos tarkibidagi Hasanxon biografik turkumligi uning Vayangandan olib kelinishi voqealari bilan boshlanib, jasorat ko‘rsatishi, janglardagi mardonavor ishtiroki, uylanishi, farzandli bo‘lishi kabi epizodlar aks etgan dostonlarni o‘z ichiga oladi.

Turkum mobaynida Hasanxon bosh qahramon sifatida namoyon bo‘lgan birgina “Dalli” dostoni mavjud bo‘lishiga qaramay, boshqa dostonlar tarkibida ushbu obrazning ishtirokiga ko‘ra Hasanxon biografik turkumini tizimlashtirish mumkin. Xususan, Hasanxon mardligi, jasorati aks etgan, obraz sifatida namoyon bo‘lgan dostonlar sirasiga Po‘lkan shoir variantidagi “Hasanxon”, “Chambil qamali”, “Misqol pari”, “Gulnor pari”, “Avazxon”, Ergash Jumanbulbulning “Ravshan”, Islom Nazar o‘g‘li kuylagan “Zulfizar bilan Avaz”, Zohir Qo‘chqor o‘g‘lining “Hasanxon”, Rahmatulla Yusuf o‘g‘lining “Hasanxon”[6] dostonlari kiradi. Ushbu dostonlarda Hasanxon haqidagi ma’lumotlar, uning ishtirokidagi voqea-hodisalar boshqa dostonlarga qaraganda deyarli batafsil bayon etilgan bo‘lib, ma’lumotlar to‘planib, Hasanxonning qahramonlik xususiyati aks etgan to‘plam yuzaga chiqadi.

Go‘ro‘g‘liga berilgan ot va zot tanlovida yuzaga kelgan tugun Hasanxonning asrandi farzand sifatida Go‘ro‘g‘li xonadoniga kirib kelishi voqealari “Hasanxon” biografik turkumining shakllanishiga asos bo‘ladi. Shu tariqa epos tarkibidagi kichik turkumlikni yaratishda, dastlab, “Hasanxon” dostoni va uning mantiqiy davomi o‘laroq “Chambil qamali” dostoni tanlab olindi. Hasanxonning bolalik davri aks etgan, ushbu obraz haqidagi xabarning o‘rtaga chiqishidan to uning Chambilga olib kelinishiga qadar bo‘lgan voqealar “Hasanxon” dostonida aks etgan bo‘lsa, Rayhon arabning Chambilga Go‘ro‘g‘lining yo‘qligi, Vayanganda yov qo‘lida vafot etgan degan yolg‘on xabari sabab Chambilga bostirib borish voqealari, dushmanga qarshi kurash, Chambildagi farzand asrash bilan aloqador marosimlar ikkinchi doston “Chambil qamali” dostonining syujetini tashkil etadi.

Shuningdek, Hasanxonning Chambilga olib kelinish jarayoni aks etgan yana ikki doston borki, ular Zohir Qo‘chqor o‘g‘lining “Hasanxon” dostoni va Rahmatulla Yusuf o‘g‘li tomonidan ijro etilgan “Hasanxon” dostoni bo‘lib undagi voqealar rivoji Po‘lkan shoir variantidan farq qiladi. Ushbu dostonlarda ham Hasanxonning “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kirib kelish voqeasi aks etganligi tufayli “Hasanxon” biografik turkumligining boshlang‘ich voqealar aks etgan qismi sifatida o‘rin oladi.

Go‘ro‘g‘li Hasanxonni tarbiyasiga olgach, uni qahramonlik sari yetaklaydi. Urush-savash sirlarini o‘rgatadi. Asrandi o‘g‘ilning ilk jasorati Po‘lkan shoir ijro etgan “Misqol pari” dostonida ko‘rinadi. Hali yoshi kichik bo‘lishiga qaramasdan otasining qo‘lqanoti bo‘lib, u bilan birlikda jangga kirishni o‘ziga mardlik deb bilgan Hasanxonning jasorati, matonati, jang maydonidagi o‘ziga xosliklari ushbu dostonda batafsil kuylangan.

Hasanxonning eposda ishtirok etgan har bir shoxobchasida qahramonlik darajasi tadrijiy ravishda o‘sib, tobora Go‘ro‘g‘lining haqiqiy tayanchiga aylanib boradi. Uning epik qahramon darajasiga yetib, mustaqil jang qilishi bilan bog‘liq lavhalar “Xondalli”, “Avazxon”, “Gulnor pari”, “Ravshan”, “Zulfizar bilan Avazxon” kabi dostonlarda ko‘rinadi.

“Gulnor pari” dostonida Hasanxon Go‘ro‘g‘li bilan birgalikda Gulnor parini olib kelish uchun jangga kiradi. Har bir epizodda otasiga qo‘lqanot bo‘lishi, istagiga, ra’yiga hech inkorsiz bo‘ysunib hurmatini joyiga qo‘yishi orqali o‘z farzandlik burchini bajaradi.

“Avazxon” dostoni Hasanxonning sardor sifatida, elga podsho sifatida boshidan kechirgan sarguzashtlari aks etgan bo‘lib, unda Hasanxon ilk bor Go‘ro‘g‘lisiz yakka o‘zi qirq yigit bilan birgalikda Xunxorga Avazni olib kelish uchun yurish qiladi. Dostonda Hasanxonning qahramonligi, jasorati, matonati kuylangan o‘rinlarni ko‘plab kuzatishimiz mumkin.

Oila qurish – qahramonlarning jasorati va mardligi sinalishiga sabab bo‘ladigan motivlardan biri bo‘lib, yor uchun o‘zga yurtga borib o‘z mardligini ko‘rsatgan holda maqsadiga erishish Hasanxon hayotida muhim bosqichlardan sanaladi. Hasanxonning oldiga qo‘yilgan ushbu bosqichda uning nafaqat mardligi, balki sadoqati ham sinaladi. Hasanxonning Dallini olib kelish uchun Arzirumga qilgan yurishi, ko‘rsatgan mahorati, jasorati aks

etgan “Dalli” dostonida Hasanxonning yigitlik va farzandlik burchi sinaladi. Aslida otasining ra’yini qoldirmaslik uchun yo‘lga chiqqan Hasanxon doston voqealari davomida ham Dallini Avazxonga atalganini bilib, unga bir omonat sifatida munosabatda bo‘ladi. Boshiga tushgan har qanday mushkulotga qaramay so‘zida sobit turib, mardlikning yana bir ko‘rinishini namoyon etadi. Doston so‘nggidan Dalli bilan oila qurish sahnasi o‘rin oladi.

“Ravshan” shoxobchasida Hasanxonning mardligi yana yangi bosqichda tasvirlangan. Hasanxon va Xondallidan bir o‘g‘il dunyoga keladi. Go‘ro‘g‘li unga otamning oti yo‘qolib ketmasin deb Ravshan ismini beradi. Voqealar rivoji esa Hasanxon o‘g‘li Ravshanning Qoraxon qizi Zulxumorni sevib qolib boshdan kechirgan sarguzashtlari asosiga quriladi. Aynan mana shu voqealar Hasanxonning nafaqat mard yigit, balki farzandiga ilhaq ota sifatidagi qahramonliklarini aks ettiradi. G‘irot yordamida faol jang qilib, Ravshanni asirlikdan qutqarib, unga Zulxumorni ham olib beradi.

Islom Nazar o‘g‘lining “Zulfizar bilan Avazxon” dostonida Hasanxonning Go‘ro‘g‘liga dastyor, har qanday vazifani ishonib topshira oladigan farzand, sardor sifatidagi tasviri berilgan bo‘lib, baxshi uning botirligi bilan bir qatorda jiyani – Avazxonning o‘g‘li Nurali bilan munosabatlarini ham aks ettiradi. Go‘ro‘g‘lining bir gapi bilanoq kallarga qarshi jangga kirib, mehmon Mirzaxonni ularning qo‘lidan olib chiqadi, firibgarlik bilan Go‘ro‘g‘lining mehmoniga chap bergan Ahmad sardorni ham tutib kelib tablaga tashlaydi. Maydonda jangga kirishi, dushmanga qarshi o‘ziga ishonch bilan kurashi, zakovati tasviri baxshining mahorati bilan aniq va ravshan tasvirlangan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Hasanxonning asosiy epizod sifatida qatnashgan urushlarida G‘irot uning haqiqiy yordamchisi sifatida gavdalanadi. Eposda ot epik qahramonning haqiqiy yordamchisi bo‘lgani sababli u faqat jasorat sohibi emas, balki “harbiy hiylalar”ning egasi sifatida ham ishtirok etadi. Go‘ro‘g‘lining epik oti G‘irotda aynan ana shu “harbiy hiylalar” mujassamlashganligi sababidan Hasanxon biror joyga safarga otlansa, albatta, otasidan G‘irotni berishni iltimos qiladi. Shunisi e’tiborga loyiqki, G‘irot nazarkarda ot bo‘lganligi uchun o‘ziga Go‘ro‘g‘li va uning ikki farzandi Avazxon va Hasanxondan boshqa hech kimni yo‘latmaydi. Yuqorida keltirilgan M.G.Taxmasibning fikriga tayangan holda Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarida G‘irot otning ham alohida ahamiyatga ega ekanligi, turkumning yetakchi obrazlari esa qahramonlikni hamisha u bilan amalga oshirganligi ham Hasanxon obrazining Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining ajralmas qismi ekanligidan darak beruvchi bir belgi hisoblanadi.

Xulosa. Keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, Go‘ro‘g‘li eposi kichik shoxobchalar aks etgan turkumlardan iborat bo‘lib, ular yaxlit bir katta turkum Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarini tashkil etadi degan xulosaga kelish mumkin.

Go‘ro‘g‘li farzandsizligi sabab asrab olgan Hasanxon eposda Go‘ro‘g‘lidan keyingi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U epos bosh qahramoniga farzand bo‘lishi bilan birga o‘z otasi kabi mard, mohir zargar, botir jangchi, qirq hunar egasi, el-yurt tayanchi sifatida shakllanib, haqiqiy epik obraz timsoliga ega bo‘la olgan. Hasanxonning mardonavor obrazi har tomonlama aks etgan quyidagi “Hasanxon”, “Chambil qamali” dostonlarida bolalik tasviri, “Misqol pari”, “Gulnor pari”, “Avazxon” dostonlarida o‘smirlik davri, “Dalli” dostonida oila qurishi, “Zulfizar bilan Avaz”, “Ravshan” dostonlarida ota va amaki qiyofasidagi o‘rta yoshda boshgan kechirgan sarguzashtlari, jasorati, qahramonliklari asosida “Hasanxon” biografik turkumi hosil bo‘ladi. Va ushbu kichik turkum o‘z o‘rnida “Go‘ro‘g‘li” biografik turkumining bir shoxobchasi sifatida joy oladi. Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarida Hasanxon obrazining dostonlardagi ishtirokini alohida-alohida tahlil qilish folklorshunoslik va eposshunoslik uchun muhim jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Лен.: Наука, 1974.– С. 637.

2. Мамашукуров К. Идейно-художественное особенности цикла дастанов “Нурали”: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С. 9.

3. Мирзаева М. Проблема генеологической циклизации в узбекских дастанах “Гороглы” (на примере “Хасанхон”): Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1982. – С 12.

1. Мирзаева М. Ўзбек халқ достончилигида туркумлик//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. – 4-сон. – 80-83-бетлар.

2. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi durdonalari. Dostonlar: “Hasanxon”, “Chambil qamali”, “Gulnor pari”, “Misqol pari”, “Avazxon”, “Zulfizar bilan Avazxon”, “Dalli”, “Ravshan”.

3. Тахмасиб М. Г. Азербайджанские народные дастаны. АДД. – Баку, 1965, с. 43.

Behzod YALLAYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
begzod.yallayev@gmail.com

LIRIK SYUJET STRUKTURASIDA “MEN” TUSHUNCHASI HAMDA OBRAZLILIK

Annotatsiya: mazkur maqolada Tilak Jo‘ra she’riyati men tushunchasining poetik xususiyatlari, tuyg‘ularidagi haqqoniylik, chinakam iste’dodning olam va odam haqidagi eng jozib qarashlari ifodalangan. Ayniqsa, metaforik talqinlarda so‘z va ruh ziddiyati, qalb kechmishlari poetik ma’no qatlamlari fabuladan syujetga asoslangan talqinlar tarzida yuzaga chiqadi.

Kalit so‘zlar: *obraz, syujet, tuyg‘u, konflikt, badiiy tasvir, peyzaj, kechinma, uslub, metafora, postmodern, modernizm, realizm, struturalizm.*

Аннотация: в этой статье поэтические особенности поэзии Тилак Жўраа, искренность в его чувствах, его очаровательные точки зрения о человеке и мира выражаются. Особенно, противоположность между духа и слова, душевные ощущения описываются в метафорических интерпретации и слой поэтического значения появляется как интерпретации обосновано на сюжете.

Ключевые слова: *образ, сюжет, чувство, конфликт, художественное описание, пейзаж, ощущение, метод, метафора, постмодерн, модернизм, реализм, структурализм*

Annotation:in this article it is expressed poetic features of the poetry by Tilak Jo‘ra, sincerity in the poet’s senses, his fanciest viewpoints about the world and man. Especially, contradiction between a word and spirit, feelings of soul in metaphorical interpretation is expressed and poetic meaning layers emerge as interpretations based on the plot.

Key words: *image, plot, sense, conflict, artistic description, landscape, feelings, method, metaphor, post modern, realism, structuralism*

Barchamizga ayonki, har qanday she’riy ijod namunasi ma’lum bir oniy shuurda yuzaga chiquvchi obrazlar yig‘indisidan tarkib topadi. Shoir ana shu obrazlarni muhabbat va shafqat, odamiylik hamda go‘zallik, oliyjanoblik hamda ma’rifat g‘oyalari bilan yuzaga chiqarar ekan, o‘z davrining komil fuqarosi, ongli bir ziyolisi, tarix hamda davrning ohanglarini topib idrok etganligida namoyon bo‘ladi. Insonki bor, o‘z ruhiy fazosida sayr etarkan, davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, falsafiy qarashlarni singdirish, als holatida ko‘rsatish yo‘lidan boradi. XX asrning 60-yillaridan keyingi avlod she’riyatida hamda muhim bir tuyg‘ularini namoyon qilishga qaratilgan badiiy izlanishlarida ana shu modifikatsiyaning ajralmas, zichlangan halqasini ko‘ramiz. She’r – yurak va qalb prizmasidan xuddi shaloladek otilib chiqqan tug‘yonlar mahsuli. Shavkat Rahmon, Usmon Azim va Xurshid Davronlar kabi oq (harora) she’rlari, erkin va jo‘shqin tuyg‘ulari bilan o‘zbek adabiyotida qisqa vaqt ichida iz qoldirgan Tilak Jo‘ra mana shu modusni ilgari surganligining shohidi bo‘lamiz. She’rlarida ijtimoiy pafos (dard) talqin hamda tahlil germenevtikasini barqarorlashtirar ekan, umumiy tushuncha negizida ana shu idrok zamzamlaridan oziqlanishini unutmaslik lozim. Negaki, ijtimoiylashgan dardli she’rlar, alaloqibatda shaxsning o‘z taqdiriga chambarchas tutashadi. Buni esa shoir uzoq yillar yuragida olib yurgan “ism”siz tuyg‘ularining real manzarasida desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

She’r shoir anglamlarining mahsuli. Rus munaqqidi V.G.Belinskiy alohida qayd etganidek: “San’at idrokka mansub hodisalar turiga kiradi va shu sababli she’r yozishni o‘rganib ham bo‘lmaganidek, poeziyani tushunishni ham o‘rganib bo‘lmaydi. Go‘zallikdan yaxshi taassurot ola bilish o‘ziga xos talantdir. U ilm bilan ham, tahsil bilan ham, mashq bilan ham qizilga kiritilmaydi, balki tabiat tomonidan beriladi. Poeziyani tushunish ruhning kashfiyotidir, kashfiyot siri esa, inson tabiatida yashiringan bo‘ladi. Insonlarning tabiati esa, ma’lumki, benihoya xilma-xildir va ular (qaysi tomonidan nazar tashlaganimizga qarab) pastdan balandga yoxud balanddan pastga beadad zinalardan tarkib topgan beadad zinapoyani tashkil qiladi. Poeziya dastavval yurakka quyiladi, undan boshga o‘tadi”. Keltirilgan lavhadan ham anglash mumkinki, rus munaqqidi yurak va aql, ong hamda tuyg‘u nisbatini alohida tushunchalar fonida talqin etishga chorlamoqda. Chunki ko‘z o‘ngimizdagi behisob ranglar, manzaralar, dastavval yurak, qalbimizda titroq paydo qiladi. Shu ma’noda, Tilak Jo‘ra lirikasi ham bundan aslo mustasno emasligi ayonlashadi.

Uch adabiy jinsning bittasi bo‘lmish lirikani bir qadar baland pardalarda tavsiflar ekanmiz, bu uni atay maxsus

va mumtoz bir o‘ringa qo‘yishni ko‘zlagan bir urinish emas. Bu – uning tabiatidan, ichki mohiyatidan, chunonchi, hamma joyda hozir-nozirligidan, tez va shiddatkorlik bilan faoliyat ko‘rsata bilishidan... va shunga o‘xshash juda ko‘p xususiyatlaridan hisoblanadi, – deya yozadi Jamol Kamol o‘zining “Lirik she’riyat” deb nomlangan ilmiy risolasida. Binobarin, inson idroki bilan hosil bo‘lgan har qanday tuyg‘u zavqlantirish hosilasiga ega bo‘lishi shart. Aks holda, u o‘z davrining muammo va masalalarini tarix zarvaraqlariga yuklay olmaydi. Tarix esa kechagi va bugunimizning ertangi kunga bo‘lgan qarashlarimiz mezonini belgilab berishga imkon beradigan xatolar ham tajribalar ko‘zgusidir. Inson xatolarining, adashishlarining, iztiroblarining har qanday ko‘rinishi she’riyatda ham, dramatik yoki nasriy ijod namunalarida ham o‘z ifodasini topishi tayin. Ammo, lekin inson har qanday davrda o‘z qalbining faqat qurbi idroki yetgan tomonlarining birinigina “kashf” etishi mumkin. Shuning uchun ham, shoir qalbidagi haroratli tuyg‘ular Aristotel qad etganidek, obrazlarga limmo-lim bo‘lsagina u o‘zgalarga “yuqish” momentini belgilab bera oladi.

Lirik syujet strukturasi haqida tushuncha. Lirik syujet tushunchasi haqida so‘z borganda, odam organizmi tabiiy hosilalardan tarkib topar ekan, ko‘z o‘ngimizdagi “borliq”, muayyan qarashlar ziddiyatidan paydo bo‘ladi. Fasllar almashadi, odam tafakkur jihatidan o‘sadi, yuksaladi, qayta tajribalarni jamlaydi, xatolarini esa boshqa takrorlamaslikka odatlanadi. Shoir ana shu ko‘z o‘ngimizdagi mavjud hodisalarga ong, shuur, botin va qalb dialektikasi nuqtayi nazaridan baho beradi. Bu esa o‘z navbatida she’rning syujet poetikasini kashf etish uchun imkoniyat tug‘diradi. Har qanday asarning ikki jihati mavjud:

1. Tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga shoir yoki ijodkorning nutqiy munosabati.

2. Zamon hamda makonda kechayotgan hodisalarga “tashkil etish” nuqtayi nazaridan qarashlari sintezi.

Bular shunday ro‘y beradiki, syujetni harakatga keltirib, o‘quvchi hamda muallif orasida ko‘zga ko‘rinmas, mustahkam aloqani tayin etadi. Nazariy manbalarga tayanganimizda ko‘pchilik olimlar lirik syujetni o‘zlarining hayrat chashmalaridan turib baholashga odatlanishgan. Aristotel buni quyidagicha izohlaydi: “Poeziyaga qarshi e’tirozlar va ularga raddiyalarga kelsak, ularning necha turli va qanday bo‘lishi quyida ko‘rib chiqqanlarimizdan ma’lum bo‘ladi. Modomiki, shoir (musavvir yoki boshqa tasvirlovchilar singari) hayotni aks ettirar ekan, demak u, muqarrar ravishda quyidagi uch narsadan birini – hayotni qanday bo‘lsa, shundayligicha, odamlar aytayotgan va tasavvur qilganicha, hayotning qanday bo‘lishi va kerakligini tasvirlashi kerak bo‘ladi. Bu narsalarga yo oddiy til bilan, yoki ko‘chma ma’noli so‘zlar bilan erishiladi”. Modomiki, shoirlarda shu uchta xususiyatning biri mavjud bo‘lmasa, hayotga jiddiy va teran nazar tashlay olmaydi. Uning yozganlari quruq so‘zlar tizmasidangina iborat bo‘lishi hech gap emas. Ruhiy parvozga yurak dosh bera olishi ham muhimdir. Chunki ruh parvozi o‘ta nozik pardalarga chiqib, yurak va ongni, butun tana a’zolarni junbushga keltiradi. Tilak jo‘ra ijodiyoti ana shu kechinmalar silsilasida hamon o‘zligini izlashga intilayotgan inson moddiyun olamini kashf etishga katta turtki bo‘ladi desak, haq gapni aytgan bo‘lamiz.

Shuni alohida qayd etish lozimki, “Lirik asarda obrazning harakati keng ravishda rivojlantirilmaydi, voqealar tez-tez almashinib turilmaydi, qahramonlar turli-tuman holatlarda, har xil kishilar bilan bo‘lgan munosabatlarda o‘zini ko‘rsata bermaydi. Dramatik fabula izchil ochilib bormaydi, voqea sodir bo‘layotgan sharoit, jonli xarakterning takomili, xarakterlarni bir-biriga qarshi qo‘yish atroflicha tasvirlanmaydi”. Ko‘rib o‘tganimizdek, lirik syujet epik syujet kabi o‘zining struktur semalariga ega. Ayni chog‘da, u vaziyat va ruhiyat, shoir anglamlarining qanchalik xilma-xilligi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tasniflanadi.

“Adabiy tur va janrlar” nomli 3-jildlik nazariy kitobda lirik syujetga quyidagicha baho beradi: “Meditativ” (emotsional-hissiy) fikrlashning boshqa bir masalasi lirikaning kechinmaga tayanishidir. Subyektning ichki dunyosi kechinma tarzida aks etadi. Kechinma lirik tasvir, obrazga aylanadi, lirika uchun tafsilot emas, balki kechinma muhim, u intim, falsafiy, siyosiy, maishiy, tragik, hajviyona, yumoristik, komik bo‘lishi mumkin; bir she’rdagi kechinmada bu holatlarning bittasi yoki bir nechtasi aks etishi, bunda kechinma harakati kelib chiqishi tabiiy hol. U goh, o‘y, xayol tarzida ro‘y beradi; kechinmaga hayotdagi biron vaziyat sabab bo‘ladi, biron narsa dastaklik qiladi, vaziyat tarjimai holga oid bo‘lishi mumkin, yo aksincha”. Haqiqatan ham, 70-yillar avlodi she’riyatida kechinma – syujet va kompozitsiya strukturasida jahon adabiyotida ko‘zga endigina tashlanayotgan erkin (harora) she’rning boshqacha ranglarda aks etish moduslarini tartiblanishiga zamin yaratdi. Yosh ketgan iste’dodlardan biri Tilak Jo‘raning “Ona niyati” nomli she’ridagi hissiy-emotsional idrok sarzanishlarini quyidagi talqinlarda aniqlashtirib olamiz:

Ot choptirib chiqding uyingdan,
Ot choptirib qaytgin, ilohim.
Qo‘lingdagi jiloving kabi,
Erking bo‘lsin o‘zingda doim.

Mayli, meni o‘ylama, bolam,
Topganingni sarf qil o‘zingga,
Lek birovga bo‘lmagin qaram,
Nam tegmasin sira tizingga.

Bu o‘rinda shoir lirik qahramoni o‘zining Onasi va o‘zidir. U onaning niyatini to‘g‘ri kechinma bag‘rida talqin

etarkan, yillar va yo‘llar, o‘tayotgan umr manzaralarini juda o‘tkir bir pafosda yuzaga chiqishiga zamin yaratadi. Mana shu iqtidorning Ona va o‘g‘il orasidagi ruhiy bog‘liqlik, o‘ttiz bahorini qarshi olayotgan yosh Tilak Jo‘raning qalbidagi erkka tashnalik ruhida o‘sayotgan isyonidir. Isyon – Onani anglash, Vatanni anglash, qaramlik, bu bir ruhiy kayfiyat mahsuli ekanini dalolatlaydi. Ya’ni shoir nima demoqchi? Ushbu kechinma tabiatida ikki tushuncha o‘z mohiyatiga singib ketadi:

1. Erk. 2. Qaramlik. E’tibor berilsa, she’rdagi birinchi band (muqaddima)da ona o‘g‘liga vasiyatnoma tarzida erking bo‘lsin o‘zingda doim deganida, har qanday bosim, tashqi kuchlar, umuman, ijtimoiy dard pafosi gullayotgan novdaning asrash lozimligiga qaratilsa, ikkinchisi, hech qachon birovga tiz cho‘kma, tiz cho‘kkan odamni tizasi nam, shikastlanishi mumkin. Mana shu poetik uyg‘unlik lirik she’r mundarijasidagi – syujet hamda “men” strukturasining mukammalashib borayotganini kafolatlaydi. Shoir olamni ko‘p kuzatar ekan, odamlarning ruhiy-ijtimoiy kayfiyatidan juda katta topilmalar yaratganiga ishonish mumkin. Bunday strukturaviy she’rlar tizmasi shoirning boshqada lirik qahramonlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

XX asr rus she’riyatining buyuk namoyondalaridan Osip Mandelshtam shunday yozgandi: “Shoirning adabiy genezisini, adabiy sarchashmalarini, uning ma’naviy yaqinlarini va kelib chiqishini aniqlash bizni to‘g‘ri o‘q ildiziga olib boradi. Munaqqid shoir nima demoqchi bo‘lgan, degan savolga javob bermasligi mumkindir, biroq uning kelib chiqish manbalarini aytishga burchlidir”. Yoshligi juda surgunda, azob va uqubatlarda o‘tgan Osip Mandelshatm o‘zining o‘tkir maqolalari bilan hamda she’rlari ila Stalin qatag‘aoniga uchraydi. Uning haroratli she’rlarini o‘qiganimizda xuddi yosh ketgan Tilak Jo‘radek 47-bahorida lagerlardan birida vafot etadi. Bu yerda Tilak Jo‘raning jahon va rus she’riyatini sintez qilgani, shu asnoda o‘zining individual poetik uslubini topganligini ko‘ramiz. Tilak jo‘ra – ruh va kechinma shoiri. Osip Mandelshtam ta’biri bilan aytganda, bolaligi – o‘zining ilk she’riy kayfiyatda olam hamda odamni kashf etish bosqichlarini yodimizga soladi:

Daryoday mavjlanib kechdi umrim,
Balig‘i, qayig‘i, to‘lqini bilan.
Sahroday tashlanib kechadi umrim:
Bo‘roni, armoni, chaqini bilan.
Men kechib o‘tarman oqin dunyoni,
Dunyodek rango-rang hislarim bilan...

Mazkur she’rdagi lirik hayajon o‘z taqdiri, rizqi va nasibasini ko‘ra bilgudek bashoratgo‘y shoir, o‘tib borayotgan umri xususida o‘ziga xos talqinda fikr yuritadi. Shoir ijtimoiy dardi, Vatani, umri, qishlog‘i, do‘stlari hamda yaqinlari bilan o‘zaro kechinmalar tilida fikrlashadi. She’rdagi syujet tig‘izlashuvi hamda ifoda poetik uslub meditatsiyasini yanada teranlashuviga olib keladi. Daryodek mavjlangan umrning, rangi, safosi, sahrosi-yu, bo‘ronlari, armonlari yosh ijodkorning qalbida aks-sado beradi. Bunday o‘tkir falsafiy-psixologik kechinmalar inson umrini yanada go‘zallashuviga imkon beradi. Shunday ekan, ijodkor fenomeni yosh bo‘lishiga qaramay, o‘ttiz bahorida katta umumlashmalar chiqara olish manerasiga ega chiqqanligini ham shahodatlaydi. Xulosa shuki, lirik ifodada poetik uslub o‘z-o‘zidan barqarorlashadi. Kechinma esa tabiiy yo‘sinda ijodkor fitratidan o‘sib chiqadi. Qaysi mavzuga qo‘l urilmasin, bolaligi, yoshligi, qadrdon onasi, yaqinlari ruhiga sog‘inchli bir daftar tashlab ketgandek taassurot uyg‘otadi. Uning shoirligida ham, zakiy tarjimonligida ham, olimligida ham qadim folklorga xos motivlar sajiyasi, hamda jahon, turk klassik adabiyoti namunalarining ta’siri juda oddiy, sodda va samimiy tarzda zalvorli o‘lmas qoyalarni ko‘z o‘ngimizda gavdalanishiga turtki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T: “Adabiyot va san’at”, 1978.90-bet.
2.Jamol Kamol. Lirik she’riyat. –T.: Adabiyot va san’at, 1985.4-5-bet.
3.Aristotel. Poetika. –T: “Yangi asr avlodi”. 2018.64-bet.
4. Yoqubov H. Saylanma. 2 jildlik. 1-jild. –T: Fan, 1983.94-bet.
5. Adabiy turlar va janlar. 3-jildlik. – jild. –T.: Fan, 1992.18-bet.
6. Osip Mandelshtam. www.ziyouz.com
7. Tilak Jo‘ra. Olam ostonasi. –T: Yosh gvardiya. 1980.3-bet

Chexrangiz ASADOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi,
Samarqand davlat pedagogika instituti assistent-o'qituvchisi
dchuomm@gmail.com

G.J. UELSNING "KO'RINMAS ODAM" ASARIDAGI LOKUTIV, ILLOKUTIV VA PERLOKUTIV NUTQ AKTLARI

Annotatsiya: "Ko'rinmas odam" asarida Uelsning qahramonlari, ayniqsa Griffin – nutqdan nafaqat fikrlarni ifodalash, balki boshqalarga buyruq berish, manipulyatsiya qilish, qo'rqitish va ta'sir qilish uchun ham foydalanadi. Ushbu nutq harakatlarini tahlil qilib, biz Uels tilni qanday qilib ijodiy va halokatli kuch shakli sifatida tasvirlashini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqola "Ko'rinmas odam" dagi nutqning lokutiv, illokutiv va perlokutiv o'lchovlarini ko'rib chiqadi va til romanning ambitsiya, begonalashish va axloqiy muvaffaqiyatsizlik haqidagi asosiy mavzularini qanday aks ettirishini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *lokutiv, illokutiv va perlokutiv, avtoritar, qo'rquv psixologiyasi, qarama-qarshi perlokutiv natija.*

Annotation: in The Invisible Man, Well's characters, especially Griffin, use speech not only to express ideas but also to command, manipulate, intimidate, and influence others. By analyzing these speech acts, we can see how Wells portrays language as a form of creative and destructive power. This article examines the locutionary, illocutionary and perlocutionary dimensions of speech in The Invisible Man and reveals how language reflects the novel's central themes of ambition, alienation, and moral failure.

Key words: *locutive, illocutionary, and perlocutionary, authoritarian, psychology of fear, counter-perlocutionary outcome.*

Аннотация: в романе «Человек невидимка» персонажи Уэллса, особенно Гриффин, используют речь не только для выражения идей, но и для командования, манипулирования, запугивания и влияния на других. Анализируя эти речевые акты, мы можем увидеть, как Уэллс изображает язык как форму созидательной и разрушительной силы. В этой статье рассматриваются локутивные, иллокутивные и перлокутивные измерения речи в «Человек невидимка» и раскрывается, как язык отражает центральные темы романа: амбиции, отчуждение и моральная несостоятельность.

Ключевые слова: *локутивный, иллокутивный и перлокутивный, авторитарный, психология страха, контрперлокутивный результат.*

Kirish. G.J. Uelsning "Ko'rinmas odam" asari dahshat, psixologiya va ijtimoiy tanqid elementlarini o'zida mujassam etgan dastlabki ilmiy-fantastik asarlarning eng yorqin namunalaridan biridir. Hikoya ko'rinmaslik sirini ochib, undan xudbin va buzg'unchi maqsadlarda foydalanadigan ajoyib, ammo axloqiy jihatdan buzilgan olim Griffin haqida boradi. Romanning ilmiy sarguzasht yuzasi ostida insoniy muloqot, izolyatsiya va aql chegaralarini chuqurroq o'rganish yotadi.

Ushbu o'lchovlarni tahlil qilish usullaridan biri faylasuf J.L. Ostin tomonidan kiritilgan va keyinchalik Jon Searl tomonidan ishlab chiqilgan nutq akti nazariyasidir. Ostinning taklifiga ko'ra, odamlar gapirganda, ular ma'lumotni yetkazishdan ko'ra ko'proq narsani qiladilar – ular til orqali harakat qiladilar. U nutqiy harakatlarning bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta turini ajratib ko'rsatdi: **lokutiv, illokutiv va perlokutiv**. Ushbu toifalar bizga ma'no, niyat va ta'sir muloqotda qanday o'zaro bog'liqligini tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Quyidagi tadqiqotda nutq aktiga asoslangan sifatli matn tahlilidan foydalaniladi, xususan, nazariyasi J. L. Ostin va Jon Searlning lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakatlar orqali tahlil qilinadi. Xilma-xil effektlar orqali Uels nutqni kuchli ijtimoiy kuch sifatida tasvirlaydi. So'zlar nafaqat dunyoni tasvirlaydi, balki uni o'zgartiradi. Oxir-oqibat Griffinning qulashi nafaqat jismoniy zo'ravonlik, balki uning ishontirish qobiliyatining qulashi bilan ham bog'liq. U nutq orqali boshqalarni boshqara olmasa, uning ko'rinmasligi ma'nosiz bo'ladi. Uning so'nggi so'zlari – rahm-shafqat so'rab iltijo qilish – uning obro'-e'tiborining to'liq eroziyasini ko'rsatib, o'zining g'ayrioddiy kuchini va tajovuzkor ta'sirini yo'qotadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda nutq aktiga asoslangan sifatli matn tahlilidan foydalanildi, xususan, nazariyasi J. L. Ostin va Jon Searlning lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakatlar orqali tahlil qilindi. "Ko'rinmas odam" asaridagi g'ayrioddiy harakatlar qahramonlarning niyatlari va hokimiyat uchun kurashlarini ochib beradi. Griffinning

nutqi tobora avtoritar bo‘lib bormoqda, chunki uning ko‘rinmasligi uni yanada izolyatsiya qiladi. Bir paytlar ilmiy fikr ifodasi bo‘lgan uning so‘zlari zulm quroliga aylanadi. Uelsning fikricha, til o‘zining axloqiy asosini yo‘qotsa, u muloqot emas, balki nazorat mexanizmiga aylanadi.

Natijalar va muhokama. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, lokutiv harakatlar harflar o‘rtasidagi keskinlikni ochib beradi, ma’no va hissiy murakkablikni oshiradi. Nutq qo‘rquv, itoatkorlik, birlik yoki tartibsizlikni qanday keltirib chiqarishini ko‘rsatadi. Nutq aktlari muloqot, xatti-harakatni shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi. “Ko‘rinmas odam”da lokutiv harakatlar chuqurroq ziddiyatlarni ochib beradi. Illokutiv harakatlar nutqning, xususan, Griffinning niyatlarini, nazorat qilish istagi va Kempning qarshilik ko‘rsatish harakatlari ko‘rsatadi. Perlokutiv harakatlar nutqning qandayligini ifodalaydi. Belgilarga hissiy va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatadi, ko‘pincha qo‘rquv yoki birlikni qo‘zg‘atadi. Umuman olganda, Uels tilni ham kuchli, ham xavfli qurol sifatida tasvirlaydi.

Lokutiv harakatlar: so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi.

Lokutiv akt – bu ma’noli so‘zlarni hosil qilish harakati – aytilganlarning tom ma’nodagi mazmuni. U nutqning grammatik tuzilishi va semantik ma’nosini o‘z ichiga oladi. “Ko‘rinmas odam”da lokutiv aktlar ko‘pincha syujetni oldinga siljitish uchun zarur bo‘lgan aniq ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Biroq, Uels istehzo va keskinlikning chuqurroq qatlamlarini fosh qilish uchun ko‘pincha oddiy ko‘rinadigan so‘zlardan foydalanadi.

Griffin janob Marvelga birinchi marta tan olganida, **“Men ko‘rinmasman, ko‘ryapsizmi? Ko‘rinmas!”** Lokutiv harakat oddiy: Griffin o‘zining jismoniy holati haqidagi faktni aytmoqda. Biroq, bu bayonotning ahamiyati uning tom ma’nodagi mazmunidan ancha yuqori. Uning so‘zlari ham tinglovchini, ham o‘quvchini hayratda qoldiradi va ishontirmaydi. Sirtdan qaraganda, gap ilmiy haqiqatni bildiradi, uning ostida so‘zlovchining insoniylik va o‘zlikni yo‘qotishini aks ettiradi. Shunday qilib, Griffinning lokutiv harakati vahiy va begonalash vazifasini bajaradi – u nutq orqali ko‘rinadi, lekin tanada va axloqda ko‘rinmaydi.

Romandagi boshqa lokutiv harakatlar xuddi shunday xarakter psixologiyasini ochib beradi. Missis Xoll notanish odamning g‘alati xatti-harakati va maxfiyligi haqida gapirganda, uning savollari – “**Bularning barchasi nimani anglatadi?”** va **“Nima uchun o‘zingizni yopiq tutasiz?”** - bu tom ma’nodagi so‘rovlar. Shu bilan birga, oddiy joylashuv ijtimoiy tashvish va oddiy qishloq hayoti va ilm-fanning favqulodda aralashuvi o‘rtasidagi to‘qnashuvni ham ifodalaydi. Uels so‘zma-so‘z nutqi orqali normal dunyo va Griffinning g‘ayritabiiy mavjudligi o‘rtasidagi tafovutni tasvirlaydi.

Bunday hollarda lokutiv aktlar ma’noning asosi bo‘lib ishlaydi. So‘zlarning o‘zi aniq va to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rinadi, ammo Uels ularni chuqurroq falsafiy va hissiy oqimlarga ishora qilish uchun ishlatadi. Shunday qilib, romanning lokutiv qatlami aldamchi darajada sodda bo‘lib, haqiqat va tuyg‘u o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni yashiradi.

Illokutiv harakatlar: nutqdagi niyat va kuch.

Illokutiv harakat so‘zlovchining niyatini anglatadi – so‘z muloqotda bajaradigan vazifa. Bularga buyruq berish, so‘rash, ogohlantirish yoki e’lon qilish kabi harakatlar kiradi. “Ko‘rinmas odam” da Griffin nutqida buyruq, nazorat va qo‘rqitishning g‘ayrioddiy harakatlari ustunlik qiladi. Uning so‘zlari kamdan-kam hollarda neytral, ular itoatkorlik yoki bo‘ysunishga erishish uchun mo‘ljallangan kuch vositalaridir.

Griffin janob Marvelga: “**Sen mening yordamchimsan va sen aytganimni qilasan”**, deb buyruq berganida, ta’riflovchi kuch aniq buyruqdir. So‘z shunchaki tavsiflovchi emas, balki ijro etuvchidir: Griffin gapirish orqali kuch munosabatlarini o‘rnatadi. U Marvelni erkin odamdan bo‘ysunuvchi vositaga aylantirish uchun tildan foydalanadi. Bu lahza romandagi ijtimoiy holatlarni qanday shakllantirayotganini tasvirlaydi – tilning o‘zi hukmronlik vositasiga aylanadi.

Shunga o‘xshab, Griffinning doktor Kemp bilan suhbati raqobatlashuvchi illokutiv kuchlarni namoyish etadi. Griffin: “**Kemp, sen meni tinglashing kerak! Sen menga yordam bera oladigan yagona odamsan”**, deb iltimos qilganda, u so‘rash va ishontirish harakatini bajaradi. Shunga qaramay, bu murojaat ostida yashirin tahdid yotadi. Kemp Griffinning beqarorligini tan olib, uni hokimiyatga xiyonat qilishni tanlab, rad etish va ta’sir qilish bo‘yicha g‘ayritabiiy harakatlar bilan javob beradi. Ularning dialogi nutqiy harakatlar jangiga aylanadi: Griffinning so‘zlari majburlash, Kempning maqsadi esa qarshilik ko‘rsatish va ochishdir. Ushbu almashinuv orqali Uels nutqning qanday qilib ham axloqiy, ham psixologik qurol bo‘lishi mumkinligini dramatiklashtiradi.

Hatto o‘zaro kichik ta’sirlarda ham, ta’sirchan harakatlar ijtimoiy ma’noni shakllantiradi. Qishloq aholisi mehmonxonada “g‘alati odam” haqida g‘iybat qilganda, ularning nutqi chayqovchilik va ayblov harakatlarida jamoaviy hukmni o‘rnatadi. O‘zlarining suhbatlari orqali qishloq aholisi politsiya qilishi kerak bo‘lgan tergovning ijtimoiy funksiyasini bajaradi – ular tushunolmaydigan narsalarga nisbatan tartibni tiklash uchun tildan foydalanadilar.

Perlokutiv harakatlar: nutqning ta’siri va oqibatlari.

Nutqning tinglovchiga ta’siri – bu hissiyotlar, harakatlar yoki javoblar. Ushbu ta’sirlar mo‘ljallangan yoki ko‘zda tutilmagan bo‘lishi mumkin. “Ko‘rinmas odam”da nutqning perlokutiv o‘lchovi ayniqsa kuchli, chunki Griffinning so‘zlari ko‘pincha qo‘rquv, bo‘ysunish yoki axloqiy fikrni ilhomlantiradi.

Griffin Marvelga o‘z ahvolini oshkor qilganda, perlokutiv effekt darhol dahshatga aylanadi. Marvelning qo‘rquvi uning shubhalariga qaramay Griffinning buyrug‘iga bo‘ysunishga olib keladi. Xuddi shu narsa Iping qishlog‘i aholisi bilan sodir bo‘ladi: Griffinning tahdidlari va sirli nutqi vahima va tartibsizlikni keltirib chiqaradi, bu so‘zlar jamoaviy xatti-harakatni qanday shakllantirishini ko‘rsatadi. Uels qo‘rquv psixologiyasini – til jamoalarni beqarorlashtirishi va mantiqsiz reaksiyalarni qo‘zg‘atishi mumkin bo‘lgan yo‘lni o‘rganish uchun ushbu perlokutiv ta’sirdan foydalanadi.

Griffinning ilmiy monologlari, shuningdek, hikoyaning bevosita kontekstidan tashqari, tajovuzkor ta’sirga ega. O‘quvchilar uchun uning sovuq va mantiqiy tushuntirishlari bezovtalik bilan aralashgan hayratni uyg‘otadi. Biz uning shafqatsizligidan qaytsak ham, uning aql-zakovatidan qoyil qolishga majburmiz. Uels ataylab Griffin nutqidan ma’naviy keskinlik yaratish uchun foydalanadi: o‘quvchi, Griffinning suhbatdoshlari kabi, ham shug‘ullanadi, ham qaytariladi.

Shu bilan birga, Kempning nutqlari qarama-qarshi perlokutiv natijalarni keltirib chiqaradi. Politsiyani Griffinning rejasi haqida ogohlantirganda, uning so‘zlari harakat va birdamlikni ilhomlantiradi. Nutqini ajratib turadigan Griffindan farqli o‘laroq, Kemp tilini bog‘laydi va harakatga keltiradi. Bu ikki ma’ruzachi o‘rtasidagi qarama-qarshilik perlokutiv effektlarning axloqiy o‘lchamini ta’kidlaydi: til yo bo‘linishi va qo‘rqitishi yoki birlashtirishi va himoya qilishi mumkin.

Xulosa. “Ko‘rinmas odam” ni lokutiv, illokutiv va perlokutiv nutq aktlari doirasida tahlil qilish Uelsning tilni kuch, axloq va o‘ziga xoslik bilan qanchalik chuqur bog‘lashini ochib beradi. Lokutiv daraja ilmiy kashfiyot va ijtimoiy o‘zaro ta’sirning tom ma’noda aloqasini ko‘rsatadi; illokutiv daraja bu so‘zlar ortidagi niyat va hokimiyatni ochib beradi va perlokutiv daraja nutqning tinglovchilar va o‘quvchilarga hissiy va xulq-atvorga ta’sirini ko‘rsatadi. Griffinning fojeasi ilmiy bo‘lganidek, lingvistik hamdir. Uning nutqi oqilona tushuntirishdan majburlash buyrug‘iga va nihoyat umidsiz da’voga aylanadi. Har bir bosqich uning boshqalarga va o‘ziga bo‘lgan munosabatidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Uelsning ta’kidlashicha, axloqiy muloqot qilish qobiliyati – hukmronlik uchun emas, balki aloqa uchun tildan foydalanish – haqiqiy insoniylikni belgilaydigan narsa. Oxir-oqibat, “Ko‘rinmas odam” til ham ilm-fan kabi ikki qirrali vosita ekanligini eslatib turadi. Nutq harakatlari nazariyasi orqali biz har bir so‘zda ma’no, niyat va oqibat qatlamlari borligini ko‘ramiz. Griffinning hikoyasida so‘zlar odamni yaratadi va yo‘q qiladi, uni nafaqat ko‘zga ko‘rinmas qiladi, balki u tashlab ketgan axloqiy hamjamiyat uchun ham yo‘qqa aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davronov, I. T. (2023). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Ma’naviyat.
2. Karimov, A. (2022). Til va madaniyatning tarjimada o‘rni. – Samarqand: Sharq.
3. Qodirov, B. D. (2021). Bevosita va bilvosita tarjima: Muammolar va yechimlar. – Toshkent: Yoshlar.
4. Saidov, N. (2020). Tarjima va madaniyatlararo aloqalar. – Buxoro: Fan.
5. Asadova Chekhrangiz. (2023). Preservation of Originality in the Translation of Emotional Sentences in the Speech of the Hero of the Work of Art. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(11), 93-98. Retrieved from https://cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/1054
6. Chekhrangiz, A., & Singh, R. (2025). THE USE OF METHODS IN THE TRANSLATION OF LITERARY TEXTS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(01), 401– 404.
7. Makhmudova, J., & Asadova, C. (2024, April). THE GOALS AND OBJECTIVES OF USING GAME ACTIVITIES IN EDUCATION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 194–197).

Jaxongir SIDDIKOV,
Andijon davlat chet tillari instituti

O‘ZBEK TILIDA YARATILGAN ERGONIMLARNING LINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilidagi ergonimlarning lingvistik xususiyatlari, ularning yasalish manbalari va ichki imkoniyatlar asosida shakllanish tamoyillari tahlil qilingan. Andijon viloyati misolida ishlab chiqarish, savdo, ta’lim, tibbiyot, umumiy ovqatlanish, madaniyat, sport va boshqa sohalarga oid ergonimlar lingvistik jihatdan guruhlanib o‘rganilgan. Tadqiqotda ergonimlarning tarkibiy tuzilishi, semantik va morfologik ko‘rinishlari, ularning nomlashdagi milliy-madaniy omillari aniqlangan. Ichki imkoniyat asosida yasalgan ergonimlarning tilda tutgan o‘rni, xalq tafakkuri, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarni ifodalashdagi ahamiyatini ochib bergan.

Kalit so‘zlar: *ergonim, lingvistik tahlil, ichki imkoniyat, onomastika, nomshunoslik, ergonimika, antroponim, toponim, leksik birlik.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвистические особенности узбекских эргонимов, источники их образования и принципы формирования на основе внутренних языковых возможностей. На примере Андижанской области исследованы и классифицированы эргонимы, связанные с промышленностью, торговлей, образованием, медициной, общественным питанием, культурой, спортом и другими сферами. В исследовании определены структурное строение, семантические и морфологические особенности эргонимов, а также национально-культурные факторы, влияющие на процесс номинации. Раскрывается значение эргонимов, созданных на основе внутренних языковых ресурсов, в отражении мировоззрения, менталитета и национальных ценностей узбекского народа.

Ключевые слова: *эргоним, лингвистический анализ, внутренние возможности, ономастика, номинативистика, эргонимика, антропоним, топоним, лексическая единица.*

Annotation: this article analyzes the linguistic features of Uzbek ergonyms, their sources of formation, and the principles of creation based on internal linguistic resources. Using the example of the Andijan region, ergonyms related to industry, trade, education, medicine, public catering, culture, sports, and other fields are classified and studied from a linguistic perspective. The research identifies the structural composition, semantic and morphological features of ergonyms, as well as the national and cultural factors influencing their naming. The author reveals the significance of ergonyms formed through internal linguistic means in reflecting the worldview, mentality, and national values of the Uzbek people.

Key words: *ergonym, linguistic analysis, internal resource, onomastics, naming, ergonymy, anthroponym, toponym, lexical unit.*

Tabiat va jamiyatning betakror go‘zalligi, ranginligi, jozibadorligi ulardagi adadsiz narsa va hodisalarning muntazam ravishda birining o‘rnini ikkinchisi egallab turishiga asoslanadi. Bu jarayondan til ham mustasno emas. Til muayyan xalq tafakkuri, ruhiy dunyosi, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hayoti, diniy qarashlari, kundalik turmushi va shu kabilarning yorqin ifodasi sifatida bir joyda to‘xtab turmas ko‘p qirrali, murakkab jarayondir. Biz – insonlar ko‘pincha dunyo tillarining tashqi belgilariga qarab baho berishga odatlanib qolganmiz va ularning ichki tomonida ro‘y berayotgan jarayonlardan aksariyat hollarda bexabar qolamiz. Aslida, tilning butun mohiyati uning ichki tomonida ro‘y berayotgan hodisalarga, tilni tashkil qiluvchi unsurlar o‘rtasidagi chegara bilmas aloqalarga bog‘liq bo‘ladi. Mutaxassislar hamma vaqt ham buning tagiga yeta olmaydi. Til birliklarining qiziq tomoni shundaki, u til egalari tomonidan oson ajratiladi, lekin lingvistlar tomonidan qiyin aniqlanadi [1]. Buni Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan ergonimlar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, umumiy ovqatlanish bilan bog‘liq korxona nomlarini bildiruvchi ergonimlarni xalq vakillari oddiygina qilib *oshxona, restoran* yoki *choyxona* deb atab qo‘ya qoladi. Tilshunoslar esa ularning qaysi tamoyil asosida nomlangani, qaysi tildan olingani, qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgani, funksional-uslubiy, lingvomadaniy, pragmatik va hokazo xususiyatlarini hisobga olib ish ko‘radilar. Misol uchun Andijon viloyatidagi *“Al-Hilol”, “Asaka bo‘yin go‘shti”, “Ahmadillo”, “Archazor shashlik”, “Asilbek shashliklari”, “Besh yulduz”, “Bir zumda”, “Burgut”, “Buyuk Ipak yo‘li”, “Burger”, “Vostok”, “Vladivostok”, “Delfin”, “Do‘lma”, “Zaytun”, “Lazeez”, “M-Rizo”milliy taomlari, “Rustamjon shashlik”, “Ugolok”* kabi oshxona nomlarini yuqoridagi tamoyillar asosida tahlil qiladilar. Bu jarayonda, albatta, birinchi galda ichki imkoniyat asosida yasalgan til birliklariga asosiy e’tibor qaratiladi.

Mutaxassislarning fikricha, ichki imkoniyat asosida yangi til birliklarining hosil qilinishi quyidagi uch usul orqali amalga oshiriladi: a) ichki resurslar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilish; b) eskirgan, tarixiy manbalarda qayd etilgan leksik birliklarga qaytadan “hayot” bag‘ishlash; d) shevaga xos so‘zlarni adabiy tilga olib kirish [2].

To‘plangan materiallar ichidan ichki imkoniyat asosida yasalgan ergonimlarni ajratib olish hamisha ham oson kechmaydi. Fikrimizni isbotlash uchun ishlab chiqarish korxonalari, zavod va fabrikalar nomlarini ifodalovchi leksik

birliklarni olib ko‘raylik. Mamlakatimizda keyingi yillarda barpo etilgan zamonaviy inshootlar, obyektlarning asosiy qismini shular tashkil qiladi. Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yilda mamlakatimizda 19507 ta, 2021-yilda 61612 ta yangi korxona faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. 2023-yilning yanvar-iyul oylarida respublikamizda birgina savdo sohasida 20437 ta yangi korxona tashkil etilgan. Ulardan 1100 tasi Andijon viloyatiga to‘g‘ri keladi. Sanoat sohasida yangi ochilgan 8944 ta korxonadan 539 tasi Andijonda barpo qilingan. Viloyatdagi 8342 ta ishlab chiqarish va sanoat korxonalaridan 2451 tasi 2020-yilda tashkil etildi. Eng yirik 100 ta korxonaning 75 tasi qo‘shma korxonalar sanaladi. Bu shuncha nom degani. Tadqiqot ishida ulardan 1957 tasi tahlil uchun saralab olindi. Jami tanlamalarning 616 tasi ichki imkoniyat asosida yasalgani aniqlandi.

I. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq 166 ta ergonimlarning 52 tasi (31%) ichki imkoniyat bilan yasalgani va quyidagi kichik guruhlardan iborat ekanligi aniqlandi:

1. Bir asosdan iborat bo‘lgan sodda, tub ergonimlar 4 ta (7,7 %).
2. Bir asosdan iborat bo‘lgan sodda, yasama ergonimlar 3 ta (5,8 %).
3. Qo‘shma asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 3 ta (5,8 %).
4. Ikki asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 14 ta (27 %).
5. Uch asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 17 ta (32,7 %).
6. To‘rt asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 2 ta (3,8 %).
7. Juft asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 6 ta « (11,6 %).
8. Son ishtirok etgan ergonimlar 1 ta (1,9 %).
9. Abbreviaturali ergonimlar 2 ta (3,8 %) [3].

Ichki imkoniyat asosida yasalgan ergonimlarning yasalish omillarida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin: a) antroponimlar ishtirokida yasalgan ergonimlar: *“Nurbek”, “Odil-Hamza”, “Tavakkak-Sulton”, “Dilorom hamkor”, “Shohjahon Umidi”, “Omadullo Abdulloh ravnaqi”* va h.k.; b) toponimlar ishtirokida yasalgan ergonimlar: *“Kulla jovohiri”, “Nayman mel”, “Marhamat Afrosiyobi”, “Asaka porloq kelajagi”, “Andijon-Xanoy ipagi”, “Yagona Andijon poyabzali”* va h.k.; d) sifat asosli yoki sifatlovchi-sifatlanmish qolipidagi ergonimlar: *“Fusunkor”, “Ijodkor”, “Musaffo-Sof”, “Ziyokor qalb”, “Jaydari tulpor”, “Harir tola”* va h.k.; e) ot asosli ergonimlar: *“Rivoj”, “Butlovchi”, “Sarmoya”* va h.k.; f) harakat nomi asos bo‘lgan ergonimlar: *“Harakatlanish”* va h.k.

II. Ergonimlarning katta qismini avtomobil sanoati bilan bog‘liq ergonimlar tashkil etadi. Buning o‘ziga xos sabablari bor, albatta. Mamlakatimizda ilk bor tashkil etilgan avtomobil zavodi Andijon viloyatining Asaka shahrida joylashgan. Zavod tarkibida 100 dan ortiq korxona mavjud va ularning aksariyati viloyat hududida faoliyat ko‘rsatadi. Dissertatsiyaga avtomobil bilan bog‘liq 134 ta ergonim tahlilga tortildi. Ularning 29 tasi ichki imkoniyat asosida yasalgan. Shundan: a) bir asosli ergonimlar 16 ta (55,2 %); b) ikki asosli ergonimlar 5 ta (17,3 %); d) uch asosli ergonim 2 ta (6,9 %); e) juft asosli ergonim 1 ta (3,5 %); f) son ishtirokida yasalgan ergonimlar 4 ta (13,8 %); g) abbreviaturali ergonim 1 ta (3,5 %).

III. Andijon viloyati to‘qimachilik va yengil sanoat sohasida mamlakatimizning yetakchi hududlaridan biri sanaladi. Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra viloyatda 808 ta korxona faoliyat ko‘rsatadi. Dissertatsiyaga ularni ifodalovchi 142 ta eng muhim ergonimlar tahlilga tortildi.

Ular ichida ichki imkoniyat bilan yasalgan ergonimlar miqdori 23 ta (16,1%)ini tashkil etadi. a) bir asosli ergonimlar 6 ta (26,1 %); b) ikki asosli ergonimlar 5 ta (21,7 %); d) uch asosli ergonimlar 8 ta (34,7 %); e) aralash usul bilan yasalgan ergonim 3 ta (13,1 %); f) abbreviaturali ergonim 1 ta (4,4 %).

IV. Oziq-ovqat korxonalari nomlarini ifodalovchi 69 ta ergonimlarning 42 tasi ichki imkoniyat asosida yasalgan: a) bir asosli ergonimlar 7 ta (16,6 %); b) ikki asosli ergonimlar 17 ta (40,5 %); d) uch asosli ergonimlar 12 ta (28,5 %); e) to‘rt asosli ergonimlar 2 ta (4,8 %); f) juft asosli ergonimlar 2 ta (4,8 %); g) abbreviaturali ergonim 2 ta (4,8 %).

V. Dissertatsiyada savdo korxonalari nomlari bilan bog‘liq 299 ta ergonim tadqiqqa tortildi. Ularning 70 tasi (23,5 %) ichki imkoniyat, 77 tasi (25,5 %) tashqi imkoniyat asosida hosil qilingan. 152 ta ergonim (51, %) aralash usulda yasalgan. Ichki imkoniyat asosida yaratilgan ergonimlar quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi**:** a) bir asosdan iborat bo‘lgan sodda, tub ergonimlar 27 ta (38,5 %); b) bir asosli sodda, yasama ergonimlar 7 ta (10 %); d) ikki asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 22 ta (31,4 %); e) uch asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 5 ta (7,2 %); f) to‘rt asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 1 ta (1,5 %); g) juft asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 3 ta (4,2 %); h) son ishtirok etgan ergonimlar 4 ta (5,7 %) ; j) arabcha *-al* artikli ishtirokida yasalgan ergonim 1 ta: (1,5 %).

VI. Ergonimlar ichida kiyim do‘konlari nomlarini ifodalovchi ergonimlar alohida qatlamni tashkil qiladi. Dissertatsiyada ulardan 58 tasi tahlilga tortildi. Ergonimlarning 10 tasi ichki imkoniyat asosida hosil qilingan. Bu umumiy miqdorning 17,3 % idan iborat. Leksik-semantik guruhlari: a) bir asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 3 ta (30 %); b) qo‘shma so‘zdan iborat bo‘lgan ergonimlar 2 ta (20 %); d) ikki asosdan iborat bo‘lgan ergonimlar 2 ta (20 %); e) uch asosdan iborat bo‘lgan ergonim 1 ta (10 %); f) son ishtirok etgan ergonim 1 ta (10 %); g) arabcha *-al* artikli ishtirokida yasalgan ergonim 1 ta (10 %).

VII. Andijon viloyati ergonimlarining eng katta guruhini umumiy ovqatlanish shoxobchalari bilan bog‘liq onimlar tashkil qiladi. Tadqiqot ishiga ulardan 446 tasi tanlab olindi. Jami ergonimlarning 254 tasi (57 %) ichki imkoniyat asosida hosil qilingan. Ularning qoliplari quyidagicha: a) bir asosli sodda, tub ergonimlar 115 ta (45,3 %); b) bir asosli sodda, yasama ergonimlar 15 ta (6 %); d) bir asosli (tarixan yasama) ergonimlar 3 ta (1,19 %); e) arabcha *-al* artikli

yordamida yasalgan ergonimlar 3 ta (1,19 %); f) morfologik ko‘rsatgichli ergonimlar 14 ta (5,5 %); g) juft asosli ergonimlar 7 ta (2,7 %); h) son ishtirok etgan ergonimlar 6 ta (2,3 %); i) qo‘shma so‘zdan yasalgan ergonimlar 32 ta (12,6 %); j) ikki asosli ergonimlar 36 ta (14,18 %); k) uch asosli ergonimlar 15 ta (5,9 %); l) to‘rt asosli ergonim 1 ta: *“Habibullo ota milliy taomlari”* (0,4 %); m) izofali ergonimlar 4 ta (1,6 %); n) abbreviaturali ergonimlar 2 ta (0,8 %); o) gap shaklidagi ergonimlar 1 ta (0,4 %) [4].

Mazkur makro ko‘lamni 8 ta mikroguruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq. Oshxona bilan bog‘liq ergonimlar 67 ta; restoran bilan bog‘liq ergonimlar 75 ta; kafe bilan bog‘liq ergonimlar 109 ta; choyxona bilan bog‘liq ergonimlar 72 ta; to‘yxona bilan bog‘liq ergonimlar 25 ta; baliqxona bilan bog‘liq ergonimlar 22 ta; tamaddixona bilan bog‘liq ergonimlar 25 ta; burger bilan bog‘liq ergonimlar 25 ta; yevropa taomlari bilan bog‘liq ergonimlar 18 ta; barlar bilan bog‘liq ergonimlar 10 ta; yetkazib berish bilan bog‘liq ergonimlar 3 ta; muzqaymoq bilan bog‘liq ergonimlar 17 ta; jami 468 ta, shundan 261 tasi ichki imkoniyat asosida yasalgan ergonimlardir. Foiz hisobida oladigan bo‘lsak – 55,7 %.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, iqlim, joy bilan bog‘liq ergonimlar oshxona, choyxona, to‘yxona nomlarida ko‘p uchraydi. Choyxona nomlarini ifodalovchi 72 ta ergonimdan 68 tasi (93 %), to‘yxona nomlarini ifodalovchi 25 ta ergonimlardan 24 tasi (96 %) o‘z qatlamga oid so‘zlardir.

Ergonimlarning etimologik tarkibi rang-barang. Masalan, oshxona bilan bog‘liq 67 ta ergonimning 3 tasi inglizcha (4,5 %), 2 tasi ruscha (3 %), 2 tasi arabcha (3 %), 1 tasi turkcha (1,5 %), 1 ta o‘zbekcha leksik birlik inglizcha transliteratsiyada *“Tandoor”* shaklida berilgan (1,5 %), 59 tasi o‘zbekcha (88.1 %). Demak, boshqa guruhlarga qaraganda oshxona bilan bog‘liq ergonimlarda ichki imkoniyat asosida nom yasalishi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur guruhning yadrosida turgan *oshxona* leksemasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday ta’rif berilgan:

Oshxona 1. Ovqat tayyorlash uchun moslangan maxsus xona yoki bino. **2.** Umumiy ovqatlanish muassasasi.

Oshxona bilan bog‘liq ergonimlarni nomlashda o‘zbek tili ichki imkoniyatlarining barcha usullarini – ergoantroponimlar: «*Akbarshoh*», «*Ahmadillo*», «*Asilbek shashliklari*», «*M-Rizo milliy taomlari*», «*Rayxon*», «*Rustamjon shashlik*», «*Shukronabegim*», «*Humoyun*»; ergotoponimlar: «*Gumbaz*», «*Soy*», «*Shahidtepa*», «*Qumbozor*»; ergofitonimlar: «*Archazor shashlik*», «*Tolzor*», «*Chinor*», «*Zaytun*»; ergozoonimlar: «*Burgut*», «*Delfin*», «*O‘rdak*», *Tulpor*»; ergokosmonimlar: «*Al-Hilol*», «*Beshyulduz*»; ergoistorizmlar: «*Buyuk Ipak Yo‘li*», «*Karvon*», «*Ko‘hinur*», «*Marokand*», «*Tojmahal*»; ergopoetizmlar: «*Bir zumda*», «*Koshona*», «*Tanho*» va hokazolarni uchratish mumkin.

Guruhning markaziy birliklaridan sanalgan *restoran* leksemasi «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da shunday izohlangan:

Restoran [fransuzcha *restaurant – yedirib-ichirib, tetik qiluvchi, quvvat beruvchi*] **1** Mijozlarga yuqori darajada xizmat ko‘rsatadigan, musiqa eshitib, raqs tushish, qimmatli yegulik va ichimliklarga buyurtma berish mumkin bo‘lgan umumiy ovqatlanish korxonasi. **2** Ana shunday korxona joylashgan bino [5].

Rus va yevropa tillarida restoran nomlarini bildiruvchi ergonimlar restoronim atamasi ostida keng tadqiq etilgan. “Ресторанный нейминг: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты” mavzusida nomzodlik ishini bajargan Xoang Txi Xong Chang Moskva shahridagi 7000 dan ortiq ovqatlanish muassasalari nomlarini to‘plagan va ular ichidan restoran nomlarini ajratib olib tadqiqqa tortgan. Uning fikricha, *restoronim* – umumiy ovqatlanish korxonalariga tegishli nom, ergonimlarning turlaridan biridir. Nomenklaturasining xilma-xilligi, xorijiy nomlardan keng foydalanish, nomlarning grafik modifikatsiyalashuvi ularga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar sanaladi. Dissertant restoronimlarning 10 ta turini va ularning yasalishidagi plyuralizatsiya, arxaik so‘zlardan foydalanish, transliteratsiya, gibridatsiya, kodografikatsiya, punktualizatsiya, so‘zning grafik ko‘rinishini o‘zgartirish, grammatik reduplikatsiya, segmentatsiya, xorijiy unsurlar va internet imkoniyatlaridan foydalanish, indeksiya, qisqartish kabi 13 ta tamoyilni ko‘rsatgan: toporestoronim («Aleksandriya», «Braziliya», «Xalong», «Vendome»); antrorestoronim («Marko Polo», «Rasputin», «Fu Syan» «Bowie»); ideorestoronim («Mimino», «Deti Rayka», «Camera Obscura»); kriptorestoronim («Gulliver», «GROOT», «Tin Woodman»); pragmatorestoronim *(«Kon-Tiki», «VEUVE CLICQUOT»*); teorestoronim («Dionis», «Shakti»); kosmorestoronim («Aldebaran’», «Saturn»); geortorestoronim («Tatyanin den», «Noel», «Navruz») va h.k. ajratib ko‘rsatgan.

Bundan Andijon viloyatidagi restoran nomlari ham mustasno emas. Ular ichida ichki imkoniyat asosida hosil qilingan toporestoronimlar: *“Bo‘ston”, “Gumbaz”, “Chinobod”, “Osiyo”, “Andijon”, “Xokan”*, antrorestoronimlar: *“Javohir”, “Sultan”, “Sultan Ahmed”*, kriptorestoronimlar: *“Buyuk ipak yo‘li”, “Buyuk Turon”, “Ko‘hinur”, “Ruboiy”, “Tojmahal”* fitorestoronimlar: *“Archazor”, “Uzumzor”, “Chinor”, “O‘rikzor”*, etnorestoronimlar: *“Barlos”* kosmorestoronimlar: *“Samo”, “Shabboda”* poetorestoronimlar: “*Mazza”, “Oltin vodiy”* va h.k.lar uchraydi.

Tadqiqot ishiga jalb etilgan muzqaymoq bilan bog‘liq 17 ta ergonimlarning 10 tasi inglizcha (58,8 %), 1 tasi arabcha (5,8 %), 1 tasi ruscha (5,8 %), leksik birlik sanaladi, 5 tasi: *“Andijon muzqaymog‘i”, “Anjan muzqaymog‘i”, “Zilol”, “Chopar”, “O‘zimiz bilamiz”* (29,6 %) ichki imkoniyat asosida hosil qilingan.

Oshxona nomi bilan bog‘liq ergonimlarda zamonaviylik, tezkorlik kuzatiladi. Ularni semik jihatdan tahlil qilish ergonimlarning lisoniy belgilarini oydinlashtirish uchun xizmat qiladi. Masalan, *“Asl 80 Bek”* ergonimi

asl+sakson+bek komponentlaridan tashkil topgan bo‘lib, 1-va 3-komponentlarda mahsulotga va oshxona egasiga ishora mavjud bo‘lsa, 2-komponent – 80 (sakson) da faqat Andijon ahliga tushunarli bo‘lgan ma’no bor. Bobur shohko‘chasidan Katta halqa yo‘liga 80 metrlik trassa chiqarilgan bo‘lib, mazkur oshxona shu yo‘l yoqasiga joylashgan bo‘lib, unda *“80 metlik yo‘l yoqasida joylashgan”* degan sema mavjud. Masalan, o‘zbek brend taomi sanalgan *osh (palov)*ning *“Andijon devzira oshi”, “Kovatokli palov” (tok oshi) “Ilvasin palov”, “Qazili palov”, “Sofaki palov” (so‘fi osh), “Suzma palov”, “Ivitma palov”, “To‘g‘rama palov”, “Behili palov”, “Mayizli palov”,* kabi 200 ga yaqin turi bor va ularning har biri o‘ziga xos ergonim sanaladi. Mazkur nomlar uchun asos vazifasini o‘tayotgan *palov* komponenti fors tilida: پلو [*polov*]; hind tilida: पुलाव [*palāu*]; sanskrit tilida: पुलाक [*pulāka*] *“dimlangan guruch”*, qozoq tilida: *palau*; qirg‘iz tilida: *paloo, ash*; qrim-tatar tilida: *pilâv;* tojik tilida: *oshi palov*; tatar tilida: *pılaw*, *pilau;* usmonli turk tilida: *‘pilav‘*; turkman tilida: *palow*; uyg‘ur tilida*: polu* deb ataladi.

VIII. Mustaqillik ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlarni, ta’lim subyekti va obyektini, ularga yondashuvni, ta’lim tamoyillari va o‘qitish metodikasini tamomila yangicha o‘zanga burib yubordi. Ta’limga ilg‘or xorijiy o‘qitish usullari kirib keldi. Bugun “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” shiori ostida o‘z taraqqiyotining Uchinchi Renessansiga qadam qo‘ygan Yangi O‘zbekiston uchun ta’lim-tarbiya sohasi ustuvor yo‘nalishga aylandi. “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan shiorning o‘rtaga tashlanishi ham bejiz emas, albatta. Ta’lim-tarbiya sohasida bo‘layotgan bu o‘zgarishlarning barchasi birinchi galda ergonimlarda o‘z aksini topdi. Tadqiqotga jalb etilgan ta’lim bilan bog‘liq 134 ta ergonimlardan 40 tasi (30 %) ichki imkoniyat asosida yasalgan va ular quyidagicha guruhlanadi: a) bir asosli sodda ergonimlar 13 ta (32,5 %); b) ikki asosli ergonimlar 12 ta (30,0 %); d) uch asosli ergonimlar 7 ta (17,5 %); e) to‘rt asosli ergonimlar 2 ta (5,0 %); f) juft asosli ergonimlar 6 ta (15,0 %) va h.k.

IX. Boshqa sohalarga qaraganda davr o‘zgarishlari tibbiyot bilan bog‘liq onomastik qatlamda shiddat bilan kechdi. Buni sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar, aholi tibbiy madaniyatining o‘sishi, yangidan-yangi kasalliklarning kashf etilishi, sohaga xorijiy davolash usullari, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalarining kirib kelishi, xususiy shifoxonalarning paydo bo‘lishi kabi omillar bilan izohlash mumkin. Sodir bo‘lgan o‘zgarishlar tibbiy nomlarda ham o‘z aksini topdi. Bunda ikki xil tendensiya kuzatildi: a) an’anaviy tarzda davom etib kelayotgan nomlarni tiklash; b) chet tillarida mavjud bo‘lgan onomastik qoliplardan foydalanish.

Tadqiqot ishiga ichki imkoniyat asosida yasalgan 40 ta ergonim kiritildi. Ular quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi:

a) bir asosli ergonimlar 4 ta (10 %); b) qo‘shma so‘zdan tashkil topgan ergonimlar 1 ta (2,5 %*);* d) birikmali ergonimlar 21 ta (52,5 %); e) juft shakldagi ergonimlar 3 ta (7,5 %); f) son ishtirokida yasalgan ergonimlar 9 ta (22,5 %); abbreviaturalar 2 ta (5,0 %).

X. Tadqiqot ishiga jalb qilingan maishiy xizmat ko‘rsatish va madaniyat maskanlari nomlarini bildiruvchi 80 ta ergonimlarning 30 tasi (37.5%) ichki imkoniyat asosida hosil qilingan. Ular quyidagi ko‘rinishlarda qo‘llangan: a) sodda asosdagi ergonimlar 15 ta (50 %); b) qo‘shma asosdagi ergonimlar 6 ta (20 %); d) juft asosdagi ergonimlar 1 ta (3,4 %); e) birikmali ergonimlar 7 ta (23,2 %); f) son orqali ifodalangan ergonim 1 ta (3,4 %).

XI. Sport-sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq 46 ta ergonimlarning 9 tasi (19%) ichki imkoniyat asosida hosil qilingan: a) sodda asosdagi ergonimlar 4 ta (44,4 %); b) qo‘shma asosdagi ergonimlar 4 ta: (44,4 %); d) uch asosli ergonim 1 ta: (11,2%).

XII. Alohida ta’kidlash lozimki, Mustaqillik yillarida tilimizda avvallari kuzatilmagan *hotel, hostel, turistik agentlik, gilam yuvish korxonalari* nomlari bilan bog‘liq yangi ergonimlar paydo bo‘ldi. Ularning yasalishida ham rang-baranglik mavjud. Tahlilga tortilgan 29 ta mehmonxona nomlaridan 6 tasi (21%) ichki imkoniyat asosida yasalgan: a) sodda asosli ergonimlar 5 ta (83,4 %); b) qo‘shma asosdagi ergonimlar 1 ta (16,6 %).

Andijondagi 43 ta turistik agentligi nomini ifodalovchi ergonimlardan faqat 2 tasi ichki imkoniyat asosida hosil qilingan (4,6 %). Gilam yuvish korxonalari nomlarini anglatuvchi ergonimdan 14 ta ergonimning 7 tasi ichki imkoniyat asosida yasalgan (50 %).

Xulosa qilib aytganimizda, ichki imkoniyat asosida hosil qilingan ergonimlar onomastik qatlamning eng yorqin, eng rangin qatlamini tashkil qiladi. Ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish yurtdoshlarimizning bugungi turmush tarzi, tafakkur ko‘lami, dunyoqarashi, madaniyati, ma’naviyati, milliy qadriyatlarga bo‘lgan sadoqati va shu kabi fazilatlari haqida tasavvur qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saparniyozova M. O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2023.47-b.
2. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.42-б.
3. Ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч жилдлик.3-жилд. Лексика. – Тошкент: Фан, 1991.128-б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик.3-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2007. 174-б.
5. Хоанг Тхи Хонг Чанг. Ресторанный нейминг: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Томск, 2018.16 с.

Gulnoza ABDURAHIMOVA,
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi
Gabdurahimova04@gmail.com



O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA SINONIMLAR LUG‘ATIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida sinonimlardan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Sinonimlarning o‘quvchilar nutqini boyitish, so‘z tanlash malakasini rivojlantirish hamda leksik kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ona tili darslarida sinonimlar bilan ishlashning samarali usullari, mashq va topshiriqlar tizimi tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: *sinonim, leksik boylik, nutq rivoji, metodika, o‘zbek tilini o‘qitish, leksik kompetensiya*

Аннотация: в статье рассматриваются методические основы использования синонимов в процессе обучения узбекскому языку. Анализируется роль синонимов в обогащении словарного запаса учащихся, развитии культуры речи и формировании лексической компетенции. Также предлагаются эффективные методы, упражнения и задания по работе с синонимами на уроках родного языка.

Ключевые слова: *синонимы, словарный запас, развитие речи, методика обучения, узбекский язык, лексическая компетенция*

Annotation: this article discusses the methodological principles of using synonyms in teaching the Uzbek language. It analyzes the importance of synonyms in enriching students' vocabulary, developing speech skills, and forming lexical competence. In addition, effective methods, exercises, and tasks for working with synonyms in native language classes are proposed.

Key words: *synonyms, vocabulary enrichment, speech development, teaching methodology, Uzbek language, lexical.*

Kirish. Zamonaviy til ta’limida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda til birliklarini, xususan, leksik qatlamni metodik jihatdan to‘g‘ri o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilini o‘qitishda sinonimlar bilan ishlash o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, so‘z boyligini kengaytirish hamda fikrni uslubiy jihatdan to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois sinonimlarni o‘qitish masalasi metodika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Sinonimlar o‘zaro yaqin ma’noli bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish doirasi, uslubiy rangi va nutqiy vazifasi jihatidan farqlanadi. Ushbu farqlarni o‘quvchilarga faqat nazariy ta’riflar orqali emas, balki maxsus metodik yondashuvlar asosida anglatish ta’lim samaradorligini oshiradi. Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan mashqlar tizimi o‘quvchilarda sinonimik tafakkurni shakllantiradi, so‘z tanlash madaniyatini rivojlantiradi hamda nutqiy xatolarning oldini olishga yordam beradi.

Amaldagi ona tili darslarida sinonimlarni o‘rgatish ko‘pincha izoh berish va misollar keltirish bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa o‘quvchilarning sinonimlardan mustaqil va ongli foydalanish ko‘nikmasini yetarli darajada shakllantirmaydi. Shu nuqtayi nazardan, sinonimlarni o‘qitishda interfaol metodlar, kontekstual tahlil, muammoli topshiriqlar va kommunikativ mashqlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Bunday metodik yondashuvlar o‘quvchini dars jarayonining faol subyektiga aylantirib, til birliklarini real nutqiy vaziyatda qo‘llashga yo‘naltiradi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ona tili darslarida sinonimlar lug‘ati imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayapti, mazkur lug‘atlar ko‘proq ma’lumot manbai sifatida qo‘llanib, ularning metodik salohiyati to‘liq ochilmay qolmoqda. Natijada o‘quvchilarda sinonimlarni kontekstga mos holda tanlash, ularning ma’no nozikliklarini anglash va nutqda faol qo‘llash ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmaydi. Ushbu holat sinonimlar lug‘ati bilan ishlashning samarali metodik tizimini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning yangiligi shundan iboratki, unda sinonimlar lug‘atidan foydalanish o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida mustaqil metodik vosita sifatida yondashilib, lug‘at bilan ishlashning an’anaviy usullari zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qayta talqin qilinadi. Shuningdek, sinonimlar lug‘ati asosida o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan

mashq va topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi hamda ularning dars jarayonidagi samaradorligi asoslab beriladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek tilini o‘qitishda sinonimlar lug‘atidan foydalanishning metodik asoslarini yoritish va uni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish yo‘llarini aniqlashdan iboratdir

Mazkur tadqiqotda o‘zbek tilini o‘qitishda sinonimlardan foydalanish metodikasi tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sinonimlarni o‘qitishda samarali metod va usullarni aniqlash, ularni dars jarayoniga moslashtirish hamda o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari umumta’lim maktablari va akademik litseylar ona tili darslarida sinonimlarni o‘rgatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Sinonimlar tilning lug‘aviy boyligini tashkil etuvchi muhim birliklardan biri bo‘lib, bir xil yoki yaqin ma’noni ifodalovchi, ammo shaklan turlicha bo‘lgan so‘zlar majmuasini anglatadi. O‘zbek tilida sinonimlar nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligi va uslubiy rang-barangligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sinonimik qatlam tilning rivojlanish jarayonida shakllanib, tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq holda boyib boradi.

O‘zbek tilidagi sinonimlar asosan, adabiy til, sheva va lahjalar, shuningdek, boshqa tillardan kirib kelgan leksik birliklar hisobiga kengayib boradi. Bu holat tilning kommunikativ imkoniyatlarini oshirib, bir tushunchani turli nutq vaziyatlarida mos va o‘rinli ifodalash imkonini yaratadi.

Sinonimlardan foydalanish jarayonida ularning ma’no nozikliklari, uslubiy bo‘yoqlari va qo‘llanish doirasi alohida e’tiborga olinishi lozim. Har bir sinonimik qator tarkibidagi so‘zlar ma’no jihatidan yaqin bo‘lsa-da, ularning nutqdagi vazifasi bir xil emas. Masalan, ayrim sinonimlar kitobiy uslubga xos bo‘lsa, boshqalari so‘zlashuv nutqida yoki badiiy matnda faol qo‘llaniladi.

Uslubiy jihatdan to‘g‘ri tanlangan sinonim matnning badiiy-estetik qiymatini oshiradi, fikrni aniqlashtiradi va takrorlarning oldini oladi. Shu sababli sinonimlardan ongli va maqsadli foydalanish nutq madaniyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek tilini o‘qitish jarayonida sinonimlardan foydalanish o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish va til sezgirligini kuchaytirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Dars jarayonida sinonimik mashqlar, matn ustida ishlash, sinonimlar asosida gap tuzish kabi metodlar orqali o‘quvchilarning faol fikrlash qobiliyati shakllantiriladi. Sinonimlar lug‘ati bilan ishlash o‘quvchilarda mustaqil izlanish, so‘z ma’nolarini taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta’min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma’nodoshlik — sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko‘lamdorligidir. O‘zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so‘z gavharlari zaxirasiga sohib tildir [2:3].

Sinonimiya, xususan, leksik sinonimiya hodisasi dunyo tilshunosligi tarixida juda keng o‘rganilgan semantik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Bu hodisaga bag‘ishlangan tadqiqotlar minglab bo‘lib, ularning maqsadi — sinonimlarni nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning semantik va uslubiy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, amaliy qo‘llanishini o‘rganishdir. Shu yo‘nalishda turli davrlarda yuzlab sinonimik lug‘atlar yaratilib, ular paradigmatik munosabatlar asosida uyushgan birliklarni tizimli ravishda ta’riflash, tavsiflash va amaliy foydalanishga taqdim etish vazifasini bajaradi.

Masalan, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida rus leksikografiyasida nashr etilgan va 3200 ga yaqin turli tipdagi lug‘atlar tahlil qilingan monografiyada, rus tilidagi 50 ga yaqin sinonimik lug‘atning ilmiy sharhi berilgan, ularning yutuqlari va kamchiliklari batafsil qayd etilgan. Shu bilan birga, dunyo tilshunosligida sinonimiyaning murakkab mohiyatini to‘liq ochib beruvchi yagona, hamma tomonidan qabul qilingan ilmiy qarash mavjud emas.

Turli olimlar sinonimlarning ta’rifini turlicha tushuntiradi. Masalan, N.V. Koroleva va Ye.V. Artamonova bir nechta mashhur rus tilshunoslarning fikrlarini tahlil qilgan holda, sinonimlarni quyidagicha ta’riflaydi: T.I. Arbekova sinonimlarni “bir yoki bir nechta lug‘aviy ma’nolari mos keluvchi lug‘aviy birliklar” deb ataydi; N.G. Golitsova esa ularni “ma’nosi bir xil, ammo talaffuzi har xil so‘zlar” deb tushuntiradi; A.M. Chepasova esa sinonimlarni “bir tushunchani ifodalaydigan, ammo semantik yoki uslubiy farqlarga ega bo‘lgan so‘zlar” sifatida ko‘rsatadi; V.I. Koduxov esa ularni “nafaqat bir predmet yo‘nalishidagi, balki ma’nosi ham yaqin bo‘lgan so‘zlar, leksik ma’noda umumiylik mavjud bo‘lgan birliklar” deb ta’riflaydi [4:192-193]. Shu tarzda, sinonimlar fenomeni semantik, uslubiy va leksik qirralari bilan murakkab tizimni tashkil qiladi.

Shu asosda aytish mumkinki, leksik sinonimiya nafaqat tilning boyligini va uning kommunikativ imkoniyatlarini oshirishda, balki matnning ifodaliligi, aniqligi va uslubiy rang-barangligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tilshunoslar orasida sinonimlarning ta’rif va tushunchalari bo‘yicha bir xilligini topish qiyinligi, bu hodisani ilmiy nuqtayi nazardan yanada chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbek tilida sinonimlar til boyligi va nutq madaniyatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq amalda ularning ma’no nozikliklari, uslubiy xususiyatlari va turli nutq vaziyatlarida samarali qo‘llanishi yetarlicha o‘rganilmagan. Ko‘plab o‘quvchilar va til o‘rganuvchilar sinonimlarni faqat lug‘at ma’nosi bilan cheklab qoldiradi, ularni nutqda ongli va maqsadli ishlatish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllanmagan. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida sinonimlardan foydalanishning samarali metodikasi yetishmaydi, bu esa nutqning ifodaliligi va ta’sirchanligini pasaytiradi.

Shuning natijasida quyidagi muammo yuzaga keladi: o‘zbek tilida sinonimlarning lingvistik va uslubiy xususiyatlari chuqur o‘rganilmagan, ular o‘quv jarayonida nutq madaniyatini rivojlantirishda qanday samarali ishlatilishi aniq belgilanmagan. Shu holat, nafaqat til o‘rganuvchilarning so‘z boyligi va nutqini rivojlantirishda, balki milliy tilimizning estetik va kommunikativ imkoniyatlarini yanada oshirishda dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotda o‘zbek tilida sinonimlardan foydalanishning *lingvistik, uslubiy va pedagogik* jihatlarini o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Lingvistik tahlil yordamida sinonimlarning leksik, semantik va uslubiy xususiyatlari aniqlandi, ularning nutqdagi roli o‘rganildi. Taqqoslash usuli orqali sinonimlar orasidagi ma’no nozikliklari va turli nutq vaziyatlarida ishlatilish xususiyatlari tahlil qilindi.

Amaliy kuzatuv va intervyu metodlari o‘quvchilarning sinonimlardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rganishga, dars jarayonidagi samaradorlikni baholashga xizmat qildi. Nazariy tahlil esa sinonimlarning til tizimidagi o‘rni va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy jihatdan izohlashga yordam berdi. Sinonimlar... nafaqat semantikasining konnotativ aspekti bo‘yicha farqlanadi, balki aniq bir hollarda ijtimoiy tomondan anglangan tarixiy jihatdan saqlangan kontekstlardagi denotativ ma’nosi bo‘yicha ham farqlanadi [4:115]. Shu tarzda, tadqiqot metodlari sinonimlardan foydalanish masalasini har tomonlama va ishonchli yoritishga imkon yaratdi.

Alohida ta’kidlamoq joizki, o‘zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasining ta’riflanishi o‘zining qamrovliligi bilan e’tiborga molik. Bu ta’rif atoqli tilshunos akademik A.Hojiyevga tegishlidir, unda sinonimiyaning bir qator benihoya nozik jihatlari o‘zining aniq-tiniq ifodasini topgan: “Sinonimlar ma’nosining bir xilligi ularning o‘zaro farqli xususiyatlarga ega bo‘lishini inkor etmaydi [1:149].

Amaldagi 10-sinf o‘quv darsligida ham bir necha sinonim so‘zlar haqida ma’lumot berilgan. Darslikda sinonimlarning leksik va uslubiy xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, o‘quvchilarga ularni matnda to‘g‘ri va o‘rinli ishlatishni o‘rgatish maqsad qilingan. Shu bilan birga, darslikda sinonimlarga oid turli topshiriqlar berilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, nutqini boyitish va fikrni aniq ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu esa ta’lim jarayonida sinonimlardan foydalanishni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlash imkonini yaratadi. Darslikdagi topshiriqlar o‘quvchilarni turli nutq vaziyatlarida sinonimlarni tanlashga va ulardan ongli foydalanishga yo‘naltiradi, shu tariqa tilning kommunikativ va estetik imkoniyatlarini yanada rivojlantiradi.

Xulosa. Tadqiqot davomida o‘zbek tilida sinonimlardan foydalanishning leksik, semantik va uslubiy jihatlari o‘rganildi hamda ularning ta’lim jarayonida qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sinonimlar tilimizning boyligini oshirish, nutqni aniqlashtirish va ifodalilikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Amaldagi o‘quv darsliklarida sinonimlarga oid ma’lumotlar va topshiriqlar berilgan bo‘lsa-da, ularni o‘quv jarayonida ongli va samarali ishlatish bo‘yicha tizimli metodika yetarli emasligi aniqlangan.

Shu bois, o‘qituvchilarga darslarda sinonimlarning ma’no nozikliklari va uslubiy xususiyatlarini tushuntirish, mashqlar orqali ularni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, turli nutq vaziyatlarida sinonimlardan foydalangan holda topshiriqlar berish tavsiya etiladi.

Kelajakdagi tadqiqotlar o‘zbek tilidagi sinonimlarning badiiy va ilmiy matnlardagi funksiyasini yanada chuqur tahlil qilish, o‘quvchilarning foydalanish ko‘nikmalarini baholash va tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishida davom ettirilishi mumkin.

Shu bilan, o‘zbek tilida sinonimlardan samarali foydalanish nafaqat tilshunoslik, balki ta’lim va nutq madaniyatini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham dolzarb masala ekanligi tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Daniyarov B. O‘zbek tili leksik sinonimlarining lisoniy va nutqiy munosabati, leksikografik tadqiqi. – Toshkent: OOO “Sano-Standart”, 2019.

2.N.Mahmudov, D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganova, Y.Odilov, M.Yo‘ldoshev, D.Andaniyazova, F.Musayeva. O‘zbek tili sinonimlarinig o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2021.

3.Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.

4.Shoabdurahmonov Sh., Askarova M., Hojiev A. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.



Malohatxon SODIQOVA,
University of Business and Science ingliz tili o‘qituvchisi.

BADIIY ASARLARDA QORA RANGNING: SIMVOLIK VA MA’NO QATLAMLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada qora rangning ramziy va semantik xususiyatlari o‘zbek va ingliz adabiyoti misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Qora rang inson tafakkurida qadim davrlardan buyon ko‘p qirrali va qarama-qarshi ma’nolarni ifodalab kelgan ranglardan biridir. Tadqiqot davomida qora rangning ijobiy ramziy talqinlari kuch-qudrat, hokimiyat, yoshlik va go‘zallik timsollari hamda salbiy ma’nolari zulmat, motam, ruhiy iztirob va ijtimoiy bosim bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. O‘zbek va ingliz adabiyotining yetuk namoyandalari asarlari misolida qora rangning madaniy va semantik o‘xshashliklari hamda farqlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari qora rangning salbiy ramziy ma’nolari har ikki madaniyatda mushtarak bo‘lsa-da, ijobiy talqinlarida milliy o‘ziga xoslik mavjudligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *qora rang, ramziylik, koloronim, qiyosiy tahlil, o‘zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of the symbolic and semantic features of the color black in Uzbek and English literature. Since ancient times, black has embodied complex and often contradictory meanings in human perception. The study examines both positive symbolic interpretations of black, such as power, authority, youth, and beauty, as well as its negative associations with darkness, mourning, psychological distress, and social pressure. Through the analysis of literary works by prominent Uzbek and English writers, cultural similarities and differences in the symbolic usage of black are identified. The findings demonstrate that while negative connotations of black are largely shared across both cultures, its positive symbolic meanings reflect distinct national and cultural characteristics.

Key words: *black color, symbolism, color terminology, comparative study, Uzbek literature, English literature.*

Аннотация: в статье проводится сопоставительный анализ символических и семантических особенностей черного цвета на материале узбекской и английской литературы. Черный цвет с древнейших времен обладает сложной и противоречивой символикой в человеческом сознании. В исследовании рассматриваются положительные значения черного цвета, связанные с силой, властью, молодостью и красотой, а также его отрицательные ассоциации с мраком, трауром, психологическим напряжением и социальным давлением. На основе анализа произведений узбекских и английских авторов выявляются культурные сходства и различия в символическом использовании черного цвета. Результаты исследования подтверждают, что при наличии общих отрицательных коннотаций в обеих культурах, положительные символические значения черного цвета отличаются национальной спецификой.

Ключевые слова: *черный цвет, символика, колороним, сопоставительный анализ, узбекская литература, английская литература.*

Kirish. Qora rang inson tafakkurida eng ko‘p ma’no yuklangan ranglardan biridir. U bir vaqtning o‘zida kuch-qudrat, salobat, ….kabi ma’nolarni anglatadi. Shu bois bu rang adabiyot, san’at, madaniyat kabi turli jabhalarda o‘ziga xos o‘ringa ega.

Tarixdan ma’lumki, qadimgi davrlarda insonlar o‘zini qurshab turgan olamni tushunishga intilgani va sekin-astalik bilan ichki kechinmalari hamda anglashlarini aks ettirishga ehtiyoj sezgan. Ular tosh va ko‘mir vositasida g‘or devorlariga turli shakldagi rasmlarni chizishgan. Janubiy Afrikaning paleolit davriga oid bo‘lgan g‘or devorlaridagi qadimiy tasvirlar buning yorqin namunasidir. Bundan ma’lum bo‘ladiki, qora rang odamlar tomonidan dastlab ishlatila boshlangan ranglardan biri bo‘lgan. Vaqtlar o‘tishi bilan qora rang diniy qarashlar, tarixiy o‘zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy hayot va tabiat hodisalari sabab turli ramziy ma’nolarga ham ega bo‘la boshlagan. U bir tomondan zafar, qudrat va nafislik, boshqa tomondan esa motam, o‘lim va sirli zulmat bilan bog‘lanadi. Bu qarama-qarshilik qora rangni turli sohalarda ko‘p o‘rganilgan mavzulardan biriga aylantirgan. Qora rang ko‘pincha nurning yo‘qolishi sifatida tasvirlangan bo‘lsa ham, u murakkab, ko‘p qirrali ma’nolarga ega ramziy konstruksiya sifatida ham ko‘riladi. Qora rangning ramziy ma’nosi turli davrlar va madaniyatlarda har xil talqin qilingan.

O‘zbek va ingliz tilida yaratilgan adabiy asarlarni tahlilga tortar ekanmiz, qora rang har ikki millat madaniyatida umumiy mushtaraklik va o‘ziga xosliklarga ega ekanligi anglashiladi. Qora rang inson madaniyati va tafakkurida juda chuqur ramziy ma’nolarga ega. Mashhur fransuz madaniyatshunosi Mishel Pastureuning “Black: The History of a Color” asarida qora rangning asrlar osha ko‘p qirrali, qarama-qarshi g‘oyalar ifodalashi ta’kidlangan. U

hokimiyat va kamtarlik, hashamat va zulmat kabi qarama-qarshi tushunchalar bilan bog‘langan. Masalan, *“From the fourteenth century onward, black became the color of princes, magistrates, and the wealthy elites.”* (XIV asrlardan keyin qora rang shahzodalar, magistrlar va boy qatlam vakillari ramziga aylangan.) Muallifning taqdiqotiga ko‘ra, qora rang XIV-XV asrlarda yuqori qatlam toifasiga kiruvchi kishilarning ramziga aylangan.

Aynan mazkur holatdagi ramziy ma’no o‘zbek adabiyotida ham mavjud. O‘n beshinchi asr mumtoz adabiyotimizning shoh namunasi bo‘lmish “Xazoyin ul-maoniy” devoni tarkibidagi g‘azallarda jami **544 o‘rinda qora** so‘zi ishlatilgan[1]. Kulliyotdan o‘rin olgan g‘azallarning barchasida ushbu rang ijobiy ma’noni ifodalamaydi. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Xoqon farzandli bo‘lgan kun mamlakatidagi barcha devorlarni qora rangli ipak matolar bilan bezashni buyuradi. Ma’lum bo‘ladiki, Navoiy yashagan davrda ham qora rang buyuklik, ulug‘lik ramzi hisoblangan.

Navoiy o‘z asarlarida qora rangni yoshlik, navqironlik ma’nosida ham qo‘llagan:

Qora rang elga toji torakdur
Kim bu rang ichradur, muborakdur[2].

Bu bayt qora rangning Navoiy davrida kuch-quvvat ramzi bo‘lganing isbotidir. Kim bu qudratda va sharafda bo‘lsa, unga bu muborak bo‘lsin deb yozgan shoir.

Ko‘pgina baytlarda sochning va yoki yorning qosh-ko‘zi qoraligi – navqironlik va kuchga to‘lganlik va go‘zallik ma’nosini ifodalashi ham sir emas.

Sharq xalqlarida ranglarning inson salomatligiga bog‘liq holda tasvirlanganini kuzatishimiz mumkin. Qomusiy olim Ibn Sinoning o‘z she’rlarida quyidagilarni bitadi:

Qora, yashil rangdan ko‘zga bor manfaat,
Shu ranglardan basirating topgay quvvat.
Oq-u sariq ranglar haddan oshsa agar,
Bundan sening ko‘zlaringga yetgay zarar.

Baytlardan anglashiladiki, qora va yashil rang manfaatli, ko‘zga quvvat beruvchi, ularni nurlantiruvchi xususiyatlarga ega. Ko‘zlar zarariga ishlaydigan ranglar – oq va sariqdir.

Qora rang leksemasi bir o‘rinda o‘zbek adabiyotida ijobiy ramziy ma’noda qo‘llangan bo‘lsa, yoshlik – “qaro soch” so‘z birikmasi tarzida, yor go‘zalligi-

“qaro ko‘zing, qaro qoshing” kabi ifoda etilgan bo‘lsa, bu kabi o‘xshashlik ingliz adabiyotlarida mavjud emas. Lekin o‘zbek, ingliz va amerika badiiy asarlarida qora rangning kuch-quvvat va hokimyat ramzi sifatida qo‘llanilgan o‘rinlar bor. Masalan, Uilyam Shekspirning “Henry IV, Part 2” qismidan olingan quyidagi parcha buning yorqin dalilidir:

“And black-brow’d night o‘ershade thy day.” (qora-jigarrang – bu yerda muallif tim qoraga ishora qilgan.Tim qora tun kuningni soyada qoldirdi “ black-brow’d night” bu yerda qora tun – siyosiy hukumronlik va hokimiyat ramzidir. Bunga o‘xshash holatni biz Alisher Navoiy asarlari misolida ham ko‘rib chiqdik.Mashhur simvolik olim Pastureu qora rangni o‘rta asrlarda ham ruhoniylik, ham temir yolg‘izlik ramzi sifatida tasvirlab, uning madaniy evolyutsiyasini tahlil qiladi. Qora rang Yevropa tarixida ham motam va yovuzlik, ham nufuz va obro‘ ramzi bo‘lib kelgan. Masalan, qora liboslar sudyalar, ruhoniylar va zodagonlar tomonidan jiddiylik belgisi sifatida tanlangan. Yuqoridagi qora rangning ijobiy sifatlari tahlil etildi.

Biroq, qora rang – tun, qorong‘ulik bilan bog‘liq bo‘lgani bois ko‘p o‘rinlarda Sharq va G‘arb adabiyotlarida u salbiy simvol sifatida qo‘llaniladi. Amerika va Angliya adabiyoti namunalariga ko‘z yuritadigan bo‘lsak, Nataniel Xotornning- “The Scarlet Letter” tarixiy romanida qora rang soya va ruhiy bosim holatini aks ettirish uchun ishlatilgan. “The black shadow of the forest lay upon Hester’s face. (O‘rmonning qora soyasi Hesterning yuzini egalladi. Qora soya – bu yerda ruhiy zo‘riqish va jamiyat bosimining ramzi bo‘lib kelgan.

Uilyam Shekspirning “Otello” tragediyasida “Even now, now, very now, an old black ram is tupping your white ewe.” - “Hatto hozir, ayni hozir, eski qora qo‘y sening oq qo‘ying bilan urishmoqda.” (Act I, sahna I) Bu yerda “black” so‘zi irqiy va ijtimoiy kamsitish ma’nosida ishlatilgan. Bunday o‘xshatishni bizning tarixiy manbalarimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Qadimgi turkiy xaqlar jamiyatdagi oddiy, kambag‘al qatlamga nisbatan “qora budun” terminini ishlatgani buning yorqin dalilidir.

Emily Brontening “Wuthering Heights” tragediyasida “A darkness fell around me.” – atrofimni qorong‘ulik chulg‘adi. Bu yerda qorong‘ulik: iztirob yolg‘izlik ruhiy beqarorlik ma’nosini beradi. Qora rang bu jumlada bevosita aytilmasa ham, qorong‘ulik so‘zining asosi qora so‘zidan kelib chiqqani bois qora rangning salbiy ma’noda kelgani anglashiladi.

Adabiyotda qora rangning ramziy qo‘llanilishiga yana bir misol Edgar Allan Ponning “The Black Cat” hikoyasida qora mushuk o‘lim, aybdorlik va sirli qorong‘ulikni ifodalaydi - adabiy tahlilchilar qora rangning bu hikoyadagi timsoli orqali insonning ichki zulmatini tasvirlash vositasi bo‘lishini ta’kidlaydilar.

Jorj Orvellning “1984” romanida qora rang totalitar hokimiyat va uni yo‘naltirish strukturalari orqali sirli nazorat, kuch va intizom timsoli sifatida ishlatiladi.

O‘zbek adabiyoti namunalari tahliliga yuzlanadigan bo‘lsak, qora rang qorong‘u muhit tasvirlarining ramziy ma’nosida ko‘p uchraydi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanda tarixiy fojia va “eng kir, qora kunlar” atamasi tarzida ko‘p takrorlanadi – bu qayg‘u va zulmatli davrni ifodalaydi. Adabiyotshunoslar yozishicha, adib shunday davrni tasvirlashda “tariximizning eng kir, qora kunlari...” deb ataydi, bu yurtning eng og‘ir sinovlarini ramziy ma’nosini ifoda qiladi. Qora yoki qorong‘u – erksizlik va millatning ezilgan ruhiy holatini bildiradi. Yana bir misol

1 Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т., 2007. 11-б.

2 Alisher Navoiy. Mukammal asrlar to‘plami. Yigirma jildlik. 10-jild. Toshkent, 1992. 176-bet.

Usmon Nosir she’riyatidan olingan quyidagi jumlada ham qora rangning salbiy ma’nosini ko‘rishimiz mumkin. “Qora tunlar bag‘rida o‘tdi yoshligim…” Qora tun – qamoq, zulm va yo‘qotilgan erkinlik ramzi sifatida keltiriladi.

Bugungi asrimizga kelib ham qora rangning turli metaforik mazmunda ishlatilishini o‘zbek va ingliz adabiyotlarida va odamlarning oddiy muloqot jaroyonida uchratishimiz mumkin. Jumladan, “black market” – “qora bozor” birikmasi ikki madaniyat vakillari uchun ham tushunarli. Bu jumla noqonuniy oldi-sotdi qilinadigan joy yoki shu jarayonning o‘zini nazarda tutadi. Ayrim hollarda ikki tilda mavjud bir xil leksik birliklar turli ma’nolarni ifoda etishi ham mumkin. Buning yorqin misolini “blacklist” – “qora ro‘yxat” birligida ko‘rib chiqamiz. Ingliz tilida bu so‘z tuzilish jihatida qo‘shma ot so‘z turkumi hisoblanib sifat+ot tarzida tarkib topgan. G‘arb madaniyatida bu jumla norozilik va qarshilik ma’nosining simvoli sifatida keladi. Bizning xalqimizda esa “qora ro‘yxat” qonun himoyachilari tili bilan aytilganda jinoyatchilar ism-shariflar qaydnomasini, savdogarlar uchun qarzdorlarning ro‘yxatini va shunga o‘xshash ramziy ma’nolarni anglatadigan so‘z birikmasidir. Lekin mushtarakligi shundaki, salbiy semantiklik bularning har birida mavjuddir. Quyidagi iboraga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak, yana bir bor qora rang bilan bog‘liq barqaror birikmalarning ko‘proq manfiy semantik yuklama anglatish uchun ishlatiganini guvohi bo‘lamiz. “Black someone’s name/image/reputation”- (to make somebody have a bad reputation**) –** kimningdir nomini qaro qilish. Bu fraza aynan tarjima va kannotativ mazmun jihatida har ikki til vakillari uchun bir xil tarzda tushuniladi. “Ko‘pchilik uni hurmat bilan eslab o‘tirardi, biroq shubhali ayblovchi mishmishlar tarqala boshlagach, ayrimlar uning sharafiga dog‘ solishga urinib, obro‘sini tushirishga harakat qildi. Ular har bir kichik xatoni katta gunohdek ko‘rsatib, deyarli nomini qora qilmoqchi bo‘lishardi.”

Qora rang bilan bog‘liq bo‘lgan insonning jismoniy holatini tasvirlovchi ayrim leksemalar tahliliga nazar tashlasak, yana bir bor semantik yaqinlik yoki bir til ichida omonimlik hodisalariga guvoh bo‘lamiz. Masalan, “blackout” ingliz tilida ma’nodosh so‘z bo‘lib, 1) ma’lum vaqtdan xushdan ayrilish; 2) elektr ta’minoti uzilganligi; 3) axborotni yashirish: 4) xizmat ko‘rsatilmayotgan vaqt kabilarni ifoda etadi. “Blakout”ning qaysi mazmuni anglatayotganini u kelgan konteksdan kelib chiqib aniqlaymiz. Har bir blackoutning konnotatsiyasini misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

1. Powerlines were blown down and we had a blackout of several hour (elektr simlari quladi va bizda bir necha soat tok uzlishi bo‘ldi)

2. The government imposed a news blackout (Hukumat yangiliklarni yoritishga ta’qiq joriy qildi)

3. He suffered from Parkinson’s disease and occasionally experienced blackouts (U Parkinson kasalligidan azob chekkan va tez-tez xushdan ketish holatlarini boshdan kechirgan)

4. Pay-per-view returned after a three-year blackout. (Pay-per-view” xizmatining uch yillik to‘xtatib turish (uzilish)dan keyin yana ishga tushdi.)

O‘zbek tilida bu birikmaning uchinchi ma’nosi – ko‘z oldining qorong‘ulashishi tarzida qo‘llaniladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, qora rangning turli ramziy ma’nolari mavjud, bu simvolik xususiyatlar asrlar osha turli siyosiy, madaniy, iqtisodiy o‘zgarishlar sabab shakillangan. O‘zbek va ingliz adabiyotlarda bu koloronimning salbiy ramziy ma’noda qo‘llanilishi umumiy o‘xshashlikni tashkil etsada, ijobiy simvolik so‘z sifatida qo‘llanilishida umumiy mushtaraklik kam uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘tanova S. Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simbolikasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2007, 11-bet.
2.Alisher Navoiy. Mukammal asrlar to‘plami. Yigirma jildlik. 10-jild. Toshkent, 1992. 176-bet.
3. Qodiriy, A. O‘tgan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.
4. Cho‘lpon She’rlar va dramalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
5. Nosir, U.She’rlar. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti,1988.
6. Oripov, A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2000.
7. Karimov, N. (2001). XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
8. Pastoureau, M. (2008). Black: The History of a Color. Princeton University Press.
9. Poe, E. A. (1843). The Black Cat.10.
10. Berlin, B., & Kay, P. (1969). Basic Color Terms: Their Universality and Evolution. University of California Press.
11. Poe, Edgar Allan. The Raven and Other Poems. Penguin Classics, 2003, p. 55.
12. Hawthorne, Nathaniel. The Scarlet Letter. Oxford World’s Classics, 2008, p.142.
13. Shakespeare, William. Othello. Arden Shakespeare, 2016, p. 117.
1. Brontë, Emily. Wuthering Heights. Penguin Classics, 2003, p. 161.



Yulduzxon SAFARBOYEVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti
Elektron pochta manzili: yulduzsafarboyeva43@gmail.com

Zulfiya ESEMURADOVA,
Nukus 1-sonli texnologiyalar texnikumi
o‘zbek tili o‘qituvchisi



“HOZIRGI O‘ZBEK TILIDAGI ZOONIM FRAZEMALAR: BADIIY, PUBLITSISTIK VA OG‘ZAKI NUTQDAGI FUNKSIYASI”

Annotatsiya: zoonim frazemalar hozirgi o‘zbek tilida keng qo‘llanadi. Badiiy nutqda ular obrazlilik va estetik ta’sirni kuchaytiradi. Publitsistik matnlarda o‘quvchiga tez ta’sir etuvchi emotsional vosita sifatida xizmat qiladi. Og‘zaki nutqda xalqona hazil va kinoya yaratadi. Ular milliy obraz va qadriyatlarni ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *zoonim frazemalar, stilistik funksiyalar, emotsional-ekspressivlik, adabiy til, publitsistika, og‘zaki nutq*

Аннотация: зоонимные фразеологизмы широко используются в современном узбекском языке. В художественной речи они усиливают образность и эстетическое воздействие. В публицистике они служат эмоционально-экспрессивным средством воздействия на читателя. В устной речи они создают народный юмор и иронию. Эти единицы отражают национальные ценности и культурные образы.

Ключевые слова: *зоонимные фразеологизмы, стилистические функции, эмоционально-экспрессивность, литературный язык, публицистика, устная речь*

Annotation: zoonym phraseologisms are widely used in modern Uzbek. In literary texts, they enhance imagery and aesthetic effect. In journalism, they function as emotional-expressive tools that quickly influence readers. In oral speech, they convey folk humor and irony. They also reflect national values and cultural identity.

Key words: *zoonym phraseologisms, stylistic functions, emotional-expressiveness, literary language, journalism, oral speech*

Kirish. Tilshunoslikning eng yosh va eng qiziqarli bo‘limi frazeologik birliklardir. Hozirgi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari bilan bir qatorda uslubiy imkoniyatlarini o‘rganish muhim jihatlardan biridir. Bu jihatlar esa frazeologiyaning stilistika bo‘limida o‘rganiladi. Stilistika sohasining kirib kelishi 60-yillardan butun dunyoga atama sifatida kirib keldi. Bu sohaning dunyoga kelishida A.V.Kunin va V.L.Arxangelskin asarlarida qo‘llanilgani aniqlangan. (991,13;92;16,135). Bundan esa boshqa tadqiqotchilar amaliy ko‘nikma sifatida foydalandilar. (97;98;100) Frazemalarning uslubiy xusiyatlari bu — frazemalarning obyekti hisoblanadi. (94,71-75:148,44-49). Frazemalarning stilistik jihatdan o‘rganilishi ko‘pgina olimlarni qiziqtirib qo‘ydi. Chunki frazemalar xalq tilidan aytilgani uchun har bir hudud bo‘yicha o‘rganilgan vaqtida xalq orasidan chiqqan frazemalarni terib adabiy tilda yozilib, o‘rganilib, boshqa dialektlar bilan ham ularning nutqda va sof adabiy tilda o‘zgarishlariga guvoh bo‘ldik. Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi ham shu, ya’ni zoonim komponentli frazeologik birliklarning nutqda va adabiy tilda o‘zgarishlarini, ularning mazmuni saqlanadi, lekin boshqa so‘zlar leksik birliklar qo‘shilishi natijasida o‘zgarayotgan frazemalarni uchratyapmiz. Frazemalarning uslubiy qatlamlarini ularning emotsional-ekspressiv jihatlarini uzual (*Uzual — til tizimida odatdagi, umumiy qabul qilingan shakl va ma’noda qo‘llanadigan birlik*) Masalan: *“quyon yurak”* (qo‘rqoq odam) — bu ibora uzual, ya’ni

umumiy qabul qilingan frazeologizm va okkazional *(muallif tomonidan yaratilgan, individual qo‘llanilgan va odatiy shakldan chetga chiqqan birlik) masalan: “itdek ishlamoq” iborasi “itdek ishlamoq emas, balki itdek kurashmoq” shaklida qo‘llanib, muallifning ijodiy maqsadiga xizmat qiladi.* Bu funksiyalarini va nutqda ijobiy foydalanish adabiy til normalari va nutq madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni tadqiq etish bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu muammolarning javobini topishda badiiy asarlarga e’tiborimizni qaratganmiz. Shuni ta’kidlash lozimki, bu mavzu bo‘yicha I.Qo‘chqortoyev, E.A.Umarov, Abdumurov, Mamatov, O.Abdunazarov, X.Qahhorova, Abdug‘ofur Mamatov kabi olimlar o‘z tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jahon tilshunosligida ham mezonlar bo‘yicha aniq bir yechimga kelishmagan. Va bu soha hozirgi kunda yetarlicha o‘rganilmagan. Hozircha lug‘atlarda frazemalarning uslubiy havolalar qo‘yishning yagona bir qolipi ishlab chiqilmagan. Zoonim komponentli frazemalarning uslubiy tavsiflash mezonlar ham aniqlanmagan. Chet el olimlaridan biri Roizon frazemalarning uslubiy sohasiga shunday deb ta’rif bergan: “Zoonim komponentli frazemalarni uslubiy jihatdan tavsiflash, leksemalarni uslubiy tavsiflashga nisbatan ancha qiyinroq. Bu sohada esa aniq mezon chet elda ham ishlab chiqilmagan degan fikrlari bugungi kunda ham o‘z kuchiga ega. (126, 254).

Asosiy qism. Tadqiqot ishimizda frazemalarning stilistik jihatini o‘rganib chiqishimiz uchun o‘zimizga quyidagi mezonlarni kiritdik: zamonaviy tilshunoslikda **frazeologizmlarni uslubiy tavsiflash** uchun quyidagi mezonlar qo‘llanilishi mumkin: **stilistik funksiyasi** (badiiy, publitsistik, og‘zaki nutq).

Emotsional-ekspressivlik darajasi.

Qo‘llanish sohasi (adabiy til, sheva, jargon).

Lingvomadaniy konnotatsiya (milliy obraz va qadriyatlarni ifodalash).

Stilistik jihatdan tahlil qilib ko‘rganimizda badiiy nutqda zoonim frazemalar obrazlilik yaratadi, personifikatsiya va metafora vositasi sifatida qo‘llanadi. Personifikatsiya — **frazeologiya va stilistika**da muhim vosita bo‘lib, matnga obrazlilik, jonlilik va hissiy ta’sir qo‘shadi. U orqali til yanada ta’sirchan va estetik bo‘lib, o‘quvchi tasavvurini kengaytiradi.[1] Masalan, *Ularga ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar, garang,* ***qayoqqa yetaklasa ketaveradigan qo‘ylar, manqurtlar kerak…”*** (11-bet) *Komil Sindarov Kechikkan qasos”,* **Personifikatsiya va zoosemiotik obraz (xulq-atvor)**.Hayvon obrazi (qo‘y) orqali insoniy sifatlar berilgan. Bu **personifikatsiya**ning bir ko‘rinishi bo‘lib, hayvon obrazida odamlarning ijtimoiy holati tasvirlanadi. **Stilistik funksiyasi:** badiiy nutq orqali obrazlilikni kuchaytiradi, ijtimoiy tanqidni ifodalaydi**:** ushbu jumlada metafora, personifikatsiya va lingvomadaniy obrazlar uyg‘unlashgan. *Qo‘y* va *manqurt o*brazlari orqali muallif jamiyatdagi itoatkor, mustaqil fikrlashdan mahrum insonlarni tanqid qiladi. Bu stilistik vositalar matnga kuchli emotsional-ekspressiv ta’sir beradi va o‘quvchini ijtimoiy muammolar haqida o‘ylashga majbur qiladi. **(O‘tkir Hoshimov, *Ikki eshik orasi*)***“Otimizga or, itimizga nomus — O‘zimizning xo‘jalikning boshlig‘iga uy topib bermasak, otimizga or, itimizga nomus! Qani, o‘rtoq Xajayinga kim bitta uyini bo‘shatib beradi? Doimgamas, vaqtincha.”* **Zoosemiotik obraz**: hayvon nomlari (ot, it) milliy madaniyatda ramziy ma’noga ega bo‘lib, bu yerda ijtimoiy vaziyatni tasvirlash uchun ishlatilgan. Ular badiiy adabiyotda estetik ta’sirni kuchaytiradi, publitsistik matnlarda ijtimoiy fikrni jonlantiradi, og‘zaki nutqda esa xalqona samimiylikni ta’minlaydi. Zoonim frazemalar orqali til birliklarining stilistik funksiyasi yanada yorqin namoyon bo‘ladi: ular hissiy bo‘yoqdorlik darajasi, qo‘llanish sohasi va lingvomadaniy konnotatsiyasi bilan ajralib turadi. Shu bois hayvon nomlari asosidagi frazemalarni stilistik jihatdan o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki xalqning madaniy merosini anglash uchun ham muhimdir.

Xulosa. Ma’lumki, insonlarning o‘xshatish va qiyoslashga asoslangan obrazli fikrlash jarayonining vujudga kelishi badiiy tafakkurning o‘sishi, izchil rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mushohadalar avlodlar va ajdodlarning tabiat va koinotni bilishga, bunda mavjud sirlarni yechishga intilishlari, biroq izohlashdagi ojizliklar tufayli ularni sirli va ilohiy kuch sifatida baholashi, shuningdek, mifik obraz sifatida tasavvur etish hollari natijasida vujudga kelgan. Xususan, ibtidoiy dunyoqarash va diniy e’tiqodga bog‘liq holda hayvonot, nabotot va koinotdagi mavjud narsalar, jonzotlarga totemistik munosabatlar natijasida *sher, arslon, yo‘lbars, qoplon, burgut, lochin, qirg‘iylar mard, jasur, botir, dovyurak* kishilarga; *qarg‘a, quzg‘unlar qonxo‘r, toshyurak kishilarga; tovus, bulbullar* go‘zal, chiroyli

1 “Personifikatsiya badiiy nutqda obrazlilikni kuchaytiruvchi vosita sifatida ko‘plab o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan tadqiq etilgan (G. Xalliyeva, 2017; Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova, 2020).”

xulqli kishilarga; gul, g‘uncha va oy, yulduz, quyosh singarilarini go‘zal va suluv qizlarga; yantoq, saksovul kabilar xunuk kishilarga nisbatan tashbeh etilgan va bu holat og‘zaki va badiiy ijodda keng tarqalgan eng qadimgi tasavvurlar mahsulidir. Bularning barchasi insoniyat o‘zini tabiatning sehrli olami bilan yoki aksincha, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni insoniyatning xulq-atvori, ichki dunyosi bilan bog‘lashi, ya’ni, qiyoslashi, o‘xshatishi, sifatlashi kabilar bilan bog‘liq. Ular tilimizdagi ko‘plab badiiy ifoda vositalarning vujudga kelishida asos bo‘lgan.

Tarkibida zoonim komponentli frazeologik birliklarning rivojlanishi inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlariga borib taqaladi. Mazkur munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular turfa shakllarda namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, sport, hayvonlar bilan bog‘liq. Tarixiy, geografik va ijtimoiy omillar ta’sirida rivojlanayotgan “inson - hayvonot dunyosi” munosabati o‘z navbatida tilga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ta’kidlash kerakki, tilning so‘z boyligi qator guruhlarning ichida faqat antroponimlar va zoonimlargina jonli mavjudotni ifodalashga xizmat qiladi.

Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat” asari asosida olingan misollarni stilistik tahlil qilamiz: “Bor, bolam, **toychog‘im,** xayr. Qo‘y ortidan yuraverma, o‘qigin...” Uzoq yillar davomida o‘qituvchilik va rahbarlik lavozimlarida ishlagan bu odamning qonida ota-bobodan o‘tgan bir biyronlik bor edi. Shu bois u haqiqatan ham ***bulbul misol so‘zlaydigan***, gapga usta odamga aylangan. O‘tirganlar esa Muhammadjon akaning ustamonligi, pixini yoradigan mug‘ombirligi, ***qari tulkidek ayyorligi*** oldida tan berishardi. “***Arslonning o‘ligi ham arslon”,*** deganlaridek, taxtdan tushib, obro‘si bir qadar pasaygan bo‘lsa-da, Muhammadjon aka baribir Muhammadjon aka edi. U xohlasa, eski rahbar do‘stlari va tajribasiga tayangan holda, rayonning ***“manaman” degan xo‘rozlariga*** basma-bas kelishi va ko‘pincha ularning bo‘ynini qayirib tashlashi hech kimga, jumladan, ***suvga tushgan mushukdek*** shumshayib o‘tirgan Azamjonga ham sir emasdi. Shu bois ham hammaga izza bo‘lishiga qaramay, Muhammadjon akaning bir baqirishi bilan ***xo‘rozdek cho‘zilgan bo‘ynini makiyondek ichiga tortdi.***

“Arslonning o‘ligi ham arslon” — maqoliy frazeologizm, hayvon nomi (arslon) orqali kuch, obro‘ va qo‘rquv timsoli berilgan. **“Suvga tushgan mushukdek shumshayib o‘tirgan”** — mushuk obrazi orqali ojizlik, izza bo‘lish holati ifodalangan.**“Xo‘rozdek cho‘zgan bo‘ynini makiyondek ichiga tortdi”** — xo‘roz va makiyon (tovuq) obrazlari orqali odamning holati kinoyali tasvirlangan.

“Qari tulki” — tulki obrazi orqali ayyorlik, mug‘ombirlik ifodalangan.

Qisqa javob: zoonim komponentli frazemalar va frazeologizatsiya jarayoni bo‘yicha Ulug‘bek Hamdamning badiiy asarlari (xususan, *“Muvozanat”* romani) hamda Amamatov (Mamatov/Almamatova) ning frazeologiya tadqiqotlari asosiy manbalar sifatida foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug‘bek Hamdam. *Muvozanat* (roman). – T.: Yangi asr avlodi, 2009.

2. A.Mamatov Abdug‘afur. “Frazeologik birlik tushunchasi talqini va tadqiqi.” – *Philological research: language, literature, education*, 2024.

3. Azamov Omadjon Burxonovich. “Nemis va o‘zbek tillarida zoonimik komponentli frazeologik birliklarning struktural-semantik chog‘ishtirma tahlili.” PhD dissertatsiyasi, Andijon davlat chet tillari instituti, 2023.

Muyassar QO‘SHINOVA,
Ichki ishlar vazirligining Namangan akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

MA’NO KO‘CHISH HODISASINING SEMANTIK VA KOGNITIV ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ma’no ko‘chish hodisasi semantik va kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ma’no ko‘chishning semantik xususiyatlari hamda kognitiv mexanizmlari, xususan metafora va metonimiyaning til taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *ma’no ko‘chish, semantika, kognitiv tilshunoslik, metafora, metonimiya, tafakkur, konsept.*

Аннотация: в статье явление переноса значения анализируется с семантической и когнитивной точек зрения. В исследовании рассматриваются семантические особенности переноса значения, а также его когнитивные механизмы, в частности роль метафоры и метонимии в развитии языка.

Ключевые слова: *перенос значения, семантика, когнитивная лингвистика, метафора, метонимия, мышление, концепт.*

Annotation: the article analyzes the phenomenon of meaning transfer from semantic and cognitive perspectives. The study examines the semantic characteristics of meaning transfer as well as its cognitive mechanisms, particularly the role of metaphor and metonymy in language development.

Key words: *meaning transfer, semantics, cognitive linguistics, metaphor, metonymy, thinking, concept.*

Kirish. Til doimiy rivojlanib boruvchi murakkab tizim bo‘lib, undagi ma’no o‘zgarishlari til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. So‘z va iboralarning dastlabki ma’nosidan chekinib, yangi ma’nolarni ifodalashi ma’no ko‘chish hodisasi bilan izohlanadi. Mazkur hodisa nafaqat tilning ichki qonuniyatlari, balki inson tafakkuri va bilish jarayoni bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda ma’no ko‘chish masalasi semantik va kognitiv yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda.

Ma’no ko‘chishning semantik asoslari

Semantika til birliklarining ma’nosini, ularning mazmuniy tuzilishi va nutqdagi ishlatilish imkoniyatlarini o‘rganadigan soha bo‘lib, ma’no ko‘chish hodisasi aynan semantik tizim doirasida yuzaga chiqadi va mustahkamlanadi. Ma’no ko‘chish, avvalo, so‘zning asosiy (denotativ) ma’nosi bilan ikkilamchi (ko‘chma) ma’nosi o‘rtasidagi motivatsiyalangan bog‘lanishga tayanadi. Ya’ni ko‘chma ma’no tasodifan paydo bo‘lmaydi: u asosiy ma’noning ma’lum bir komponenti, belgi-xususiyati yoki assotsiativ imkoniyati hisobiga shakllanadi. Shu jihatdan, ma’no ko‘chishni so‘zning semantik tuzilmasi ichida yuz beradigan “qayta taqsimlanish” jarayoni sifatida ham ko‘rish mumkin.

Semantik yondashuvda so‘z ma’nosi ko‘pincha ma’no komponentlari (sema) yig‘indisi sifatida tasvirlanadi. Ma’no ko‘chish jarayonida aynan shu komponentlar dinamikasi yuz beradi: ayrim semalar faollashadi, ayrimlari esa ikkinchi planga o‘tadi yoki neytrallanadi, ba’zan esa yangi semalar qo‘shiladi. Masalan, *oyoq* so‘zining “tana a’zosi” ma’nosida “tayanch”, “harakat”, “past qism” kabi semalar muhim bo‘lsa, *stol oyog‘i* birikmasida “tayanch” va “past qism” semalari saqlanib, “tana a’zosi” semasi so‘nadi; natijada “predmetning tayanch qismi” degan ikkilamchi ma’no yuzaga keladi. Bu holat ma’no ko‘chishning semantik motivatsiyasini yaqqol ko‘rsatadi.

Ma’no ko‘chishning semantik asoslari odatda o‘xshashlik, yaqinlik (aloqadorlik), qism–butun munosabati va funksional umumiylik kabi omillar bilan bog‘lanadi. O‘xshashlik asosidagi ko‘chish metaforik xarakterga ega bo‘lib, unda narsa-hodisalarning tashqi ko‘rinishi, rang, shakl, harakat, holat yoki baholoviy belgilar o‘rtasidagi umumiylik yangi ma’noni yuzaga keltiradi. Yaqinlikka asoslangan ko‘chish metonimik xususiyatga ega bo‘lib, bunda bir predmet yoki hodisa o‘rniga unga yaqin bo‘lgan boshqa unsur orqali nomlash amalga oshadi. Qism–butun munosabati ham metonimik ko‘chishning muhim ko‘rinishlaridan bo‘lib, butun narsa qismi orqali yoki qism butun orqali anglatiladi. Funksional umumiylikda esa predmetlar orasidagi vazifa o‘xshashligi yetakchi omil bo‘lib, so‘z yangi sohada ham ayni vazifani bajaruvchi obyektni nomlashga ko‘chadi.

Semantik nuqtayi nazardan ma’no ko‘chish natijasida so‘z ma’nosi kengayishi yoki torayishi mumkin. Ma’no kengayishida so‘zning qo‘llanish doirasi kengroq hodisalarni qamrab oladi, torayishda esa aksincha, ma’no doirasi aniqroq va cheklanganroq bo‘ladi. Masalan, *og‘ir* so‘zi dastlab jismoniy vaznni bildirgan bo‘lsa, keyinchalik nutqiy tajriba va kontekst ta’sirida “murakkab”, “tashvishli”, “salbiy ta’sir kuchi yuqori” kabi ma’no qatlamlari shakllangan: *og‘ir vaziyat* (murakkab sharoit), *og‘ir xabar* (ruhiy bosim beruvchi axborot), *og‘ir so‘z* (kishini ranjitadigan yoki keskin baholovchi ifoda). Bunda “vazn” semasi bevosita saqlanmagan bo‘lsa-da, uning “bosim”, “ta’sir kuchi”, “ko‘tarish qiyinligi” kabi assotsiativ komponentlari yangi ma’nolarda semantik tayanch vazifasini bajaradi.

Ma’no ko‘chishning semantik asoslarini yoritishda kontekst omilini ham alohida qayd etish zarur. Ko‘chma ma’no ko‘pincha nutqiy muhitda “ishlaydi” va aynan kontekst uni aniqlashtiradi. Bir so‘zning qaysi ma’nosi faollashishi gapning umumiy mazmuni, kommunikativ maqsad, uslub va vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ma’no ko‘chish semantik tizimning faqat lug‘aviy sathida emas, balki nutqiy amaliyotda ham shakllanib, barqarorlashib boradi. Natijada ko‘chma ma’no ommaviy qo‘llanishda mustahkamlanib, polisemiya hosil qiladi yoki ayrim hollarda yangi ma’no asosiylashib ketishi ham mumkin.

Ma’no ko‘chishning kognitiv asoslari

Kognitiv tilshunoslik til hodisalarini faqat ichki grammatik va leksik qonuniyatlar bilan cheklab talqin etmaydi, balki ularni inson ongida kechadigan bilish jarayonlari, tajriba, tasniflash va konseptual modellashtirish bilan uzviy bog‘liq holda izohlaydi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, so‘z ma’nosi lug‘aviy “tayyor” birlik sifatida emas, balki nutq jarayonida ongda faollashadigan bilimlar majmuasi, ya’ni konseptual tuzilmalar bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ma’no ko‘chish ham tilning o‘ziga xos “ichki o‘zgarishi”dan ko‘ra, insonning atrof-muhitni idrok etishi, tajribani umumlashtirishi va yangi vaziyatlarni mavjud bilish modellari asosida tushuntirishi natijasi sifatida qaraladi. Inson yangi yoki murakkab hodisani anglashda ko‘pincha allaqachon tanish bo‘lgan, sezgi orqali idrok etiladigan tajribaga tayanadi; natijada abstrakt tushunchalar konkret obrazlar yordamida konseptuallashtiriladi va bu til birliklarining ko‘chma ma’nolarida mustahkamlanadi.

Kognitiv nuqtayi nazardan ma’no ko‘chishning markaziy mexanizmlaridan biri konseptual metaforadir. Konseptual metafora oddiy badiiy bezak emas, balki bir tushuncha sohasi (manba domen) tajribasi orqali boshqa tushuncha sohasini (nishon domen) tushunish va izohlash usulidir. Masalan, “hayot — yo‘l” modeli insonning harakat, yo‘nalish, manzil, to‘siq, burilish kabi fazoviy tajribasini hayotiy jarayonlarga ko‘chiradi: “hayot yo‘li”, “yo‘ldan adashmoq”, “oldinga intilmoq”, “to‘siqlarni yengmoq” kabi ifodalar aynan shu konseptual moslikka tayanadi. Bu holatda ma’no ko‘chish tasodifiy emas, balki tizimli xususiyat kasb etadi: bir model doirasida ko‘plab ibora va konstruktsiyalar yuzaga keladi hamda ular nutqning tushunarliligi va mantiqiyligini ta’minlaydi.

Konseptual metafora bilan bir qatorda konseptual metonimiya ham ma’no ko‘chishning muhim kognitiv asoslaridan hisoblanadi. Metonimiya o‘xshashlikka emas, balki yaqinlik, aloqadorlik va bir konsept doirasidagi ichki bog‘lanishlarga asoslanadi. Inson ongida murakkab voqelikni iqtisodiy tarzda ifodalash ehtiyoji mavjud bo‘lgani sababli, butun hodisa o‘rniga uning bir qismi, belgisi yoki unga yaqin unsur til vositasida “vakil” sifatida ishlatiladi. Masalan, joy nomi orqali o‘sha joydagi odamlar yoki jarayonlar nazarda tutilishi mumkin: “Toshkent bugun erta uyg‘ondi” kabi ifodalarda shahar fizik makon sifatida emas, balki undagi ijtimoiy hayot, aholi harakati, umumiy muhitni bildiruvchi konsept sifatida faollashadi. Shuningdek, “qalam” so‘zining “ijod” yoki “yozma ta’sir”ni anglatishi, “besh qo‘l” birikmasining “imkoniyat” ma’nosini berishi ham metonimik ko‘chishning tipik ko‘rinishlaridir.

Ma’no ko‘chishning kognitiv tabiatini tushuntirishda tanaviy tajriba (embodiment) omili ham alohida ahamiyatga ega. Inson ko‘plab abstrakt tushunchalarni bevosita sezgi orqali idrok etiladigan tajribaga suyanib anglaydi. Shu sababli “baland” va “past” kabi fazoviy belgilarning ijtimoiy baho bilan bog‘lanishi tabiiy: “baland mavqe”, “past daraja” kabi birikmalarda fazoviy koordinatalar ijtimoiy ierarxiya konseptiga ko‘chiriladi. Xuddi shuningdek, haroratga doir “iliq”, “sovuq” belgilari emotsional munosabatni ifodalashda faol ishlatiladi: “iliq munosabat”, “sovuq qarash” kabi ifodalar insonning jismoniy sezgi tajribasi asosida psixologik holatni konseptuallashtirishidan kelib chiqadi. Bu jarayon ma’no ko‘chishning chuqur kognitiv motivatsiyaga ega ekanini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ma’no ko‘chish prototip va kategoriyalash mexanizmlari bilan ham bog‘lanadi. Kognitiv yondashuvda kategoriyalar qat’iy chegaralar bilan emas, balki markaziy namunalar — prototiplar atrofida shakllanadi.

Metafora va metonimiyaning o‘rni

Ma’no ko‘chishning eng muhim kognitiv mexanizmlari metafora va metonimiya hisoblanadi. Metafora o‘xshashlikka asoslangan bo‘lsa, metonimiya yaqinlik va bog‘liqlikka tayanadi.

Metafora orqali inson murakkab va mavhum tushunchalarni sodda va tanish obrazlar yordamida anglaydi. Metonimiya esa bir predmet yoki hodisani unga aloqador boshqa unsur orqali ifodalash imkonini beradi. Har ikki vosita tilning obrazliligi va ta’sirchanligini oshiradi hamda ma’no ko‘chish jarayonining faol ishtirokchisidir.

Shu maqsadda mazkur maqolada ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida oilaviy munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklar lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ikki til va madaniyatning o‘xshashliklari va farqlari aniqlanib, leksik birliklarning kontekstga qarab ishlatilishi va badiiy matndagi funksiyalari o‘rganiladi. Natijada, maqola ikki til va madaniyatning lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq tushunishga, shuningdek, badiiy matnlarni tahlil qilishda metodologik yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Oilaviy va qarindoshlik munosabatlarini badiiy matnlarda ifodalovchi leksik birliklarning lingvomadaniy tahlili masalasi tilshunoslik va madaniyatshunoslik adabiyotlarida keng yoritilgan. Ingliz tilshunosligi sohasida frazeologik va leksik birliklarning madaniy va emotsional funksiyalariga oid tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Masalan, Cruse (2000) semantik tahlil asosida leksik birliklarning mazmuniy nuanslarini o‘rganib, ularning kontekstga qarab turlicha ishlatilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, Levinson (2003) oilaviy va qarindoshlik konseptlarini ingliz badiiy matnlari misolida tahlil qilib, leksik birliklarning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini yoritadi. Lakoff va Johnson (1980) esa metafora nazariyasi doirasida oilaviy munosabatlarni aks ettiruvchi leksik va frazeologik birliklarning konseptual rolini ta’kidlaydi. O‘zbek tilshunosligi adabiyotlarida oilaviy va qarindoshlik leksikasining lingvomadaniy tahlili so‘nggi yillarda rivojlanmoqda. Jalolov (2005) badiiy matnlarda qarindoshlik va oilaviy munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklarni tahlil qilib, ularning emotsional va stilistik funksiyasini ko‘rsatadi. Tursunova (2018) esa o‘zbek badiiy matnlarida oilaviy bog‘lanishlarni aks ettiruvchi leksik birliklarning madaniy va kontekstual xususiyatlarini o‘rganib, ularning lingvomadaniy tafovutlarini ta’kidlaydi.

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik birliklarni solishtiruvchi tadqiqotlar ham mavjud. Karimov (2015) o‘zbek badiiy matnlaridagi oilaviy leksik birliklarni korpus asosida tahlil qilib, ularning funksional va madaniy xususiyatlarini aniqlaydi. Ingliz tilidagi analog tadqiqotlar esa oilaviy munosabatlarni ifodalovchi umumiy leksik

birliklarning madaniyatga xos nuanslarini o‘rganadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi oilaviy leksik birliklar nisbatan umumiy bo‘lsa (father, mother, sibling, cousin), o‘zbek tilida qarindoshlik aloqalari aniqroq tasniflangan va madaniyatga xos emotsional nuanslarga boydir (aka-uka, opa-singil, tog‘a, xola).

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida oilaviy va qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash maqsadida korpus tahlili va taqqoslash usuli asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Tadqiqot doirasida tanlangan ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridagi oilaviy leksik birliklar aniqlanib, ularning semantik, stilistik va madaniy kontekstdagi ishlatilishi sistematik tarzda tahlil qilindi. Leksik birliklarning ishlatilish konteksti, emotsional va ijtimoiy funksiyalari hamda madaniyatga xos nuanslari lingvomadaniy yondashuv asosida o‘rganildi. Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi ikki til va madaniyat o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, leksik birliklarning badiiy matndagi funksiyasini batafsil tahlil qilish imkonini yaratdi.

Natijalar va muhokama. Badiiy matnlarda oilaviy va qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksik birliklar ikki til va madaniyatning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beradi. Ingliz tilidagi badiiy asarlarda oilaviy leksik birliklar ko‘pincha umumiy konseptual shaklda ishlatiladi. Masalan, Charles Dickensning “Great Expectations” romani misolida, “father”, “mother”, “brother”, “cousin” kabi so‘zlar qahramonlar o‘rtasidagi oilaviy bog‘lanishlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, “black sheep of the family” iborasi oilaviy nizolar va ijtimoiy marginal rolni ifodalashda ishlatiladi. Ushbu birliklar kontekstga qarab, emotsional va pragmatik jihatdan boy ma’no keltiradi, qahramonlarning o‘zaro munosabatini tushunishga yordam beradi. O‘zbek badiiy matnlarida esa oilaviy va qarindoshlik leksikasi ancha tasniflangan va madaniyatga xos nuanslarga boy. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida, “aka-uka”, “opa-singil”, “tog‘a”, “xola” kabi so‘zlar qahramonlar o‘rtasidagi aniq oilaviy aloqalarni aks ettiradi. Shu bilan birga, “Ona mehridan ortiq mehr yo‘q” kabi maqollar va frazeologik birliklar oila a’zolari o‘rtasidagi mehr-muhabbat, hurmat va sadoqatni kuchaytiruvchi emotsional vosita sifatida ishlatiladi.

Lingvomadaniy jihatdan ingliz tilidagi leksik birliklar oilaviy aloqalarni umumiy shaklda ifodalasa, o‘zbek tilida bu birliklar qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy va madaniy tafsilotlarini yanada aniqroq aks ettiradi. Masalan, ingliz tilida “uncle” barcha amaki va tog‘a turidagi qarindoshlarni qamrab olsa, o‘zbek tilida “tog‘a” va “xola” kabi alohida leksik birliklar mavjud bo‘lib, qarindoshlik aloqasining aniqligini ta’kidlaydi. Shuningdek, oilaviy leksik birliklarning ishlatilish konteksti ham lingvomadaniy tafovutlarni namoyon qiladi. Ingliz matnlarida qahramonlar o‘rtasidagi oilaviy munosabatlar ko‘pincha dialog orqali aks ettiriladi, emotsional yuki esa frazeologik birliklar va metaforalar orqali kuchaytiriladi. O‘zbek matnlarida esa badiiy tasvir va maqol-frazeologik birliklar ko‘proq hikoya qiluvchi matn orqali kontekstga bog‘langan holda ishlatiladi. Masalan, “aka-uka birga bo‘lsa, baxt to‘la uy” iborasi oilaviy birlik va mehrni aniq va madaniyatga xos tarzda ifodalaydi. Natijada, ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida oilaviy va qarindoshlik munosabatlarini aks ettiruvchi leksik birliklar lingvomadaniy jihatdan turlicha ishlashiga qaramay, har ikkala tilda ham ular qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni, emotsiyalarni va madaniy qadriyatlarni o‘quvchiga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu tahlil ikki til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga imkon berib, badiiy matnlarni chuqurroq tushunish va lingvomadaniy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida oilaviy va qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksik birliklar lingvomadaniy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida leksik birliklar ko‘proq umumiy oilaviy konseptlarni aks ettirsa, o‘zbek tilida qarindoshlik atamalari aniqroq tasniflangan va madaniyatga xos emotsional nuanslarga boy. Shu bilan birga, har ikki tilning badiiy matnlarida leksik birliklar qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni, emotsional aloqalarni va madaniy qadriyatlarni ifodalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ikki til va madaniyat o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, shuningdek, badiiy matnlarni lingvomadaniy tahlil qilish orqali yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cruse, D. A. (2000). Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford University Press.
2. Dickens, C. (1861). Great Expectations. – London: Chapman & Hall.
3. Fernando, C. (1996). Idioms and Idiomaticity. Oxford University Press.
4. Jalolov, S. (2005). O‘zbek tilidagi frazeologik birliklar va ularning badiiy funksiyalari. – Toshkent: Fan.
5. Karimov, R. (2015). O‘zbek badiiy matnlarida oilaviy leksika: lingvomadaniy tahlil. – Toshkent: Universitet nashriyoti.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
7. Levinson, S. C. (2003). Pragmatics. Cambridge University Press.
8. Qodiriy, A. (1925). O‘tkan kunlar. – Toshkent: Nashriyot.
9. Tursunova, N. (2018). O‘zbek badiiy matnlarida qarindoshlik va oilaviy munosabatlarning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti.

Gulmiraxon G‘OFUROVA,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Tibbiyotda tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi
gulmiraxongofurova575@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “KIYIM” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK MODELI VA MILLIY HAMDA GENDER STEREOTIPLAR TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “kiyim” konseptining lingvokulturologik modeli qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda kiyim nomlarining milliy madaniyat, ijtimoiy qadriyatlar va gender stereotiplarini ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyimga oid leksik birliklar, frazeologizmlar va madaniy ramzlar asosida milliy mentalitet va gender rollarning til orqali aks etishi yoritiladi. Natijalar kiyim konseptining til va madaniyat kesishmasida shakllangan murakkab tizim ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *kiyim konsepti, lingvokulturologiya, gender stereotiplar, milliy mentalitet, qiyosiy tahlil.*

Аннотация: в статье проводится сопоставительный лингвокультурологический анализ концепта «одежда» в английском и узбекском языках. Рассматривается роль наименований одежды в отражении национальной культуры, социальных ценностей и гендерных стереотипов. На материале лексических единиц и культурных символов выявляются особенности национального менталитета и гендерных ролей, закреплённых в языке. Полученные результаты подтверждают, что концепт «одежда» представляет собой сложную систему на стыке языка и культуры.

Ключевые слова: *концепт одежды, лингвокультурология, гендерные стереотипы, национальный менталитет, сопоставительный анализ.*

Annotation: this article presents a comparative linguocultural analysis of the concept of “clothing” in the English and Uzbek languages. The study examines how clothing-related lexical units reflect national culture, social values, and gender stereotypes. Based on linguistic data and cultural symbols, the research reveals the representation of national mentality and gender roles in language. The findings demonstrate that the concept of “clothing” constitutes a complex system formed at the intersection of language and culture.

Key words: *clothing concept, linguocultural studies, gender stereotypes, national mentality, comparative analysis.*

Kirish. Kiyim konsepti har bir madaniyatda material va ma’naviy qadriyatlarni ifodalovchi muhim tushuncha bo‘lib, u inson ehtiyojlarini qondirish bilangina cheklanmay, balki millatning tarixi, urf-odati va dunyoqarashini ham aks ettiradi. Darhaqiqat, *“kiyim odamlarning tabiiy va estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, har bir xalqning urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlari, mafkurasi va estetik me’yorlarini ham o‘zida aks ettiradi”*[1]. Til esa madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ushbu konseptni shakllantiradi – so‘zlar vositasida xalqning madaniyati va mentalitetini ko‘rsatadi Shu bois, kiyimga doir lug‘aviy birliklar orqali xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va tafakkuri ifodalanishi mumkin. Masalan, rus tilshunosi V. Telia ta’kidlaganidek, til so‘zlari milliy o‘ziga xoslikni yaqqol aks ettiradi; xususan, kiyim nomlari xalq hayot tarzi va mentalitetini yoritishi mumkin[2]. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida turli madaniyatlarda kiyim tushunchasining ifodalanishi va unga bog‘liq milliy hamda gender stereotiplarni o‘rganish madaniyatlararo kommunikatsiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim konseptini qiyosiy tahlil qilish orqali til, madaniyat va jamiyat o‘zaro qanday uyg‘unlashgani, shuningdek, ayollar va erkaklar liboslariga oid tasavvurlar til materiallarida qanday aks etishi aniqlanadi.

Metodologiya. Tadqiqotda qiyosiy-tavsifiy metod qo‘llanilib, ingliz va o‘zbek tillarida *“kiyim” konseptining lingvokulturologik modeli* tahlil qilindi. Avvalo, har ikki tilda kiyim mavzusiga oid asosiy atamalarni aniqlash uchun tegishli izohli lug‘atlar, madaniy ensiklopediyalar va ilmiy adabiyotlar ko‘rib chiqildi. So‘ngra, ushbu atamalar uchun ideografik tasnif va komponent tahlil o‘tkazilib, ularning ma’no doiralari

hamda madaniy konnotatsiyalari solishtirildi. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar tajribasidan kelib chiqib, kiyim leksemasiga oid tematik guruh tuzildi: bunda kiyim-kechak buyumlari, ularning detallari, aksessuarlar va kiyim bilan bog‘liq harakat fe’llari ham qamrab olindi. Masalan, Nozima Azimova o‘z tadqiqotida dastlab ingliz va o‘zbek tillarida *“Kiyim”* mavzusiga oid so‘zlarni to‘plab, ikki til lug‘aviy birliklarining qiyosiy ro‘yxatlarini tuzgan, biz ham shunga o‘xshash yondashuvni qo‘lladik. So‘zlarning ma’nosi va qo‘llanishini o‘rganishda korpus lingvistika yondashuvi (matnlardagi qo‘llanish chastotasi) va madaniyatlararo semantik tahlil usullari qo‘llanildi. Jumladan, ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy adabiyot, folklor namunalaridagi kiyimga doir iboralar, maqollar va frazeologizmlar o‘rganilib, ular ortidagi ijtimoiy va gender mazmun tahlil qilindi. Natijalar ikki tilli ma’lumotlar bazasi asosida qiyosiy jadval va statistik ma’lumotlar ko‘rinishida tayyorlandi. Xususan, har ikki tildagi *“kiyim” konseptining semantik maydoni* va *konnotativ qatlamlari* aniqlab berildi [3].

Natijalar. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ingliz tilidagi kiyim leksikasi asosan, shaxsning ijtimoiy mavqei yoki amaliy funksiyasini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “uniform” (forma) ma’lum bir kasb egasining jamiyatdagi rolini ko‘rsatsa, “suit” rasmiy ish muhitidagi mavqe va jiddiylikni anglatuvchi libos sifatida qabul qilinadi. “casual” va “formal” kabi kiyinish uslublari orqali ham ingliz tilida odamning muayyan vaziyatdagi ijtimoiy o‘rni yoki munosabati ifodalanadi. O‘zbek tilida esa “kiyim” konsepti ko‘proq etnik va madaniy ma’nolar bilan boyigan: do‘ppi, sarpo, atlas kabi so‘zlar faqat buyum yoki matoni bildirish bilangina cheklanmay, milliy madaniyat kontekstida ma’naviy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun inglizcha kiyim atamalari ko‘pincha universal tusda bo‘lsa, o‘zbekcha kiyim atamalari mahalliy realliklarni ham qamrab oladi. Jumanova ham aynan shuni ta’kidlab, ingliz tilida kiyim terminologiyasi ijtimoiy mavqe va utilitar funksiyani ko‘rsatishi, o‘zbek tilida esa kiyim terminologiyasi etnik-madaniy ma’no va lokal xususiyatlarni ifodalashini aniqlagan [3].

Milliy an’analarning tilga ta’siri farqlanadi. Ingliz milliy kiyimlari bugun ko‘proq ramziy yoki tantanaviy ahamiyatga ega bo‘lib, kundalik hayotdan ko‘ra marosim, bayram va folklor kontekstida uchraydi. Jumanova ingliz an’anaviy liboslari funksional kundalik hayotdan ko‘ra ko‘proq marosimiy timsollarga aylanganini qayd etadi. O‘zbek milliy kiyimlari esa hanuz milliy identifikator: to‘y-marosimlar, bayramlar yoki kundalik turmushda ham milliy libos kiyish odat tusiga kirgan. Bu farq mentalitet bilan izohlanadi: ingliz jamiyatida kiyimga munosabat individual did va moda trendlari tomon og‘gan bo‘lsa, o‘zbek jamiyatida kiyim milliy urf-odat va qadriyatlarga hurmat ifodasi sifatida qaraladi. Mazkur g‘oya maqollarda ham ko‘rinadi: “Odamni kiyimiga qarab kutib oladilar, aqliga qarab kuzatadilar” hamda ingliz tilidagi “Clothes make the man”.

Ingliz tilida kiyim nomlari nisbatan kamroq bo‘lsa-da, ko‘proq umumiy tushunchalarni bildiradi; o‘zbek tilida esa mato nomlari, libos qismlari va an’anaviy buyumlar atamalari juda boy. Folklor materiallari bo‘yicha ingliz xalq qo‘shiqlarida kiyim atamalari 70 turkum (364 marta), o‘zbek xalq qo‘shiqlarida 177 turkum (855 marta) uchragan [5]. Mato nomlarida farq yanada yaqqol: ingliz folklorida 9 xil mato nomi 42 marta, o‘zbek qo‘shiqlarida 64 xil mato nomi 225 marta uchragan. Yor-yorlarda “atlas duvvaqi”, “shoyi ro‘moli”, “beqasam libosi” kabi detallarning tasviri o‘zbek madaniyatida kiyim detallariga e’tibor kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Kiyim atamalari ko‘pincha tarjimada ekvivalentsiz: “garter”, “bowler hat”, “stomacher” o‘zbek madaniyatida bo‘lmagani uchun bevosita mos nom topilmaydi; “do‘ppi”, “chopon”, “lozim”, “atlas” esa ingliz tilida to‘g‘ridan to‘g‘ri analogga ega emas. “Skullcap” do‘ppining madaniy mazmunini to‘liq bermaydi, “robe” esa choponning atlas va bezak xususiyatlarini qamrab olmaydi [5].

Gender stereotiplari leksikada namoyon bo‘ladi: ingliz tilida “shirt” va “dress” kabi birliklar ko‘proq jinsiy differensiatsiyalangan; o‘zbek tilida “ko‘ylak” umumiy bo‘lib, zarur bo‘lsa “erkak ko‘ylak/ayol ko‘ylak” tarzida aniqlanadi. Ingliz tilida “skirt” va “trousers/pants” tarixan gender bilan bog‘langan, masalan “who wears the pants in the family” idiomi; o‘zbek tilida “lozim” va “ishton” jinsga xos kiyim tushunchasini bildiradi. Shuningdek, “pink collar” (ayollar ishi) va “blue collar” (erkaklar mehnati) yoki “to wear a skirt” kabi birliklar ham gender stereotiplarini aks ettiradi.

Muhokama. Kiyim konseptining lingvokulturologik modelidagi farqlar har ikki xalqning milliy mentaliteti va tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq. Inglizlar mo‘tadil iqlim va sanoatlashgan jamiyat sharoitida kiyimga nisbatan pragmatik yondashuvni shakllantirgan: libos avvalo qulay, vaziyatga mos va shaxs statusini bildiruvchi vosita bo‘lgan. O‘zbek xalqi esa ko‘chmanchi va dehqonchilik uyg‘unlashgan turmush tarzi hamda issiq iqlim ta’sirida o‘ziga xos kiyim madaniyatini rivojlantirgan; bunda

kiyimning iqlim va turmush tarziga mosligi, shuningdek, milliy bezak va urfga muvofiqligi ustuvor bo‘lgan. Masalan, ko‘p asrlik ko‘chmanchi hayot natijasida kiyimlar ot minishga qulay, qishda issiq, yozda salqin bo‘lishi uchun maxsus shakllangan [2]; bu talab chopon (yengil-iliq kamzul), lozim (keng shim) kabi atamalarda ham aks etadi. Ingliz an’anaviy kiyimlari esa iqlim va sinfiy jamiyat ta’sirida shakllanib, sanoat inqilobi davrida ko‘p jihatdan kundalik hayotdan chiqib, marosimiy atributga aylangan [3]. O‘zbek jamiyatida jamoaviylik va an’anaga hurmat kuchli bo‘lgani uchun kiyim jamoa qadriyatlari ko‘zgusi sifatida qabul qilinadi; masalan, bayramlarda milliy libos kiyish “men jamiyatning bir qismiman” degan ijtimoiy koddir. Ingliz madaniyatida esa individuallik va erkinlik qadrlangani bois, kiyim orqali o‘zini ifoda etish (self-expression) g‘oyasi kuchliroq: “to express oneself through fashion”, “personal style” kabi iboralar shuni ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa “odatga ko‘ra kiyinish”, “yoshiga yarasha kiyinmoq” kabi jamoa me’yoriga urg‘u beruvchi birliklar kengroq. Gender stereotiplari ham tilda mustahkamlangan. O‘zbek an’analarida erkak do‘ppisiz yurishi odobsizlik sanalgan, belbog‘ erkaklik timsoli bo‘lgan; ayollarda ro‘mol o‘rash ibo-itoat ifodasi, atlas ko‘ylak esa nafosat va tarbiya ramzi sifatida talqin etilgan. Shu bois “ro‘molini yopmoq”, “boshdan ro‘molni uloqtirmaslik”, “erkakning belbog‘ini buzmang” kabi iboralar paydo bo‘lgan. Ingliz tilida ham “skirt-chaser”, “big pants” kabi birliklar kiyim obrazlari orqali gender rol va stereotiplarni ifodalaydi. Bu holat til nafaqat gender rollarni aks ettirishini, balki ularni mustahkamlashi ham mumkinligini ko‘rsatadi. Zamonaviy davrda esa moda sohasida gender chegaralari xilma-xillashmoqda: uniseks kiyimlar ommalashib, “gender-neutral fashion”, “androgynous style” kabi atamalar paydo bo‘lmoqda; o‘zbek tilida ham “uniseks kiyim” ishlatiladi. Biroq tarixiy stereotipik iboralar tez o‘zgarmaydi: ular madaniy xotira sifatida yashaydi. Metodologik jihatdan shuni ta’kidlash lozimki, kiyim konsepti kabi mavzularni tadqiq etishda lug‘aviy birliklarning madaniy ma’nosini hisobga olish muhimdir. Jumanova ta’kidlaganidek, lug‘atlarda kiyim atamalariga izoh berishda madaniy unsurlar kiritilishi zarur, chunki bunday birliklar madaniy identifikator vazifasini bajaradi [16]. Masalan, “do‘ppi”ni faqat “bosh kiyim” deb izohlash uning milliy iftixor ramzi ekanini ochib bera olmaydi; “kilt”ni “shotlandcha erkaklar yubkasi” deb tarjima qilish ham uning tarixiy va ramziy mazmunini to‘liq ifodalamaydi. Demak, lingvokulturologik yondashuv nafaqat nazariy tadqiqot, balki amaliy leksikografiya uchun ham dolzarbdir.

Xulosa qilib aytganda, “kiyim” konsepti ingliz va o‘zbek tillarida o‘xshash va farqli jihatlarni namoyon etuvchi murakkab hodisadir. Har ikki tilda kiyim tanani himoya qilish va estetik ehtiyojlarni qondirish bilan birga, madaniy kod sifatida jamiyatdagi ijtimoiy rol va qadriyatlarni ifodalaydi [1][17]. Farqli jihatdan esa, ingliz tilida kiyim konsepti ko‘proq individuallik va funksionallik bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida u kollektiv an’ana va etnik o‘zlik bilan chambarchas aloqadordir [9][11]. Ingliz madaniyatida libos shaxsning didi va mavqeini ko‘rsatish vositasi bo‘lsa, o‘zbek kontekstida u jamoaga moslashish va milliy urf-odatlarga sodiqlik belgisi sifatida talqin etiladi. Gender nuqtayi nazaridan ham farqlar mavjud: ingliz tilida erkak va ayol liboslariga oid atamalar aniq farqlangan, o‘zbek tilida esa ba’zan umumiy birliklar qo‘llanadi, biroq har ikki tilda ham kiyim bilan bog‘liq ibora va obrazlarda gender stereotiplar saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Anvarova S. *National Dress Names and Features in English and Uzbek Languages*. IJTSRD, 2024 – Special Issue, p.41–43.

2.Azimova N. *The linguocultural aspects of English and Uzbek national clothes*. International Scientific Conference. – Buxoro, 2021.

3.Jumanova S. *National Clothing in English and Uzbek Cultures: A Comparative Study of the Names of Clothing*. American Journal Of Philological Sciences, 2024 – 4(9):101–105.

4.Jumanova S. *Clothing As Culture: Exploring English And Uzbek Dress Terms Through Language And Lexicography*. American Journal Of Philological Sciences, 2025 – 5(11):378–381.

5.Web of Scientist (WOS) International Scientific Journal. *Linguistic, cultural and ethnolinguistic characteristics of clothing in English and Uzbek folklore*, 2022 – 3(10):346–349.

Dildora UROKOVA,
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

MEBEL NOMLARINING SEMANTIK VA MADANIY TALQINI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI QIYOSIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi mebel nomlari semantik, pragmatik hamda madaniy-lingvistik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mebel leksikasining faqat nominativ birlik sifatidagi vazifasi emas, balki uning jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va tarixiy rivojlanishini aks ettiruvchi til birligi ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqotda strukturaviy-semantik tahlil, qiyosiy-lingvistik metod hamda pragmatik yondashuvlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mebel nomlari har bir til va madaniyatda o‘ziga xos semantik qatlamlarga ega bo‘lib, ular milliy tafakkur va turmush tarzini ifodalovchi muhim lingvokulturologik birliklar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *mebel nomlari, semantika, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmatika.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of furniture terminology in English and Uzbek from semantic, pragmatic, and cultural-linguistic perspectives. The study argues that furniture names function not only as nominative lexical units but also as linguistic representations of cultural values, social relations, and historical development within a society. Structural-semantic analysis, comparative linguistic methods, and pragmatic approaches were employed in the research. The findings reveal that furniture terminology in each language embodies culture-specific semantic layers, reflecting national mentality and lifestyle, thus serving as significant linguocultural markers.

Key words: *furniture terminology, semantics, comparative linguistics, linguoculturology, pragmatics.*

Аннотация: в статье проводится сопоставительный анализ наименований мебели в английском и узбекском языках с семантической, прагматической и лингвокультурологической точек зрения. Обосновывается положение о том, что наименования мебели выполняют не только номинативную функцию, но и отражают культурные ценности, социальные отношения и историческое развитие общества. В исследовании использованы структурно-семантический анализ, сопоставительный метод и прагматический подход. Полученные результаты свидетельствуют о том, что мебельная лексика обладает национально-специфическими семантическими слоями и выступает важным показателем языковой картины мира.

Ключевые слова: *наименования мебели, семантика, сопоставительное языкознание, лингвокультурология, прагматика.*

Jahon tilshunosligida mebel nomlarini o‘rganish, tilshunoslik, antropologiya, madaniyatshunoslik va semantika sohalarida keng muhokama qilinadi. Mebel nomlari nafaqat o‘rganilgan tildagi leksik birliklar bo‘lib, balki ular jamiyatning madaniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstlarini aks ettiruvchi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Mebelning o‘rganilishi tilshunoslikning turli jabhalarida, xususan, semantika, pragmatika va leksikologiya sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Mebel nomlari, semantik jihatdan, faqat o‘ziga xos obyektlar yoki buyumlar emas, balki ular turli madaniy va ijtimoiy ma’nolarni ifodalaydi. L. Hjelmslev [1; 7-60] o‘zining “Prolegomena to a Theory of Language” asarida, tilni o‘rganishda semantik kodlar va ularning ma’nolari qanday shakllanib borishi haqida fikr bildiradi. U, mebel nomlarining turli davrlarda va jamiyatlarda qanday o‘zgarib, yangi semantik qatlamlarni kiritishini ta’kidlaydi. Mebelning o‘ziga xos semantik mazmuni, ayniqsa, uning ijtimoiy funksiyalariga bog‘liq. Masalan, “stol” o‘zbek tilida faqatgina ish joyi yoki ovqatlanish uchun mo‘ljallangan mebel emas, balki “oilaviy muhi”ni aks ettiruvchi muhim atributdir. Ingliz tilida esa “table” so‘zi ko‘proq “ish” va “muvozanat” bilan bog‘liq holda ishlatiladi, ya’ni jamiyatda kuchliroq ishlab chiqarish va iqtisodiy yondashuvni bildiradi [1; 79-92].

Pragmatik nuqtayi nazardan, mebel nomlari tilda ijtimoiy o‘zgarishlar va muloqotdagi ahamiyatni aks ettiradi. J. R. Searle o‘zining “Speech Acts” asarida mebel nomlarini tilda amalga oshiriladigan harakatlar sifatida tahlil qiladi [2; 30-53]. Searle, mebelning ijtimoiy roli bilan birga, uning tilshunoslikdagi pragmatik kontekstini o‘rganadi. Searle tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko‘ra, nomlash jarayoni ham kommunikativ akt sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, mebel nomlari insonning

atrof-muhit bilan muloqotida muhim kognitiv va ijtimoiy vazifani bajaradi. U, mebel nomlarining, xususan, turli davr va ijtimoiy qatlamlarda qanday o‘zgarib, yangi ijtimoiy funksiyalarni bajarishiga diqqat qaratadi [2; 79-92]. Misol sifatida, “bookcase” (kitob javoni) ingliz tilida o‘zining “ma’lum bir ijtimoiy va madaniy daraja”ni aks ettiradi, chunki kitoblar, ko‘pincha, yuqori ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan kishilar tomonidan ko‘rsatilgan bilim va ma’lumotlarni saqlashda ishlatiladi.

Bundan tashqari, P. Brown va S. Levinson o‘zlarining “Politeness: Some Universals in Language Usage” asarida ijtimoiy xulq-atvorning tilga ta’siri haqida gapiradilar va mebel nomlarini tilda o‘ziga xos aloqalar va hurmatni ifodalovchi bir vosita sifatida ko‘rsatadilar. Misol uchun, “armchair” so‘zi ingliz tilida biror kishining individual ehtiyojlarini va o‘zining ichki holatini ko‘rsatish uchun ishlatiladi, shu bilan birga, bu so‘z kishining jamiyatdagi o‘rni va o‘ziga xos maqomini ifodalovchi ramzga aylanadi [3; 129-210].

Mebel nomlarining tarixiy rivojlanishi ham tilshunoslikda katta ahamiyatga ega. Peter Smith “Morphology semantics mismatches and the nature of grammatical features” asarida mebel nomlarining tarixiy kontekstdagi o‘zgarishini o‘rganib, mebelning jamiyatda qanday o‘zgaruvchanligini va turli davrlarda qanday yangiliklar kiritilganligini ta’kidlaydi [4; 120-190]. U, mebel nomlarining faqat amaliy funksiyalarni emas, balki ular jamiyatdagi estetik qadriyatlar va ijtimoiy o‘zgarishlarni ham ifodalashini ko‘rsatadi. Masalan, o‘rta asrlarda “bed” (karavot) nomi jamiyatda faqatgina uyqu va dam olish joyi bo‘lib xizmat qilgan, ammo zamonaviy davrda, ayniqsa, “king-size bed” (kral o‘lchamdagi karavot) ko‘proq qulaylik va lyuksni aks ettiradi. Bu o‘zgarish, shuningdek, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar va maishiy madaniyatning rivojlanishini ham ko‘rsatadi. Keling, yuqoridagi fikrlarni misollar orqali tahlil qilsak:

a) “Sofa” (divan) – ingliz tilidagi “sofa” va o‘zbek tilidagi “divan” so‘zlari ko‘plab xalqlar uchun turmush tarzining bir qismi sifatida qaraladi. “Sofa” ingliz tilida zamonaviy va qulaylikni, odamlarning to‘liq dam olish va o‘zaro suhbatlashish joyini aks ettiradi, o‘zbek tilida esa “divan” ko‘pincha mehmonlarni kutish, oilaviy aloqalarni mustahkamlash muhitining bir elementi sifatida talqin etiladi.

b) “Chair” (stul) – bu so‘z nafaqat jismoniy obyektni, balki ijtimoiy holatni, odamning jamiyatdagi o‘rni va o‘z maqomini aks ettiradi. Ingliz tilida “office chair” ko‘proq ish va ma’lumot almashinuvi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek tilida “stul” ko‘proq o‘tirish va jismoniy holatni aks ettiradi.

d) “Coffee table” (kofe stoli) – ingliz tilida, bu atama ko‘proq mehmonlar bilan muloqot va ijtimoiy aloqalarni bildiradi. O‘zbek tilida esa bunday stollar ko‘proq oilaviy va o‘tkaziladigan an’anaviy mehmondo‘stlik bilan bog‘liq.

Shunday qilib, mebel nomlari jahon tilshunosligida nafaqat lingvistik va semantik jihatlarni, balki ularning madaniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstlaridagi o‘zgarishlarni ham o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.Hjelmslev, Prolegomena to a Theory of Language. – Copenhagen: University of Copenhagen, 1961. 144 p.
2. J.R.Searle, Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. 203 p.
3. P.Brown, S.Levinson, Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.
4. P.W. Smith, Morphology - Semantics Mismatches and the Nature of Grammatical Features. – Berlin: De Gruyter, 2021. 280 p.
5. E.T.Hall, The Silent Language. – New York: Anchor Books, 1976. - 240 p.
6. W. Humboldt, von. On Language: The Diversity of Human Language - Structure and Its Influence on the Mental Development of Mankind. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. 422 p.
7. В.А. Маслова, Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. 208 с.
8. В.И. Карасик, Языковая картина мира. – Москва: Гнозис, 2004. 384 с.
9. О.С.Ахманова, Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. 608 с.
10. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2006. 256-b.
11. M.Yo‘ldoshev. Til va madaniyat munosabati. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 180-b.

Tamilla ANNAZAROVA,
Oriental universiteti Tillar kafedrasi o‘qituvchisi

TURK RASMIY MULOQOTINING KINETIK VOSITALARI VA ULARNING O‘RGANILISH DARAJASI

Annotatsiya: ushbu maqola turk rasmiy muloqotida kinetik vositalarning semiotik, pragmatik va ijtimoiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqolada tana harakatlari, mimika va imo-ishoralarning rasmiy nutq kontekstida qanday kodlanganligi, ularning ijtimoiy rolni belgilash, nutq samaradorligini oshirish va institut ichidagi mavqeni ko‘rsatishda tutgan o‘rni yoritilgan. Lingvopragmatik yondashuv asosida kinetik vositalar statusni bildiruvchi, nutq mazmunini kuchaytiruvchi va tartib nazoratini ifodalovchi turlarga ajratilgan.

Kalit so‘zlar: *turk tili, rasmiy muloqot, kinetik vositalar, noverbal kommunikatsiya, lingvopragmatika, semiotika.*

Annotation: this article analyzes the semiotic, pragmatic, and social characteristics of kinetic devices in Turkish official communication. It examines how body movements, facial expressions, and gestures are coded within the context of formal speech and their role in indicating social status, enhancing communicative effectiveness, and reflecting institutional hierarchy. From a linguopragmatic perspective, kinetic devices are categorized into status-indicating, speech-enhancing, and order-regulating types.

Key words: *Turkish language, official communication, kinetic devices, nonverbal communication, linguopragmatics, semiotics.*

Аннотация: в статье анализируются семиотические, прагматические и социальные характеристики кинетических средств в официальной коммуникации на турецком языке. Рассматривается, каким образом движения тела, мимика и жесты кодируются в контексте официальной речи и какую роль они играют в обозначении социального статуса, повышении эффективности коммуникации и отражении институциональной иерархии.

Ключевые слова: *турецкий язык, официальная коммуникация, кинетические средства, невербальная коммуникация, лингвопрагматика, семиотика.*

Semiotika nuqtayi nazaridan kinetik vositalar belgi tizimi sifatida qaraladi. Har bir tana harakati, mimika yoki imo-ishora: ifodalovchi (signifiant) — ko‘rinadigan harakat; ifodalanuvchi (signifié) — ijtimoiy yoki pragmatik ma’no o‘rtasidagi bog‘lanishga asoslanadi (Knapp, Hall, & Horgan, 2014).

Turk rasmiy muloqotida kinetik belgilar tasodifiy emas, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan kodlangan bo‘ladi. Masalan, boshni egish harakati jismoniy harakat bo‘lishi bilan birga, “hurmat”, “bo‘ysunish”, “ehtirom” kabi abstrakt tushunchalarni ifodalaydi (Hall, 1976). Bu esa kinetik vositalarning ikonik emas, balki simvolik belgi sifatida ishlashini ko‘rsatadi. Rasmiy muloqotda kinetik belgilar: ijtimoiy rolni tasdiqlaydi, nutq maqomini belgilaydi, muloqot chegaralarini aniqlaydi (Knapp et al., 2014).

Turk rasmiy nutqida kinetik vositalar qat’iy normativlik bilan ajralib turadi. Bu normativlik quyidagi omillar bilan belgilanadi: muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, yosh farqi, institutsional muhit (universitet, davlat idorasi, diplomatik uchrashuv), nutq janri (ma’ruza, muzokara, rasmiy tabrik) (Hall, 1976). Masalan, rasmiy uchrashuvda haddan tashqari faol qo‘l harakatlari yoki kuchli mimika: norasmiylik, ishonchsizlik, tajribasizlik sifatida talqin qilinishi mumkin.


Shu sababli, turk rasmiy muloqotida kinetik vositalar cheklangan, nazoratli va standartlashtirilgan bo‘ladi. Lingvopragmatik tahlil asosida turk rasmiy muloqotida kinetik vositalar quyidagi guruhlarga ajratiladi: Statusni bildiruvchi kinetik vositalar. Bular ijtimoiy ierarxiyani aks ettiradi: boshni egish, tik tana holati, harakatlarning minimal darajada bo‘lishi (Knapp et al., 2014). Misol: “Sayın hocam, söz almak istiyorum.” (boshni yengil egish bilan).

Nutqni kuchaytiruvchi kinetik vositalar. Nutq mazmunini ta’kidlashga xizmat qiladi: ochiq kaft bilan urg‘u berish, qo‘lni pastdan yuqoriga harakatlantirish (Knapp et al., 2014). Misol: “Bu konu stratejik açıdan **önemlidir**.” Tartib va nazoratni ifodalovchi kinetik

vositalar. Rasmiy nutqda o‘zini tutish me’yorlarini bildiradi: ortiqcha mimikadan tiyilish, barqaror ko‘z aloqasi. Multimodal yondashuvga ko‘ra, muloqot bir vaqtning o‘zida bir nechta kanallar orqali amalga oshadi: verbal (til), prosodik (ohang, pauza), kinetik (harakat) (Knapp et al., 2014).

Turk rasmiy nutqida ushbu uch kanal muvozanatda bo‘ladi. Kinetik kanal hech qachon verbal nutqni “bosib ketmasligi” kerak. Aks holda rasmiylik buziladi (Hall, 1976).

Sxema 1. Rasmiy muloqotda kommunikativ kanallar o‘zaro aloqasi



Turk rasmiy muloqotida kinetik vositalar Sharq va G‘arb kommunikativ madaniyati o‘rtasidagi **oraliq model** sifatida qaraladi. Sharq madaniyatiga xos hurmat va kamharakatlilik. G‘arb madaniyatiga xos aniqlik va vizual urg‘u. Masalan, Yevropa rasmiy nutqida faol qo‘l harakatlari qabul qilinar ekan, turk rasmiy muloqotida bu holat cheklangan bo‘ladi. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki: kinetik vositalar mavjud, ularning funksiyalari aniq, ammo rasmiy muloqot kontekstida **yetarli empirik model ishlab chiqilmagan**. Hozirgi tadqiqotlar asosan: umumiy noverbal kommunikatsiya, kundalik nutq,badiiy matnlar bilan cheklanadi.

JADVAL 1. Turk rasmiy muloqotida kinetik vositalarning funksional tasnifi

Kinetik vosita	Funksiyasi	Rasmiy kontekst
Boshni egish	Hurmat, iyerarxiya	Uchrashuv, murojaat
Qo‘lni ko‘krakka qo‘yish	Minnatdorlik	Rasmiy minnatdorchilik
Ochiq kaft harakati	Urg‘u berish	Ma’ruza, nutq
Ko‘z bilan nazoratli aloqa	Ishonchlilik	Muzokara
Tik tana holati	Mas’uliyat	Rasmiy chiqish

JADVAL 2. Turk rasmiy va norasmiy muloqotida kinetik vositalar farqi

Belgilar	Rasmiy muloqot	Norasmiy muloqot
Tana harakati	Cheklangan	Erkin
Ko‘z aloqasi	Me’yoriy	Erkin
Qo‘l harakati	Minimal	Keng

Qo‘shimcha nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turk rasmiy muloqotida kinetik vositalar mustaqil semiotik va pragmatik tizim sifatida faoliyat yuritadi. Ular rasmiy nutqni strukturaviy, madaniy va ijtimoiy jihatdan shakllantiradi. Mazkur tahlil rasmiy muloqotining kinetik vositalarini nazariy, tizimli, lingvopragmatik asosda yoritib, kelajak empirik tadqiqotlar uchun yordam berishiga umid qilamiz. Turk rasmiy muloqotida kinetik vositalarning o‘rganilishi masalasi zamonaviy tilshunoslikda yetarlicha tizimlashtirilmagan va ilmiy jihatdan kam yoritilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Noverbal kommunikatsiya umumiy ilmiy tadqiqotlarda keng ko‘lamda o‘rganilgan bo‘lsa-da, rasmiy diskursga xos harakatlar, mimika va imo-ishoralarning funksionalligi, ularning institut ichidagi roli, nutq samaradorligi bilan bog‘liqligi yetarlicha empirik asosda o‘rganilmagan. Odatda, kinetik vositalar madaniyatshunoslik va psixologiya kontekstida, kundalik muloqot misolida tahlil qilinadi, natijada turk rasmiy nutqining o‘ziga xos semiotik va pragmatik xususiyatlari e’tibordan chetda qoladi.

Ushbu kamchiliklarning sababi shundaki, uzoq vaqt davomida tilshunoslik doirasida asosiy

e’tibor faqat lingvistik tizimlarga — leksik birliklar, grammatika va fonetikaga qaratilgan. Kinetik vositalar esa nutq jarayonining “qo‘shimcha” elementi sifatida qaralgan, ularning ijtimoiy va pragmatik funksiyalari yetarlicha ochib berilmagan. Shu bilan birga, rasmiy muloqot o‘ziga xos normativ va madaniy me’yorlarga bo‘ysunadi, bunda har bir tana harakati yoki mimik harakat qat’iy me’yoriy kontekstga bog‘liq bo‘lib, nutq ishtirokchilari orasidagi ijtimoiy masofani belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Empirik material yetishmasligi ham kinetik vositalarning o‘rganilishini cheklovchi omillardan biridir. Rasmiy uchrashuvlar, diplomatik muzokaralar va institut nutqlari yozuvlari ilmiy korpus sifatida mavjud emas yoki cheklangan miqdorda mavjud. Shu bois tadqiqotchilar ko‘pincha shaxsiy kuzatuvlar yoki madaniy tavsiflarga tayanishga majbur. Natijada, ularning ilmiy xulosalari ko‘p hollarda umumiylashtirilgan va ba’zan subyektiv bo‘lib qoladi. Rasmiy nutqda kinetik vositalar faqat emotsional fon yoki nutqni boyituvchi element sifatida emas, balki nutqning samaradorligini belgilovchi, ijtimoiy rolni ko‘rsatuvchi va kommunikativ strategiyalarni shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, boshni egish yoki qo‘l holati ishtirokchilarning ierarxiyasini belgilash, hurmat va e’tirof ifodalashda faol ishlatiladi. Shu bilan birga, turk rasmiy muloqotida kinestetik belgilar juda nazoratli va normativ bo‘lib, ularning haddan tashqari faol ishlatilishi norasmiy yoki noaniq taassurot qoldirishi mumkin. Hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda rasmiy va norasmiy nutq o‘rtasidagi farq yetarlicha e’tiborga olinmaydi, bu esa kinetik vositalarning rasmiy diskursdagi haqiqiy funksiyasini aniqlashga to‘sqinlik qiladi. Rasmiy muloqotda harakatlar va mimik me’yoriy doiraga bog‘liq bo‘lib, ular nutqning ijtimoiy maqomini mustahkamlash, institut ichidagi mavqe va hurmatni ifodalash, shuningdek nutq ishtirokchilarining xulq-atvorini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan turk rasmiy muloqotida kinetik vositalarning o‘rganilish darajasi hozircha fragmentar, empirik jihatdan cheklangan va tizimli nazariy asosga ega emas. Buning natijasida bu yo‘nalish ilmiy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda va kelajak tadqiqotlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kinetik vositalar to‘liq o‘rganilganda nafaqat turk rasmiy muloqotining semantik va pragmatik xususiyatlari, balki madaniy va ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq murakkab kommunikativ mexanizmlar ham ilmiy asosda yoritilishi mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda turk rasmiy nutqidagi kinetik vositalarni tizimli o‘rganish uchun autentik video va audio korpuslar yaratish, ularni multimodal tahlil asosida o‘rganish va natijalarni lingvopragmatik me’yorlar bilan solishtirish zarur. Bu yondashuv nafaqat rasmiy muloqotning kinestetik xususiyatlarini aniqlash, balki turk tilshunosligida noverbal kommunikatsiyaning roli va o‘rni haqidagi ilmiy tushunchalarni kengaytirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, kinetik vositalar nafaqat nutqni boyituvchi element, balki rasmiy diskursning ajralmas va tizimli qismi sifatida baholanadi.

Natijada, turk rasmiy muloqotida kinetik vositalarning o‘rganilish darajasi ilmiy tadqiqotlar uchun hali ochilmagan maydon sifatida qolmoqda. Ushbu sohani chuqur o‘rganish rasmiy nutqning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ funksiyalarini tizimli ravishda ochib berishga imkon beradi va turk tilshunosligida noverbal kommunikatsiyaning mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Knapp, M. L., Hall, J. A., & Horgan, T. G. (2014). Nonverbal communication in human interaction (8th ed.). Boston: Wadsworth.
2. Hall, E. T. (1976). Beyond culture. New York: Anchor Books.Ekman, P., & Friesen, W. V. (1969). Constants across cultures in the face and emotion. Journal of Personality and Social Psychology, 9(3), 124–129.
3. Matsumoto, D., & Hwang, H. S. (2013). Culture and nonverbal behavior. In J. A. Hall & M. L.Knapp (Eds.), Handbook of communication and emotion: Research, theory, applications, and contexts (pp. 57–79). San Diego, CA: Academic Press.
4. Burgoon, J. K., Guerrero, L. K., & Floyd, K. (2016). Nonverbal communication. New York: Routledge.
5. Gumperz, J. J., & Del Solar, P. (1995). “Social meaning in linguistic structures: Codeswitching in Peru.” Journal of Pragmatics, 23(4), 375–395.

Selma Ozan YUJEL,
Oriental universiteti
Tillar-2 kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

TURK TILIDA QORA LEKSEMASINING FRAZEOLOGIK BIRLIKDAGI O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada turk tilidagi “kara” rang leksemasining erkin va frazeologik birikmalar tarkibida qo‘llanishi semantik va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida “kara” leksemasining rang bildiruvchi birlik sifatidagi asosiy funksiyasi bilan bir qatorda, frazeologik birliklar tarkibida salbiy hamda ijobiy ma’nolarni yuzaga chiqaruvchi ko‘p qatlamli semantik vosita sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *til, leksema, frazeologik birlik, rang leksemasi, qora, semantika, turg‘un birikma, erkin birikma.*

Annotation: this article analyzes the use of the Turkish color lexeme “black” in free and phraseological combinations from a semantic and linguocultural perspective. In the course of the research, the lexeme “kara” is scientifically explained as a multi-layered semantic tool that creates negative and positive meanings in phraseological units, along with its main function as a unit denoting color.

Key words: *language, lexeme, phraseological unit, color lexeme, black, semantics, stable combination, free combination*

Аннотация: в данной статье с семантической и лингвокультурологической точек зрения анализируется употребление цветовой лексемы «kara» в турецком языке в составе свободных и фразеологических сочетаний. В ходе исследования научно обосновывается, что лексема «kara», наряду со своей основной функцией обозначения цвета, проявляется в составе фразеологических единиц как многослойное семантическое средство, выражающее как отрицательные, так и положительные значения.

Ключевые слова: *язык, лексема, фразеологическая единица, цветовая лексема, чёрный, семантика, устойчивое сочетание, свободное сочетание.*

Til insonlar o‘rtasida muloqotni amalga oshirishga xizmat qiluvchi, nutq jarayonida fikr-mulohaza, hissiyot va ehtiyojlarni ifodalash imkonini beradigan fonetik, lug‘aviy hamda grammatik birliklar majmuasidir. U jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlovchi, tafakkur jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va ijtimoiy hayotda muhim kommunikativ vazifani bajaruvchi ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi[1]. Til kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlab beruvchi vosita ekan unda aks etgan har bir leksik birlik tilshunoslikning turli yo‘nalishlari doirasida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganiladi. Til tizimida rang bildiruvchi leksemalar faqat predmet va hodisalarning tashqi belgilarini ifodalab qolmay, balki xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim semantik birliklar hisoblanadi.

Leksema, nutq jarayonida turli shakllarda namoyon bo‘lishiga qaramay, tilning lug‘at tarkibiga mansub, lug‘aviy ma’no ifodalovchi va til tizimida mustaqil birlik sifatida mavjud bo‘lgan leksik unsurdir[2]. Til tizimida alohida leksemalar bilan bir qatorda, nutqda tayyor holatda qo‘llaniladigan, ma’no va shakl jihatidan barqaror bo‘lgan murakkab leksik birliklar ya’ni frazeologik birliklar ham mavjud.

Frazeologik birliklar tarkiban ikki yoki undan ortiq leksemalardan tashkil topgan, butunicha ko‘chma ma’no ifodalovchi, tarkibiy qismlari mustaqil holda erkin almashtirilmaydigan hamda nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan barqaror birikmalardir. Frazeologizmning semantik tuzilishi (ma’no imkoniyatlari) frazeologik ma’no (barqaror birikma asosida ifodalanadigan axborot) va qo‘shimcha ma’no bo‘yoqdorligidan iborat bo‘ladi[3].

1 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 105-bet.

2 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 56-bet.

3 Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. 8-bet.

Shuningdek rang termini fizik jihatdan “nurning tuzilishi yoki obyektlar tomonidan tarqalish xususiyatiga bog‘liq bo‘lgan, ko‘zga ko‘rsatilgan ta’siri[4]” sifatida keltiriladi. Biroq ranglar nafaqat fizika qolaversa, san’at, falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik hamda tilshunoslikning ham o‘rganish obyekti hisoblanadi. Frazeologik birliklar tarkibida qo‘llanilgan rang nomlari tilda ramziy, emotsional-ekspressiv ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Turk tilida shunday rang leksemalaridan biri bo‘lgan “qora / kara” frazeologik birliklar tarkibida faol qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Qora leksemasiga izohli lug‘atlarda “Ko‘mir rangi[5]” sifatida ta’rif keltiriladi. Qora rang leksemasi frazeologik birliklar kontekstida turlicha semantik qirralarga ega bo‘lib, u salbiy, ijobiy hamda kuch-qudrat ma’nolarni ifodalash imkonini beradi. Bu holat “kara” leksemasining faqat rang nomi sifatida emas, balki ko‘p qatlamli semantik va lingvokulturologik birlik sifatida faol qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

Turk tilidagi ko‘plab frazeologik birliklarda “kara” komponenti salbiy baholovchi ma’noga ega. Masalan, *kara gün* (og‘ir kun), *kara haber* (qora xabar), *kara talih* yoki *kara baht* (yomon taqdir), *kara toprak* (Qabr, mozor), *Kara yüz* (uyatli yuz), *karalar bağlamak* (qora bog‘lash), *kara cehennem* (qahri qattiq kimsa), *Kara damaklı* (Qaysar), *Kara ağızlı* (Shum xabar yetkazuvchi), *Kara çalmak* (tuhmat qilish) [6] kabi frazeologizmlar inson hayotidagi mushkul vaziyatlar va salbiy kechinmalarni ifodalaydi. Bu holatda qora rang qayg‘u, umidsizlik va falokat bilan bog‘liq ramziy ma’noni yuzaga chiqaradi.

Kara sevdalıları ayıranın onduğunu duydun mu hiç? Aralarına **kara çalı** olma sevdalıların[7].

*(Muallif tarjimasi) Chin oshiqlarni ayirganlarni hech eshitdingmi? Oralarini buzguvchi bo‘*lma ikki oshiqning.

Ushbu jumlada qora leksemasi erkin birikma tarzida emas balki frazeologik birlik sifatida ishtirok etgan. So‘zma-so‘z tarjima qilinganida esa **Kara sevdalılar** (qora oshiqlar) hamda **kara çalı** (qora buta) ma’nolarini beradi. Yuqoridagi obrazli tasavvurlar oqibatida esa ayrim so‘zlarning ma’nosi ikkinchi darajaga ko‘chib birikmadan yaxlitligicha yangi bir ma’no hosil qilishga xizmat qiladi. Bunday ma’nolar esa frazeologik ma’no hisoblanadi. Yuqoridagi jumlada keltirilgan **Kara sevdalılar** birikmasi **kara rang** bildiruvchi leksema orqali hosil qilingan turg‘un birikma hisoblanadi hamda izohli lug‘atlarda “Boshqa hech narsaga joy qoldirmaydigan darajada shiddatli va umidsiz sevgi[8]” degan ma’nolarni ifodalaydi. **Kara çalı** birikmasi kara hamda çalı so‘zining birikuvidan hosil bo‘lib ikki insonning orasini buzguvchi kimsa ma’nolarini ifodalaydi[9].

Bu ne renk mahluktur böyle? Bukalemun gibi saniyeden saniyeye değişiyor. **Kara saçlı** mıdır, ak saçlı mıdır, kırmızı mıdır, kumral mıdır, belli değil...[10]

*(Muallif tarjimasi)*Bu qanday rangdagi mahluqot? Buqalamunga o‘xshab soniya soniyasiga o‘zgarmoqda. **Qora sochlikmi**, oq sochlikmi, qizilmi, bug‘doy rangdami, noma’lum…

Yuqorida keltirilgan ushbu jumlada **qora rang** leksemasi erkin birikma sifatida kelgan bo‘lib odatda erkin birikmalarda **qora rang** bildiruvchi leksema sifat ko‘rinishida qo‘llaniladi hamda boshqa leksemalar bilan birikkanida so‘zma-so‘z ma’no hosil qiladi. Biroq Turg‘un birikmalarda esa aksincha qora rang leksemasi rang bildirish xususiyatidan uzoqlashib obrazli ma’no ifodalashga xizmat qiladi.

Biroq “kara” leksemasi har doim ham salbiy mazmunni anglatmaydi. Masalan, *kara yiğit* (mard), *kara cüppeli (ilm sohasiga tegishli kimsa) kara gün dostu (qora kunda madadkor do*‘st), *kara toprak* (unumdor tuproq), *kara gözlü* (qo‘rqmas) [11]*singari* frazeologik birliklar salbiy emas, balki kuch-qudrat, jasorat va qat’iyatni ifodalovchi semantik qirralarga ega.

Bir kulaç, **kara toprak** içinde filizimi sürmek, dal ve budaklarımı aydınlığa doğru uzatmak, meyvemi vermek için Allah’ın rahmetini bekliyorum[12].

4 Larousse M. Büyük lugat ve ansiklopedi. – Istanbul: Sabah, 1981. – S. 486.
5 Ayverdi I. Büyük türkçe sözlük. – Istanbul:Seçil ofset, 2010. – S. 624.
6 Ayverdi I. Büyük türkçe sözlük. – Istanbul:Seçil ofset, 2010. – S. 624.
7 Kemal Y. İnce Memed (1). – Istanbul: Yapı kredi yayınları, 1955. – S.92.
8 Ayverdi I. Büyük türkçe sözlük. – Istanbul:Seçil ofset, 2010. – S. 628.
9 https://www.atasozlerimiz.com/deyimler/kara-cali/
10 Güntekin R.N. Akşam güneşi). – Istanbul: Inkilap, 2014. – S.82.
11 Ayverdi I. Büyük türkçe sözlük. – Istanbul:Seçil ofset, 2010. – S. 624.
12 Karaosmanoğlu Y. K.Yaban .– Istanbul: İletişim yayınları,

(Muallif tarjimasi) Bir qarich qora tuproq qarida unib chiqib, shoxlarimni ko‘kka qarab uzatish, meva hosil berish uchun Allohning karamini kutmoqdaman.

Yuqorida keltirilgan ushbu parchada *qora rang* bildiruvchi *kara leksemasi* toprak so‘zi bilan birikkan holda turg‘un birikma hosil qilib ijobiy ottenka uchun xizmat qilgan. **Kara toprak** iborasi a) numli yer maydoni b) qabr, mozor ma’nolarida qo‘llanilishi Turk tilining izohli lug‘atlarida keltirib o‘tilgan[13].

“Özelsin Süveyda,” deyip iç çekti. “Sen kalbime özelsin. Bazı yenilgiler daha fazla acı veriyordu. Bazı kabullenişler daha fazla yaralıyordu. Ve bazı hisler, hiç söz dinlemiyordu, tüm yasakları çiğneyecek kadar **gözü kara** oluyordu. Kalbimi ele geçiren hisler gibi...[14].

*(Muallif tarjimasi) “Juda muhimsan Suveyda” deya xo‘*rsindi. “ Sen qalbim uchun muhimsan. Ba’zi mag‘lubiyatlar juda ko‘p og‘riq berardi. Ba’zi qabul qilishlar esa yanada chuqurroq yaralaydi. Va ayrim hislar hech qanday so‘zga quloq solmaydi, barcha taqiqlarni buzadigan darajada **ko‘zi qoraga** (qo‘rqmasga) aylanadi. Xuddi yuragimni egallab olgan hislar kabi...”

2007. – S. 67.

13 Ayverdi I. Büyük türkçe sözlük. – Istanbul:Seçil ofset, 2010. – S. 624.

14 Tan Ü. Virane düşler.– İstanbul: Pukka yayınları, 2024.– S.126.

Yuqorida keltirilgan parchada gözü kara birikmasi erkin so‘z birikmasi sifatida emas, balki turg‘un frazeologik birlik sifatida qo‘llangan. Mazkur frazeologizm kontekstda rang bildiruvchi ma’nodan butunlay uzoqlashib, jasorat, qo‘rqmaslik va qat’iyat kabi ijobiy baholovchi semantik yukni ifodalaydi. Bu yerda “kara” leksemasi ko‘z rangini bildiruvchi sifat vazifasini bajarmaydi, balki obrazli ma’no hosil qilish orqali subyektning ichki ruhiy holatini va emotsional holatini kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Frazeologik birlik tarkibida **gözü kara** iborasi semantik jihatdan bo‘linmas yaxlitlik kasb etib, tarkibiy qismlarining alohida ma’nolari ikkinchi planga suriladi. Natijada birikma nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan, barqaror va ko‘chma ma’noli birlik sifatida ishtirok etadi.

Demak, “kara” komponenti kontekstga qarab ijobiy semantik yukni ham o‘zida mujassamlashtirishi mumkin.“Kara” leksemasi til tizimida faqat rang bildiruvchi sifat sifatida emas, balki ko‘p qatlamli semantik yuklama va madaniy-ramziy mazmunga ega bo‘lgan muhim lingvistik birlik sifatida faol amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayverdi I. Misali büyük türkçe sözlük. – Istanbul: Kubbealtı yayınları, 2010. – 1412 s.
2. Güntekin R.N. Akşam güneşi. – Istanbul: Inkilap, 2014. – 431 s.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 164-b.
4. Karaosmanoğlu Y. K. Yaban . – Istanbul: İletişim yayınları, 2007. – 220 s.
5. Kemal Y. İnce Memed (1). – Istanbul: Yapı kredi yayınları, 1955. – 368 s
6. Larousse M. Büyük lugat ve ansiklopedi. – Istanbul: Sabah, 1981.Cild.16. – 596 s.
7. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. 636-b.
8. Tan Ü. Virane düşler.– İstanbul: Pukka yayınları, 2024.– 741 s.

Nigora NORMURATOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti
nigoraaaab@gmail.com



ADABIYOTSHUNOSLIKDA IJODKOR INDIVIDUALLIGI VA USLUBINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqola ijodkor individualligi va uslub nazariyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asarda qadimiy davrdan boshlab Aristotel va Goratsiy, 18–19-asr rus adabiyotshunoslari Vinogradov va Lotmanning nazariyalari tahlil qilinib, ijodkorning shaxsiyligi va uslubi adabiy asarlarda qanday namoyon bo‘lishi ko‘rsatildi. Shuningdek, Karamzin, Dmitriyev, Krilov, Lermontov va Gogol ijodi orqali individual uslub va badiiy tafakkur o‘rganildi. Ishda uslub, til vositalari, syujet va obrazlar tizimi orqali muallif shaxsiyati bilan bog‘liq jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ijodkor individualligi, uslub, badiiy tafakkur, adabiyotshunoslik, rus adabiyoti.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению индивидуальности автора и теории стиля. В работе проанализированы концепции Аристотеля и Горация, а также русских литературоведов XVIII–XIX веков В.В. Виноградова и Ю.М. Лотмана, показано, как индивидуальность автора и его стиль проявляются в литературных произведениях. Рассмотрены творчество Карамзина, Дмитриева, Крылова, Лермонтова и Гоголя, выявлены особенности индивидуального стиля и художественного мышления. В статье освещены аспекты, связанные с личностью автора через стиль, языковые средства, сюжет и систему образов.

Ключевые слова: *индивидуальность автора, стиль, художественное мышление, литературоведение, русская литература.*

Annotation: this article is devoted to the study of authorial individuality and style theory. It analyzes the concepts of Aristotle and Horace, as well as 18th–19th century Russian literary scholars Vinogradov and Lotman, demonstrating how an author’s individuality and style manifest in literary works. The creativity of Karamzin, Dmitriyev, Krylov, Lermontov, and Gogol is examined, highlighting the features of individual style and artistic thinking. The article also explores the connection between the author’s personality and literary elements such as style, language tools, plot, and character system.

Key words: *authorial individuality, style, artistic thinking, literary studies, Russian literature.*

Kirish. Ijodkor individualligi va uslub nazariyasi adabiyotshunoslikning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu nazariya muallifning shaxsiy xususiyatlari, dunyoqarashi, badiiy qarashlari va ijtimoiy mavqeini matn orqali aniqlash imkonini beradi. Nazariy jihatdan bu tushuncha asarlar tahlilida qahramon xarakteri, voqea tuzilishi, til va badiiy vositalar tanlovi orqali aniqlanadi. Ijodkor individualligi, avvalo, uning voqelikka bo‘lgan munosabati, hayotiy hodisalarni idrok etish usuli va badiiy umumlashtirish darajasida ko‘zga tashlanadi. Har bir adib voqelikni o‘zicha ko‘radi va uni o‘ziga xos estetik mezonlar asosida tasvirlaydi. Shu bois adabiy asarda muallif shaxsiyati yashirin holda bo‘lsa-da, obrazlar tizimi, syujet rivoji hamda muallif pozitsiyasi orqali namoyon bo‘ladi. Uslub esa ijodkor individualligini ifodalovchi muhim omillardan biri bo‘lib, muallifning tilga munosabati, ifoda vositalarini tanlashi, badiiy tasvir usullarida yaqqol aks etadi. Uslub nafaqat individual xususiyat, balki muayyan adabiy davr va estetik oqim bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ijodkor uslubini tahlil qilish jarayonida tarixiy-ijtimoiy sharoit, adabiy an’analar va muallifning shaxsiy tajribasini bir butun holda ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Uslub va ijodkor individualligini ilmiy asosda tahlil qilish masalasi adabiyotshunoslikda qadimiy ildizlarga ega. Poetik tafakkurning dastlabki nazariy manbalari qadimgi Sharq va G‘arb adabiy-estetik qarashlarida shakllangan bo‘lib, unda badiiy ijod mohiyati, so‘z san’ati va muallif mahorati masalalari markaziy o‘rin egallagan. Xususan, qadimgi yunon faylasufi Aristotelning “Poetika” asari badiiy ijodni nazariy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan ilk fundamental tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Unda asarning tuzilishi, syujet, xarakter va til masalalari orqali ijodkorning badiiy uslubi va individual qarashlari bilvosita yoritiladi. Aristotel “Poetika” asarida ijodkor individualligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuncha sifatida ajratib ko‘rsatmagan bo‘lsa-da, uning nazariyasida muallif shaxsiyati bilan bog‘liq muhim poetik omillar bilvosita yoritilgan. Xususan, Aristotel badiiy ijodni “mimesis”, ya’ni voqelikni badiiy taqlid qilish jarayoni sifatida talqin etar ekan, ushbu taqlidning xarakteri ijodkorning voqelikni qanday idrok etishi bilan belgilanadi. Bu hol ijodkor individualligini badiiy asarda namoyon bo‘luvchi ichki omil sifatida qarash imkonini beradi.

Aristoteldan keyin uslub haqida yaratilgan yana bir nazariy maktab asoschisi Goratsiy edi. U miloddan avvalgi 1-asrda Rimda yashagan shoir hisoblanadi. Uning bizga “She’riyat san’ati” asari yetib kelgan. Bu kitob “Ars Poetica” nomi bilan mashhur. Kitob uslub va poetika nazariyasining antik davrdagi bilimlarini umumlashtiradi. Kitob turli tillarga tarjima qilingan. Biz ilmiy ishimizda ishlatgan tarjima A.S.Kline tomonida ingliz tiliga tarjima qilingan. Avvalo, shoirning uslub haqidagi nazariy qarashlariga e’tibor qaratamiz:

“Belive me, a book would be like such a picture,
Dear Pisos, if it’s idle fancies were so conceived.
That neither its head nor foot could be related.
To a unified form”. [1]

Tarjimadagi ma’no: asarning barcha qismi bir xil uslub va tuzilishga ega bo‘lishi kerak, ortiqcha bo‘sh fikrlar asarning uzviyligini buzmasligi lozim. Keyingi o‘rinda, olim yozuvchilarni ortiqcha bezakdan foydalanishlariga tanqidiy nazar bilan qaraydi:

“Weighty openings and grand declarations often
Have one or two purple patches tacked on, that glame
Far and wide, when Diana’s grove …
There’s no place for them here”.[1]

Tarjimadagi ma’no: badiiy asarda ortiqcha, nojo‘ya, o‘rinlio‘rinli bo‘lmagan bezaklar ishlatilmasligi, uslubning me’yoriy va mos bo‘lishi muhim ekanini bildiradi. Uslub individualligi haqida yozar ekan uslub tanlangan mavzuga mos tushushi kerakligini tushuntirib beradi:

“You who write, choose a subject that’s matched by
Your powers …
Eloquence, and clear construction, won’t fail him” [1]

Tarjimadagi ma’no: mavzu, uslub va stilistik vositalar bir-biriga mos kelishi shart; mantiqiy va estetik uyg‘unlik uslubning asosiy mezoni. Goratsiy haqida fikrimizni yakunlar ekanmiz, uning uslub va stilistika haqidagi yana bir fikrini keltirib o‘tishni o‘rinli deb hisobladik:

“If you need to indicate abstruse things by novel terms
… licence will be given you if wisely used”. [1]

Tarjimadagi ma’no: yangilik yoki terminologik ijodga ruxsat beriladi, lekin u oqilona va maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

18-asrga kelib Yevropada uslub tushunchasiga oid qarashlar yanada sayqallandi. Jorj Buffon, Vilgelm fon Gumboldt, Aleksandr Potebnya kabilar uslubni yangi qirralarini ochib berdi. Ammo rus adabiyotshunosligida V.V.Vinogradov ilk bor uslubni shaxsiylik prinsipi sifatida ko‘radi. Bu borada o‘zining nazariyalari haqida ko‘plab kitoblar yozadi. «Проблемы русского литературного языка», «Язык и стиль русских писателей», «О стиле», «Русский язык и стиль» kabilar uslub va adabiyotshunoslikning bir nechta muammolariga yechim sifatida yaratildi. U uslubni o‘rganar ekan, rus ijodkorlarining individual ijodiga murojaat qiladi. Olimning Karamzin, I. I. Dmitriyev, Krilov, Lermontov, Gogol ijodiga bag‘ishlangan maqolalari yagona kitob shakliga keltirilgan. Ushbu kitob adabiyotshunoslikdagi ijodkor labaratoriyasi, ijodkorning individual uslubi, ijodiy psixologiya kabi terminlarning mohiyatini mukammal darajada ochib beradi. Bu kitob “От Карамзина до Гоголя” nomi bilan mashhur va hozirga qadar oliy o‘quv yurtlarida ijodkor uslubi haqidagi yirik manba sifatida o‘rganiladi. V. V. Vinogradovning “От Карамзина до Гоголя” asarining asosiy maqsadi rus adabiy tilining shakllanish jarayonini alohida ijodkorlarning individual uslubi orqali yoritishdan iborat. Olim uslubni faqat til hodisasi sifatida emas, balki ijodkor shaxsiyati, dunyoqarashi va badiiy tafakkuri bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin etadi. Shu bois asarda til, uslub va ijodiy tafakkur masalalari bir butun tizimda o‘rganiladi. Asarning ichki tuzilishiga qaraydigan bo‘lsak, kitob besh yirik maqola va A.P.Chudakovning Vinogradovning nazariyasi haqidagi nazariy qarashlari bayoni bilan yakunlanadi. Vinogradov individual uslubni Karamzin ijodi bilan bog‘lab olib kiradi. Karamzin ijodini rus adabiyotining yangi bosqichini boshlab bergani bilan baholaydi: “Karamzinning uslubiy islohoti, bunday talqinda deyarli rus milliy adabiy tilining me’yorlari shakllanish jarayoni bilan aynanlashtirilgan holda, rus adabiyoti va rus adabiy tilining rivojlanishidagi aniq ijtimoiy-tarixiy sharoitlardan uzib qo‘yiladi. Natijada Karamzindan keyingi rus adabiy-til madaniyatining butun taraqqiyoti karamzincha uslubiy tizim oqimida harakatlangan yagona jarayon sifatida tasavvur etiladi”. [2] Ushbu yuqorida keltirilgan fikrdan ma’lum bo‘ladiki, Vinogradov Karamzin ijodiga yuqori baho beradi va Pushkin ijodi uchun tayanch vazifani bajarganini aytib o‘tadi. Karamzindan so‘ng izchillik asosida Dmitriyev joylashtirilgan. Ushbu ijodkorni olim xalqchil sifatida ta’riflaydi. Bu bejizga emas edi. Kitobning shoirga bag‘ishlangan qismida u shunday deydi: “Dmitriyev quyidagi tamoyilni namuna sifatida ko‘rsatdi: “she’riy ilhomni xalq tarixining manbaidan olish”, “mahalliy ranglardan foydalanish. Umuman olganda, Dmitriyevning yuqori lirik uslubi ko‘pincha Derjavin uslubining ta’sirini o‘zida aks ettiradi. Jumladan, Dmitriyevning “Vatanparvar ovozi” (“Глас патриота”) asari nashr etilgach, butun shahar va hatto Yekaterina ham o‘sha paytda bu she’rlarni Derjavin she’rlari deb hisoblagan, chunki ularda uning ayrim uslubiy usullari yaqqol sezilgan”. [2]

Ijodkor birgina misol orqali uslub kuchini namoyon qilish mumkinligini isbotlay olgan. Dmitriyevning ijodiy uslubini Derjavinga yaqin turishini aytib o‘tadi. Demak, bundan ma’lum bo‘ladiki, Derjavin o‘z uslubini topgan. Aynan shu o‘rinda Rasul Hamzatovning uslub haqida bir fikrini o‘rinli deb topdik: “Shoir uchun o‘z uslubini topishi o‘zligini topishidir, demakki, chinakam shoir bo‘lishidir”. [3] Bu maqolada u Dmitriyevni xalqchil shoirligini ko‘p o‘rinlarda isbotlaydi.

Undan keyingi shoir Krilov edi. Olim bu ijodkorga ham alohida to‘xtalib o‘tib, uni A. Sumarokov bilan taqqoslaydi va shunday deydi: “Krilov tilida rus xalq tilining butun kuchini zabt etuvchi she’riy qudrati nihoyatda yorqin namoyon bo‘lgan”. [2] Krilov uslubining jozibador qirralarini uning she’rlari va tarjimalari bilan ochib beradi. Bu o‘rinda Lafontenning “Chigirtka”nomli didaktik she’ri keltirilgan.

Krilovning tarjimasida diologlar tuzilishi naqadar puxta va o‘quvchiga oson yetib borishi aytib o‘tilgan. “Chigirtka va chumoli o‘rtasidagi dialog kundalik suhbat ohangida bo‘lib, unda ifodaviy intonatsiyalarning nozik o‘yini seziladi. She’rning ritmi, turli sintaktik shakllar va shuningdek, turli frazeologik ifodalarning uyg‘unligi bilan ramziy tasviriy xususiyatga ega bo‘ladi”. [2] Tarjimada shoir murakkablikdan qochadi va oddiylikka intiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, uslub tahlili jarayonida adabiyotshunos olim gapning sintaksis qurilishiga ham alohida e’tibor qaratadi chunki sintaksis birliklar uslubni ochib berishning yo‘llaridan biri.

Vinogradov Lermontovning ijodiy uslubini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan olim edi. U adabiyotga yangicha ohanglar bilan kirib keldi. U klassik va romantik adabiyotning ildizlaridan suv ichdi. Uning ijodi rus adabiyotiga qachonlardan beri yetishmay kelayotgan mumtoz navolarni olib keldi. U Lermontovning rus adabiyotiga kirib kelishini shunday ta’riflaydi: “Romantik uslubda yangi adabiy frazeologiya va sintaksis shakllari yaratdi. U erkin fikrlaydigan shaxsning murakkab g‘oya va his-tuyg‘ularini ifodalashga moslashtirdi. Shu bilan birga, qahramon obrazini yaratishning yangi usullari paydo qildi va “o‘lib borayotgan klassik maktab leksikoniga jo’shqin qon olib keldi”.[2] Keltirilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, Lermontov ijodi klassik adabiyotning gultojidir. Uslubni nafaqat sintaksis birliklar, balki oqimlar doirasida ham tahlil qilish o‘zini oqlaydi. U shoirning uslubini o‘rganar ekan, uning portret tasviriga ham o’rin ajratadi: “Lermontov ijodida portret uslubi ko‘pincha belgilarni qisqa, aniq va deyarli to‘liq ifodalashga asoslangan. Natijada komik yoki hazil ohangining kuchi sezilarli darajada kamayadi, lekin satirik tasvirning o‘tkirligi va tanqidiy kiritilishi ortadi. Bu xususiyatni tushunish uchun Gogolning “Nevskiy prospekt”dagi Pirogov leytenanti tasvirini Lermontovning “Peterburg jamiyatining xarakterli shaxslari”dan biri — Gorshenkov portreti bilan solishtirish yetarli. Lermontovda portret tasviriylik va tashqi qiyofa jihatidan rang-barangligi bilan ajralib turadi, shuningdek, uning xarakteri ichki psixologik tahlil bilan uyg‘unlashadi. Gogolda esa Pirogovning tashqi ko‘rinishi deyarli berilmagan; uning va unga o‘xshash yoshlar turkumi xarakterining xususiyatlari uzoq, o‘tkir, lekin tartibsiz ro‘yxat shaklida berilib, birdan keskin to‘xtatiladi. ‘ [2] Bu tahlildan ko‘rinib turibdiki, portret uslub unsurlaridan biridir.

Gogol ijodi kitobning yakunida berilgan. Uning uslubi murakkab elementlardan tashkil topgan bo‘lib, Vinogradov bu haqida shunday ta’rif berib o‘tadi: “Gogolning tili o‘zining yakuniy aniqlanish jarayonida sezilarli o‘zgarishlar va keskin tebranishlarga duch kelgan. Ushbu o‘zgarishlarni tushunish Gogolning til ijodining ijtimoiy-siyosiy va badiiy-mafkuraviy zaminini chuqur anglash uchun muhimdir. 1930-yillarning birinchi yarmidagi Gogol asarlarida, umumiy adabiy nutqning an’anaviy “neytral” fondidan tashqari, quyidagi to‘rtta asosiy lingvistik qatlam yaqqol namoyon bo‘ladi:

1. Ukraina xalq tili, ya’ni sodda va mahalliy xalq ohangiga yaqin ifoda vositalari;

2. Rus tilining suhbatlashuv uslubi va milliy kundalik nutqdagi dialektlar, ular asosan muloqot va kundalik hayotga xos;

3. Rus rasmiy-idhodiy tili, ko‘pincha kantselyariya uslublari bilan, ba’zida suhbatlashuvchi-amaldor dialektining aralashuvi bilan;

4. Rus adabiy-badiiy va publitsistik nutqining romantik uslublari, murakkab hissiy va estetik tuyg‘ularni ifodalashga mo‘ljallangan.

Bu qatlamlarning o‘zaro ta’siri va nisbati 1930-yillarning ikkinchi yarmasiga kelib murakkab evolyutsiyani boshdan kechiradi. Aynan “O‘lik adabiyot” davrida Gogol uslubining har bir nutq qatlamining holati va ularning bir-biriga ta’siri yanada aniq ko‘rinadi. Shu bilan birga, til qatlamlarining bu murakkab uyg‘unligi Gogolning siyosiy, ijtimoiy va badiiy maqsadlarini amalga oshirishdagi uslubiy strategiyasini aks ettiradi”. [2]

Gogol uslubining shakllanishiga, sayqal topishiga olib kelgan manbalarni ham keltirib o‘tadi. Yuqoridagi fikrlardan ma’lumki, Gogol uslubi to‘rt asosiy omil ta’sirida shakllangan. Vinogradov ijodkor uslubini ilk bor tizimli tadqiq qildi. Bu borada umri davomida ko‘plab asarlar yozdi. Uning ishlarini Lotman davom ettirdi.

Yuriy Lotman (1922–1993) — rus formalizmi va strukturalizm an’anasida ishlagan mashhur semiotik va adabiyotshunos olim. U asosan madaniyat, adabiyot va tilning strukturaviy tahlili bilan shug‘ullangan. “Литературный процесс” asarida xuddi Vinogradov sindari Gogol va Lermontov uslubini tahlil qiladi.

Xulosa: Ijodkor individualligi va uslub adabiyotshunoslikda muallif shaxsiyati, dunyoqarashi va badiiy tafakkurini aniqlashda markaziy o‘rin tutadi. Uslub orqali muallifning tilga munosabati, ifoda vositalari va badiiy tasvirlari orqali uning shaxsiyligi namoyon bo‘ladi. Qadimiy davrdan boshlab Aristotel va Goratsiydan tortib Vinogradov va Lotmanga qadar olimlar ijodkor uslubini tahlil qilib, uni adabiy jarayon va til bilan bog‘lagan. Vinogradov rus adabiyotida Karamzin, Dmitriyev, Krilov, Lermontov va Gogol ijodini o‘rganib, har bir ijodkorning individual uslubini sistematik tarzda yoritgan. Shu tariqa, ijodkor individualligi va uslubni o‘rganish adabiy asarlarni chuqur tahlil qilish va muallifning badiiy o‘zligini anglash uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Horace (Quintus Horatius Flaccus), The Art of Poetry, Translated by A. S. Kline, © Copyright 2003, [URL: https://www.poetryintranslation.com/Admin/Copyright.php]

2. Виноградов В. В. От Карамзина до Гоголя. — М.: Наука, 1990. — С. 9

3. Rasul Hamzatov. Mening Dagistonim. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. — B. 128.

Dilfuza KURYOZOVA,
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti
e-mail: dilfuzaquryazova1@gmail.com

MUNIS TARJIMASIDAGI "RAVZATU-S-SAFO" ASARI MUQADDIMASIDA AYRIM ILMIY-FALSAFIY VA DINIY-IRFONIY ATAMALARNING LISONIY TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Munis Xorazmiy tomonidan tarjima qilingan "Ravzatu-s-safo" asarining til uslubi hamda mazkur asarda uchraydigan ilmiy-falsafiy, diniy atamalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida matndagi diniy-falsafiy, irfoniy va ilmiy leksika qatlamlari aniqlanib, ularning ma'no qirralari ochib berildi. Ko'plab izohtalab so'zlarning matndagi ma'nosi va til tizimidagi o'rni izohlandi. Maqola Munis asarining diniy-falsafiy tafakkurning badiiy talqini ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *"Ravzatu-s-safo", Munis Xorazmiy, Ibn Sino, lisoniy xususiyatlar, ilmiy-falsafiy qarashlar, leksik-semantik tahlil, irfon.*

Annotation: this article analyzes the linguistic style of the work "Ravzatu-s-safo" translated by Munis Khorezmi, as well as the scientific-philosophical and religious terms found in this work. During the research, the layers of religious-philosophical, mystical and scientific lexical elements in the text were identified and their semantic aspects were revealed. The meaning of many explanatory words in the text and their place in the language system were explained. The article shows that Munis's work is an artistic interpretation of religious-philosophical thought.

Key words: *"Ravzatu-s-safo", Munis Khorezmii, Ibn Sina, linguistic features, scientific and philosophical views, lexical and semantic analysis, lore.*

Аннотация: в данной статье анализируется языковой стиль произведения "Равзату-с-сафо" в переводе Муниса Хорезми, а также научно-философская и религиозная терминология, встречающаяся в этом произведении. В ходе исследования были выявлены пласты религиозно-философских, мистических и научных лексических элементов в тексте и раскрыты их семантические аспекты. Объяснено значение многих пояснительных слов в тексте и их место в языковой системе. В статье показано, что произведение Муниса представляет собой художественную интерпретацию религиозно-философской мысли.

Ключевые слова: *"Равзату-с-сафо", Мунис Хорезми, Ибн Сина, языковые особенности, научно-философские взгляды, лексико-семантический анализ, фольклор.*

Kirish. Munis Xorazmiy ijodi o'zbek adabiyoti va tarjimashunosligi tarixida alohida mavqega ega. Uning "Ravzatu-s-safo" asari uchun yozgan muqaddimasi nafaqat tarixiy asarga kirish bo'lib xizmat qiladi, balki o'zida murakkab ilmiy-falsafiy va diniy-irfoniy qarashlarni mujassam etgan badiiy-falsafiy matndir. Mazkur muqaddimadagi ko'plab istilohlar hozirgi lingvistika uchun ham muhim, chunki ular sharqona falsafiy an'analar, tasavvufiy tafakkur, hikmat va kalom ilmlarining til orqali ifodasini o'zida jamlaydi.

Irfon nuqtayi nazaridan, butun mavjudotning asl haqiqati ularning Vujudi Mutlaq bilan ittihod اتحاد – birlashuvidadir. Ittihod – bu "yagona, mutlaq Vujudni mushohada qilishdir, zero barcha ashyolar Haqning yagona Vujudi bilan mavjuddirlar". Ya'ni mavjudotning ko'pligi zohiriydir, botinan esa ularning barchasi yagona Haq vujudining turli jilolaridir.

Mufradot va murakkabot istilohlari: "...xomayi qudratidin mufradot-u murakkabot... g'ayb fazosidin shahodat arsasig'a kelturdi". Mazkur istilohlar islom mumtoz ilm-fanining ikkita asosiy manbasi – ratsional falsafa (hikmat) va irfoniy tafakkur (tasavvuf) qarashlarini o'zida birlashtirgan atamalardir. Ularning to'liq ma'nosini anglash uchun Dehxudo lug'ati taklif qilgan falsafiy-tabiiy talqinni Sajjodiy lug'atidagi irfoniy qarashlar bilan sintez qilish maqsadga muvofiqdir.

Metodologiya. Tadqiqot davomida quyidagi metodlarga tayanildi:

1. Leksik-semantik tahlil. Atamalarning ichki semantik tuzilishi, ko'p qatlamli ma'no tizimi,

lug‘atlardagi ta’riflari va matndagi funksional yuklamasi aniqlanadi.

2. Komparativ (qiyosiy) tahlil. Dehxudo lug‘ati va Sajjodiy lug‘atlaridagi talqinlar o‘zaro qiyoslandi, ular asosida ilmiy va irfoniy ma’no qatlamlari farqlab berildi.

3. Kontekstual tahlil. Atamalarning “Ravzatu-s-safo” muqaddimasida qanday kontekstual ahamiyat kasb etishi aniqlanadi.

4. Irfoniy-falsafiy talqin. Tasavvufiy manbalar asosida atamalarning botiniy, irfoniy ma’nolari yoritiladi.

5. Lisoniy-poetik tahlil.

Natijalar. 1. “Ittihod” istilohi: irfoniy birlashuv konsepti. Munis matnida ittihod اصطلاح imavjudotning asl mohiyatini yoritishda qo‘llanilgan. Irfon ta’limotiga ko‘ra:

Ittihod — Vujudi Mutlaq bilan birlashuv, yagona Haqni mushohada qilish. Mavjudotning ko‘pligi zohiriy bo‘lib, botinan barchasi Haqning jilolari hisoblanadi.

Bu istiloh Munis tomonidan borliqning metafizik mohiyatini ochishda asosiy konseptual nuqta sifatida qo‘llangan.

2. “Mufradot va murakkabot” istilohlarining ikki qatlamli talqini

2.1. Ilmiy-falsafiy qatlam (Dehxudo talqini)

Dehxudo lug‘atiga ko‘ra: Mufradot — to‘rt unsur (tuproq, suv, havo, olov) kabi “basoit”, ya’ni eng sodda modda asoslari.

Murakkabot — mazkur unsurlarning turli nisbatlarda qo‘shilishidan hosil bo‘lgan “mavolidi salosa”:

ma’danot

nabotot

hayvonot

Bu — klassik sharq tabiatshunoslik tizimiga mos tushadi.

2.2. Irfoniy qatlam (Sajjodiy talqini)

Sajjodiy lug‘atida esa mufradot va murakkabot:

olami Mulk, ya’ni moddiy olamning o‘zi sifatida talqin qilinadi;

Mulk — Malakut va Jabarutning in’ikosi;

har bir jism Allohning ismlari tajallisi sifatida yuzaga keladi.

Demak, modda faqat fizik birlik emas, balki ilohiy ismlarning mazharidir.

Munis aynan shu ikkita qatlamni badiiy-uslubiy uyg‘unlikda qo‘llaydi.

3. “Xomayi qudrat” obrazining lisoniy-badiiy funksiyasi

Munis “xomayi qudrat” birikmasi orqali:

ilohiy yaratuvchilikni,

qudratning “yozuvchi qalam” sifatida tasvirini,

mavjudotning ilohiy taqdir asosida yuzaga kelishini irfoniy-uslubda ifodalaydi.

Bunda tasavvufiy badiiy obrazlar tizimi yaqqol seziladi.

4. Teologik (kalomiy) istilohlar: “Vojibu-l-vujud”, “Soni’”

Matnda uchraydigan teonimlar islom ilohiyotidagi asosiy kategoriya hisoblanadi.

Vojibu-l-vujud — mavjud bo‘lishi zarur bo‘lgan Zot (Alloh).

Soni’ — yaratuvchi, tartib beruvchi.

Munis bu atamalarni asarning butun g‘oyaviy asosini belgilovchi falsafiy tayanchlar sifatida qo‘llaydi.

Munisning badiiy uslubida atamalarning qanday obraz va poetik vazifa bajarayotgani ochib ko‘rsatiladi. Dehxudo lug‘atida keltirilgan, asosan, Ibn Sino kabi faylasuflarning tabiiy fanlarga oid qarashlariga tayanuvchi talqinga ko‘ra, bu istilohlar moddiy olamning iyerarxik tuzilishini ifodalaydi:

Mufradot مفردات “basoit” (oddiy jismlar) deb ham ataluvchi, borliqning eng sodda, bo‘linmas asoslari, ya’ni to‘rt unsur (anosiri arbaa): tuproq, suv, havo va olovdir. Bular moddiy koinotning “qurilish materiallari” hisoblanadi.

Murakkabot مرکبات o‘sha sodda unsurlarning turli nisbatlardagi birikuvidan hosil bo‘lgan murakkab jismlar, ya’ni “mavolidi salosa” (uch avlod): ma’danlar, o‘simliklar va hayvonot olamidir. Demak, ushbu falsafiy nuqtayi nazardan, Munis mufradot va murakkabot deya butun moddiy olamni – uning eng kichik va sodda zarrasidan tortib, eng murakkab tirik mavjudotigacha – ilmiy tartib bilan tasvirlamoqda.

Doktor Sajjodiyning “Irfoniy istilohlar lug‘ati” bizga ushbu atamalarning yanada chuqurroq, botiniy ma’nolarini ochishga yordam beradi. Irfoniy tafakkurda moddiy olam borliqning yagona yoki oliy darajasi emas, balki ilohiy tajalliyotning bir pog‘onasi, xolos.

1.Borliq olamlari: Irfon ta’limotiga ko‘ra, borliq uch olamdan iborat: Mulk (moddiy olam), Malakut (farishtalar va ruhlar olami) va Jabarut (ilohiy sifatlar olami). “Mufradot va murakkabot” butunligicha olami

Mulk, ya’ni moddiy olamni tashkil etadi. Bu olam o‘zidan yuqoridagi Malakut va Jabarut olamlarining eng quyi darajadagi in’ikosidir.

Munisning “xomayi qudrat” (qudrat qalami) orqali yaratilish haqidagi fikri irfoniy tushunchalar bilan hamohangdir. Irfonga ko‘ra, butun “mufradot va murakkabot” olami Allohning ismlari va sifatlarining tajallisi (jilolanishi)dir. Ya’ni, har bir sodda unsur va har bir murakkab jism Allohning bir yoki bir necha ismini (masalan, al-Xoliq, al-Musavvir, ar-Razzoq) o‘zida aks ettiradi. Shunday qilib, “mufradot va murakkabot” ilohiy ismlarning moddiy olamdagi ko‘zgusiga aylanadi.

Munis Xorazmiy “mufradot va murakkabot” istilohlarini qo‘llaganda, o‘z davrining intellektual muhitiga xos ravishda, ham falsafiy-ilmiy, ham irfoniy-tasavvufiy ma’nolarni nazarda tutgan.

Birinchi qatlam (zohiriy, ilmiy): U butun moddiy olamni (elementlar va ulardan tarkib topgan mavjudotlarni) tartibli, iyerarxik tizim sifatida tasvirlamoqda.

Ikkinchi qatlam (botiniy, irfoniy) moddiy olam shunchaki jismlar yig‘indisi emas, balki borliqning eng quyi pog‘onasi ekanini va u ilohiy ismlar va sifatlarning tajalligohi, ya’ni Allohning qudratini namoyon etuvchi belgilar majmuasi ekanini ta’kidlamoqda.

Demak, Dehxudo lug‘ati bizga bu atamalarning “nima” ekanini (moddiy olam tarkibini) tushuntirsa, Sajjodiy lug‘ati ularning “mohiyati” nima ekanini (ilohiy tajalliyot ekanini) anglatadi. Munis Xorazmiy esa bu ikki qarashni o‘zining yuksak badiiy uslubida mohirona birlashtirib, Allohning yaratishdagi qudratini ham ilmiy, ham irfoniy jihatdan madh etmoqda.

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Munis Xorazmiyning atama tanlovi shunchaki bezak emas, balki uning ichki ma’naviy-falsafiy olamini ifodalovchi, asarning konseptual asosini belgilovchi, badiiy matnning semantik strukturasini uyushtiruvchi asosiy vositadir.

Mufradot va murakkabotning ikki qirrali talqini (ilmiy + irfoniy) Munisning intellektual darajasini va Sharq ilmiy fikrining mushtarak tabiatini yaqqol namoyon qiladi. Munis Xorazmiy tomonidan tarjima qilingan “Ravzatu-s-safo” asari muqaddimasining lisoniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu matn shunchaki tarixiy voqealar bayoniga kirish qismi bo‘lmay, balki muallifning murakkab ilmiy-falsafiy va diniy-irfoniy dunyoqarashini aks ettiruvchi, yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan mustaqil adabiy-falsafiy asardir.

Xulosa. Tadqiqot davomida aniqlandiki, muqaddima leksikasi o‘zida uchta asosiy qatlam – ilohiyot (kalom), ratsional falsafa (hikmat) va tasavvuf (irfon)ga oid istilohlarni uyg‘unlashtirgan. “Vojibu-l-vujud”, “Soni’” kabi teonimlar islom kalom ilmining asosiy tushunchalarini ifodalasa, “mufradot va murakkabot” istilohi bir paytning o‘zida ikki xil ma’no qatlamini namoyon etadi:

1. Zohiriy (ilmiy-falsafiy) qatlam: Ibn Sino kabi faylasuflarning tabiiy ilmlariga asoslanib, butun moddiy olamning iyerarxik tuzilishini (to‘rt unsur va ulardan tashkil topgan uch avlod – ma’dan, nabotot, hayvonot) tasvirlaydi.

2. Botiniy (irfoniy) qatlam: Moddiy olamni borliqning oliy olamlari (Malakut, Jabarut) in’ikosi va Allohning ism va sifatlari jilolanadigan makon (tajalligoh) sifatida talqin qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Munis Xorazmiy. Ravzatu-s-safo tarjimasi. – Xiva: Xorazm qo‘lyozmalar fondi, XIX asr. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 5123.

2.Деххуда, Али Акбар. Лугатнома. – Теҳрон: Донишгоҳи Теҳрон нашриёти, 1955–1978.15 т.

3. Саджодий, Жавад. Лугати истилоҳоти ирфон. – Теҳрон: Интишороти Таҳурӣ, 2002. 412 б.

4. Ибн Сино. Китоб аш-шифо. – Қоҳира: Ал-Мактаба ал-Азҳарийя ли-т-турос, 1952.652 б.

5. Навоий, Алишер. Насоим ул-мухаббат. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1983. 240 б.

Dilnoza SULTONOVA,
Namangan davlat universiteti doktoranti
dilnozasultonova@748gmail.com

INGLIZ ADABIYOTIDA KRIMINAL ASARLAR EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz adabiyotida kriminal janrning shakllanishi va rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. XIX asrda detektiv hikoyalar shaklida paydo bo‘lgan kriminal asarlar keyinchalik psixologik triller, noir va zamonaviy detektiv janrlari orqali yanada boyigan.

Kalit so‘zlar: *kriminal janr, ingliz adabiyoti, detektiv hikoya, psixologik triller, noir uslubi, adabiy evolyutsiya, ijtimoiy muammolar.*

Аннотация: в статье анализируется процесс формирования и развития криминального жанра в английской литературе. Криминальные произведения, возникшие в XIX веке в форме детективных рассказов, впоследствии обогатились за счёт психологического триллера, нуара и современного детектива.

Ключевые слова: *криминальный жанр, английская литература, детективный рассказ, психологический триллер, стиль нуар, литературная эволюция, социальные проблемы.*

Annotation: this article analyzes the process of formation and development of the crime genre in English literature. Crime fiction, which emerged in the nineteenth century in the form of detective stories, was later enriched through psychological thrillers, noir, and modern detective genres.

Key words: *crime genre, English literature, detective story, psychological thriller, noir style, literary evolution, social problems.*

Kirish. Ingliz adabiyotida kriminal janr adabiy jarayonning muhim va dinamik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu janrning ildizlari XIX asrning o‘rtalarida, Edgar Allan Po va Artur Konan Doyl kabi yozuvchilar ijodida detektiv hikoyalar shaklida vujudga kelgan. Vaqt o‘tishi bilan kriminal mavzu soddaligi bilan cheklanmay, inson psixologiyasi, axloqiy tanlov va ijtimoiy adolatsizlik kabi murakkab masalalarni yoritishga xizmat qila boshladi. XX–XXI asrlarda esa ingliz kriminal adabiyoti janrlar xilma-xilligi, realistik tahlil va ijtimoiy muammolarga chuqur yondashuvi bilan ajralib turadi. Mazkur maqola ingliz adabiyotida kriminal asarlarning shakllanish bosqichlari, asosiy yo‘nalishlari va zamonaviy taraqqiyot tendensiyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Asosiy qism. Ingliz olimi Jon Skaggs o‘zining “Crime Fiction” (“Kriminal badiiy asar”) nomli asarida dastlabki mif va rivoyatlardagi jinoyat va uning taftishiga oid badiiy ijod namunalari haqida mulohaza yuritgan[1, 184]. Jumladan, muallif fikriga ko‘ra, bugungi kriminal asarlarning ildizlari qadimgi ilk qo‘lyozma manbalar va folklorga borib taqaladi.

Miloddan avvalgi II asrda yaratilgan “Doniyol kitobi” (“The Book of Daniel”)da naql qilingan rivoyatlarda har bir jinoyat uchun qattiq jazolar qo‘llash orqali kishilarni to‘g‘ri xulq-atvorga targ‘ib qilishga keng urg‘u berilgan. Ayni shu holat XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan jinoyat haqidagi ko‘plab asarlar, jumladan, Edgar Allan Poning hikoyalari uchun ham xarakterlidir.

Nasroniy dinidagilarning muqaddas “Doniyol kitobi” 13-bobida uchraydigan “Suzanna va oqsoqollar” hikoyasida, ikki nopok kimsa Suzanna ismli ayolni zinokorlikda ayblab, tuhmat uyushtirishadi. Biroq Doniyol bu ikki kimsani so‘roq qilishi jarayonida ularning yolg‘on guvohliklarini fosh qiladi va Suzannaning begunoh ekanligi isbotlanadi. Hikoyaning bir qator versiyalari (bayonlari)ga ko‘ra, bu ikki tuhmatchiga qilmishiga yarasha jazo tayinlanadi: ularning o‘zlari, Muso payg‘ambarning qonunlariga muvofiq, Suzannaga qo‘llashni rejalashtirgan jazolari, ya’ni o‘limga hukm qilinadi[2,5-15].

“Doniyol kitobi”ning 14-bobida keltirilgan “Bel va Ajdaho” hikoyasi ham “Qulflangan xona siri“ning ilk namunalaridan biri sifatida baholanadi. Unda ruhoniylar: “Bel ajdahosi haykali o‘ziga qilingan nazrlarni yeb-ichadi”, deb odamlarni ishontirmoqchi bo‘ladilar. Aslida esa ruhoniylar oila a’zolari bilan ibodatxonaga yashirin yo‘l orqali kirib, qurbonliklarni o‘zlari iste’mol qilishardi. Doniyol ibodatxonani qulflash va muhrlashdan oldin hech kimga sezdirmay polga kul sochadi va ruhoniylar qoldirgan izlari orqali ularning aybini fosh etadi[1,184].

Yevropalik mutaxassislar kriminal adabiyot aynan qaysi asar bilan boshlangani haqida turlicha qarashlarni ilgari surib kelishadi. Ba’zi tanqidchilar Doniyol payg‘ambar bilan bog‘liq yuqoridagi hikoyani “kriminal janrning dastlabki namunalaridan biri, unda Doniyol bosh tergovchi sifatida ko‘rinadi” deb baholashadi[1,7]. Boshqalar esa bu hikoyani kriminal adabiyoti nasroniylik (xristianlik) ildizlariga ega ekanligiga bir dalil sifatida baholashadi. Jumladan, daniyalik akademik Kim Toft Hanse kriminal roman – qadimgi xristianlikdan oldingi davrlardan bizga ma’lum bo‘lmagan kam sonli adabiy janrlardan biridir” va bu tur asarlar “xristianlik sharoitida yuzaga kelgan”[3,143] degan fikrni ilgari suradi.

Kriminal asarlar qanday kelib chiqqan bo‘lmasin, ular dunyoning turli hududlarida uzoq tarixga ega. Masalan, arab madaniyatlarida ularning paydo bo‘lishi XII asrga borib taqaladi[3,146]. Olim Kim Toft Hansenning fikricha, Arab hikoyalarda e’tibor asosan “axloqiy va huquqiy qoidabuzarliklarga adolatli yechim topish”ga qaratilgan bo‘lib, bu holat “madaniyatlararo bo‘lib, har bir davrda uchraydigan holat”dir[3,146].

Bundan tashqari, mutaxassislar Xitoy adabiyotidagi *gongan* janrini ham zikr etishadi. Ushbu janr, ehtimol, VII asrda og‘zaki an’ana sifatida paydo bo‘lgan, XII asrga kelib esa yozma shaklga o‘tkazilgan. *Gongan* hikoyalari sudyalar olib borgan tergov jarayonlariga asoslanadi va bu sudyalar ko‘pincha o‘zlarining amallarini hujjatlashtirish uchun mas’ul bo‘lganlar[2,7]. Bu

hikoyalar siyosiy maqsadga xizmat qilgan – xuddi bugungi kunda davlat telekanallarida namoyish etilayotgan ko‘plab kriminal filmlar kabi. Ya’ni, ular imperator va uning amaldorlari jinoyat va adolatsizlikka qarshi qat’iy kurashayotganini ko‘rsatish orqali xalqni ishontirishga xizmat qilgan[3,147]. Ushbu fikr va munozaralar kriminal adabiyotning butun dunyo va tarixiy doirada tarqalganini ko‘rsatadi. Eng muhimi, butur asarlarning umuminsoniy ahamiyatini, ya’ni, har qanday zamonda va makonda haqiqat va adolatni o‘rnatishga bo‘lgan istak mavjud bo‘lganini namoyish etadi.

Kriminal badiiy asarlar ingliz yozma adabiyotida yillar davomida shakllandi va rivojlandi. Sirli va shafqatsiz jinoyatlar, kutilmagan yechim topish orqali o‘ta uddaburonlik bilan yashirilgan jinoyatni yechish, detektiv (izquvar) ning kutilmagan aqliy topqirlik qobiliyati kabilar orqali bunday asarlar Yevropa adabiyotida misli ko‘rilmagan darajada muvaffaqiyatga erishdi. Bunday badiiy asarlar qanchalik ko‘p o‘quvchilar auditoriyasini topgan va “bestseller” ga aylangan bo‘lsa, ular syujeti asosida ishlangan filmlar ham shunchalik ommalashdi.

Angliyada badiiy kriminal asarlarning shakllanishi Viktoriya davrida – XIX asr boshlarida sanoat inqilobining kuchaygan urbanizatsiya davriga to‘g‘ri keldi[4]. Shaharlar kattalashib, ishsizlik ko‘payib borar ekan, jinoyatchilik sezilarli darajada oshdi. “Viktoriya davri” Angliyada qirolicha Viktoriya I hukmronligi ostidagi madaniy davrni anglatadi. Bu harakat 1832-yildan 1901-yilgacha davom etdi. Mazkur davrda Angliyada innovatsiyalar va texnika taraqqiyoti, ayniqsa, tovarlarni ommaviy ishlab chiqarish tufayli sanoat inqilobi avj oldi“[5]. XIX asrda Viktoriya davrida kriminalistik adabiyot jadal rivojlandi. Ushbu mavzudagi asarlar bu davrdagi hayotiy muhit, jamiyat falsafasi, madaniyati, topqir va uddaburon noshirlari tufayli gullab-yashnadi. Viktoriya davri ma’rifatchilik va romantik davrni boshidan muvaffaqiyatli o‘tkazdi[5].

Yevropada kriminal asarlar taraqqiyotida ingliz adibi Charlz Dikkensning roli nihoyatda muhim bo‘lgan. 1800-yillarda politsiya kuchlarining faoliyatini yoritib, o‘z romanlarida aholining jinoyatlarni fosh qilish mavzusiga nisbatan ommaviy (va shaxsiy) qiziqishini qondira olgan adib aynan Charlz Dikkens edi. Ushbu davr yozuvchi Charlz Dikkens tomonidan sanoat inqilobi natijasida yuzaga kelgan texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar tasvirining yoritilgani; seriyali qotil Jek Ripper va muhandis Isambard Kingdom Brunel obrazlari orqali mashhurlik qozongan.

Charlz Dikkensning “Oliver Tvistning boshidan kechirganlari” asaridagi Fejin qo‘lidagi bolalar tomonidan qo‘llanilgani kabi, cho‘ntakkesarlik va birovning uyiga o‘g‘rilikka tushishdan tortib, bezorilik, zo‘ravonlik va qotillikkacha bo‘lgan jinoyat turlari odatiy hol edi. Bolalarni og‘ir mehnatga jalb etish, fohishaxonalar, afyun (giyohvandlik) uylari kabi ishratxonalarni topish qiyin bo‘lmay qolgan, ichkilikbozlik keng tarqalgandi. Ayni shu davrda chop etilishi yo‘lga qo‘yilgan “The Newgate Calendar” (“Nyugeyt taqvimi”) jinoyatga qarshi kurashishda katta ta’sirga ega bo‘ldi.

“The Newgate Calendar” (“Nyugeyt taqvimi”) 1700-yillarda oylik byulleten sifatida chop etila boshlangan bo‘lib, unda sud tomonidan qatl qilishga hukm qilinganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar haqida batafsil ma’lumot berilgan, qonun doirasida amalga oshirilgan qatllar aynan shu nashr orqali jamoatchilikka e’lon qilib borilgan. Xususan, Kaleb Uilyams yoki Uilyam Godvin tomonidan yozilgan asarlar (1794) – “The Newgate Calendar” (“Nyugeyt taqvimi”) faoliyatiga katta rol o‘ynagan o‘sha paytda yozilgan badiiy kriminalistik ijod mahsullari bo‘la oladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, detektiv hamda kriminal adabiyot va ularga oid tanqidiy ilmiy tadqiqotlar keng rivojlandi[6]. Biroq Birinchi jahon urushi boshlanganidan so‘ng, jinoyat tabiatida mafkuraviy va narrativ burilish yuz berdi. Kriminal adabiyot mualliflari endilikda o‘g‘rilik yoki qalbakilashtirish kabi nisbatan yengil va qonli bo‘lmagan jinoyatlar[1,43] o‘rniga qotillik kabi zo‘ravon jinoyatlarni tasvirlashga moyil bo‘ldilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz adabiyotida kriminal janrning evolyutsiyasi jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar, axloqiy qadriyatlar va inson psixologiyasining chuqur tahlili bilan uzviy bog‘liqdir. XIX asrda detektiv hikoyalar shaklida boshlangan bu yo‘nalish XX asrda psixologik triller, kriminal drama va noir janrlarining shakllanishi bilan boyidi. Hozirgi davr ingliz adabiyotida esa kriminal mavzu nafaqat jinoyat hodisasining o‘zini, balki inson ongidagi murakkablik, ijtimoiy tizimdagi adolatsizlik va axloqiy tanlov muammolarini yoritish vositasiga aylangan. Shunday qilib, kriminal janr ingliz adabiyotida badiiy tafakkur, ijtimoiy tanqid va falsafiy izlanishlar uyg‘unligini ifodalovchi muhim yo‘nalish sifatida shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Scaggs J. Crime Fiction. 1st edn. Taylor and Francis. 2005. – P. 184.
2. Philips B. Crime Fiction: A Global Phenomenon. IAFOR Journal of Literature & Librarianship, Volume 5 – Issue 1 – Autumn 2016. – P. 5-15.
3. Hansen, Kim Toft. “Knowing the Unknowable” in *Detecting Detection*. Peter Baker and Deborah Shaller (eds). London: Continuum. 2012. – P. 143.
4. Scaggs J.Crime fiction genre: overview, meaning and history // https://www.studysmarter.us/explanations/english-literature/literary-devices/crime-fiction
5. Webb J. What is Victorian crime fiction? // https://ruggedthuglife.com/victoria/what-is-victorian-crime-fiction December 13, 2021
6. Srinivasan Sh., Shekhawat S., Bhattacharya S. Mapping the Evolution of Crime Fiction as a Genre: Eighteenth Century to the Contemporary Times. Rupkatha Journal on Interdisciplinary Studies in Humanities, Vol. 12, No. 6, December, 2020. pp. 1-12. – P. 6-7.

Oybek JUMABOYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tayanch doktoranti

KETMA-KET VA SINXRON TARJIMANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: TURK VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada ketma-ket va sinxron tarjima turlarining o‘ziga xos xususiyatlari turk va o‘zbek tillari misolida tahlil qilinadi. Ketma-ket tarjima va sinxron tarjima jarayonlarining farqli jihatlari, har birining afzallik va qiyinchiliklari, madaniy va leksik tafovutlarni hisobga olishdagi roli batafsil yoritilgan. Turk va o‘zbek tillaridagi tarjima tajribasi asosida misollar keltirilib, tarjimonning nutqni qay darajada to‘g‘ri va samarali yetkazishi uchun qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerakligi muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: *ketma-ket tarjima, sinxron tarjima, tarjima jarayoni, turk tili, o‘zbek tili.*

Аннотация: в данной статье на примере турецкого и узбекского языков анализируются специфические особенности последовательного и синхронного перевода. Подробно рассматриваются различия между процессами последовательного и синхронного перевода, их преимущества и трудности, а также роль учета культурных и лексических различий. На основе переводческой практики турецкого и узбекского языков приводятся примеры и обсуждаются компетенции, которыми должен обладать переводчик для точной и эффективной передачи речи.

Ключевые слова: *последовательный перевод, синхронный перевод, переводческий процесс, турецкий язык, узбекский язык, культурные различия, лексические различия.*

Annotation: this article analyzes the specific features of consecutive and simultaneous interpreting using examples from the Turkish and Uzbek languages. The differences between the processes of consecutive and simultaneous interpreting, their advantages and challenges, as well as the role of considering cultural and lexical differences are discussed in detail. Based on translation practice in Turkish and Uzbek, examples are provided and the competencies required for an interpreter to convey speech accurately and effectively are examined.

Key words: *consecutive interpreting, simultaneous interpreting, translation process.*

Kirish

Hozirgi zamon tilshunosligi nuqtayi nazaridan olib qaralganda ketma-ket tarjima alohida fan sifatida tan olingan bo‘lsada u bevosita leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, mantiq hamda mamlakatshunoslik fanlari bilan aloqadorlikda rivojlanib bormoqda. Ketma-ket tarjima va tarjima jarayonida yozuvlar sxemasi va ularning belgilarini aniq tartibda belgilash orqali tarjimonlarga o‘rgatilsa va ko‘plab manbalar ishlab chiqilsa ko‘pina tarjimonlar uchun qulayliklar bo‘lar edi. Og‘zaki ketma-ket tarjima qilish vazifasi, boshqa har qanday tarjima faoliyati kabi, aslida mavjud bo‘lgan xabarni etkazishdir. Shuni esda tutish kerakki, bu xabar so‘zlashuv muallifi tomonidan qabul qiluvchiga etkazish uchun mo‘ljallangan ma‘lumotdir. Ketma-ket tarjimada yozma tarjimadan farqli o‘laroq, xabar faqat nutq asarining mazmunidan ajralib turishi mumkin; matnning shakli aloqa bilan bog‘liq axborotni olib bormaydi, badiiy matn shakli xabarning bir qismini olib yurishi mumkin. Bu holat juda muhimdir: og‘zaki tarjimada dastlabki xabarning shakli yozma ravishda kamroq rol o‘ynaganligi sababli, xabar boshqa shaklda o‘tkazilishi mumkin, ya‘ni tarjima shakli asl nusxadan katta farq qilishi mumkin.

Asosiy qism

Ketma-ket tarjimada nutq so‘zlovchi tomonidan qismlarga bo‘lingan holda aytiladi va tarjimon har bir qismdan so‘ng tarjima qiladi. Bu usul tafsilotlarni aniq yetkazish imkonini beradi.

Turkcha misol: “Projeyi üç ayda tamamlayacağız.” → “Loyihani uch oy ichida tugatamiz.”

O‘zbekcha misol: “Uchrashuv ertaga soat to‘qqizda boshlanadi.” → “Toplantı yarın saat dokuzda başlayacak.”

Ketma-ket tarjima nutq so‘zlovchi tomonidan ma’lum bir mazmuniy bo‘lak yoki mantiqiy tugallangan fikr bayon qilingach, tarjimon tomonidan tarjima qilinishi bilan tavsiflanadi. Bu tarjima turida tarjimon nutqni diqqat bilan tinglaydi, asosiy mazmunni xotirada saqlaydi yoki maxsus qaydlar (notes) orqali belgilab boradi. Turk va o‘zbek tillarida ketma-ket tarjima jarayonida gap qurilishi, fe’lning gap oxirida kelishi, ergash gaplarning ko‘pligi kabi sintaktik xususiyatlar tarjimon uchun muayyan qulayliklar va bir vaqtning o‘zida qiyinchiliklar ham tug‘diradi. Masalan, turk tilidagi uzun va murakkab gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda mazmuniy ixchamlashtirish va mantiqiy bo‘laklash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ketma-ket tarjimada leksik va frazeologik birliklarning to‘g‘ri tanlanishi alohida e’tiborni talab qiladi. Turk tiliga xos bo‘lgan frazeologik birliklar, milliy realiyalar va madaniy konnotatsiyaga ega so‘zlar o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatlarda tarjimon izohli tarjima, funksional muqobillik yoki kontekstual moslashtirish usullaridan foydalanadi. Ushbu jarayonda tarjimon nafaqat til, balki madaniyatlararo vositachi sifatida ham faoliyat yuritadi.

Sinxron tarjima esa nutq so‘zlovchi bilan deyarli bir vaqtda, ya’ni minimal kechikish bilan amalga oshiriladi. Bu tarjima turi tarjimondan yuqori darajadagi diqqat, tezkor tafakkur va avtomatlashtirilgan tarjima ko‘nikmalarini talab qiladi. Turk va o‘zbek tillari o‘rtasidagi strukturaviy yaqinlik sinxron tarjimada ma’lum darajada qulaylik yaratsa-da, fe’l zamonlari, modal

birliklar va nutqning uslubiy rang-barangligi tarjimon uchun murakkablik tug‘dirishi mumkin. O‘zbekcha misol: “Ilm-fan taraqqiyoti insoniyat kelajagini belgilaydi.” → “Bilim ve teknoloji gelişimi insanlığın geleceğini belirler.”

3. Madaniy va leksik tafovutlarning hisobga olinishi

Turk va o‘zbek tillarida ayrim leksik birliklarning madaniy talqini farqlanishi mumkin. Tarjimon ana shunday nozik tafovutlarni anglab, tegishli variantni tanlashi zarur.

Turkcha: “Bayramlarda büyüklerin eli öpülür.” → O‘zbekchasi: “Bayramlarda kattalarning qo‘li hurmat belgisi sifatida o‘piladi.”

S.Serova ta’kidlaganidek, og‘zaki ketma-ket tarjima-bu kamida uchta subyektning ishtirokida amalga oshiriladigan va nutq faoliyatining bir necha turlari va shakllarini o‘z ichiga olgan vositachilik nutqi faoliyati: tinglash, fikrlash, yozish, o‘qish va gapirish. Prosessual og‘zaki ketma-ket tarjima quyidagicha ta’riflanishi mumkin: tarjimon, spikerning yonida bo‘lish, nutqni tinglash, yozishni davom ettirish va pauzada nutqini boshqa tilda takrorlash, uning yozuvlariga asoslangan. Shunday qilib, ketma-ket tarjima bir qator temporal, texnik, uslubiy, mazmunli va mekansal xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ketma-ket tarjimaning temporal xususiyatlariga quyidagi xususiyatlar kiradi:

– axborotni qabul qilishning yagona va aniqligi;

– nutq tezligiga bog‘liqlik va spikerni pauza qilish;

– asl nusxaning juda uzoq ovozi;

*ikkalasining yuzida ham hech qanday ifoda yo‘q, bu yuzlar yozuvi o‘chib ketgan qog’ozga yoki sovuq urgan anorga o‘xshar…”[2;101] Ushbu hikoyada va umuman modernistik asarlarda personajlar qiyofa*si aniq tasvir etilmasligiga muhim sabablar bor. Masalan, umumiylik. Yozuvchi qahramonni aniq bir shaxs sifatida emas, ma’naviy inqirozga uchragan umumiy inson obrazida ko‘rsatishni istaydi. Agar qiyofa aniq tasvirlansa, u ma’lum bir shaxsga aylanadi. Yuzning ”noaniq”ligi, “ko‘k yuzli’’, ifodasizligi (jamiyatning begonalashgan ommasi, rasmiy tizim ramzi deb talqin qilish mumkin) esa kitobxon uchun bu qahramon misolida o‘zligini yoki vijdonini taftish etishga imkon yaratadi. Shuningdek, tashqi qiyofaning yo‘qligi diqqatni ichki holatga qaratishga undaydi.

Nazar Eshonqulning “Qaytish” hikoyasi insonning o‘z haqiqatidan qochib keta olmasligini eslatadi. Ramzlar tizimi va psixologik tahlillar orqali inson qancha uzoqlashmasin , baribir o‘zligiga, o‘z asliga qaytishi muqarrardir. Bu qaytish esa tavba va ruhiy evrilish orqaligina amalga oshiriladi.Asarda tashqi voqealar minimal darajada berilib, e’tibor qahramonning ichki kechinmalari, xotira va vijdon bilan bog‘liq ruhiy jarayonlarga qaratiladi. Shu jihatdan hikoya syujetdan ko‘ra ruhiy tahlil ustuvor bo‘lgan psixologik nasr xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Psixologizm hikoyada ichki monolog, sukunat va psixologik vaqt orqali ifodalanib, qahramonning ruhiy holatini bevosita izohlarsiz ochib beradi. Badiiy ramzlar esa ushbu ruhiy jarayonlarning tashqi ifodasi sifatida namoyon bo‘lib, asarning falsafiy mazmunini kuchaytiradi. Natijada “Qaytish” hikoyasi insonning o‘zligini anglash jarayonidagi fojeaviy holatni badiiy-falsafiy darajada yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqul “Qaytish” hikoyasi orqali o‘zbek hikoyachiligini psixologik va ramziy tafakkur bilan boyitib, zamonaviy inson ruhiyatining murakkab manzarasini yaratadi. Asar badiiy ramz va psixologizm uyg‘unligi jihatidan o‘zbek adabiyotida muhim estetik hodisa sifatida ahamiyat kasb etadi. Nazar Eshonqulning “Qaytish” hikoyasi har bir insonning o‘zligidan, o‘z haqiqatidan qochib keta olmasligini eslatadi. Ramziy detallar va psixologik tahlillar vositasida inson qancha uzoqlashmasin , baribir o‘z asliga qaytishi muqarrardir. Bu qaytish esa tavba va ruhiy burilishlar orqaligina amalga oshiriladi. Asarda tashqi voqealar rivoji tor doirada berilib, e’tibor qahramonning ichki kechinmalari, xotira va vijdon bilan bog‘liq ruhiy jarayonlarga qaratiladi. Shu jihatdan hikoya syujetdan ko‘ra ruhiy tahlil ustuvor bo‘lgan ichki kechinmalar, psixologik nasr xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Psixologik holatlar hikoyada ichki monolog, qahramonning o‘zligi bilan qarshilashuvi , zamon va vaqt orqali ifodalanib, qahramonning ruhiy holatini bevosita izohlarsiz ochib beradi.

Badiiy ramzlar, detallar esa ushbu ruhiy jarayonlarning tashqi ifodasi tarzida namoyon bo‘lib, asarning falsafiy tabiatini kuchaytiradi. Natijada “Qaytish” hikoyasi inson psixologizmini anglash jarayonidagi fojeaviy holatni badiiy-falsafiy darajada yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur’onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. —T.: “Adabiyot” nashriyoti, 2002.
2. Eshonqul, N. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2006.
3. Eshonqul, N.Maymun yetaklagan odam(hikoyalar). –Toshkent, 2019
4. Qo‘chqorov, R. Hozirgi o‘zbek nasrida ramziylik. – Toshkent, 2012.
5. Karimov, B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Umurov, H. Badiiy tafakkur va ramz. – Toshkent: Universitet, 2004.
7. Orunbayeva N. Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy ifoda va obrazlar talqini: dissertatsiya. – Nukus, 2012
8.Toshpo‘latov A. Nazar Eshonqulning psixologik novellalari// O‘zbek tili va adabiyoti, 2008, 3-son, 67-bet.

Dilnoza NISHANOVA,
NamDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti
nishanovadilnoza16@gmail.com



ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDAGI MADANIY KONSEPTLARNING IJODKOR SHAXSIYATI BILAN UYG‘UNLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Oripov shaxsiyati, orzu-armoni, o‘y-xayollari; she’riyati va undagi madaniy birliklarning pragmatik mohiyati, konnotativ ma’no mundarijasi hamda bunday mazmunning kontekst tarkibida aks etishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar, kognitivlik masalasining ijodkor lirikasida tutgan o‘rni turli metodik yondashuvlar asosida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *pragmatika, konnotativ, kontekst, kognitivlik, “yosh shoir”, metod, ma’naviyat, madaniyat, tag ma’no, davr va tuzum*.

Annotation: this article analyzes the personality of Abdulla Oripov, his dreams and fantasies; the pragmatic essence of the cultural units in his poetry, the connotative semantic content, and the reflection of such meanings within the context. It also examines the role of cognition-related issues in the lyrical creativity of the author based on various methodological approaches.

Key words: *pragmatics, conative, context, cognitive, “young poet”, method, spirituality, culture, denatation, era, and regime.*

Аннотация: в данной статье личность Абдула Орипова, его мечты и фантазии; прагматическая сущность культурных единиц в его позиции, коннотативное смысловое содержание и отрожения таких значение в контексте. Также рассматривается роль вопросов когнитивности в лирическом творчестве автора на основе различных методологических подходов.

Ключевые слова: *прагматика,* коннотативное*, контекст, когнитивное, “молодой поет”, метод, духовность, культура, денотативное значение, эпоха и режим.*

Kirish. Abdulla Oripov hayoti bilan yaqindan tanishish bugungi kun kitobxoni uchun uning ijodini yaqindan anglash imkonini beradi. Ammo hozirgi darsliklarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, deyarli ijodkor hayotini to‘laqonli yoritish uchun emas, balki o‘quvchining yoshiga monand hamda ezgulik tuyg‘ularidan birini singdirishga qaratilganligini anglashimiz mumkin. Ushbu holat kitobxon shuurida faqatgina Abdulla Oripovning hayotiga oid qisqagina ma’lumot va shu she’r unga tegishli degan tasavvurgina shakllanishiga olib keladi. Ijodkor his-tuyg‘usi, o‘y- xayollarini anglashdan yiroq bo‘lib qolishi turgan gap. Bu jarayonda, albatta, Ona tili va adabiyot fani ustozlari zimmasiga yanada mas’uliyatli jarayon, ya’ni ijodkor hayoti bilan o‘quvchilarni to‘laqonli tanishtirish vazifasi turadi. Mana bu maqolamizni bayon etish jarayonida ijodkor va uning shaxsiyati bilan bir butunlikni tashkil qilgan lirikasining pragmatik mohiyati, she’rda ishtirok etgan so‘zlarning konnotativ ma’nolarini kognitiv jarayonda yana ham osonroq tushunish mumkin bo‘lgan jihatlarini turli yondashuvlar, til birliklarining o‘z va ko‘chma ma’nolari hamda o‘zbek tiliga xos bo‘lgan madaniy birliklarni tahlil qilish mobaynida ijodi orqali Abdulla domlani, Abdulla aka orqali ijodini yaqindan anglashga harakat qilamiz. Bundan ko‘zlangan maqsad esa o‘quvchini Abdulla Oripov faqatgina Qashqadaryodan qandaydir omad sababli ulkan marralarga erishgan adib emas, balki hayot mashaqqatlarida toblangan, hamisha qalbida bir og‘riq bilan yashagan shaxs ruhiyati va ularni o‘z ijodida aks ettirish, sotqinlik va aldovlardan qalbi chilparchin bo‘lgan lirik qahramon kechinmalari, zamona tahdidida ham o‘zligini yo‘qotmagan inson taqdirini anglashga harakat qilamiz.

Metodlar. Abdulla Oripov ijodini o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalanish dars jarayonining

yanada samarali bo‘lishiga, ijodkor shaxsiyati ildizlari tomon yetib borishga imkon beradi. “So‘zlarni ajrat” – bu metod Abdulla Oripov hayotini o‘rganishga ham ijodini tadqiq etishimizga ham yordam beradi. Buning uchun Abdulla Oripov ijodi yoki hayotiga oid bo‘lgan bir nechta so‘zlarni qayd etish va boshqa ijodkorlarniki bilan aralashtirib savatchaga qo‘ygan holda o‘quvchilardan olish talab etiladi. O‘quvchi olgan so‘zlarini Abdulla Oripov hayoti yoki ijodiga oidmi, yo‘qmi ularni saralaydi. Tanlab olingan qog‘ozlardagi so‘zlar o‘quvchi tomonidan izohlab beriladi. Bu metod ayni vaqtda boshqa ijodkorlar adabiy merosida uchraganini so‘rash orqali integratsiya jarayonini ham amalga oshirish mumkin. Masalan, til so‘zi nafaqat Abdulla Oripov ijodida, balki Avaz O‘tar, Mirtemir, Rasul Hamzatov va boshqa ijodkorlarda ham uchrashi mumkin. “Juftini top” texnologiyasi ham adib ijodi mohiyatini ochib berishda qo‘l keladi. Bunda o‘quvchi Abdulla Oripov tomonidan yozilgan she’rlar mazmun-mohiyatiga ko‘ra qaysi hadislarga to‘g‘ri kelishini yoki ijodkor hayoti davomida turli shaxslarga atab bag‘ishlovlar yozgan yoki vaziyatlarni bergan holda bir-biriga mos tushuvchi juftliklarni top tarzida shakllantirish ham mumkin. Masalan, baliq tasviri va “Tilla baliqcha she’ri”, “Qushcha” she’ri va qushcha tasviri, “Miltiraydi mitti yulduz” she’ri uchun yulduz tasviri berish mumkin. Bularning bari darsning qiziqarli tashkil etilishiga, o‘quvchi xotirasida muhrlanib qolishiga imkon beradi. Qo‘shimcha tarzda shuni ham aytib o‘tish joizki, adabiy jarayonni til ta’limi, badiiy estetik kategoriyalar vositasida ham tasniflash mumkin.

Natija. Turli metod va texnologiyalar vositasida badiiy matn, xususan, lirik jarayonni tahlil qilish mohiyatni oydinlashtirish, xotirada saqlash jarayonini kuchaytirishga, ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikr mag‘zini chaqishga imkon beradi. Til ta’limi bilan bog‘lagan holda o‘rganish ham til birliklarining kontekstda qanday mazmunni ifodalayotganligini aniqlashda, badiiy estetik kategoriyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilish tushunchalarni: go‘zallik, xunuklik, tubanlik, originallik kabi birliklarga ajratishda qo‘l keladi. Shu bilan bir qatorda, Abdulla Oripov hayot jarayonini boshqa namoyandalarga bog‘liq va farqli jihatlarini tadqiq etishimizga, integratsiya jarayonlarini amalga oshirishimiz uchun ham muhim pog‘ona bo‘la oladi.

Muhokama va xulosa. Abdulla Oripov haqida so‘z borar ekan, uning hayot yo‘li hamda faoliyati haqida olib borilgan tadqiqot ishlari e’tiborimizni tortmasdan qolmaydi. Shunday izlanuvchilardan biri Narbayeva Xosiyat[1] o‘zining “Abdulla Oripov she’rlarida jahon adabiyoti vakillari” deya nomlangan maqolasida tilshunoslikning antroponimika sohasi onomastika yo‘nalishiga to‘xtalib o‘tar ekan, o‘z tadqiqot ishida: “Abdulla Oripov ijodida uchragan ismlar, ayniqsa, ularda chet el namoyandalarining tilga olinishi haqida so‘z yuritib, ular o‘tmishdan sado beradi”, – deya e’tirof etadi. Mana shunday izlanuvchilardan biri Abdinazarova Maftuna Bahodir qizi “Abdulla Oripov she’riyatida tabiat lirikasi” maqolasida tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik mahorat bilan tasvirlanganligini, ayniqsa, ijodkorning “Bahor shamoli ” she’rida tabiatning eng nafis, nozik kelinchagi bahorning tasviri nihoyatda badiiy mahorat bilan kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, ikki tadqiqotchi tomonidan Abdulla Oripov ijodining turli qirralari va ularning mohiyati haqida so‘z yuritgan bo‘lsalar, biz o‘z tadqiqot ishimizda ijodkor hayotining so‘nggi yillardagi o‘y-kechinmalarini she’rlarida aks etish jarayoniga to‘xtalib o‘tamiz. Abdulla Oripovning 2015-yilgi hayotiga nazar tashlasak, mansab kursisidan tushgan, xastalik bilan kurashayotgan, jamiyatdan ajralgan hamda umrining qolgan qismini vatandan uzoqda – Amerika davlatida o‘tkazganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Abdulla domla mana shu jarayonlarni “O‘kinch” she’rida aks ettirib berdi:

Bir vaqtlar tug‘ilgan joyim bor edi,
Uchsam qo‘nadigan ishonchli oshyon.
Men uchun hamisha iftixor edi,
Bugun begonadir menga u makon.

Nimaga ijodkor lirikasini “O‘kinch” deya nomlamoqda? Abdulla aka ijtimoiy tarmoqlardan biriga bergan intervyusida: “Mansab kursisidan ketgandan so‘ng bizni boshiga ko‘tarayotgan shaxslar u yoqda tursin, hatto biz sabab hayotda yo‘lini topgan insonlar ham bizdan uzoqlashdi”, – deya eslaydi hamda inson qaysi pog‘onada bo‘lmasin hech qachon o‘zligini yo‘qotmasligini, hamma narsa ham bir kun o‘tishini ta’kidlaydi. Shoirning bu kabi merosi umrining so‘nggi yillarida ko‘payib ketganligi bois “yosh shoir”dan, “donishmand shoir”ga aylanayotganligini aytishadi. Inson o‘z-o‘zidan donishmand bo‘lmaydi, vaqt va zamon, insonlar donishmand bo‘lishiga sabab bo‘lishmadimikin? Abdulla domla umrining so‘nggi damlaridagi ijod namunasidan yana biri “Odat” she’rini Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni”

dostonidagi “Ko‘r” hikoyati bilan bog‘liq holda tadqiq etishimiz mumkin:

Bir xalqda g‘alati odat bor ekan:
O‘lganlar aziz-u tirik xor ekan.
Sevgan odamiga tilarkan ajal,
O‘tgach, ulug‘lashga intizor ekan.

Biz o‘zbeklarda shunday naql bor: “Qadring qay darajada ekanligini bilmoqchimisan? O‘lib ko‘r”. “Donishmand shoir”imizning yana bir she’ri (“G‘alati odamlar”) e’tiborimizdan chetda qolmadi.

Noloyiq kimsaning sug‘orib otin,
Bu ishni behuda savob degaysan.
U darhol eslatar kimligin, zotin,
Mutlaqo sababsiz qamchi yegaysan.

Bu jarayonda ijodkor laganbardorlikni o‘ziga kasb qilib olgan insonlar va ularning shunday qilishiga turtki bo‘lgan “odamlar”ni tilga oladi. Hadislarda keltirilishicha: “Mansab, amal, boylik insonni o‘zgartirib qo‘ymaydi, balki qalbidagi yovuzlik urug‘ining unishiga suv bo‘lib xizmat qiladi”. “Ig‘vogar” she’ridagi til birliklarining konnotativ ma’nolari va ularni idrok (kognitiv) etishimiz orqali hosil bo‘lgan tag mohiyatni ham ko‘rib chiqamiz.

Qalin charm tortib qalin betiga,
O‘tirib olgan u yo‘lning chetiga.
Bir gap chiqarmi deb tinmay qaraydi,
Kimning og‘ziga-yu, kimning ketiga.

Bu kabi she’rida ham insonlardagi eng katta illatlardan biri ig‘vogarlar, gap bilan ko‘chani bo‘shatmaydigan kimsalar, o‘z qilmishlari sabab kimningdir nomiga bo‘lgan-bo‘lmagan gaplarni yog‘dirib o‘tiradigan kimsalar haqida so‘z yuritadi. Ushbu ijod namunasini ham diniy e’tiqodimiz nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo‘lsak, “Ko‘chaning ham o‘z haqqi bor, agar uni to‘lay olmasang, bemaqsad uni to‘ldirma”, degan edi Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v). Ko‘chaning haqi shuki: birovga til, amal hatto nazar bilan ham ziyon yetkazmaslik.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, chinakam asar shunchaki yuzaga kelib qolmaydi. Uning ortida, albatta, qandaydir voqea, shaxs yoki jarayon yotadi.

Shuning uchun ijodkor hayoti va ijodi bir butunlikni tashkil etadi. Har qanday so‘z, jumlalar borki, o‘zi alohida, kontekstdan ajralgan holda, ma’no yaxlitligiga ega bo‘lmasligi mumkin. Yuqoridagi Abdulla Oripov she’riyati bilan tanishar ekanmiz, ijodkor so‘zlar ortiga yashirgan konnotativ ma’noni idrok qilish orqali tushunishga, u yashagan davr muhiti bilan bog‘lashga harakat qildik. Bu jarayonlar Abdulla domlani nafaqat yuksak iste’dod egasi sifatida, balki chinakam inson ekanligini ko‘rsatib beradi. Biz voqelikka basirat ko‘zi bilan qarashimiz mumkin, ammo haqiqiy ijodkor bu tuyg‘uni qalb ko‘zi bilan idrok etadi va kitobxonga ham boricha yetkazib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Oripov. Najot qal’asi. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – Toshkent, 1980.
2. Abdulla Oripov. Surat va siyrat. “Yosh gvardiya” nashriyoti, – Toshkent, 1981.
3. Abdulla Oripov. Yuzma-yuz. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – Toshkent.
4. X.Narbayeva. Abdulla Oripov she’rlarida jahon adabiyoti vakillari. International journal of scientific researchers. 2024 (1208)
5. M.BAbdinazarova. Abdulla Oripov she’riyatida tabiat lirikasi.International scientific and practical conference.2022
6. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar.2-jild www.ziyouz.com
7.Abdulla Oripov. Iyul she’rlari. Xurshid Davron kutubxonasi.

Gulchehra RAMAZONOVA,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) fakulteti 2-kurs magistranti
gulchehraramazonova@mail.ru



ABDUVALI QUTBIDDIN IJODIDA INDIVIDUAL OBRAZLAR XUSUSIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abduvali Qutbiddin ijodidagi individual obraz hisoblangan Osima, uning shoir ijodida tutgan o‘rni, o‘zbek she’riyatida bu obrazning qay ma’noda ishlatilishi haqida so‘z boradi. Indivuduallik aslida nima ekanligi, badiiy uslubning ijodkor hayotida tutgan o‘rni kabi masalalar yoritildi. Shoir qalamiga mansub ba’zi ijod namunalari tahlil qilindi. Obrazga yuklatilgan vazifa to‘laqonli amalga oshirilganligi dalillandi.

Kalit so‘zlar: *novator, Osima, metaforik obraz, konsepsiya, individual.*

Аннотация: в данной статье рассматривается образ Осимы, индивидуального персонажа в творчестве Абдували Кутбиддина, его роль в творчестве поэта и значение этого образа в узбекской поэзии. Затрагиваются такие вопросы, как что такое индивидуальность на самом деле и роль художественного стиля в жизни творца.Были проанализированы некоторые примеры творчества поэта. Доказано, что задача, поставленная перед образом, была полностью выполнена.

Ключевые слова: *новатор, Осима, метафорический образ, концепция, личность.*

Annotation: this article discusses individual images in the work of Abduvali Qutbiddin, their role in the work and the meaning of the use of these images in Uzbek poetry. Issues such as what individuality really is and the role of artistic style in the life of a creative person were highlighted. Some examples of the poet’s work were analyzed. It was proved that the task assigned to the image was fully implemented.

Key words: *innovator, Osima, metaphorical image, concept, individual.*

She’riyat shunday bir ummonki, uning qa’ridan har kim o‘ziga tegishli bo‘lgan dur-u gavharini teradi. Nayson yomg‘iri yog‘ishi bilan dengiz tubidagi chig‘anoqning ichiga tushgan har bir tomchi durga aylanadi. Abduvali Qutbiddin ayni ummondan eng go‘zal durlarni terib she’riyat ixlosmandlariga tortiq eta olgan betakror iste’dodlardan biridir. Uning she’riyatidagi o‘ziga xoslik, novatorlik eng avvalo, u yaratgan obrazlarning betakror va individual xarakterga ega ekanligida ko‘rinadi. Shu jihatdan shoir ijodini o‘rganish, asarlarini tushunish va tahlil qilish har bir avlod uchun yangilik bo‘lib qolmoqda. Shoir ijodidagi novatorlik namunasi hisoblangan obrazlardan biri, shubhasiz, Osima obrazidir. Nasr ustalaridan bo‘lgan Abdulla Qahhor nomini esga olganda “Qobil bobo”, Said Ahmad xotirlanganda “Tursunboy” yodimizga tushgani, she’riyatda esa Muhammad Yusufning “Qizg‘aldog‘i” Shahriyorning “Oy boltasi” ko‘z oldimizda gavdalangani kabi Abduvali Qutbiddin nomini Osima obrazidan uzoqda tasavvur etish qiyin.

Osima ismi kamyob ismlardan biri bo‘lib, “himoyalangan”, “muhofaza etilgan” degan ma’nolarni anglatadi. Ayni obraz shoir xayoloti mahsuli, yoxud hayotining ma’lum qismida uchratgan bir qizning prototipi bo‘lishi mumkin. Adabiyotshunoslik uchun eng keraklisi ayni obraz ijodkor ideali ekanligidir. Osima xuddi shunday Abduvali Qutbiddinning ideali uning metaforik obrazi.” Osima – qismat izmidan chiqolmagan, ammo ko‘ngil maylidan ham umid uzmagan, ham odamdek gunohkor va zabun, ham malaklardek xayoliy bir obraz. Osima – umid, taskin va orzuning yaxlit ifodasi. Osima – xayolning bir chetida uzoq yillar miltillab turgan tuyg‘ularning surati. Yoki o‘sha tuyg‘ular siyratining suratlanishi.”[1] Abduvali Qutbiddin ijodida Osima ismi bilan bog‘liq she’rlar 11 tani tashkil etib, ularning barchasi shoirning nekbin lirik kechinmasi mahsulidir. Shoir hamisha bu obrazga intiladi, uni sog‘inadi, unga dardlarini to‘kib sochadi:

Ichikdim. Sog‘indim seni, shekilli,
Tongim rangi sariq, xasta kunduzim.
Ixrab quyosh chiqar, o‘qchib oy sho‘rlik
Osima -
Sen kimning qizi!

Lirik qahramon juda qattiq ichikkan. Shunga qaramay, u bu holning sababini aniq aytmaydi, go‘yo o‘zini anglolmas bir holatda qolgandek ko‘rinadi. Shu sabab ham sog‘indim, shekilli degan gumonli ifodani qo‘llaydi. Ammo keyingi misralarni o‘qish asnosidayoq uning holati kitobxon ko‘z o‘ngida aniq namoyon bo‘ladi. Tong tabiatning eng toza pallasi, u har doim musaffo va oppoq. Ammo lirik qahramon tonggi sap-sariq. Demakki, uning tonggi xasta va ayni xastalikdan tongning yuzlari za’faron. Tong tasvirining o‘ziyoq, badiiy topilmaning originalligini namoyon qilgani holda, keyingi misralarda ayni shu originallik yanada kuchayadi. Shoirning nazdida, hatto quyosh ham ixrab, azob bilan chiqmoqda. Kunduz boshlangan azob tunga

borib tutashadi. Endi hattoki oy shu darajada bezovtalik va behuzurlikdan o‘qchib chiqadi. Tasvirning o‘ziyoq kitobxonni azoblaydi. Tongning xastaligi, quyoshning ming azobda chiqishi, oyning o‘qchishi lirik qahramonning azobini, ichikish holatini qay darajada ekanligini namoyon etadi. Shoir ayni shunday zalvorli tasvirlardan keyin kutilmaganda Osimaga murojaat qiladi*: Osima -Sen kimning qizi!* Qo‘qqisdan hammasi oydinlashadi. Demakki, barcha holatlarning birgina sababchisi bor. U shoirning o‘zi ham hatto yaxshi tanib ulgurmagan, shunga qaramay ehtimolki, bir boqishdayoq uning barcha iztiroblarining sababchisiga aylangan qiz, ya’ni Osimadir. Demak, hozirgi kunda shoirning birdan bir ichikish sababi shu. Na tong, na tun halovatda o‘tmoqda. Tongning sariqligi xastalik bilan bir qatorda adabiyotda ayriliq ramzi sifatida e’tirof etilishiga ham ishora mavjud. Shoir qay g‘usi banddan bandga kuchayib, og‘irlashib boradi:

Ko‘rpaga burkansam , ko‘rpa ilvirar,
Yostiqqa yopishsam, ilvirar yostiq
O‘y menga sig‘maydi ,uy menga sig‘mas
Bosiriq-bosiriq…

Tun dardlarni to‘kish uchun eng yaxshi fursat. Insonning anduhini, afsus va nadomatlarini ko‘z yosh yuvadi. Shoir yig‘ladim deyishdan istihola qiladi. Ammo uning ko‘rpa yostig‘ining ilvirab ketgani tasviridayoq uning ko‘zyoshlar ichida qolgani oydinlashadi. Keyingi misralarda esa Abduvali Qutbiddinning ijodkor sifatidagi mahorati to‘la namoyon bo‘ladi. Xalqimizda qayg‘uli kezlarda *“dunyoga sig‘may ketdim”, “uyimga sig‘madim”* kabi ifodalar tez-tez qo‘llanadi. Shoir ayni ifodalarni ham badiiy jihatdan o‘zgartirib, ularga yangi mazmun, yangi badiiy funksiya yuklaydi. Endi aksincha, *uy unga sig’maydi, o‘y unga sig’maydi.* Ayni ifodada individual badiiy tasvir qo‘llanilishi asnosida, yangi badiiy mazmun ham yuzaga chiqadi. Shoirning mana shu yerda so‘z qo‘llash mahoratiga tahsin o‘qish kerak, men na xayolimga, na uyimga sig‘mayabman emas, ular menga sig‘mayabdi deya o‘quvchi e’tiborini tortadi. Shu boisdan u tinimsiz bosiriq holatida. She’rning har bir bandida uning tuyg’ulari o‘zgarib, turlanib, banddan bandga kuchayib boraveradi. Bu holat she’rning yakunida ham ko‘zga tashlanadi. Endi shoir ruhiy holati bosirinqirash, alahlashdan gina qilish, xafa bo‘lish holatiga o‘zgaradi.

Ichikdim. Sog‘indim seni, shekilli,
Xo‘rligim keltirar g‘alati gina
Nimaga odamlar shod, xurram, mamnun,
Bizlar odammasmi,
Osima?!

Shoir uchun yurt osoyishtaligi va go‘zalligini madh etishdan, unga alyorlar to‘qishdan ko‘ra kattaroq baxt yo‘q ekanligini Osimaga singdirish jarayoni boshlandi. Sababi, she’rning shu misralariga qadar ijodkorning ruhiy va jismoniy holat tasviri ishq tufaylidek taassurot uyg‘otayotgan edi, endi esa bu holat yurt taqdiri bilan bog‘liq ekanligi anglashiladi.Birinchi misrada osmon tasvirining berilishi ham o‘rinli, sababi tinch va osuda, insonlari xursand yashayotgan yurtning osmoni musaffo bo‘ladi. Osima ayni shu misralarda ozodlik ramzi bo‘lib gavdalanadi.Yuqorida Osimaga nisbatan orzu va umidning yaxlit ifodasi degan jumla bejiz ishlatilmaganligi bu yerda yanada oydinlashdi. Shu o‘rinda Shavkat Rahmonning “Baxt so‘zi” she’ridagi quyidagi jumlalar yodimga tushdi:

Bu so‘zni bir umr aytmay yashadim
Har shodlik kelganda yurdim sekinroq
G‘am so‘zin elimdan oldinroq aytdim,
Baxt so‘zin aytaman eldan keyinroq.[2]

Ijodkorahlixalqdardibilanyashaydi,hechqachono‘zgalar hayoti qiyinchilikda o‘tayotgan bir paytda,“baxtliman” deya bong urmaydi. Abduvali Qutbiddin ham mana shu sababdan shod va xurram bo‘lolmayabdi. Uning aql-u xushini egallagan, unga tinchlik bermayotgan shunday bir tuyg‘u bor. ”Inson tafakkurining qudrati cheksiz, uning ko‘lami va imkoniyatlari chegara bilmaydi. Fikr va xayolning samarador bo‘lishi uchun ijodkorda muayyan ijodiy niyat, izchil konsepsiya bo‘lishi kerak. Ijodiy niyat esa u yoki bu darajada o‘zgarishlarga uchragan maqsaddan iboratdir”. [3] Shoirning maqsadi xalqni baxtiyor ko‘rish u shundagina o‘zini baxtli his etadi. Ko‘rpani ivitgan ko‘z yoshlar, ichikish shundagina barham topadi. Bu she’rda Osima obrazi orqali Haqqa yolvorish, undan najot tilash bor. Demakki, Osima – na aniq, na mavhum, na xayoliy, na hayotiy ammo qalbga yaqin bo‘lgan bir obraz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkunki, Abduvali Qutbiddin ijodi o‘ziga xos maktab vazifasini bajara oladi. Shoir she’rlari kishini mulohazaga undaydigan, o‘z-o‘zini taftish qilishga majbur qiladigan kuchga ega. Osima obrazi orqali shoir butun bir jamiyatga uni o‘rab turgan har bir narsaga bevosita murojaat qilib, ohori to‘kilmagan jumlalar yarata oladi. Tashqi muhitda hech kimga ichki tug‘yonlari haqida gapirolmaydi, lekin o‘z idealidan bu borada ham tortinmaydi. Ba’zan uni ayolga, ba’zida esa orzu-umidlariga qiyoslay oladi. Osima bilan xuddi yonma-yon turgandek muloqot qiladi. Bugun biz Osimani obraz deya uni taftish qila olgan ekanmiz, mana shu shoirning yutug‘i.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxammadiyev Dadaxon. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida metaforik tafakkur tabiati: Dissertatsiya. –Toshkent, 2004.
2. Abadiyat oralab: She’rlar / Shavkat Rahmon. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2012. 328-b.
3. Bahodir Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. 126-b.
4. Abduvali Qutbiddin. So‘z chamani. – Toshkent: Akademnashr, 2020. 128-b.
5. Abduvali Qutbiddin. Nayson. – Toshkent: Adabiyot va san’ at nashriyoti, 1988. 78-b

Gulyor G‘APPAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Adabiyotshunoslik: Adabiyot nazariyasi yo‘nalishi magistranti

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA INSON VA TABIAT KONSEPSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Isajon Sultonning “Yoqimli yomg‘ir yog‘adi” ,“Bo‘ri” va “Og‘riq tog‘i” hikoyalari qiyosiy aspektda o‘rganiladi, tafakkur hamda inson va tabiat munosabatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jamodot, nabotot va hayvonot obrazlarining inson ruhiy olamini ochishdagi badiiy-estetik funksiyasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *inson ruhiyati, antropomorfizm, ramziy obraz, bo‘ri kulti, totemizm.*

Annotation: this article provides a comparative analysis of Isajon Sulton’s short stories “Yoqimli yomg‘ir yog‘adi”, “Bo‘ri”, and “Og‘riq tog‘i”. The study examines the artistic interpretation of human consciousness as well as the relationship between human beings and nature in these works. Particular attention is paid to the aesthetic and artistic functions of images belonging to the realms of the inanimate, plant, and animal worlds in revealing the inner spiritual state of the individual. In addition, the article analyzes symbolic imagery, anthropomorphism, the wolf cult, and totemistic concepts as important elements in the formation of artistic thinking.

Key words: *human psyche, anthropomorphism, symbolic image, wolf cult, totemism.*

Аннотация: в статье в сравнительном аспекте анализируются рассказы Исажона Султона «Yoqimli yomg‘ir yog‘adi», «Bo‘ri» и «Og‘riq tog‘i». В произведениях исследуется художественная интерпретация человеческого сознания, а также взаимоотношения человека и природы. Особое внимание уделяется художественно-эстетической функции образов, относящихся к миру неживой природы, растительного и животного мира, в раскрытии внутреннего духовного состояния личности. Кроме того, рассматриваются символические образы, антропоморфизм, культ волка и тотемистические представления как важные элементы формирования художественного мышления.

Ключевые слова: *человеческая психика, антропоморфизм, символический образ, культ волка, тотемизм.*

Hozirgi adabiy jarayonda Isajon Sulton asarlarining o‘z o‘rni bor. Boisi, yozuvchi turli mavzularda qalam tebratsada, asarlarining mohiyatida insonning olam bilan birligi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Uning asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik bevosita obrazlar orqali namoyon bo‘ladi. Yozuvchi tabiat bilan go‘yo sirlashadi, uni tirik mavjudot sifatida idrok etadi. Bu holat Isajon Sultonning ko‘plab hikoyalarida kuzatiladi. Isajon Sulton ijodida tabiat tasviri oddiy fon vazifasini bajarmaydi. Aksincha, tabiat yozuvchining estetik tafakkurida mustaqil ruhiy makon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan qaralganda, Isajon Sulton tabiatni “tasvirlaydigan” emas, balki u bilan “muloqot qiladigan” yozuvchi sifatida ajralib turadi.

Xususan, “Yoqimli yomg‘ir yog‘adi” hikoyasini o‘qigan inson ruhiyati “yoqimli” tuyg‘ular yomg‘iri ostida qoladi. Muallif o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ining umumiy manzarasini tasvirlar ekan, yurakni orziqtiradigan ranglar, tovushlar va hidlar orqali o‘quvchini shu makonga olib kiradi. Simyog‘ochga osilgan eski radiodan taralayotgan qo‘shiqlar, sigirlarning marashi, yomg‘irning shivalashi — bularning barchasi sodda, ammo nihoyatda aniq detallar orqali xotirada muhrlanadi. Quyidagi parchada inson va tabiat o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlik, ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi:

“Odamlar daraxtlarga, hayvonlarga gapirishgani undan ham ajoyib. Sut to‘la paqirni tepib ag‘dargan sigirni xuddi odamday koyigan, shivalab yog‘ayotgan yomg‘irlarga, shamollarga, jaziramalarga so‘zlagan kishilar bo‘lar edi.” Yozuvchi tabiat va insonni shu qadar uyg‘unlashtiradiki, buni o‘qigan har qanday kitobxon o‘zini bepoyon dala quchog‘ida his qiladi.

Qishloq jonlanadi... Adabiyotshunoslikda bu hodisa antropomorfizm, ya’ni jonsiz yoki tabiiy hodisalarga insoniy xususiyatlar berish sifatida izohlanadi. Hikoyada qishloq “nozlanadi”, “to‘rsayadi”, “bag‘rida borini muhayyo qiladi”. Bu orqali yozuvchi makonni tirik mavjudot darajasiga ko‘taradi. Yomg‘ir yog‘ganda

“hamma yoq jimib qolishi” tasviri bejiz emas. Bu sukunat – inson qalbining ichki tinglash holati. Tabiat jimib, yomg‘irni kutgani kabi, qahramonning qalbi ham sog‘inch yomg‘irini kutib jim turgandek. Yomg‘ir nima uchun yoqimli edi, negaki, u inson qalbida yig‘ilib qolgan sog‘inch va iztiroblarni asta-sekin yuvib tushiruvchi ruhiy taskin edi. Hikoyaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, insonning ruhiy barkamolligi tabiat bilan uyg‘unlikda mavjud bo‘ladi. Ushbu uyg‘unlik buzilganda esa sog‘inch, iztirob va ichki bo‘shliq paydo bo‘ladi. “Yoqimli yomg‘ir” obrazi poklanish, yangilanish va tabiat bag‘riga qaytish ramzidir: “Bir kuni shu qadrdon tuprog‘ing uzra bir o‘t, bir maysa bo‘lib unib chiqish uchun…” Inson oxir-oqibat yana tabiatga qaytadi.

Inson ruhiyati va hayvonot olami o‘rtasidagi uzviylik esa yozuvchining “Bo‘ri” hikoyasida yanada teran ochiladi. Ushbu hikoyada inson va bo‘ri obrazlari o‘zaro qiyosda, go‘yo bir ruhiy maydonda harakat qiladi. Syujet bir bolaning kimsasiz dalalarda izg‘ib yurgan daydi itlarni bo‘riga qiyoslab aytgan gapidan boshlanadi va bu voqea hikoyachining bolalik xotiralarini uyg‘otadi. Hikoya davomida bo‘rining hayot tarzi, oilaparvarligi, hududini va bolalarini himoya qilishi inson hayoti bilan qiyoslanadi. Asar qahramoni bolaligida bo‘ri bolasini kuchuk deb o‘ylab, u bilan bemalol o‘ynaydi. Bu yerda hali “vaxshiylik” tushunchasi yo‘q, faqat beg‘ubor bolalik mavjud. Ammo vaqt o‘tishi bilan hayot ularni ham ota, ham erkak bo‘riga aylantiradi.

Qahramon ulg‘ayib, oila boshlig‘iga aylanganida bo‘ri bilan yana uchrashadi. Endi bu bo‘ri ham, inson ham hayot sinovlaridan o‘tgan, oilasini himoya qilishga majbur bo‘lgan mavjudotlardir. “Har holda, u yerda bir oila yashar, erkak bo‘ri esa mening qiyofamdagi xatarni sezib, yo‘l yoqasiga bola-chaqasini himoya qilgani chiqqanga o‘xshaydi”, degan fikr orqali inson va bo‘ri ruhiyatidagi o‘xshashlik ochiladi.

Hikoyaning eng ta’sirli nuqtalaridan biri — bo‘rining odamlar tomonidan o‘ldirilishi. Bu voqea qahramonning ichki “bo‘ri”sini uyg‘otadi. “Ichimda bir bo‘ri bor” degan iqror — inson tabiatidagi yovvoyilik, erkinlikka intilish va jamiyat qoliplari o‘rtasidagi ziddiyat ramzidir. Asarda bo‘ri obrazi kinodagi fashistlar tomonidan asirga olingan odam obrazi bilan qiyoslanadi. Bu parallel orqali yozuvchi haqiqiy vahshiylik tabiatga xos emas, ba’zi insonning o‘zida ekanini anglatadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasida bo‘ri qadimdan muqaddas totem sifatida e’zozlangan. Bo‘ri erkinlik, jasorat, vafodorlik va mustaqillik timsolidir. Isajon Sulton “Bo‘ri” hikoyasida ushbu qadimiy mifopoetik qatlamni zamonaviy inson ruhiyati bilan uyg‘unlashtiradi. Asarda inson va bo‘ri qarama-qarshi emas, balki bir-birini aks ettiruvchi obrazlardir. Bo‘rining “vahshiyligi” va insonning “madaniyligi” nisbiy tushunchalar ekanligi ochib beriladi. Ya`ni, bu nisbiylik har bir mavjudot muhitining qonun-qoidalaridan kelib chiqadi. Isajon Sulton ko‘pgina asarlariga “Bo‘ri” obrazini kiritgan. Bo‘rilar ham xuddi insonlar singari o‘z oilasini, shaxsiy hududlarini juda yaxshi himoya qiladilar.

Abdug‘afur Rasulov o‘zining “Jamodot sinoati” maqolasida jamodot aslida jonsiz tabiat sanalsada uning “joni” bor ekanligini ilmiy-falsafiy va badiiy jihatdan dalillab beradilar. Maqolada markaziy g‘oya shundan iboratki, odatda “o‘lik tabiat” deb qaraladigan jamodot aslida harakatsiz, hissiz unsur emas, balki uzoq geologik, kosmik va metafizik jarayonlar mahsuli bo‘lgan tirik tizim sifatida anglanadi. Bu qarash Navoiy asarlaridagi “uch natija” konsepsiyasi bilan izohlanadi: yetti osmon (ota), to‘rt unsur (ona) va uch natija (jismoniy borliq shakllari). Olim ilmiy-falsafiy mulohazalarini badiiy adabiyot namunalarini keltirish orqali boyitadi. Nazarimda, ularning qatoriga Isajon Sultonning ko‘pchilik asarlarini ham kiritish mumkin. Ayniqsa, Normurod Norqobilov ijodi misolida jamodot va inson o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik badiiy obrazlar orqali tahlil qilinadi. Norqobilov qissalaridagi polvon obrazlari tosh, qoya, tog‘ ramzlari bilan uyg‘un holda talqin qilinib, jamodot inson xarakterini belgilovchi estetik omil sifatida ko‘rsatiladi. Isajon Sultonning “Og‘riq tog‘i” hikoyasini ham shu tarzda tahlilga tortsak bo‘ladi. Asarda hikoyachi-qahramon uzoq yillardan beri orzu qilib kelgan, ammo nasib etmagan bir maskan — Og‘riq tog‘i sari yo‘l oladi. Dastlab bu tog‘ uning uchun faqat g‘alati nomi bilan qiziq tuyuladi. Qahramon tog‘ni boshqa tanish tog‘lar — Tiyonshon, Chotqol, Oloy bilan qiyoslaydi, nomlar ortida yotgan ma’nolar haqida o‘ylaydi. Ayniqsa, Og‘riq tog‘i nomi uni tinch qo‘ymaydi, ichki savollar uyg‘otadi. Tog‘ bag‘riga yetib kelgach, qahramon atrof-muhitni sinchiklab kuzatadi: qoya-toshlar, o‘t-o‘lanlar, qushlar, jilg‘alar, shamol ovozi — bularning barchasi unda turli xotiralarni uyg‘otadi. Tog‘ manzarasi asta-sekin tashqi tabiat tasviridan ichki ruhiy

manzaraga aylanadi. Qahramon toshlarda qolgan kaft izlarini ko‘rib, bolalik xotiralariga — otasining qudratli qo‘llariga, ota mehriga qaytadi. Tog‘ obrazi uning tasavvurida ota siymosi bilan uyg‘unlashadi: mustahkam, sokin, ammo ich-ichidan og‘riqli. Yo‘l davomida qahramon bolalik, yoshlik, qarindosh-urug‘, yaqinlar, umr yo‘ldoshi, do‘stlar xotirasiga botadi. Tog‘ bag‘rida o‘sib turgan yolg‘iz jiyda, xino gullari, yosh va keksaygan qoyalar — bularning barchasi inson umrining turli bosqichlarini ramziy tarzda eslatadi. Qahramon tog‘ qoyalari singari inson ham vaqt, zahmat va dardlar ta’sirida yorilib, tilinib borishini anglaydi. Asar davomida tog‘ tobora ramziy ma’noga ega bo‘lib boradi: u — hayot og‘riqlari, kechmish armonlar, ichga yutilgan dardlar timsolidir. Qahramon tog‘ning eng baland cho‘qqisiga chiqishga intiladi, ammo kuchi yetmasligini sezadi. Shu yerda u muhim haqiqatni anglaydi: eng muhim cho‘qqi — balandlik emas, balki yaqinlar mehriga qaytish ekan. Asar oxirida qahramon uyiga qaytadi. Safardan horib-charchab kelgan ota endi bolalari ko‘zida avvalgidek “tog‘day qudratli” emas, balki mehrga tashna, ko‘ngli yumshagan inson sifatida ko‘rinadi. Bolalar otaning ichki kechinmalarini to‘liq anglamaydi. O‘g‘li tog‘ haqida so‘raganida esa, ota Og‘riq tog‘ida kechirgan ruhiy kechinmalarini aytmaydi va uni “oddiygina bir tog‘” debgina ta’riflaydi. Chunki bu og‘riqlarni tushunish uchun o‘z umr yo‘li, o‘z ko‘tarilgan tog‘lari bo‘lishi kerakligini biladi. Demak, ushbu hikoyada tog‘ obrazini mifologik arxetip deb olsak bo‘ladi, u bevosita inson ruhiyati bilan tutashib ketgan. Tog‘ deganda hammaning ko‘z oldiga dastlab, haybatli qoyalar keladi, u qoyalar shu darajada haybatliki, uning bag‘ri uncha munchaga lat yemaydi, lat yesa ham indamaydi, jamodot qonuniyatiga binoan, tog‘da jon yo‘q, ammo, Abdug‘afur Rasulov bergan ilmiy asosga qaraladigan bo‘lsa, u ham tirik tizim ekanligi ma`lum bo‘ladi. “Jamodot bu yerda shunchaki fon emas, balki inson taqdiriga ta’sir qiluvchi, xotira va guvohlikni o‘zida saqlovchi mavjudlik sifatida namoyon bo‘ladi.” Olimlarning fikricha, inson tog‘ni yaqindan kuzatganida uni terilari bilan ham his qila boshlar ekan. Shunday ekan, inson va tabiat orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettira olgan asarlarni tahlilga tortishdan maqsadimiz, adabiyotshunoslikda, umuman olganda, barcha fanlarda ekologik tafakkur poydevor vazifasini o‘tashini tatbiq etishdan iboratdir. Bunday tadqiqotlar neyro (inson hayoti uchun muhim bo‘lgan) fanlarning rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Fan va texnika davrida kurtak ochib ketayotgan “sovuq algoritm”ga qarshi insoniy muvozanat yaratish uchun ham bunday tadqiqotlar kerak.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton hikoyalarida olam va odam munosabatidagi uyg‘unlik ularning yaralishidan, tiriklik diyoridagi hayot tarzidan o‘zaro bir-birlariga bog‘liq jihatlarida kuzatilishi, shu bilan birga ikkisi bir-biridan ayro yashay olmasligi, xususan, insonnning tabiatni asrab-avaylashi aslida o‘zining mavjudligi, yaralishining asl ma’nosini uqqanidan voqif aylaydi, tabiatning tilsimini, sir-sinoatini his qilgan, anglagan, asragan insongina chin ma’noda borliq hodisotlarini mahzanini uqishi, olam tartibotiga rioya etishi ma’lum bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Sulton I.** *Adabiyot nazariyasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
2. **Quronov D.** *Adabiy nazariya asoslari.* – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. **Sulton Isajon.** *Hikoyalar.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.
4. **Rasulov A.** *Jamodot sinoati va badiiy tafakkur.* // **Tafakkur** jurnali. – Toshkent, 2001.
5. **Lotman Yu. M.** *Semiosfera.* – Sankt-Peterburg: Iskusstvo–SPB, 2000.

Muxlisa ASHIRMATOVA,
Qarshi davlat universiteti
Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi magistranti

SHOIM BO‘TAYEY QISSALARIDA DAVR VA QAHRAMON MASALASI

Annotatsiya: ushbu maqolada Shoim Bo‘tayevning badiiy mahorati, ,,Sho‘rodan qolgan odamlar’’ qissasida ijtimoiy muhit va qahramonlar kechinmalari, ularning ruhiy kechinmalari, asarda davr va qahramon masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *hayot haqiqati, badiiy haqiqat, ruhiy kechinma, tasvir mahorati, ijtimoiy davr.*

Annotation: this story explores Shoim Butaev’s artistic skills,in the story “People leftbehind the Council’’, social environmentand the experiencies, the period and settingof the work Hero‘sissuesare covered.

Keywords: *truth of life, artistic truthspiritual experience,art of portroyal, social era.*

O‘zbek adabiyotining so‘nggi yillarida shakllanib borayotgan oqimlardan biri inson ruhiyatining chuqur tahliliga, hayotiy haqiqatni badiiy ifodalar bilan ochishga qaratilgan yo‘nalishdir. Shu jaroyonda o‘ziga xos uslubi, badiiy nigohi, ruhiy tasvirga boy qissalari bilan ajralib turgan yozuchilardan biri – Shoim Bo‘tayevdir. Uning ijodi o‘zbek nasrida hayotiylik, samimiylik va ruhiy kechinmalar uyg‘unligi bilan kechadi. Adib qissalarining o‘ziga xos jihati shundaki, u har bir obrazni hayotiy detallar, tabiiy dialoglar, ruhiy holatlar orqali jonlantiradi. Taniqli nazariyotchi olim Hotam Umurov yozuvchi badiiy mahorati haqida shunday fikr bildiradi: “Ijoddagi eng kichik zarra ham badiiy mahoratga muhtojdir. Yozuvchi ma’lum g‘oya asosida to‘plangan alohida faktlarni o‘zining shaxsiy tajribasi bilan boyitib qalbidan o‘tkazib ko‘pchilikka xos qilib umumlashtiradi.Ya’ni aniq g‘oyaga asoslanib, yozuvchi hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to‘qiydi, tabiiy betakror narsalarni yaratadi. Yaratgan asari o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonli namoyon bo‘ladi, kitobxon o‘y-xayollarini o‘ziga tamoman band etadi”. [1] Shoim Bo‘tayev ham o‘z asarlarida ana shunday hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantira olgan yozuvchilardan biri hisoblanadi.

Shoim Bo‘tayev qissalarida davr – bu qahramonlar hayotini, dunyoqarashini, tanlovlarini belgilovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. U yozgan asarlar o‘tish davri, ijtimoiy o‘zgarishlar, jamiyatdagi ma’naviy inqiroz va insoniy qadriyatlarning sinovi yaqqol ko‘rinadi. Adib qahramonlarini turli sinovlar, ruhiy kechinmalar, qarama-qarshiliklar orqali sinaydi, ularning ichki olamini ochib beradi. Yozuvchi uchun inson shaxsiyatining shakllanishida davr ta’siri juda muhim o‘rin tutadi. Qahramonlar hayotining murakkabligi, ularning orzu-istaklari, jamiyat bilan ziddiyatlari orqali adib o‘z zamonasining eng og‘riqli masalalarini yoritadi. Shoim Bo‘tayev qissalarida davr va qahramon bir-biri uzviy bilan bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro ta’sirida asarning asosiy g‘oyaviy mazmuni shakllantiriladi. Xususan adibning “Sho‘rodan qolgan odamlar’’ qissasi yuqoridagi fikrlarga ayni namunasi hisoblanadi. Qissada boshqa qissalarga qaraganda o‘zbek milliyligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu munosabat oiladagi muhit, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘zga tashlanadi. Asarda Tog‘ay Murod asarlariga o‘xshab Surxon koloriti ustunlik qiladi.

Asarda yana bir e’tiborni tortadigan jihat roviy masalasidir. Asar o‘qishda muhim jihat, kitobxon zinhor sust, beo‘ylov ergashuvchi bo‘lmasligi kerak. Kitobxon roviy va yozuvchi o‘rtasidagi nozik aloqalarni, uslub tebranishlarini payqashi lozim. Ya’ni qissada hikoyachi xarakteri jiddiy o‘rin egallagan. Roviy voqealarni tasvirlaydi, qahramonlarning qilmishini tasvirlaydi, faoliyatini ko‘rsatadi, asarda ilgari surilayotgan g‘oyaga kitobxon diqqatini tortishga harakat qiladi. Asardagi el timsoli, xalq mafkurasi, ertangi kungi maqsad, o‘ylarini ham so‘zlaydi. “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasida roviy aka-uka hayotini, oilasini, aloqalarini, ijtimoiy mavqeyini hikoya qiladi.[2]

Asar yozilgan yilga e’tibor qiladigan bo‘lsak, endigina mustaqillikka erishgan, hali iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan barqarorlashmagan paytlarga to‘g‘ri keladi. Qahramonlarning ijtimoiy-ruhiy holati ham ayni shu muhitga mos tasvirlangan.

Shu o‘rinda Abdulla Qodiriyning quyidagi fikrlari e’tiborga molik. “Hikoyani sersuv(suvli) qiladigan narsalardan biri ko‘rsatish o‘rniga sozlab berish san’atidir’’[3] Qodiriy Chexovning ,,Xamelyon’’ hikoyasidagi Ochimulov obrazi orqali fikrlarini isbotlaydi. Ochimulovning o‘zini tutishi, boshqalar bilan munosabati orqali uning shaxsiyatini tasvirlaydi. Shoim Bo‘tayev ham qahramonlar shaxsiyatini tasvirlashda ana shu usuldan foydalangan.

Qishloq go‘rkovi obrazini tahlil qiladigan bo‘lsak, go‘rkov vafot etishlar soni ko‘payib ketganligidan bir tomondan xursand, bir tomondan xafa ham edi. Xursandchiligi uning tirikchiligi o‘tib turibdi, xafaligi esa odamlarning bevaqt o‘limlari emas, balki ekin ekayotgan yerning qisqarib borayotganligida edi. U ko‘proq o‘z manfaati, o‘z nafsi o‘ylaydigan kimsalar sifatida ko‘rsatilgan.

Keyingi qahramon Nachaynik obrazi bo‘lib, yozuvchi ushbu qahramon ismini atigi bir martagina keltirib o‘tgan. Mels qissaning markaziy obrazlaridan biri. Uning ismi ramziy ya’ni Marks, Engels, Lenin, Stalin so‘zlarining bosh harflaridan tuzilgan ideologik nom. Bu Melsning dunyoqarashini, tug‘ilgan davrini, o‘sha zamon mafkurasining inson hayotiga qanchalik ta’sir o‘tkzaganligini anglatadi. U o‘z zamonasining ,,ideal sovet odami’’ sifatida tarbiyalangan. U sodiq, halol, mehnatsevar, lekin shu bilan birga tashqi dunyoni sho‘ro mafkurasi ko‘zoynagi bilan ko‘radi. Mels – bu shunchaki shaxs emas, balki butun bir avloqning timsoli. Sho‘ro tuzumida ulg‘aygan, lekin mustaqillik sharoitda o‘z o‘rnini topa olmayotgan insonlar timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Keyingi obraz – Sunnat o‘g‘ri obrazidir. Sunnat yangi davrning mevasi, ya’ni yangi tuzumdagi axloqiy tanzzul timsoli. U oddiy, kambag‘al oiladan chiqqan, ammo o‘z mehnati bilan emas, nohalol yo‘l bilan boylik orttirgan boylardan. Sunnat obrazi orqali yozuvchi yangi jamiyatdagi axloqiy buzilish, vijdonsizlik va boylikka sig‘inish illatini fosh etadi. Sunnat Melsga qarama-qarshi obraz sifatida tasvirlanadi. Mels eski tuzumda qolib ketgan, formalist inson bo‘lsa, Sunnat o‘g‘ri yangi davrda shakllangan o‘sha davrning qonunlariga moslashib bo‘lgan obraz.

Shuningdek asarda Toshmurod, amaki, ona va boshqa obrazlar ham borki, ular ham asar kompozitsiyasida munosib o‘rin egallagan. Ayniqsa asarda ona obrazi alohida ahamiyatga molik. Ushbu obraz ota va o‘g‘il munosabatlarini tiklaydi. Uning vafoti Melsni yangicha hayotga kirib kelishini, yangicha fikrlashini, dunyoqarashini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Yana bir jihat borki, “Sho‘rodan qolgan odamlar’’ asarida yozuvchi laqab, kasb qarindoshlik darajasi, martabani asos qilib oladi. Asarning boshidan oxirigacha Nazoratchi, kayvoni, amaki, oqsoqol kabi obrazlarning nomi biror marta tilga olinmaydi. Ularning xarakteri ularning amallari, gap-so‘zlari orqali yoritiladi.

Umuman asar Sovet tuzuming so‘nggi yillarida, mustaqillikning ilk yillaridagi voqealarni tasvirlaydi. Bu paytda Sho‘ro mafkurasi zaiflashgan, Odamlar o‘z hayoti, erki haqida o‘ylay boshlagan, odamlarning yangilikni qabul qilishdagi ruhiy kurashlari tasvirlangan bir davr edi. Asarda jamiyatdagi ma’naviy bo‘shliq aniq aks etadi. Bu sho‘ro tuzumining oxirgi bosqichida odamlar orasida paydo bo‘lgan ishonchsizlik, charchoq, befarqlik orqali namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda har bir qahramon xarakterini shakllanishida u yashayotgan muhit, davr, zamon masalalari alohida o‘rin tutadi. Sho‘rodon qolgan odamlar qissasida ham xuddi shunday. Mustaqillikning ilk yillaridagi iqtisodiy inqiroz, ishsizlik, nochor turmush tarzi odamlarda loqaydlik, yolg‘onchilik, ishonchsizlik kabi illatlarni ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Shu sababli ham odamlar hayotni faqat qorin to‘ydirishdan iborat deb bilib qoldi. Adib bekorga qamoqxona, o‘g‘rilik tasvirlarini keltirmagan. Jamiyatdagi jinoyatlarning ko‘payib ketganligi, odamlar oddiy hayot tarzidan ko‘ra qamoqxonadagi hayotni afzal ko‘rishlari bekorga emasdi.

Shoim Bo‘tayev asar orqali o‘sha davr uchun xulosasini beradi. “Sho‘ro davri odamlarni o‘zligidan, mustaqil fikridan mahrum qildi. Endi yangi davr kelmoqda, ammo eski tafakkurdan voz kechmasdan turib, haqiqiy yangilanish bo‘lmaydi’’. [4]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, asar o‘tgan davrning inson ruhiyatida qoldirgan izlarini ochib beruvchi bir asar sifatida dunyoga kelgan. Muallif eski tuzumda shakllangan, mustaqil fikrlashdan uzoq yangilanishdan qo‘rqadigan odamlar hayotini, jamiyatdagi o‘tish davrining og‘riqli davrini ko‘rsatadi. Asarda Sho‘ro mafkurasi qulagach, odamlar o‘z hayot yo‘lini, e’tiqodni izlay boshlagani tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xotam Umurov. “Badiiy ijod asoslari’’. – Toshkent: “O‘zbekiston’’, 2001.
2. www.arxiv.uz sayti
3. Abdulla Qodiriy. “Ijod mashaqqati’’. – Toshkent: “O‘qituvchi’’, 1995.

www.ziyo.uz. “O‘zbek yozuvchilari tushkunlikni qanday bartaraf etadilar’’ maqolasi.

Parizoda CHORIYEVA,
QarDU Filologiya fakulteti II kurs talabasi



ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING UYG‘UNLASHUVI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi tahlil qilinib, unda realizm va romantizm yo‘nalishlarining uyg‘unligi ko‘rsatildi. Hikoya orqali muallif ijtimoiy muammolar — ayollar taqdiri, jaholat va tengsizlikni realistik tarzda tasvirlab, inson qalbining nozik kechinmalari, sadoqat, orzu va idealistik tuyg‘ularni romantik ruh bilan yoritadi. Asarda qahramonlar obrazlari, muhit va ramzlar tizimi orqali jamiyatdagi adolatsizlik, ayol matonati va ichki ruhiy iztiroblar ifodalanadi. Shu bilan birga, o‘quvchini ijtimoiy haqiqatni anglash va insoniy qadriyatlarning yo‘qligi ulkan fojia keltirib chiqarishini tushunishga chorlaydi.

Kalit so‘zlar: *adabiyot, realizm, romantizm, asar, klassitsizm, O‘tkan kunlar, Kecha va kuduz, roman, jadid, hikoya, yozuvchi, ayol, dahshat, timsol.*

Аннотация: в данной статье анализируется рассказ Абдуллы Каххора «Ужас», в котором показана гармония реализма и романтизма. Через сюжет автор отражает социальные проблемы — судьбу женщин, невежество и несправедливость — в реалистическом ключе, одновременно освещая тонкие переживания человека, верность, мечты и идеалистические чувства в романтическом духе. Через образы героев, окружающую среду и систему символов выражаются общественная несправедливость, стойкость женщин и внутренние душевные терзания. Работа побуждает читателя осознавать социальную правду и понимать, что отсутствие человеческих ценностей ведёт к серьёзным последствиям.

Ключевые слова: *литература, реализм, романтизм, произведение, классицизм, Прошедшие дни, Вчера и сегодня, роман, джадид, рассказ, писатель, женщина, ужас, символ.*

Annotation: this article analyzes Abdulla Qahhor’s short story *Dahshat* (“Horror”), highlighting the interplay of realism and romanticism. Through the narrative, the author portrays social issues—women’s fate, ignorance, and injustice—realistically, while also illuminating the human heart’s delicate emotions, loyalty, dreams, and idealistic feelings in a romantic spirit. Through characters, setting, and symbolism, the story reflects societal injustice, women’s resilience, and inner psychological struggles, encouraging readers to recognize social truths and understand that the absence of human values can lead to severe consequences.

Key words: *literature, realism, romanticism, work, classicism, O‘tkkan Kunlar, Kecha va Kunduz, novel, Jadid, story, writer, woman, horror, symbol.*

Kirish. Adabiyot har qanday davrda inson ruhiyatini, uning orzu-intilishlarini va jamiyatdagi hayotiy haqiqatlarni aks ettirishdagi beqiyos jozibadorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy ijod insoniyat tafakkurining eng nozik qatlamlarini yoritib, ruhiy kechinmalar va ijtimoiy voqelikni o‘zaro uyg‘un tarzda ifodalash imkonini beradi. Shu boisdan ham adabiyot qaysi yo‘nalishda bo‘lmasin – u realizmni yoki romantizmni madh etadimi – baribir o‘z o‘quvchisini, o‘z davrining estetik va ma’naviy ehtiyojiga javob bera oluvchi muxlislarini topadi.

Realizm adabiyotda hayotiy voqealarni, inson va jamiyat haqidagi haqiqatlarni badiiy obrazlar orqali haqqoniy va tabiiy shaklda tasvirlashga asoslangan yo‘nalishdir. Realistik asarlar voqelikni barcha murakkabliklari, ichki ziddiyatlari, ijtimoiy muammolari bilan ko‘rsatishga intiladi. Bu yo‘nalishning asosiy maqsadi — inson hayotini, uning ruhiy olamini, ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatini real holatda ochib berishdir. Shu bois realizm adabiyotning o‘zini ham, tashqi olamni ham anglash vositasi sifatida shakllanib, yozuvchiga hayotning barcha jihatlarini cheklanmagan holda ifodalash imkoniyatini beradi.

Adabiyotshunos Viktor Gyugo bu borada shunday deydi: *“Realizm — bu hayotning o‘zini, uning shon-shuhratini ham, kulfatini ham, nurini ham, soyasini ham ko‘rsatishdir. Chunki san’atning vazifasi faqat go‘zallikni emas, haqiqatni ham ifodalashdir”*[1. 80-81]. Shu bois realistik adabiyotda haqiqatni tahliliy, ijtimoiy, psixologik yondashuvlar orqali yoritish tamoyili ustuvor hisoblanadi. Bu metod nafaqat voqelikni tasvirlashni, balki uni tahlil qilishni, sabab-oqibat bog‘liqligini anglashni ham ko‘zda tutadi. Shu boisdan ham realizm jahon adabiyoti taraqqiyotining eng yetuk bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. XIX asrda Balzak, Stendal, Tolstoy, Dostoyevskiy, Dickens kabi buyuk yozuvchilar ijodi bu yo‘nalishning yuksak namunalarini yaratdi.

Romantizm esa adabiy oqim sifatida inson ruhiyati, tuyg‘ular, muhabbat, orzu, ideal va go‘zallikni ulug‘lashga asoslanadi. “Romantizm” atamasi ispancha *romans* so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab lirik va qahramonlik mazmunidagi qo‘shiq yoki ritsarlar haqidagi sarguzasht dostonlarini anglatgan. XVII asrda “romantik” sifatdoshi roman tillarida yozilgan, g‘ayrioddiy va qahramonlik ruhidagi asarlarga nisbatan qo‘llanila boshlagan. XVIII asr oxirlarida esa Angliya, Germaniya va Fransiyada bu so‘z badiiy adabiyotdagi yangi oqim — romantizmning nomi sifatida mustahkamlandi.

Romantik asarlarda yozuvchilar ko‘proq insonning ichki dunyosi, orzulari, his-tuyg‘ulari va idealga intilishini tasvirlaydilar. Ular real hayotdan ko‘ra orzular dunyosini, go‘zallikka, muhabbat va erkinlikka intilish motivlarini ustun qo‘yadilar. Shu bois romantik qahramonlar odatda hayotdagi mavjud sharoitdan norozi, orzulariga sodiq, jamiyatdan ustun turgan shaxs sifatida gavdalanadi. Romantizm adabiyotda estetik idealga, inson ruhiyatining yuksak kechinmalariga, go‘zallik va erkinlik tushunchalariga tayanadi. Tarixan romantizm klassitsizmga qarshi oqim sifatida yuzaga kelgan. Klassitsizm qat’iy qoidalar, aql-idrok ustuvorligi, hayotiy haqiqatlarni soddalashtirish tarafdori bo‘lgan bo‘lsa, romantizm erkinlik, hissiyot va individual ijodiy ifodani ilgari surdi. XIX asrning birinchi yarmida bu yo‘nalish Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida – Angliya, Germaniya, Fransiya, Polsha, Rossiya va Italiyada keng yoyildi. Uilyam Bleyk, Jorj Bayron, Gyote, Gyugo, Shiller, Puşkin, Lermontov singari ijodkorlar romantizmning eng yorqin vakillaridir.

Umuman olganda, bu ikki tushuncha paydo bo‘lishi bilanoq, adabiyotda yangi davr va yangicha ko‘rinish vujuga keldi. Binobarin, realizm va romantizm — adabiyot taraqqiyotida bir-birini to‘ldiruvchi, biroq estetik tamoyillari jihatidan farqli ikki yo‘nalishdir. Romantizm orzular, ideallar va tuyg‘ular olamini madh etgan bo‘lsa, realizm inson hayoti va jamiyatdagi muammolarni haqqoniy tarzda yoritishga xizmat qilgan. Biri inson qalbining chuqur kechinmalarini ochib bersa, ikkinchisi uning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini tahlil qiladi. Shu bois, bu ikki yo‘nalish birgalikda inson va hayot haqidagi badiiy tafakkurni boyitib, jahon adabiyotining eng muhim bosqichlarini tashkil etadi.

Realizm va romantizmning Markaziy Osiyo adabiyotida kurtak ochishi asosan jadid adabiyoti bilan bir davrga to‘g‘ri keladi. XX asr boshlarida, Jadidchilik harakati ta’sirida Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekiston adabiyotida yangi badiiy-estetik tafakkur shakllana boshladi. Jadid adabiyoti o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va madaniy yangilanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda xalqni ma’rifat, ozodlik, taraqqiyot va yangicha fikrlash sari yetaklash g‘oyasi ustuvor edi. Ana shu yangi davr adabiyotida realizm va romantizm yo‘nalishlari o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashib, o‘zbek badiiy tafakkurining yangi bosqichini boshlab berdi. O‘zbek adabiyotida bu ikki yo‘nalishning birinchi yorqin namunalari sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari, shuningdek, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asari alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarlar o‘zbek milliy romanchiligini shakllantiribgina qolmay, xalq hayoti, o‘zlik, sevgi va insoniy qadriyatlar haqidagi badiiy tafakkurni ham yangi bosqichga olib chiqdi. Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov bu haqida shunday yozadi:*“Qodiriy o‘z romanlari orqali o‘zbek adabiyotida realizmni shakllantirdi, lekin bu realizmning zamirida milliy ruh va romantik orzular uyg‘un yashaydi. Uning badiiy dunyosi haqiqatni orzu bilan, voqelikni ideal bilan tutashtira oldi”*[4,18 -28]

Keyinchalik o‘zbek adabiyotida realizm va romantizm yo‘nalishlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davr adabiyotida inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar, ma’naviy qadriyatlar masalalari chuqur tahlil etila boshladi. Shu jarayonda Abdulla Qahhor o‘zining badiiy mahorati, hayotni teran kuzatish qobiliyati va ruhiy tahlil san’ati bilan adabiyotimizda yangi burilish yasadi.

Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov “Dahshat” hikoyasi haqida shunday yozadi: *“Qahhor ‘Dahshat’da inson ruhining eng sirli, eng og‘riqli qatlamlariga kiradi. U bu hikoyada voqelikni emas, inson qalbini kuzatadi; yovuzlik va qo‘rquv qarshisida insoniylikning eng nozik, ammo eng kuchli iplarini ochib beradi. Shu bois ‘Dahshat’ – o‘zbek realizmining psixologik cho‘qqisidir”*[4, 22] Abdulla Qahhor bu hikoyada realistik tasvir va romantik ruhiylikni o‘zaro uyg‘unlashtirgan. Uning qahramonlari hayotiy asosda yaratilgan bo‘lsa-da, ularning ruhiy olami poetik bo‘yoqlar, hissiy tahlil va ichki dramatizm orqali ochiladi. Shu jihatdan “Dahshat” nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklarni tanqid qiladi, balki inson qalbining go‘zalligi, mehr va insof kabi ezgu tuyg‘ularni ham kuylaydi. Yozuvchi o‘z asarlari orqali o‘zbek adabiyotida psixologik realizmni mustahkamlabgina qolmay, unga romantik mazmun va hissiy chuqurlik olib kirdi. Uning ijodiy uslubi hayot haqiqatini ifodalash bilan bir qatorda, inson qalbining ichki iztiroblarini, ezgulikka tashnaligini badiiy tahlil orqali ko‘rsatdi. Shu bois Abdulla Qahhor ijodi o‘zbek adabiyotida realizm va romantizm sintezining yuksak namunasi sifatida e’tirof etiladi.

Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikoyani mutolaa qilar ekanmiz, yozuvchi nimaga o‘z asarini “Dahshat” deb atagan, degan savol ko‘nglimizdan o‘tishi tabiiydir. Bu nom hikoyadan joy olgan faqatgina go‘ristondagi qo‘rquvli manzaralarni emas, balki o‘sha davr jamiyatida hukm surgan zulm, jaholat, erkaklar hukmronligi va ayollar hayotidagi ruhiy ezilish dahshatini ifodalaydi. Yozuvchi uchun haqiqiy dahshat — bu Unsinoyning qorong‘ulik va qo‘rquvga qaramay sadoqat ko‘rsatishi emas, balki insoniylikdan ayrilgan, vijdonsiz jamiyatning o‘zidir. Shu jihatdan hikoya nafaqat ayol taqdiri haqida, balki ma’naviy uyg‘onish zarurati, insoniy qadriyatlarning qadrsizlanishi haqida ham o‘ylantiruvchi falsafiy mazmunga ega.

Abdulla Qahhor shu hikoya orqali o‘z davrining eng og‘riqli masalalarini — ayollar taqdiri, erkaklar zo‘ravonligi, jaholat va ijtimoiy tengsizlikni yoritibgina qolmay, bu masalada dunyodan yiroqlik, bir yoqlama qarashlik katta

xato ekanligini ham ko‘rsatib o‘tadi. U Unsinoy obraziga alohida e’tibor qaratib, unda romantik idealizm va inson qalbining go‘zalligini ifodalaydi. Hikoya realizmning hayotiy tasvirini romantizmning hissiy chuqurligi bilan uyg‘unlashtirib, o‘zbek adabiyotida psixologik realizmning eng yetuk namunalaridan birini yaratadi.[6,67.]

Abdulla Qahhor o‘zining “Dahshat” hikoyasida ijtimoiy hayot, undagi ayollar taqdiri, unda faqat bir yoqlamalik, asosiy e’tibor erkaklar ustunligi hamda ayollar tengsizligi va diniy johillikning oqibatlarini chuqur psixologik tahlil asosida tasvirlanadi. Yozuvchi bu real hayot manzaralarini inson ruhiyati, sadoqat, orzu va ichki kurash bilan uyg‘unlashtirib, asarda realizm va romantizm yo‘nalishlarini mahorat bilan birlashtiradi. Yozuvchining maqsadi faqat jamiyatdagi adolatsizlikni fosh etish emas, balki o‘quvchini insoniylik, rahm-shafqat va ma’naviy uyg‘onish haqida o‘ylashga undashdir. Shu jihatdan “Dahshat” ijtimoiy haqiqatlarini aks ettiruvchi realistik asar, ammo inson qalbidagi orzu va sadoqatni yuksak ma’naviy pog‘onaga ko‘targani bilan romantik ruhda yozilgan. Hikoyadagi obrazlarga ta’rif berish orqali biz asarning aslida nima haqida ekanligini, uning ichki muhitini anglay boshlaymiz:

Unsinoy — romantik go‘zallik va ruhiy jasorat timsoli bo‘lib, u hikoyaning markaziy qahramoni sifatida romantik idealizmni o‘zida mujassam etadi. U yosh, go‘zal, ammo ijtimoiy tengsizlik, erkak hukmronlik va diniy qoloqlik qurboni bo‘lgan ayoldir. Go‘ristonga borish topshirig‘ini bajarishga rozi bo‘lishi — bu nafaqat sadoqat yoki qo‘rquvni yengish, balki ichki ozodlik sari jasoratli qadamdir. Unsinoy qorong‘u tunda, shamol va vahima orasida o‘z vijdoni va sadoqati yo‘lida harakat qiladi. U qo‘rquvni emas, o‘z vijdonini yengadi. Shu orqali yozuvchi ayol ruhining pokligi, sadoqati va jasoratini romantik fojea shaklida yoritadi. Unsinoy o‘z orzusiga — tinchlik va ozodlikka — faqat o‘lim orqali erishadi. Bu esa romantik adabiyotda uchraydigan “fojiali go‘zallik” konsepsiyasining yorqin ifodasidir.

Olimbek Dodxo — johillik va zo‘ravonlik timsoli. Olimbek Dodxo hikoyadagi jamiyatdagi zulm, johillik va axloqiy tanazzulni ifodalaydigan salbiy obrazdir. U o‘zini dindor va obro‘li deb biladi, ammo amalda insoniylik va vijdondan uzoq, zulmkor shaxsdir. Dodxo obrazida yozuvchi o‘sha davr erkak hukmron ijtimoiy tuzumini, ayollarga nisbatan shafqatsizlikni realistik uslubda ochib beradi.

Dodxoning Unsinoyga nisbatan qilgan shafqatsiz sinovi, uning o‘limiga sabab bo‘lishi — bu vijdonsizlikning eng dahshatli ko‘rinishidir. Shu orqali yozuvchi o‘quvchini o‘ylantiradi: haqiqiy dahshat — arvohlar yoki qorong‘ulikda emas, balki inson qalbidagi zulm va johillikdadir

“Dahshat” hikoyasida voqealar rivojini nafaqat insonlar o‘rtasidagi munosabatlar orqali, balki muhit tasviri orqali ham chuqur ifodalaydi. Hikoyada tasvirlangan qorong‘u kechalar, shamol, go‘riston, vahimali sukunat kabi tabiat manzaralari Unsinoyning ichki ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashgan. Bu vosita yozuvchining romantik tasvir uslubini kuchaytiradi va asarga psixologik chuqurlik bag‘ishlaydi. Asardagi muhit unsurlari ramziy ma’no kasb etib, yozuvchi tomonidan ijtimoiy-falsafiy mazmunni ochish uchun xizmat qiladi:

Shamol — hikoyaning asosiy fonini tashkil etuvchi badiiy detal. U o‘tgan zamonlarning og‘riqli xotiralari, ayollar hayotidagi ruhiy iztirob va ezilishlarning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shamolning g‘uvillashi, chiyillashi nafaqat qo‘rquv hissini kuchaytiradi, balki jamiyatning og‘ir, adolatsiz tuzumining timsoli sifatida ham anglashiladi.

Yaydoq daraxtlar — ayollarning himoyasizligi, hayotda tayanch va erkinlikdan mahrum bo‘lgan holatini aks ettiradi. Daraxtlarning yaproqsiz, sovuq va sukunatdagi holati ayollar taqdirining chorasizligini, ularning jamiyatda tutgan o‘rni qanchalik zaifligini ramziy tarzda ifodalaydi.

To‘raxon oyining ko‘z yoshlari — asarda insoniylik va rahm-shafqatning so‘nmagan uchqunidir. Bu detallar ayollarning ichki dunyosida davom etayotgan og‘riqni, adolatga bo‘lgan intilishni bildiradi. To‘raxon oyining ko‘z yoshlari — bu jamiyatdagi barcha zulm va adolatsizlikka qarshi vijdonning nolasidir.

Kuz manzarasi — tabiat orqali ruhiy holatni ochuvchi muhim badiiy fon. Kuz — hayotning so‘nishi, umidning sovushi, inson ruhidagi iztirob va ruhiy bo‘shashuv ramzi sifatida tasvirlanadi. Bu manzara Unsinoyning hayoti bilan uyg‘un: u ham hayotining kuz faslida, ya’ni so‘nish pallalarida o‘z orzusiga faqat o‘lim orqali yetadi.

“Dahshat” so‘zi — butun asarning semantik markazidir. Bu so‘z nafaqat go‘ristondagi qo‘rquvli manzaralarni, balki o‘tmishdagi zulm, qo‘rquv va inson qadrsizligini o‘zida mujassam etgan. Aslida yozuvchi “dahshat”ni tashqi qo‘rquv emas, ichki ma’naviy zulmat sifatida talqin qiladi.

Asardagi har bir so‘z o‘zining mushohada qilishga tortishi bilan ajralib turadi. “Dahshat” hikoyasi o‘zbek adabiyotidagi eng chuqur, hayotiy va ta’sirli asarlardan biri hisoblanadi. Unda yozuvchi ayollar hayotini, ularning boshiga tushgan og‘ir sinovlarni, qoloqlik va johillik muhitida kechgan hayot fojeasini teran o‘ylagan holda, uni yorqin rangda tasvirlaydi. Shu bilan birga, hikoyada ayol qalbidagi sadoqat, or-nomus, muhabbat va umid kabi sof his-tuyg‘ular ham o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun asar mazmunan realizm ruhida, ammo yaratilgan Yozuvchi inson ruhini, ayniqsa ayol qalbining nozik kechinmalarini samimiy va og‘riqli tarzda yoritadi. Uning tili sodda, lekin ma’nosi teran; voqealar real hayotdan olingan, ammo ularni ifodalashdagi badiiylik romantik ohangni yaratadi. Hikoyadagi ayrim parchalar go‘yo yozuvchi qalb-kechinmalarini jarangdor tarzda ifoda etayotgandek o‘quvchida ichki ruhiy uyg‘oq taassurot uyg‘otadi:

“O‘sha paytlarda ayolning so‘zi shamolday uchardi, hech kim unga quloq solmasdi.” Ushbu so‘zlar orqali yozuvchi o‘tgan davr ayollari duch kelgan jamiyatdagi adolatsizlik va tengsizlikni ochib beradi. Ayolning fikri va istaklari e’tiborsiz qoldirilgani, ularning ovozi jamiyatda qadrsiz bo‘lganini anglatadi. Shu bilan birga, yozuvchi romantik ohang orqali ayollarning ichki iztirobi, ruhiy chidamliligi va yashirin kuchini ham tasvirlaydi. Bu orqali o‘quvchi nafaqat realistik haqiqatni, balki ayollarning ichki dunyosidagi his-

tuyg‘ular, orzu va intilishlarini ham his qiladi. Realizm va romantizm uyg‘unlashgan holda, hikoya inson ruhining murakkab va nozik qatlamlarini ochib beradi.

“Bu voqeani eslaganda yuragim eziladi, go‘yo o‘sha dahshatli kunlar yana qaytgandek bo‘ladi.”[16, 6.] Ushbu satrlar hikoyaning umumiy ruhini ifodalaydi. Yozuvchi o‘tgan zamon voqealaridagi qiyinchiliklar va inson qalbidagi og‘riqni o‘quvchiga yetkazadi. Realistik yondashuv voqealarning haqiqatini aniq tasvirlasa, romantik uslub o‘quvchida hissiy taassurot va estetik sezgi uyg‘otadi. Shu tarzda hikoya nafaqat tarixiy haqiqatni aks ettiradi, balki inson ruhiyati va ichki kechinmalarini ham chuqur ifodalaydi.

“Dahshat” hikoyasida har davrdagi asosiy e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan inson ruhiyati oldinga qo‘yilib, bu dunyoda har bir inson teng huquqqa ega ekanligini yozuvchi o‘z nuqtai nazaridan ochib beradi va hikoyada ayollarning ularning bilim olish imkoniyatlarining cheklamaslik, shuningdek, xalqining dunyo bilan birga bo‘lishda ham ayollarning o‘rni borligini ko‘rsatadi. Shu orqali yozuvchi agar eskicha qarashlar bilan ayollarga cheklov qo‘yish eng katta fojialarga sabab bo‘lishini, insoniyat hayotidagi murakkab va og‘riqli voqealarni realistik uslubda yoritadi. Biroq hikoya faqat realistik obrazlar bilan cheklanib qolmaydi. Abdulla Qahhor uni romantik ruh bilan ham boyitib, qahramonlarning ichki kechinmalari, sadoqati va orzularini yorqin ifodalaydi. Unsinoyning jasorati, mehr va muhabbatga to‘la qalbi, uning ruhiy chidamliligi va ichki mustaqilligi romantik fojia sifatida hikoya qilinadi. Bu esa o‘quvchida kuchli estetik taassurot uyg‘otib, inson ruhining nozik va murakkab qatlamlarini his etishga yordam beradi.

Xulosa. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida realistik tafakkur bilan romantik estetikani uyg‘unlashtirgan yuksak badiiy asarlardan biridir. Muallif bu hikoya orqali nafaqat o‘z davrining murakkab ijtimoiy muhitini aks ettirgan, balki inson ruhining eng nozik qatlamlarini ham tahlil etib, psixologik realizmning yorqin namunalarini yaratgan.

Yozuvchi asarning markazida Unsinoy obrazini qo‘yish orqali ayolning hayotiy kurashi, muhabbati va or-nomusi yo‘lida qilgan fidoyiligi, shuningdek, ayol qadr-qimmatining ramziy timsoli sifatida taqdim etadi. Qahhor Unsinoy timsolida ayol qalbidagi sabr, sadoqat va insoniy poklikni yuqori badiiy darajada ifodalaydi. Shu bilan birga, Olimbek Dodxo obrazida yozuvchi jaholat, zo‘ravonlik va ma’naviy ko‘rlik kabi illatlarni namoyon etadi.

Umuman olganda, *“Dahshat”* hikoyasi nafaqat ayol taqdirining shaxsiy fojeasini aks ettiradi, balki insoniyatning vijdoni, ma’naviy uyg‘onishi va adolatga intilishi haqidagi falsafiy-badiiy tafakkurdir. Abdulla Qahhor o‘z ijodi orqali o‘zbek adabiyotini realistik aniqlik va romantik ifodaning uyg‘unlashtirish orqali uni boyitadi. *“Dahshat”* hikoyasi esa aynan shu uyg‘unlikning eng yorqin va ravshan namunasidir. Hikoya nafaqat inson ruhiyati va jamiyatning murakkab haqiqatlarini chuqur psixologik tasvirlar orqali ochib beradi, balki o‘quvchida insoniylik, tenglik va har bir ishga mehr bilan, holisona yondashish zarurligi haqidagi fikrlarni shakllantirishda bevosita xizmat qiladi. Shu tariqa, Qahhorning badiiy ustaligi o‘quvchi ongida hissiy va ma’naviy aks-sado uyg‘otishda o‘zining muhim o‘rnini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gyugo, V. Préface de Cromwell. Paris: Librairie de France, 1827. – 321 b. Manba: https://en.wikisource.org/wiki/Cromwell_(Hugo,_tr._Ives)/Preface
2. G‘afurov, I. Abdulla Qodiriy dahosi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1994. – 9-bet.
3. Sharafiddinov O. Cho‘lpon adabiy merosi va zamonaviy tafakkur. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1989. 45-bet.
4. G‘afurov, I. Abdulla Qahhor: Ruhiyat va haqiqat. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2000. 17–28-bet
5. Komilov, N. XX asr o‘zbek adabiyoti tahlillari. – Toshkent: Fan, 2001. 214–220-bet.
6. Islomov, S. O‘zbek adabiyotida realizm va romantizm. – Toshkent: Sharq, 1998. 132–140-bet
7. Islomov, Sh. O‘zbek adabiyotida psixologik realizm va romantizm. – Toshkent: Sharq, 2002. 145–152-bet
8. Qodirov, Sh. Adabiyot nazariyasi: Realizm va romantizm. – Toshkent, 2016. 88–95-bet
9. Karimov, I. O‘zbek romanchiligi va romantizm elementi. O‘zbek adabiyoti jurnali, № 4, 2020. 34–39-bet
10. Farmonova, S. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi tahlili. *Science and Education ilmiy jurnali*, 5(12), 2024. 45–52-bet.
11. Mirzoyev, E. O‘zbek romanchiligida realizm va romantizm uyg‘unligi. – Toshkent, 2019. 60–66-bet
12. Tursunov, L. XX asr o‘zbek adabiyotida psixologik tahlil. – Toshkent, 2021. 75–82-bet
13. Ahmedova, G. Ayol obrazlari va ularning romantik tasviri o‘zbek adabiyotida. Filologiya ilmiy jurnali, № 3, 2022. 77–83-bet.
14. Sobirov, B. O‘zbek adabiyotida zamonaviy romantizm. – Toshkent, 2020. 42–48-bet
15. Qodirov, T. Markaziy Osiyoda jadid adabiyoti va yangi qiyofalar. – Toshkent, 2018. 33–40-bet
16. Qahhor, A. Dahshat. Hikoyalar to‘plami. Manba: https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Abdulla%20Qahhor.%20Dahshat 5–25-bet (hikoya matni)
17. Abdulla Qahhor haqidagi maqola. Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor

Parizoda DILMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti filologiya fakulteti
2-bosqichi talabasi

UMARALI NORMATOVNING ADABIY ESTETIK QARASHLARI

Annotatsiya: Umarali Normatov o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidning yetuk namoyandasi bo‘lib, uning adabiy estetik qarashlari zamonaviy o‘zbek nasri, romanchiligi va adabiy jarayonlarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Normatov asarlar, muallif shaxsiyati, qahramon ruhiyati va syujet qatlamlarini psixobiografik va struktural yondashuv orqali o‘rganib, badiiy tafakkur va hayotiy tajribaning uyg‘unligini ochib beradi. Ustozning ilmiy faoliyati zamonaviy adabiy tanqidning metodologik asoslarini mustahkamlash, janr imkoniyatlarini aniqlash va adabiy asarlarning estetik qirralarini yoritishga xizmat qiladi. Shu orqali Normatov o‘quvchi va tadqiqotchiga adib ijodini xolis, teran va ilmlar bilan boyitilgan tarzda anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *Umarali Normatov, adabiy estetik qarashlar, o‘zbek adabiy tanqidi, psixobiografik tadqiq, badiiy tafakkur, qahramon ruhiyati.*

Аннотация: Умарали Норматов является выдающимся представителем узбековедения и литературной критики, его литературно-эстетические взгляды направлены на глубокий анализ современной узбекской прозы, романистики и литературного процесса. Норматов исследует произведения, личность автора, психику персонажей и сюжетные слои через психобиографический и структурный подход, раскрывая единство художественного мышления и жизненного опыта. Научная деятельность учёного способствует укреплению методологических основ современной литературной критики, выявлению жанровых возможностей и освещению эстетических аспектов литературных произведений. Это позволяет читателю и исследователю понимать творчество писателя объективно, глубоко и с научным обоснованием.

Ключевые слова: *Умарали Норматов, литературно-эстетические взгляды, узбекская литературная критика, психобиографическое исследование, художественное мышление, психика персонажей.*

Annotation: Umarali Normatov is a prominent scholar of Uzbek literary studies and criticism, whose literary and aesthetic views focus on the in-depth analysis of contemporary Uzbek prose, novel writing, and literary processes. Normatov examines works, the author’s personality, characters’ psychology, and plot layers through psychobiographical and structural approaches, revealing the unity of artistic thinking and life experience. His scholarly activity strengthens the methodological foundations of modern literary criticism, identifies genre possibilities, and highlights the aesthetic dimensions of literary works. This allows readers and researchers to understand the writer’s creativity objectively, profoundly, and with scholarly insight.

Key words: *Umarali Normatov, literary-aesthetic views, Uzbek literary criticism, psychobiographical research, artistic thinking, character psychology.*

Kirish. Umarali Normatovning adabiy estetik qarashlari o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida muhim o‘rin tutadi. U olim sifatida nafaqat adabiy asarlarning mazmuni va syujetini, balki muallif shaxsiyati, qahramonlar ruhiyati va badiiy tafakkur qatlamlarini chuqur tahlil qilishga e’tibor qaratgan. Normatovning yondashuvi psixobiografik va struktural tadqiqot usullari orqali adabiy matndagi murakkab bog‘liqliklarni ochib beradi, bu esa o‘quvchi va tadqiqotchiga asar haqidagi teran tasavvurni shakllantirish imkonini yaratadi. Uning ilmiy faoliyati zamonaviy o‘zbek adabiy tanqidining metodologik asoslarini mustahkamlash, janrlar imkoniyatlarini aniqlash va asarlarning estetik qirralarini yoritishga qaratilgan. Normatov adabiy jarayonlarni faqat tarixiy yoki soddalashtirilgan tavsif bilan emas, balki hayotiy, ijtimoiy va ruhiy kontekstda o‘rganadi. Shu bois uning tahlillari adib ijodining ichki dinamikasi, qahramonlar kechinmalari va badiiy tafakkur jarayoni haqida aniq va boy ma’lumot beradi. Shuningdek, Normatovning qarashlari zamonaviy o‘zbek nasri va romanchiligida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy va madaniy jarayonlarni badiiy matnda aks ettirishning asosiy tamoyillarini yoritadi. Ustozning ilmiy izlanishlari orqali o‘quvchi adib asarini nafaqat o‘qiydi, balki uning ruhiyati, ijtimoiy mohiyati va estetik go‘zalligi bilan tanishadi. Shu tarzda, Normatovning adabiy estetik qarashlari o‘zbek adabiyotshunosligi uchun nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Umarali Normatovning adabiy estetik qarashlarini o‘rganishda ilmiy tadqiqot metodologiyasi va foydalanilgan adabiyotlar muhim o‘rin tutadi.Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida Normatovning o‘z asarlari va maqolalari, shuningdek, uning ilmiy rahbarligida tayyorlangan tadqiqotlar va dissertatsiyalar xizmat qiladi. Jumladan, “Nasrimiz

ufqlari” (1974), “Yetuklik” (1982), “Qalb inqilobi” (1986), “Qodiriy bog‘i” (1996), “Umidbaxsh tamoyillar” (2000) kabi kitoblari zamonaviy o‘zbek adabiyoti, roman janri va adiblar ijodini chuqur tahlil qilishga asos bo‘ladi. Shuningdek, Normatovning Tafakkur yog‘dusi, “Qahhorni anglash mashaqqati”, “Ko‘ngillarga ko‘chgan she’riyat” va matbuotda chop etilgan yuzlab adabiy-tanqidiy maqolalari tadqiqotda muhim ilmiy manba sifatida ishlatiladi. Bu manbalar adib shaxsiyati, qahramon ruhiyati, syujet va janr xususiyatlarini psixobiografik va struktural yondashuv orqali tahlil qilish imkonini beradi. Metodologik jihatdan tadqiqotda psixobiografik, struktural va estetik tahlil usullari qo‘llaniladi. Psixobiografik yondashuv orqali adibning shaxsiyati, ijodiy tajribasi va hayotiy holatlari orqali asar mazmuni ochib beriladi. Struktural tahlil esa syujet qatlamlari, qahramonlar xarakteri va asar qurilmasini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda shuningdek, Qodiriy, Qahhor va boshqa zamonaviy o‘zbek yozuvchilari ijodiy merosi, shaxsiy xotiralar, arxiv materiallari va zamondoshlarning esdaliklari ham o‘rganiladi. Bu metodologiya Normatovning adabiy estetik qarashlarini tizimli va xolis yoritishga imkon beradi hamda o‘quvchi va tadqiqotchiga adib ijodini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Umarali Normatovning adabiy estetik qarashlarini o‘rganishda uning asosiy monografiyalari va tanqidiy maqolalari tahlil qilindi. Xususan, “Nasrimiz ufqlari” (Normatov, 1974), “Yetuklik” (Normatov, 1982), “Qalb inqilobi” (Normatov, 1986), “Qodiriy bog‘i” (Normatov, 1996) va “Umidbaxsh tamoyillar” (Normatov, 2000) kabi asarlar asosiy manba sifatida ishlatildi. Shu bilan birga, olimning matbuotda chop etilgan yuzlab maqolalari va ilmiy risolalari tahlil qilindi. Birinchidan, Normatov psixobiografik yondashuvni samarali qo‘llaydi. Masalan, “Qodiriyning so‘nggi iltijosi” (Normatov, 1996, b. 88–91) maqolasida u Abdulla Qodiriyning 1937–1938 yillardagi qamoq va o‘lim oldidagi ruhiy holatini batafsil bayon qiladi. Olim Qodiriyning tahorat olib ikki rakat namoz o‘qishi, o‘zining qonuniy huquqlarini talab qilishi orqali shaxsiy iymon-e’tiqodi va mardligini ochib beradi. Umarali Normatovning adabiy estetik qarashlarini tahlil qilganda, uning psixobiografik yondashuvi, qahramon ruhiyatini ochishdagi nozikligi va syujet qatlamlarini integratsiyalash usullari aniq namoyon bo‘ladi. “Qodiriyning so‘nggi iltijosi” maqolasida Abdulla Qodiriyning so‘nggi lahzalari shunday tasvirlanadi:

“Dor ostida Anvarning qo‘li yechilib, tahorat olish uchun unga suv berildi. Chunki bu mahkumning qonuniy haqqi edi… Anvar tahoratlanib, ustidagi to‘nini yerga yozdi. Jallodlar doirani bir oz kengaytib, Anvar ikki rakat namoz o‘qidi…” , [1.5]

“Qamoqda, tergov paytida ustiga bo‘htondan iborat ayblar qo‘yilganda, adib qanday ahvolga tushganini, bu imoni butun, o‘ta halol, rostgo‘y, mard yigit qalbida qanday tug‘yonlar kechganligini xayolan tasavvur qilish mumkin’. [1.44]/Bu yerda Normatov Qodiriy shaxsiyatini va adibning hayotiy sinovlaridan olingan ruhiy tajribasini adabiy tahlil orqali ochib beradi.

Shu orqali olimning yondashuvi adabiy asarlarni chuqur psixologik va estetik tahlil qilish imkonini beradi. U adib shaxsiyati, muallif niyatlari va qahramon ruhiyatini integratsiyalash orqali o‘quvchi va tadqiqotchiga ijodni xolis, teran va ilmiy asoslangan tarzda anglash imkonini yaratadi. Natijada, Normatovning metodologiyasi zamonaviy o‘zbek nasri va romanchiligi, shuningdek adabiy tanqid jarayonini yangi darajada o‘rganishga xizmat qiladi, janr imkoniyatlarini aniqlash va badiiy tafakkur uyg‘unligini yoritishga yordam beradi.

“Sinchiklab nazar tashlansa, adib yaratgan qahramonlarning aksariyati o‘zining prototipiga ega. Oddiy hayotiy voqealarning badiiyat darajasiga ko‘tarilishi yozuvchining o‘ziga xos ishontirish kuchida. Muallif hodisaga o‘zgartirish kiritayotganda hayot mantig‘iga, badiiyat qonuniyatiga asoslangan” [2.11]Bu parcha Normatovning psixobiografik yondashuv va qahramon ruhiyatini chuqur tahlil qilish uslubini ko‘rsatadi.

“Bu roman birinchi galda xazon bo‘lgan muhabbat, uvol bo‘lgan umr dostoni, ikki ko‘rkam yoshning – bir-biriga munosib, aslida baxt uchun tug‘ilgan, ammo tabiatidagi ojizliklar tufayli hayotda chalg‘igan qalblarning achchiq fojiaviy qismati, ruhiy iztiroblari haqidagi asar sifatida o‘quvchini hayajonga soladi” [2.67]Bu misol Normatovning romanning syujet qatlamlari va qahramon ruhiyatini estetik nuqtayi nazardan baholashini ko‘rsatadi.

Umarali Normatov o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidning yetuk namoyandasi bo‘lib, uning adabiy estetik qarashlari zamonaviy o‘zbek nasri, romanchiligi va adabiy jarayonlarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. U adabiyotshunos sifatida asarlar, muallif shaxsiyati, qahramon ruhiyati va syujet qatlamlarini psixobiografik va struktural yondashuv orqali o‘rganadi. Shu orqali badiiy tafakkur va hayotiy tajribaning uyg‘unligini ochib beradi. Umarali Normatovning ilmiy faoliyati zamonaviy adabiy tanqidning metodologik asoslarini mustahkamlash, janr imkoniyatlarini aniqlash va adabiy asarlarning estetik qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

“Qodiriy mo‘jizasi” asari orqali kitobxon olim qalbidagi samimiyatni, ichki haroratni his etadi, teran ilmiy asosga ega bo‘lgan, ayni paytda zavq va hayajon bilan yo‘g‘rilgan adabiy tahlillar bilan yuzma-yuz keladi. Shubhasiz, bu kitob qisqa vaqt ichida yoki bir nafasda yaratilgan asar emas. Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodiga oid barcha jihatlarni qamrab olish, adib merosiga bag‘ishlangan ilmiy manbalarni chuqur o‘rganish uzoq yillar davom etgan mashaqqatli izlanishlarni talab etgan. Umarali Normatov ana shu murakkab va mas’uliyatli jarayon bilan butun umr shug‘ullandi. Zarur paytlarda o‘z kuzatuv va xulosalarini yozma shaklga soldi. E’tibor berilsa, olimning vaqtli

matbuotda e’lon qilingan maqolalari besh yuzdan ziyod, alohida nashr etilgan kitoblari esa yigirmadan ortiqni tashkil etadi. Shunga qaramay, “Qodiriy mo‘jizasi” asari mazmuniy teranligi, mehr va muhabbat bilan yozilgani, ruhiy jo‘shqinligi jihatidan olimning boshqa tadqiqotlaridan tubdan farq qiladi.

Kitobning “Qodiriy bog‘i” deb nomlangan dastlabki bo‘limida adibning hayot yo‘li, boshidan kechirgan sinovli va quvonchli kunlari, u yashagan murakkab adabiy-ijtimoiy muhit hamda atrofida kechgan ig‘vo va tuhmatlar mohiyati chuqur ruhiy sezgi bilan yoritiladi. Muallif qamoq va tergov jarayonlarida adibga nisbatan qo‘yilgan asossiz ayblar, ayrim hamkasblarining ikkiyuzlamachiligi Qodiriyning qalbida qanday iztiroblar uyg‘otganini teran his etgan holda tasvirlaydi. Agar o‘sha keskin va fojeaviy ruhiy holat to‘laqonli badiiy tiklansa, chinakam shekspirona tragediya yuzaga kelishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bunday mulohazalarni faqatgina manbalarni puxta o‘rgangan, adibning ichki kechinmalarini chuqur anglay olgan tadqiqotchigina bayon eta oladi.

Umarali Normatov yozuvchining badiiy merosi, arxiv materiallari, mavjud ilmiy tadqiqotlar va biografik ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqib, Qodiriy shaxsini ham iste’dodli ijodkor, ham o‘z davrining yetuk ziyolisi sifatida talqin etadi. Adib dunyoqarashi shakllangan muhit, ta’lim va tarbiya olgan maskanlarning saviyasi xolis baholanadi hamda ilgari bahsli bo‘lib kelgan bir qator masalalarga aniqlik kiritiladi. Olim muayyan muammolar yuzasidan fikr yuritar ekan, ijod psixologiyasi va inson tabiatiga xos ruhiy xususiyatlarni chuqur hisobga olgan holda o‘z ilmiy xulosalarini ilgari suradi.

Normatovning “Janr imkoniyatlari”, “Mahorat sirlari” (Matyoqub Qo‘shjonov bilan hamkorlikda), “Nasrimiz ufqlari”, “Go‘zallik bilan uchrashuv”, “Nasrimiz an’analari”, “Said Ahmad”, “Shuhrat” kabi kitoblari va “O‘zbek adabiyoti masalalari” (1962), “Adabiyotimizning yarim asri” (1967, 1975), “O‘zbek jangnomasi” (1977), “Inqilob va adabiyot” (1977) kabi to‘plamlardagi maqolalari uning tanqidchi va adabiyotshunos sifatidagi salmoqli faoliyatini namoyish qiladi. Uning ilmiy ishlarida asarning hajmi yoki maqola soni emas, balki g‘oyaviy salmog‘i, nazariy puxtaligi, hayotiyligi va yangiligi muhim hisoblanadi. Normatov o‘qigan, tanqid qilgan, baholagan har bir asar haqida sinchkovona, talabchan va xolis fikr bildiradi, shu bilan birga yozuvchi shaxsiyatiga hurmatni saqlaydi.

Umarali Normatovning tanqidiy yondashuvi hozirjavoblik, yozuvchi va adabiyotga chin sevgi, obyektivlik va talabchanlik bilan ajralib turadi. U adabiyotdagi yangi asarlarni tanlab emas, balki hammasini o‘qib chiqadi, ular haqida maqola va taqriz yozadi, shuning natijasida o‘zbek adabiy jarayoniga salmoqli hissa qo‘shadi. Shuningdek, uning psixobiografik tadqiq usuli — maktublar, kundaliklar, arxiv materiallari, zamondoshlarning esdaliklari orqali adib ijodini yoritish — tadqiqotchi va o‘quvchiga chuqur tasavvur beradi [7.35]. Ozod Sharafiddinov fikricha, Normatovning salmoqli ilmiy va tanqidiy faoliyati, talabchanligi, hozirjavobligi va yozuvchiga hurmati uni bugungi o‘zbek tanqidchiligining yetuk vakili sifatida belgilaydi. Sharafiddinov ta’kidlaganidek, Normatov adabiyotning istiqboli haqida tinimsiz qayg‘uruvchi olim, iste’dodli munaqqid va mohir pedagogdir. Bu olimning faoliyati zamonaviy adabiy jarayonning shakllanishida va o‘quvchi-ma’rifatchilar ongining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi [8.67]

Xulosa qilib aytganda, Umarali Normatovning adabiy estetik qarashlari, metodologik yondashuvi va tanqidiy faoliyati o‘zbek adabiy tanqidining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Uning ishlari yozuvchi va kitobxonlar uchun yetuk adabiy yo‘l-yo‘riq, tadqiqotchilar uchun esa ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Normatovning xolislik, talabchanlik va adabiyotga sadoqatli yondashuvi bugungi va kelajak o‘zbek tanqidchiligi uchun namunadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarali Normatov. Qodiriyning so‘nggi iltijosi / U. Normatov; mas’ul muharrir B. Karimov. — Toshkent: “Movarounnahr”, 2014.5-bet
2. Umarali Normatov. Qahhorni Anglash Mashaqqati , 2000
3. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
4. B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh Ahmedova. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.420-bet.
5. Solijonov.Hozirgi adabiy jarayon –T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.3-b.
6. Normatov U. Qodiriy bog‘i.— T.: Yozuvchi, 1996
7. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma’naviyat, 2000
8. Sharafiddinov O. O‘zbek tanqidchiligi va adabiyotshunoslik. –T.: 1981
9. Sharafiddinov O. Go‘zallik izlab. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985, 198–208-sahifalar.
10. ↑ Yoqubov O. Tanqidchining kamoli. “Sharq yulduzi” jurnali, 1981, 1-son.
11. Normatov U. Janr imkoniyatlari.— T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.
12. Qo‘shjonov M. Qalb va qiyofa. –T.: Fan, 1978.“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2004-yil 21-soni.

Zarina ESHBOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek filologiyasi 4-bosqich talabasi
eshboyevazarina4@gmail.com

XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “PANOH” QISSASIDA QAHRAMON RUHIYATI TASVIRINING O‘ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA...

Annotatsiya: ushbu maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning “Panoh” qissasida qahramon ruhiyatining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Ahmadali obrazi orqali inson ichki ziddiyatlari, vijdoniy kurash va ma’naviy tanlov masalalari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, Zilzila, Kimsan obrazi va tush motivining psixologik hamda ramziy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy psixologizm, ichki ziddiyat, “ikkinchi men”, tush, monolog, ramz, zilzila hodisasi, qahramon ruhiyati*

Аннотация: в данной статье анализируется художественно-философская интерпретация внутреннего мира героя в повести Хуршида Дустмухаммада «Панох». Через образ Ахмадали рассматриваются внутренние противоречия человека, борьба совести и проблема нравственного выбора. Также раскрывается психологическое и символическое значение образов землетрясения, Кимсана и мотива сна.

Ключевые слова: *художественный психологизм, внутренний конфликт, «второе я», сон, монолог, символ, явление землетрясения, психология героя.*

Annotation: this article analyzes the artistic and philosophical interpretation of the protagonist’s inner world in the novella *“Panoh”* by Xurshid Do‘stmuhammad. Through the image of Ahmadali, the issues of human inner conflicts, moral struggle, and ethical choice are explored. In addition, the psychological and symbolic significance of the earthquake, the character Kimsan, and the motif of dreams is revealed.

Key words: *artistic psychologism, inner conflict, “second self,” dream, monologue, symbol, earthquake phenomenon, protagonist’s psychologye*

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson shaxsini, uning ruhiy olami va ichki ziddiyatlarini badiiy talqin etish muhim ahamiyat kasb etdi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yaratilgan nasriy asarlarda inson qalbining murakkab qatlamlarini ochishga intilish kuchaydi. Ayniqsa, badiiy psixologizm unsurlarining faollashuvi adabiyotda yangi tafakkur va yangi badiiy yondashuvlar shakllanishiga zamin yaratdi. Badiiy psixologizm – badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biridir. Badiiy psixologizm – bu badiiy asarda inson ruhiy holatlari, ichki kechinmalari, psixologik jarayonlarning badiiy vositalar orqali ifodalanishidir. Psixologizm nafaqat qahramonning his-tuyg‘ularini balki, uning tafakkuri, ong osti jarayonlari va ruhiy ziddiyatlarini ham qamrab oladi.

Asarlarda badiiy psixologizmning aks etishida Xurshid Do‘stmuhammad ijodi alohida e’tiborga loyiqdir. Yozuvchi o‘z asarlarida tashqi syujetdan ko‘ra ichki ruhiy jarayonlarni markazga olib chiqadi, badiiy psixologizmni yetakchi badiiy tamoyilga aylantiradi. Yozuvchi asarlaridagi qahramonlar ko‘pincha sokin, kamgap, ammo ichki iztiroblarga boy shaxslardir. Yozuvchining bir qancha hikoya va qissalarida qahramon ruhiyatini, dardlarini tasvirlash yetakchilik qiladi. Buni ijodkorning “Panoh”, “Nigoh”, “Yolg‘iz”, “Chayongul”, “Kuza” kabi qissalarida ko‘rishimiz mumkin. Adib har gal yangi bir asar yozar ekan, uni boshqalarga o‘xshamagan o‘zgacha bir uslubda yozadi, asar qahramonlarini yangicha bir aspektda tasvirlaydi. Yozuvchining o‘zi ta’kidlaganidek: *“Uslub o‘zgarmasa, dunyoqarash, hayot murakkabliklarini badiiy idrok etish va ifoda etish yo‘sinlari o‘zgarmasa, shu yo‘lda turli tajribalarga qo‘l urmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda, loaqal o‘z ijodida ham biror yangilik yaratishi amri mahol”.* [4:48,49] Ushbu fikr adib ijodiy pozitsiyasining mohiyatini ochib beradi va uning doimiy izlanish hamda yangilikka intilish tamoyiliga sodiqligini ko‘rsatadi.

Yozuvchining “Panoh” qissasi ham o‘zgacha bir uslubda yozilgan asardir. Asarning asosiy qahramoni Ahmadali bo‘lib, u Jo‘ba qishlog‘ida yashaydi va voqealar rivoji uning atrofida sodir bo‘ladi. Asar voqealari rivoji davomida Ahmadalining o‘z ichki “men”i bilan suhbat qurib o‘zini o‘zi taftish qilgani, o‘zi bilan kurashgani yoritilgan o‘rinlar uchrashini ko‘rishimiz mumkin. Asar

Jo‘ba qishlog‘ida zilzila sodir bo‘lishi bilan boshlanadi va yozuvchi Ahmadaliga shunday ta’rif beradi: *“Ahmadali oyog‘ining ostida yer qattiq silkinganini sezdi, xayoli bo‘lindi, ikki- uch qadam yurdi, shunda yer tubida nimadir gursillab ketdi. Xiyol narida oppoq to‘zon burqsib ko‘tarildi va u ikki o‘rkachli tuyaga aylanib Ahmadalining yoniga bostirib kela boshladi. Ahmadali dimog‘iga quyuq chang urilgandagina o‘ziga keldi. O‘sha chang isi qaytib dimog‘idan arimadi. Ustidan ikki o‘rkachli tuyadek bosib tushgan quyuq va quruq to‘zonga Ahmadali umri bino bo‘lib duch kelmagandi. O‘sha oqshomgi chang namatga singigan tuproqdek uning dimog‘iga o‘tirib qoldi. Shu- shu dimog‘iga bir hovuch chang isi urdi deguncha Ahmadalini kalta-kulta yo‘tal tutadi, og‘iz-burnini changali yoki dastro‘moli bilan berkitib amallamasa, tomog‘i g‘ippa bo‘g‘ilib ham qolardi...”*[3: 74,75]

Asardagi voqea-hodisalar Ahmadalining ammasining uyidan o‘zining uyigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi va bu vaqt mobaynida Ahmadali o‘tmishda bo‘lgan voqealarni ham eslab o‘tadi. Qissada yozuvchi Kimsan obrazini kiritadi va u Ahmadaliga hamrohlik qiladi. Kimsan obrazini birinchi bo‘lib, Ahmadaliga quyidagilarni aytganida uchratamiz: *“Uyda, tokchadagi chinnilar chil-chil bo‘ldiy-ov, – dedi Kimsan. – Ma’rifat ham mana bu xotinga o‘xshab to‘sin-po‘sin tagida qolib ketgan bo‘lsa-chi?!”*[3: 77,78]. Kimsan Ahmadaliga ba’zida kesatiqlar qilar, ba’zida yomon gaplar uning tilidan chiqishiga yo‘l qo‘ymas edi. Biz Kimsan obrazini Ahmadalining ikkinchi “men”i sifatida tahlil qilishimiz mumkin. Badiiy asarda ikkinchi “men” adabiyotda shaxsning ichki ziddiyatlari, ruhiy bo‘linishi va o‘z- o‘zi bilan dialogini ifodalashga xizmat qiladigan badiiy psixologik hodisadir. Ikkinchi “men” qahramon onggida mavjud bo‘lgan muqobil shaxs, ichki ovoz yoki ruhiy qiyofa bo‘lib, u qahramonning ichki istaklari, qo‘rquvlari, vijdoni, aybi yoki jamiyatdan berkinib qolgan “men”ini ifodalaydi. Yozuvchi Kimsan obrazini ba’zi o‘rinlarda Ahmadali bilan hamfikr, ba’zida esa qarama-qarshi qo‘yadi. Ahmadaliga akasi savol beradi: *“ – Opam tanchadan turolmay o‘tirgan ekan-a? Uylar ko‘z o‘ngingda ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketibdi... O‘sha zahoti ortingga – opamnikiga yugurish xayolingga keldimi, Ahmad?”* [3:84] Zilzila sodir bo‘lganida Ahmadali opasining uyidan ko‘p ham uzoqlashmagan edi. Akasining bu savolidan keyin Ahmadali o‘zini oqlashga harakat qildi: *“Axir, ona o‘rnida ona bo‘lib qolgan opamni tashlab ketishim aqlga sig‘maydi-da” [3:85]* Shunda Kimsan: *“ – Ha-a, yasha. – ona o‘rnida ona. Onaning o‘zi bo‘lsa bo‘lak gap edi... Senga munofiqlik yarashmaydi, Ahmad. Zilzila bo‘lganini payqaganing zamoni ko‘zingga bolalaring ko‘rindi-ku, yoki noto‘g‘rimi-a? Opangni keyin eslading-ku?...”.* Sadafga Appon zakunning nabirasidan sovchi kelayotganini eshitganda Ahmadaliga qarab: *“U kishining qizi u yoqqa kelin bo‘lib tushsa mayliyu, hukumat berayotgan uyga sen ko‘chib borsang – aybmi?”,*– dedi, ammo Ahmadali endi opasiga buni aytmoqchi bo‘lganda uni to‘xtatib qoldi. [3:67] Asar boshida Ahmadalini qo‘llab-quvvatlagan Kimsan asar yakuniga borib boshqa Kimsanga aylandi. Ahmadali sobiq Kimsanni armon bilan esladi. Jahli chiqquday bo‘lsa Kimsan Ahmadalini o‘z holiga qo‘yib zuv etib g‘oyib bo‘lar, Ahmadali undan ustun kelganiga ichdan sevinar, lekin ko‘p o‘tmay Kimsanni sog‘inar, ko‘zi to‘rt bo‘lib Kimsanni kutar – Kimsandan ayri yashashni tasavvuriga sig‘dirolmas edi. Ammo yangi Kimsan mutlaqo boshqacha edi. U paydo bo‘ldi-yu he yo‘q-be yo‘q Ahmadalini “ hech kim emassan” dedi. U Ahmadalini yangi bir yo‘lga boshlar edi. *“ – Burungi Kimsanni unut endi... Go‘dak bola-ku, u... O‘shanga tarmashib olsang odam bo‘lmaysan... Jo‘n odam bo‘lib o‘tasan, dunyodan, tushunyapsanmi?.. Ko‘zingni kattaroq ochadigan, qishlog‘ingni, kindik qoning to‘kilgan tuprog‘ingni o‘ylaydigan payt keldi.* [3:111] Zilzila voqeasidan so‘ng sobiq va yangi Kimsanlar o‘rtasida qolib ketgan Ahmadali ixtiyori yangi Kimsanga o‘tganligidan xursand bo‘lsa, sobiq Kimsanni ko‘rib dili vayron bo‘ldi. Yangi Kimsan bilan sobiq Kimsanni yarashtirib qo‘ymoqchi bo‘lgan edi yurolmadi, yangi Kimsan izidan ergashdi. Bu yerda yozuvchi Ahmadali hayotida muhim o‘zgarish bo‘lganligini Kimsanlar o‘rtasidagi suhbat va mojaro orqali ifodalashga harakat qiladi.

Asarda zilzila voqeasining kiritilishi bejizga emas. Adib birgina zilzila orqali butun bir qishloq xalqining hayotida ro‘y bergan voqealarni tasvirlaydi. “Panoh” qissasida zilzila tasviri insonlar hayotida yangi burilish yasadi, eski ijtimoiy tuzumni buzib tashladi, ayrim kimsalarning asl yuzini oshkor qildi, ayniqsa, Ahmadali hayotida tub burilishlar yasadi. U zilziladan keyin insonning tug‘ilib o‘sgan, beg‘ubor bolalik xotiralari muhrlangan qishlog‘i, ota hovlisi qanchalar qadrli ekanligini tushunib yetdi va posyolkaga ko‘chib ketish niyatidan qaytdi, sog‘ligi chang-to‘zonli ob-havoni ko‘tara olmasa-da bir qadam ham qishlog‘idan ayri qolishni xohlamadi. Zilzila hodisasi Gulgun bevaning ayol bo‘lishiga qaramay mard, jasur ekanligini ko‘rsatsa, yordam komissiyasining raisi kabi nafsiga qul, birovning haqqidan qo‘rqmaydigan qabih insonlarning asl yuzini ochib beradi. Bilamizki, badiiy asarda qahramon ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi tush, monolog, ramz kabi unsurlardan foydalanadi. Asarda Ahmadalining tush ko‘rganligi voqeasi ham beriladi. Ahmadali yotoqda yig‘lab

uyg‘ondi. Ayoliga: *“ – Bilasanmi?.. Tushimda onamning ko‘ksiga bosh qo‘ygandek bo‘ldim. Onam nimadir demoqchi, meni allanimadan voqif qilmoqchi edilar, lekin gapirolmadilar va Ona o‘rikka qo‘shilib ingrab yubordilar... tushunyapsanmi, Ma’rifat?”*, – dedi. [3:98]. Asarda Ona o‘rik qulab tushgandan so‘ng, uning shivirlashlari faqat Ahmadaliga eshitildi. Bu haqida Ahmadali kimga aytishini bilmadi, jo‘rasini hamfikr deb aytgan edi jo‘rasi: “ – Esxonang chiqib vahima bo‘lib qolibsan, shuning uchun peshonang daraxtga urilganini sezmagansan. “Daraxt ixrab yubordi” degin, ha-ha-ha, zap cho‘pchak topibsan-da, zilzila qishloqni to‘zitib yubordimi desam, sening miyangni po‘la qilgan ko‘rinadi. Bunda qahramonning bunday tush ko‘rishi bekorga emas edi. Yozuvchi bu tush orqali qahramonni sodir bo‘ladigan halokatdan ogohlantirmoqchi bo‘ladi. Ahmadali oilasini qutqarish uchun uyiga shoshar ekan, Saydilloning “Nabiy” deb baqirayotganini eshitiboq, unga yordam berishga oshiqdi. Shkafni ko‘taraman deb tirnog‘i ko‘chib ketganligini ham bilmadi. Bu yerda Ahmadali tirnog‘ining ko‘chganligini ramziy ma’noda uning eski “men”i yemirilishi deb tahlil qilishimiz mumkin. U yonida yurgan Kimsanning ham yangilanganini ham sezmagan edi.

Ahmadalining uyidagi daraxtga Toshdanak deb nom berilishi ramziy ma’noga ega. O‘rik mevasi tashqi ko‘rinishidan yumshoq bo‘lsa-da, uning ichida qattiq danak yashiringan bo‘ladi. Bu hol inson tabiatidagi ichki ziddiyatni ifodalab kelgan: inson ham ko‘pincha tashqaridan muloyim ko‘rinsa-da, ichki dunyosida og‘ir dard yashiringan bo‘ladi. Adib bu kichik detal orqali qahramon ruhiyatidagi yashirin kechinmalarni ochib beradi.

Xurshid Do‘stmuhammadning “Panoh” qissasi zamonaviy o‘zbek nasrida badiiy psixologizmning yuksak namunalaridan biri sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Asarda qahramon ruhiyati an’anaviy tashqi harakatlar silsilasi orqali emas, balki ichki kechinmalar, ong osti jarayonlari, axloqiy ikkilanishlar va “ikkinchi men” bilan kechadigan dramatik dialoglar orqali ochib beriladi. Ahmadali obrazi misolida yozuvchi inson shaxsining murakkab ichki tuzilishini, uning vijdon, mas’uliyat, qo‘rquv va manfaat o‘rtasidagi ziddiyatli holatini chuqur badiiy-falsafiy umumlashtirish darajasiga ko‘taradi.

Qissada Kimsan obrazi orqali shaxs ichidagi bo‘linish, ya’ni eski va yangi “men”ning kurashi badiiy konsepsiya sifatida talqin etiladi. Bu obraz faqat psixologik usul bo‘lib qolmay, balki insonning axloqiy tanlovi, hayotiy yo‘li va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadigan ongiy transformatsiyasining ramziy ifodasiga aylanadi. Zilzila hodisasi esa asarda faqat tabiiy ofat sifatida emas, balki jamiyat hayotidagi sinish nuqtasi, qadriyatlarning qayta baholanishi va qahramon ruhiyatida yuz beradigan tub burilishlar vazifasini bajaradi. Zilzila voqeasidan keyin Ahmadalining qalbida qishlog‘iga muhabbat uyg‘ondi, endi u faqat o‘zining dardi bilan emas, balki jamiyat dardi bilan yashaydigan bo‘ldi. Sog‘ligi ko‘tara olmasligiga qaramasdan qishlog‘idan ketmadi.

Shuningdek, tush motivi, tirnoqning ko‘chishi, Ona o‘rik, Toshdanak kabi ramziy detallar qahramonning ichki dunyosini ochishda muhim poetik vositalar sifatida xizmat qiladi. Bu unsurlar Ahmadalining ruhiy parokandaligi, eski “men”ning yemirilishi va yangi shaxsiy o‘zlikning shakllanish jarayonini badiiy-falsafiy qatlamda ifodalash imkonini beradi. Yozuvchi ushbu ramzlar orqali inson hayotining tashqi barqarorligi ortida yashirin ruhiy iztiroblar, ma’naviy sinovlar va ontologik yolg‘izlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “Panoh” qissasi inson ruhiyatining murakkab tabiati, shaxsning ichki bo‘linishi va axloqiy tanlov muammosini chuqur badiiy tahlil etgan falsafiy-psixologik asar sifatida baholanishi mumkin. Ushbu qissa nafaqat Xurshid Do‘stmuhammad ijodida, balki umuman zamonaviy o‘zbek adabiyotida psixologik nasrning taraqqiyot darajasini belgilovchi muhim bosqichlardan biri bo‘lib, insonning ichki olami va ma’naviy mas’uliyati masalasini yangicha estetik tafakkur asosida yoritib bergani bilan ilmiy-nazariy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirova Sh. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy psixologizm. – Qarshi, 2019
2. Quronov D., Mamajonov Z, Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Do‘stmuhammad X. Panoh. – Toshkent: Sharq, 2011
4. Do‘stmuhammad X. Xotira va kayfiyat. Muallif va muharrir suhbati// Beozor qushning qarg‘ishi. – Toshkent: Sharq, 2006

Risolatxon JO'RAYEVA,
Farg'ona davlat universiteti
Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti
2-bosqich magistranti

"CHO'L HAVOSI" QISSASIDA XATNING BADIIY-G'OYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada epistolyar uslub asosida yaratilgan O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" asarida xat (maktub)ning g'oyaviy-badiiy vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xat syujetni rivojlantiruvchi tashqi vosita sifatida emas, balki qahramon ruhiyatini ochib beruvchi muhim psixologik omil sifatida talqin etiladi. Xat orqali ichki kechinmalar, aytilmagan tuyg'ular, muhabbat va ma'naviy mas'uliyat masalalari badiiy ifodasini topgani asoslab beriladi. Shuningdek, maktub shaklining ichki monolog vazifasini bajarishi, obrazlararo munosabatlarni chuqurlashtirishi hamda ramziy makon talqini bilan uzviy bog'liqligi ilmiy tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida epistolyar shaklning inson qalbini ochishdagi estetik imkoniyatlari aniqlanib, uning badiiy asar ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni xulosalanadi.

Kalit so'zlar: *badiiy asar, epistolyar uslub, maktub obrazi, ichki monolog, ruhiy kechinma, muhabbat talqini, psixologik tahlil, ramziy makon, syujet va kompozitsiya, badiiy g'oya.*

Annotation: this article examines the ideological and artistic functions of the letter as a literary device within a work constructed on the epistolary mode. The study interprets the letter not merely as a narrative tool that advances the plot, but as a significant psychological means for revealing the inner world of the characters. Through the letter, unspoken emotions, internal conflicts, expressions of love, and issues of moral responsibility find artistic representation. Particular attention is given to the letter's function as a form of internal monologue, its role in deepening interpersonal relationships, and its connection with the symbolic interpretation of narrative space. The analysis demonstrates the aesthetic potential of the epistolary form in portraying human psychology and enhancing the emotional and artistic impact of a literary text.

Key words: *literary work, epistolary mode, letter as a narrative device, internal monologue, psychological experience, representation of love, psychological analysis, symbolic space, plot and composition, artistic idea.*

Аннотация: в статье рассматриваются идейно-художественные функции письма в произведении Уткира Хошимова «Cho'l havosi», созданном в эпистолярной форме. Письмо анализируется не как вспомогательное сюжетное средство, а как значимый психологический компонент, способствующий раскрытию внутреннего мира персонажа. В исследовании аргументируется, что посредством письма получают художественное выражение внутренние переживания героев, невысказанные чувства, а также проблемы любви и нравственной ответственности. Особое внимание уделяется функции эпистолярной формы как разновидности внутреннего монолога, её роли в углублении межличностных отношений между образами и органической связи с интерпретацией символического пространства. В результате исследования выявляются эстетические возможности эпистолярной формы в раскрытии духовного мира человека и определяется её значение в усилении художественной выразительности и идейной целостности произведения.

Ключевые слова: *художественное произведение, эпистолярный стиль, образ письма, внутренний монолог, психологическое переживание, интерпретация любви, психологический анализ, символическое пространство, сюжет и композиция, художественная идея.*

Yozuvchining hech kimga nasib qilmaydigan baxti bor. Bu – bir varoq oq qog'ozga dardini to'kib solish baxtidir.[1] Bu fikr muallifi O'tkir Hoshimov o'zbek nasrida inson qalbi, uning ichki kechinmalari va ma'naviy olamini nozik va samimiy tarzda tasvirlash yozuvchi ijodining yetakchi xususiyatlaridan biridir. Adibning "Cho'l havosi" qissasi ham ana shu jihati bilan ajralib turadi. Bu qissa yozuvchining ilk hikoyasi " To'rt maktub" asosida yozildi. "Sharq yulduzi"da bosilgan bu qissa haqida yosh muallif Abdulla Qahhordan maktub oldi. "O'tkir! "Cho'l havosi"ni o'qib suyunib ketdim. Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy, rohat bilan o'qiladi", deyiladi o'sha maktubda[2]. O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" qissasida maktubning ko'ngil izhori sifatidagi badiiy qimmati yuksak darajada ochib berilgan. Qissa bosh qahramon Botir sevgilisi Ziyodaga yozgan uchta maktubdan tashkil topgan. O'tkir Hoshimov "Cho'l havosi" qissasida Botir va Ziyoda o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ridan to'g'ri izhorlar orqali emas, balki maktub orqali ichki kechinmalarni ochish yo'li bilan badiiylashtiradi. Asarda maktub syujetni oldinga siljituvchi oddiy vosita emas, balki qahramonlar ruhiyatini chuqur

1 Hoshimov O'tkir. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.:Sharq, 2012. 223-bet.

2 Umarali Normatov. Nasrdagi shoir yoxud ruhiyat manzillari

ochuvchi psixologik kalit vazifasini bajaradi. Botir Ziyodani ilk uchratganda yuzaga kelgan ichki tortinish, aytilmagan so‘zlar, ifodalanmagan tuyg‘ular keyinchalik maktubda o‘z ifodasini topadi. Demak, maktub — ilk uchrashuvda sukutda qolgan muhabbatning yozma shakldagi davomidir desak mubolag‘a bo‘lmaydi

Botir Ziyodani ilk bor uchratgan paytda his qilgan holatini oshkora ifoda eta olmaydi. Bu yerda yozuvchi qahramonning ichki dunyosini jimlik, kuzatuv va ehtiyotkorlik orqali ko‘rsatadi. Aynan shu aytilmagan holatlar keyinchalik xatda yuzaga chiqadi. Maktub Botir uchun: aytolmagan so‘zlarni aytish, ichida yig‘ilib qolgan hislarni tartibga solish, Ziyodani tashqi qarashlardan ajratib, asl qiyofasida ko‘rish imkonidir. Shu ma’noda maktub — Botirning ichki monologi bo‘lib, u ilk uchrashuvda boshlangan ruhiy jarayonning mantiqiy yakunidir.

Qissada muhabbat xat orqali izhor qilinadi, ammo bu izhor balandparvoz so‘zlarga emas, samimiy va vazmin ohangga asoslanadi. Botir maktubda nafaqat Ziyodaga bo‘lgan sevgisini, balki unga bo‘lgan ishonchini, hurmatini ham ifodalaydi. Bu esa muhabbatni shunchaki hissiy holat emas, balki ma’naviy mas’uliyat darajasiga ko‘taradi. Asardagi fikrimizni oydinlashtirish uchun quyidagi parchani keltirsak: “Bo‘ychangina qiz atlas ko‘ylagini hilpiratib zinadan yugurib tushdi.Uning tabassum yoyilgan chehrasiga tikilib turib, yuragimda allaqanday nozik titroq uyg‘ondi. O‘sha paytlarda mening juda g‘alati odatim bor edi: qizlardan uyalardim. Notanish qiz uyoqda tursin, tanishlariga ham gapimni eplab gapira olmasdim. Ammo go‘zal bir qizni sevishni orzu qilib yurardim. O‘sha atlas ko‘ylakli qizni ko‘rdim-u, xayolimdagi go‘zal shu bo‘ladi, degan fikr miyamga qattiq o‘rnashib qoldi.

Bu – siz edingiz!”[3]

Botir obrazi va maktub orqali ochilgan ichki kechinmalar Botirning Ziyodaga yozgan xati qissada ruhiy e’tirof shakli sifatida namoyon bo‘ladi. U xatida Ziyodani dastlab yengil hayot tarziga moyil qiz deb o‘ylaganini ochiq tan oladi. Bu xato qarash yigitlar o‘rtasidagi pichinglar, yuzaki suhbatlar ta’sirida shakllangani Botirning hayotiy tajribasi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, uning bu fikrni yashirmay, maktubda ochiq yozishi Botirning samimiy va halol tabiatidan dalolat beradi. Botir obraziga berilgan ta’rif qahramonni oqlash emas, balki uni insoniy zaifliklari bilan birga ko‘rsatishga xizmat qiladi va u ideallashtirilgan obraz emas, balki xato qiladigan, ammo xatosini tan olishga jur’at topa oladigan inson sifatida gavdalanadi.

Qissadagi eng murakkab obrazlardan biri — Hafizdir. Botir va Hafiz o‘rtasidagi mojarolar ham asosan, maktub orqali yoritiladi. Mast holatda ko‘chada yotgan Hafizni uyiga olib borib, undan haqorat eshitgan Botir sahnasi insoniylik va sadoqatning yorqin ifodasidir. Bu epizod Botirning axloqiy ustunligini ko‘rsatsa-da, muallif Hafizni faqat salbiy qahramon sifatida tasvirlash bilan cheklanmaydi. Botirning yuk mashina g‘ildiragi ostida qolib jarohatlanishi va Hafiz uni to‘rt chaqirim masofaga ko‘tarib borgani haqidagi voqea bevosita Hafiz tilidan emas, hamshira orqali yetkaziladi. Bu esa Hafizning yashirin insoniy fazilatlarini ochib beradi. Demak, Hafiz — rashk, g‘urur va ichki iztiroblar ta’sirida o‘zini yo‘qotgan, biroq butunlay vijdonsiz bo‘lib ketmagan obrazdir.

Asar davomida Hafiz Botirning Ziyodaga yuborgan xatlarini olib qo‘ygani, keyinchalik ularni qaytarib berib, nomardlik qilgani uchun uzr so‘raydi. Bu holat Hafiz xarakteridagi axloqiy tanazzulni ochib beradi. Biroq buning ichki ziddiyati ham seziladi: u Botirni ham ranjitadi, ham uni o‘limdan asrab qoladi.

Botir xatida otasi haqidagi xotiralariga ham o‘rin ajratadi. Otasining urushdan qaytgach boshqa oila qurmagani, butun umrini o‘g‘liga bag‘ishlagani Botirning hayotiy qarorlariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Cho‘lga borib, uni obod qilishga kirishishi shunchaki mehnat emas, qaysidir ma’noda ota roziligini olish va o‘zini oqlash yo‘lidir. Shu jihatidan cho‘l obrazi faqat geografik makon emas, balki ruhiy poklanish maydoni sifatida ham talqin qilish mumkin. Asardagi voqealar aynan xat orqali ifodalanishi ta’sirchanlikni oshirgan hamda syujet ichki monolog bilan boyitilgan.

Ziyoda qissada ko‘proq bilvosita tasvirlanadi. Uning obrazi Botirning iztiroblari, Hafizning rashki orqali shakllanadi. Botirning ta’riflaridan Ziyodaning sokin va nurli qiyofasi gavdalanadi. Ziyodaning maktublari yoki ichki monologlari berilmagan bo‘lsa-da, bu holat asarning badiiy konsepsiyasiga mos: Ziyoda Botir uchun yetib bo‘lmas, pok muhabbat timsoliga aylanadi. Maktub bu yerda ayol obrazini ideallashtirish vazifasini bajaradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “Cho‘l havosi” qissasida xat — inson qalbining eng samimiy va yashirin holatlarini ochib beruvchi yuksak badiiy vositadir. U qahramon ruhiyati, muhabbat va sog‘inchini chuqur yoritib, asarning estetik qimmatini oshiradi. O‘tkir Hoshimov maktub orqali ko‘ngil izhorini hayotiy, ta’sirchan va umuminsoniy mazmunga ega badiiy hodisaga aylantira olgan.

3 O‘tkir Hoshimov. Cho‘l havosi, –T.: “Nurli dunyo”, 2022. 14-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Hoshimov O‘tkir. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.:Sharq, 2012. 223-bet.
2.Umarali Normatov. Nasrdagi shoir yoxud ruhiyat manzillari, maqola.
3.O‘tkir Hoshimov. Cho‘l havosi, –T.: Nurli dunyo, 2022. 14-bet
4.Mirzayev, S. Badiiy asar tahlili asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

Shaxnoza RAXMONOVA,
Osiyo texnologiyalar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti magistranti

“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida qo‘llangan antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxs nomlarining semantik-motivatsion asoslari, obraz yaratishdagi badiiy-funksional vazifalari, shuningdek, milliy-madaniy va estetik yuklamasi ochib beriladi. Antroponimlar lingvopoetik birlik sifatida romanning g‘oyaviy-badiiy mazmunini shakllantirishda muhim vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *antroponimika, onomastika, lingvopoetika, badiiy matn, obraz, milliy mentalitet.*

Аннотация: в данной статье проводится системный анализ лингвопоэтических особенностей антропонимов, использованных в романе Тогая Мурада «Отамдан қолган далалар» («Поля, оставшиеся от отца»). В исследовании рассматриваются семантико-мотивационные основы личных имён, их художественно-функциональная роль в создании образов, а также национально-культурная и эстетическая нагрузка. Обосновывается, что антропонимы как лингвопоэтические единицы выступают важным средством формирования идейно-художественного содержания произведения.

Annotation: this article provides a systematic analysis of the linguopoetic features of anthroponyms used in Tog‘ay Murod’s novel *“Otamdan qolgan dalalar”* (“The Fields Inherited from My Father”). The study examines the semantic and motivational foundations of personal names, their artistic and functional roles in character construction, as well as their national-cultural and aesthetic significance. It is substantiated that anthroponyms, as linguopoetic units, serve as an important means in shaping the ideological and artistic content of the novel.

Tilshunoslikda onomastika maxsus bo‘lim sifatida mavjud bo‘lib, u atoqli otlarni, ya’ni shaxs, joy, hayvon, kosmik obyekt va boshqa nomlarning kelib chiqishi, tuzilishi, ma’nosi hamda qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganadi. Onomastika tizimi ichida antroponimika alohida va muhim yo‘nalish hisoblanadi. Antroponimika inson nomlari bilan bog‘liq til hodisalarini tadqiq etuvchi fan sohasi bo‘lib, u shaxs ismlari, familiyalar, laqablar, taxalluslar, kunyalar va boshqa nomlash birliklarini qamrab oladi. “Antroponim” atamasi yunoncha *anthropos* – “inson” va *onyma* – “nom” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “inson nomi” degan ma’noni anglatadi. Antroponimika insoniyat tarixida nomlash an’analari, ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va milliy mentalitet bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Shu sababli antroponimlar nafaqat til birligi, balki madaniy-belgili (lingvomadaniy) birlik sifatida ham qaraladi. Antroponimika onomastika tizimida yadro bo‘limlardan biri sanaladi. Chunki shaxs nomlari jamiyat hayotida eng faol va keng qo‘llanadigan atoqli otlardir. Toponimlar joy bilan, etnonimlar xalq bilan bog‘liq bo‘lsa, antroponimlar bevosita inson shaxsi, uning ijtimoiy mavqeyi, kasbi, yoshi, jinsiy mansubligi va hatto xarakteri bilan aloqador bo‘ladi. Shu jihatdan antroponimlar kommunikativ jarayonda muhim identifikatsiya vositasi vazifasini bajaradi.

Lingvopoetik tahlil badiiy matndagi til birliklarining estetik, obrazli va semantik imkoniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Ushbu nuqtayi nazardan qaralganda, “Otamdan qolgan dalalar” romanida qo‘llangan antroponimlar muallif badiiy tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali obraz, muhit va g‘oya uyg‘un holda ifodalanadi.

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani o‘zbek qishloq hayoti, milliy mentalitet va inson ruhiyati chuqur badiiy talqin etilgan asarlardan biridir. Asarda qo‘llangan antroponimlar, ya’ni shaxs nomlari muallifning badiiy niyatini ifodalovchi muhim lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi. Roman antroponimlari tasodifiy tanlanmagan bo‘lib, ular obraz xarakteri, ijtimoiy muhit va milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda yaratilgan. Romandagi antroponimlar asosan xalqona, sodda va milliy ruhdagi ismlardan tashkil topgan. Bu hol asarda tasvirlangan qishloq muhitiga, xalqning turmush tarzi va tafakkuriga mos keladi. Shaxs nomlari orqali qahramonlarning kelib

chiqishi, ijtimoiy mavqeyi, ruhiy holati va hayotga munosabati bilvosita ifodalanadi. Shu sababli antroponimlar asarda faqat nominativ vazifani emas, balki baholovchi, xarakterlovchi va estetik funksiyani ham bajaradi.

Roman antroponimlarini funksional jihatdan bir necha guruhlarga ajratish mumkin: asosiy qahramonlar antroponimlari, ikkinchi darajali personajlar nomlari, epizodik obrazlar antroponimlari hamda laqab va xalqona nomlash shakllari. Ayniqsa, laqablarning faol qo‘llanishi asarning lingvopoetik qiymatini oshiradi. Laqablar orqali muallif personajga nisbatan xalqning munosabatini, kinoya yoki tanqidni ifodalaydi. Bu esa antroponimlarning ekspressiv va baholovchi xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Romandagi ko‘plab ismlar motivatsiyalangan bo‘lib, ular xalq tasavvuri, diniy qarashlar yoki ijtimoiy sharoit bilan bog‘liq. Ism va obraz xarakteri o‘rtasidagi uyg‘unlik antroponimning badiiy ahamiyatini kuchaytiradi. Masalan, sodda va an’anaviy ismlar oddiy mehnatkash, yer bilan bog‘liq hayot kechiruvchi qahramonlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday antroponimlar orqali muallif qahramonning ichki dunyosini ochishga erishadi.

Romandagi antroponimlar, avvalo, obrazni individuallashtiruvchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxs nomlari orqali qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, ruhiy holati va hayotga munosabati bilvosita ochiladi. Antroponimlar personajning nutqi, xatti-harakati va muallif tasviri bilan birgalikda yaxlit poetik obrazni shakllantiradi. Bu hol nomning faqat atash vazifasi bilan cheklanmasdan, obraz yaratuvchi birlikka aylanganini ko‘rsatadi.

Antroponimlarning yana bir muhim xususiyati — ularning milliy-madaniy kod vazifasini bajarishidir. Qahramonlar nomi orqali o‘zbek xalqiga xos urf-odatlar, qadriyatlar, ota-bobolardan meros bo‘lib kelayotgan an’analar ifodalanadi. Shu jihatdan antroponimlar romanning g‘oyaviy-badiiy mazmunini boyitib, milliy ruhni kuchaytiradi.

Antroponimlarning kontekstual takrorlanishi ham lingvopoetik jihatdan muhim hodisadir. Takror nomning semantik va poetik yuklamasini kuchaytirib, obrazni o‘quvchi xotirasida mustahkamlaydi. Ayniqsa, muhim dramatik vaziyatlarda antroponimning qayta-qayta qo‘llanishi personaj ruhiy holatining keskinligini va ichki kechinmalarini yanada ta’sirchan ko‘rsatadi.

Shuningdek, romandagi ayrim antroponimlar ramziy ma’no kasb etadi. Ular orqali muallif inson va yer munosabati, avlodlar merosi, mas’uliyat va qadriyatlar kabi g‘oyalarni bilvosita ifodalaydi. Bunday holatda antroponim individual obraz doirasidan chiqib, umumlashgan badiiy timsol darajasiga ko‘tariladi.

Romandagi antroponimlar semantik-motivatsion jihatdan boy bo‘lib, ularning ma’nosi ko‘pincha personaj xarakteri, ruhiy holati va ijtimoiy mavqeyi bilan uzviy bog‘langan. Bu hol antroponimlarning lingvopoetik imkoniyatlarini kuchaytirib, badiiy obrazning yaxlit va ta’sirchan shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalqona ismlar va laqablarning qo‘llanishi qishloq muhiti, milliy mentalitet va ijtimoiy munosabatlarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, antroponimlar romanda obrazni baholash, ramziylashtirish va estetik ta’sirni kuchaytirish funksiyalarini bajaradi. Laqablar va nomlash shakllari orqali muallif personajlarga nisbatan ijtimoiy munosabat, kinoya yoki tanqidni badiiy ifodalashga erishadi. Antroponimlarning kontekstual takrorlanishi esa ularning poetik yuklamasini oshirib, o‘quvchi xotirasida obrazning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. 366 с.
2. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. 138 с.
3. Хожиев А. Тилшуносликтерминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002. 312 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили ономастикаси. – Тошкент: Фан, 2004. 220 б.
5. Содиқов Қ. Бадиий матн ва лингвопоэтика. – Тошкент: Фан, 2010. 184 б.
6. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М.: Едиториал УРСС, 2004. 256 с.
7. Мурод Т. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. 192 б.
8. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. 304 б.

Mushtariybonu ABDULLAYEVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

HAJVIY HIKOYALARDA BADIIY MAQSAD KATEGORIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada hajviy hikoyalar janrining asosiy xususiyatlari, maqsadi va badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, satira va yumor elementlari orqali jamiyatdagi turli ijtimoiy illatlar, insoniy kamchiliklar hajviy obrazlar vositasida qanday yoritilishi haqida fikr yuritiladi. Satira va yumorning o‘zaro farqlari, ularning roli misollar orqali ochib beriladi. Maqolada hajviy hikoyalar orqali o‘quvchining tafakkurini boyitish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va badiiy-estetik didini shakllantirish imkoniyatlari haqida ham mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: *hajv, yumor, satira, kinoya, yumorist, kulminatsion nuqta, ironiya, paradoksal fikr, sarkazm.*

Annotation: this article analyzes the main features, purpose, and artistic and aesthetic significance of the comic story genre. It also discusses how various social vices and human shortcomings in society are highlighted through satire and humor through comic images. The differences between satire and humor, their role are revealed through examples. The article also discusses the possibilities of enriching the reader’s thinking, developing critical thinking, and forming artistic and aesthetic taste through comic stories.

Key words: *satire, humor, satire, irony, humorist, climax, irony, paradoxical thought, sarcasm.*

Аннотация: в данной статье анализируются основные особенности, цель и художественно-эстетическое значение жанра юмористических рассказов. Также рассматривается, как различные социальные пороки и человеческие недостатки в обществе освещаются посредством сатиры и юмора с помощью юмористических образов. Различия между сатирой и юмором, их роль раскрываются на примерах. В статье также обсуждаются возможности обогащения мышления читателя, развития критического мышления и формирования художественно-эстетического вкуса посредством юмористических рассказов.

Ключевые слова: *юмор, сатира, ирония, юморист, кульминация, ирония, парадоксальная мысль, сарказм.*

Kirish. Hajviya – badiiy adabiyot turlaridan biri. Hajviy asarlar tanqidiy ruhda bo‘ladi. O‘tmishda Sharq xalqlari, shu jumladan, o‘zbek adabiyotida, asosan, she’riyat va folklorda rivojlangan. Ularda jamiyat hayotining, shuningdek, ayrim guruh yoki shaxslarning aksariyat yomon tomonlari tasvirlanadi. Hajv turli janrlarda yozilishi mumkin. Masalan, “O‘lik jonlar” (N.V.Gogol) hajviy roman shaklida, “Maysaraning ishi“ (Hamza) hajviy pyesa, “Yovuz niyatli kishilar” (Chexov) hajviy hikoya, “Bizning mulohazalarimiz” (A.Qahhor) hajviy felyeton shaklida yozilgan.

“Hajviy asar asosan, ikki xil yo‘nalishda bo‘ladi: satira va yumor. Satira so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib, komiklik turi, tasvir obyektini ayovsiz kulgi vositasi orqali anglash degani. U voqelikni badiiy aks ettirishning o‘ziga xos uslubi bo‘lib, unda jamiyatdagi bema’ni, asossiz, noto‘g‘ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. Voqealarning real ko‘rinishini o‘zgartirib, mubolag‘a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko‘pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali satirik obrazga “ishlov” beriladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan” va Fitratning “Qiyomat” asarlari satirik asarlar hisoblanadi” (1.159–160).

Asosiy qism. “Yumorda yengil tanqid, hazil ruhi yetakchilik qiladi. Shu xususiyati bilan u satiradan farq qiladi. Badiiy adabiyotga mansub bunday asarlarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim odamlardagi ba’zi nuqsonlar ustidan kulib, uni tanqid qiladi. Satirada yumor unsuri bo‘lganidek, yumorda ham satiraning unsurlari bor. Yumorning yuksak ma’noviy ideali bilan hayotdagi kamchilik, nuqsonlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik to‘qnashuvidan tug‘iladi” (2.135–136). Satirik hikoyaga Said Ahmadning “Qoplon” hikoyasini misol qilib olishimiz mumkin. “Qoplon” hikoyasi xushomad va manfaatkashlik bilan bog‘liq illatlarni yuzaki va yorqin satirik usulda yoritgan hikoya. Hikoya ongimizga kuchli tazyiq o‘tkazadi: insoniy haqiqat va chinakam hurmat so‘zlardan emas, balki samimiylik va maqbul insoniylikdan keladi.

...O‘sha kuni yangi direktor o‘g‘lining tug‘ilgan kuniga o‘tirish qilib berayotgan ekan.Tillayevga mashina yuboribdi. Er-xotin borishdi. Darvozadan kirishlari bilan yo‘lakda yotgan qoplon ularni ko‘rib, dumini likillatib erkalandi.

– Bizning it qalay? – dedi yangi direktor.

– Bu itni taniyman, – dedi Tillayev va nariroqda yangi direktorning charm to‘nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi. (Said Ahmad “Qoplon”)

Hikoya so‘ngida Tillayevning “Bu itni taniyman” degan gapi nafaqat it hayvonga, balki Qurbonboyga va uning kabi laganbardor, ikkiyuzlamachi insonlarga berilgan ramziy bahodir. U bu gap bilan manfaat uchun insoniy qadr-qimmatini sotadigan kishilarni fosh etadi.

“Bundan tashqari, yumor asosi o‘z tasvir predmetiga ko‘ra do‘stona, xayrixohlik ruhi, hazil bilan sug‘orilgan

bo‘ladi. Satira va yumor alohida adabiy tur bo‘lmasdan faqat tasvir etilayotgan predmetga muallifning munosabati bilan boshqa “jiddiy” adabiyotdan ajralib turadi. Shu sababli satira va yumor hamma adabiy turlar doirasida asoslangan bir bo‘yoq berish bilan yangi janrlarni paydo qiladi” (1. 160–161). Bunga misol qilib O‘tkir Hoshimovning “Osmondan tushgan pul” hikoyalar to‘plamidan o‘rin olgan “Ko‘kyo‘tal” hajviy hikoyasini olishimiz mumkin. Bu hikoyada qo‘llanilgan ayrim ko‘chma ma’nodagi so‘zlar orqali jamiyatdagi ba’zi bir yomon va yo‘qolmayotgan illatlarning fosh qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Hammasini aytdim. Do‘stim kattakon daftarga shoshilmasdan yozib oldi.

– Shamolladingizmi? – dedi to‘satdan.

Hayron bo‘ldim.

– Bo‘lmasa nega yo‘talyapsiz?

– Qani yo‘talganim?

U qalamni zarda bilan stolga otdi.

– Hamma gap shunda-da, xumpar! Nega yo‘talmayapsan?!

– Nega yo‘talishim kerak?

– Maktabda ham ahmoq eding, ahmoq! – dedi u baqirib. – Yo‘tal, degandan keyin yo‘talgin-da, befarosat! – shunday deb ikki barmog‘ini ishqalab ko‘rsatdi.

Endi tushundim. Cho‘ntagimdan bitta ming so‘mlik chiqargan edim, xiyol chehrasi yorishdi.

– Yana yo‘tal, xumpar! Jonliroq yo‘tal!

Tag‘in to‘rttagina “yo‘talgan” edim, ispravka qo‘limga tegdi. Do‘stim men bilan qaytadan quchoqlashib ko‘rishdi (O‘tkir Hoshimov “Osmondan tushgan pul” 52 - bet).

Muallif ushbu parchada “yo‘talmoq” so‘zini ko‘chma ma’noda – ya’ni pul berish, pora uzatish ma’nosida qo‘llagan. Oddiy ma’lumotnoma olish jarayoni orqali u jamiyatdagi korrupsiyaning odatiy holga aylanganini, halollik va vijdonning qadri sezilarli darajada yo‘qolganini ko‘rsatadi. “Yo‘tal” kabi kundalik so‘zning pora bilan tenglashtirilishi, bu illatning qanchalik chuqur ildiz otganini ifodalaydi. Parchadagi kinoyali ohang va bevosita gaplar jamiyatdagi beparvolik, manfaatparastlik va adolatsizlikni fosh etadi. Shu tariqa, muallif kichik hayotiy holat orqali katta ijtimoiy muammoni – poraxo‘rlik va tanish-bilishchilikning keng tarqalganini ochib bergan.

…U yog‘i nima bo‘lganini bilmayman. Bir mahal ko‘zimni ochsam, tepamda xotinim yig‘lab o‘tiribdi. Do‘xtir bilagimni ushlab, tomir sanayapti. O‘pkam og‘zimga tiqilgudek yo‘tal tutdi.

– Tashvish qilmang, kennoyi, tashvish qilmang, – dedi do‘xtir xotinimni yupatib. – Okamni bir haftada otdek qivoramiz! – Keyin menga yuzlandi. – Yo‘taling, oka, qattiqroq yo‘taling! Iloji bo‘lsa, “ko‘ki”dan yo‘taling! Qancha ko‘p yo‘talsangiz, shuncha tez tuzalasiz! (O‘tkir Hoshimov “Osmondan tushgan pul” 59-bet)

Muallif hikoyaning yakunida juda teran kinoyani ifodalagan. Asar davomida “yo‘talmoq” so‘zi oddiy kasallik belgisi emas, balki pora berish, pul uzatish ma’nosida qo‘llanib keladi. Eng achchiq tomoni shundaki, u oxir-oqibat charchab, kasal bo‘lib qoladi va hatto tibbiyot tizimida ham “yo‘talish” zarurligini eshitadi. Shifokorning “yo‘taling, oka, qattiqroq yo‘taling! Qancha ko‘p yo‘talsangiz, shuncha tez tuzalasiz” degan gapi bevosita pul talabini anglatadi. Bu kinoya orqali muallif shunday demoqchi bo‘ladi: jamiyat shu darajaga yetganki, pora bermasdan na hujjat olasiz, na davolanishingiz mumkin. Halollik qadrsizlangan, har bir ish pul bilan o‘lchanadigan holga kelgan. “Yo‘tal” so‘zi asar davomida ramzga aylangan – u korrupsiyaning, axloqiy kasallikning, ijtimoiy chirkinlikning timsoli bo‘lib qolgan. Hikoya oxiridagi sahna o‘quvchini o‘ylantiradi: insonlar vijdonsiz tuzumda qanday yashayapti? Muallif bu kinoya orqali jamiyatdagi kasallik tanaga emas, ong va vijdonga kirib olganini, insoniyat ana shundan “sog‘ayishi” kerakligini uqtiradi. Shu tariqa, hikoyaning umumiy g‘oyasi – poraxo‘rlikning jamiyatni yemirib borayotgani, uni yo‘qotish uchun, eng avvalo, insonlarning ichki vijdonini uyg‘otish zarurligini ko‘rsatishdir.

Bundan tashqari, bir necha hajviy asarlar muallifi Aziz Nesinning ham hikoyalarini misol qilib olishimiz mumkin. Aynan “Yashasin qashshoqlik” hajviy hikoyasi orqali ham jamiyatdagi illatlarni ochib berishga harakat qilgan. Ushbu hajviy hikoya ijtimoiy mazmunga ega bo‘lib, unda muallif qashshoqlik va boylik o‘rtasidagi tafovutni kulgi va istehzo orqali yoritadi. Asarda muallifning asosiy maqsadi – boylarning tashvishli hayotini masxara qilish, qashshoqlik esa baxt kabi ko‘rsatilayotgan holat orqali jamiyatdagi paradoksal fikrlarni fosh etishdir.

...Yonimdagi pulning hammasini sarflab tamomladim. Boylarning boshiga tushadigan savdolarni o‘ylasam, o‘zimning turmushimdan xursand bo‘lib ketaman.

Hikoyaning oxirida qahramon “hammasini sarflab tamomladim” deya, o‘zining moddiy jihatdan qashshoqligini tan oladi. Biroq keyingi jumlalarda u boylarning hayotidagi azob-uqubatlarni sanab, go‘yo ularning holiga achinadi: “Boylarning boshiga tushadigan savdolarni o‘ylasam, o‘zimning turmushimdan xursand bo‘lib ketaman”. Bu yerda ironiya usuli ishlatilgan – qahramon qashshoqlikdan shikoyat qilmaydi, aksincha, boylarning tinchini yo‘qotgan, vahimaga to‘la hayotini eslab, o‘zini omadli deb biladi. Aynan mana shu jihatlar hajviy asarlardagi badiiy maqsad kategoriyalarini ochib berganligini ko‘rishimiz mumkin.

...Bedorlik, ochlik azobi, sinib xonavayron bo‘lish yoki o‘g‘riga talanish vahimasi u bechoralarning boshiga nimalarni solishini men juda yaxshi bilaman! (Aziz Nesin “Yashasin qashshoqlik”)

Hikoyada “bedorlik, ochlik azobi, sinib xonavayron bo‘lish yoki o‘g‘riga talanish vahimasi” kabi so‘z birikmalari orqali muallif boylarning hayoti ham doimo xavf va qo‘rquv bilan kechishini kinoya bilan ko‘rsatadi. Go‘yo boylik ularni tinchlikdan, huzurdan mahrum qilgan.

Hikoyaning eng kulminatsion nuqtasi – “Yashasin qashshoqlik!” degan so‘nggi jumladir. Bu ibora tashqi tomondan qashshoqlikni madh etayotgandek tuyuladi, ammo aslida bu keskin istehzo bo‘lib, muallif jamiyatdagi tengsizlik, hayotdagi adolatsizlik va odamlarning soxta

taskin topish odatini fosh etadi. Xulosa qilib aytganda, hikoya hajviy ohangda yozilgan bo‘lib, muallif insonlarning moddiy holatga nisbatan bo‘lgan munosabatini tanqid qiladi. U kulgi orqali jiddiy muammoni — boylik va qashshoqlik o‘rtasidagi ijtimoiy tafovutni yoritadi.

Yana biz Aziz Nesinning “Bizda vrach bo‘lmoqchimisan?” hajviy hikoyasini ham bunga misol qilib olishimiz mumkin. Ushbu hajviy hikoya hozirgi jamiyatimizdagi eng og‘riqli muammolardan biri — tibbiyot sohasidagi axloqsizlik, pulparastlik va vijdonsizlikni fosh etadi. Muallif kulgi, kinoya va sarkazm orqali nafaqat bir shifokorning, balki butun tizimning illatlarini ochib beradi. Hikoya boshida muallif hozirgi kunda vrachlar yetishmayotgani, ayrimlari esa katta daromad umidida xorijga ketib qolayotganini aytadi. Shu fon orqasida muallif o‘z yurti uchun qaytgan halol, samimiy, yosh vrach bilan tizimning “ustasi” bo‘lgan keksa vrach o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilikni ko‘rsatadi. Bu ikki obraz — jamiyatdagi ikki turdagi insonlarni ifodalaydi: biri vijdonli, halol va fidoyi; ikkinchisi esa buzuq tizimga moslashgan, axloqni boy bergan, lekin “tajribali”. Keksa vrach yosh vrachni so‘roq qila boshlaydi. U avvalo “yana nima ish qo‘lingdan keladi?” degan g‘alati savol bilan insoniylikdan yiroq dunyoqarashni ochib beradi. Uning nazarida shifokor bo‘lishning o‘zi yetarli emas — boylik orttirish, mashhurlikka erishish uchun turli “yo‘llarni” bilish kerak. Bu esa shifokor kasbining asl mohiyatiga zid: vrachning vazifasi — odamni davolash, lekin bu keksaning fikricha, davolash emas, “daromad manbai” bo‘lishi kerak. Muallif kinoya bilan tibbiyot tizimidagi korrupsiya, maklerlik, reklama va soxta obro‘ orqasidan quvishni fosh qiladi. Masalan, bemorlarni bir-biriga yuborish orqali “hamkasblar o‘rtasidagi yordam” deb atalgan narsa aslida “foyda aylanish zanjiri”ga aylangan. Bemor bir necha mutaxassis orasida aylantirilib, oxirida yoki o‘zi tuzaladi yoki vafot etadi – bu orada esa har kim o‘z foydasini oladi. Bu orqali muallif tibbiyotda inson hayoti emas, foyda birinchi o‘ringa chiqib qolganini ko‘rsatadi. Shuningdek, keksaning “reklama, maqola yozish, narxni oshirish, tekin qabulni bekor qilish” haqidagi maslahatlari bugungi kunda ko‘plab sohalarda uchrayotgan tashqi ko‘rsatkich, shon-shuhrat va yolg‘on obro‘ ortidan quvish illatini tanqid qiladi. U “gazetada noming ko‘rinsa, odamlar seni aqlli deb o‘ylashadi” deydi – bu esa jamiyatda haqiqiy mehnat emas, ko‘rinish ustuvor bo‘lib qolganini ko‘rsatadi. Yosh vrach esa bu so‘zlarga hayron. Uning soddaligi, samimiyligi, insonparvarlikka ishonchi – aslida muallifning o‘z pozitsiyasidir. U orqali yozuvchi halollik va kasbga sadoqatni himoya qiladi. Keksa vrach esa buzuq tizimning timsoli sifatida tasvirlanadi: u “tajribali”, lekin bu tajriba insoniylikdan uzoqlashgan, axloqni yo‘qotgan tajriba. Hikoya yakunida keksaning “sen bu yerda non topib ishlay olmaysan, yaxshisi o‘sha Germaniyangga qayt” degan gapi juda achchiq kinoya bilan aytilgan. Bu gap orqali muallif o‘z yurtida halol mehnat qilmoqchi bo‘lgan insonlar uchun joy qolmagani, halollik qadrsiz bo‘lib qolgan jamiyatni qoralaydi. Asar soddaligi, dialog shakli va kinoyali ohangi bilan o‘quvchini o‘ylantiradi. U kuldiradi, ammo shu kulgi ortida alam, achinish va norozilik yashiringan. Muallif “vrach” timsolida aslida butun bir ijtimoiy muhitni tanqid qiladi: har kim o‘z manfaati uchun yashaydigan, halollikka joy yo‘q jamiyatni. Hikoyaning so’nggida vrach tomonidan aytilgan “sen ham salomat bo‘l, o‘g‘lim, yana kasal-pasal bo‘lib yurma!” gapi ham jamiyatdagi achinarli ahvolni ochib berishga yordam beruvchi omil sifatida kelgan. Bu hajviy hikoya nafaqat tibbiyotdagi, balki butun jamiyatdagi illat – manfaatparastlik, ikkiyuzlamachilik va vijdonsizlikni fosh etuvchi kuchli satirik asardir. Muallif o‘quvchini o‘ylashga, jamiyatdagi nohaqliklarga befarq bo‘lmaslikka undaydi. Hikoya o‘zida kulgi va achchiq haqiqatni uyg‘unlashtirgan, o‘qigandan so‘ng insonni larzaga soladigan ibratli asardir.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hajviy hikoyalar badiiy adabiyotda jamiyat hayotidagi turli salbiy holatlarni ochib berish, insonning axloqiy-ma’naviy qiyofasini tanqidiy nuqtai nazardan yoritish imkonini beruvchi muhim janrdir. Satira va yumor vositalari bu janrning asosiy ifoda shakllari bo‘lib, ular o‘zaro farqli bo‘lishiga qaramay, umumiy maqsad – ijtimoiy ongni uyg‘otish, o‘quvchini fikrlashga undash va uni tarbiyaviy jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada hajviy hikoyalar nafaqat kulgi uyg‘otish, balki chuqur ijtimoiy-estetik g‘oyani ifodalash vositasi sifatida tahlil qilingan. Satiraning keskin, ochiq tanqidga asoslangan xarakteri bilan yumorning quvnoq, muloyim shakldagi hajviy yondashuvi orasidagi farqlar ochib berildi.

Shunday qilib, hajviy hikoyalar – o‘z zamonasining ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi, o‘quvchini ham kuldiruvchi, ham o‘yga soluvchi, ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni yetkazuvchi samarali badiiy vositadir. Ular orqali nafaqat muallifning hayotga munosabati, balki o‘quvchining ongida yuzaga keladigan ijtimoiy tanqidiy yondashuv shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Noshir, 2019. 336-bet.
2.Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004. 264-bet.
3.Ahmad S. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2000. 192–195-betlar.
4.Hoshimov O‘. Hikoyalar to‘plami. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.191-bet.
5.Hoshimov O‘. Osmondan tushgan pul. – Toshkent: Nurli dunyo, 2024.124-bet.
6.Nesin A. Mamlakatlardan birida. Hikoyalar to‘plami. – Turkiya, 1946.
7.Manba: https://share.google/CX7ZndsebsZn5OFaG
8.Manba: https://share.google/YBqHKp1xpi1QRlPyz
9.Manba: https://interonconf.org

Sevinch MUMINOVA,
Kattaqo‘rg‘on davlat pegagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
o‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 23_13-guruh talabasi
e-mail: muminovasevinch088@gmail.com

“ZARBULMASAL” ASARIDA OBRAZLAR TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida poetik obrazlar tizimi, ularning badiiy funksiyasi va timsoliy mazmuni tahlil qilinadi. Asarda qushlar, hayvon-hasharotlar va odamlar orqali berilgan ijtimoiy g‘oyalar ilmiy asosda yoritiladi. Yapaloqqush, Boyo‘g‘li, Ko‘rqush, Gunashbonu va Kulonkir kabi yetakchi timsollarning xarakter tomonlari keng aks etadi. Shuningdek, Hudhud, Kuykunak, Kordon, Sho‘rano‘l kabi epizodik obrazlarning asardagi vazifalari talqin etiladi. Maqolada, matn asosidagi tahlil orqali Gulxaniyning obraz yaratish mahorati, hajviy va didaktik uslubning o‘ziga xosligi isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: *Gulxaniy, “Zarbulmasal”, timsol, bosh obraz, Yapaloqqush, Boyo‘g‘li, Ko‘rqush, Gunashbonu, Kulonkir sulton, epizodik obraz, Hudhud, Kuykunak, Kordon, Sho‘rano‘l.*

Annotation: in three articles, the system of poetic images, material quality and symbolic content of Gulkhani’s work “Zarbulmasal” are analyzed. The socio-ideas conveyed through birds, animals-insects and people in the work are scientifically covered. The character aspects of such heavy symbols as Yapalaqkush, Boyoglu, Korkush, Gunashbonu and Kulonkir are widely reflected, Interprets the actions of episodic characters such as Huddud, Kuykunak, Kordon, Shoranol in the work. The article proves Gulkhani’s figurative skill, the uniqueness of his comic and didactic style through text-based analysis.

Key words: *Gulkhani, “Zarbulmasal”, symbol, main character, Yapalaqkush, Boyoglu, Korkush, Gunashbonu, Kulonkir sultan, episodic character, Hudhud, Kuykunak, Kordon, Shoranol.*

Аннотация: в трех статьях анализируется система поэтических образов, материальное качество и символическое содержание произведения Гульхани “Зарбулмасаль”. Научно рассмотрены социально-политические идеи, передаваемые через птиц, животных-насекомых и людей в произведении. Широко отражены характерные аспекты таких тяжелых символов, как Япалаккуш, Бойоглу, Коркуш, Гунашбону и Кулонкир. Интерпретируются действия эпизодических персонажей, таких как Худдуд, Куйкунак, Кордон, Шоранол, в произведении. Статья доказывает образное мастерство Гульхани, уникальность его комического и дидактического стиля посредством текстового анализа.

Ключевые слова: *Гульхани, “Зарбулмасаль”, символ, главный герой, Япалаккуш, Бойоглу, Коркуш, Гунашбону, Кулонкирский султан, эпизодический персонаж, Худдуд, Куйкунак, Кордон, Шоранол.*

Muhammadsharif Gulxaniy XVIII asr oxiri – XIX asrning 20-yillarida Qo‘qonda yashab ijod qilgan mashhur masalnavis adib va hassos shoirdir. Gulxaniy hayoti va ijodining o‘zbek mumtoz adabiyotida o‘ziga xos o‘rni bor. Mumtoz adabiyot nasri taraqqiyotini uning ijodisiz tasavvur qilish qiyin. “Devonafe’lligi, otashintabiatligi tufayli u o‘ziga “Gulxaniy” taxallusini olgan, Rahmatulloh Vozeh esa: “Shoir hammomdorlik bilan shug‘ullangani uchun “Gulxaniy” deb taxallus tanlagan”, deydi”.

Gulxaniydan qolgan lirik she’rlar uncha ko‘p emas. Uning g‘azal va qasidalardan iborat kitob tartib bergani haqida xabar bo‘lsa ham, u topilganicha yo‘q. Shoirning lirik merosidan bizgacha “Biri”, “Etmaz”, “Ko‘rung” radifli va “Lola ko‘ksidek bag‘rim tahbatah qora qonlar” deb boshlanuvchi o‘zbekcha, “Ey to‘ti”, “Burun”, “Az chashmi man”, “Angusht”, “Angushtam”, “Bedih” radifli tojikcha g‘azallari yetib kelgan. She’rlaridan to‘rttasi o‘zbekcha, to‘rttasi tojikcha, bitta tojikcha qasidasi ham bor. Hammasi to‘qqizta. U tojikcha g‘azallarida Jur’at taxallusini qo‘llagan.

Mulla Gulxaniy nomini avloddan avlodga yetkazib kelayotgan va adabiyotimiz tarixida unga abadiy joy olib bergan yodgorlik, “*Zarbulmasal*”dir. Bu asar “Yapaloqqush hikoyati” ham deb ataladi. “Zarbulmasal” syujeti hikoyachilik asosiga qurilganligi bilan o‘zbek adabiyotidagi Rabg‘uziy va Xoja qissa-hikoyatlariga, undagi majoziylik, qushlar, hayvonlar tilidan so‘zlash; pandnomalik xususiyati jihatidan esa, Sharqda keng tarqalgan asarlarga o‘xshaydi.

Timsol arabcha so‘z bo‘lib, surat, naqsh, rasm; misol, monand, o‘xshash; tasvir, yo‘l-yo‘riq, farmon; manzara, ko‘rinish kabi keng ma’nolarni ifodalaydi. Matn qatidagi birgina timsol uni anglash uchun muhim vosita hamdir. Illo, biror bir so‘zning timsol darajasiga ko‘tarilishi oddiy hodisa emas. U ijodkordan juda katta salohiyat, sermashaqqat mehnat talab qiladi. Zero, chinakam ijodkorning yuksak

san’atkorona badiiy mahorati aynan ana shunda namoyon bo‘ladi. Timsol – majoziy mazmunni ifodalaydi. Timsol asosida yashirin ma’no yotadi. U oddiy predmetni emas, unga yuklangan ramziy g‘oyani anglatadi. Abstrakt tushunchalarni jonlantiradi. Muhabbat, nafrat, saxovat, johillik kabi tushunchalar to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, obrazlar orqali ifodalanadi.

“Zarbulmasal”da keltirilgan badiiy obrazlarni ularning turi va tabiatiga ko‘ra:

a) qushlar obrazlari;

b) hayvon-hasharot obrazlari;

d) kishi obrazlari kabi uch guruhga bo‘lish mumkin.

Qushlar obrazlari asar syujetini ta’minlovchi, adib ko‘zda tutgan bosh maqsad-g‘oyani ochuvchi obrazlardir. Bu asardagi yetakchi obrazlar, ya’ni bosh obrazlar quyidagilardir: Yapaloqqush, Ko‘rqush, Boyo‘g‘li, Kulonkir sulton va Gunashbonudir. Xo‘sh, bosh obrazning o‘zi nima?

Badiiy asarda bosh obraz – syujetning markazida turuvchi, voqealarni rivojlantiruvchi va asarning ma’naviy-axloqiy mazmunini ochib beruvchi asosiy qahramondir. U asar orqali muallifning asosiy fikrini, g‘oyasini va ibratini o‘quvchiga yetkazadi.

Yapaloqqush bilan Boyqush asardagi bosh qahramonlar sirasiga kiradi. Asarning syujeti tugun bilan boshlanadi, ya’ni Yapaloqqush bilan Boyo‘g‘li timsollarning o‘zaro quda-anda bo‘lishiga bog‘liq voqealar bilan asar rivojlanadi. Tabiatda Yapaloqqush tunda ov qiladigan, yirtqich qushdir. Yapaloqqush – bir qadar davlatmand kimsa. U o‘zidan ham sarmoyaliroq, taniqliroq kishi bilan quda bo‘lishni orzu qiladi, ya’ni Boyo‘g‘li bilan. Yapaloqqush – o‘zini dono ko‘rsatishga urinadigan, ochko‘z, manman, o‘ziga ortiqcha baho beradigan, sabrsiz, johil kimsalar timsolidir.

Ko‘rqush asarning yetakchi obrazi, shu bilan birga, asarni boshidan oxirigacha boshqarib turgan timsoldir. U boshqalarga qaraganda yetuk shaxs ramzi. Ko‘rqush sovchilik vazifasini bajaradi. U voqealarda kuchli axloqiy me’yor sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy xarakteri aqlli, tajribali, hayot bilimdoni. Doim maqol va naql bilan gapiradi. Buni yuqoridagi Yapaloqqush bilan Ko‘rqush gaplari misollarida ham ko‘rishimiz mumkin. Asosiy qahramonlardan biriga Ko‘rqush nazari bilan berilgan baho ko‘p jihatdan muallifning ham qarashini ifoda etadi Ko‘rqush — donishmand xalq vakili, haqqoniy aytuvchi adolatparvar, jamiyatdagi aqlli maslahatgo‘ylar timsoli. Uning donishmandligini quyidagi so‘zlardan ham bilib olishimiz mumkin:

“Ko‘rqush aytdi: “Ulug‘ning chodirida bilim egasi va es-hushli aqlli donolar har qancha ko‘p bo‘lsa ham, oz bo‘lar. Xususan, podshohning oldiga uch toifadan iloj va chora yo‘qdir. Avvalo, podshohga oxirat asbobini ko‘rsatadigan ilmiga amal qiladigan olim. Ikkinchisi, podshohning dunyolik yarog‘i taraddudida bo‘lgan o‘z fikriga ega dono vazir. Uchinchisi, nigohi o‘tkir va qilichday keskir, haqiqatni yozadigan kotib. Hozir bu turgan kiyimyirtar oshxo‘rlar ovqat yemoqqa hozir, maslahat berishga aqli qosir. Bu toifaning xizmati oz, minnati ko‘p bo‘lar.

Kulonkir sulton ham asar bosh timsollaridan biri. U onasiga munosib farzand. U – qushlar shohining pahlavoni. Kulonkirning yaxshi tarbiya ko‘rmagani, tabiatida yetuklik bo‘lmagani Ko‘rqush unikiga mehmonga borganda namoyon bo‘ladi. Asardagi mezbonlik tutumi tasviri Kulonkir sulton va uning xizmatkorlarining odamgarchiligiga baho berishga asos bo‘ladi. Mehmonga sarqit ovqat taklif etishi, uning ham ko‘pini o‘zi yeb qo‘yishi singari voqealar befarosat, yebto‘ymas, xasis, tarbiyasiz Kulonkirning asl qiyofasini ko‘rsatadi. Kulonkirning psixologiyasi – tekinxo‘rlik va bekorchilik. U bekorchi jamiyatdagi loqayd yoshlar timsolidir.

“Zarbulmasal”dagi asosiy qahramonlardan bo‘lmish Boyo‘g‘lining qanday qush ekanligi va uning faqat vayronalarni makon tutishi ma’lum. Asarda esa, uning makoni shunday hayrat va muhabbat bilan tasvirlanadiki, beixtiyor o‘quvchining kulgisi keladi. Ma’lumki, Boyqush – tungi jonzot. Uning qizi Gunashbonu deb atalgan. Bu – Quyoshxon degani. Boyo‘g‘lidan quyosh tug‘ilishi mumkinligi tasavvurga sig‘adimi? Boyo‘g‘lining qattiqligi matnda juda qiziqarli yo‘sinda ko‘rsatilgan. Ko‘proq qalin undirish sahnasi qizining baxtidan kechishga ham tayyorligini, uning shaxsiga xos xususiyatlarini yorqin aks ettiradi. Asarda Ko‘rqush tilidan Boyo‘g‘liga “agar ming chordevordan bir chordevor kam bo‘lsa, o‘ttiz tishini sindirar”, – degan ta’rif beriladi. U salbiy illatlarga ega shu bilan birga aqlli, tadbirli timsol hamdir. Chunki sovchini birdan rad qilmaydi, maslahatga chaqiradi.

Gunashbonu yetakchi timsoli ham o‘ziga xos ma’no tashiydi. Bu obraz Boyo‘g‘lining qizi edi. Uning go‘zalligini ta’riflab bo‘lmasdi. Gunashbonuning go‘zalligi ta’rifi asarda quyidagicha keltiriladi: “Boyo‘g‘lining yuziga sharq quyoshi banda bo‘lgan bir qizi bor edi”. U aqlli, idrokli obraz hamdir. Chunki, Boyo‘g‘li qizidan rozilik so‘raganda darrov o‘z rizosini aytmaydi.

Epizodik obraz nima? Epizodik obraz – asarda asosiy voqeani rivojlantirish uchun bir yoki bir necha epizodda qatnashib, keyin yo‘q bo‘lib ketadigan, lekin mazmuniy-g‘oyaviy yuk ko‘taradigan qahramon. Ular g‘oyani kuchaytirib, asosiy obrazlarga baho berishga xizmat qiladi. Epizod – asarda tasvirlangan voqealar ichida muhim vazifani bajaruvchi, ammo syujetning asosiy chizig‘ini o‘zgartirmaydigan ikkinchi darajali voqea yoki epizodik ko‘rinishdir.

“Zarbulmasal” asarida bir qator ikkinchi darajali timsollar bor. Bular: Hudhud, Kuykunak, Kordon, Turumtoy, Malikshohin, Sho‘ranol va boshqalar.

Hudhud Ko‘rqushni nasihat qiladi. U haqiqatni oshkor qiluvchi, dono va samimiy epizodik obrazdir. Hudhud aql va mashvarat egasi. Bu timsol Yapaloqqushning nihoyatda bilimsiz va farosatsizligini ochib berish uchun xizmat qilgan.

Kuykunak Kulonkirning xizmatkori ikkinchi darajali obraz. U Kulonkir sultonning xarakterini ochib bergan. Kulonkirning manmanligi, axloqi bu timsol orqali yana ham kuchaytiriladi.

Sho‘rano‘l qarg‘a ham epizodik obraz, u to‘y xabarini yetkazuvchi, yolg‘on maqtanchoq, ayyor, yaltirama odamlar timsoli. Uning xarakteri asarda quyidagicha keltiriladi: “Yapaloqqushning bir qarg‘a do‘sti bor erdi. Ismi Sho‘rano‘l – qushlar ko‘ziga go‘l, o‘z ishiga pishiq, haromzoda bir o‘g‘ri mishiq, ayyorlarga bahodir sherik, davlatmandlar turlarida beor mumsik, har murda ustida tayyor, yigirmaning beshini haqdorga berib, o‘n beshini qo‘yniga urgan, tumshug‘i Zokirboy kiyimfurushning tumshug‘ig‘a o‘xshar ekan.”

Kordon xazinabon. Har ishdan manfaat izlashi mumkin bo‘lgan timsol. Bu timsol o‘sha davrdagi amaldorlarga ishora qiladi.

Turumtoy Kordonning do‘sti va quli ko‘p gapiradi. Ko‘p bilib ham amal qilmaydigan bekorchi gapdon insonlar timsoli. Shu bilan birga, laganbardor tabiat egasi.

“Zarbulmasal” – murakkab asar. Uni anglash uchun Ko‘rqush so‘zi bilan aytsak, “botin ko‘z” kerak. Kinoyaviy (allegorik) obrazlar – hayvonlar, hashoratlar – turli jonivorlar insoniylashtiriladi, ayrim odamlarning fe’l-atvoridagi kamchilik, illatlar achchiq kulgu, yengil hazil bilan fosh qilinadi. O‘git va nasihatlar beriladi. “Zarbulmasal”dagi *Toshbaqa, Chayon, Maymun, Tuya, Bo‘taloq* kabilar allegorik obrazlarning yorqin misoli bo‘la oladi.

“Zarbulmasal” majoz asosiga qurilgan qissa bo‘lib, unda turmush voqea-hodisalari, turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning fe’l-atvorlari, bir-biriga munosabatlari qushlar, hayvonlar tilida bayon qilinadi. Unda murakkab qatlamli majozga duch kelamiz. Odam obrazlari o‘rnida qushlarning kelishi birinchi majoz bo‘lsa, ular tilidan Xolboqi misgar, Yodgor po‘stindo‘z singari kishilarning, tuya, chayon, sangpusht (toshbaqa) singari hayvon-hashorat timsollarining turli naql, rivoyatlar keltirib so‘z yuritishi ikkinchi majoz, bu timsollar nutqida keltirilgan ifodaning ko‘chma ma’nolari yana bir majoz, majoz ichida majozdir. “Maymun va Najjor” masali orqali qo‘lidan kelmagan ishga uringan kishi, albatta, sharmanda bo‘ladi degan fikr ilgari surilgan. “Toshbaqa va Chayon” masalida esa do‘st tanlashda adashmaslik kerakligiga e’tibor qaratiladi. “Tuya bilan bo‘taloq” masalida erki o‘zida bo‘lmagan kishining fojiasi ko‘rsatiladi va hokazo. “Zarbulmasal”ning majoziy ma’nosi, asardagi har bir qush obrazining biror toifaga mansub jonli odamni ifodalashi, bir-birini “cho‘qib” emas, balki “chaqib” olishga tayyor, tili zahar qushlar timsoli Gulxaniy tomonidan ayni odamlarga xos illatlarni aks ettirish maqsadida tasvirlanganligi anglab yetilgandagina asardan chiqariladigan badiiy va hayotiy ma’noning qimmati yuqori bo‘ladi.

Xulosa. Asardagi poetik obrazlar tizimi – Yapaloqqush, Boyo‘g‘li, Ko‘rqush, Gunashbonu, Kulonkir kabi yetakchi qahramonlar hamda Hudhud, Kordon, Kuykunak, Sho‘rano‘l singari epizodik obrazlar orqali jamiyatdagi turli xil xarakter va xulq-atvorlar yorqin hajviylik bilan namoyon etilgan. Bu asar qahramonlari tunda ov qiladigan yirtqich qushlardir. Aynan mana shu orqali shoh va uning atrofini yovuz niyatli kimsalar egallab olgan degan qarash mavjud. Qushlar va hayvonlar obrazi orqali insonlar jamiyatidagi manmanlik, johillik, tekinxo‘rlik, kibr, manfaatparastlik kabi salbiy illatlar keskin fosh etiladi. Asarning kompozitsiyasi, dialoglar, masal shaklidagi kichik hikoyatlar orqali muallif inson tabiatidagi o‘zgarmas qonuniyatlarni, jamiyatning axloqiy mezonlarini aniqlik bilan ifodalaydi. Asardagi g‘oyalar hali hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nusratullo Jumaxo‘ja, Iqboloy Adizova O‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. 310-sahifa.
2. Orzibekov Rahmonqul O‘zbek adabiyoti tarixi (XVII-XIX asrlar I yarmi). –Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti, 2006. 15–152-sahifalar
3. Abdulxayr M. “Timsol tadriji” monografiya. –Toshkent “Yashil yaproq nashr-matbaa uyi” nashriyoti, 2021. 4-sahifa.
4. Dilmurod Quronov Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: “Navoiy universiteti”, 2018.
5. Gulxaniy “Zarbulmasal”. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018-yil.

Magistrant: Feruza OQNAZAROVA,
Ilmiy rahbar: Shaxlo XALILOVA,

INGLIZ ADABIYOTIDA BRONTE OPA-SINGILLARINING O‘RNI

Annotatsiya: Bronte opa-singillari — Charlotte Bronte, Emily Bronte va Anne Bronte — XIX asr ingliz adabiyotida o‘ziga xos va muhim o‘rin egallaydi. Ular Viktoriya davrining qat’iy ijtimoiy-me’yoriy cheklovlari sharoitida ijod qilgan bo‘lsalar-da, ingliz romanini psixologik chuqurlik, badiiy innovatsiya va ayol shaxsiyatining yangi talqini bilan boyitdilar. Mazkur ilmiy maqolada Bronte opa-singillarining ingliz adabiyotidagi roli adabiy-tarixiy kontekstda tahlil qilinadi, ularning asarlaridagi asosiy mavzular, badiiy uslub va g‘oyaviy yangiliklar yoritiladi. Tadqiqot natijasida Bronte opa-singillari ingliz romanining rivojida muhim burilish yasagan ijodkorlar sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *Viktoriya davri adabiyoti, Bronte opa-singillari, ingliz romani, ayol ijodkorlar, psixologik realizm, romantizm, ijtimoiy tanqid*

Аннотация: сёстры Бронте — Шарлотта Бронте, Эмили Бронте и Энн Бронте — занимают особое и значимое место в английской литературе XIX века. Несмотря на то, что их творчество формировалось в условиях строгих социально-нравственных ограничений викторианской эпохи, они обогатили английский роман психологической глубиной, художественными инновациями и новым осмыслением женской личности. В данной научной статье роль сестёр Бронте в английской литературе анализируется в литературно-историческом контексте, рассматриваются основные тематические направления, художественный стиль и идейные новации их произведений. В результате исследования обосновывается положение о том, что сёстры Бронте сыграли важную роль в развитии английского романа, обусловив значительный поворот в его художественной эволюции.

Ключевые слова: *викторианская литература, сёстры Бронте, английский роман, женщины-писатели, психологический реализм, романтизм, социальная критика*

Annotation: the Brontë sisters—Charlotte Brontë, Emily Brontë, and Anne Brontë—occupy a distinctive and significant place in nineteenth-century English literature. Although their creative work developed under the rigid social and moral constraints of the Victorian era, they enriched the English novel with psychological depth, artistic innovation, and a new interpretation of female identity. This scholarly article examines the role of the Brontë sisters in English literature within a literary-historical context, highlighting the major themes, stylistic features, and ideological innovations of their works. The findings of the study substantiate the view that the Brontë sisters played a crucial role in the development of the English novel, marking a significant turning point in its literary evolution.

Key words: *Victorian literature, Brontë sisters, English novel, women writers, psychological realism, Romanticism, social criticism*

Kirish. XIX asr ingliz adabiyoti roman janrining jadal rivoji bilan ajralib turadi. Ushbu davr adabiy jarayonida Bronte opa-singillarining ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular o‘z asarlari orqali nafaqat badiiy shakl va mazmunni boyitdilar, balki ayol shaxsining ichki dunyosi, axloqiy tanlovi va ijtimoiy mavqeyini adabiyot markaziga olib chiqdilar. Bronte opa-singillari dastlab erkak taxalluslari ostida ijod qilishga majbur bo‘lgan bo‘lsalar-da, ularning asarlari tez orada o‘zining badiiy qudrati va g‘oyaviy teranligi bilan tanildi. Mazkur maqolaning maqsadi Bronte opa-singillarining ingliz adabiyotidagi o‘rnini ilmiy asosda ochib berish, ularning har birining individual hissasini va umumiy adabiy merosini tahlil qilishdan iborat.

1. Bronte opa-singillari ijodining tarixiy-adabiy konteksti. Viktoriya davri Angliyasida jamiyat qat’iy axloqiy me’yorlar, ijtimoiy tabaqalanish va gender tengsizlik bilan tavsiflanadi. Adabiyot esa ko‘pincha ijtimoiy muammolarni didaktik ruhda yoritishga intilgan. Bronte opa-singillari ana shu muhitda romantik hissiyot va real hayot tasvirini uyg‘unlashtirgan holda, inson ruhiyati va shaxsiy erkinlik masalalariga e’tibor qaratdilar. Ularning ijodi romantizm an’analari — kuchli hissiyot, tabiat timsollari, individuallik bilan realizmning ijtimoiy tanqidiy unsurlarini birlashtirganligi

bilan ajralib turadi. Bu holat Bronte opa-singillarini o‘z davrining ko‘plab yozuvchilaridan farqlaydi. 2. Charlotte Bronte va psixologik roman rivoji. Charlotte Bronte ingliz adabiyotida psixologik roman rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkor hisoblanadi. Uning mashhur romani Jane Eyre ayol qahramonning ichki dunyosi, axloqiy mustaqilligi va o‘zligini anglash jarayonini markazga qo‘yadi. Asar birinchi shaxs nomidan hikoya qilinishi orqali qahramon ruhiyatining eng nozik jihatlarini ochib beradi. Jane Eyre obrazi Viktoriya davri adabiyotida ayolning passiv emas, balki faol, mustaqil va ma’naviy jihatdan kuchli shaxs sifatida tasvirlanishi bilan yangilik bo‘ldi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, Charlotte Bronte ushbu roman orqali ayolning axloqiy tengligi va insoniy qadr-qimmatini himoya qilgan (Gilbert & Gubar, 1979). 3. Emily Bronte va badiiy tafakkurdagi radikal yangilik. Emily Bronte yagona romani — Wuthering Heights — bilan ingliz adabiyotida mutlaqo o‘ziga xos hodisa yaratdi. Asar murakkab kompozitsiyasi, ko‘p qatlamli syujeti va kuchli hissiy dramatizmi bilan ajralib turadi. Roman an’anaviy axloqiy xulosalardan ko‘ra, inson ehtiroslari va ichki ziddiyatlarini chuqur ochib berishga yo‘naltirilgan. Emily Bronte tabiat manzaralarini qahramonlar ruhiy holatining ramziy ifodasi sifatida qo‘llaydi. Heathcliff va Catherine obrazlari orqali cheksiz ehtiros, ijtimoiy cheklovlarga qarshi isyon va shaxsiy fojia masalalari yoritiladi. Shu jihatdan, Emily Bronte ijodi keyingi modernistik adabiyotga xos bo‘lgan badiiy izlanishlarga zamin yaratdi. 4. Anne Bronte va axloqiy realizm. Anne Bronte ijodi ko‘proq realistik va axloqiy yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Uning Agnes Grey romani governess ayolning og‘ir hayoti orqali ijtimoiy tengsizlik va ayolning mehnatdagi kamsitilishini ko‘rsatadi. Asar soddaligi va hayotiyligi bilan muhim adabiy ahamiyatga ega. Anne Brontening eng dadil asari — The Tenant of Wildfell Hall — Viktoriya davri uchun nihoyatda jasur mavzularni, jumladan, nikohdagi zo‘ravonlik va ayolning huquqiy himoyasizligini ko‘taradi. Ushbu roman ayolning axloqiy va shaxsiy mustaqilligini targ‘ib qiluvchi muhim adabiy manba hisoblanadi. 5. Umumiy mavzular va badiiy xususiyatlar. Bronte opa-singillari ijodida quyidagi umumiy jihatlar kuzatiladi:

A. inson ruhiyati va ichki kechinmalarining chuqur tahlili;

B. ayol shaxsining mustaqilligi va axloqiy tanlovi;

C. tabiat obrazlarining ramziy talqini;

D. an’anaviy roman shakliga nisbatan yangicha yondashuv.

Umumiy mavzular va badiiy xususiyatlar. Bronte opa-singillarining ijodi ingliz adabiyotida umumiy g‘oyaviy yo‘nalish va badiiy-estetik xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ularning har biri individual ijodiy uslubga ega bo‘lsa-da, asarlarida takroran uchraydigan umumiy mavzular va poetik tamoyillar mavjud. Ushbu jihatlar Bronte opa-singillarini yagona adabiy hodisa sifatida qarash imkonini beradi va ularning ingliz romani taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Inson ruhiyati va ichki kechinmalarining chuqur tahlili Bronte opa-singillarining eng muhim umumiy xususiyatlaridan biri — inson ruhiyati, ichki kechinmalari va psixologik holatining chuqur va izchil tasviridir. Ular qahramonning tashqi harakatlaridan ko‘ra, uning ichki dunyosi, hissiy iztiroblari, axloqiy ikkilanishlari va ruhiy o‘sish jarayoniga katta e’tibor qaratadilar. Bu jihat ularning ijodini an’anaviy viktorian romanlaridan ajratib turadi. Masalan, Jane Eyre romanida bosh qahramonning bolalikdan yetuklikka qadar bo‘lgan ruhiy kamoloti izchil ochib beriladi. Jane Eyre tashqi sharoitlarga moslashuvchi emas, balki o‘z ichki e’tiqodi va axloqiy prinsiplariga tayanib yashovchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning ichki monologlari, ruhiy izlanishlari va hissiy qarama-qarshiliklari roman mazmunining asosini tashkil etadi. Emily Bronte ijodida esa psixologik tahlil yanada keskin va murakkab shaklda namoyon bo‘ladi. Wuthering Heights romanidagi qahramonlar — Heathcliff va Catherine — ichki ehtiroslar, ruhiy keskinlik va ong osti kuchlari ta’sirida harakat qiladilar. Ularning ruhiy dunyosi ijtimoiy me’yorlarga bo‘ysunmaydi, bu esa asarni chuqur psixologik va falsafiy mazmunga ega qiladi.

Anne Bronte ham inson ruhiyatini realistik va hayotiy tarzda tasvirlaydi. Uning qahramonlari hissiyotlarini oshirib ko‘rsatmasdan, axloqiy tanlov va ichki mas’uliyat orqali ochiladi. Bu jihat Anne Brontë ijodiga sokin, ammo chuqur psixologik ruh bag‘ishlaydi. 2. Ayol shaxsining mustaqilligi va axloqiy tanlovi. Bronte opa-singillari ijodidagi yana bir muhim umumiy mavzu — ayol shaxsining mustaqilligi, axloqiy erkinligi va o‘z hayotini mustaqil tanlash huquqidir. Viktoriya davri adabiyotida ayol ko‘pincha ijtimoiy qoidalarga bo‘ysunuvchi, passiv obraz sifatida tasvirlangan bo‘lsa, Bronte opa-singillari bu stereotipni keskin rad etadilar. Charlotte Bronte asarlarida ayol qahramon o‘z sha’ni va axloqiy

qadriyatlarini moddiy farovonlikdan ustun qo‘yadi. Jane Eyre obrazida ayolning ichki mustaqilligi, ma’naviy tengligi va shaxs sifatida tan olinishi g‘oyasi ilgari suriladi. U sevgida ham, jamiyat bilan munosabatda ham o‘z prinsiplaridan voz kechmaydi.

Anne Bronte ijodida ayol mustaqilligi yanada ijtimoiy-realistik yo‘sinda ochiladi. The Tenant of Wildfell Hall romanida ayolning zo‘ravon nikohdan chiqib ketish qarori Viktoriya jamiyati uchun nihoyatda dadil g‘oya edi. Bu asarda axloqiy tanlov jamiyat bosimiga qarshi qo‘yiladi va ayolning shaxsiy mas’uliyati markazga chiqariladi. Emily Bronte esa ayol mustaqilligini romantik va falsafiy darajada talqin qiladi. Catherine Earnshaw obrazi ijtimoiy me’yorlar bilan ichki ehtiroslar o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Bu ziddiyat ayol shaxsining murakkab va ko‘p qatlamli tabiati mavjudligini ko‘rsatadi. 3. Tabiat obrazlarining ramziy talqini. Bronte opa-singillarining ijodida tabiat faqat fon yoki manzara vazifasini bajarmaydi, balki qahramonlarning ruhiy holati, ichki kechinmalari va axloqiy dunyosining ramziy ifodasiga aylanadi. Ayniqsa, Yorkshire manzaralari ularning asarlarida kuchli poetik va semantik yuklama bilan beriladi. Emily Bronte ijodida tabiat ramziy talqinning eng yorqin namunasini tashkil etadi. *Wuthering Heights* romanidagi bo‘ronli tekisliklar, shamolli tepaliklar qahramonlarning beqaror ruhiy holati va ehtirosli tabiatini ifodalaydi. Bu yerda tabiat va inson o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Charlotte Bronteda tabiat ko‘proq qahramon ruhiyatining sokin yoki iztirobli holatini aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Jane Eyre uchun tabiat — yolg‘izlik, o‘zini anglash va ruhiy poklanish makonidir. Anne Bronte esa tabiatni realistik ruhda tasvirlaydi. Unda tabiat obrazlari axloqiy barqarorlik va ichki muvozanat ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu holat Anne Brontening umumiy realist estetik qarashlari bilan chambarchas bog‘liq. 4. An’anaviy roman shakliga yangicha yondashuv. Bronte opa-singillari ingliz romanining an’anaviy shakliga ham yangicha yondashuv olib kirganlar. Ular syujet qurilishi, hikoya usuli va kompozitsiyada tajribaviy yechimlardan foydalanganlar. Birinchi shaxs nomidan hikoya qilish, ramkali (frame) narratsiya, vaqt va makonning erkin talqini ularning asarlarida keng uchraydi. Charlotte Brontening konfessional uslubi o‘quvchini qahramon bilan bevosita ruhiy muloqotga olib kiradi. Emily Bronte esa murakkab narrativ struktura orqali voqealarni turli nuqtayi nazardan yoritadi, bu esa romanga ko‘p qatlamlilik bag‘ishlaydi. Anne Bronte esa an’anaviy roman shaklidan foydalanib, uni ijtimoiy va axloqiy muammolarni ochishga moslashtiradi. Bronte opa-singillarining umumiy mavzulari va badiiy xususiyatlari — inson ruhiyatining chuqur tahlili, ayol mustaqilligi, tabiatning ramziy talqini va roman shakliga yangicha yondashuv — ularning ingliz adabiyotidagi o‘rnini belgilovchi asosiy omillardir. Ushbu jihatlar Bronte opa-singillarini nafaqat Viktoriya davri adabiyotining yetuk namoyandalari, balki jahon adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan ijodkorlar sifatida e’tirof etishga asos bo‘ladi. Ushbu xususiyatlar Bronte opa-singillarini ingliz adabiyotida yangi badiiy bosqichni boshlab bergan ijodkorlar sifatida namoyon etadi. 6. Bronte opa-singillarining adabiy merosi va ta’siri. Bronte opa-singillari ijodi keyingi ingliz va jahon adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ularning psixologik chuqurlikka asoslangan romanlari XX asr modern adabiyoti va feministik adabiyotshunoslik rivojiga turtki berdi. Bugungi kunda ham Bronte opa-singillari asarlari yangi ilmiy talqinlar va tahlillar markazida turibdi.

Xulosa qilib aytganda, Bronte opa-singillari ingliz adabiyotida roman janrining mazmun va shakl jihatdan boyishiga beqiyos hissa qo‘shdilar. Charlotte Bronte psixologik roman asoslarini mustahkamladi, Emily Bronte badiiy tafakkurda radikal yangilik yaratdi, Anne Bronte esa axloqiy realizm va ijtimoiy tanqidni rivojlantirdi. Ularning ijodi ingliz adabiy merosining ajralmas qismi bo‘lib, bugungi adabiyotshunoslikda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brontë, C. *Jane Eyre*. – London: Smith, Elder & Co., 1847.
2. Brontë, E. *Wuthering Heights*. – London: Thomas Cautley Newby, 1847.
3. Brontë, A. *Agnes Grey*. – London: Thomas Cautley Newby, 1847.
4. Brontë, A. *The Tenant of Wildfell Hall*. – London: Thomas Cautley Newby, 1848.
5. Eagleton, T. *The English Novel: An Introduction*. – Oxford: Blackwell, 2005
6. Gilbert, S. M., & Gubar, S. *The Madwoman in the Attic*. – New Haven: Yale University Press, 1979.

Nazira MAMADALIYEVA,
ToshDO‘TAU o‘zbek filologiyasi fakulteti, 4-kurs talabasi
naziramamadaliyeva37@gmail.com
Ilmiy rahbar: Xurshida RAXMONOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD)

SOBIR O‘NAR HIKOYALARIDA MILLIY XARAKTER MASALASI (“Vijdon” hikoyasi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada iste’dodli yozuvchi Sobir O‘narning “Vijdon” hikoyasida milliy xarakter va vijdon tushunchasining badiiy talqini tadqiq etilgan. Asardagi G‘aybar momo va Keldiboy ota obrazlari orqali o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan fidoyilik, or-nomus va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlar tahlil qilingan. Shuningdek, yozuvchining badiiy detal va rivoyatlardan foydalanish mahorati, o‘tmish va bugun o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlik masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy xarakter, badiiy detal, badiiy g‘oya, ma’naviy qiyofa, ramz, rivoyat, tarixiy xotira, vijdon.*

Аннотация: в данной статье исследуется художественная интерпретация национального характера и понятия совести в рассказе Собира Онара “Совесть” . На примере образов Гайбар момо и Келдибой ота анализируются такие качества, присущие узбекскому народу, как самоотверженность, честь и социальная ответственность. Также рассматривается мастерство писателя в использовании художественных деталей и легенд, вопросы духовной связи между прошлым и настоящим.

Ключевые слова: *национальный характер, художественная деталь, художественная идея, духовный облик, историческая память, символ , легенда, совесть.*

Annotation: this article examines the artistic interpretation of national character and the concept of conscience in Sobir Onar’s short story “Conscience”. Through the characters of Gaybar momo and Keldiboy ota, qualities inherent in the Uzbek people, such as selflessness, honor, and social responsibility, are analyzed. The author’s mastery of using artistic details and legends, as well as the spiritual connection between the past and the present, are also explored.

Key words: *national character, artistic detail,artistic idea, spiritual image, historical memory, symbol, legend, conscience.*

Adabiyotning har bir janri o‘ziga xos tarzda taraqqiy etadi. Hikoya janri esa o‘zining ixchamligi va hayotiy lavhalarni teran ma’no bilan ifodalashi, hayotiy xarakterlarni ko‘rsatib berishi bilan ajralib turadi. Badiiy asarda milliy xarakterni aks ettirish masalasi adabiyotshunoslikning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Professor U.Normatov ta’kidlaganidek, “*ijodkorning mahorati u yaratgan qahramonning milliy o‘zligini qanchalik teran ochib bera olishi bilan belgilanadi*” [Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. 45-bet.]. Sobir O‘nar hikoyalarida milliy xarakter masalasi, qahramonlarning nutqi va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq. Yozuvchining “Vijdon” hikoyasida o‘zbek xalqiga xos halollik, andisha, or-nomus va vijdon tushunchalari markaziy g‘oya sifatida ilgari suriladi. Adabiyotshunos D. Quronov e’tirof etganidek, “*badiiy asarni idrok etish – bu muallif ilgari surgan ma’naviy-axloqiy g‘oyani qahramonlar taqdiri misolida tushunishdir*” [Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. 12-bet] Shu fikrlarga qaraganda, Sobir O‘narning “Vijdon” hikoyasida vijdon tushunchasi milliy va tarixiy xotira bilan bog‘liq holda, G‘aybar momo va Keldiboy ota obrazi orqali ochib beriladi. Muallif vijdon tushunchasini qishloqning chang ko‘chalari, ota-bobolarimizdan qolgan oddiy tartiblar orqali tushuntirishga harakat qiladi. Hikoyada milliy xarakterning eng sara namunalari G‘aybar momo va Keldiboy oqsoqol timsolida ochib beriladi. Hikoyaning boshida biz G‘aybar momo obrazi bilan tanishamiz. Asl ismi Xonsuluv bo‘lgan, lekin qishloq aholisi G‘aybar momo deb chaqirishadi. Uning xarakteridagi polvonlik, g‘ayirlik va o‘ktamlik kabi xususiyatlar o‘zbek ayolining metin irodasini ifodalaydi. Adib momo xarakterini yaratishda uning nutqiga katta ahamiyat qaratgan. Momoning nevaralariga, qishloq ahliga bo‘lgan munosabati buyruq ohangidagi samimiy xitoblar orqali beriladi. Bu nutq orqali yozuvchi qahramonning jamiyatdagi loqaydlikka va isrofgarchilikka toqatsizligini ko‘rsatadi. G‘aybar momoning nevaralarini tong sahardan ishga solishi – bu qattiqqo‘llik emas, balki

kelajak avlodning irodasini tarbiyalash, ularni mehnat orqali vijdonli bo‘lishga o‘rgatishdir. Yozuvchi asarlarida kichik detallar orqali hikoyaning badiiy g‘oyasini ochib beradi. G‘aybar momoning kosa tubidagi ovqat qoldiqlarini non bilan artib yeyishi – bu shunchaki odat emas, balki rizqqa bo‘lgan ehtirom va vijdon butunligi ramzidir. G‘aybar momo uchun vijdon – bu atrof-muhitni isloh qilish. Uning ariq qazdirib suv keltirishi, dangasalarni ishlatishi – bu jamiyat oldidagi mas’uliyatdir. Uning vafotidan so‘ng qabri ustida tut daraxti ko‘karishi esa ezgulikning boqiyligiga ishoradir. Nega aynan tut? Chunki tut chidamli, ildizi chuqur va ko‘p mevali daraxt. Hayotning davomiyligi va poklik ramzi. Cho‘lning qaqroq yerida, hech qanday parvarishsiz yashnab turgan daraxt – momoning qilgan ezgu amallarining mevasidir. Daraxtning tasbeh aytishi – bu inson vafotidan keyin ham uning nomi yashashi va vijdoni pok inson ekanligiga ishoradir.

Hikoyaning ikkinchi qismida G‘aybar momodan so‘ng qishloqda paydo bo‘lgan bo‘shliqni to‘ldirgan Keldiboy oqsoqoldir. Muallif *“Elga boshchi kerak ekan!”* [S.O‘nar .Vijdon. Hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Akademnashr, 2015. 18-bet] degan xulosani bejiz keltirmaydi. Keldiboy oqsoqol obrazi orqali o‘zbekona himmat va fidoyilik ko‘rsatiladi. Uning elni birlashtirib, “Non ber ota” maqbarasini tiklashi, ko‘priklar qurishi — bu o‘zining shaxsiy manfaatidan kechib ezgulik yo‘lida xalq uchun yonishdir. Uning el orasidagi turli malomatlarga qaramay, ko‘prik qurishi va obodonchilik bilan shug‘ullanishi, haqiqiy o‘zbekona fidoyilikni ifodalaydi. Hikoyada “Non ber ota” va “Quvkalla” qishlog‘i nomi bilan bog‘liq rivoyatlarning keltirilishi asarning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Jiyanbek polvonning ocharchilikda xalqni to‘ydirishi, uning boshi tanasidan uzilsa ham, o‘limdan qo‘rqmasligi, ocharchilikdan qutqarib Non ber ota nomining olishi ajdodlarimizning ma’nan pok insonligidan dalolat. Muallifning *“Akang qarag‘ay quvkallalikman!”* [S.O‘nar. Vijdon. Hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Akademnashr, 2015. 22-bet] degan jumla orqali yozuvchi o‘zining “Quvkalla” rivoyatidagi o‘sha yengilmas, xalqi uchun jon berishga tayyor turgan ajdodlariga sodiqligini namoyon etadi. Non ber otaning saxovati Keldiboy otaning saxovatiga parallel tarzda berilishi bejiz emas. Hikoyada “Non ber ota” rivoyatining keltirilishi asarning g‘oyasini tashkil etadi. Bu yerda adib o‘tmish va bugunni bog‘laydi. Yozuvchi Keldiboy oqsoqol obrazi Non ber otaning davomchisi sifatida ularning qonida shu ruh bor ekanligini ko‘rsatadi.

Hikoya so‘ngidagi zamonaviy qasrlar va loy ko‘chalar ziddiyati bir biriga qarshi qo‘yiladi. Shahardagi baland va hashamatli uylarning ko‘chalari loy, toshloq ekanligi hozirgi kunda G‘aybar momo va Keldiboy oqsoqol kabi insonlarning yo‘qolib ketganligidan dalolatdir. Yozuvchi *“Vijdoni bo‘lsa qaytib kelib uni oladi...“* [S.O‘nar . Vijdon. Hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Akademnashr, 2015. 25-bet] degan jumlani oddiy bir axlat tashlash epizodida ishlatsa-da, bu gap aslida butun jamiyatga qaratilgan. Milliardlab pullarni sarflab uy qurgan, lekin darvozasi oldidagi loy yo‘lni tuzatishga kelganda “vijdoni uxlagan” kimsalar obrazi orqali bugungi kundagi ayanchli holatlarni ko‘rsatadi. Vijdon – bu faqat o‘zining emas, balki elning dardiga yarashdir.

Sobir O‘narning ushbu hikoyasi bizga shuni o‘rgatadiki, vijdon – bu oddiy tushuncha emas, balki momolarimizning duosi, oqsoqollarimizning himmati va ko‘chamizning tozaligidir. Adib milliy xarakterni aynan mana shu mayda ko‘ringan, ammo hayotiy muhim bo‘lgan detallar orqali kashf etgan. G‘aybar momo va Keldiboy ota timsollari orqali jamiyatdagi loqaydlikka qarshi turuvchi, ma’naviy butunlikni saqlab qolgan insonlar obrazi gavdalanadi. Hikoya yakunidagi zamonaviy qasrlar va loy ko‘chalar ziddiyati kitobxonni bugungi kunning ma’naviy qiyofasi haqida jiddiy mushohada yuritishga chorlaydi. Xulosa qilib aytganda, adib milliy qadriyatlarni tarixiy xotira bilan bog‘lagan holda, insonning jamiyat va o‘z vijdoni oldidagi mas’uliyatini yuksak mahorat bilan tasvirlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirvaliyev, B. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
2. S.O‘nar. Vijdon. Hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
3. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

Nozima PIRMAMATOVA,
Osiyo texnologiyalar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti magistranti
nozimapirmamatova660@gmail.com



QADIMGI TURKIY QATLAMGA MANSUB TOPONIMLAR VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Qashqadaryo hududi toponimiyasida saqlanib qolgan qadimgi turkiy qatlamga mansub geografik nomlar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi turkiy toponimlarning shakllanish manbalari, fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari yoritilib, ularning tarixiy-etnolingvistik ahamiyati asoslab beriladi. Qadimgi turkiy leksik birliklarning hozirgi toponimlarda saqlanib qolish sabablari hamda ularning hududiy madaniyat va etnik tarix bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Maqola natijalari o‘zbek toponimiyasining tarixiy qatlamlarini aniqlash va tizimlashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *toponimiya, qadimgi turkiy qatlam, Qashqadaryo, etnolingvistika, leksik indikator, geografik nom.*

Аннотация: в данной статье проводится лингвистический анализ географических названий, относящихся к древнетюркскому слою, сохранившихся в топонимии Кашкадарьинского региона. В исследовании освещаются источники формирования древнетюркских топонимов, их фонетические, морфологические и семантические особенности, а также обосновывается их историко-этнолингвистическое значение. Раскрываются причины сохранения древнетюркских лексических единиц в современной топонимии и их связь с региональной культурой и этнической историей. Результаты статьи имеют важное теоретическое и практическое значение для выявления и систематизации исторических слоёв узбекской топонимии.

Annotation: this article presents a linguistic analysis of geographical names belonging to the Old Turkic layer preserved in the toponymy of the Kashkadarya region. The study examines the sources of formation of Old Turkic toponyms and analyzes their phonetic, morphological, and semantic characteristics, substantiating their historical and ethnolinguistic significance. The paper also explores the reasons for the preservation of Old Turkic lexical units in modern toponymy and their connection with regional culture and ethnic history. The findings of the article are of significant theoretical and practical importance for identifying and systematizing the historical layers of Uzbek toponymy.

Toponimlar til tarixining eng qadimiy va barqaror qatlamlaridan biri hisoblanadi. Geografik nomlar uzoq tarixiy davrlar davomida saqlanib qolishi bilan ajralib turadi va ular orqali ma’lum hududning etnik tarkibi, madaniy hayoti, tarixiy jarayonlari haqida muhim ma’lumotlar olish mumkin. Shu jihatdan, toponimlar tilshunoslikda nafaqat nominativ birlik sifatida, balki tarixiy-lingvistik manba sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Qashqadaryo hududi Markaziy Osiyoning qadimgi turkiy aholi yashagan mintaqalaridan biri bo‘lib, bu yerda shakllangan toponimlarning salmoqli qismi qadimgi turkiy qatlamga mansubdir. Ushbu toponimlar hududning qadimgi etnik tarkibi, xo‘jalik faoliyati, tabiiy-geografik xususiyatlari hamda madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Qashqadaryo toponimiyasida uchraydigan qadimgi turkiy qatlamga mansub nomlarni aniqlash va ularning lingvistik xususiyatlarini kompleks tahlil qilishdan iborat.

Qadimgi turkiy qatlam deganda, miloddan avvalgi davrlardan boshlab o‘rta asrlargacha bo‘lgan tarixiy bosqichlarda turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan va hozirgi kungacha saqlanib qolgan leksik birliklar tushuniladi. Toponimiyada bu qatlam, asosan, tabiiy obyektlar, joylashuv xususiyatlari, suv manbalari, relyef shakllari va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq nomlarda namoyon bo‘ladi.

Qadimgi turkiy toponimlar ko‘pincha sodda, semantik jihatdan aniq va bevosita real obyektni ifodalovchi birliklar bo‘lib, ular uzoq vaqt davomida fonetik va semantik jihatdan kam o‘zgarishga uchragan.

Qashqadaryo hududi toponimiyasida qadimgi turkiy leksik asoslar keng uchraydi. Jumladan, *soy, tog‘, qir, tepa, buloq, ariq, jar* kabi umumturkiy leksemalar toponimlar tarkibida faol qatnashadi. Bu birliklar hududning tabiiy-geografik sharoiti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, qadimgi aholi tomonidan joy nomlashda asosiy indikator vazifasini bajargan. Masalan, *Qirsoy, Oqtog‘, Beshtepa, Qiziljar* kabi toponimlarda qadimgi turkiy leksik birliklarning nominativ va tasviriy vazifasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu holat toponimlarning semantik shaffofligini ta’minlaydi.

Qadimgi turkiy qatlamga mansub toponimlarning fonetik tuzilishida turkiy tillarga xos fonetik qonuniyatlar saqlanib qolgan. Jumladan, unlilar uyg‘unligi, jarangli va jarangsiz undoshlarning muvozanati, fonetik soddalik kabi xususiyatlar kuzatiladi.

Ko‘plab toponimlarda qadimgi fonetik shakl hozirgi shevalar orqali saqlanib qolgan. Masalan, *q* va *k*, *g‘* va *g* tovushlarining almashinuvi hududiy fonetik xususiyatlarni aks ettiradi. Bu holat qadimgi toponimlarning tirik til bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Qadimgi turkiy toponimlar morfologik jihatdan sodda va qo‘shma tuzilishga ega bo‘ladi. Sodda toponimlar birgina leksik asosdan tashkil topgan bo‘lsa, qo‘shma toponimlar ikki yoki undan ortiq komponentlardan iborat bo‘ladi. Masalan, *Oqtog‘* (rang + relyef), *Beshtepa* (son + relyef), *Qorasoy* (rang + suv obyektlari) kabi toponimlar qadimgi turkiy so‘z yasash modelini aks ettiradi. Bu modellar hozirgi o‘zbek tilida ham faol bo‘lib, ularning tarixiy davomiyligini ko‘rsatadi.

Qadimgi turkiy toponimlarning semantikasi asosan konkret va tasviriy xarakterga ega. Rang, hajm, shakl, joylashuv, tabiiy holat kabi belgilarga asoslangan nomlash qadimgi turkiy toponimlar uchun xosdir. Masalan, *Qiziltepa* rang belgisi asosida, *Uzunqir* shakl va hajm asosida, *Pastariq* joylashuv asosida nomlangan. Bu toponimlar real geografik obyektning muhim belgisini ifodalab, kommunikativ jihatdan qulaylik yaratgan.

Qadimgi turkiy qatlamga mansub toponimlar hududda yashagan turkiy qabilalar va elatlarning etnik tarixini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ayrim toponimlar urug‘-qabila nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning joylashuv hududini aniqlash imkonini beradi.

Bu toponimlar orqali hududning etnik tarkibi, ko‘chmanchi va o‘troq madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar ham aks etadi. Shu jihatdan, qadimgi turkiy toponimlar nafaqat lingvistik, balki tarixiy-etnografik manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Qashqadaryo toponimiyasida qadimgi turkiy qatlam yetakchi o‘rin egallaydi. Ushbu toponimlar hududning eng qadimgi nomlash an’analarini aks ettirib, keyingi davr qatlamlari uchun asos vazifasini bajargan. Qadimgi turkiy qatlamning barqarorligi uning semantik shaffofligi va real obyekt bilan bevosita bog‘liqligi bilan izohlanadi.

Qashqadaryo toponimiyasida qadimgi turkiy qatlamga mansub geografik nomlar til tarixining muhim va barqaror qatlamini tashkil etadi. Ular fonetik, morfologik va semantik jihatdan turkiy tillarga xos xususiyatlarni saqlab qolgan holda, hududning tarixiy, madaniy va etnik taraqqiyotini aks ettiradi. Qadimgi turkiy toponimlarning lingvistik tahlili o‘zbek toponimiyasining tarixiy ildizlarini aniqlash va milliy onomastik tizimni chuqurroq o‘rganish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Qashqadaryo toponimiyasida qadimgi turkiy qatlam yetakchi va barqaror o‘rin egallashi mazkur hududning etnik, tarixiy va madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu qatlamga mansub geografik nomlar hududda yashagan qadimgi turkiy qabilalar va elatlarning dunyoqarashi, xo‘jalik faoliyati hamda tabiatni idrok etish usullarini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba hisoblanadi. Toponimlarning uzoq tarixiy davrlar davomida saqlanib qolishi ularning real geografik obyektlar bilan bevosita bog‘liqligi va semantik jihatdan shaffofligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo hududida uchraydigan ko‘plab toponimlar qadimgi turkiy leksik asoslar yordamida shakllangan bo‘lib, ular keyingi davrlarda yuzaga kelgan toponimik qatlamlar uchun nominativ va semantik asos vazifasini bajargan. Qadimgi turkiy toponimlar, asosan, tabiiy-geografik obyektlar — tog‘, tepa, qir, soy, buloq, jar kabi landshaft unsurlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat qadimgi aholi uchun tabiatning muhim orientir sifatida xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Qadimgi turkiy qatlamga mansub toponimlarning fonetik xususiyatlari turkiy tillarga xos fonologik qonuniyatlarning saqlanib qolganini tasdiqlaydi. Ularning ko‘pchiligi sodda va ixcham tuzilishga ega bo‘lib, fonetik jihatdan murakkab o‘zgarishlarga uchramagan. Morfologik jihatdan esa bunday toponimlar sodda va qo‘shma tuzilmalar asosida shakllangan bo‘lib, rang, hajm, shakl, son va joylashuvni bildiruvchi komponentlar faol qo‘llanilgan. Bu holat qadimgi turkiy nomlash an’analarining tizimli va mantiqiy asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Semantik jihatdan qadimgi turkiy toponimlar aniq, konkret va tasviriy xarakterga ega. Ular geografik obyektning eng muhim belgilarini aks ettirganligi sababli kommunikativ jihatdan qulay bo‘lgan va avloddan avlodga o‘zgarishsiz yetib kelgan. Aynan shu semantik aniqlik va shaffoflik qadimgi turkiy qatlamning barqarorligini ta’minlagan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, qadimgi turkiy toponimlar Qashqadaryo hududining etnik tarixini o‘rganishda muhim etnolingvistik manba vazifasini bajaradi. Ular orqali hududda yashagan turkiy aholi qatlamining joylashuvi, migratsion jarayonlari va madaniy aloqalari haqida muayyan xulosalar chiqarish mumkin. Shu bois qadimgi turkiy toponimlarning lingvistik tahlili nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 1981.
2. Ҳожиев А. Ўзбек тили тарихи ва лексик қатламлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
3. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973.
4. Назаров А. Ўзбек топонимияси. – Тошкент: Фан, 2004.
5. Баскаков Н.А. Тюркская топонимия и этническая история. – Москва: Наука, 1985.
6. Қораев С. Қашқадарё вилояти тарихи ва топонимияси. – Қарши, 2010.

Yulduz RASHIDOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti magistranti
Azimjonovmirziyo2@gmail.com

MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘ZBEK TILI TERMINOLOGIYASIDA YANGI TERMINLARNING YUZAGA KELISHI VA MANBALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada mustaqillik davrida o‘zbek tili terminologiyasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, yangi terminlarning shakllanish omillari hamda ularning asosiy manbalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqillik davri o‘zbek terminologiyasi alohida ijtimoiy-lingvistik rivojlanish bosqichi sifatida qaraladi va uning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Yangi terminlarning yuzaga kelishida o‘zbek tilining ichki so‘z yasash imkoniyatlari, tarixiy-milliy leksikaning qayta faollashuvi, xorijiy tillardan o‘zlashmalar, shuningdek, tarjima va kalkalash jarayonlarining roli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari mustaqillik davrida terminologik tizimning milliylik va globallik omillari uyg‘unligi asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Maqola xulosalari o‘zbek tili terminologiyasini me’yorlashtirish, tizimlashtirish va normativ lug‘atlar yaratish jarayonida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *terminologiya, mustaqillik davri, o‘zbek tili, yangi terminlar, termin manbalari, me’yorlashuv.*

Annotation: this article analyzes the major changes in Uzbek linguistic terminology during the period of independence, focusing on the factors and sources that led to the emergence of new terms. The study considers the terminology of the independence period as a distinct socio-linguistic stage of development and highlights its specific features. It is demonstrated that new terms were formed on the basis of the internal word-formation resources of the Uzbek language, the reactivation of historical and national lexical units, borrowings from foreign languages, as well as translation and calquing processes. The findings reveal that the terminology of the independence period developed through the interaction of national and global linguistic factors. The conclusions of the article have significant theoretical and practical value for the standardization, systematization, and further development of Uzbek linguistic terminology.

Keywords: *terminology, period of independence, Uzbek language, new terms, term sources, standardization.*

Аннотация: в данной статье анализируются основные изменения, произошедшие в терминологии узбекского языка в период независимости, а также факторы и источники формирования новых терминов. Терминология периода независимости рассматривается как самостоятельный социолингвистический этап развития, обладающий специфическими особенностями. В работе обосновывается, что новые термины формировались на основе внутренних словообразовательных возможностей узбекского языка, активизации историко-национальной лексики, заимствований из иностранных языков, а также посредством переводческих и калькирующих процессов. Результаты исследования показывают, что терминологическая система периода независимости развивалась в условиях взаимодействия национальных и глобальных факторов. Выводы статьи имеют важное теоретическое и практическое значение для нормализации, систематизации и дальнейшего развития терминологии узбекского языка.

Ключевые слова: *терминология, период независимости, узбекский язык, новые термины, источники терминов, стандартизация.*

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub burilish yasadi. Ushbu jarayon o‘zbek tilining jamiyatdagi mavqeyi va funksional imkoniyatlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Davlat tili maqomiga ega bo‘lgan o‘zbek tili barcha sohalarda to‘laqonli aloqa vositasiga aylana boshladi. Natijada ilm-fan, huquq, siyosat, iqtisod, texnologiya va ta’lim sohalarida yangi tushunchalarni ifodalash zarurati yuzaga keldi. Bu ehtiyoj, avvalo, terminologik tizimning jadal rivojlanishini taqozo etdi. Sovet davrida terminologiya asosan, rus tili orqali shakllangan bo‘lsa, mustaqillik sharoitida milliy til asosida termin yaratish va ularni me’yorlashtirish masalasi dolzarb vazifaga aylandi. Shu bois mustaqillik davri o‘zbek tili terminologiyasi ilmiy jihatdan alohida tadqiqot obyektiga aylandi.

Mustaqillik davrida o‘zbek tili terminologiyasi tub sifat o‘zgarishlarini boshdan kechirdi. Davlat mustaqilligi sharoitida o‘zbek tilining ijtimoiy funksional imkoniyatlari kengayib, u ilm-fan, huquq, siyosat, iqtisod, texnologiya va ta’lim sohalarida yetakchi aloqa vositasiga aylandi. Natijada yangi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy tushunchalarni ifodalash ehtiyoji yuzaga kelib, terminologik tizim faol ravishda boyidi. Ushbu davr terminologiyasining shakllanishida ichki til imkoniyatlari asosida so‘z yasash, tarixiy va milliy leksikaning qayta faollashuvi, xorijiy tillardan o‘zlashmalar hamda kalkalash usuli muhim

manba sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, globallashuv va axborot texnologiyalarining rivoji natijasida ingliz tili orqali kirib kelgan terminlar o‘zbek terminologik tizimida muhim o‘rin egalladi. Shu bilan birga, terminlarni me’yorlashtirish va milliy til tabiatiga moslashtirish masalasi mustaqillik davri terminologiyasining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tahliliy, semantik va funksional usullardan foydalanildi. Material sifatida mustaqillik yillarida yaratilgan terminologik lug‘atlar, ilmiy adabiyotlar, rasmiy hujjatlar va ilmiy maqolalar tanlandi. Terminlar manbai va yasalish usullarini aniqlashda leksikologik va terminologik yondashuv asos qilib olindi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mustaqillik davrida terminologik yangilanish bir necha asosiy omillar ta’sirida yuzaga kelgan. Avvalo, siyosiy mustaqillik bilan bog‘liq yangi boshqaruv tizimi va huquqiy munosabatlar terminlar tizimini boyitdi. Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni iqtisodiy va moliyaviy terminlarning faol shakllanishiga sabab bo‘ldi. Uchinchidan, fan va texnika, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji ilmiy-texnik terminologiyaning jadal kengayishiga olib keldi.

Mustaqillik davrida o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlari termin yaratishda faol qo‘llanildi. Affiksatsiya va semantik kengayish orqali *raqamlashtirish, axborotlashtirish, xususiylashtirish, raqobatbardoshlik* kabi terminlar yuzaga keldi. Ushbu terminlar til tizimiga mosligi bilan ajralib turadi. *Ma’naviyat, ma’rifat, adolat, meros* kabi tarixiy birliklar zamonaviy mazmun bilan boyib, terminologik tizimga qayta kirdi. Bu holat terminologiyaning milliy qiyofasini mustahkamladi.

Ingliz va rus tillaridan kirib kelgan *marketing, menejment, investitsiya, innovatsiya* kabi terminlar zamonaviy sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Ularning ayrimlari milliylashgan, ayrimlari esa asl shaklini saqlab qolgan.

Inson huquqlari, axborot xavfsizligi, elektron hukumat kabi terminlar tarjima va kalkalash yo‘li bilan shakllandi. Bu usul terminlarning tushunarli va milliy tilga mos bo‘lishini ta’minladi.

Olingan natijalar mustaqillik davri terminologiyasi rivoji milliy va global omillarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Ichki imkoniyatlar asosida yaratilgan terminlar barqarorlikka ega bo‘lsa, xorijiy terminlar tezkor ehtiyojni qondiradi. Shu bilan birga, sinonim terminlarning ko‘pligi va me’yorlashuv muammosi ilmiy yechimni talab qiladi. Mustaqillik davri o‘zbek tili terminologiyasi rivojining sifat jihatdan yangi bosqichini tashkil etadi. Yangi terminlar ichki til imkoniyatlari, tarixiy-milliy leksika, xorijiy o‘zlashmalar va tarjima jarayonlari asosida shakllandi. Bu jarayon o‘zbek tilining ilmiy va rasmiy muloqotdagi salohiyatini sezilarli darajada oshirdi.

Mustaqillik davri o‘zbek tili terminologiyasi rivojining sifat jihatdan yangi bosqichini tashkil etadi. Ushbu davrda tilning ijtimoiy funksiyalarining kengayishi natijasida ilm-fan, huquq, siyosat, iqtisod, texnologiya va ta’lim sohalarida yangi tushunchalarni ifodalash zarurati yuzaga keldi. Bu ehtiyoj o‘zbek tili terminologik tizimining jadal boyishiga, yangi terminlarning yuzaga kelishiga va mavjud terminlarning qayta ko‘rib chiqilishiga sabab bo‘ldi. Mustaqillik davrida yangi terminlar bir yo‘nalishda emas, balki turli manbalar asosida shakllangan. Jumladan, o‘zbek tilining ichki so‘z yasash imkoniyatlari asosida yaratilgan terminlar terminologiyaning barqaror va milliy xususiyatga ega qatlamini tashkil etadi. Tarixiy va milliy leksikaning qayta faollashuvi esa terminologik tizimning milliy qiyofasini mustahkamlab, tilning madaniy va ma’naviy salohiyatini aks ettiruvchi birliklarning keng qo‘llanishiga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, globallashuv jarayoni xorijiy tillardan, ayniqsa ingliz tilidan o‘zlashgan terminlarning ko‘payishiga olib keldi. Bunday terminlar zamonaviy ilmiy va texnologik ehtiyojlarni tezkor qondirishi bilan ahamiyatli bo‘lsa-da, ular bilan bog‘liq me’yorlashuv va sinonimlik muammolari ham yuzaga kelmoqda. Tarjima va kalkalash yo‘li bilan yaratilgan terminlar esa milliy til tabiatiga mosligi va tushunarliligi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, mustaqillik davri o‘zbek tili terminologiyasi milliy va global omillarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllangan murakkab va serqirra tizimdir. Terminlarni tizimlashtirish, me’yorlashtirish va normativ lug‘atlar asosida mustahkamlash kelgusida ham dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qoladi. Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek terminologiyasining nazariy va amaliy muammolarini hal etishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожиев А. Ўзбек тили терминологияси масалалари. – Тошкент: Фан, 2002.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006.
3. Тўйчиева Г. Ўзбек тили маънавий-маърифий лексикасининг мустақиллик йилларидаги тараққиёти. – Қарши, 2016.
4. Crystal D. Language and Globalization. – Cambridge, 2003.

Mahbuba KUCHAROVA,
Osiyo texnologiyalar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti magistranti

KO‘Z KOMPONENTLI IBORALARDA MILLIY-MADANIY BELGILAR IFODASI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilidagi ko‘z komponentli iboralar lingvomadaniy va kognitiv nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqotda barqaror birikmalarning paremiologik fond tarkibida o‘rganilishi, somatik komponent tushunchasi hamda ko‘z leksemasining semantik va ramziy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ko‘z komponentli iboralarning axloqiy, ijtimoiy va estetik qadriyatlarni ifodalashdagi o‘rni ochib berilib, ularning milliy mentalitet bilan bog‘liqligi asoslanadi. Shuningdek, frazeologik birliklar yadro–periferiya modeli asosida tizimlashtirilib, markaziy va chekka semantik qatlamlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari ko‘z komponentli iboralarning xalq madaniy xotirasi va milliy dunyoqarashni aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, somatik komponent, ko‘z iboralari, paremiologiya, lingvomadaniyat, yadro–periferiya modeli.*

Аннотация: в данной статье фразеологические единицы с компонентом *глаз* в узбекском языке рассматриваются с лингвокультурологической и когнитивной точек зрения. В исследовании анализируется изучение устойчивых сочетаний в составе паремиологического фонда, понятие соматического компонента, а также семантические и символические возможности лексемы *глаз*. Раскрывается роль фразеологизмов с компонентом *глаз* в выражении нравственных, социальных и эстетических ценностей и обосновывается их связь с национальным менталитетом. Кроме того, фразеологические единицы систематизируются на основе модели «ядро–периферия», в результате чего выделяются центральные и периферийные семантические слои. Результаты исследования показывают, что фразеологизмы с компонентом *глаз* являются значимыми лингвокультурными единицами, отражающими культурную память и национальное мировоззрение народа.

Ключевые слова: *фразеология, соматический компонент, фразеологизмы с компонентом «глаз», паремиология, лингвокультура, модель «ядро–периферия».*

Annotation: this article examines Uzbek phraseological units containing the *eye* component from linguocultural and cognitive perspectives. The study analyzes the investigation of stable expressions within the paremiological fund, the concept of the somatic component, as well as the semantic and symbolic potential of the lexeme *eye*. The role of eye-related phraseological units in expressing moral, social, and aesthetic values is revealed, and their connection with the national mentality is substantiated. In addition, phraseological units are systematized according to the core–periphery model, which makes it possible to identify central and peripheral semantic layers. The findings demonstrate that phraseological units with the *eye* component are significant linguocultural units that reflect the cultural memory and national worldview of the people.

Key words: *phraseology, somatic component, eye-related idioms, paremiology, linguoculture, core–periphery model.*

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy va kognitiv jihatdan o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, somatik komponentli iboralar insonning dunyoni idrok etishi, baholashi va anglash jarayonlarini til orqali ifodalovchi muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Bunday birliklar orasida *ko‘z* komponenti asosida shakllangan iboralar o‘zbek tilining frazeologik tizimida alohida o‘rin tutadi. Ko‘z obrazi xalq tafakkurida idrok, ong, e’tibor, axloqiy nazorat va estetik qarashlar bilan chambarchas bog‘langan ramziy birlikdir.

Ko‘z komponentli iboralarning nazariy asoslarini yoritishda, avvalo, frazeologiya va lingvo-madaniyatshunoslik doirasida **somatik komponent** tushunchasining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Somatik birliklar inson tanasi a’zolari nomlari asosida shakllangan bo‘lib, til tizimida nafaqat nominativ, balki kuchli semantik, kognitiv va madaniy yuklama tashuvchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Tilshunoslikda somatik komponentli iboralar insonning ichki dunyosi, ijtimoiy tajribasi va milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, ko‘z leksemasi asosida shakllangan iboralar tilning frazeologik qatlamida eng faol va sermazmun birliklar sirasiga kiradi.

Ko‘z leksemasining semantik imkoniyatlari nihoyatda keng bo‘lib, u idrok, bilish, e’tibor, baholash, nazorat, munosabat va emotsional holatlarni ifodalashda qatnashadi. Ko‘z nafaqat ko‘rish a’zosi, balki ong va tafakkur bilan uzviy bog‘langan ramziy birlik sifatida talqin qilinadi. Shu sababli ko‘z obrazining ramziy va metaforik talqini xalq dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va estetik qarashlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ko‘z bilan bog‘liq iboralarda

ko‘pincha ochiqlik–yopiqlik, bilish–bilmaslik, hushyorlik–befarqlik kabi semantik oppozitsiyalar namoyon bo‘ladi.

Ko‘z komponentli iboralar frazeologik jihatdan barqarorlik darajasi, struktur va semantik xususiyatlariga ko‘ra turlicha tasniflanadi. Ular orasida barqaror iboralar, frazeologik birikmalar hamda metaforik asosga ega birliklar uchraydi. Struktur-semantik jihatdan bu iboralar oddiy, murakkab va tasviriy shakllarda namoyon bo‘lib, ijobiy yoki salbiy konnotatsiyani ifodalaydi. Ijobiy konnotatsiyali iboralar hurmat, mehr va e’zozni bildirsa, salbiy konnotatsiyali birliklar ochko‘zlik, befarqlik yoki manmanlikni ifodalaydi.

Kognitiv nuqtayi nazardan ko‘z obrazi idrok va ong markazi sifatida qaraladi. Ko‘z orqali baholash kategoriyasi shakllanib, shaxsning voqelikka munosabati til vositasida ifodalanadi. Shuningdek, ko‘z komponentli iboralar quvonch, g‘azab, qo‘rquv, hayrat kabi emotsional holatlarni obrazli tarzda yetkazib, tilning ekspressiv imkoniyatlarini boyitadi.

Ko‘z komponentli iboralarda milliy-madaniy belgilar ifodasi o‘zbek tilining frazeologik tizimida axloqiy, ijtimoiy va estetik qadriyatlarning mujassam holda namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bunday iboralar xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy tajribasi, urf-odatlari va ijtimoiy munosabatlarini obrazli tarzda ifodalovchi muhim lingvomadaniy birliklar sanaladi. Ko‘z obrazi orqali, avvalo, hurmat va odob tushunchalari ifodalanadi. O‘zbek mentalitetida ko‘z bilan bog‘liq birliklar insonning boshqalarga bo‘lgan munosabati, kattaga ehtirom, kichikka mehr kabi axloqiy mezonlarni ko‘rsatadi. Bu holat ko‘zning nafaqat fiziologik a’zo, balki axloqiy nazorat va baholash vositasi sifatida talqin qilinishini anglatadi.

Ko‘z komponentli iboralarda ijtimoiy munosabatlar va mentalitet masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Jamoaviylik va ijtimoiy nazorat tushunchalari ko‘z obrazi orqali ifodalanib, jamiyat a’zolarining bir-biriga mas’uliyati va e’tibori aks ettiriladi. Oila va qarindoshlik munosabatlarida esa ko‘z mehr, e’zoz va himoya ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. An’anaviy jamiyat tafakkurida ko‘z ramzi hushyorlik, ogohlik va mas’uliyat bilan bog‘lanib, ijtimoiy hayotning muhim tayanchlaridan biri sifatida qaraladi.

Badiiy va poetik diskursda ko‘z komponentli iboralar estetik va emotsional ta’sirni kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Adabiy matnlarda, shuningdek, maqol va matallarda ko‘z obrazi orqali milliy-estetik qadriyatlar, hayotga munosabat va xalqona falsafa obrazli tarzda ifodalanib, tilning madaniy xotirasini boyitadi.

Ko‘z komponentli iboralarning yadro–periferiya modeli frazeologik birliklarning semantik tashkilini hamda ularning lingvomadaniy yukini tizimli tarzda ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu model doirasida ko‘z leksemasi asosidagi frazeologik birliklarning markaziy va chekka qatlamlari aniqlanib, ularning mazmuniy barqarorligi va funksional faolligi baholanadi. Frazeologik yadroni tashkil etuvchi birliklar ko‘zning eng asosiy va barqaror semantik belgilarini mujassamlashtiradi. Bular, avvalo, idrok, ko‘rish, e’tibor, ongli baholash va nazorat bilan bog‘liq ma’nolar bo‘lib, ko‘zning fiziologik vazifasidan kelib chiqqan holda abstrakt va kognitiv tushunchalarga ko‘chganini ko‘rsatadi. Yadro birliklar semantik jihatdan aniq, keng tarqalgan va til tizimida faol qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Ular nutqda axborot berish, baholash va munosabat bildirish funksiyalarini bajarib, umumxalq til tafakkurining asosiy tayanch nuqtalarini ifodalaydi.

Ko‘z komponentli iboralarning lingvomadaniy modeli konseptual xarita va jadval asosida tahlil qilinganda, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu modelda ko‘z obrazi milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy tajriba bilan chambarchas bog‘langan konsept sifatida namoyon bo‘lib, frazeologik tizim orqali xalq madaniy xotirasini saqlovchi muhim vosita vazifasini bajaradi.

Yadro–periferiya modeli asosida olib borilgan tahlil ko‘z komponentli iboralarning semantik tashkilini aniq ko‘rsatib beradi. Frazeologik yadroni tashkil etuvchi birliklar idrok, e’tibor va ong bilan bog‘liq asosiy ma’nolarni mujassamlashtirsa, periferiya birliklari ko‘z obrazining metaforik va ramziy talqinlarini aks ettiradi. Natijada ko‘z komponentli iboralar xalqning madaniy xotirasini saqlovchi, milliy mentalitetni ifodalovchi muhim lingvistik vosita ekanligi tasdiqlandi. Ushbu tadqiqot natijalari frazeologiya, lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv lingvistika yo‘nalishlarida olib boriladigan keyingi izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Пермяков Г. Л.** Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.
2. **Кунин А. В.** Фразеология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – 381 с.
3. **Телия** В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
4. **Маслова В. А.** Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
5. **Рахматуллаев Ш.** Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Фан, 1978. – 408 б.
6. **Йўлдошев** Б. Ўзбек тилида соматик фразеологизмлар. – Тошкент: Университет, 2004. – 156 б.
7. **Сафаров Ш.** Когнитив тилшунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2013. – 224 б.

Iroda BAHRONOVA,
NavDU Tillar fakulteti Lingvistika mutaxassisligi
1-bosqich magistranti



BOLALAR NUTQINING SOTSIOLINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon tilshunosligida bolalar nutqi bo‘yicha olib borilayotgan sotsiolingvistik tadqiqotlar, uning o‘rganilishi, bola nutqining shakllanishida ijtimoiy muhit, ota-onaning roli, muloqot jarayonining muhim ekanligiga e’tibor qaratiladi. Bolalar nutqining sotsiolingvistik xususiyatlarini yoritish, ijtimoiy omillar, yosh, muhit va kommunikativ vaziyatning roli muammosini tadqiq etishning samarali usullari haqida fikr yuritiladi. O‘zbek va turk bolalar nutqi misolida sotsiolingvistik tadqiqotning jamiyatda ta’lim va tarbiya sohasi uchun muhim ekanligi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *jamiyat, til, sotsiolingvistika, ijtimoiy omil, nutqiy me’yor, sotsiolingvistik aspekt, muloqot, lingvistik omil, muhit, yosh, muomala, verbal, noverbal, nutqiy xulq.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются социолингвистические исследования детской речи, проводимые в мировой лингвистике, особенности их изучения, а также обращается внимание на роль социальной среды, родителей и значимость коммуникативного процесса в формировании речи ребёнка. Освещаются социолингвистические характеристики детской речи, анализируется роль социальных факторов, возраста, среды и коммуникативной ситуации, а также обсуждаются эффективные методы исследования данных проблем. На примере детской речи узбекских и турецких детей показана важность социолингвистических исследований для сферы образования и воспитания в обществе.

Ключевые слова: *общество, язык, социолингвистика, социальный фактор, речевая норма, социолингвистический аспект, коммуникация, лингвистический фактор, среда, возраст, общение, вербальный, невербальный, речевое поведение.*

Annotation: this article examines sociolinguistic studies of child speech conducted in world linguistics, the specifics of their investigation, and highlights the role of the social environment, parents, and the importance of the communicative process in the formation of a child’s speech. The sociolinguistic characteristics of child speech are described, and the role of social factors, age, environment, and communicative situation is analyzed. Effective methods for studying these issues are also discussed. Using the example of Uzbek and Turkish children’s speech, the article demonstrates the significance of sociolinguistic research for the fields of education and upbringing in society.

Key words: *society, language, sociolinguistics, social factor, speech norm, sociolinguistic aspect, communication, linguistic factor, environment, age, interaction, verbal, nonverbal, speech behavior.*

Jahon tilshunosligida bolalar nutqini sotsiolingvistik aspektda o‘rganish dolzarb muammolardan biri bo‘lib, tilni inson omili va jamiyat bilan bog‘liq holda tadqiq etish tendensiyasiga asoslanadi. Bolalar nutqining sotsiolingvistik aspekti keng qamrovli muammolarni qamrab olsa-da, bolalar tomonidan yaratilgan shaxs munosabatlarini ifodalovchi birliklar, makon va zamon omillarining sotsiolingvistik voqelanishi, baholash va emotsional birliklarning ijtimoiy xoslanishiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ular nutqida qo‘llangan birliklarning sotsiolingvistik xususiyatlarini yoritish, ijtimoiy omillar, yosh, muhit va kommunikativ vaziyatning roli muammosini tadqiq etish diqqat markazida bo‘ladi.

Ijtimoiylashuv jarayonida bolaning ona tiliga oid nutqiy me’yorlarni o‘zlashtirish ko‘nikmasi so‘zlashuv uslubiga asoslangan verbal muloqot asosida shakllanadi. Nutqiy xulq va lingvistik

xususiyatning yuzaga kelishi natijasida bola aqlan va ma’nan rivojlanib, atrof-muhitdagi voqealarning mazmunini anglashga intiladi. Bolada nutqning rivojlanishi uning ruhiy va ijtimoiy takomillashuvini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, bola ma’naviy saviyasi va intellektual rivojining ortishiga yordam beradi. K.D.Ushinskiyning pedagogikaga oid tadqiqotida[1] bolani ona tiliga xos so‘zlar orqali tarbiyalash masalasiga alohida urg‘u beriladi. Olimning ta’kidlashicha, xalqqa xos xususiyatlar dastlab ona tilida o‘z ifodasini topadi. Bolaning shaxsiyati, bilimi, malakasi va ma’naviy qiyofasi shu til ta’sirida shakllanadi. Albatta, bunda oiladagi doimiy muloqot muhiti muhim o‘rinda turadi. Shu doirada olib borilgan ilmiy tajribalarda aksariyat oilalarda farzandlar bilan muloqot jarayoni kamligi, nutqi ustida ishlanmasligi kuzatiladi. Bu esa kelajakda nutq rivojlanishining vaqtida kechishi, ijtimoiy muloqotga kirishimliligi, davra suhbatlari yoki bahs-munozarada o‘z fikrini erkin bayon qila olish kabi xususiyatlarining cheklanishiga sabab bo‘ladi. Xususan, besh nafar farzandi nutqini muntazam ravishda kuzatib borgan I.A.Boduen de Kurtene qaydlari, bolgar tilshunosi I.Georgevning ilmiy ishlarida bolalar lisoniy ongining rivojlanishi hamda bolalar tafakkuri va xulqiga ta’siri bilan bog‘liq muammolar aynan shu nuqtayi nazardan talqin qilinadi. De Mak-Karti esa bolalar nutqini tadqiq qilishda masalaga kompleks holda yondashadi. Uning tadqiqotida bolalar nutqining lingvistik, ijtimoiy va shaxsiy jihatlariga e’tibor qaratiladi[2].

Bolalar nutqi dastlab fonetik, leksik jihatdan shakllansa, sotsiolingvistik, ya’ni jamiyat bilan til vositasida aloqaga kirishuv jarayoni keyinchalik shakllanadi. Bola avval oiladagi yaqinlari bilan, so‘ng tengdoshlari bilan muloqot qiladi. Shu tarzda kundalik hayotdagi muloqot uslubi, ijtimoiy muomala tarzi, psixologik xususiyatlari yuzaga keladi.

Bolalar nutqining sotsiolingvistik tadqiqi ta’lim va tarbiya sohasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilida bolalarga kattaga hurmat shakli sifatida sizlash, bevosita buyruq bermaslik, muloyim gapirish, kichiklarga izzat kabi odat yoshlikdan singdiriladi. Boshqa millatda, xususan, turk tilida bolalarga fikrini erkin va mustaqil tarzda bildirish, o‘z istaklarini ochiq-oydin aytish o‘rgatiladi. Yana bir jihati ularda kattalar tomonidan bolalarga nisbatan nutqiy tuzatishlar kam uchraydi. O‘xshash tomonlari esa har ikki millat bolalari nutqida ham iltimos, buyruq shakllari bir-biriga yaqin. Masalan, o‘zbek bolalari *“Koptokni uzatib yuborasanmi?”* desa, turk tilida*“Topu atar mısın?”, Topu verir misin?”* tarzida qo‘llanadi.

Ikki tildagi muloqot strategiyalari turlicha shaklga ega. Turk bolalari muloqot jarayonida ko‘pincha kattalarga hissiyotlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalaydi. Ular e’tirozlarini ochiq yetkazadi: *“Bunu beğenmedim”, “Sana yakışmamış”* kabi. O‘zbek bolalari hissiyotlarini bevosita emas, balki bilvosita shaklda yetkazadi, ya’ni: *“Bu menga ma’qul kelmadi”, “Sizga yarashmabdi, boshqasini olaqoling”* tarzida yumshoq, muloyim usulda bildiriladi.

Bola atrof-muhit haqidagi bilimlarni o‘zida aks ettiruvchi leksik birliklar ma’nolarini tasavvur, tafakkur, xotira, xayol kabi psixik jarayonlar va ijtimoiy omillar orqali idrok etish qobiliyatiga ega. Bolalardagi intellekt nafaqat ularning jismonan rivojlanishi, balki nutqining shakllanishi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi va takomillashadi. Bola ijtimoiy hodisalarni, atrof-muhitni kuzatar ekan, voqelikni ifodalash uchun yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtirish asosida perseptiv lug‘ati boyib boradi. Bola perseptiv lug‘atining ifodasi intellektual o‘yinlar hamda savol-javob usulidan foydalanish jarayonida o‘z aksini topadi. Bolaning rivojlanishida ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi dialogik nutq verbal muloqot shakli sifatida namoyon bo‘ladi[3]. Dialogik nutq situativ muloqot usuli hisoblanib, bunda bolalar ota-onasi yoki tengdoshlari bilan o‘zaro lisoniy aloqa o‘rnatadilar.

Har ikki tildagi bolalar nutqida dialog shakllari, tezkor savol-javoblar ko‘p uchraydi. Quyida ikki yoshdagi bolalarning ota-onasi bilan suhbatidan misol keltirilgan. Turklarda:

- *Anne: Can’cım, kahvaltı yapmak ister misin?*
- Çocuk: Evet! (Küçük baş sallayarak)
- *Baba: Hangi yiyeceği seversin? Peynir mi, yumurta mı?*
- Çocuk: (Parmağını göstererek) Yum!
- *Anne: Tamam, sana yumurta hazırlayalım.*
- Çocuk: Teşekkür! (Gülümseyerek)

O‘zbek tilida:

1 Ushinskiy K.D.Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘quvpednashr, 1959. 398-bet.

2 Шаяхметова А.К. Онтолингвистика: прошлое и настоящее // Казак тші гасырлар тогысында: теориясы, тарихы жэне казрп жайы. – Алматы: Арыс, 2007. – С. 510.

3 Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. – Toshkent, 2014. – B. 109.

- *Ona: Azizjon, sen necha yoshdasan?*
- *Bola: (Barmoqlari bilan ko‘rsatib) Ikki.*
- *Ona: Barakalla, aqlli o‘g‘lim. Senga do‘kondan nima olay? Mashinami yoki koptok?*
- *Bola: Menga-a? Mashina-a-a! (Quvonib)*
- *Ona: Xo‘p. Ertaga ishdan qaytishda olib kelaman.*
- *Bola: (Onasini quchoqlab) Rahmat, oyi!*

Berilgan ikkala misolda ko‘rish mumkinki, bolalar nutqida katta farq yo‘q, chunki ular aynan biologik rivojlanish davrida va hissiyotlarini ham verbal, ham noverbal shaklda ifodalay olishadi*(Evet! (Küçük baş sallayarak)//(Barmoqlari bilan ko‘rsatib) Ikki).* Emotsional birliklarning keng qo‘llanishi ham ayni 2-3 yoshdagi bolalar nutqiga xos, tez-tez savol berishadi, qisqa, sodda jumlalar orqali javob berishadi (*Mashina-a-a! (Quvonib)*. Yuqoridagi dialogda bolalarga tanlov imkoniyati berilgan va ular mustaqil tarzda tanlashyapti (“*Peynir mi, yumurta mı? Yum! // Senga do‘kondan nima olay? Mashinami yoki koptok?Mashina.).* Ba’zida til tizimi va oiladagi muloqot muhiti sabab farqlar kuzatilishi mumkin. Bunda bola bilan muloqot jarayonida adresant va adresat aksariyat holda so‘roq gaplardan foydalangan. Muloqotga kirishuvchi shaxs, ya’ni ona bolaning fikrini mustaqil, erkin tarzda ifodalashi uchun yordam berishi, uni suhbatga olib kirishi kerak bo‘ladi. Suhbat usuli bilan 2-3 yoshli bolalarning atrof-muhit haqidagi bilimlari, dunyoqarashi va munosabatni rivojlantirish mumkin.

Nutqni o‘zlashtirish bola uchun nafaqat tilni o‘rganish, balki jamiyat a’zosi sifatida shakllanishida ham eng muhim omil sanaladi. Aynan mana shu jarayonda bola barcha ijtimoiy bilimlarni kattalar tajribasi orqali o‘rganadi. Bu bolaning dunyoqarashi va lisoniy imkoniyatlarining ortishiga ham xizmat qiladi. Bolalar nutqining rivojlanishi doimiy ravishda yangi so‘zlarni o‘rganish, shu bilan birga, jamiyatni, atrof-muhitni kashf qilish jarayonidan iborat. Bunda ijtimoiy omillar, jumladan, ota-onalarning muloqot tajribasi bola uchun lisoniy qobiliyat shakllanishi va rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ushinskiy K.D. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘quvpednashr, 1959.
2. Шаяхметова А.К. Онтолингвистика: прошлое и настоящее // Казак ruii гасырлар тогысында: теориясы, тарихы жэне казрп жайы. – Алматы: Арыс, 2007.
3. Sayidiraximova N.S. Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari. – Toshkent, 2004.
4. Sayidiraximova N.S. Bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari. – Toshkent, 2012.
5. Asqarova M., Matchonov S. va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. – Toshkent, 2000.
6. Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. – Toshkent, 2014.

Nafisa QURBONOVA,
Xalqaro innovatsion universitet magistranti



XX ASR INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA MIFOLOGIK ROMANLARNING QIYOSIY - TIPOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: mifologik rivoyatlar madaniy o‘ziga xoslikning ajralmas qismi bo‘lib, jamiyat qadriyatlari, e’tiqodlari va tarixiy tajribalari haqida tushuncha beradi. Mazkur ilmiy maqolada XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida yaratilgan mifologik romanlarning qiyosiy-tipologik tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot jarayonida mifologik unsurlarning badiiy-funksional vazifalari, syujet-kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi hamda ularning tarbiyaviy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Ingliz bolalar adabiyotida C.S. Lyuis va J.R.R. Tolkien asarlari, o‘zbek bolalar adabiyotida esa folklor va milliy mifologiyaga asoslangan asarlar tahlil obyekti sifatida o‘rganiladi. Qiyosiy tahlil natijasida umumiy va farqli tipologik xususiyatlar aniqlanib, mifologik romanlarning bolalar adabiyotidagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, mifologik roman, qiyosiy tipologiya, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, mif, folklor, obrazlar tizimi, badiiy tafakkur, etiologik miflar, tarixiy miflar, psixologik miflar.*

Annotation: mythological narratives are an integral part of cultural identity, providing an understanding of the values, beliefs and historical experiences of society. This scientific article conducts a comparative typological analysis of mythological novels created in English and Uzbek children’s literature of the 20th century. In the process of research, the artistic and functional tasks of mythological elements, plot-compositional structure, system of images, and their educational and aesthetic significance are analyzed. In English children’s literature, the works of C.S. Lewis and J.R.R. Tolkien are studied as objects of analysis, and in Uzbek children’s literature, works based on folklore and national mythology are studied. As a result of the comparative analysis, common and different typological features are identified, and the place of mythological novels in children’s literature is scientifically illuminated.

Key words: *children’s literature, mythological novel, comparative typology, English literature, Uzbek literature, myth, folklore, system of images, artistic thinking, etiological myths, historical myths, psychological myths.*

Аннотация: мифологические повествования являются неотъемлемой частью культурной идентичности, обеспечивая понимание ценностей, верований и исторического опыта общества. В данной научной статье проводится сравнительный типологический анализ мифологических романов, созданных в английской и узбекской детской литературе XX века. В процессе исследования анализируются художественно-функциональные задачи мифологических элементов, сюжетно-композиционная структура, система образов, а также их воспитательно-эстетическое значение. В английской детской литературе в качестве объектов анализа изучаются произведения К.С. Льюиса и Дж.Р.Р. Толкина, а в узбекской детской литературе – произведения, основанные на фольклоре и национальной мифологии. В результате сравнительного анализа выявляются общие и различные типологические особенности, а также научно освещается место мифологических романов в детской литературе.

Ключевые слова: *детская литература, мифологический роман, сравнительная типология, английская литература, узбекская литература, миф, фольклор, система образов, художественное мышление, этиологические мифы, исторические мифы, психологические мифы.*

Kirish. Mif (yunoncha “mithos” – afsona, rivoyat, asotir) qadim zamonlarda odamlarning borliq haqidagi ibtidoiy tushunchalari to‘plamidir. Bu tushunchalar koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining paydo bo‘lishi, samoviy jismlarning kelib chiqishi, tabiiy hodisalarning sabab va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budlar va ilohlar haqidagi e’tiqodlarni o‘z ichiga oladi. Mif qadimgi odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabatini ifodalaydi va tabiat hamda jamiyat hayotining turli jihatlarini tushuntiruvchi eng qadimiy tasavvurlar zanjiridir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelikni xayoliy uydirma orqali izohlagan bo‘lsa-

da, ularning yaratilgan va ommalashgan joyida haqiqiy voqealar sifatida qabul qilingan. Qadimgi odamlarning olam haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi miflarning ommalashish usullari turlicha bo‘lib, asosan, jonli og‘zaki ijro orqali, ya’ni so‘z orqali hikoya qilib yetkazilgan [1].

XX asr bolalar adabiyoti taraqqiyotida mifologik roman janrining shakllanishi va rivoji muhim hodisa hisoblanadi. Ushbu davrda bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy asarlarda mif, afsona va folklor unsurlari yangi badiiy shakllarda namoyon bo‘la boshladi. Mifologik romanlar bolalar ongiga mos, ramziy va fantastik voqealar orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy-ruhiy tarbiya berish vazifasini bajardi.

Ingliz bolalar adabiyotida mifologik romanlar asosan, Yevropa mifologiyasi, xristian ramzlari va epik an’analarga tayangan holda rivojlangan bo‘lsa, o‘zbek bolalar adabiyotida bu janr xalq og‘zaki ijodi, qadimiy turkiy miflar va Sharq adabiy an’analari bilan uzviy bog‘liq holda shakllandi. Shu bois, ushbu ikki adabiy an’anani qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish bolalar adabiyotining umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Hamma tasavvur ham bilim emas. Hatto eng qadimiy afsona va rivoyatlarda ham bilim, to‘g‘rirog‘i, bilim kurtaklari mavjud. Chunki har qanday afsona nafaqat inson tasavvurining mahsuli, balki u butun olamning borligi, sir-asrorlari bilan bog‘liqdir. Miflarni quyidagi turlarga ajratish mumkin

1. Etiologik miflar. Mif va mifologik afsonalarning uchta asosiy turi mavjud. Ular quyidagilardir: aktiologik so‘zi yunoncha harakat (aĭtíon) so‘zidan olingan bo‘lib, “sabab” yoki “tushuntirish” degan ma’noni anglatadi. E’tibor bering, etiologik afsonada keltirilgan sabablar haqiqiy (yoki ilmiy) sabablar emas. Ular inson sifatida biz uchun ma’noga ega bo‘lgan tushuntirishlardir. Etiologik miflarning uchta kichik turi mavjud: tabiiy, etimologik va diniy. Tabiiy etiologik mif tabiatning bir tomonini tushuntiradi [2]. Masalan, chaqmoq va momaqaldiroqni Zevs g‘azablangan deb tushuntirishingiz mumkin. Etimologik etiologik mif so‘zning kelib chiqishini tushuntiradi. (Etimologiya – so‘zlarning kelib chiqishini o‘rganadigan fan.) Masalan, Afrodita ma’buda nomini dengiz ko‘pigida tug‘ilgan deb tushuntirishingiz mumkin, chunki “aphros” dengiz ko‘pigini anglatadi. Diniy etiologik afsona diniy marosimning kelib chiqishini tushuntiradi. Masalan, Elevsiniya sirlarining yunon diniy marosimini, ular yunon ma’budasi Demeter Eleusis shahriga kelib, odamlarga unga qanday sig‘inishni o‘rgatganida paydo bo‘lganligini aytishingiz mumkin.

2. Tarixiy miflar – tarixiy voqea haqida aytiladi va ular o‘sha voqeani xotirada saqlab qolishga yordam beradi. Qizig‘i shundaki, tarixiy afsonalarda aniqlik yo‘qoladi, lekin ma’no qozoniladi. Troya urushi haqidagi afsonalarni, jumladan, Iliada va Odisseyni tarixiy afsonalar deb tasniflash mumkin. Troyan urushi ro‘y berdi, lekin biz Iliada va Odisseydan biladigan mashhur qahramonlar (Agamemnon, Axilles, Gektor va boshqalar) yo‘q edi [3].

3. Psixologik miflar – nima uchun biz o‘zimizni his qilishimiz va shunday harakat qilishimizni tushuntirishga harakat qilishadi. Psixologik mif etiologik mifdan farq qiladi, chunki psixologik afsona bir narsani boshqa narsa bilan tushuntirishga urinmaydi (masalan, Zevs g‘azabi bilan chaqmoq va momaqaldiroqni tushuntirish). Psixologik afsonada tuyg‘uning o‘zi insonning his-tuyg‘ulariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan, tashqaridan keladigan ilohiy kuch sifatida qaraladi. Masalan, Afrodita ma’budasi ba’zan erotik sevgining kuchi sifatida ko‘riladi. Qadimgi yunonlar, kimdir o‘zlari qilishni istamagan narsani aytganida yoki qilganida, Afrodita ularni shunday qilishga majburlagan, deb aytishlari mumkin edi.

Yuqoridagi xususiyatlarni o‘zbek tilida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, dunyo xalqlari, xususan, qadimgi turkiy xalqlarning rivoyatlarida quyosh va suv abadiy bo‘lgan o‘lkada tabiatda buyuk va foydali kuchlar, zulmat va ofat abadiy hukmron bo‘lgan o‘lkada buzg‘unchi kuchlar borligi ta’kidlanadi. “Avesto”da aytilishicha, yaxshilik va yomonlik ikki dunyo bor. Demak, mifologik tushunchalarga ko‘ra, inson yovuzlik bilan kurashish uchun tug‘ilgan. U yovuzlikdan mag‘lub bo‘lmasligi kerak, balki yovuzlik undan mag‘lub bo‘lishi kerak [4].

O‘zbek mifologik rivoyatlarida voqealarning buyuk suv, olov, toshqin, g‘ayritabiiy kuch, ulkan siymo, xudo, xudolar mo‘jizasi (o‘zbek tilida pirlar) bilan bog‘lanishi ta’sir kuchini oshiradi. Qisqa qilib aytganda, bu miflarda oila, qabila, e’tiqod va bu turdagi mifning xususiyatlari tasvirlangan. Titan qahramonlari o‘z davrida ezgulik, olov timsoli, suv elementi, unumdorlik xudolari va g‘ayritabiiy mavjudotlarga sig‘inishning yaratuvchisi sifatida paydo bo‘lgan, ularni muqaddas deb bilishga undagan, e’tiqodni mustahkamlagan va nihoyat, har birining epik an’anasi sifatida shakllanishiga imkon bergan. Ushbu turdagi afsonaning kelib chiqishi dualizm ta’siriga, yaxshilik va yomonlik xudolari o‘rtasidagi doimiy to‘qnashuvga asoslangan. Bu mifologik afsonalarda ikki xudoning o‘zaro bog‘lanishi sifatida tasvirlangan. Qayumars, ezgulik xudosi, ayni paytda, yaratuvchi, Ahramon, yovuzlik xudosi, vayron qiluvchi vazifasini bajaradi. Jangda Qayumars yengiladi va unga tinchlik, osoyishtalik va to‘kinlik beriladi. Rivoyatlarda ezgulik xudosiga ishonish va uning ne’matlariga sig‘inishga chaqiriladi. Zulmga qarshi kurash ko‘lamida buyuk g‘oyalar yetkaziladi.

Mifologik obrazlar xalq ogʻzaki ijodi, yozma adabiyot, badiiy asarlarda mifologik asosga ega boʻlgan mifologik obrazlardir. Mifologik obrazlar – voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va allegorik holatda aks ettiruvchi va uning rasmiy timsoli boʻlgan muayyan hodisaning jonlantirilgan ramziy tasviri. Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy fantastika mahsuli boʻlib, olam, tabiat va jamiyatdagi turli hodisalar, inson tasavvurida mavjud boʻlgan gʻayritabiiy kuchlarning sabablarini tushuntirishga xizmat qilgan [5].

Ingliz bolalar adabiyotida mifologik romanlarning tipologik xususiyatlari. XX asr ingliz bolalar adabiyotida mifologik roman janrining rivojida C.S. Lyuis va J.R.R. Tolkien ijodi muhim oʻrin egallaydi. Ularning asarlarida mifologik tafakkur asosiy badiiy omil sifatida namoyon boʻlib, syujetlar qahramonning sinov va sarguzashtlari orqali kamol topishi asosida quriladi.

C.S. Lyuisning “Narniya solnomalari” turkumida mifologik va diniy ramzlar bolalar ongiga mos allegorik shaklda ifodalanadi. Asardagi mifologik obrazlar yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi kurashni ifodalaydi hamda bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi [6].

J.R.R. Tolkienning “Xobbit” asarida esa qadimgi skandinav va german mifologiyasi unsurlari asosida yaratilgan mifopoetik makon mavjud. Ingliz mifologik romanlariga xos jihat — muallif tomonidan yaratilgan mustaqil mifologik dunyo va murakkab ramziy tizimdir [7].

Oʻzbek bolalar adabiyotida mifologik romanlarning oʻziga xosligi. Oʻzbek bolalar adabiyotida mifologik romanlar asosan, xalq ogʻzaki ijodi va milliy an’analarga tayanadi. Bu asarlarda mifologik obrazlar ertaklar, afsonalar va dostonlardan kelib chiqqan holda talqin qilinadi.

Oʻzbek mifologik romanlarida qahramonlar koʻpincha xalq manfaatini ifodalovchi, jasur va halol obrazlar sifatida tasvirlanadi. Mifologik unsurlar orqali tabiat, inson va jamiyat oʻrtasidagi uygʻunlik gʻoyasi ilgari suriladi. Bu asarlar bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, oʻzbek mifologik romanlarida mif real hayot bilan uzviy bogʻlangan boʻlib, fantastik voqealar xalqona tafakkur orqali talqin etiladi.

Ingliz va oʻzbek mifologik romanlarining qiyosiy-tipologik tahlili

Qiyosiy-tipologik tahlil natijasida quyidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi:

Umumiy jihatlar:

– Mifologik obrazlar orqali tarbiyaviy gʻoyalarni ifodalash;

– Qahramonning sinovlar orqali ruhiy kamol topishi;

– Yaxshilik va yomonlik qarama-qarshiligining asosiy syujet elementi sifatida namoyon boʻlishi.

Farqli jihatlar:

– Ingliz mifologik romanlarida muallif yaratgan sun’iy mifologik olam ustun boʻlsa, oʻzbek asarlarida xalqona va tarixiy muhitga yaqin mifologiya yetakchi;

– Ingliz adabiyotida individual qahramonlik, oʻzbek adabiyotida esa jamoaviylik va milliy qadriyatlar kuchli ifodalanadi;


– Ingliz asarlarida ramziy va allegorik tasvirlar koʻp boʻlsa, oʻzbek asarlarida folkloriy an’analar ustuvorlik qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XX asr ingliz va oʻzbek bolalar adabiyotida mifologik romanlar umumiy tipologik xususiyatlarga ega boʻlsa-da, ularning badiiy talqini va gʻoyaviy yoʻnalishi milliy madaniyat va tarixiy sharoit bilan belgilanadi. Ingliz mifologik romanlari keng mifopoetik makon va ramziy tizimga asoslangan boʻlsa, oʻzbek mifologik romanlari milliy folklor va xalqona tafakkurga tayanadi. Afsonaviy oʻzak, ayniqsa, xalqning milliy qadriyati, orzu-umidlarini ifodalaydi. Bundan tashqari, ular insonning ma’naviy rivojlanishida asosiy rol oʻynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Joʻrayev M., Shomusarov Sh., Oʻzbek mifologiyasi va arab folklori, – T., 2001.
2. William W. Kibler and Carleton W. Carroll Arthurian Romances eds. & trans. – London: Penguin Books, 2004.
3. Stoker, Bram. Dracula, rev. ed., intr. and notes Maurice Hindle, pref. Christopher Frayling. – London: Penguin Books, 2003.
4. Imamov K. Essays on Uzbek folklore. Three volumes. Volume 2 T. Fan. 1989.320-p.
5. Eshankulov J. Dev’s artistic image. Uzbek language and literature. 1997. №3.20-23-p.
6. Lyuis C.S. Narniya solnomalari. – London, 1950–1956.
7. Tolkien J.R.R. The Hobbit. – London: George Allen & Unwin, 1937.
8. Joʻrayev M. Oʻzbek folklori va bolalar adabiyoti. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2012.

Dilfuza XOLBEKOVA,
NIU 70230101-Lingvistika (Ingliz tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti
dilfuzaholbekova1996@gmail.com
Ilmiy rahbar: *f.f.d. (DSc), prof.* **N.J.Yarashova**



INGLIZ BOLALAR PUBLITSISTIK MATNLARIDA KOMMUNIKATIV STRATEGIYA VA NUTQIY TA'SIR MEXANIZMLARI

Annotatsiya: maqolada ingliz bolalar publitsistik diskursida faol qo'llaniladigan kommunikativ yondashuvlar, ya'ni o'quvchini jalb qilish, rag'batlantirish, axborotni sodda tilda yetkazish va ko'ngilocharlik tamoyillari aniqlanib, ushbu strategiyalarning nutqiy ta'sir mexanizmlari lingvopragmatik nuqtayi nazardan yoritiladi. Shuningdek, nutq aktlari, baholovchi va emotsional birliklar, aniq maqsadga yo'naltirilganlik orqali bolalar ongiga ta'sir darajasi baholanadi. Tadqiqot natijalari bolalar publitsistik diskursini nazariy jihatdan o'rganish va yosh auditoriya uchun mo'ljallangan zamonaviy media materiallarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *bolalar diskursi, ingliz publitsistik matnlari, kommunikativ yondashuv, nutqiy ta'sir, lingvopragmatika, nutq aktlari*.

Annotation: the article identifies communicative approaches actively used in English children's journalistic discourse—such as engaging the reader, encouraging motivation, presenting information in simple language, and applying entertainment principles—and examines the mechanisms of their speech influence from a linguopragmatic perspective. In addition, the level of influence on children's consciousness is assessed through speech acts, evaluative and emotional units, and goal-oriented communication. The research findings are of theoretical significance for the study of children's journalistic discourse and have practical value in developing modern media materials intended for a young audience.

Keywords: *children's discourse, English publicistic texts, communicative approach, speech impact, linguopragmatics, speech acts.*

Аннотация: в статье выявляются коммуникативные подходы, активно используемые в английском детском публицистическом дискурсе, такие как привлечение читателя, стимулирование, передача информации простым языком и принципы развлекательности, а также с лингвопрагматической точки зрения раскрываются механизмы их речевого воздействия. Кроме того, оценивается степень влияния на детское сознание через речевые акты, оценочные и эмоциональные единицы, а также целенаправленность коммуникации. Результаты исследования имеют теоретическое значение для изучения детского публицистического дискурса и практическую ценность при разработке современных медийных материалов, ориентированных на детскую аудиторию.

Ключевые слова: *детский дискурс, английские публицистические тексты, коммуникативный подход, речевое воздействие, лингвопрагматика, речевые акты.*

Kirish. Bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida ingliz tili global miqyosda millatlararo yetakchi muloqot vositasi sifatida mustahkam o'rin egallab bormoqda[1]. Ushbu jarayon faqat kattalar auditoriyasigagina emas, balki bolalar uchun mo'ljallangan media makoniga ham faol kirib kelmoqda. Natijada bolalar publitsistik matnlari zamonaviy axborot muhitining muhim tarkibiy qismiga aylanib, ularning vazifasi oddiy ma'lumot berish doirasidan chiqib, yosh o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va bilimga qiziqish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmoqda.

Bolalar uchun yaratiladigan bunday publitsistik matnlar ingliz tilining soddalashtirilgan, ravon va emotsional ifoda shakliga asoslanib, maxsus

1 Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge:Cambridge University Press,2011.-26 p.

nutq aktlari asosida ishlab chiqiladi. Shu sababli ushbu maqolada ingliz tilidagi bolalar publitsistik matnlarining lingvistik xususiyatlari hamda ularning muloqot mexanizmlari hamda nutq akt turlari o‘rganiladi[2].

Bolalar publitsistik matnlari yosh auditoriyaning psixologik va kognitiv imkoniyatlarini inobatga olgan holda yaratiladigan, tasviriy vositalar, o‘yin elementlari hamda qiziqarli faktlarga boy matn shaklidir. Ushbu turdagi matnlarning muhim jihatlaridan biri jamiyat hayotida mavjud dolzarb masalalarni bolalar idrokiga mos, sodda va qiziqarli tarzda yetkazib berishidir. Bunday publitsistik materiallar asosan, *National Geographic Kids*, *Time for Kids* kabi maxsus nashrlar va raqamli platformalarda e’lon qilinadi.

Mazkur matnlarda vizual komponentlar rasm, infografika, jadval va diagrammalar keng qo‘llanilib, ular axborotni tushunishni yengillashtiradi, mavzuning mazmunini jonlantiradi va bolalarning diqqatini uzoqroq saqlab turishga xizmat qiladi[3]. Shu orqali publitsistik matnlar informativlik bilan bir qatorda didaktik va estetik samaradorlikka ham erishadi. Bundan tashqari, matnga yaxlitlik (matn ichidagi grammatik va semantik bog‘liqlik), pragmatik yo‘naltirilganlik, diskursivlik (ijtimoiy va madaniy kontekstga mosligi), intertekstuallik (matnning boshqa matnlar bilan bog‘liqligi) kabi xususiyatlar orqali yondashiladi[4].

Nutqiy ta’sir mexanizmlari tinglovchining tafakkuri, emotsional holati va xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan lingvistik hamda nolingvistik vositalar majmuasini ifodalaydi. Ingliz tilidagi bolalar publitsistik matnlarida ushbu mexanizmlar savol-javob shaklidagi nutq aktlari, undov va ilhomlantiruvchi ifodalar, emotsional-ekspressiv birliklar hamda perlokutiv yo‘nalishga ega til vositalari orqali namoyon bo‘ladi[5]. Bundan tashqari, vizual va verbal elementlarning uyg‘unlashuvi matnning ta’sirchanlik darajasini oshirib, o‘quvchini muayyan fikrga olib kelish, uni faol o‘ylashga va harakatga undashga xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalar uchun mo‘ljallangan publitsistik diskursda nutqiy ta’sir mexanizmlarining soddalashtirilgan, obrazli va motivatsion shaklda qo‘llanishi ta’limiy hamda tarbiyaviy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi[6].

Nutqiy akt deganda, muloqot jarayonida so‘zlovchining aniq maqsadda tinglovchiga nisbatan murojaati tushuniladi. Aniqroq qilib aytganda, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida vujudga keladigan gap va uning ma’lum maqsadda qo‘llanishi nutqiy aktdir. Nutqiy akt lisoniy muloqotning eng kichik birligi hisoblanib, uning mazmuni va yuzaga kelishi bevosita so‘zlovchining muloqot maqsadi va istagi bilan bog‘liqdir[7]. Tadqiqotchi Searle (1969)[8] nazariyasiga ko‘ra, nutq aktlari tilni faqat axborot vositasi sifatida emas, balki tinglovchini matnga yoki muloqotga faol jalb qiluvchi ijtimoiy va kommunikativ harakatlar sifatida tushuntiradi. Bu fikr ma’lum bir g‘oyani asl ma’nosidan tashqari, nutq aktlari orqali o‘quvchini ma’lum bir muloqotga jalb qilish,fikrni tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va’da berish va fikrlashni rag‘batlantirish kabi nazariy asos bilan tasdiqlaydi. Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmalingvistlar e’tirof etishadi. Ularning ko‘pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarashadi. Ular lokutiv, illokutiv, perlokutiv bosqichlardir. Lokutiv bosqich – so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida muloqot vositasi yaratilib, uning talaffuz qilinish faoliyatidir. Ma’lum bir maqsad asosida yaratilgan nutq va uning voqealanishi illokutiv bosqich hisoblanadi. Shu o‘rinda perlokutiv akt haqida gapiradigan bo‘lsak, so‘zlovchining tinglovchiga nutqiy ta’sir o‘tkazish bosqichi perlokutiv bosqichdir. Misol uchun, “Times for kids” nomli bolalar uchun mo‘ljallangan jurnalda keltirilgan “TEMPERATURE ARE NOT ON THE RISE .HOW CAN YOU PREPARE” jumlasini oladigan bo‘lsak, issiqlikka qanday tayyorlanasan? Nutqiy tuzilmasida so‘rov orqali bolani chuqur o‘yga soluvchi va fikrlashga undovchi g‘oya ilgari surilganini ko‘rishimiz mumkin[9].

2 Cook G. Discourse and Literature,The Interplay of Form and Mind. – Oxford: Oxford University Press,1994. 300 p.
3 Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Edward Arnold,1994. 476 p.
4 O‘rinboyev B., Yo‘ldoshev M. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. 180-b.
5 Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman,1983. 27 p.
6 Jacob L.Mey.PRAGMALINGUISTICS. – Belgium: BLACKWELL,1979. 114 p
7 Safarov Sh.Pragmalingvistika. – Toshkent:Toshkent,2008. 225-b.
8 Searl J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press,1969. 54 p.
9 Times for kids,vol.12,№ 26,United States: 2023. 12 p.

1-jadval. Ingliz bolalar matnlarida nutq aktlarning vazifasi va maqsadi			
Nutq aktlari	**Vazifasi**	**Savol**	**Kutilgan maqsad**
Interrogative (Savol-javob)	Savol-javob orqali e'tiborni jalb qilish	"Have you ever seen how animals drink water?"	Diqqatni jamlaydi, o'ylashga undaydi,
Imperative (Undov)	Tinglovchini faol harakatga undash	"Let's do this task together!"	Faoliyatga undaydi.
Advisory (Maslahat beruvchi)	Axborot va bilimni yetkazish, foydali ko'rsatmalar berish	"Always clean your teeth morning and evening."	Kundalik odatlarni shakllantiradi, bilimni mustahkamlaydi.
Motivational (Ilhomlantiruvchi)	Rag'batlantirish, o'ziga ishonchni oshirish	"You are very intelligent pupil"	Bolalarda ijobiy hissiyot va o'ziga ishonchni kuchaytiradi.
Informative (Axborot beruvchi)	Ma'lumot yetkazish, tushuntirish	"A cheetah is the fastest land animal."	Kognitiv rivojlanishga xizmat qiladi, bilimni oshiradi.
Entertaining (Ko'ngilochar)	qiziqarli fakt orqali o'quvchi qiziqishini oshirish	"Did you know that octopuses have three hearts?"	O'quvchini yangilikka jalb qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan publitsistik matnlar nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki yosh o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, bilimga qiziqish uyg'otish va ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqolada aniqlangan asosiy kommunikativ strategiyalar o'quvchini jalb etish, rag'batlantirish, axborot berish va ko'ngilocharlik nutqiy ta'sir mexanizmlari bilan birga ishlatilib, bolalar ongiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Nutq aktlari, emotsional-ekspressiv birliklar, illokutiv hamda perlokutiv yo'naltirilganlik matnning ta'sirchanligini oshiradi va bolalarni faol ishtirok etishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Cook G. Discourse and Literature,The Interplay of Form and Mind. – Oxford: Oxford University Press,1994. 300 p.

2.Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge:Cambridge University Press,2011. 304 p.

3.Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Edward Arnold,1994. 476 p

4.Jacob L.Mey.PRAGMALINGUISTICS. – Belgium: BLACKWELL,1979.114 p

5.Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman,1983. 27 p.

6.O'rinboyev B., Yo'ldoshev M. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. 180 -b.

7.Safarov Sh.Pragmalingvistika. – Toshkent: Toshkent, 2008. 225-b.

8.Searl J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. –Cambridge: Cambridge University Press,1969. 54 p.

9.Times for kids,vol.12,№ 26, – United States, 2023.12 p.

Nargiza ZIYODULLAYEVA,
NIU 70230101 – Lingvistika (Ingliz tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d. (DSc), prof. N.J.YARASHOVA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA AFFIKSAL VA KOMPOZITSION USULDA YASALGAN INDIVIDUAL YASALMALAR

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida affiksal va kompozitsion usulda yasalgan individual yasalmalarning tuzilishi, semantik xususiyatlari va qo‘llanish doiralari tahlil qilinadi. Tadqiqotda stilistik tahlil, diskursiv tahlil, kontekstual tahlil, qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanib, individual yasalmalar tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida individual yasalmalarning xususiyatlarini tahlil qilish til ijodkorligi va lug‘at boyishidagi muhim manba ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *diskursiv tahlil, stilistik tahlil, kontekstual tahlil, individual yasalmalar, affiksatsiya, kompozitsiya.*

Аннотация: в статье рассматриваются структурные особенности, семантические характеристики и сферы употребления индивидуальных образований, образованных посредством аффиксации и композиции в английском и узбекском языках. В исследовании применяются методы стилистического анализа, дискурсивного анализа, контекстуального анализа и сопоставительного анализа для изучения индивидуальных образований. Также показано, что анализ индивидуальных образований в английском и узбекском языках является важным источником языкового творчества и обогащения словарного состава.

Ключевые слова: *дискурсивный анализ, стилистический анализ, контекстуальный анализ, индивидуальные образования, аффиксация, композиция.*

Annotation: this article examines the structural characteristics, semantic features, and usage domains of individual formations created through affixation and compounding in the English and Uzbek languages. The research employs stylistic analysis, discourse analysis, contextual analysis, and comparative analysis to investigate individual formations. Furthermore, the study demonstrates that the analysis of individual formations in English and Uzbek serves as an important source for linguistic creativity and lexical enrichment.

Keywords: *discourse analysis, stylistic analysis, contextual analysis, individual formations, affixation, compounding*.

Kirish. Til tabiatan ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Tilda yangi so‘zlarning vujudga kelishi, boshqa tillardan o‘zlashishi yoki tilda mavjud so‘zlarning semantik tuzilishini o‘zgartirish bir necha usullar orqali hosil bo‘ladi. Zamonaviy tilshunoslikda yangi so‘z yasalish jarayoni, xususan affiksal va kompozitsion (qo‘shma so‘z) usullari orqali yaratilgan individual yasalmalarni ko‘rib chiqish va o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘z yasashga asos qismning qanday xususiyatga ega ekanligiga ko‘ra so‘z yasalishining bir necha usullari bor:

1) yasashga asos qismga qo‘shimchalar qo‘shish orqali (affiksatsiya); 2) so‘zlarni qo‘shish orqali (kompozitsiya). Masalan, *ishla* so‘zi *ish* qismiga (yasash asos) *-la* qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘lgan. *Qo‘shma korxona, ishlab chiqarish* singari so‘zlar esa ikki so‘zni bir-biriga qo‘shish asosida hosil qilingan[1].

Ingo Plag esa o‘z asarida affiksatsiya va kompozitsiyani ingliz tilidagi eng produktiv yasalish usullari sifatida ta’kidlaydi va individual yasalmalarning paydo bo‘lish mexanizmlarini yoritadi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda stilistik tahlil metodi[3] yordamida affiksal va kompozitsion birliklarning uslubiy bo‘yoqdorligi va konnotativ ma’nolari tahlil qilindi. Diskursiv tahlil[4] orqali individual yasalmalarning ommaviy axborot vositalari, zamonaviy nutqda va ijtimoiy tarmoqlarda qanday pragmatik vazifa bajarishi o‘rganildi. Shuningdek, kontekstual tahlil metodi orqali yangi yasalmalarning nutqiy vazifalarini aniqlash maqsadida ularning kontekstdagi ishlatilishi o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, lug‘atlarda mavjud qo‘shma so‘zlar til birliklari sanaladi, ularni izohli, izohsiz o‘zbek lug‘atlari qamrab olgan. Biroq badiiy adabiyotda – ijodkorlar ijod mahsulida amaldagi imlo va izohli lug‘atlarda uchramaydigan nutqiy qo‘shma so‘zlar ham kuzatiladi. Buni esa qo‘shma so‘zlar tarkibining taraqqiyoti bilan baholash mumkin. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, qo‘shma shakldagi yangicha nutqiy yasama ot va nutqiy yasama sifatlarning yasalish qolipini ko‘pincha [ot+ot] tashkil etgan. Asarlarda muallif neologizmlari sifatida qo‘llangan kiyikso‘qmoq, chaqmoqtuyoq, jayronko‘z (M.Yusuf), telfonxat (U.Azim), qunduzqosh (F.Afro‘z), daryodil (M.Toir) kabi so‘zlar qo‘shma ot va sifatlarga misol bo‘la oladi[5].

Hozirgi zamonaviy o‘zbek tilida so‘z yasashning keng qo‘llaniladigan tiplari affiksal va kompozitsiyadir. Ot, sifat va fe’l so‘z turkumlari asosida yaratilayotgan individual yasalmalar soni ham kundan kunga ortib bormoqda. Bunda

1 Nurmonov A., Sobirov A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1,2,3-kitoblar. – Toshkent: “ILM ZIYO” nashriyot uyi, 2013. 140-b.
2 Plag I. Word-formation in English – Cambridge Textbooks in Linguistics. Cambridge University Press, 2002. P. 45–60.
3 Adams V. Complex words in English. – Pearson Education Limited, 2001. – P. 120–135.
4 Plag I. Word-formation in English – Cambridge Textbooks in Linguistics. Cambridge University Press, 2002. – P. 210–225.
5 Mardonova S. O‘zbek tilida so‘z yasalishi va muallif nutqi neologizmlarining yasalishi xususida. – Toshkent, 2023. 134-b.

ijodkorlarning o‘z yaratiqlari orqali she’riyat va badiiy olamni yanada boyitayotganini ta’kidlash joiz. Masalan: *Yo‘lko‘rsatkich* bo‘ldi xazonlar,

Daydibadar yelga aylandim.

O‘tdi oylar, o‘tdi zamonlar,

Yana o‘sha menga aylandim. (I.Mirzo)

She’riyat bu qadim buyuk so‘qmoq ekan,

Kiyikso‘qmoq ekan, kiyikso‘qmoq ekan. (M.Yusuf)

Raqsga tushar oltin yaproqlar,

Shitir-shitir *yomg‘irqo‘shiqqa*. (B.Fazliddin)

Misollarda *daydibadar, kiyikso‘qmoq, yomg‘irqo‘shiqqa* kabi ot+ot qolipida yasalgan qo‘shma so‘zlar qo‘llanilgan. Bularning hammasi qo‘shma shaklda yasalgan yangi individual yasalmalar hisoblanadi.

Individual yasalmalarning paydo bo‘lish darajasi hozirga qadar ortib bormoqda. Xususan, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida yangi yasalmalar salmoqli o‘ringa ega. Misollarni kuzatamiz: yulduzgul (Osmon chamanida yulduzgul tering. I.Mirzo), ko‘ngilshoh (O‘z do‘stini o‘ylamaydigan/ Ko‘ngilshohning nimasi buyuk. B.Fazliddin), chaqmoqtuyoq (Chaqmoqtuyoq toyimdan/ Ayirmoqchi bo‘lishdi. M.Yusuf), billurtan (Qor – billurtan farishta. U.Azim), Odamtoshlar (Z.Mirzayeva)[6].

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rishimiz mumkinki, ijodkorlar individual yasalmalar yaratishda so‘zlarning mazmuni jihatidan, grammatik jihatidan til me’yorlariga rioya qilgan.

Quyida individual yasalmalarning namunalarini kuzatamiz:

Ot+ot qolipida yasalgan yasalmalar. Qo‘shma shakldagi individual yasalmalarni yaratishda M.Yusuf ijodi peshqadamlik qilishini misollarda ko‘rishimiz mumkin:

Qalbning qizil gulxani so‘ldi,

Kultepada qolmadi bir cho‘g‘,

Bu qiz bilan ishim yo‘q endi,

Bu qizning men bilan ishi yo‘q…

She’rdagi *Kultepada* so‘zi qalbni kultepaga o‘xshatish orqali hech qanday sevgi qolmaganini ifodalagan. Bunday yaratiq orqali she’rning badiiylik jihatini juda go‘zal tarzda ochib bergan.

Quvdi yolg‘iz o‘shal *hamxonamni* u.

Quvdi parilarni quvgan kabi dev. (Tunda she’r aytishdik)

Bu misralarda shoir *hamxonamni* yasalmasi (ham+xona) orqali g‘am, azob kabi kechinmalarini jozibali ifodalagan.

Muhabbatim, qaydasan, qalb ardog‘im,

Jayronko‘zim, qirlarga qolgan ohim.

Mazkur misrada jayronko‘z individual yasalmasi muhabbat so‘zining sifatlashi bo‘lib kelgan. Yuqorida keltirilgan neologizmlarning har biri individual yasalmalarning yaqqol namunasidir.

Ingliz tilida individual yasalmalarning ko‘p namunalarini uchratishimiz mumkin. Ingliz tilida individual affiksal yasalmalar odatda *-able, -ness, -ify, over, un-* kabi affikslar orqali yasaladi. Bu affikslar yangi so‘z yoki tushunchalarni tez va samarali ifodalash imkonini beradi.

Ingliz tilidagi yasalmalar faqat morfologik jarayon emas, balki diskursiv tahlilni ham ko‘rsatadi. Diskursiv tahlil metodi so‘z yasalish birliklarining nutqda qanday vazifa bajarishini ochib berish uchun xizmat qiladi. I.Plag diskursiv tahlil yordamida individual yasalmalarning paydo bo‘lishi va tarqalishini aytadi. Yangi so‘zlar odatda, muayyan bir holatda yuzaga keladi va keyinchalik umumtilga singib boradi. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va nutq muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *unhappiness* so‘zida happy (asos va sifat), *-un* va *-ness* qo‘shimchalari affiksal qo‘shimchalar hisoblanadi. Bunda diskursiv tahlil orqali so‘zning abstrakt holatni ifodalash maqsadida va nutqning hissiy holatni umumlashtirish maqsadida ishlatish mumkinligini tushunishimiz mumkin. *Unsad* va *unhappy* so‘zlarini oladigan bo‘lsak, birinchi misolni nutqda ishlatishimiz mumkin, ammo real nutqda deyarli ishlatilmaydi; ikkinchi misol esa real nutqimizda doimiy ishlatiladigan so‘z hisoblanadi. Bularda ham *sad/happy* (asos va sifat), *-un* esa affiksal qo‘shimcha. Plag aynan shunday so‘zlar asosida ta’kidlaydiki, grammatik jihatdan to‘g‘ri yozilgan hamma so‘zlar ham nutqda ishlatilavermaydi. Unhappy doimiy nutqda faol so‘z, unsad esa nutqda deyarli qo‘llanilmaydi. *Darkness, weakness* so‘zlarida -ness affiks hisoblanadi va nutqdagi yangi tushunchalarni tez va oson tushunishda yordam beradi. Bu esa diskursiv tahlilga yana bir moslikni ko‘rsatadi[7].

Xulosa va takliflar. Xullas, ingliz va o‘zbek tillarida individual yasalmalar asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli orqali yasaladi. Ingliz tilida affikslarning semantik erkinligi yuqori bo‘lib, bu ko‘proq kreativ yasalmalarning yaratilishiga xizmat ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa affikslarning o‘rni yuqori bo‘lib, kundalik nutqda va yozuvchilar ijodida yangi yasalmalarning yaratilish imkonini beradi. Kompozitsion usulda yasalgan yasalmalar ingliz tilida ko‘proq, o‘zbek tilida kamroq bo‘lsa-da, hozirgi kunda bu jarayon yanada faollashib ko‘plab yozuvchi, ijodkorlarimizning ijodida uchratishimiz mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, har ikki tilda ham tushunchalarni ifodalashda yasalmalarning yaratilishi uchun o‘ziga xos morfologik jihatlardan foydalanadi va tilning ijodiy rivojiga xizmat ko‘rsatadi.

6 Mardonova S. O‘zbek tilida so‘z yasalishi va muallif nutqi neologizmlarining yasalishi xususida. – Toshkent, 2023. 134-b.

7 Plag I. Word-formation in English – Cambridge Textbooks in Linguistics. Cambridge University Press, 2002. – P. 50–60.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adams V. Complex words in English. – Pearson Education Limited, 2001. 184 p.

2. Mardonova S. O‘zbek tilida so‘z yasalishi va muallif nutqi neologizmlarining yasalishi xususida. – Toshkent, 2023. 133–137-b.

3. Nurmonov A., Sobirov A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1,2,3-kitoblar – Toshkent: “ILM ZIYO” nashriyot uyi, 2013. 592-b.

4. Plag I. Word-formation in English – Cambridge Textbooks in Linguistics. Cambridge University Press Series, 2002. 266 p.

Dilnoza XALILOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti 2-kurs magistranti,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Tibbiyotda tillarni o‘qitish kafedrasi
Stajyor-o‘qituvchisi
dhalilova08@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASIDA SEMANTIK GURUHLANISH VA KONSEPTUAL FARQLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy terminlar semantik maydon yondashuvi asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tibbiy terminlar anatomik, klinik, farmatsevtik hamda patologik/diagnostik guruhlarga ajratilib, ularning konseptual nomlashdagi o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari ingliz tilida xalqaro (yunon–lotin) terminlarning ilmiy diskursda ustuvorligini, o‘zbek tilida esa milliy va tavsifiy nomlashlarning klinik va ommabop kommunikatsiyada faol qo‘llanishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *tibbiy termin, semantik maydon, konseptual nomlash, ilmiy va klinik diskurs, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Аннотация: в статье проводится сравнительный анализ медицинских терминов английского и узбекского языков на основе подхода семантического поля. Термины классифицируются на анатомические, клинические, фармацевтические и патологические/диагностические группы, выявляются изоморфные и алломорфные особенности концептуального наименования. Результаты показывают доминирование интернациональной (греко-латинской) терминологии в научном дискурсе английского языка и активное использование национально-описательных наименований в узбекском клиническом и популярном дискурсе.

Ключевые слова: *медицинский термин, семантическое поле, концептуальное наименование, научный и клинический дискурс, английский язык, узбекский язык.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of medical terminology in English and Uzbek using a semantic field approach. Medical terms are classified into anatomical, clinical, pharmaceutical, and pathological/diagnostic groups, and similarities and differences in conceptual naming are identified. The findings demonstrate the dominance of international (Greek–Latin) terminology in English scientific discourse, while Uzbek shows a higher frequency of descriptive and national terms in clinical and popular communication.

Key words: *medical terminology, semantic field, conceptual naming, scientific and clinical discourse, English, Uzbek.*

Kirish. Terminologiya maxsus bilimni ifodalovchi va tartibga soluvchi qatlam bo‘lib, umumadabiy til bilan uzviy bog‘liq. Terminlar ma’nosi ko‘pincha faqat muayyan terminologik tizim doirasida aniqlanadi va “sistemalilik” tamoyiliga asoslanadi. Shu bois terminologiyani alohida birliklar emas, balki konseptual “maydon” va iyerarxik tizim sifatida o‘rganish muhim hisoblanadi.

Tibbiy terminologiya umumiste’mol so‘zlardan struktur, semantik va so‘z yasalish xususiyatlari bilan farqlanadi. Anatomik, klinik, farmatsevtik hamda patologik/diagnostik terminlarning semantik guruhlanishi tibbiy bilimni tartibga solib, terminlarning o‘zaro munosabatini belgilaydi. Bu guruhlanish terminlarning qaysi konseptual sohaga mansubligini aniqlashga xizmat qiladi.

Tibbiy terminologiyada xalqaro standartlashgan terminlar bilan bir qatorda milliy va tavsifiy nomlashlar ham parallel qo‘llanadi. Natijada sinonimiya va polisemiyalik holatlari yuzaga keladi. Terminlar ko‘pincha semantik ixtisoslashuv, metafora va metonimiya asosida shakllanib, amaliy diskursda ilmiy va ommabop nomlarning yonma-yon kelishiga olib keladi. Maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tibbiy terminologiyasida asosiy semantik guruhlarning chegaralarini belgilash, nomlash mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish hamda ilmiy va amaliy diskursdagi registrlararo farqlarni yoritishdan iborat.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot sifat va qiyosiy yondashuv tamoyillariga asoslandi. Material sifatida ochiq ta’limiy manbalarda uchraydigan tibbiy terminlar, ularga xos affiks va komponentlar, shuningdek, amaliy diskursda keng ishlatiladigan termin juftliklari tanlab olindi. Semantik guruhlar tibbiyot bilimlarining to‘rtta yirik konseptual sohasi asosida ajratildi: anatomiya, klinika, farmatsiya, patologiya/diagnostika. Har bir guruh bo‘yicha inglizcha termin va uning o‘zbekcha ekvivalent(lar)i tanlandi; ekvivalentlik “to‘g‘ridan to‘g‘ri internatsional moslik” va “tavsifiy moslik” kabi turlarga ajratildi.

Tahlilda quyidagi metodlar qo‘llandi: semantik komponent tahlili – termin ma’nosining yadrosi va differensial belgilari; semantik munosabatlarni aniqlash – giperonimiya–giponimiya, sinonimiya, polisemiyalik; qiyosiy modellashtirish – ingliz va o‘zbek terminlarida konseptni nomlash strategiyalarini chog‘ishtirish; diskursiv kuzatuv – ilmiy matn va amaliy muloqotda termin tanlovi. Diskursiv farqlanishni izohlashda tibbiy ingliz tilida internatsional

terminlar va ommabop variantlar birga qo‘llanishi tarjimada termin tanlovi muammosini kuchaytirishi qayd etilgan yondashuvdan foydalanildi (Kujawska-Lis, 2018, 83-bet).

Natijalar. Tahlil natijasida ingliz va o‘zbek tibbiy terminologiyasida to‘rtta yirik semantik guruhning chegaralari nisbatan barqaror ekani kuzatildi: anatomik, klinik, farmatsevtik va patologik/diagnostik terminlar. Anatomik guruh ko‘pincha boshqa guruhlar uchun tayanch maydon vazifasini bajaradi: kasalliklar, sindromlar va muolajalar ko‘p hollarda anatomik lokatsiya bilan birikadi (cardiac surgery / yurak jarrohligi; liver disease / jigar kasalligi). Ta’limiy manbalarda tananing “hujayra – to‘qima – a’zo – tizim” iyerarxiyasi asosiy tashkiliy prinsip sifatida berilishi ham (The Academic Center for Excellence, 2020, 3-bet) anatomik terminlarning konseptual markaz ekanini ko‘rsatadi: klinik va patologik terminlar ko‘pincha shu markazga “ulanadi”.

Tibbiy terminlarni mavzuga ko‘ra guruhlash amaliyotida ham “anatomik – davolash – umumtibbiy – dorishunoslik” kabi ajratishlar uchraydi. Masalan, tibbiy terminlarni o‘qitishda har bir mavzu doirasida anatomik, davolash, umumtibbiy va dorishunoslikka oid terminlar alohida belgilar bilan berilishi ko‘rsatiladi (Boliyev, 2011, 3-bet). Bu holat semantik guruhlanishning pedagogik va terminografik ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Har bir semantik guruhda nomlash strategiyalari turlicha ustuvorlikka ega. Quyidagi jadvalda tipik strategiyalar umumlashtirildi.

Jadval 1. Semantik guruhlar va tipik nomlash strategiyalari (qisqa misollar)

Semantik guruh	Nomlash strategiyasi	Misollar (inglizcha – o‘zbekcha)
Anatomik	Internatsional va milliy nom parallel keladi	artery – arteriya; heart – yurak; liver – jigar; kidney – buyrak
Klinik	Professional va ommabop variantlar registrga ko‘ra farqlanadi	myocardial infarction – miokard infarkti; heart attack – yurak xuruji; diagnosis – tashxis; therapy – terapiya/davolash
Farmatsevtik	Internatsional termin va tavsifiy nom yonma-yon ishlaydi	antibiotic – antibiotik; analgesic – analgetik/og‘riq qoldiruvchi; tablet – tabletka; ointment – maz/malham
Patologik/ diagnostik	Affiksli kodlash va milliy nomlash muvozanatda	hepatitis – gepatit; inflammation – yallig‘lanish; hypertension –gipertenziya/qon bosimining oshishi; diabetes – diabet/ qandli diabet

Klinik hamda patologik guruhlarda semantik ixtisoslashuv yaqqolroq ko‘rindi. Semantik yo‘l bilan termin hosil qilishda oddiy so‘z ma’nosining torayishi, shuningdek, metaforik/metonimik ko‘chish mexanizmi muhim ekani ko‘rsatiladi (Džuganová, 2013, 57-bet). Bu jarayon ingliz tilidagi attack (heart attack), culture (bacterial culture), shock kabi birliklarda; o‘zbek tilida esa xuruj, kultura, shok kabi birliklarda terminologizatsiya shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, attack umumiy ma’noda “hujum” bo‘lsa, heart attack birikmasida u o‘tkir klinik holatni bildiradi; xuddi shunday xuruj so‘zi ham umumiy nutqdagi “hujum”dan klinik “o‘tkir holat” ma’nosiga ixtisoslashadi.

Boshqa tomondan, semantik kengayish ham kuzatiladi: internatsional affikslar (-itis, -osis, hyper-, hypo-) va komponentlar konseptning belgisini “kodlaydi”, biroq termin amaliy muloqotda umumiyroq ma’noda ishlatilib, ma’no chegarasi kengayishi mumkin. Masalan, o‘zbek ommabop muloqotda “infeksiya” ba’zan har qanday yallig‘lanish yoki kasallik bilan tenglashtirib yuborilishi, ingliz tilida “virus” so‘zi esa ilmiy va ommabop diskursda turlicha “hajm”da qo‘llanishi mumkin. Bu holatlar terminning semantik maydoni diskursga bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Muhokama. Ingliz tilida tibbiy terminlarning sezilarli qismi yunon-lotin komponentlari orqali “ichki kod”ga ega: ildiz va affikslar konseptning asosiy belgisini ko‘rsatadi. Bu kodlash ilmiy diskursda qulay, chunki qisqa, standart va xalqaro tushunarli birliklar hosil bo‘ladi. O‘zbek tilida ham internatsional terminlar faol, chunki lotin (va lotinlashgan yunon) birliklari tibbiyot terminologiyasida tarixan mustahkam o‘rin egallashi va lotin tili xalqaro tibbiyot tili sifatida tan olinishi qayd etiladi (Boliyev, 2011, 4-bet). Biroq o‘zbek tilida tavsifiy nomlashlar (og‘riq qoldiruvchi, qon bosimi, nafas qisishi) ilmiy-ommabop va klinik muloqot registrida samarali ishlaydi: ular konseptni “tushuntirish” orqali anglashni osonlashtiradi.

Shu o‘rinda konseptual farq shundaki, internatsional termin konseptni “kompakt belgi” sifatida beradi (ko‘pincha definitsiya talab qiladi), tavsifiy nom esa konseptning funksional belgilarini ochib beradi. Masalan, analgesic internatsional termin bo‘lsa, og‘riq qoldiruvchi tavsifiy nom; hypertension internatsional termin, qon bosimining oshishi tavsifiy nom. Demak, ikki tilda nomlashning tanlovi ko‘pincha auditoriya (mutaxassis/bemor) va matn turi (maqola/yo‘riqnoma/suhbat)ga bog‘liq.

Ingliz tibbiy terminologiyasida bir xil konseptni ifodalovchi inglizcha va lotincha/grekcha variantlar yonma-yon qo‘llanishi tarjimon uchun tanlov muammosini kuchaytirishi mumkin (Kujawska-Lis, 2018, 83-bet). Muallif tibbiy matnlarda aniqlik talabi sabab sinonimlar “istalmagan hodisa” ekanligi haqidagi fikrni ham eslatadi (Kujawska-Lis, 2018, 85-bet). Bu kuzatuv o‘zbek tili uchun

ham dolzarb: miokard infarkti ↔ yurak xuruji, gipertenziya ↔ qon bosimining oshishi, diabet ↔ qandli diabet kabi juftliklarda tanlov ko‘pincha registr bilan belgilanadi.

Tarjimada esa ikki xil xavf yuzaga keladi: (a) terminning haddan tashqari “ilmiylashtirilishi” (bemor uchun mo‘ljallangan matnda internatsional terminlar ortiqcha bo‘lib qolishi), (b) terminning haddan tashqari “soddalashtirilishi” (ilmiy matnda tavsifiy nomlar aniq definitsiyasiz noaniq bo‘lib qolishi). Shuning uchun semantik guruhlanishdan kelib chiqib, termin tanlovida registr markirovkasi (ilmiy ↔ ommabop) alohida ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq.

Terminologiyada birma’nolilik idealini amalga oshirish har doim ham mumkin emas. “Bir termin – bir konsept” tamoyili standartlashtirish uchun qulay bo‘lsa-da, polisemiyalik va sinonimiya tabiiy tilning ajralmas xususiyati sifatida ixtisoslashgan tillarda ham uchrashi ko‘rsatiladi (Temmerman, 1997, 54-bet). Prototipik kategoriyalar uchun bu hodisalar nomlashning tarixiy va kognitiv natijasi bo‘lishi mumkin (Temmerman, 1997, 51-bet). Terminologiya tadqiqotlarida polisemiyalikning qayta ko‘rib chiqilishi, hatto terminologiyada ham ko‘pma’nolilik “kutilgan” hodisa ekanini ta’kidlaydi (L’Homme, 2020, 415-bet).

Tibbiyotda *culture, depression, shock* kabi birliklar umumiy lug‘at ma’nosi va tibbiy ma’no o‘rtasida “ikkilanish” hosil qiladi. L’Homme terminologiya darsliklarida ko‘plab terminlar “odatdagi” (umumiy) ma’nolarga tayanib yaratilishi qayd etilishini eslatadi (L’Homme, 2020, 417-bet); bu tibbiyotdagi ko‘pma’nolilik va registrlararo variativlikning tabiiy manbalaridan biridir. O‘zbek tilida ham shok, depressiya, kultura kabi birliklar internatsional ko‘rinishda kirib, ba’zan umumiy nutq kontekstida kengroq ma’noda ishlatiladi.

Semantik guruhlanish tibbiy terminologiyani o‘qitish, lug‘at tuzish va tarjimada juda amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, guruhlanish modul asosida o‘qitishga imkon beradi: anatomiya terminlari tayanch bo‘lib, klinik va patologik birliklar shu tayanchga ulanadi; bu tananing iyerarxik tuzilishi (hujayra–to‘qima–a’zo–tizim) bilan hamohang (The Academic Center for Excellence, 2020, 3-bet). Ikkinchidan, ikki tilli terminologik lug‘atlarda semantik guruhlar bo‘yicha indekslar yaratish sinonimlarni registr bilan belgilashga yordam beradi: masalan, “ilmiy” – *myocardial infarction/miokard infarkti* va “ommabop”: *heart attack/yurak xuruji* variantlar alohida ko‘rsatilsa, foydalanuvchi maqsadga mos tanlov qiladi.

Uchinchi jihat — klinik va ilmiy matnlar tarjimasi: semantik guruhlarni bilish terminning qaysi “soha”ga mansubligini tez aniqlaydi, terminning yadro ma’nosini va zarur kontekstini belgilaydi. Bu, o‘z navbatida, terminlarning semantik mosligi va nomosligi holatlarini oldindan bashorat qilishga yordam beradi.

Xulosa. Maqolada ingliz va o‘zbek tibbiy terminologiyasida semantik guruhlanishning to‘rtta tayanch maydoni (anatomik, klinik, farmatsevtik, patologik/diagnostik) qiyosiy yoritildi va konseptual nomlashdagi farqlar misollar bilan ko‘rsatildi. Tahlil natijasida: anatomik terminlar konseptual tayanch bo‘lib, boshqa guruhlar nomlashini lokalizatsiya orqali tashkil etishi; ingliz tilida yunon-lotin komponentlari orqali kodlangan nomlash ustunligi; o‘zbek tilida internatsional terminlar bilan birga tavsifiy nomlashlarning registrga ko‘ra faol ishlashi aniqlandi. Shuningdek, semantik ixtisoslashuv va kengayish, sinonimiya hamda polisemiyalik tibbiy kommunikatsiya va tarjimada muhim omil ekani asoslandi. Amaliy jihatdan, semantik guruhlanishga tayangan holda ikki tilli terminologik lug‘atlarda registr markirovkasi va definitsion izohlarni kuchaytirish, tibbiy matnlarni tarjima qilishda esa auditoriyaga mos termin tanlash strategiyasini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Boliyev, M.N. (2011). Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi: tibbiyot kollejlari uchun darslik (Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 7-nashri). – Toshkent: “ILM ZIYO”.

2.Dadaboyev, H. (2019). O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent.

3.Džuganová, B. (2013). English medical terminology – different ways of forming medical terms. JAHR, 4(7), 55–69.

4.Kujawska-Lis, E. (2018). Synonyms in Medical Terminology: Confusion for Inexperienced Translators? Prace Językoznawcze, XX(1), 83–99.

5.L’Homme, M.-C. (2020). Revisiting Polysemy in Terminology. In: Lexicography for Inclusion: Proceedings of the 19th EURALEX International Congress (Vol. 1), 415–424.

6.Temmerman, R. (1997). Questioning the univocity ideal. The difference between socio-cognitive Terminology and traditional Terminology. Hermes, Journal of Linguistics, 18, 51–93.

7.The Academic Center for Excellence. (2020). Guide to Common Medical Terminology. Germanna Community College, December 2020.

8.Vit, Y. (2022). The Origins of Medical Terminology. Scientific Journal of Polonia University, 55(6), 102–108.

Мадинахон АДЕЕВА,
студентка 4-го курса филологического факультета
Ферганского государственного университета
(научный руководитель: Немат САБИРОВ)

ПРОБЛЕМА ДУХОВНОГО НАСТАВНИЧЕСТВА И ПОИСК БОГА В РОМАНЕ Ф. М. ДОСТОЕВСКОГО “БРАТЬЯ КАРАМАЗОВЫ”: ФИГУРЫ ОТЦОВ, УЧИТЕЛЕЙ И ПОСЛУШНИКОВ

Аннотация: статья исследует проблему духовного наставничества в романе «Братья Карамазовы» через отношения Алеши и старца Зосимы. Анализируется опасность, когда послушник подменяет веру в Бога поклонением «силе и славе» учителя. Фигура Великого инквизитора служит антиподом, утверждающим человеческий авторитет над свободной верой. Кризис после смерти Зосимы (с «тлетворным духом») разрушает эту зависимость, направляя Алешу к зрелой, личной вере и «великому послушанию в миру».

Ключевые слова: *старчество, наставничество, послушник, истинной веры, православие, Великий Инквизитор.*

Annotatsiya: maqolada «Aka-uka Karamazovlar» romanidagi ma’naviy murshidlik masalasi Alyosha va otaxon Zosima o‘rtasidagi munosabatlar orqali tadqiq etiladi. Muridning Allohga bo‘lgan imonini ustozi “qudrati va shuhrati”ga sig‘inish bilan almashtirish xavfi tahlil qilinadi. Buyuk inkvizitor obrazi erkin e’tiqod ustidan insoniy hokimiyatni tasdiqlashga xizmat qiluvchi qarama-qarshi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Zosimaning vafotidan so‘ng yuz bergan inqiroz (“badbo‘y hid” bilan) bu qaramlikni yo‘q qiladi, Alyoshani yetuk, shaxsiy e’tiqod va “dunyodagi buyuk itoatkorlik” sari yo‘naltiradi.

Kalit so‘zlar: *otaxonlik, murshidlik, murid, haqiqiy imon, pravoslavlik, Buyuk Inkvizitor.*

Annotation: this article examines the issue of spiritual mentorship in the novel “The Brothers Karamazov” through the relationship between Alyosha and Elder Zosima. It analyzes the danger of a novice replacing faith in God with worship of the teacher’s “power and glory.” The figure of the Grand Inquisitor serves as an antithesis, asserting human authority over free faith. The crisis following Zosima’s death (with the “odor of corruption”) destroys this dependency, guiding Alyosha towards a mature, personal faith and “great obedience in the world.”

Key words: *eldership, mentorship, novice, true faith, Orthodoxy, Grand Inquisitor.*

Введение

Творчество Ф. М. Достоевского пронизано глубинным религиозным поиском и осмыслением «проклятых вопросов» бытия, центральным из которых является проблема духовного наставничества и становления личности в отношениях «отца» и «ученика» [1]. В романе «Братья Карамазовы» эта тема получает свое наиболее полное художественное воплощение через фигуры старца Зосимы, послушника Алеши Карамазова и антипода истинной веры – Великого инквизитора. Достоевский исследует тонкую грань между истинным духовным руководством, указывающим на Христа, и опасностью подмены Божественного авторитета человеческой харизмой.

Методы

Исследование проведено на основе литературного анализа текста романа Ф. М. Достоевского «Братья Карамазовы». Использованы методы сравнительного анализа образов (Зосима, Алеша, Великий инквизитор), интерпретации ключевых эпизодов (смерть Зосимы, видение «Каны Галилейской») и контекстуального чтения с учетом православной традиции старчества.

Дополнительно привлечены вторичные источники: работы Н. Лосского о миропонимании Достоевского [1; 4], исследования Т. Касаткиной о священном в повседневном и литургических цитатах [5; 6], а также анализ М. М. Бахтина проблем творчества Достоевского [7]. Анализ проводился качественно, с фокусом на тематические связи, символику и эволюцию персонажей.

Результаты

Православная традиция старчества и идеал русского инока

Образ старца Зосимы воплощает идеал русского инока, чье служение нацелено на преображение человека [2]. Институт старчества предполагает добровольное отречение от собственной воли, когда ученик вручает свою душу и волю старцу, надеясь через долгое послушание достичь совершенной свободы от самого себя. Старец Зосима, к которому Алеша привязался «всею горячею первою любовью», является для послушника воплощением этого идеала, предлагая путь деятельной любви.

Однако, несмотря на духовную высоту, в отношениях Алеши со старцем сразу обнаруживается опасный перекос. Алексей Карамазов, «ранний человеколюбец», не фанатик и не мистик, тем не менее, склонен к идеализации своего наставника. Он

убежден, что «в реалисте вера не от чуда рождается, а чудо от веры» [3]. При этом его вера оказывается сосредоточена на личности Зосимы: «тут во всем этом и прежде всего, на первом месте, стояло пред ним лицо, и только лицо, – лицо возлюбленного старца его, лицо того праведника, которого он до такого обожания чтил». Алеша подменяет веру в Бога верой в старца: он верит в «силу и славу» Зосимы, которая становится для него почти божественной. Утрата старца воспринимается Алешей как личная катастрофа.

Опасность подмены Божественного авторитета: Великий инквизитор

Проблема смешения Божественного и человеческого авторитета, а также опасности «заслонения» Бога человеком, наиболее остро ставится в фигуре Великого инквизитора. Этот образ, представленный в поэме Ивана Карамазова, является антитезой истинному наставничеству и воплощает искажение христианства [4]. Великий инквизитор, будучи по сути атеистом, искушает человечество, отказываясь от идеала свободы, который Христос принес миру. Инквизитор и его последователи предлагают людям земное благополучие («хлебы») и принудительное единство («едино стадо и един пастырь»), в обмен на их свободу и волю.

Иван Карамазов описывает его как трагического страдальца, который «всю жизнь свою убил на подвиг в пустыне и не излечился от любви к человечеству». Однако в своей деятельности Великий инквизитор подменяет Божественное водительство собственным человеческим авторитетом, утверждая, что лишь «страшный и умный дух, дух самоуничтожения и небытия» (то есть сатана) указал верный путь к счастью. В его системе Бог заслоняется человеком, который берет на себя бремя управления «слабыми, жалкими существами». По сути, Великий инквизитор и его идея – это «третье диаволово искушение», стремление к земной власти и порабощению.

Путь Алеши: утрата земного учителя и обретение свободной веры

Алеша, следуя за Зосимой, а не за Христом, ища опору в человеке, а не в вере, переживает глубокий кризис, когда человеческий авторитет рушится. После смерти Зосимы, вопреки ожиданиям Алеши и других монахов, не происходит чудес, а напротив, исходит «тлетворный дух». Алеша, ожидавший «великой славы» и чудес, воспринимает это как нарушение «высшей справедливости» и «позор». Он чувствует, что «Провидение и перст его» сокрылись в «самую нужную минуту». В этот момент его вера поколеблена, что проявляется в его признании: «А я в бога-то вот, может быть, и не верую».

Однако, согласно исследованию, «тлетворный дух» является не случайностью, а сознательным «поступком» Зосимы [5]. Старец своей «позорной» смертью, отступая перед «слепыми, немыми, безжалостными законами естественными», добровольно разрушает собственный культ, который стал преградой между учеником и Богом. Зосима сознательно устранил себя как «единственно чтимое существо», чтобы вернуть Алеше свободу.

Кризис приводит Алешу к переломному моменту, где он преодолевает духовную зависимость от личности старца. Его путь к зрелой вере пролегает через чудесное видение «Каны Галилейской». В этом видении он не только обретает радость и уверенность в воскресении, но и понимает, что его прежняя исключительная любовь к старцу («до забвения всех и вся») была «неправильно» сосредоточена на одном человеке [6]. После этого преображения он выходит в мир («в мир посылает»), чтобы нести деятельную любовь и служение, признавая, что «всех и за все» надо прощать и любить, включая самого себя.

Заключение

Таким образом, истинное духовное наставничество, согласно роману, возможно лишь как указание на Бога, а не подмена Его человеческой харизмой [7]. Путь Алеши показывает, что зрелая вера требует личной, свободной, не опосредованной человеческой славой, связи со Христом, раскрывающейся через соприкосновение с реальностью.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Лосский Н. Достоевский и его миропонимание. / Н. Лосский. – Нью-Йорк: Издательство имени Чехова, 1953. 14 с.
2. Достоевский Ф. М. Полное собрание сочинений: в 30 т. Т. 14. Братья Карамазовы. Книги I–X / Ф. М. Достоевский; Гл. ред. Г. М. Фридлендер. – Л.: Наука, 1976. 260 с.
3. Достоевский Ф. М. Полное собрание сочинений: в 30 т. Т. 15. Братья Карамазовы. Книги XI–XII. Эпилог. Рукописные редакции / Ф. М. Достоевский; Гл. ред. Г. М. Фридлендер. – Л.: Наука, 1976. 415 с.
4. Лосский Н. Достоевский и его христианское миропонимание / Н. Лосский. – Нью-Йорк: Изд-во имени Чехова, 1953. 360 с.
5. Касаткина Т. Священное в повседневном: Двусоставный образ в произведениях Ф. М. Достоевского / Т. Касаткина. – Москва: ИМЛИ РАН, 2015. 152 с.
6. Касаткина Т. Литургическая цитата в «Братьях Карамазовых» / Т. Касаткина. – Москва: ИМЛИ РАН, 2015. 16 с.
7. Бахтин М. М. Проблемы творчества Достоевского. 5-ое изд., доп. – Киев, «NEXT», 1994. 306 с.

Muhammadali YANDASHALIYEV,
Student Foreign language and literature
University of exact and social sciences
E-mail address: yandashaliyevmuhammadali@gmail.com

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE STYLISTIC DEVICE OF ANADIPLOSIS IN COMPOUND SENTENCES OF LANGUAGES WITH DIFFERENT SYSTEMS

Annotation: this study presents a comparative analysis of the stylistic device of anadiplosis in compound sentences across languages with different grammatical systems. Anadiplosis, characterized by the repetition of the last word or phrase of one clause at the beginning of the next, functions as a mechanism for emphasizing key concepts, creating textual cohesion, and enhancing rhetorical impact. The research examines its occurrence, structural patterns, and semantic functions in both analytic and synthetic languages, highlighting how grammatical typology influences the realization and stylistic effect of the device. The findings indicate that while the core purpose of anadiplosis linking ideas and reinforcing meaning is consistent across languages, its formal implementation varies according to syntactic flexibility, morphological features, and literary conventions.

Key words: *Anadiplosis, repetition in discourse, stylistic analysis, and compound sentence structures, cross-linguistic comparison, analytic vs. synthetic languages, rhetorical devices, textual cohesion, and comparative stylistics.*

Аннотация: в данном исследовании представлен сравнительный анализ стилистического приёма анадиплосиса в сложных предложениях языков с различными грамматическими системами. Анадиплосис, характеризующийся повторением последнего слова или словосочетания одного компонента в начале следующего, функционирует как средство акцентирования ключевых понятий, обеспечения текстовой связности и усиления риторического воздействия. В работе рассматриваются частотность употребления, структурные модели и семантические функции данного приёма в аналитических и синтетических языках, а также показано, каким образом грамматическая типология влияет на его реализацию и стилистический эффект. Полученные результаты свидетельствуют о том, что при сохранении основной функции анадиплосиса связывания идей и усиления смысла его формальное воплощение варьируется в зависимости от синтаксической гибкости, морфологических особенностей и литературных традиций.

Ключевые слова: *Анадиплосис, повтор в дискурсе, стилистический анализ, структуры сложного предложения, межъязыковое сопоставление, аналитические и синтетические языки, риторические приёмы, текстовая связность, сравнительная стилистика.*

Annotatsiya: mazkur tadqiqot turli grammatik tizimlarga ega tillarda qo‘shma gaplar tarkibida anadiplosis stilistik vositasining qiyosiy tahlilini taqdim etadi. Anadiplosis, bir bo‘lakning oxirgi so‘zi yoki iborasining keyingi bo‘lak boshida takrorlanishi bilan tavsiflanib, asosiy tushunchalarni ta’kidlash, matn yaxlitligini ta’minlash va ritorik ta’sirni kuchaytirish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotda ushbu vositaning analitik va sintetik tillardagi qo‘llanishi, strukturaviy modellari hamda semantik funksiyalari o‘rganilib, grammatik tipologiyaning stilistik vositaning amalga oshish shakli va ta’siriga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, anadiplosisning asosiy vazifasi g‘oyalarni bog‘lash va ma’noni mustahkamlash tillararo miqyosda barqaror bo‘lsada, uning formal ifodalanishi sintaktik moslashuvchanlik, morfologik xususiyatlar va adabiy an’analarga bog‘liq holda farqlanadi.

Kalit so‘zlar: *Anadiplosis, nutqda takror, stilistik tahlil, qo‘shma gap tuzilmalari, tillararo qiyos, analitik va sintetik tillar, ritorik vositalar, matn yaxlitligi, qiyosiy stilistika.*

Introduction

Stylistic devices are essential tools in shaping the expressive and persuasive power of language, influencing not only the aesthetic quality of texts but also their clarity and cohesion. Among these devices, anadiplosis the repetition of the last word or phrase of one clause at the beginning of the next stands out for its ability to link ideas, create rhythm, and emphasize key concepts within discourse. While anadiplosis has been extensively examined in the context of individual languages, a comparative analysis across languages with different grammatical and syntactic systems provides a deeper understanding of how language structure interacts with stylistic function. The use of anadiplosis in compound sentences is particularly significant. Compound sentences, consisting of two or more independent clauses, present unique opportunities for stylistic enhancement because they allow repeated elements to establish logical, semantic, and rhetorical connections between ideas. In this context, anadiplosis does not simply function as a decorative repetition; it serves as a structural and semantic bridge, guiding readers or listeners through complex sequences of thought. By reinforcing key words and concepts, it contributes to textual cohesion, emphasizes thematic continuity, and strengthens the persuasive or literary impact of a sentence. Languages differ considerably in their structural and morphological characteristics, which in turn affect how stylistic devices like anadiplosis are employed. Analytic languages, such as English, rely heavily on word order, auxiliary words, and fixed

syntactic structures, making the repetition of lexical elements a straightforward and highly effective tool for creating cohesion and emphasis. In contrast, synthetic or agglutinative languages, such as Russian or Uzbek, use inflection, case marking, and verbal agreement to encode relationships between clauses.

Main Part

Anadiplosis is a rhetorical and stylistic device that involves repeating the last word or phrase of one clause at the beginning of the next. Its primary functions include creating cohesion, emphasizing critical concepts, and establishing a rhythmic flow within a text. In compound sentences, anadiplosis strengthens the semantic link between clauses, transforming a simple syntactic connection into a stylistically charged sequence. By repeating key terms, writers and speakers can guide their audience's attention, enhance the logical progression of ideas, and intensify the emotional or persuasive impact of discourse. The significance of anadiplosis extends across genres. In literary works, it contributes to narrative tension and thematic continuity; in political speeches, it emphasizes central arguments; and in educational or scientific writing, it clarifies complex reasoning. Its versatility makes it a prominent device in both written and spoken communication, allowing for the seamless integration of stylistic artistry and conceptual precision. Analytic languages, such as English, rely primarily on word order and auxiliary words to convey grammatical relationships. This structural simplicity allows anadiplosis to function in a straightforward yet highly effective manner. In English, the repeated element is typically maintained in its lexical form, appearing at the beginning of the subsequent clause to create emphasis and semantic continuity: *"Success breeds confidence. Confidence leads to achievement".*

Here, "confidence" serves as a bridge between the clauses, linking ideas and reinforcing the central theme. The analytic structure allows flexibility in sentence construction while ensuring that the repetition remains clear and rhetorically impactful. English writers often use anadiplosis to enhance logical progression, persuasion, or narrative rhythm, exploiting the predictable syntactic patterns of the language.

In addition, English permits the use of extended or multi-word anadiplosis, in which entire phrases are repeated to amplify stylistic effect: *"The war brought destruction. Destruction of cities and lives followed swiftly".*

This flexibility underscores the role of anadiplosis in creating emphasis and textual cohesion in analytic languages.

In contrast, synthetic or agglutinative languages such as Russian or Uzbek encode grammatical relationships through inflection, agreement, and case marking. Consequently, anadiplosis in these languages requires careful consideration of morphological forms to maintain grammatical accuracy while preserving stylistic intent. A repeated element may undergo inflectional or derivational changes depending on its syntactic role:

- Russian: *"Он видел путь, путь, который вел его к цели."*(*"He saw the path, the path that led him to his goal."*)
- Uzbek: *"Bilim – kuch, kuch esa odamni yuksaltiradi".* (*"Knowledge is power, and power elevates a person".*) - In these examples, while the lexical item is repeated, it is adapted to fit the grammatical structure of the second clause. This shows that synthetic languages may require morphological modifications to the repeated element, but the semantic continuity and stylistic effect remain intact.

Conclusion

The comparative analysis of anadiplosis in compound sentences across languages with different grammatical systems demonstrates that stylistic devices are both universal in function and language-specific in realization. Anadiplosis serves key purposes in creating cohesion, emphasis, and logical progression, linking ideas across clauses and enhancing the rhetorical and aesthetic impact of discourse. In analytic languages, such as English, the device is employed flexibly, relying on word order and direct lexical repetition to achieve stylistic effect. In synthetic or agglutinative languages, including Russian and Uzbek, morphological inflections and agreement markers require careful adaptation of repeated elements, yet the device maintains its role in reinforcing meaning and guiding the reader or listener through the text. The study shows that while anadiplosis fulfills similar semantic and rhetorical functions across languages, the frequency, structural implementation, and stylistic prominence of the device are influenced by each language's typological characteristics, literary traditions, and cultural conventions.

References:

1. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press.
2. Leech, G., & Short, M. (2007). Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. – London: Longman.
3. Simpson, P. (2004). Stylistics: A Resource Book for Students. – London: Routledge.
4. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. M. I. M. (2014). Halliday's Introduction to Functional Grammar. – London: Routledge.
5. Van Dijk, T. A. (2008). Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. Cambridge: – Cambridge University Press.
6. Soboleva, O. N. (2010). Rhetorical Figures in Russian Literature. – Moscow: Nauka.
7. Gvozdev, A. I. (2001). Stylistics and Textual Cohesion. St. – Petersburg: Lan.

Muqaddas SOLIYEVA,
Student Bukhara state pedagogical institute
Email: nurnazarovna08@gmail.com

THE INFLUENCE OF SOCIAL MEDIA ON ENGLISH LANGUAGE ACQUISITION

